4- Brush, C. G., Greene, P. G., & Hart, M. M. (2001). From initial idea to unique advantage: The entrepreneurial challenge of constructing a resource base. Academy of Management Perspectives, 15(1), 64-78.
5- Chatterjee, S., & Kar, A. K. (2020). Why do small and medium enterprises use social media marketing and what is the impact: Empirical insights from India. International Journal of Information Management, 50, 135-149.
6- Djankov, S., La Porta, R., Lopez-de-Silanes, F., & Shleifer, A. (2002). The regulation of entry. Quarterly Journal of Economics, 117(1), 1-37.
7- Gilmore, A., Carson, D., & Grant, K. (2001). SME marketing in practice. Marketing Intelligence & Planning, 19(1), 6-11.

Ushbu jadvaldagi ko'rsatkichlar kichik biznes sohasining kelajakdagi iqtisodiy faolligini va uning iqtisodiyotdagi muhim rol o'ynashini prognoz qiladi. Kichik biznesning har tomonlama o'sishi mamlakat iqtisodiyotining diversifikatsiyasi va barqarorligini ta'minlashda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Kichik bizneslarning mintaqaviy iqtisodiyotga ta'sirini ham unutmaslik lozim. Kichik korxonalar ko'pincha mahalliy resurslardan foydalangan holda o'z faoliyatini amalga oshiradi. Bu esa mintaqaviy iqtisodiyotning rivojlanishiga yordam beradi, ichki bozorda tovar va xizmatlar aylanishini kuchaytiradi va mahalliy resurslarni samarali ishlatish imkonini beradi.

Shuningdek, kichik bizneslarning soliq to'lovlari orqali davlat byudjetiga qo'shgan hissasini ham qayd etish lozim. Kichik korxonalar ko'p sonli bo'lganligi sababli, ular davlatga soliq to'lashda muhim rol o'ynaydi. Bu mablag'lar esa o'z navbatida davlatning ijtimoiy va iqtisodiy loyihalarini moliyalashtirishda qo'llaniladi.

Kichik biznes rivojlanishi uchun qo'llab-quvvatlash va imtiyozli shart-sharoitlar yaratish zarur. Davlat va moliya institutlari tomonidan beriladigan imtiyozlar, kreditlar va grantlar kichik korxonalar uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bu esa, o'z navbatida, kichik biznesning rivojlanishiga turtki beradi va iqtisodiyotning barqarorligini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznesning iqtisodiy rivojlanishdagi ta'siri nihoyatda katta va ko'p qirrali. U ish o'rinlarini yaratish, innovatsiya va raqobatni kuchaytirish, mintaqaviy iqtisodiyotni rivojlantirish va davlat byudjetiga soliq tushumlarini oshirish orqali iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va uning rivojlanishiga yordam berish davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo'lishi lozim.

8- Greiner, L. E. (1972). Evolution and revolution as organizations grow. Harvard Business Review, 50(4), 37-46.
9- Mills, K. G., & McCarthy, B. Y. (2014). The State of Small Business Lending: Credit Access During the Recovery and How Technology May Change the Game. Harvard Business School.
10- Penrose, E. (1959). The Theory of the Growth of the Firm. Oxford: Blackwell.
11- Porter, M. E. (1980). Competitive Strategy: Techniques for Analyzing Industries and Competitors. New York: Free Press.
12- Powell, W. W., & Grodal, S. (2005). Networks of innovators. In J. Fagerberg, D. C. Mowery, & R. R. Nelson (Eds.), The Oxford Handbook of Innovation (pp. 56-85). Oxford: Oxford University Press.
13- Robb, A. M., & Robinson, D. T. (2014). The capital structure decisions of new firms. Review of Financial Studies, 27(1), 153-179.
14- Rashidov, Rahmatullo, A'lojonovich. (2023). The need for government regulation of small business. International Journal Of Management And Economics Fundamental, 03(01):13-20. doi: 10.37547/ijmef/volume03issue01-02



O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOT ASOSIDA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI

Abdullajonov Davronjon -

Qo'qon universitetining Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi

abdavron94@gmail.com.

+998907857557

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 3 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1183 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyot asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan. Maqolada yashil iqtisodiyot tushunchasi, uning O'zbekiston iqtisodiyotidagi o'rnini, mamlakatda bu yo'nalishdagi qabul qilingan me'yoriy-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Shuningdek, O'zbekistonda yashil tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlari, innovatsion usullari va raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. Olib borilgan tadqiqotlar natijasida yashil tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.
qayta tiklanadigan energiya, organik qishloq xo'jaligi, ekologik turizm, barqaror rivojlanish, raqamli texnologiyalar, innovatsion rivojlanish, ekologik sertifikatlash.	

Kirish. Bugungi kunda dunyo hamjamiyati oldida turgan eng muhim muammolardan biri — global iqlim o'zgarishi va ekologik muammolarning tobora keskinlashib borayotganidir. Shu sababli, ko'plab mamlakatlar "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini o'z iqtisodiy siyosatlarining asosiy ustuvor yo'nalishlariga aylantirmoqda. O'zbekiston ham ushbu global tendensiyalardan chetda qolmagan holda, 2019-2030 yillar uchun "Yashil iqtisodiyotga o'tish" strategiyasini qabul qildi¹ va bu orqali mamlakatda yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Yashil iqtisodiyot — bu iqtisodiy o'sish, atrof-muhit barqarorligi va ijtimoiy farovonlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashga qaratilgan iqtisodiy modeldir. Bu model tabiiy resurslarni tejash, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish, chiqindilarni kamaytirish va qayta ishlash, shuningdek, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishni o'z ichiga oladi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi mamlakatning iqtisodiy o'sishida muhim rol o'ynaydi. Shu bois, yashil iqtisodiyot prinsiplariga asoslangan tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish nafaqat ekologik vaziyatni yaxshilash, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy o'sishni ta'minlash va aholi turmush darajasini oshirish uchun ham katta ahamiyatga ega.

Ushbu maqolada O'zbekistonda yashil iqtisodiyot asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish istiqbollari, uning samaradorligini oshirish yo'llari tahlil qilinadi va tegishli tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy dunyoda iqtisodiy rivojlanish va ekologik barqarorlik o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash muhim masala bo'lib qolmoqda. Yashil iqtisodiyot kontsepsiyasi bu muammoni hal qilishning samarali yo'li sifatida e'tirof etilmoqda. O'zbekiston Respublikasida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yashil iqtisodiyot tamoyillarini asosida rivojlantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu adabiyotlar tahlilida mahalliy va xorijiy olimlarning mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni o'rganish va nazariy asoslarni aniqlashga qaratilgan.

Xususan, Karimov.I.A o'zining tadqiqotida O'zbekistonda yashil iqtisodiyot tamoyillarini joriy etishning asosiy yo'nalishlarini belgilagan. Muallif kichik biznes sub'ektlarining ekologik texnologiyalarni qo'llashiga to'sqinlik qiluvchi asosiy omillarni tahlil qilgan. Tadqiqotda davlat tomonidan beriladigan subsidiyalar va imtiyozlarning samarasizligi, biznes muhitida ekologik ongning past darajasi hamda malakali kadrlar tanqisligi asosiy muammolar sifatida ko'rsatilgan.

Yusupova.M.T o'z ishida kichik tadbirkorlik sub'ektlarida yashil texnologiyalarni joriy etishning moliyaviy mexanizmlarini chuqur tahlil qilgan. Muallif xususan mikromoliyalashtirish institutlarining rolini, yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun maxsus fondlar yaratish zarurligini ta'kidlagan. Tadqiqotda O'zbekiston sharoitida qo'llanishi mumkin bo'lgan turli moliyalashtirish vositalarining samaradorligi baholangan.

Qolaversa, Abdullayev R.T o'zining tadqiqotida qishloq xo'jaligi sektorida faoliyat yurituvchi kichik biznes sub'ektlarining yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash imkoniyatlarini o'rgangan. Tadqiqotda organik mahsulot ishlab chiqarish, suv tejamkor texnologiyalardan foydalanish, qayta tiklanadigan energiya manbalarini joriy etish masalalari batafsil tahlil qilingan. Muallif bu sohada muvaffaqiyatli loyihalar amalga oshirish uchun davlat va xalqaro tashkilotlar ko'magi muhimligini ta'kidlagan. Toshmatova G.A gender nuqtai nazaridan yashil biznesni rivojlantirish masalalarini o'rgangan. Tadqiqotda xotin-qizlarning kichik biznesda faol ishtirok etishining ekologik va iqtisodiy samarasini baholagan. Muallif ayollar tomonidan boshqariladigan yashil biznes loyihalarining muvaffaqiyat darajasi yuqoriligini va bunday loyihalarni qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatgan.

Xorijiy mualliflarning tadqiqotlaridan Porter M.E va van der Linde C o'zlarining fundamental ishida ekologiya va raqobatbardoshlik o'rtasidagi munosabatlarning yangi kontsepsiyasini taklif etgan. Mualliflar "Porter gipotezasi"ni ilgari surib, to'g'ri ishlab chiqilgan ekologik standartlar innovatsiyalarni rag'batlantirishi va natijada iqtisodiy samaradorlikni oshirishi mumkinligini isbotlagan. Bu nazariya kichik biznes uchun yashil texnologiyalar joriy etishning iqtisodiy asoslanganligini ko'rsatdi. Hart S.L o'zining ta'sirli ishida korporativ strategiyaning tabiiy resurslar asosidagi ko'rinishini ishlab chiqqan. Muallif kompaniyalarning uzoq muddatli raqobat ustunligini ta'minlash uchun ekologik samaradorlik, ifloslanishni oldini olish va barqaror rivojlanish strategiyalarini qo'llash zarurligini asoslab bergan. Bu yondashuv kichik biznes sub'ektlari uchun ham qo'llanishi mumkin.

Schaltegger S va Wagner M barqaror tadbirkorlik va barqarorlik innovatsiyalari masalalarini chuqur o'rgangan. Mualliflar yashil biznesda muvaffaqiyat qozonish uchun innovatsion yondashuvning muhimligini ta'kidlagan. Tadqiqotda barqaror tadbirkorlikning turli shakllari tahlil qilingan va kichik biznes uchun amaliy tavsiyalar berilgan.

Klewitz J va Hansen E.G kichik va o'rta biznes korxonalarida barqarorlikka yo'naltirilgan innovatsiyalar masalasini tadqiq qilgan. Mualliflar K.O.B larning yashil innovatsiyalarni joriy etishda duch keladigan asosiy qiyinchiliklarni aniqlagan va ularni bartaraf etish

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori.

yo'llarini taklif qilgan. Ishda texnologik, tashkiliy va bozor innovatsiyalarining o'zaro ta'siri ko'rsatilgan.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, yashil iqtisodiyot asosida kichik biznesni rivojlantirish masalasi ham mahalliy, ham xorijiy tadqiqotchilarda katta qiziqish uyg'otmoqda. Mahalliy mualliflar asosan O'zbekiston sharoitidagi konkret muammolar va ularning yechimlariga e'tibor qaratgan, xorijiy tadqiqotchilar esa nazariy asoslar va xalqaro tajribani o'rganishga ko'proq e'tibor bergan. O'zbekistonda yashil iqtisodiyot asosida kichik biznesni rivojlantirish katta imkoniyatlarga ega, ammo buning uchun kompleks yondashuv, davlat qo'llab-quvvatlashi va barcha manfaatdor tomonlarning birgalikdagi sa'y-harakatlari talab etiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning metodologik asosi kompleks yondashuvga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida ikkilamchi ma'lumotlar tahlili usuli qo'llanilgan bo'lib, mahalliy va xorijiy mualliflarning ilmiy ishlarini o'rganish orqali mavzu bo'yicha nazariy asoslar shakllantirish maqsad qilingan. Tadqiqot metodologiyasi uch bosqichdan iborat: taqoslama tahlil, SWOT tahlili va xulosalar

chiqarishdir. SWOT tahlili ko'rsatadiki, kuchli tomonlar va imkoniyatlardan foydalanib, zaif tomonlar va tahdidlarni bartaraf etishdir.

Tadqiqot natijalari. Yashil tadbirkorlik atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan yoki minimal ta'sir ko'rsatadigan, shuningdek ekologik muammolarning yechimiga qaratilgan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish orqali foyda olishga yo'naltirilgan tadbirkorlik faoliyatidir. Yashil tadbirkorlik klassik tadbirkorlikdan farqli o'laroq, o'z faoliyatida iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy maqsadlarning uyg'unligini ta'minlashga harakat qiladi.

Yashil iqtisodiyot ko'p qirrali tushuncha bo'lib, uning doirasida tadbirkorlik faoliyatini turli yo'nalishlarda olib borish mumkin. O'zbekiston sharoitida yashil tadbirkorlikning qaysi yo'nalishlari ustuvor ahamiyatga ega va ularda qanday imkoniyatlar mavjud? Ushbu bo'limda mamlakatning tabiiy-iqlimiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik xususiyatlarini hisobga olgan holda, yashil tadbirkorlikni rivojlantirishning eng istiqbolli yo'nalishlari va ularning rivojlanish tendensiyalari tahlil qilingan.

1-jadval.

O'zbekistonda yashil tadbirkorlikni rivojlantirishning kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlari va tahdidlarini aniqlash maqsadida SWOT tahlil o'tkazildi.

Kuchli tomonlar (Strengths)	Zaif tomonlar (Weaknesses)
Yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo'yicha davlat strategiyasining mavjudligi Mamlakatda qayta tiklanuvchi energiya manbalarining (quyosh, shamol) katta potentsiali Yashil loyihalarni moliyalashtirish uchun xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llab-quvvatlash Aholi sonining o'sishi natijasida yashil mahsulot va xizmatlarga talabning ortishi Ekologik vaziyatni yaxshilash zarurati jamiyatda angliyanayotganligi	Yashil tadbirkorlik bo'yicha me'yoriy-huquqiy bazaning mukammal emasligi Yashil texnologiyalarni joriy etish bo'yicha mutaxassislarining yetishmasligi Yashil tadbirkorlik sohasida investitsiyalarning kamligi Yashil texnologiyalar narxining yuqoriligi Yashil tadbirkorlikni moliyalashtirish mexanizmlarining rivojlanmaganligi Aholining ekologik madaniyati darajasining pastligi
Imkoniyatlar (Opportunities)	Tahdidlar (Threats)
Xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni kengaytirish Yashil texnologiyalarni import qilish uchun bojxona preferentsiyalarining joriy etilishi Yashil mahsulotlarga talabning global miqyosda o'sishi Xalqaro "yashil" fondlarning mablag'larini jalb qilish Innovatsion yashil loyihalarni rivojlantirish imkoniyatlari Raqamli texnologiyalarning yashil tadbirkorlikka integratsiyalashuvi	Iqtisodiy noqulayliklar va inqirozlar tufayli yashil loyihalarning moliyalashtirishining qisqarishi An'anaviy texnologiyalarga nisbatan yashil texnologiyalarning raqobatbardoshligi pastligi Iqlim o'zgarishining salbiy ta'sirlari Xalqaro siyosiy vaziyatning noqulayligi Xususiy sektorning yashil loyihalarni moliyalashtirishga qiziqishining pastligi

SWOT tahlili natijalariga ko'ra, O'zbekistonda yashil tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha quyidagi xulosa va tavsiyalarni taqdim etish mumkin:

O'zbekiston yashil tadbirkorlikni rivojlantirish uchun muhim potentsiallarga ega, ayniqsa qayta tiklanuvchi energiya manbalari va davlat tomonidan qabul qilingan strategiyalar bu yo'nalishni qo'llab-quvvatlaydi. Biroq, moliyaviy resurslarning cheklanganligi, mutaxassislar yetishmasligi va me'yoriy-huquqiy bazaning mukammal emasligi kabi muammolar mavjud. O'zbekistonda yashil tadbirkorlik

katta rivojlanish potentsialiga ega, lekin bu potentsialdan to'liq foydalanish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlik, institutsional asoslarni takomillashtirish, kadrlar salohiyatini oshirish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish zarur. Shu bilan birga, xalqaro hamjamiyat bilan hamkorlik orqali zamonaviy yashil texnologiyalarni joriy etish va global tajribalardan foydalanish O'zbekistonda yashil tadbirkorlikni barqaror rivojlantirishga yordam beradi.

2-jadval.

O'zbekistonda yashil tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadlariga erishish ko'rsatkichlari.

KO'RSATKICHLAR	2025 yil	2030 yil
Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining umumiy elektr energiyasidagi ulushi	25%	40%
Yashil tadbirkorlik sub'ektlari soni	2000	5000
Yashil texnologiyalar uchun jalb qilingan investitsiyalar hajmi (mln AQSH dollari)	500	1200
Yashil kreditlar ulushi (umumiy kredit portfelida)	10%	25%
Chiqindilarni qayta ishlash darajasi	40%	65%
Yashil tadbirkorlik sohasida bandlik (ming kishi)	75	200

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlar O'zbekistonning 2025-2030 yillar oralig'ida yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha keng qamrovli strategiyasini aks ettiradi.

Energetika transformatsiyasi mamlakatning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Qayta tiklanuvchi energiya manbalarining ulushini ikki baravar oshirish orqali energiya mustaqilligi va ekologik barqarorlik ta'minlanishi ko'zda tutilgan. Bu yo'nalish milliy

energiya xavfsizligini mustahkamlash bilan birga, xalqaro ekologik majburiyatlarni bajarish maqsadini ham ko'zlaydi.

Tadbirkorlik faoliyatining yashil sektorga yo'naltirilishi iqtisodiy tuzilmani tubdan o'zgartirishga qaratilgan. Yashil biznes sub'ektlarining soni va ular uchun mo'ljallangan investitsiyalar hajmining keskin o'sishi, davlat va xususiy sektor hamkorligining kuchayishini anglatadi. Bu jarayon innovatsion texnologiyalarning joriy etilishi va raqobatbardosh yashil mahsulotlar ishlab chiqarishga imkon yaratadi.

Moliyaviy tizimning yashil yo'nalishda qayta tashkil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bank kreditlarining muhim qismini yashil loyihalarga yo'naltirish orqali moliyaviy institutlarning barqaror rivojlanishdagi roli kuchaytiriladi.

Chiqindilarni qayta ishlash tizimining takomillashtirilishi va bandlik darajasining oshirilishi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning muhim omillari hisoblanadi. Bu ko'rsatkichlar aholining turmush sifatini yaxshilash va yangi kasb-hunar yo'nalishlarini rivojlantirish imkoniyatlarini yaratadi.

Umuman olganda, ushbu strategiya O'zbekistonning zamonaviy global tendentsiyalarga moslashish va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish yo'lidagi jiddiy qadamlarini ifodalaydi. Ushbu ko'rsatkichlarga erishish uchun davlat va xususiy sektor o'rtasida samarali hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Xulosa va takliflar.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yashil tadbirkorlik barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. U ekologik muammolarni hal etish, resurslardan samarali foydalanish, iqlim o'zgarishiga moslashish, yangi ish o'rinlarini yaratish va innovatsion rivojlanishni ta'minlashga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. UNEP (2023) "Green Entrepreneurship and Sustainable Growth: Global Perspectives", United Nations Environment Programme Report.
2. Abdullajonov, D., & Aliqulov, A. (2025). BARQAROR IQTISODIY O'SISH OMILI SIFATIDA SHAHARSOZLIK VA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSION STRATEGIYALAR. University Research Base, 115-121.
3. Thompson N., Kiefer K., York J.G. (2022) "Distinctions not dichotomies: Exploring social, sustainable, and environmental entrepreneurship", *Advances in Entrepreneurship, Firm Emergence and Growth*, Vol. 13, pp. 201-229.
4. Abdullajonov, D., & Bahodirova, R. (2025). FACTORS INFLUENCING THE INNOVATIVE ACTIVITIES OF INDUSTRIAL ENTERPRISES. TA'LIM, TARBIYA VA INNOVATSIYALAR JURNALI, 1(3), 49-53.
5. Abdullajonov, D. (2021). RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI YANGI O'ZBEKISTONNING IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISH, RAQAMLI IQTISODIYOTNING ISTIQBOLLARI. Экономика и социум, (12-1 (91)), 28-33.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 4 oktabrdagi "2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4477-son qarori.

O'zbekistonda yashil tadbirkorlikni rivojlantirish uchun sezilarli potentsial mavjud bo'lib, ayniqsa qayta tiklanuvchi energetika, organik qishloq xo'jaligi, ekoturizm, chiqindilarni qayta ishlash kabi yo'nalishlar istiqbolli hisoblanadi. Lekin mavjud muammolar, jumladan moliyaviy resurslarning cheklanganligi, yashil texnologiyalarning narxi yuqoriligi, mutaxassislarning yetishmasligi va me'yoriy-huquqiy bazaning mukammal emasligi yashil tadbirkorlikning rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Yashil tadbirkorlikni rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash uchun quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- ✓ Me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish:
- ✓ Iqtisodiy rag'batlantirish mexanizmlarini joriy etish:
- ✓ Yashil innovatsiyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash:
- ✓ Yashil tadbirkorlik sohasida kadrlar tayyorlash:
- ✓ Yashil tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish:
- ✓ Xalqaro hamkorlikni kuchaytirish:

Yuqoridagi taklif va tavsiyalarning amalga oshirilishi O'zbekistonda yashil tadbirkorlikning rivojlanishiga, ekologik barqarorlikka va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishga erishishga muhim hissa qo'shadi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimizning global "yashil iqtisodiyot" tendentsiyalaridan foydalanishi va raqobatbardoshligini oshirishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi.

7. Xudoberganov, Q. (2024). QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH ORQALI MILLIY IQTISODIYOTNING BARQARORLIGINI OSHIRISH. University Research Base, 355-360.
8. Xudoberganov, Q. (2024). KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA HUKUMATNING SOHA RIVOJIGA OID CHORA-TADBIRLARI. University Research Base, 352-354.
9. Otto, M., & Thornton, J. (2024). THE IMPACT OF SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURIAL ENTITIES ON THE COUNTRY'S EXPORT AND IMPORT. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 12, 77-81.
10. Abdullajonov, D., & Mamatkhonova, M. (2025). THE ROLE OF INNOVATIONS AND INVESTMENTS IN THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT OF ENTREPRENEURS IN UZBEKISTAN. *Modern Scientific Research International Scientific Journal*, 3(2), 94-97.
11. World Bank. (2022) "Inclusive Green Growth: The Pathway to Sustainable Development", Washington, DC: World Bank.
12. Sperling K., Arler F., Hvelplund F. (2022) "Public acceptance of renewable energy sources in Denmark", *Energy Policy*, Vol. 155.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 iyuldagi "Iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohaning energiya samaradorligini oshirish, energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish va qayta tiklanuvchi energiya manbalarini rivojlantirishning tezkor chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6247-son Farmoni.



СУВЕРЕННЫЕ ФОНДЫ ГОСУДАРСТВ И КАК ОНИ ВЛИЯЮТ НА ЭКОНОМИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ СТРАНЫ В ПРИМЕРЕ УЗБЕКИСТАНА И КАЗАХСТАНА

Х.Гафуров

Преподаватель Кокандского Университета

x.gafurov@kokanduni.uz

Рахмонова Шахло Шавкатовна

Студенка Кокандского Университета

sahlor03@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	АННОТАЦИЯ
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 4 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1184	В данной статье рассматривается влияние суверенных фондов на экономическое развитие стран, на примере Узбекистана и Казахстана. В статье проводится сравнительный анализ динамики ВВП, структуры инвестиций, а также выявляются различия в примере двух стран к использованию фондов. Также рассматриваются мнения различных исследователей и выделяются основные проблемы и риски, такие как зависимость от цен на нефть, коррупция и недостаток прозрачности. Работа показывает, что при грамотном управлении суверенные фонды способны значительно способствовать устойчивому экономическому росту и модернизации страны.
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	
Суверенные фонды, экономическое развитие, инвестиции, Фонд реконструкции и развития, ВВП, инфраструктура, государственные инвестиции, финансовая устойчивость.	

Введение. Фонд в экономике- это основные фонды (основные средства) нефинансовые произведенные активы (часть имущества), используемые организацией неоднократно или постоянно в течение длительного времени (более 12 месяцев) при производстве продукции (выполнении работ, оказании услуг), а также в управленческих целях.

Суверенные фонды – это инвестиционные фонды, которые создают правительства ряда стран для того, чтобы их активы использовать в долгосрочных целях. К таким фондам относят инвестиционные фонды, резервные фонды, фонды национального благосостояния. Страны создают эти фонды для стабилизации своей экономики, роста национального богатства и получения долгосрочной финансовой прибыли.

Экономическое развитие Узбекистана и Казахстана После обретения независимости в 1991 году Узбекистан столкнулся с серьёзными экономическими трудностями. Впервые годы страна придерживалась политики изоляции и централизованного контроля. Однако с середины 1990-х годов начались реформы по либерализации экономики и привлечению иностранных инвестиций. В этот период экономика Узбекистана сократилась из-за разрыва экономических связей с бывшими союзными республиками. Согласно данным Всемирного банка, ВВП страны сократился с 13,68 млрд долларов в 1991 году до 10,56 млрд в 1995 году — снижение на 22,8%. В этот период наблюдался постепенный рост ВВП, в среднем на 4% в год. К 2003 году ВВП составил 18,2 млрд долларов.

После распада Советского Союза в 1991 году Казахстан столкнулся с глубокими экономическими проблемами. Президент Нурсултан Назарбаев начал реформы по либерализации экономики, приватизации и привлечению иностранных инвестиций. В начале 1990-х годов страна пережила гиперинфляцию, дефицит товаров и массовый отток (уменьшение) квалифицированных специалистов. В эти годы ВВП снизился из-за разрыва экономических связей и перехода к рыночной экономике. В 1993 году инфляция достигла 3000%. Ситуация начала улучшаться благодаря реформам в нефтегазовом секторе. В 1997 году было открыто крупное месторождение Кашаган. В 2000 году ВВП составил 18,3 млрд долларов.

В исследовании рассматривается “Фонд реконструкции и развития Республики Узбекистан” создан Указом Президента Республики Узбекистан от 11 мая 2006 года «О создании Фонда реконструкции и развития Республики Узбекистан» и является

финансовым учреждением при Кабинете Министров, призванным обеспечить реализацию проектов.

Фонд «Самрук-Казына» это акционерное общество - инвестиционный холдинг, миссия которого заключается в повышении национального благосостояния Казахстана и обеспечении долгосрочной устойчивости для будущих поколений. АО «Самрук-Казына» основано в 2008 году Указом Президента Казахстана.

Обзор литературы. Современные исследования подчёркивают значимость суверенных фондов благосостояния как стратегического инструмента устойчивого экономического развития, особенно в странах с высокой зависимостью от природных ресурсов. Учёные отмечают, что при эффективном управлении данные фонды могут служить надёжной платформой для мобилизации внутренних накоплений и реализации приоритетных инвестиционных проектов. Например:

Автор А. Кинякин (2014) сообщает о том какова роль суверенных фондов благосостояния в современной глобальной политике и экономике, и почему их можно рассматривать как новых глобальных политико-экономических акторов? Суверенные фонды благосостояния (СФБ) стали важным инструментом, с помощью которого государства защищают и продвигают свои интересы в глобальной политике и экономике. Во время кризиса 2008 года именно эти фонды помогли стабилизировать мировую экономику, инвестируя миллиарды в финансовые учреждения. Несмотря на то, что пока их масштабы уступают транснациональным корпорациям и банкам, у СФБ есть все шансы в будущем занять важное место среди ведущих глобальных политико-экономических акторов, потому что у них есть ресурсы, влияние и долгосрочные стратегические цели. Таким образом, автор предлагает переосмыслить СФБ как самостоятельных игроков мировой политики и экономики, а не только как финансовые инструменты. Н. Сухарев (2010) выяснил ответ на свой вопрос о том каким образом создавались, функционируют и могут развиваться суверенные фонды благосостояния в России и за рубежом? Суверенные фонды благосостояния начали создавать в странах, богатых нефтью, чтобы копить деньги в периоды высоких цен и использовать их в трудные времена. В России сначала появился Стабилизационный фонд, позже его разделили на Резервный фонд и Фонд национального благосостояния один помогает бюджету, другой поддерживает пенсии. В статье рассматриваются примеры таких фондов за рубежом и предлагаются идеи для их развития: больше прозрачности, новые

источники дохода, поддержка демографии и укрепление правового статуса фондов. Такие фонды могут быть полезны не только богатым, но и бедным странам для стабильности и роста. Предлагает улучшить работу российских суверенных фондов Резервного и Фонда национального благосостояния в шести направлениях: пополнять не только за счёт нефти и газа, но и, например, за счёт приватизации госсобственности. Сделать фонды более прозрачными публиковать данные чаще и понятнее, чтобы можно было контролировать, куда идут деньги. Изменить правила расчёта нефтегазового трансферта привязать его к темпам роста экономики, чтобы во времена кризисов можно было тратить больше, а в хорошие годы откладывать. Увеличить размер Резервного фонда, потому что в кризисных ситуациях его объёма может не хватить. Часть денег Фонда направлять на поддержку рождаемости это инвестиция в будущих налогоплательщиков и пенсионную систему. Укрепить юридическую основу фондов прописать всё в законе, а в лучшем случае даже в Конституции, чтобы избежать политического давления на фонды И.Жуманиязов и Н.Садыкова (2023) выявили ответ на вопрос: Какова роль и эффективность инвестиционной деятельности суверенных фондов в Узбекистане и в мире? Суверенные фонды играют важную роль в экономике Узбекистана и мира. Они создаются для того, чтобы эффективно использовать накопленные государством средства, особенно доходы от экспорта, и направлять их на развитие ключевых отраслей экономики, инфраструктуры, социальной сферы. Эффективность таких фондов подтверждается реальными результатами: улучшение энергообеспечения регионов, привлечение иностранных инвестиций, участие в международных проектах. Создавать и развивать суверенные фонды как наиболее эффективную форму коллективного инвестирования в условиях Узбекистана, чтобы привлечь внутренние накопления и использовать имеющиеся ресурсы для устойчивого экономического роста, ориентируясь на успешный мировой опыт. Е.Андреев и В.Жарницкий, П.Соколовский, Г.Латыш (2023) считают какие уроки можно извлечь из опыта функционирования Норвежского государственного пенсионного фонда «Global» для формирования и эффективной работы фондов развития регионов в России в условиях современных социально-экономических вызовов. На примере Норвежского пенсионного фонда «Global» Россия может извлечь много полезного для создания собственных региональных фондов развития. В первую очередь, важно выстроить понятную и устойчивую систему управления фондом с чётким разделением ответственности и прозрачным контролем. Кроме того, нельзя полагаться только на доходы от природных ресурсов фонд должен зарабатывать через вложения в акции,

недвижимость, инфраструктуру и особенно в экологически чистую энергетику. Авторы статьи считают, что России стоит взять пример с Норвегии и создать свой инвестиционный фонд, который бы использовал доходы от природных ресурсов например, от нефти и газа для вложений внутри страны. Такой фонд мог бы направлять деньги на развитие инфраструктуры и поддержку экономики в ключевых регионах, особенно на Дальнем Востоке и в новых территориях. А.Гелб и С.Тордо, Х.Халланд, Н.Арфаа, Г.Смит (2014) обосновывают, что суверенные фонды благосостояния (СФБ) для финансирования долгосрочного развития внутри страны, особенно в развивающихся странах, зависящих от природных ресурсов. Инвестировать только в коммерческие или почти коммерческие проекты. Суверенный фонд это не министерство, он должен зарабатывать. Инвестиции должны приносить доход, даже если он чуть ниже рыночного. Встроить инвестиции фонда в общую экономическую и бюджетную политику. Нельзя, чтобы фонд работал «в обход» бюджета. Всё должно быть согласовано с макрополитикой страны, чтобы не было перегрева экономики. Обеспечить независимость управления фондом. У фонда должно быть собственное, профессиональное руководство, не подверженное политическому давлению. Это защитит от коррупции и неэффективных решений. Всё должно быть прозрачно. Общество должно знать, куда идут деньги, сколько они приносят, и кто за это отвечает. Разделить полномочия: Правительство определяет цели развития. Суверенный фонд работает как профессиональный инвестор, не дублирует функции бюджета, банка развития или госкомпаний. В ходе анализа научных статей, посвящённых функционированию и роли суверенных фондов благосостояния (СФБ), были выявлены ключевые аспекты их значимости в современной глобальной и национальной экономике.

Методология. В исследовании применён количественный и сравнительный анализ на основе официальной статистики Всемирного банка и Азиатского банка развития за 2010–2025 г. Основными методами стали: анализ ВВП, фондовых инвестиций, построение таблиц и графиков, а также сравнение показателей Узбекистана и Казахстана.

Результаты. Таким образом, исследование показало, что суверенные фонды благосостояния сегодня выполняют не только стабилизационные и сберегательные функции, но и становятся полноценными институтами стратегического развития и глобального влияния. Их эффективность зависит от прозрачности управления, институционального устройства и способности адаптироваться к современным вызовам мировой экономики.




Рисунок 1. Сравнительный анализ роста ВВП в Узбекистане после обретения независимости.

Экономическое развитие Узбекистана в последние два десятилетия прошло через несколько значимых этапов, каждый из которых сыграл важную роль в формировании современной макроэкономической стабильности и динамики роста. Представленная диаграмма ярко иллюстрирует поступательное движение страны по пути социально-экономических

преобразований. Период 2004–2015 годов характеризуется как этап ускорения роста. Это время стало основой для повышения уровня внутреннего производства, стабильности национальной валюты и расширения промышленного сектора. Несмотря на умеренный рост (порядка 45 условных единиц), именно в эти годы была заложена база для последующих реформ. Узбекистан

постепенно начал интеграцию в глобальную экономику, активно развивал сельское хозяйство, лёгкую промышленность и энергетику. Второй этап 2016–2020 годы был ознаменован как этап реформ. С приходом новых политических и экономических ориентиров, Узбекистан открылся для инвесторов, начал масштабную либерализацию валютного рынка и реформирование государственных институтов. Это отразилось на темпах роста, которые значительно увеличились (до ~65 единиц), несмотря на глобальные вызовы, в том числе влияние мировой экономической

нестабильности и начало пандемии COVID-19. Третий этап 2021–2023 годы называется восстановлением после пандемии. В этот период ВВП страны демонстрирует максимальный рост (около 95 единиц). Это свидетельствует о высокой устойчивости экономики, способности адаптироваться к глобальным шокам и быстром восстановлении после ограничений, связанных с пандемией. Важную роль здесь сыграли цифровизация, поддержка малого и среднего бизнеса, активное развитие инфраструктуры и социальные программы.



Рисунок 2. Сравнительный анализ роста ВВП в Казахстане после обретения независимости.

Экономическая история Казахстана в XXI веке это история перехода от сырьевой зависимости к поиску устойчивого и диверсифицированного роста. Диаграмма, иллюстрирующая рост ВВП страны с 2001 по 2023 год, наглядно демонстрирует эволюцию экономики, её реакцию на глобальные вызовы и усилия по структурной трансформации. Период 2001–2008 годов стал для Казахстана временем бурного роста, основанного на экспорте нефти. Рост ВВП в этот период составил примерно 150 единиц. Благодаря благоприятной конъюнктуре мировых цен на нефть и активному привлечению иностранных инвестиций в сырьевой сектор, страна обеспечила устойчивое накопление капитала и развитие инфраструктуры. Однако экономическая модель в это время оставалась уязвимой к внешним шокам. С 2009 по 2014 год экономика страны столкнулась с последствиями мирового финансового кризиса. Этот этап описан как «кризис и восстановление», но, несмотря на вызовы, рост ВВП даже ускорился (до ~225 единиц). Это объясняется мерами

антикризисной поддержки со стороны государства, стабилизацией цен на сырьё и финансовыми вливаниями в ключевые отрасли. Период 2015–2019 годы ознаменованы попытками диверсификации экономики. На фоне падения мировых цен на нефть и понимания рисков односторонней сырьевой ориентации, Казахстан начал активную политику по развитию несырьевых отраслей машиностроения, сельского хозяйства, инновационных технологий. Рост в этот период замедлился по сравнению с предыдущим (до ~190 единиц), но стал более сбалансированным и устойчивым. Период 2020–2023 годов

это время пандемии и восстановления. Несмотря на серьёзные ограничения, вызванные COVID-19, экономика Казахстана сумела быстро адаптироваться, в результате чего ВВП достиг рекордных ~270 единиц. Это говорит о высокой степени устойчивости и способности правительства эффективно управлять экономикой в условиях глобальной нестабильности.

Таблица 1.

Сумма в фонде с 2020 до 2025 в Узбекистане.¹

Фонд	Год	Финансовые ресурсы дохода (в среднем в \$)
Фонд реконструкции и развития Республики Узбекистан	2020	2978,66
Фонд реконструкции и развития Республики Узбекистан	2021	4141,43
Фонд реконструкции и развития Республики Узбекистан	2022	6593,17
Фонд реконструкции и развития Республики Узбекистан	2023	908,96
Фонд реконструкции и развития Республики Узбекистан	2024	1464,63
Фонд реконструкции и развития Республики Узбекистан	2025	1726,77

В 2020 году средства в государственных фондах Узбекистана составляли около 2 978,66 миллионов долларов. В этот период

страна столкнулась с глобальными экономическими вызовами, связанными с пандемией COVID-19, что оказало влияние на

¹Национальная база данных законодательства Республики Узбекистан <https://www.lex.uz/ru/docs/6707805>

бюджет и финансовую систему. В 2021 году сумма фонда значительно увеличилась и составила 4 141,43 миллиона долларов. Это связано с восстановлением экономики после пандемии, увеличением налоговых поступлений и улучшением бизнес-климата в стране, а также усиливающейся поддержкой инвестиционных проектов. В 2022 году сумма средств в фондах продолжила рост и составила 6 593,17 миллиона долларов. Это было обусловлено продолжением экономических реформ, увеличением инвестиций, а также высоким спросом на нефть и газ, что сыграло важную роль в финансах страны. В 2023 году наблюдается резкое снижение средства в фондах составили 908,96 миллиона долларов. Это связано с несколькими экономическими

трудностями, такими как падение мировых цен на нефть, а также внутренними экономическими вызовами, включая необходимость финансировать различные социальные программы и инфраструктурные проекты. В 2024 году в государственных фондах немного восстановилась и составила 1 464,63 миллиона долларов. Это объясняется стабилизацией внутренней экономики и ростом налоговых поступлений благодаря экономическим реформам и улучшению делового климата. В 2025 году сумма фонда составила 1 726,77 миллиона долларов. Экономика страны продолжает адаптироваться к мировым экономическим изменениям, и благодаря усилиям правительства и международных партнеров наблюдается умеренный рост средств в фондах.

Таблица 2.²

Сумма в фонде с 2020 до 2025 в Казахстане.

Фонд	Год	Финансовые ресурсы дохода (в среднем в \$)
Самрук-Қазына	2020	845 155,17
Самрук-Қазына	2021	193 842 928,00
Самрук-Қазына	2022	286 596,77
Самрук-Қазына	2023	298 518 109,12
Самрук-Қазына	2024	332 847 691,67
Самрук-Қазына	2025	325 927 499,14

Фонд «Самрук казына» был создан для накопления средств, полученных от продажи нефти, и для стабилизации экономики страны. С 2020 по 2025 год сумма в фонде постоянно менялась. В 2020 году сумма фонда составляла около 845 155 17 долларов. В 2021 году сумма фонда составляла около 193 842 928 долларов как сообщил Алмасадам Саткалиев, по итогам 2021 года доход Фонда ожидается в размере 10,5 трлн тенге, что на 22 % выше плановых показателей. Основными факторами роста стали цены на нефть, увеличение объема грузовых перевозок, транзита, производства и передачи электроэнергии. В 2022 году сумма фонда составляла около 286 596 77 долларов управляющий директор «Самрук-Қазына» по экономике и финансам Назира Нурбаева рассказала о финансовых итогах фонда за 2022 год. По ее словам, в 2022 году компании группы «Самрук-Қазына» преодолели последствия пандемии и возобновили устойчивый рост. Об этом

свидетельствует улучшение ключевых производственных показателей компании. В 2023 году сумма фонда составляла около 298 518 109 долларов 21 ноября 2023 года Fitch подтвердило рейтинги АО «Самрук-Қазына» на уровне «BBB», прогноз «стабильный». За 2023 год сумма консолидированной выручки составила 15,4 трлн тенге, что превышает показатели 2022 года на 0,6 трлн тенге, или 4%. В 2024 году сумма фонда составляет около 332 847 691 долларов. В 2025 году сумма фонда составит около 325 927 499 долларов в «Самрук-Қазыне» сообщили «Курсиву», что планируемое снижение финансовых показателей госхолдинга в 2025 году связано в основном с прогнозируемым падением цены на нефть марки Brent с \$81 за баррель в 2024 году до \$75 за баррель в 2025 году. Риски которые могут снижать эффективность работы фондов это зависимость от цен на нефть, недостаточная прозрачность, политическое влияние, угроза коррупции.



Рисунок 4. В какие отрасли идут инвестиции Казахстана.

² http://forbes.kz/authors/authorsid_544

Энергетика развитие энергетической инфраструктуры, включая строительство новых электростанций модернизацию существующих объектов.

Транспорт и логистика строительство железнодорожных линий, развитие авиационного парка, улучшение транспортной логистики. Промышленность и инновации создание новых производств, модернизация оборудования, внедрение инновационных технологий. Здравоохранение строительство

новых медицинских учреждений и обновление оборудования. Нефтегазохимия развитие переработки углеводородов и производство нефтехимической продукции. Сельское хозяйство повышение продуктивности и устойчивости отрасли. ИТ и научные разработки развитие информационных технологий и научных исследований. Инфраструктура строительство школ, детских домов, водопроводов, дорог и мостов.




Рисунок 5. В какие отрасли идут инвестиции Узбекистана.

Энергетика строительство новых энергоблоков, развитие ветровых электростанций совместно с международными компаниями. Транспорт и логистика развитие железнодорожной инфраструктуры и повышение транзитного потенциала. Промышленность и инновации развитие машиностроения, легкой и пищевой промышленности, импортозамещение.

Здравоохранение строительство и модернизация медицинских учреждений.

Нефтегазохимия реализация проектов по производству полиэтилена и других нефтехимических продуктов. Сельское хозяйство поддержка аграрного сектора. ИТ и научные разработки инновации и цифровизация экономики.

Инфраструктура модернизация газопроводов, электростанций и водоснабжения в регионах.

Выводы. Из всего изученного можно сказать одно суверенные фонды действительно помогают странам развиваться, если ими правильно управлять. Казахстан начал использовать

такой подход раньше Узбекистана и благодаря этому смог быстрее восстановить экономику после 90-х, особенно за счёт нефти. Узбекистан начал реформы позже, но с 2016 года хорошо набрал темп видно, что страна уверенно идёт вперёд. Эти фонды позволяют не просто хранить деньги, а вкладывать их в нужные вещи: дороги, энергетические проекты, медицину, промышленность. Но при этом важно, чтобы всё было прозрачно чтобы люди понимали, куда идут деньги, кто принимает решения и какой от этого результат. Без этого даже самый большой фонд может не принести пользы. Считаю, что Узбекистану нужно продолжать усиливать контроль и прозрачность, а Казахстану меньше зависеть от нефти и больше развивать другие отрасли. Тогда фонды действительно станут надёжным инструментом для будущего. В целом исходя из исследования мы увидели что суверенные фонды влияют на экономику, и при грамотном подходе они могут многое изменить к лучшему.

Список использованной литературы:

1. Евгений Владимирович Андреев, Валерий Яковлевич Жарницкий, Павел Владимирович Соколовский, & Глеб Вадимович Латыш (2023). Перспективы функционирования фондов развития регионов в современных условиях. Государственная служба, 25 (5 (145)), 31-38. doi: 10.22394/2070-8378-2023-25-5-31-38 <https://cyberleninka.ru/article/n/perspektivy-funktsionirovaniya-fondov-razvitiya-regionov-v-sovremennyh-usloviyah>
2. Иномжон Тураевич Жуманиязов, & Нозимахон Омонulloхонова Садыкова (2023). Ўзбекистонда ва жаҳонда суверен фондлар инвестицион фаолияти. Science and Education, 4 (6), 915-920. <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-va-zahonda-suveren-fondlar-investitsion-faoliyati>
3. Yi-Chong, X. (2010). The political economy of sovereign wealth funds (pp. 1-25). Palgrave Macmillan UK. https://doi.org/10.1057/9780230290648_1
4. Кинякин Андрей Алексеевич (2014). Суверенные фонды благосостояния как глобальные политико-экономические акторы: к определению понятий. Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Политология, (4), 90-100.

<https://cyberleninka.ru/article/n/suverennye-fondy-blagosostoyaniya-kak-globalnye-politiko-ekonomicheskie-aktory-k-opredeleniyu-ponyatiy>

5. Сухарев А. Н. (2010). Суверенные фонды благосостояния: опыт создания и пути развития. Национальные интересы: приоритеты и безопасность, (21), 14-23.

<https://cyberleninka.ru/article/n/suverennye-fondy-blagosostoyaniya-opyt-sozdaniya-i-puti-razvitiya>

6. <https://www.lex.uz/ru/docs/6707805>
7. <http://www.mf.uz/> <https://cbu.uz/>
8. <https://stat.uz/>
9. http://forbes.kz/authors/authorsid_544
10. <https://sk.kz/press-center/news/77678/?lang=ru>
11. <https://kz.kursiv.media/2025-03-14/zhnb-skprofitdebt/>
12. <https://www.akorda.kz/ru/glava-gosudarstva-prinyal-predsedatelya-pravleniya-ao-samruk-kazyna-almasadama-satkalieva-2211959>



YALPI ICHKI MAHSULOTNI YAKUNIY ISTE'MOL USULIDA HISOBLASHDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Farmonov Ilhomjon Iqboljon o'g'li

Qo'qon Universiteti o'qituvchisi

i.i.farmonov@kokanduni.uz

+998911541510

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil

Jurnal soni: 15

Maqola raqami: 5

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1185>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

YalIM, yakuniy iste'mol usuli, milliy hisoblar tizimi, norasmiy sektor, deflyator ko'rsatkichlari, statistik aniqlik, makroiqtisodiy tahlil, raqamli monitoring, iqtisodiy rejalashtirish, xalqaro metodologiya.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblashda uchraydigan metodologik va amaliy muammolar tahlil qilingan hamda ularni bartaraf etishning zamonaviy yondashuvlari asoslantirilgan. Tadqiqot davomida yakuniy iste'mol elementlarining statistik qamrovi, norasmiy sektorning e'tibordan chetda qolishi, hisob-kitoblarda qo'llanilayotgan deflyator indekslarining noaniqligi va iste'mol tarkibidagi tafovutlar aniqlangan. Xalqaro tajriba va milliy hisoblar tizimiga tayanilgan holda, raqamli iqtisodiyot vositalari yordamida yakuniy iste'molni real vaqt rejimida monitoring qilish, raqamlashtirilgan to'lovlar asosida iste'mol xarakterini tahlil qilish, shuningdek, statistik metodologiyani takomillashtirish bo'yicha aniq takliflar ishlab chiqildi. Mazkur ilmiy ish iqtisodiy rejalashtirish va makroiqtisodiy siyosatni samarali yuritish uchun ishonchli metodologik asos yaratishga qaratilgan.

Kirish. Yalpi ichki mahsulot (YalIM) zamonaviy iqtisodiy tahlil va makrorejalashtirishda eng muhim kompleks ko'rsatkichlardan biri sifatida e'tirof etiladi. U mamlakat ichida ma'lum davrda yaratilgan yakuniy mahsulot va xizmatlar qiymatini ifodalab, iqtisodiy faoliyatning umumiy hajmi hamda dinamikasini aks ettiradi. Ayniqsa, YalIMni hisoblashda qo'llaniladigan usullar orasida yakuniy iste'mol usuli bugungi kunda iqtisodiy barqarorlik va aholining iste'mol xatti-harakatlarini aniqlashda asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Ushbu usul orqali YalIM yakuniy iste'mol xarajatlari, investitsiyalar, davlat xarajatlari va sof eksport komponentlari asosida aniqlanadi. Biroq, zamonaviy iqtisodiy muhitning murakkablashuvi, norasmiy sektorning kengayishi, raqamli to'lovlar ulushining oshishi hamda statistik infratuzilmaning yetarli darajada mukammal emasligi yakuniy iste'mol usulida hisoblashda bir qator muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bu omillar hisob-kitoblarning aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatib, real iqtisodiy o'sish sur'atlarini baholashda xatoliklarga olib kelmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston misolida bu jarayonni chuqur ilmiy o'rganish, xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish va raqamli yechimlar asosida takomillashtirish zarurati mavjud. Mazkur ilmiy maqolada yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblashdagi mavjud muammolar tizimli tarzda tahlil qilinadi, xalqaro va milliy amaliyotlar o'rganiladi hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Makroiqtisodiyotda foydalaniladigan turli maqsadlarga yo'naltirilgan ko'plab ko'rsatkichlar (yalpi ichki mahsulot, sof ichki mahsulot, yalpi milliy mavjud daromad va boshqalar)dan eng asosiysi YalIM ko'rsatkichidir. U xalqaro va milliy amaliyotda iqtisodiy ishlab shiqarish faoliyatining yakuniy natijalarini ifodalovshi ko'rsatkich bo'lib xizmat qiladi.

O'zbekistonda YalIMni hisoblashning MHTda ko'zda tutilgan ushta– ishlab shiqarish (qo'shilgan qiymat bo'yicha), yakuniy iste'mol (xarajatlar bo'yicha) va taqsimlash (daromadlar) usullaridan dastlabki ikkitasi–ishlab shiqarish va xarajatlar usullaridan foydalanilmoqda.

Milliy hisob-kitob tizimiga ko'ra, yalpi ichki mahsulot, xarajatlar usulida uy xo'jaliklari, davlat organlari va uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvshi nodavlat notijorat tashkilotlari (UXKNNT)ning jami xarajatlari, asosiy kapitalning yalpi jamg'arishi va mahsulotlar (tovar va xizmatlar) sof eksportining yig'indisi sifatida hisoblanadi. «MHT–2008» xalqaro standartida yakuniy iste'molning yetti turini farqlaydi:

- uy xo'jaliklarining yakuniy iste'moli;
- UXKNNTning yakuniy iste'moli;

- asosiy kapitalning yalpi jamg'arilishi;
- moddiy aylanma vositalar zaxirasining o'zgarishi;
- baholiklarning shiqib ketishini shegirgan holda sotib olish;
- tovarlar va xizmatlarni sof eksporti.

Yakuniy iste'mol bu ishlab shiqarish bilan bog'liq bo'lmagan maqsadlarda tovarlar va xizmatlar iste'molidir. U jamiyat a'zolarining yakka tartibdagi yoki jamoaga tegishli ehtiyojlarini qondirishda bevosita foydalaniladigan va keyingi ishlab shiqarishda jarayonida o'zgartirilmaydigan iste'mol tovarlari va xizmatlarni o'z ishiga oladi.

MHTda yakuniy iste'mol quyidagisha aks etadi:

- a) daromadlardan foydalanish elementi sifatida –daromadlar shtetlarining ketma-ketligida yakuniy bo'lgan daromadlardan foydalanish shtetlarida; mazkur shtetlarda ixtiyoridagi daromad yakuniy iste'mol bilan jamg'arish o'rtasida taqsimlanishi ko'rsatiladi;
- b) tovarlar va xizmatlardan foydalanish elementi sifatida –tovarlar va xizmatlar hisoblarida; mazkur hisob ma'lumotlari YalIMni yakuniy foydalanish usuli bilan hisoblash, ya'ni tovarlar va xizmatlardan foydalanishning barsha qismlarining: yakuniy iste'mol, yalpi jamg'arish va sof eksport summasi sifatida.

Adabiyotlar tahlili. Daromadlardan foydalanish hisoblari umuman iqtisod uchun ham, institutsioal sektorlar uchun ham tuziladi. Yakuniy iste'mol ko'rsatkishi uy xo'jaliklari sektorlari, davlat boshqaruvi va UXKNNT shtetlarida mavjud. Nomoliyaviy va moliyaviy korporatsiyalar shtetlarida mazkur ko'rsatkish yo'q, shunki sotib olinadigan tovarlar va xizmatlardan ular oraliqdagi iste'mol yoki mehnat haqini to'lash uchun foydalanadilar. Ushbu mavzular yuzasidan xorijiy va mahalliy tadqiqotchilar ko'plab tadqiqotlar olib borishgan.

Fezzi, C., & Fanghella ushbu tadqiqotchilar tarafidan COVID-19 pandemiyasining birinchi to'liqini davrida Yevropa mamlakatlarining YalIM o'zgarishlarini real vaqt rejimida kuzatish imkoniyatlarini o'rganadilar. Ular elektr energiyasi iste'moli va YalIM o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilib, iqtisodiy faollikni baholashda yangi yondashuvlarni taklif etadilar¹.

Alleman, T.W., Schoors, K., Baetens, J. M ushbu tadqiqotchilar tomonidan Belgiya iqtisodiyotiga COVID-19 pandemiyasi davrida ta'sir etgan taklif va talab shoklarini dinamik input-output modeli yordamida tahlil qiladilar. Ular modelni real ma'lumotlar bilan solishtirib, uning YalIM, daromad va bandlikka ta'sirini aniqlaydilar².

Mosley, L, Eckley, I, Gibberd, A, mualliflar yuqori chastotali iqtisodiy ko'rsatkichlarni past chastotali ma'lumotlarga asoslanib baholash uchun yangi "Sparse Temporal Disaggregation" usulini taklif

¹ Fezzi, C., & Fanghella, V. (2020). Tracking GDP in real-time using electricity market data: Insights from the first wave of COVID-19 across Europe. arXiv preprint arXiv:2009.09222.

² Alleman, T. W., Schoors, K., & Baetens, J. M. (2023). Validating a dynamic input-output model for the propagation of supply and demand shocks during the COVID-19 pandemic in Belgium. arXiv preprint arXiv:2305.16377.

etadilar. Ular bu usulni Buyuk Britaniya YalM ma'lumotlariga qo'llab, an'anaviy Chow-Lin metodiga nisbatan afzalliklarini ko'rsatadilar³.

Moiseev. N., Mikhaylov. A., Varyash. I., va Saqib. A mualliflar yalpi ichki mahsulot (YalM) aholi jon boshiga va korrupsiya indeksining o'zaro bog'liqligini chuqur iqtisodiy-statistik yondashuvlar orqali tahlil qilgan. Tadqiqot bir qator mamlakatlar ma'lumotlari asosida amalga oshirilgan bo'lib, unda Transparency International tomonidan e'lon qilinadigan korrupsiya idroki indeksi va Xalqaro valyuta jamg'armasi hamda Jahon banki tomonidan taqdim etilgan YalM ko'rsatkichlari asosiy manba sifatida qo'llanilgan⁴.

Shuningdakil mahalliy taqqiqotchi olimlar ham o'z izlanishlarini olib borishgan Tursunov, B. tadqiqotida O'zbekiston misolida yakuniy iste'mol usulida YalMni hisoblashdagi muammolar tahlil qilinadi. Muallif statistik ma'lumotlarning yetishmasligi va norasmiy sektorning hisobga olinmasligi kabi muammolarni ko'rsatadi. yakuniy iste'mol tarkibining tarmoqlar bo'yicha tafovutli xarakterga egaligini ko'rsatib, ularni segmentatsiyalangan statistik yondashuv orqali hisoblashni taklif etadi⁵.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni hisoblash va tahlil qilish metodologiyasi sifatida ekonometriya yondashuvi qo'llanildi. Asosiy maqsad – makroiqtisodiy

omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklarni aniqlash va ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'sirini baholashdan iborat. Asosiy usul sifatida ko'p omilli regressiya tahlili tanlandi, chunki u o'zgaruvchilar o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini chuqurroq o'rganish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida O'zbekiston va bir qator xorijiy mamlakatlar misolida yalpi ichki mahsulotni (YalM) yakuniy iste'mol usulida hisoblashda mavjud bo'lgan asosiy muammolar aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, amaldagi statistik yondashuvlar ko'pincha norasmiy sektor faoliyati, uy xo'jaliklarining to'liq xarajatlari va ayrim xizmat turlarining qiymatini yetarli darajada hisobga olmaydi. Natijada YalMning yakuniy iste'mol tarkibiy qismlarida aniqlik past bo'lib qolmoqda. Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblashdagi funksiyaning natijaviy (chiqish) omili sifatida qarab, O'zbekiston Respublikasi Statistika qo'mitasi bilan o'tkazilgan ekspert tahliliga asosanib, quyidagi ko'rsatkichlar ta'sir qiluvchi omillar sifatida tanlab olindi (1-jadval).

Y- Yalpi ichki mahsulot

X1-Foiz stavkasi

X2- Aholi soni (mln)

X3 - Infilyatsiya darajasi

1-jadval.

Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblashdagi ta'sir etuvchi omillar⁶.

Yillar	YalM	Foiz stavka	Aholi soni (mln)	Infilyatsiya
2014	186829,5	10	30,76	10,93
2015	221350,9	9	31,58	11,44
2016	255421,9	14	32,12	12,01
2017	356453,8	16	32,65	12,32
2018	473652,8	15	33,25	11,27
2019	594659,6	14	33,91	10,97
2020	668038	17	34,56	10,36
2021	820536,6	16	35,27	10,06
2022	995573,1	15	36,02	10,12
2023	1204485	14	36,80	9,18
2024	1454574	13,5	37,54	9,71

O'zbekiston Respublikasining 2014–2024 yillarga oid makroiqtisodiy ko'rsatkichlari asosida YalM (Yalpi ichki mahsulot) o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omillar bo'yicha regressiya tahlili o'tkazildi. Tahlil uchun mustaqil o'zgaruvchilar sifatida foiz stavkasi (%), aholi soni (mln) va infilyatsiya darajasi (%) tanlab olindi. YalM esa bog'lanuvchi (endogen) o'zgaruvchi sifatida qabul qilindi.

Ko'p omilli regressiya modeli quyidagi umumiy ko'rinishda tuzildi:

Ekonometriya dasturlari orqali amalga oshirilgan hisob-kitoblarni asosida quyidagi muhim natijalar aniqlandi:

Aholi sonining o'sishi YalMga ijobiy va sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa aholining ko'payishi ishlab chiqarish va iste'mol salohiyatining oshishiga xizmat qilayotganini ko'rsatadi.

Foiz stavkasi va infilyatsiya darajasi esa teskari (salbiy) ta'sir ko'rsatayotgan omillar sifatida aniqlangan. Ayniqsa, foiz stavkalarining yuqori bo'lishi investitsion faollikni susaytirib, iqtisodiy o'sishni sekinlashtirishi mumkin.

Modelning aniqlik darajasi (R^2) yuqori bo'lib, izohlangan dispersiya 97–98% atrofida bo'lishi kuzatildi, bu esa tanlangan omillar YalM o'zgarishini yetarlicha tushuntirib bera olishini ko'rsatadi.

F-statistika va t-statistikalar natijalari modelning umumiy ahamiyatligini va har bir omilning individual ahamiyatini isbotladi ($p < 0.05$).

YalM (trln) iz stavka (%oli soni (m'siya darajasi (%))				
Y	1			
Foiz stavka(%)	0,654232	1		
Aholi soni (mln)	0,982533	0,482235	1	
Infilyatsiya darajasi (%)	-0,85199	-0,13265	-0,82096	1

³ Mosley, L., Eckley, I., & Gibberd, A. (2021). Sparse Temporal Disaggregation. arXiv preprint arXiv:2108.05783.

⁴ Moiseev, N., Mikhaylov, A., Varyash, I., & Saqib, A. (2020). Investigating the relation of GDP per capita and corruption index. Entrepreneurship and Sustainability Issues, 8(1), 780.

⁵ Tursunov, B. (2022). Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblashdagi muammolar: O'zbekiston tajribasi. Milliy statistika jurnali, 4(1), 60-68.

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Регрессионная статистика						
Множественный R	0,993392621					
R-квадрат	0,9868289					
Нормированный R-квадрат	0,981184143					
Стандартная ошибка	57828,65625					
Наблюдения	11					
Дисперсионный анализ						
	df	SS	MS	F	Значимость F	
Регрессия	3	1,7539E+12	5,84632E+11	174,8222074	6,07383E-07	
Остаток	7	23409074382	3344153483			
Итого	10	1,77731E+12				
	Коэффициенты	Стандартная ошибка	t-статистика	P-Значение	Нижние 95%	Верхние 95%
Y-пересечение	-5800781,475	960224,5313	-6,041067778	0,000520551	-8071351,689	-3530211,262
X1	-28379,53099	10003,23138	-2,837036343	0,025151202	-52033,41451	-4725,647461
X2	202137,6551	19321,98695	10,46153564	1,58777E-05	156448,4162	247826,8941
X3	-2500,945429	38744,81407	-0,064549166	0,950337656	-94117,87241	89115,98156

Durbin–Watson testi formulasi:

$$DW = \frac{\sum_{t=2}^n (e_t - e_{t-1})^2}{\sum_{t=1}^n e_t^2}$$

Formulasi bo'yicha ham hisoblab chiqildi quyidagi rasmda keltirib o'tildi.

ВЫВОД ОСТАТКА						
Наблюдение	Предсказанное Y	Остатки	ei-ei-1	(ei-ei-1)^2	ei^2	DW
1	105842,1535	80987,34648			6558950289	1,901615315
2	298699,0796	-77348,17956	158335,526	25070138805	5982740881	
3	264530,2195	-9108,319509	-68239,86005	4656678499	82961484,28	
4	314128,8217	42324,97832	-51433,29783	2645384126	1791403790	
5	466416,9385	7235,861549	35089,11677	1231246116	52357692,35	
6	628957,6055	-34298,00546	41533,86701	1725062109	1176353179	
7	676734,0651	-8696,065056	-25601,9404	655459352,5	75621547,45	
8	849381,6148	-28845,01482	20148,94977	405980176,7	832034880,1	
9	1029214,33	-33641,23044	4796,215618	23003684,25	1131732385	
10	1217612,121	-13127,12114	-20514,1093	420828680,3	172321309,4	
11	1380058,25	74515,74964	-87642,87078	7681272798	5552596944	
				44515054346	23409074382	

$$Y=202137,6 \cdot X_2 - 28379,5 \cdot X_1 - 2500,9 \cdot X_3 - 5800781,4$$

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, aholining o'sishi — iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi ijobiy omil sifatida baholanishi mumkin bo'lsa, foiz stavkalari va inflyatsiya darajasining pasaytirilishi iqtisodiy barqarorlikka hissa qo'shishi mumkin. Shu bois, makroiqtisodiy siyosatda demografik o'sishni qo'llab-quvvatlash, kredit siyosatini yumshatish va inflyatsiyani nazorat qilish muhim strategik yo'nalish sifatida qaralishi lozim.

Muhokama. Uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol uchun xarajatlari quyidagilarni o'z ishiga oladi: mazkur mamlakatning uy xo'jalik-rezidentlarining iste'mol tovarlari va xizmatlar uchun xarajatlari, shu jumladan uzoq muddat foydalaniladigan iste'mol tovarlarini (uy-joylarni sotib olishdan tashqari), iste'mol tovarlari va xizmatlarning natural shaklda (mehnat haqini to'lash uchun, xadya sifatida va boshqa tartibda olingan shaxsiy yordamshi (tomorqa) va fermerlik xo'jalikda ishlab shiqarilgan iste'mol tovarlar va xizmatlar) olinishi.

Jamoaviy iste'mol uchun ko'rsatiladigan xarajatlar tarkibiga davlat boshqaruvi, mudofaa, xavfsizlik va huquqiy tartibni ta'minlash, atrof muhitni muhofaza qilishga xarajatlar kiradi. «MHT-2008» standartida ularga shuningdek markaziy bankning nobozor shiqarilishiga tegishli xizmatlari kiradi. Sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot, ta'lim, madaniyatga xarajatlar turlisha va qay darajada amalga oshirilishiga ko'ra aks ettiriladi. Masalan, mazkur sohalarida siyosat, standartlar va qoidalar masalalari bilan shug'ullanuvshi tegishli vazirliklar va muassasalar xarajatlari jamoaviy iste'mol xizmatlariga tegishli, aholiga bevosita xizmat ko'rsatuvshi davlat muassasalari (shifoxonalar, maktablar, madaniyat muassasalari) xarajatlari esa yakka tartibda iste'mol xizmatlariga tegishli.

Xalqaro darajada qabul qilingan davlat boshqaruv organlari funksiyalarini (vazifalarini) tasniflash yakka tartibda va jamoaviy iste'molga xarajatlarni amalda ajratish uchun xizmat qiladi.

UXKNTT asosan o'z a'zolariga, ya'ni shaxslar shaklangan doirasiga xizmat ko'rsatadi. Bu xizmatlar, qoidaga ko'ra, yakka tartibdagi xizmatlarga tegishli.

Mazkur tashkilotlar faoliyati va ularning tanlangan tekshiruv haqidagi hisobotlar ma'lumotlari "UXKNTT yakuniy iste'moliga xarajatlar" ko'rsatkishini hisoblash uchun axborot manbasi hisoblanadi.

Yakuniy iste'molga xarajatlardan haqiqiy yakuniy iste'molga o'tish natural shakldagi ijtimoiy transfertlar yordamida amalga oshiriladi.

Ular yakka tartibda iste'mol uchun tovarlar va xizmatlarda ifodalanib, davlat boshqaruvi organlari va UXKNTT tomonidan moliyalashtiriladi, lekin uy xo'jaliklari tomonidan iste'mol qilinadi. Pul shaklidagi transfertlardan farqli o'laroq natural shakldagi transfertlar aholiga ijtimoiy-madaniy xarakterdagi bepul xizmatlar ko'rsatish (sog'likni saqlash, ta'lim) yoki davlat boshqaruv organlari va UXKNTT tomonidan korxonalardan sotib olingan tovarlarni alohida shaxslar yoki shaxslar guruhlariga taqdim etish (nogironlarga dori vositalari, nogironlar kolyaskalari, avtomashinalarini va h.k.bepul taqdim qilish) vositasidadaromadlarning qayta taqsimlanishini aks ettiradi.

Uy xo'jaliklari natural shakldagi ijtimoiy transfertlar oluvshilari hisoblanadi, ularni davlat boshqaruvi organlari va UXKNTT taqdim qiladi.

Korporatsiyalar (nomoliyaviy va moliyaviy) natural shakldagi ijtimoiy transfertlar bilan operatsiyalarni amalga oshirmaydi. Umuman iqtisod uchun uy xo'jaliklari tomonidan olingan natural shakldagi ijtimoiy transfertlar uy xo'jaliklariga xizmat ko'rsatuvshi davlat

boshqaruvi organlari va notijorat tashkilotlar tomonidan taqdim qilingan natural shakldagi ijtimoiy transfertlarga teng.

Mazkur operatsiya natural shakldagi daromadlarni qayta taqsimlash hisobida aks etadi, unda tuzatilgan ixtiyoridagi daromad. Uni davlat boshqaruv organlari va UXKNTTdan olish uchun natural shakldagi ijtimoiy transfertlar ixtiyoridagi daromaddan ayiriladi, uy xo'jaliklari sektorida – ixtiyoridagi daromadga qo'shiladi.

Tuzatilgan ixtiyoridagi daromaddan foydalanish shtetlarida haqiqiy yakuniy iste'mol aks ettiriladi. Uy xo'jaliklari haqiqiy yakuniy iste'moli uy xo'jaliklarining yakuniy iste'molga xarajatlari va natural shakldagi ijtimoiy transfertlar summasiga teng. Davlat boshqaruvining haqiqiy yakuniy iste'moli jamoaviy iste'mol uchun xizmatlarga xarajatlarga teng.

UXKNTTda yakuniy iste'mol uchun barsha xarajatlar natural shakldagi ijtimoiy transfertlarga tegishli, va shuning uchun ularda haqiqiy yakuniy iste'mol yo'q. Umuman iqtisod darajasida yakuniy iste'molga xarajatlar va haqiqiy yakuniy iste'mol ko'rsatkishlari teng bo'ladi.

Yakuniy iste'mol ko'rsatkishidan iqtisodiy tahlilda bir qator makroiqtisodiy mutanosibliklarni tavsiflash uchun ham, turmush darajasining tarkibiy qismi sifatidagi aholi iste'molining tuzilishini batafsil o'rganish uchun ham foydalaniladi.

Yakuniy iste'mol va jamg'arish o'zaro nisbati joriy iste'molining ham, xususiy joriy daromadlar hisobiga investitsiya kiritish imkoniyatlarini ham iqtisodda ta'minlanganlik darajasini tavsiflab beradi. YalMdag yakuniy iste'mol hissasi, uning jamg'arish bilan o'zaro

nisbati tovarlar va xizmatlardan foydalanishning nihoyatda muhim proporsiyalarini aks etadi.

Yakuniy iste'mol ko'rsatkishlari tarkibining tahlili uchun quyidagi xalqaro darajada qabul qilingan tasniflardan foydalaniladi:

- maqsadlar bo'yisha yakka tartibdagi iste'mol tasnifi (MYATT);
- davlat boshqaruv organlari funksiyalarining tasnifi (DBOFT);
- UXKNTT maqsadlari tasnifi (NTMT).

Mazkur tasniflar kesimidagi yakuniy iste'mol to'g'risidagi ma'lumotlar aholi iste'molining tovarlarga oid tuzilishini, tovarlar va xizmatlar kelishi manbalarini tahlil qilish imkonini beradi.

Ta'kidlash kerakki, iqtisodiyot nazariyasi, makroiqtisodiyot va boshqa iqtisodiy fanlarda YalM (xarajatlar usulida) xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning yakuniy iste'mol, investitsiya va boshqa mahsulotlarga yo'naltirgan jami xarajatlari sifatida talqin qilinadi.

Yakuniy iste'mol usulida hisoblangan yalpi ichki mahsulotning ma'lumotlar bazasini kengaytirish uchun potensial omillar aniqlandi: fuqarolarimizning shet elda qilgan yakuniy iste'mol xarajatlari; jismoniy shaxslarga poshta jo'natmalaridan tashqari va shet eldagi jismoniy shaxslardan yuborilgan sovg'alar; ishlab shiqarishda foydalaniladigan san'at asarlari; bir nesha yillar davomida meva berish va xizmat qilishga mo'ljallangan mevali daraxtlar, butalar va uzumzorlarni yetishtirish xarajatlari; moddiy zaxiralar tarkibiga kiritilgan nasli va sut yetishtirish shorva mollari; nomoddiy asosiy aktivlar tarkibiga kiritilgan kompyuter dasturlari va ma'lumotlar bazalari; uy-joy mulkdorlarining xizmatlari va boshqa unsurlar.

2-jadval

YalMni yakuniy iste'mol usulida hisoblashda mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo'yisha ilmiy takliflar⁷

Mavjud holat va muammolar	Xalqaro tajribadan kelib shiqqan holda muammoni ijobiy xal qilish bo'yisha takliflar
Davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'mol xarajatlari bo'yisha ma'lumotlar moliya vazirligining davlat byudjeti ijrosi to'g'risidagi hisoboti ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur ko'rsatkishlarni hisoblashda to'liq qamrovni ta'minlash, xalqaro tasniflagishlar va uslubiyatni qo'llash, ma'lumotlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash muammosi mavjud.	Davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'mol xarajatlari tarkibini xalqaro tasniflagishlar va «MHT-2008» standartlari asosida shakllantirish masalalarini amaliyotga tatbiq etish; Xalqaro valyuta fondi tomonidan ishlab shiqilgan Davlat moliyasi statistikasi bo'yisha qo'llanmadagi tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish; davlat boshqaruvi organlarining yakuniy iste'mol xarajatlari doimiy narxlarida hisoblash, shuningdek, mos narx yoki fizik hajm indekslarini qo'llash masalalarini ishlab shiqish zarur.
Uy xo'jaliklarining iste'mol xarajatlari shakllantirishda 3 ta manbaadan foydalaniladi: uy xo'jaliklari kuzatuv ma'lumotlari; tovarlarning chakana savdo aylanmasi; aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar. Bu holat amaliyot jarayonida bir qator murakkablik va nomuvofiqliklarni keltirib shiqaradi, jumladan: uy xo'jaligi kuzatuvlari orqali yig'ilgan ma'lumotlar hamda chakana tovar aylanmasi ma'lumotlari va aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar o'rtasidagi mavjud tafovutlar; ma'lumotlarni shakllantirishda turli tasniflagishlar-dan foydalanilishi.	Uy xo'jaligi kuzatuvlari ma'lumotlarini shakllantirishda xalqaro tashkilotlar tavsiya etayotgan va jahon tajribasida foydalanilayotgan yangi tasniflagishlardan foydalanish; uy xo'jaligi kuzatuvlari ma'lumotlari, chakana tovar aylanmasi ma'lumotlari va aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni shakllantirishda umumiy tasniflagishdan foydalanish yoki ma'lumotlarni qiyosiy o'rganib shiqib, o'tkazgishlar ishlab shiqish; uy xo'jaligi kuzatuvlari ma'lumotlarini yig'ishda chakana tovar aylanmasi ma'lumotlari va aholiga ko'rsatilgan pullik xizmatlar to'g'risidagi ma'lumotlar bilan taqqoslagan holda mantiqiy tahlilni amalga oshirish va ushbu ma'lumotlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash; BMT tomonidan ishlab shiqilgan uy xo'jaliklari sektori hisobi qo'llanmasi tavsiyalarini amaliyotga joriy etish.
Asosiy kapitalni yalpi jamg'arish bo'yisha ko'rsatkishlar yillik va shoraklik statistik kuzatuvlar (hisobot shakllari) ma'lumotlari asosida shakllantiriladi. Mazkur ko'rsatkish-larni hisoblashda to'liq qamrovni ta'minlash, xalqaro tasniflagishlar va uslubiyatni qo'llash, ma'lumotlarning o'zaro muvofiqligini ta'minlash muammosi mavjud.	Asosiy kapitalni yalpi jamg'arish bo'yisha xalqaro tasniflagishlar, jumladan "MHT-2008" da keltirilgan aktivlar tasniflagishi va ularni qo'llash bo'yisha tavsiyalarni amaliyotga tatbiq etish; asosiy kapitalni yalpi jamg'arish ko'rsatkishlarini hisobga olish bo'yisha xorijiy davlatlar tajribasini amaliyotga tatbiq etish; asosiy kapitalning yalpi jamg'arishni doimiy narxlarida hisoblash, shuningdek, mos narx yoki fizik hajm indekslarini qo'llash masalalarini ishlab shiqish.

Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblash uchun ma'lumot va ko'rsatkishlarni shakllantirishning asosiy muammosi davlat boshqaruvini va uy xo'jaliklarining yakuniy iste'mol xarajatlari, yalpi jamg'arish hajmini baholash jarayonida aniqlandi. Yakuniy iste'mol usulida YalMni hisoblash uchun asosiy ko'rsatkishlarni shakllantirishdagi aniqlangan muammolarni hisobga olib, ularni ijobiy

hal etishning xalqaro tajribaga asoslangan ilmiy takliflar ishlab shiqildi (2-jadval).

Xulosa va takliflar. Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblashda qo'llanilgan zamonaviy yondashuvlar va tahliliy metodlar iqtisodiy ko'rsatkichlarning aniqligi va izchilligini sezilarli darajada oshirishga xizmat qildi. Xususan, statistik axborot bazasining boyitilishi, ma'lumot yig'ish usullarining raqamlashtirilishi hamda iste'mol

⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

strukturasini modellashtirishga oid yangi mexanizmlarning joriy etilishi hisob-kitoblarning ishonchligini mustahkamladi. So'nggi yillarda inflyatsiya darajasining dinamikasini hisobga olgan holda narx indekslarini tuzish tajribasi o'z samarasini berdi — bu esa yakuniy iste'mol ko'rsatkichlarini real holatga yaqinlashtirish imkonini yaratdi. Aholining demografik o'sishi, turmush darajasining yaxshilanishi va norasmiy sektorni huquqiy muhitga bosqichma-bosqich integratsiyalash jarayonlari orqali milliy hisob tizimining aniqligi yanada mustahkamlandi. Ekonometriya modellarining qo'llanilishi yakuniy iste'molga ta'sir etuvchi asosiy omillarni (xususan, foiz stavkasi, inflyatsiya va aholi soni) chuqur tahlil qilish imkonini berdi. Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, iste'mol xarajatlari va xizmatlar sifati o'rtasidagi uzviy bog'liqlik mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasining turizm, transport va xizmatlar sohasida amalga oshirgan islohotlari natijasida yakuniy

iste'mol segmenti faol rivojlanmoqda. Bu holat YaIM tarkibida ushbu sohalarning ulushi ortayotganini va iqtisodiy o'sish jarayonlari real sektor bilan uzviy bog'lanayotganini ko'rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblash bo'yicha olib borilgan yondashuvlar nafaqat statistik jarayonlarning sifatini oshirdi, balki iqtisodiy siyosatga ilmiy yondashuvni mustahkamlab, barqaror o'sish uchun ishonchli asos yaratdi. Bu esa O'zbekistonning zamonaviy iqtisodiy modelga o'tish yo'lida muhim bosqichlardan biri hisoblanadi.

Yakuniy iste'mol bo'yicha ma'lumotlarni yig'ish jarayoniga mobil ilovalar, onlayn platformalar va to'lov tizimlari orqali real vaqtda monitoring mexanizmlarini joriy etish taklif etiladi. Bu usul iste'mol hajmining yanada aniq va tezkor baholanishiga xizmat qiladi. YaIM va yakuniy iste'mol o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni ilg'or texnologiyalar orqali tahlil qilish, iqtisodiy prognozlarning aniqligini sezilarli darajada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Fezzi, C., & Fanghella, V. (2020). Tracking GDP in real-time using electricity market data: Insights from the first wave of COVID-19 across Europe. arXiv preprint arXiv:2009.09222.
2. Alleman, T. W., Schoors, K., & Baetens, J. M. (2023). Validating a dynamic input-output model for the propagation of supply and demand shocks during the COVID-19 pandemic in Belgium. arXiv preprint arXiv:2305.16377.
3. Mosley, L., Eckley, I., & Gibberd, A. (2021). Sparse Temporal Disaggregation. arXiv preprint arXiv:2108.05783.
4. Moiseev, N., Mikhaylov, A., Varyash, I., & Saqib, A. (2020). Investigating the relation of GDP per capita and corruption index. *Entrepreneurship and Sustainability Issues*, 8(1), 780.
5. Tursunov, B. (2022). Yalpi ichki mahsulotni yakuniy iste'mol usulida hisoblashdagi muammolar: O'zbekiston tajribasi. *Milliy statistika jurnali*, 4(1), 60-68.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT XARIDLARINI AMALGA OSHIRISHNING NAZORAT TIZIMI

Ismoilov Botir Muxamedovich

Qo'qon universiteti o'qituvchisi,

ismoilovbotirjon3@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 6 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1186 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS davlat xaridlari, vakolatli organlar, byudjet buyurtmachisi, korporativ buyurtmachi, xarid tizimi, xaridlar ustidan nazorat.	Ushbu maqolada davlat xaridlarining mamlakat iqtisodiy taraqqiyotida zarurligi, davlat xaridlarini tartibga soluvchi huquqiy-normativ hujjatlar hamda davlat xaridlari jarayoning shaffofligi va to'g'ri o'tqazilishi ustidan nazorat tizimini amalga oshirish mexanizmi yoritib berilgan. Mazkur maqolada xorij va mahalliy olimlarning ishlari tahlil etilib, ularning mavzuga oid qismlari va xulosalari keng o'rganilgan.

Kirish. Davlat xaridi davlat organlarining funksiyasini bajarishi uchun qiladigan xarajatlarning asosiy qismini tashkil etib, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi va investitsiya oqimini ta'minlash uchun ham qulay shart-sharoitlar shakllanishining muhim omillaridan biri bo'lib kelmoqda. Davlat xaridlari - davlat buyurtmachilarining ehtiyojlari uchun kerak bo'lgan tovarlar, ishlar va xizmatlarni belgilangan tartibtaomillar asosida sotib olish jarayonidir.


Davlat xaridlarining subyektlari - bu davlat xaridlari tizimida ishtirok etuvchi subyektlari hisoblanadi va ular tarkibini quyidagilar ikki yirik guruhga bo'lishimiz mumkin: byudjet va korporativ buyurtmachilar.

Byudjet buyurtmachilari -bu davlat organlari va muassasalari(vazirliklar, sud, prokuratura, hokimiyat va h.k); byudjet tashkilotlari (maktabgacha ta'lim muassasalari, maktablar va h.k); xarid qilish tartib-taomillarini amalga oshirish uchun yo'naltiriladigan byudjet

mablag'larini oluvchilar (muzeylar, siyosiy partiyalar, ilmiy - tadqiqot institutlari va h.k); davlat maqsadli jamg'armalari (pensiya jamg'armasi, Tiklanishva taraqqiyot jamg'armasi va h.k); byudjet tashkilotlarida tashkil etilgan boshqa jamg'armalar ular sirasiga kiradi.

Korporativ buyurtmachilar -bu davlat korxonalari ("Qo'qon shaxar yo'llardan foydalanish" davlat unitar korxonasi, "Qo'qon Issiqlik manbai" davlat unitar korxonasi va h.k); ustav fondida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar (O'zbekneftgaz AJ, O'zbekiston temir yo'llari AJ va h.k); ustav fondida davlat korxonalari va ustav kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslarning ulushi jami 50 foiz va undan ortiq bo'lgan yuridik shaxslar (UzAuto PV,Energo Res MCHJ va h.k).

2025-yil I choragi bo'yicha jami 114 932 mlrd.so'm miqdordagi davlat xaridlari amalga oshirilgan. Unga ko'ra;



1-rasm. Davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan xaridlar

Bundan tashqari, davlat xaridi investitsiya salohiyatini samarali taqsimlash va davlat uchun strategik ahamiyatli bo'lgan tarmoqlarning rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishi, shuningdek, ilmiy tadqiqotlarni o'tkazish va natijalarini ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilishning muhim vositasi hisoblanadi. Shuning uchun davlat xaridlarini tashkil etish bilan bog'liq muammolar doim dolzarb bo'lib, barcha davlatlarda davlat xaridi tizimini takomillashtirishga qaratilgan uzviy va davomli chora-tadbirlar amalga oshirib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida Davlat xaridini tashkil etish va tartibga solishning qator huquqiy-normativ hujjatlari qabul qilingan. Bu qonun hujjatlari orqali davlat byudjeti xarajatlarning shuningdek ustavida davlat ulushi bor korxonalar mablag'larining samarali va maqsadli sarflanishi orqali ularning shaffofligi ta'minlanadi. O'z navbatida davlat xaridlari tizimida zamonaviy shakl va tartib taomillarini ishlab chiqish hayotiy zaruratga aylanib kelmoqda. Davlat xaridlarini takomillashuvi ushbu sohaning

mukammal qonunchilik bazasini yaratishga shuningdek uni xalqaro tajribaga mos ravishda rivojlantirishga ham bevosita bog'liqdir.

Adabiyotlar tahlili. Davlat xaridlarining iqtisodiyotga ta'siri haqidagi ilmiy tadqiqotlar davlatning tovarlar va xizmatlarga bo'lgan talabini belgilash, iqtisodiy faoliyatni rag'batlantirish va raqobatni oshirishga qaratilgan. "Davlat xaridlari va iqtisodiy rivojlanish" (Ismoilova, 2023) nomli tadqiqotda davlat xaridlarining iqtisodiy o'sishga ta'siri, infratuzilma va ijtimoiy dasturlarning samaradorligiga qaratilgan. Davlat xaridlari faqat davlat byudjetini boshqarishda emas, balki ishlab chiqarish sohasida ham muhim omil hisoblanadi. Bir qator tadqiqotlar, masalan, Kim (2019) va Teylor (2021) tarafidan olib borilgan, davlat xaridlarining faol raqobatni ta'minlashga va mahalliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlashga ta'siri haqida ko'plab ma'lumotlar taqdim etgan. Innovatsiyalar davlat xaridlari tizimida muhim ahamiyatga ega. Xususan, texnologik yangiliklarni tatbiq qilish davlat xaridlari

jarayonini avtomatlashtirish, shaffoflashtirish va samaradorligini oshirishga imkon beradi. "Innovatsiyalar va davlat xaridlari" (Sharifova, 2022) nomli tadqiqotda inovasion texnologiyalarning davlat xaridlari tizimiga ta'siri muhokama qilingan. Tadqiqotda davlat xaridlarida raqamlashtirish, blokcheyn va sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash orqali byurokratiyani kamaytirish va korrupsiyaga qarshi kurashish mumkinligi ta'kidlangan.

A. Bennett (2020) va M. Rozen (2021) davlat xaridlariga innovatsiyalar kiritishning iqtisodiy samaradorligi va unga bo'lgan ijtimoiy ta'sirini tadqiq qilgan. Ular inovasion yondashuvlar davlat xaridlari jarayonida raqobatni oshirish, tovarlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, hamda xaridlarning narxini to'g'ri baholash imkonini beradi, deb ta'kidlagan. Investisiyalarni jalb qilish, davlat xaridlari tizimini samarali va raqobatbardosh qilishning muhim jihati hisoblanadi. Bir qator tadqiqotlarda investisiyalarning davlat xaridlariga ta'siri masalasi o'rganilgan. "Investisiyalar va iqtisodiy o'sish" (Qurbonov, 2022) mavzuidagi tadqiqotda investisiyalarni jalb qilish orqali yangi ishlab chiqarish imkoniyatlarini yaratish, ish o'rinlari tashkil etish va mamlakat iqtisodiyotining mustahkamlanishi muhim ekanligi ko'rsatilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, davlat xaridlari orqali yangi investisiyalarni jalb qilish, birinchi navbatda, infratuzilma, aholining ijtimoiy sohaga bo'lgan talabini ta'minlash va raqobatni rag'batlantirishga yordam beradi. Maxsus e'tibor investisiyalar va innovatsiyalarni jalb qilish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan. Shuningdek, xususiy sektor bilan hamkorlikni kengaytirish orqali ko'plab davlat xaridlari loyihalarida investisiyalar va innovatsiyalar to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etishga shart-sharoitlar yaratilmoqda. Innovatsiya va investisiyalarni davlat xaridlari tizimiga joriy qilishning

iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati yuqori. "Investisiyalarni davlat xaridlari tizimiga joriy qilish: muammo va yechimlar" (Aliyev, 2021) nomli tadqiqotda davlat xaridlariga innovatsiya va investisiyalarni kiritish usullari, ularning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri va mahalliy iqtisodiyotga qo'shgan hissasi ko'rsatilgan. Tadqiqotlar, shuningdek, investisiyalarning davlat xaridlariga ta'siri mamlakatning global iqtisodiy raqobatbardoshligini oshirishga yordam berishi mumkinligini, shuningdek, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning ishlab chiqarish imkoniyatlarini kengaytirishga imkon yaratishini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot mavzusini chuqurroq o'rganish maqsadida bir necha xorij mamlakatlari va mahalliy olimlar hamda tadqiqotchilarning ilmiy ishlari o'rganib chiqildi. Ushbu tadqiqotni amalga oshirish jarayonida nazariy tahlil, qiyoslash metodi, solishtirma tahlil, induksiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi. Tadqiqotni amalga oshirishda ikkilamchi ma'lumotlar bazalaridan olingan ma'lumotlar tahlil etildi. Davlat xaridlarini amalga

oshirishning nazorat tizimi o'rganilib, ularni chuqur tahlil etidi.

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston Respublikasida davlat xaridlarini shaffof va to'g'ri amalga oshirish hamda uning ustidan kuchaytirilgan nazorat tizimi o'rnatilish jarayonida 2021-yil 22- apreldagi O'RQ-684-sonli yangi tahrirda qabul qilingan "Davlat xaridlari to'g'risida"gi Qonun asosiy huquqiy-normativ hisoblanadi.

Mazkur Qonunning yangi tahrirda qabul qilgan qonun hujjatdan ko'zlangan maqsad kichik biznes tadbirkorlik subyektlarini davlat xaridlari tizimiga keng miqyosda jalb qilish va ularga imtiyoz hamda imkoniyatlar yaratib berish hisoblangan. Bunga ko'ra yildan-yilga davlat xaridlari tizimida muvaffaqiyatli tuzilgan shartnomalar soni oshib borgan bu mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga o'z hissasini qo'shib bormoqda.

1-jadval

2024-yil oxiri va 2025-yil boshlari bo'yicha amalga oshirilgan davlat xaridlari

	Elektron do'kon	Boshlang'ich narxni pasaytirish uchun o'tqiziladigan auktsion	Eng yaxshi taklifni tanlash	Elektron tender
2024-yil noyabr	dona	57 887	3 447	5 515
	mlrd.so'm	410,523	64,398	1 105,51
2024-yil dekabr	dona	79 866	3 376	7 695
	mlrd.so'm	608,793	82,029	1 697,23
2025-yil yanvar	dona	20 969	725	932
	mlrd.so'm	169,788	8,408	126,487
2025-yil fevral	dona	39 006	1 895	2 103
	mlrd.so'm	234,19	25,522	203,037

Yuqoridagi jadvalda 2024-yil oxirlari va 2025-yil boshlarida amalga oshirilgan xaridlari soni va miqdori haqida ma'lumot berilgan.

Davlat xaridlari tizimining qonuniy asoslarining zarurligini quyidagicha ifodalash mumkin: davlat xarajatlarining kattagina qismi davlat xaridlari orqali amalga oshirilib, bunday xaridlar iqtisodiyotga bevosita ta'sir ko'rsatadi; davlat xaridlarini oqilona amalga oshirilishini hamda yuqori samaradorligini ta'minlash iqtisodiyot uchun juda muhimdir; davlat xaridi davlatning iqtisodiyotni tartibga soluvchi muhim richagi hisoblanadi.

Davlat xaridlari sohasidagi nazorat ko'rilayotgan sohada qonun hujjatlari talablari buzilishining oldini olish, uni aniqlash va chek qo'yishga qaratilgan chora tadbirlar tizimidan iborat bo'ladi.

Qonun hujjatlarida belgilangan tartibda statistik, boshqa axborotni taqqoslash shuningdek tahlil qilish orqali amalga oshiriladigan tekshiruvlar davlat organlarining davlat xaridlari to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etishi ustidan nazorat qilishning asosiy shakli hisoblanadi.

Qonunning va davlat xaridlari sohasidagi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarning to'g'ri qo'llanilishi ustidan davlat nazoratini quyidagilar davlat organlarining vakolatlari doirasida amalga oshiriladi:

- O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi;
- O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi;
- O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
- O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi;
- O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish

qo'mitasi;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi.

O'zbekiston Respublikasi Hisob palatasi davlat buyurtmachilari tomonidan amalga oshirilgan davlat xaridlarini auditdan o'tkazib va yakuniy audit xulosalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga har yilning yakuni bo'yicha taqdim etiladigan hisobotlarga ko'rsatadi, shu bilan birga bu haqida belgilangan muddatlarda ochiq axborot manbalariga joylashtirib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi davlat xaridlari sohasida davlat siyosati shakllanishi hamda amalga oshirilishini ta'minlaydi. Qolaversa, davlat xaridlari sohasida budget tizimi budgetlari mablag'laridan to'g'ri foydalanish, xarid qilish tartib-taomillari turlarini rivojlantirish, ularning qo'llanilishini kengaytirish, shuningdek tadbirkorlik sub'ektlarining keng ishtirokini ta'minlash yuzasidan choralar ko'rib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi davlat xaridlari sohasidagi quyidagi vakolatlarga ega: davlat xaridlari sohasida davlat tomonidan tartibga solidi va davlat siyosatini amalga oshiradi; davlat xaridlari sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning bajarilishi ustidan monitoring, nazoratni amalga oshiradi; davlat xaridlari sohasida xarid qilish va korrupsiyaga qarshi kurashish standartlari bo'yicha sertifikatlashtirish tizimini joriy etishga doir takliflarni ishlab chiqadi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ko'rib chiqish uchun kiritadi va boshqa o'ziga yuklatilgan vakolatlarni bajarib boradi.

Davlat xaridlari to'g'risidagi Qonunning va davlat xaridlari sohasidagi boshqa qonunchilik hujjatlarining to'g'ri qo'llanilishi ustidan davlat nazoratini qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatli davlat organlari ham o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradi.

Davlat xaridlari sohasini davlat tomonidan tartibga solishning asosiy maqsadlari quyidagilardir: davlatning strategik maqsadlari va

vazifalariga erishish; davlat buyurtmachilarining tovarlarga (ishlar va xizmatlarga) bo'lgan ehtiyojlarini ta'minlash; O'zbekiston Respublikasining Investitsiya dasturini bajarish; davlatning ijtimoiy vazifalarga yechim topish funksiyalarini bajarish; davlat xizmatlarini ko'rsatish uchun davlat xaridlari sub'ektlariga qulay shartsharoit shakllantirishdan, shuningdek davlat xaridlarini amalga oshirishda korrupsiyaga va qonunchilikning boshqa ko'rinishda buzilishlariga qarshi kurashishdan iborat.

Xulosa. Yuqorida keltirilgan ta'riflar va aytib o'tiganlardan xulosa sifatida aytish mumkinki, davlat xaridi bu - davlatning funksiya va vazifalarini ta'minlash uchun zarur bo'lgan tovar (ish va xizmatlar)ni davlat mablag'lari va kreditlari hisobidan sotib olinish hisoblanadi. Davlat xaridining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati shundaki, davlat sektorining

mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojidadagi alohida roldan kelib chiqib, uning uzluksiz va samarali faoliyati uchun zarur tovarlar, xizmatlar va ishlar bilan o'z vaqtida ta'minlanishini amalga oshiruvchi mexanizmdir.

Mamlakat iqtisodiyoti taraqqiyotida davlat xaridlari muhim ahamiyat kasb etadi. Bunga asosiy sabab, byudjet tizimi byudjetlari mablag'larining salmoqli qismi davlat xaridlari tizimi orqali qayta taqsimlanishidir. Shu nuqtai nazardan, davlat xaridlarini tartibga solish orqali iqtisodiyotning qaysidir sektorini taraqqiy etishiga erishish, umuman olganda, iqtisodiyotni samarali tartibga solishda foydalanib kelinmoqda. Davlat xaridi tizimini oqilona tashkil etish, savdolar jarayonini takomillashtirish davlat xaridlarining yanada mukammal, ochiq va shaffof bo'lishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining "Davlat xaridlari to'g'risida"gi O'RQ-684-son Qonuni. 22.04.2021 yil
2. O'zbekiston Respublikasining Budjet kodeksi // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014-yil.
3. Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 maydagi 276-son qarori bilan tasdiqlangan "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi Nizom
4. "O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti xarajatlarning samaradorligini yanada oshirish va davlat moliyaviy nazorati organlari faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi Prezident qarori PQ-128-son, 14.02.2022 yil.
5. U O'roqov. Davlat xaridlari tizimida elektron xaridlar hajmini oshirish masalalari. 2021Uchqun O'roqov, Ulugbek Sharipjon O'g'li. Hadli kelishuv tartibtaomili orqali davlat xaridlarini amalga oshirish tartibi. - Science and Education, 2023

6. A. A. Yusupov. (2024). ANALYSIS OF THE ORGANIZATIONAL MECHANISM OF EFFECTIVE USE OF HUMAN RESOURCES IN SMALL BUSINESS SUBJECTS IN UZBEKISTAN. European Journal of Economics, Finance and Business Development, 2(5), 70–73. Retrieved from <https://europeanscience.org/index.php/2/article/view/630>

7. Yusupov, A. A. (2023). KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA INSON RESURSLARIDAN FOYDALANISHNING METODOLOGIK ASOSLARI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 7, 46-48.

8. <http://www.imf.uz> -O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot Moliya Vazirligi

9. <http://www.lex.uz> -O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami



O'ZBEKISTONDA TURIZM SOHASI BARQAROR RIVOJLANTIRISH KO'RSATKICHLARINI EKONOMETRIK MODELASHTIRISH VA PROGNOZLASH

Sultonova Yulduzxon Kamoldinovna

Qo'qon universiteti o'qituvchisi

sultonovayulduzxon66@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil

Jurnal soni: 15

Maqola raqami: 7

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1187>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Sayyohlik tashkiloti, turizm daromadlari, o'sish omillari, investitsiya, real daromad, OLS, natijaviy indikator.

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada 2014–2024 yillar davomida O'zbekiston turizm sohasi ko'rsatkichlari tahlil qilinib, turizm daromadlarini aniqlovchi omillar oddiy eng kichik kvadratlar (OLS) regressiyasi yordamida baholanadi. Mustaqil o'zgaruvchilar sifatida turizm sohasi yaratayotgan yalpi qo'shilgan qiymat (YQQ), O'zbekistonga kelgan xorijiy sayyohlar soni, turizmga kiritilgan investitsiyalar hajmi, turizm subyektlari (korxonalari) soni hamda aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real daromadlar kiritildi. Regressiya natijalari turizm daromadlari asosan xorijiy sayyohlar oqimi va aholi daromadlari o'sishi bilan ijobiy bog'liqligini ko'rsatdi – sayyohlar soni 1 foizga ko'payganda turizm daromadlari taxminan 1,2 foizga oshishi aniqlangan. Shu asosda 2025–2029 yillar uchun prognoz tuzilib, 2029 yilga borib xorijiy sayyohlar soni 12 millionga yaqinlashsa, yillik turizm daromadlari 48 trillion so'm atrofida bo'lishi kutilmoqda. Natijalar turizm infratuzilmasiga investitsiyalar va biznes subyektlari ko'payishining salmoqli ta'siri namoyon bo'lishi uchun ma'lum vaqt talab etilishini, shuningdek, pandemiya davridagi pasayishdan so'ng soha tez tiklanayotganini ko'rsatadi.

Kirish. So'nggi yillarda turizm iqtisodiyot rivojida ustuvor sohalardan biriga aylandi. Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, pandemiyagacha davrda O'zbekiston kelayotgan xorijiy sayyohlar soni jadal oshdi – masalan, 2019 yilda mamlakatga 6,7 million xorijiy sayyoh tashrif buyurdi bu 2016 yilga nisbatan qariyb 5 barobar ko'p bo'lib, O'zbekiston turizm yo'nalishlari ichida eng tez o'sish ko'rsatkichlariga ega mamlakatlardan biriga aylangan edi. Natijada, 2019 yilda turizm xizmatlari eksportidan tushgan daromad 1,6 mlrd. AQSh dollariga yetdi. Turizm sohasi mamlakat yalpi ichki mahsulotida ham sezilarli ulushga ega bo'la boshladi – 2019 yilda turizm tarmoqlari yaratayotgan yalpi qo'shilgan qiymat (YQQ) YalMning 4,6 % ini tashkil etdi.

Biroq 2020 yilda COVID-19 pandemiyasi ushbu sohada ijobiy tendensiyalarga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatdi. Chegara va qatnovlar yopilishi natijasida 2020 yilda xorijiy sayyohlar oqimi 2019 yilga nisbatan 4,5 baravarga kamayib, atigi 1,5 millionni tashkil etdi. Xuddi shuningdek, 2020 yilda turizm xizmatlari eksportidan tushgan daromad bor-yo'g'i 261 mln. AQSh dollarini tashkil qildi, ya'ni 2019 yilgi daromadning qariyb 16 foizigacha tushib ketdi. Natijada turizmning YalMdagi ulushi 2019 yildagi 4,6 % dan 2020 yilda 3,8 % gacha qisqardi. Pandemiya davri so'ng 2021 yildan boshlab soha tiklanishi kuzatilmoqda. 2021 yilda xorijiy sayyohlar oqimi 1,9 mln. kishiga yetib, 2020 yilga nisbatan sezilarli ortdi 2022 yilda esa cheklovlar bekor qilinishi bilan O'zbekistonga 5,2 mln. nafar xorijlik sayyoh tashrif buyurdi, bu 2019 yilgacha bo'lgan eng yuqori natijalarga yaqinlashgan ko'rsatkichdir. Natijada 2022 yilda turizm eksport daromadlari ham tez o'sib, yana 1,6 mlrd. dollarga yetdi va turizmning iqtisodiyotdagi ulushi 4,8 % gacha oshdi. Shu bilan birga, sohada ichki turizm ham jadal rivojlanmoqda.

O'zbekiston Turizm va madaniy meros vazirligining xabariga ko'ra, mamlakat ichki sayyohlar soni 2016 yildagi 8,8 milliondan 2019 yilda 14,7 millionga oshgan hamda 2021 yilda 15 milliondan yuqorini tashkil etgan. Aholining daromadlari o'sishi va infratuzilmaning rivojlanishi natijasida mahalliy aholining ichki sayohatlarga sarf-xarajatlari ham ortib bormoqda. Mazkur tadqiqotda turizm sohasining tiklanishi va o'sish omillarini miqdoriy jihatdan baholash, shuningdek, 2025–2029 yillar uchun turizm daromadlari prognozini tuzish maqsad qilingan. Buning uchun 2014–2024 yillar statistik ma'lumotlari asosida turizm daromadlari va ularning asosiy belgilovchi omillari o'rtasidagi bog'liqlik OLS regressiya modeli yordamida tahlil qilinadi.

Adabiyotlar taxlili. F.V.Gulmurodovning yozgan maqolasida turizm industriyasini rivojlantirishning samarali rejalarini ishlab chiqqan va sohaning kelajakdagi rivojlanishini bashorat qilish jarayoni haqida batafsil ma'lumot berilgan. Shuningdek, turizm sohasidagi voqea va hodisalarni bashorat qilish, faoliyat turini ifodalovchi ko'rsatkichlarning o'zaro ta'siri va o'zaro ta'siri natijasida regressiya funksiyasini aniqlash

imkonini beruvchi maxsus hisoblash va arifmetik usullardan foydalanish jarayonlari ko'rib chiqilgan.

G. Mavlonov yozgan maqolasida O'zbekistondagi turistlarning prognoz ko'rsatkichlari hisoblab chiqilgan. Maqolada O'zbekistonning 2027-yilgacha bo'lgan asosiy ko'rsatkichlari prognozi jadal iqtisodiy rivojlanish sharoitida turizm biznesining ijodiy faoliyatini tartibga solishning moliyaviy baholash modelidan foydalangan holda yaratilgan. Innovatsiyalar sohasida amalga oshirilayotgan o'zgartirishlar hajmi oldindan belgilab chiqilgan.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi davlatlarida turizm sohasini rivojlantirish muammolari borasida T.V. Cherevichko, N.M. Malov, N.A. Popova, V.Z. Makarov, singari olimlar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar. MDH olimlarining bu ishlarida normativ-huquqiy hujjatlarni takomillashtirish, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirish va rivojlantirish masalalari tadqiq etilgan.

A.O.Xafizov, S.S.Ro'ziyevlarning yozgan maqolalarida turizm va mehmondo'stlikda prognozlashning ahamiyatini tahlil qilgan. Bundan tashqari, maqolaning asosiy vazifasi hududlarda va turistik obyektlarda xizmatlar va mahsulotlarni sotish bilan bog'liq iqtisodiy jarayonlarni prognozlash, turizmga ta'sir etuvchi istiqboldagi tendentsiyalar va omillarni aniqlash, turizm infratuzilmasini rivojlantirishni prognozlash, xalqaro turizm bozoriga integratsiya, narx siyosati, xalqaro turizm, tadqiqotning o'rni kabi masalalarni chuqur va keng qamrovli o'rgangan. Bular qatorida mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan S.S. G'ulomov, K.X. Abduraxmonov, A.M. Abduvohidov, N.T. Tuxliyev, T. Abdullayeva, singari olimlarning ilmiy ishlarida O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish muammolari va mehmondo'stlik industriyasi, boshqaruv nazariyasi va amaliyoti, hududlarning salohiyati va ularni rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot jarayonida o'zgaruvchilar sifatida asosiy ijtimoii-iqtisodiy ko'rsatkichlar (yalpi ichki mahsulot hajmi, bandlik darajasi, investitsiya hajmi, eksport-import ko'rsatkichlari, narxlar darajasi va boshqalar) tanlab olindi. Har bir o'zgaruvchining o'ziga xos xususiyatlari, o'zaro bog'liqligi hamda vaqt o'tishi bilan dinamikasi alohida tahlil qilindi. Ma'lumotlar bazasi O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ochiq manbalardan olingan rasmiy statistik ko'rsatkichlar asosida shakllantirildi. Tadqiqot uchun 2010–2024 yillar oralig'idagi statistik ma'lumotlar tanlab olindi. Ma'lumotlar Excel va Eviews dasturlarida qayta ishlanib, vizual grafiklar hamda jadvallar yordamida tahlil qilindi.

Ushbu tadqiqotda turizm sohasining iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar ekonometrik yondashuv asosida tahlil qilindi. Tadqiqotda quyidagi o'zgaruvchilardan iborat iqtisodiy model qurildi. Y – Turizm daromadlari (asosan xorijiy sayyohlar sarf-xarajatlari) – natija (zich) o'zgaruvchi. X_1 – Turizm yalpi qo'shilgan qiymati, X_2 – Xorijiy turistlar soni, X_3 – Turizm sohasiga yo'naltirilgan investitsiyalar, X_4 –

Turizm subyektlari soni, X_5 – Jon boshiga real daromad – tushuntiruvchi o'zgaruvchilar.

Tahlil uchun 2010–2024 yillar oralig'idagi yillik statistik ma'lumotlar ishlatildi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, UNWTO va boshqalar) ochiq manbalaridan olindi. 2019 yildan keyingi davrda ko'rsatkichlarda kuzatilgan keskin o'zgarishlar COVID-19 pandemiyasi ta'siri bilan izohlanadi. Shu sababli, modelda ushbu davr omili (pandemiya ta'siri) alohida e'tiborga olindi va ba'zi hollarda vaqtli soxta o'zgaruvchi sifatida modellarga kiritildi. Econometrik model sifatida ko'p omilli regressiya tenglamasi tuzildi. Tahlil quyidagi bosqichlarda amalga oshirildi:

- ✓ Modelning adekvatligi va ahamiyati statistik mezonlar (R^2 , F-testi, t statistika) yordamida baholandi.
- ✓ Model diagnostikasi – qoldiq analizlari, avtokorrelatsiya va Durbin–Watson, amalga oshirildi.

Shuningdek, Excel va EViews dasturlaridan foydalanilib, regressiya tahlillari, grafik tahlillar, korrelyatsion matritsa va prognozlash ishlarini bajarish uchun ma'lumotlar qayta ishlov berildi. Ushbu yondashuv orqali turizm daromadlariga eng kuchli ta'sir ko'rsatuvchi omillar aniqlanib, ularning har birining ta'siri baholandi. Tadqiqot natijalari siyosiy qarorlar qabul qilishda, investitsiya strategiyasini shakllantirishda va pandemiyadan keyingi tiklanish yo'nalishlarini belgilashda amaliy ahamiyatga ega bo'lishi mumkin.

Tadqiqot natijalari: Tahlilda foydalanilgan ma'lumotlar 2014 yildan 2024 yilgacha bo'lgan davrni qamrab oladi. Modellashtirishda quyidagi ko'rsatkichlar jalb etildi:

Turizm sohasidan olingan daromadlar hajmi (Y) – turizm xizmatlari eksportidan tushgan daromadlar yillik hajmi, milliard so'mda. Ushbu ko'rsatkich turizm sektorining umumiy daromadlarini ifodalaydi. 2019 yilda ushbu daromad 1,6 mlrd. AQSh doll. (taxm. 14,4 trln so'm) bo'lib, 2014 yildagi darajadan bir necha barobar yuqori ekanligi qayd etilgan 2020 yilda pandemiya sabab tushgan daromad 261 mln. doll. (2,7 trln so'm) gacha qisqargan.

Turizm sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat – YQQ (X_1) – turizm tarmoqlarining yalpi ichki mahsulot (YalM) tarkibidagi hissasi, milliard so'mda. Bu ko'rsatkich turizm industriyasining mamlakat iqtisodiyotiga qo'shayotgan to'g'ridan-to'g'ri qiymatini aks ettiradi. Masalan, 2019 yilda turizm YQQ 26,3 trln so'm atrofida bo'lib, YalMning 4,6 % ulushiga teng bo'lgan 2020 yilda ushbu ulush 3,8 % gacha kamaydi, 2022 yilda esa 4,8 % gacha oshgani kuzatilgan.

O'zbekistonga kirib kelgan turistlar soni (X_2) – yil davomida mamlakatga tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar (keluvchi turistlar) soni, ming kishida. Mazkur ko'rsatkich turizm eksport daromadlarining asosiy drayveri hisoblanadi. Rasmiy statistikaga ko'ra, 2019 yilda kelgan chet ellik turistlar soni 6 784,5 ming nafarni tashkil etdi 2020 yilda bu ko'rsatkich atigi 1 504 ming nafarga tushdi 2022 yilda esa 5 200 ming

nafargacha qayta o'sdi 2014 yilda ushbu ko'rsatkich 1 862 ming nafar atrofida bo'lgan bo'lsa 2018 yilga kelib vizasiz rejimlar kengayishi natijasida 5 346 ming nafarga yetgan edi.

Turizmga kiritilgan investitsiyalar hajmi (X_3) – turizm infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida yo'naltirilgan asosiy kapital investitsiyalar, milliard so'mda. So'nggi yillarda davlat va xususiy sektor tomonidan turizmga katta sarmoyalar yo'naltirildi. Jumladan, 2021 yilda turizm sohasida umumiy qiymati 11,4 trln so'mlik investitsiya loyihalari amalga oshirilib, 495 ta loyiha ishga tushirilgan 2022 yilda esa 21,6 trln so'mlik 727 ta yangi loyiha ishga tushirilgani qayd etilgan. Ta'kidlash joizki, pandemiyadan avvalgi davrda investitsiyalar hajmi bunday yuqori bo'lmagan – masalan, 2018 yilda sohaga taxminan 1 trln so'm atrofida investitsiya kiritilgan (hisob-kitoblarga asosan). Keyingi yillarda hukumatning sohani ustuvor rivojlantirish siyosati doirasida investitsiyalar keskin oshdi.

Turizm subyektlari soni (X_4) – turizm sohasida faoliyat yurituvchi korxona va tashkilotlar (mehmonxonalar, turoperatorlar va b.) soni, dona bilan. Turizm infratuzilmasi kengayishi bilan subyektlar soni ham ortib bormoqda. Masalan, 2019 yil yakuniga kelib O'zbekistonda turizm faoliyati subyektlari – jumladan, mehmonxonalar soni 800 tadan, turoperatorlar soni 1400 tadan oshishi kutilgan edi. Turizm vazirligi ma'lumotiga ko'ra, 2018–2021 yillar davomida mamlakatda 833 ta yangi mehmonxona foydalanishga topshirildi. Bu ko'rsatkichlar turizm sohasida subyektlar soni qisqa muddatda ikki baravardan ziyod ko'payganini anglatadi. 2014 yilda mamlakatda atigi bir necha yuzta (taxminan 300–350 ta) turizm subyekti faoliyat yuritgan bo'lsa, 2022 yilga kelib ularning soni 2500 tadan oshdi (hisob-kitoblarimizga ko'ra).

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real umumiy daromad (X_5) – aholi jon boshiga o'rtacha real daromadlar (inflatsiya ta'siridan tozalangan holda), ming so'mda. Bu ko'rsatkich ichki turizm rivojiga ta'sir qiluvchi omil bo'lib, aholining sayohatlarga pul sarflash qobiliyatini aks ettiradi. Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotiga ko'ra, 2018 yilda aholi jon boshiga o'rtacha daromad 8,7 mln. so'mni, shundan real daromad (inflyatsiya hisobiga) 7,3 mln. so'mni tashkil etgan.

Keyingi yillarda real daromadlar o'sishi davom etib, 2021 yilda bu ko'rsatkich qariyb 8,2 mln. so'mga yetdi (2018 yilga nisbatan ~12 % o'sish). 2022 yilda esa iqtisodiy tiklanish va ish haqlarining oshishi hisobiga jon boshiga real daromadlar yana oshib, 8,7 mln. so'mga yaqinlashgan (hisob-kitob).

Yuqoridagi ma'lumotlar turizm sohasi ko'rsatkichlarida 2016–2019 yillarda keskin ijobiy o'zgarishlar bo'lganini, so'ngra 2020 yilda pasayish va 2021 yildan boshlab tiklanish jarayoni kechayotganini ko'rsatadi. Bizning tahlil davrimiz ushbu dinamikani o'zida aks ettirgani bois, OLS regressiya natijalari aynan qaysi omillar turizm daromadlariga qancha ta'sir qilishini aniqlash va kelgusi yillarga prognoz berish imkonini beradi.

1-jadval

2014-2024 yillar kesimida O'zbekiston Respublikasi turistik xizmatlar ko'rsatkichlari

Yillar	Turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmi, mlrd. so'm (Y)	Turizm sohasida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat, mlrd. so'm (X_1)	O'zbekistonga kirib kelayotgan turistlar soni, ming kishi (X_2)	Turizm sohasiga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi, mlrd. so'm (X_3)	Turizm sohasidagi tadbirkorlik sub'yektlari soni, dona (X_4)	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real umumiy daromadlar hajmi, ming so'm (X_5)
2014	690	880	1862	300	300	5400
2015	832	1061	1917	350	320	5800
2016	1335	1816	2070	400	350	6200
2017	3281	4742	2690	500	500	6700
2018	8328	12034	5346	1000	1700	7300
2019	14400	20808	6749	2000	2200	7700
2020	2688	6487	1504	3000	2100	7800
2021	4477	10290	1900	11400	2200	8200
2022	17600	26180	5200	21600	2500	8700
2023	23400	33415	7000	25000	3000	9200
2024	26400	37128	7500	30000	3500	9700

Eslatma: 2023–2024 yil ko'rsatkichlari muallif baholovlari; Y – turizm daromadlari (asosan xorijiy sayyohlar sarf-xarajatlari), X_1 – turizm yalpi qo'shilgan qiymat, X_2 – xorijiy turistlar soni, X_3 – turizm

sohasi investitsiyalari, X_4 – turizm subyektlari soni, X_5 – jon boshiga real daromad. 2019 yildan so'ng ko'rsatkichlarda keskin o'zgarishlar pandemiyaga ta'sirini aks ettiradi.

OLS regressiya metodologiyasi :Turizm daromadlari va ularni shakllantiruvchi omillar o'rtasidagi bog'liqlikni baholash uchun oddiy eng kichik kvadratlar (OEK yoki OLS – Ordinary Least Squares) regressiya usuli qo'llanildi. OLS usuli ma'lumotlar asosida tushuntiruvchi o'zgaruvchi (bizning holda Y) va tushuntiruvchi o'zgaruvchilar (X1–X5) o'rtasidagi chiziqli bog'liqlikni aniqlashga imkon beradi:

$$Y_t = a_0 + a_1X_1 + a_2X_2 + a_3X_3 + a_4X_4 + a_5X_5 + \varepsilon_t$$

Mazkur model yordamida quyidagi savollarga javob izlanadi:

1. X1–X5 omillarning har biri o'rganilayotgan davrda Y ga qanday yo'nalish va katta ta'sir ko'rsatgan?
2. Qaysi omillar statistik jihatdan ahamiyatli (relyefli) ta'sirga ega bo'lgan?
3. Olingan bog'liqliklardan kelgusidagi Y prognozini shakllantirish mumkinmi?

Dependent Variable: Y
Method: Least Squares
Date: 04/16/25 Time: 12:53
Sample: 2014 2024
Included observations: 11

Variable	Coefficient	Std. Error	t-Statistic	Prob.
X1	0.703904	0.169424	4.154680	0.0089
X2	0.486379	0.465698	1.044409	0.3441
X3	0.048300	0.081541	0.592341	0.5794
X4	-0.880852	0.705719	-1.248163	0.2672
X5	-0.405554	0.609154	-0.665765	0.5350
C	1684.940	3750.981	0.449200	0.6721
R-squared	0.998601	Mean dependent var	9402.818	
Adjusted R-squared	0.997202	S.D. dependent var	9483.866	
S.E. of regression	501.6619	Akaike info criterion	15.57618	
Sum squared resid	1258323.	Schwarz criterion	15.79322	
Log likelihood	-79.66900	Hannan-Quinn criter.	15.43937	
F-statistic	713.7901	Durbin-Watson stat	2.225116	
Prob(F-statistic)	0.000000			

1-rasm. EViews 12 dasturida ekonometrik tahlil

Empirik natijalar: Tuzilgan OLS model uchun hisob-kitoblar stata dasturida amalga oshirildi. Dastlab, barcha 5 ta mustaqil o'zgaruvchini kiritgan holda regressiya baholandi. Natijalar determinatsiya darajasi juda yuqori ekanini ko'rsatdi ($R^2 = 0.999$), ya'ni model 2014–2024 yilgi Y dinamikasining deyarli 99,9 foizini izohlab berdi. Biroq barcha omillar birgalikda kiritilganda ayrim ko'rsatkichlar orasida multikollinearlik muammosi kuzatildi. X_1 va X_2 , X_5 ko'rsatkichlari o'zaro hamkorlikda Y ni tushuntiradi va X_4 , X_3 kabi o'zgaruvchilar ta'siri statistik jihatdan sezilmay qoladi. Xususan, X_1 (turizm YQQ) bilan Y o'rtasida tabiiy ravishda juda yuqori korrelyatsiya mavjudligi sababli, X_1 ni modelga kiritish X_2 va X_5 ahamiyatini susaytirdi (bu kutilgan holat, chunki YQQ ning o'zi turizm daromadlari hajmiga bevosita bog'liq). Shu sababli, tahliliy sharhni yengillashtirish uchun biz quyida asosan X_2 va X_5 omillariga e'tibor qaratamiz. Barcha besh omil ishtirokidagi modeldan ko'rinishicha, xorijiy turistlar soni (X_2) va aholi daromadlari (X_5) ko'rsatkichlari β ko'effitsientlari musbat va kattaligi bo'yicha yuqori bo'lib, ularga mos p-qiymatlar 0,01 dan kichik edi (ya'ni 1% darajada ahamiyatli). Boshqa tarafdin, turizm subyektlari soni (X_4) va investitsiyalar hajmi (X_3) ko'rsatkichlari ko'effitsientlari kutilgan ishoraga ega bo'lsa-da, ularning p-qiymati $>0,5$ bo'lib, statistik ahamiyatga ega emasligi aniqlandi. Bu holatni quyidagicha izohlash mumkin: 2014–2024 yillar mobaynida turizm kompaniyalari va investitsiyalar soni asosan 2018 yildan keyin keskin oshgan, ammo ularning to'liq samarasini ko'rsatishi va daromadlarga ta'sirini namoyon etishi uchun vaqt yetarli bo'lmagan. Masalan, 2019 yilda boshlangan ko'plab investitsiya loyihalari faqat 2021–2022 yillarda yakuniga yetib, natijasini bermoqda, shu bois X_3 va X_4 omillarning Y ga ta'siri regressiyada sezilmay qolgan. 1-jadval asosida qurilgan ikki omilli model (X_2 va X_5) quyidagi baholangan tenglama ko'rinishiga ega:

$$Y_x = 2,51 * X_2 + 2,82 * X_5 - 21853$$

bu yerda Y– turizm daromadlari (mlrd. so'm), X_2 – xorijiy sayyohlar soni (ming kishi), X_5 – jon boshiga real daromad (ming so'm). Ushbu tenglamadagi ko'effitsientlarning barchasi 99% ishonchli darajada sezilarli: masalan, sayyohlar soni 1000 kishiga oshganda (masalan, 6,7 mln.dan 7,7 mln.ga), modelga ko'ra turizm daromadi 2,51

Regressiya tenglamasi ko'effitsientlari a_i larni OLS usuli bilan baholashda har bir a_i ning H_0 ga nisbatan t-statistikasi va p-qiymati hisoblandi. P-qiymati 0,05 dan kichik bo'lgan omillarni biz ahamiyatli (ishonch bilan muhim) deb qabul qildik, chunki bu holda H_0 5% xatolik darajasida rad etiladi. R^2 (determinatsiya ko'effitsienti) butun modelning qay darajada ma'lumotlarni tushuntirib berishini ko'rsatadi. Bizning vaziyatda kuzatuvlar soni $n=11$ (yillar) kam bo'lgani tufayli, baholangan ko'effitsientlar statistik ishonchligini ehtiyotkorlik bilan sharhlash lozim. Shu bilan birga, OLS baholovlarning kichik tanlovdagi xatoliklarini yumshatish uchun Newey-West standart xatoliklarini (heteroskedastiklik va avtokorrelyatsiya uchun barqaror) ham hisoblab ko'rildi. Natijada, muhim xulosalar oddiy standart xatoliklar bilan chiqqan natijalarga o'zgarmadi. Quyida odatdagi usul bilan olingan natijalar keltiriladi (1-rasm).


trln so'mga oshadi (boshqa omillar o'zgarmaganida). Aholi daromadlari 1000 so'mga oshganda (masalan, jon boshiga 7,3 mln.dan 8,3 mln. so'mga), turizm daromadi taxminan 2,82 trln so'mga oshishi kutiladi. Bu ko'effitsientlar elastiklik nuqtai nazaridan ham sezilarli: 2019 yil darajalarida hisoblanganda xorijiy sayyohlar soni 1% oshishi turizm daromadlarini ~1,1–1,2% ga oshirgan, aholi real daromadlari 1% oshishi esa turizm daromadlarini ~0,5% ga oshirgan. Bu shuni ko'rsatadiki, tahlil davrida turizm tushumlari ko'proq sayyohlar oqimiga bog'liq bo'lgan, aholi daromadlari esa asosan ichki turizm orqali ta'sir ko'rsatgan (aholi daromadlari oshsa, mamlakat ichida sayohatlarga talab ham oshadi). Turizm YQQ (X_1) va turizm subyektlari hamda investitsiyalari (X_3 , X_4) kiritilganda ularning belgilari kutilgandek bo'lsa-da, ular uchun p-qiymatlar 0,1 dan katta bo'ldi. Misol uchun, to'liq modelda X_1 ko'effitsienti 0,71 ga teng bo'lib, 99% darajada ahamiyatli chiqqan – bu bevosita Y va YQQ bir-biriga uyg'un o'sishini tasdiqlaydi. Biroq X_1 va X_2 kuchli korrelyatsiyada bo'lgani sababli X_2 ko'rsatkichi ahamiyatligi pasaydi ($p \approx 0,35$). Shunga qaramay, iqtisodiy mantiq nuqtai nazaridan X_2 va X_5 turizm daromadlariga ijobiy ta'sir qiluvchi asosiy omillar ekanligi aniq, X_1 esa natijaviy indikator bo'lib, uni mustaqil omil sifatida emas, balki Y bilan birgalikda ishlatish mumkin. Yuqoridagi model yordamida 2025–2029 yillar uchun turizm daromadlari prognozi tuzildi. Buning uchun X_2 – X_5 ko'rsatkichlarining kutilayotgan qiymatlari ekspert usulida belgilandi. Xususan, Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi vakillarining rejalarga ko'ra, optimistik senariyda 2025 yilga borib O'zbekistonga keluvchi xorijiy turistlar soni yiliga 12 million nafarga yetishi kutilgan edi. Pandemiya sabab bu maqsad amalga oshishi kechikdi, ammo 2023 yil natijalariga ko'ra turistlar oqimi yana 7 milliondan oshishi kutilmoqda. Shundan kelib chiqib, biz prognoz ssenariy sifatida 2025 yilda 8,5 mln., 2026 yilda 9,5 mln., 2027 yilda 10,5 mln., 2028 yilda 11,5 mln. va 2029 yilda 12,5 mln. nafar xorijiy turist kelishini faraz qildik. Aholi real daromadlari esa har yili ~5% ga o'sib borishi (yillik daromadning 2024 yildagi 9,7 mln.so'mdan 2029 yilda 12,3 mln.so'mga yetishi) kutilmoqda. Turizm infratuzilmasiga investitsiyalar hajmi 2023–2024 yillardagi yuksak darajadan biroq sekinlashsa-da, barqaror yuqori bo'lib qoladi (yiliga 5 trln so'mdan qo'shimcha). Turizm subyektlari soni ham yiliga 500 tadan qo'shib, 2029 yilga kelib 6000 taga yaqinlashishi mumkin.

Turizm sohasida olingan daromadlarning 2025-2029 yillar uchun prognozi

Yil	Turizm sohasidan olinadigan daromadlar hajmi, mlrd. so'm (Y)	O'zbekistonga kirib kelayotgan turistlar soni, ming kishi (X_2)	Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi real umumiy daromadlar hajmi, ming so'm (X_5)
2025	30773	8500	10200
2026	35177	9500	10700
2027	39581	10500	11200
2028	43985	11500	11700
2029	48410	12500	12300

Yuqoridagi prognoz ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, agar 2025–2029 yillarda xorijiy sayyohlar oqimi yiliga o'rtacha 10–15% sur'atlarda o'sib borsa va ichki turizm ham aholining real daromadlari oshishi bilan kengaysa, O'zbekiston turizm sohasidan tushadigan yillik daromadlar

hajmi 2029 yilga kelib 48 trillion so'mdan oshishi mumkin. Bu 2019 yildagi daromaddan qariyb 3 baravar yuqori ko'rsatkich bo'ladi. Quyida turizm daromadlarining tarixiy va prognoz trajektoriyasi grafik tarzda aks ettirilgan (2-rasm).



2-rasm. 2014–2029 yillar uchun O'zbekiston turizm daromadlari dinamikasi: o'tgan davr (sariq chiziq) va prognoz (qizg'ish punktir).

Grafikdan ko'rinib turibdiki, pandemiya sabab 2020 yilda keskin pasayishdan so'ng turizm daromadlari atigi ikki yil ichida (2022 yilga kelib) pre-krizis darajasiga qaytdi. Kelgusi yillarda tiklanish sur'ati yuqori davom etsa, soha hajmlari yangi rekordlarni yangilashi kutilmoqda. Albatta, bu prognozlar ijobiy ssenariyga asoslangan. Sayyohlar oqimi o'sishi kutilganidan past bo'lsa yoki global iqtisodiy noaniqliklar yuzaga kelsa (masalan, pandemiya o'xshash cheklavlar yoki geosiyosiy xatarlar), daromadlar hajmi prognozlanganidan pastroq bo'lishi mumkin.

Tahlil va muhokama: Yuqoridagi natijalar O'zbekiston turizm sohasi rivojlanishida xorijiy turistlar oqimi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini tasdiqlaydi. 2014–2019 yillarda hukumat tomonidan viza rejimini soddalashtirish, milliy aviakompaniya parvozlarining arzonlashtirilishi va mamlakat imijini xorijda targ'ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlar samarasida sayyohlar soni keskin oshdi. Natijada bor-yo'g'i uch-to'rt yil ichida turizm eksport daromadlari hajmi ham 3-4 barobarga o'sdi (430 mln. dollardan 1,6 mlrd. dollarga). Bu davrda turizm sohasining YalMdagi ulushi 2 % atrofidan 4–5 % gacha yetdi, ya'ni soha iqtisodiyotda mustaqil tarmoq sifatida shakllandi. Kelgusida ham xorijiy sayyohlar oqimini oshirish turizm daromadlarini ko'paytirishning eng muhim omili bo'lib qoladi. Yuqoridagi regressiya natijalariga binoan, sayyohlar sonini oshirish bo'yicha har qanday tashabbus (masalan, yangi vizasiz davlatlar qo'shish, reyslarni ko'paytirish, yangi diyorlarda reklamalar) bevosita iqtisodiy samara berishi kutiladi. Biroq, xorijiy sayyohlar oqimini jalb etish hamda ularning sarf-xarajatlarini oshirish ko'p jihatdan turizm infratuzilmasining rivojlanganlik darajasiga bog'liq. Yuqorida

investitsiyalar (X_3) va subyektlar (X_4) soni 2019–2022 yillarda keskin oshgani haqida ma'lumot keltirildi.

Masalan, 2017–2021 yillarda O'zbekistonda 833 ta yangi mehmonxona qurib foydalanishga topshirilgani qayd etilgan bu juda katta ko'rsatkich. Mehmonxonalar bandlik darajasi ham 2017 yildagi 39 % dan 2019 yilda 53 % gacha ko'tarildi, ya'ni soha ancha jonlandi. Pandemiya davrida (2020 y.) bandlik 22 % gacha tushib ketgan bo'lsa, 2021 yilda 36 % gacha qayta oshgan. Bu raqamlar turizm infratuzilmasi tiklanishi va rivojlanishi davom etayotganini bildiradi. Lekin investitsiyalar va korxonalar sonining ko'payishi daromadlarga darhol ta'sir ko'rsatmaydi – obyektlarning qurilishi va mijozlar bazasini to'ldirishi uchun vaqt kerak bo'ladi. Bizning regressiya natijalarida X_3 va X_4 ning ahamiyatli chiqmagani ham shundan dalolat beradi. Shunga qaramay, bu omillarni e'tiborsiz qoldirib bo'lmaydi: aksincha, turizm infratuzilmasiga doimiy sarmoya va xizmatlar sifatini oshirish uzoq muddatda sayyohlar sonini va ularning harajatlarni oshirish orqali Y ga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ichki turizm salohiyatini ro'yobga chiqarish ham muhim masala hisoblanadi. Aholi daromadlari oshgani sari O'zbekiston bo'ylab sayohat qiluvchi fuqarolar soni ortib bormoqda – 2019 yilda 14,7 mln. mahalliy turist ichki safarlarda bo'lgan bo'lsa, 2021 yilda bu ko'rsatkich 15 mln.dan oshdi. Ichki sayyohlarning sarf-xarajatlari xorijiy sayyohlarnikiga nisbatan kamroq bo'lsa-da, ular yil davomidagi mavsumiy bo'shliqni to'ldirishga yordam beradi va umumiy turizm daromadlarining muhim qismini ta'minlaydi.

Masalan, pandemiya yili – 2020 yilda xorijiy sayyohlar deyarli yo'q bo'lib qolgan bir sharoitda ham aholining ichki sayohatlari tufayli turizm subyektlari xizmat ko'rsatishda davom etdi. Bizning hisob-kitoblarga ko'ra, 2020 yilda ichki turizm xarajatlari hajmi xorijiy turizm

tushumlaridan ham yuqoriroq bo'lgan (tahminan 4,9 trln. so'm ichki, 2,7 trln. so'm tashqi). Demak, ichki turizmni rivojlantirish va aholi uchun sayohatlarni yanada qulay va arzon qilish (masalan, ichki avia va temiryo'l qatnovlariga chegirmalar, yangi rekreatsion zonalar yaratish) orqali soha barqarorligini oshirish mumkin. Regressiya natijalari ham aholi daromadlari (X_5) o'sishining Y ga ijobiy ta'sirini ko'rsatdi, bu asosan ichki turizm kanali orqali amalga oshadi. Keltirilgan prognoz senariyga ko'ra, 2029 yilga borib turizm daromadlari 48 trln. so'mga yetishi uchun xorijiy sayyohlar oqimini 2019 yilga nisbatan ikki barobar oshirish talab etiladi. Bu juda yuqori maqsad bo'lib, unga erishish uchun mavjud bozorlarda chuqurroq xizmatlar taklif etish va yangi bozorlarga kirish zarur bo'ladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonga sayyohlarni asosan Markaziy Osiyo va MDH davlatlari yubormoqda – 2019 yilda xorijiy turistlarning 80 % dan ortig'i qo'shni mamlakatlar hissasiga to'g'ri kelgan. Yevropa, Amerika va Osiyo-Tinch okeani mintaqalaridan keluvchi sayyohlar ulushi nisbatan kichik bo'lsa-da, ularning harajatlari yuqoriroq. Shu bois Uzaq xorijiy davlatlar (Yaponiya, Yevropa Ittifoqi, AQSh va b.) dan turistlarni ko'proq jalb etish ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lishi kerak. So'nggi yillarda qabul qilingan vizasiz rejim (90 dan ortiq mamlakat fuqarolari uchun) hamda yangi xalqaro reyslar ochilishi bu borada qo'l kelmoqda. 2022 yil natijalariga ko'ra Yevropa va boshqa uzoq davlatlardan ham sayyohlar oqimi tiklana boshlaganligi kuzatildi. Umuman olganda, O'zbekiston turizm sohasi 2020 yildagi inqirozdan keyin qisqa fursatda oyoqqa turdi va endi 2019 yildagi rekord ko'rsatkichlarni yangilash bosqichiga o'tmoqda. Regressiya va prognoz tahlili shuni tasdiqlaydiki, agar ichki va tashqi omillar qulay bo'lsa, kelgusi besh yillikda turizm sohasida yiliga ikki xonali o'sish sur'atlarini saqlab turish mumkin. Bunda siyosat tarafidan xorijiy turistlar oqimini rag'batlantirish (marketing, transport aloqalari, soddalashtirilgan hujjatlar) hamda turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xizmatlar sifatini oshirish (investitsiyalarni davom ettirish, kadrlar tayyorlash) muhim omillar bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2019 yildagi PF-5643-son "Investitsiya va tashqi savdo sohasida boshqaruv tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" <https://lex.uz/>
2. F.E. Gulmurodov (2021) Forecasting of Tourism Processes in Uzbekistan in CorrelationRegression Models // INTERNATIONAL JOURNAL OF MULTIDISCIPLINARY RESEARCH AND ANALYSIS. Volume 04 Issue 11 November 2021
3. Mavlanov, G. (2024). Forecast Indicators of the Tourists in Uzbekistan by Ski Tourism Development. *Central Asian Journal of*

Xulosa: Maqolada O'zbekiston turizm sohasi rivojlanish dinamikasi va uni belgilovchi omillar empirik tahlil qilindi. 2014–2024 yillar ma'lumotlari asosida qurilgan OLS regressiya modeli turizm daromadlari (Y) bilan xorijiy sayyohlar soni (X_2) hamda aholi jon boshiga real daromadlari (X_5) o'rtasida yuqori va ishonchli bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi. 2016–2019 yillarda viza cheklovlarining yumshatilishi tufayli xorijiy sayyohlar oqimi keskin oshgani va natijada turizm xizmatlari eksporti hajmi ham bir necha barobarga ko'paygani aniqlandi. Pandemiya davrida soha vaqtinchalik katta zarar ko'rgan bo'lsa-da, 2021 yildan boshlab sayyohlar oqimi va daromadlar tez tiklanmoqda – 2022 yilga kelib turizm tushumlari yana 1,6 mlrd. dollarga (17,6 trln so'm) yetdi. Regressiya tahlili investitsiya va infratuzilma ko'rsatkichlarining hozircha statistik ahamiyatini tasdiqlamadi, bu esa ularning kechikkan ta'sirga ega ekanini bildiradi.

Darhaqiqat, 2018 yildan so'ng turizmga katta investitsiyalar yo'naltirilib, minglab yangi mehmonxonalar va obyektlar qurildi. Ularning to'liq samarasini oldindagi yillarda ko'rish mumkin bo'ladi. Shu sababli, kelgusidagi siyosatda turizm infratuzilmasini rivojlantirishga sarmoya kiritishni izchil davom ettirish zarur – bu uzoq muddatda ko'proq sayyohlarni jalb etadi va soha barqaror o'sishini ta'minlaydi. 2025–2029 yillar uchun tuzilgan prognozga ko'ra, xorijiy sayyohlar oqimini yiliga o'rtacha 10–15% oshirib borish va ichki bozorda turizm xizmatlariga talabni yuqori ushlab turish orqali 2029 yilga kelib turizm sohasi yillik daromadlarini 48 trln. so'mga yetkazish imkoniyati mavjud. Bu borada davlat organlarining sayyohlikni rivojlantirish konsepsiyasi (2019–2025 yillar uchun) doirasida belgilangan maqsadli ko'rsatkichlar bugungi kunda ham dolzarbligini saqlamoqda. Xususan, 2030 yilga borib O'zbekiston yiliga 12–15 mln. chet el turistlarini qabul qiladigan va turizm YalMga qo'shadigan hissasi bo'yicha mintaqadagi yetakchi davlatlardan biriga aylanishi mumkin. Bunga erishishda siyosiy irodani saqlagan holda xususiy sektorni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va mamlakatning turistik jozibadorligini oshirishga qaratilgan islohotlarni davom ettirish muhim bo'ladi.

Innovations on Tourism Management and Finance, 5(7), 542-547. <https://doi.org/10.17605/cajitmf.v5i7.786>

4. A.O.Xafizov, S.S. Ruziyev (2021) Importance Of Forecasting In Tourism And Hospitality Business // 2021 The American Journal of Management and Economics.

5. Kamoldinovna, S. Y. (2023). Turistik mahsulotlar va xizmatlar mohiyatiga yondashuvlar va ularni diversifikatsiyalash jarayonining nazariyuslubiy jihatlar. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 358-362.



JAHON VA O'ZBEKISTON TURIZM BOZORIDA TUROPERATORLIK FAOLIYATINING RIVOJLANISH TENDENSIYALARI

Mamadaliyev Ulug'bek Toxirjon o'g'li

Qo'qon universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

ORCID ID 0009-0000-9957-2874

mamadaliyevu745@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil

Jurnal soni: 15

Maqola raqami: 8

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1188>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

turizm bozori, tur-operatorlik, jahon tendensiyalari, O'zbekiston, solishtirma tahlil, statistik ma'lumotlar

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada jahon va O'zbekiston turizm bozorida turoperatorlik faoliyatining 2024–2025 yillardagi rivojlanish tendensiyalari, mavjud tizimli muammolar va istiqbolli yo'nalishlar kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda solishtirma tahlil, SWOT tahlil va statistik tahlil metodlari asosida turoperatorlik xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari, raqamlashtirish darajasi, xizmatlar eksporti va marketing strategiyalari baholangan.

Maqolada UNWTO, WTTC, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Turizm qo'mitasi ma'lumotlariga asoslangan real statistik ko'rsatkichlar hamda 2024-yilgi global va milliy turizm dinamikasi yoritilgan. Xususan, "Anur Tour", "Silk Road Destinations" va "Asia Travel" kabi O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yetakchi turoperatorlar misolida xizmatlar sifati, eksport salohiyati, innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi chuqur tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalariga asoslangan holda O'zbekiston turoperatorlik tizimini raqamlashtirish, xizmatlar sifatini sertifikatlashtirish, xalqaro bozorga integratsiyalashuv va marketingni modernizatsiyalash borasida aniq ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kirish. Turizm sanoati bugungi global iqtisodiyotda eng tez sur'atlar bilan rivojlanayotgan va barqaror o'sishga ega bo'lgan strategik tarmoqlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Jahon sayyohlik tashkilotining (UNWTO) 2024-yilgi hisobotiga ko'ra, xalqaro turizm bozori pandemiyadan so'ng tiklanish bosqichini yakunlab, 2019-yilgi ko'rsatkichlarning 99 foiziga yetdi va 1,4 milliarddan ortiq xalqaro sayyohlar harakati qayd etildi. Ushbu o'sishda turizm infratuzilmasi, xizmatlar zanjiri va ayniqsa turoperatorlik faoliyati markaziy o'rinni egallamoqda.

Turoperatorlar zamonaviy turizm sanoatida kompleks xizmatlar majmuasini shakllantirish, sayyohlik yo'nalishlarini tuzish, logistika va infratuzilmani muvofiqlashtirish, mijozlar ehtiyojlariga mos turistik paketlar ishlab chiqishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ular ichki va xalqaro turistik oqimlarni tartibga solish, hududiy turizmni rivojlantirish hamda xizmatlar eksportini ko'paytirishda strategik vositachilar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda turizmni iqtisodiy o'sish drayveri sifatida rivojlantirishga yo'naltirilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2022-yil 28-yanvarda qabul qilingan PF-60-sonli Prezident farmoni asosida 2026-yilgacha bo'lgan "Turizmni rivojlantirish konsepsiyasi" tasdiqlangan bo'lib, unda turoperatorlik tizimini modernizatsiya qilish, xizmatlar sifatini oshirish, raqobatbardoshlikni kuchaytirish va zamonaviy marketing texnologiyalarini joriy etish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan.

2024-yil yakunlariga ko'ra, O'zbekistonga tashrif buyurgan xalqaro sayyohlar soni 10,2 millionga, turizm xizmatlari eksporti hajmi esa 3,5 milliard AQSH dollariga yetdi. Bu ko'rsatkichlar turoperatorlar faoliyatining iqtisodiy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi. Biroq, tarmoqning raqamlashtirish darajasi, xalqaro standartlarga mos sertifikatlashtirish tizimi, xorijiy sheriklar bilan integratsiyalashuv salohiyati hanzu to'liq ishlanmagan.

Mazkur maqolada jahon va O'zbekiston turizm bozori kontekstida turoperatorlik faoliyatining hozirgi holati, asosiy rivojlanish tendensiyalari, muammolar va istiqbollar chuqur tahlil qilinadi. Solishtirma yondashuv asosida ilg'or xorijiy tajriba va O'zbekiston amaliyoti o'rtasidagi farqlar va umumiyliklar aniqlanadi hamda raqamli

transformatsiya, innovatsion xizmatlar va xalqaro hamkorlik asosida istiqbolli takliflar ishlab chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. Turizm va turoperatorlik faoliyati bo'yicha xalqaro va mahalliy adabiyotlar tahlili ushbu sohaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatini chuqur yoritishga xizmat qiladi. Xalqaro miqyosda C. Cooper (2016)¹ tomonidan ishlab chiqilgan "Contemporary Tourism" konsepsiyasida turoperatorlar turistik mahsulotlar zanjiridagi muvofiqlashtiruvchi bo'g'in sifatida tavsiflanadi. V. Middleton (2013)² "Tourism Marketing and Management" nomli asarida turizm marketingi jarayonida turoperatorlarning bozordagi talab va taklifni uyg'unlashtiruvchi, segmentatsiyani aniqlovchi muhim subyektlar ekanini ta'kidlaydi. P. Kotler (2019)³ esa xizmatlar sohasida brend qiymatini oshirish, loyallik dasturlarini ishlab chiqish va mijozlar ehtiyojiga mos paketlarni yaratishda turoperatorlarning rolini chuqur tahlil qiladi.

Mahalliy olimlardan Karimova Z. (2020)⁴ O'zbekistonda turizm xizmatlari sifatini oshirishda turoperatorlik tizimining ahamiyatini yoritgan. Sattorov A. (2021)⁵ esa ichki turizm turoperatorlar ishtirokini kuchaytirish orqali hududlararo iqtisodiy integratsiyani ta'minlash masalasini ko'taradi. Rajabova G. (2022)⁶ o'z tadqiqotida turoperatorlik faoliyatining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanish mexanizmlari, jumladan soliq imtiyozlari, sarmoya jalb qilish va xorijiy sheriklik asosidagi loyihalarni o'rganadi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi (2023), Davlat statistika qo'mitasi (2020–2023), WTTC⁷, UNWTO⁸, va Statista.com⁹ kabi rasmiy statistik manbalar 2019–2023 yillar oralig'ida sayyohlar oqimi, turizm daromadlari, turoperatorlar soni va xizmat eksporti dinamikasini yorituvchi asosiy axborot manbalari sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, UNWTO Tourism Barometer va WTTC Economic Impact Reports kabi xalqaro hisobotlar global tendensiyalarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, mavjud adabiyotlar turoperatorlik faoliyatining faqat iqtisodiy emas, balki sotsial, logistika va madaniy jihatdan ham ko'p qirrali tahlilini taqdim etadi. Bu esa ilmiy tadqiqotlar uchun nazariy asos va amaliy yo'nalishlarni belgilash imkonini beradi.

¹ Cooper, C. (2016). *Contemporary tourism: An international approach* (4th ed.). Routledge. <https://www.routledge.com/Contemporary-Tourism-An-International-Approach/Cooper/p/book/9781138087658>.

² Middleton, V. T. C., & Clarke, J. (2013). *Marketing in travel and tourism* (4th ed.). Butterworth-Heinemann.

³ Kotler, P., Bowen, J. T., & Makens, J. C. (2019). *Marketing for hospitality and tourism* (7th ed.). Pearson Education.

⁴ Karimova, Z. (2020). *Turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

⁵ Sattorov, A. (2021). *Ichki turizmni rivojlantirishda turoperatorlarning o'rni*. Buxoro: Innovatsiya markazi.

⁶ Rajabova, G. (2022). *O'zbekiston turizm salohiyatining zamonaviy yo'nalishlari*. Samarqand: SamDU nashriyoti.

⁷ World Travel & Tourism Council. (2024). *Economic impact report 2024: Global trends and insights*. <https://wtcc.org/Research/Economic-Impact>

⁸ United Nations World Tourism Organization. (2024). *World tourism barometer* (Vol. 22, Issue 1). <https://www.unwto.org/statistics>

⁹ Statista. (2024). *Global tourism indicators and trends*. <https://www.statista.com>

Mahalliy olimlardan Karimova Z. (2020)¹⁰, Sattorov A. (2021)¹¹, Rajabova G. (2022)¹² turizmning iqtisodiy samaradorligi, ichki turizmni rivojlantirish, turoperatorlar faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari haqida tadqiqotlar olib borgan.

UNWTO¹³, WTTC¹⁴, Statista kabi manbalarda 2019–2024 yillar davomida turizm oqimlari, daromadlar va turoperatorlar soniga oid real statistik ma'lumotlar jamlangan. 2024-yil yakunlariga ko'ra, global miqyosda xalqaro sayohatchilar soni 1,4 milliardga yetgan, global turizm daromadlari esa 1,9 trillion AQSH dollarini tashkil etgan (UNWTO, 2024; WTTC, 2024)¹⁵. O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi va Davlat statistika qo'mitasining 2020–2024 yillarga oid yillik hisobotlari esa milliy tendensiyalarni o'rganishda asosiy manba hisoblanadi. Xususan, 2024-yilda O'zbekistonga 10,2 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan, 2025-yilning yanvar–fevral oylarida esa bu ko'rsatkich 1,3 millionni tashkil etgan (O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros qo'mitasi, 2024¹⁶; O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi, 2025¹⁷).

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy tadqiqotda 2024–2025 yillar davomidagi turoperatorlik faoliyatining rivojlanishiga oid tendensiyalarni aniqlash, mavjud muammolar va istiqbollarni chuqur tahlil qilish maqsadida kompleks yondashuvga asoslangan metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy metodlari sifatida solishtirma tahlil, SWOT-tahlil va statistik tahlil tanlab olindi. Bu metodlar yordamida jahon va O'zbekiston turizm bozoridagi turoperatorlik faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari, ularning o'zaro bog'liqligi hamda har ikkala hududdagi rivojlanish mexanizmlari qiyosiy baholandi.

Birinchidan, solishtirma tahlil orqali jahon va O'zbekiston turizm bozori o'rtasidagi muhim farqlar va o'xshashliklar aniqlab olindi. Bunda 2024–2025 yillar uchun sayyohlar oqimi, xizmatlar eksporti, operatorlar soni, turizm daromadlari, marketing yondashuvlari kabi mezonlar asosiy indikator sifatida tanlandi. Ushbu uslub turoperatorlik tizimining struktura va funksional mexanizmlarini tahlil qilishda katta amaliy ahamiyatga ega bo'ldi.

Ikkinchidan, SWOT-tahlil yordamida 2024–2025 yillarda turoperatorlik faoliyatining kuchli, zaif tomonlari, mavjud imkoniyatlar va tashqi tahdidlar (Threats) tizimli ko'rinishda baholandi. O'zbekiston

turizm tizimida mavjud resurslar, geostrategik joylashuv, madaniy meros ob'ektlari kuchli jihatlar qatoriga kiritilgan bo'lsa, marketing infratuzilmasining sustligi, xizmatlar diversifikatsiyasining pastligi zaif tomonlar sifatida ko'rsatildi. Shu bilan birga, xalqaro bozorga integratsiya va brendlashtirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, mintaqaviy raqobat va geosiyosiy omillar tahdidlar sirasiga kiradi.

Uchinchidan, statistik tahlil orqali 2019–2024 yillar oralig'ida turoperatorlik faoliyatiga oid aniq ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Xususan, sayyohlar oqimi (keluvchi va chiqib ketuvchi), turizm xizmatlari daromadlari, faoliyat yuritayotgan turoperatorlar soni, xizmatlar eksportining ulushi kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida trendlarga baho berildi. Bunda asosiy urg'u jahon statistikasi (UNWTO, WTTC), mahalliy davlat hisobotlari (Davlat statistika qo'mitasi, Turizm qo'mitasi) va mustaqil tahliliy manbalar (Statista.com)ga qaratildi.

Tadqiqotning amaliy jihatlarini boyitish maqsadida O'zbekistonda 2024–2025-yillarda faoliyat yuritayotgan yetakchi turoperatorlar – "Anur Tour", "Silk Road Destinations", "Asia Travel" – faoliyatiga alohida e'tibor qaratildi. Ushbu kompaniyalarning xizmatlar sifati, eksport salohiyati, xalqaro sherikchilik tajribasi, marketing va raqamli transformatsiya strategiyalari chuqur o'rganildi. Kompaniyalarning rasmiy veb-saytlari, yillik hisobotlari, xalqaro ko'rgazmalardagi ishtiroki, mehmonlar oqimi va xizmatlar turlari asosida ularning bozor raqobatbardoshligi tahlil qilindi.

Umuman olganda, ushbu metodologik yondashuv turizm va turoperatorlik sohasida 2024–2025 yillardagi real holatni obyektiv baholash, muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish uchun asosli tavsiyalar ishlab chiqishga imkon berdi. Natijalarning ishonchiligi va amaliy ahamiyatini oshirish maqsadida bir nechta turdagi metodlar uyg'un holda qo'llanildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot doirasida o'tkazilgan solishtirma va statistik tahlillar asosida jahon va O'zbekiston turizm bozorlaridagi turoperatorlik faoliyatining holati, asosiy ko'rsatkichlari va rivojlanish yo'nalishlari aniqlab olindi. Quyidagi jadvalda 2024-yilga oid muhim ko'rsatkichlar taqdim etilgan bo'lib, ular orqali ikki hududdagi turoperatorlik tizimining nisbiy o'rni va dinamikasi yanada aniqroq namoyon bo'ladi.

1-jadval.

Jahon va O'zbekiston turizmidagi asosiy ko'rsatkichlar (2024) ¹⁸		
KO'RSATKICH	JAHON (2024)	O'ZBEKISTON (2024)
Sayyohlar soni (Xalqaro)	1.4 mlrd	8.2 mln
Turizm daromadi	\$1.9 trln	\$3.5 mlrd
Faoliyat yuritayotgan turoperatorlar soni	120 ming+	650 dan ortiq

Yuqoridagi jadvaldan ko'rinib turibdiki, global miqyosda turizm sohasi 2024-yilda pandemiya davridan to'liq tiklanishga erishdi. Xalqaro sayyohlar soni 1.4 milliardni tashkil etib, 2019-yildagi ko'rsatkichlarga (1.5 mlrd) deyarli tenglashdi. Daromadlar esa 1.9 trillion AQSH dollariga yetib, 2023-yildagi natijaga nisbatan 11 foizga o'sdi. Bu jarayonda turoperatorlar faoliyati diversifikatsiyalangan xizmatlar va ilg'or texnologiyalar orqali yuqori samaradorlikka erishmoqda.

O'zbekiston misolida esa yanada dinamik o'sish kuzatilmoqda. 2024-yil yakunlariga ko'ra, mamlakatga 8.2 million sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, bu 2023-yilga nisbatan 58 foizlik o'sishni tashkil etadi. Turizm sektori umumiy daromadi 3.5 milliard AQSH dollarini tashkil etdi, bu esa ikki barobar ko'rsatkichdir. O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan turoperatorlar soni 650 dan ortiq bo'lib, ularning aksariyati ichki va kirish turizmi yo'nalishida xizmat ko'rsatmoqda.

Yetakchi turoperatorlar faoliyati tahlili

Tadqiqot doirasida 2024-yil holatiga ko'ra O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan yetakchi turoperatorlar – "Anur Tour", "Silk Road

Destinations" va "Asia Travel" kompaniyalarining rivojlanish sur'atlari, xizmatlar sifati va eksport salohiyati tahlil qilindi.

"Anur Tour" kompaniyasi tarixiy va ziyorat turizmi yo'nalishida yetakchi bo'lib, 2024-yilda 48 ming xorijiy sayyohga xizmat ko'rsatdi. Asosiy bozorlar sifatida Turkiya, Rossiya va Markaziy Osiyo davlatlari ajralib turadi. Kompaniya Ipak yo'li yo'nalishlarini ilgari suruvchi brend sifatida tanilgan.

"Silk Road Destinations" kompaniyasi gastronomik va ekoturizm bozorlarida faol ishlaydi. 2024-yilda xizmat ko'rsatish hajmi 36 ming sayyohni tashkil etdi. Ular ekologik toza marshrutlar, mahalliy mehmon uylar va madaniy dasturlar orqali xorijiy sayyohlarga boy tajriba taqdim etdi.

"Asia Travel" esa texnologik transformatsiya va raqamli xizmatlar orqali raqobatbardoshlikni oshirdi. Onlayn bron qilish tizimlari, chat-botlar, interaktiv veb-plattformalar joriy etildi. 2024-yilda 41 ming mijozga xizmat ko'rsatilib, mijozlar qoniqish darajasi 91%ga yetdi.

Ushbu kompaniyalarning faoliyati O'zbekiston turizmida xizmatlar sifatining oshishi, xizmatlar eksportining kengayishi va xalqaro

¹⁰ Karimova, Z. (2020). *Turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.

¹¹ Sattorov, A. (2021). *Ichki turizmni rivojlantirishda turoperatorlarning o'rni*. Buxoro: Innovatsiya markazi.

¹² Rajabova, G. (2022). *O'zbekiston turizm salohiyatining zamonaviy yo'nalishlari*. Samarqand: SamDU nashriyoti.

¹³ United Nations World Tourism Organization. (2024). *Tourism highlights report*. UNWTO. <https://www.unwto.org/statistics>

¹⁴ World Travel and Tourism Council. (2024). *Economic impact report 2024*. <https://wtcc.org/Research/Economic-Impact>

¹⁵ Statista. (2024). *Global tourism indicators and trends*. <https://www.statista.com>

¹⁶ O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros qo'mitasi. (2024). *Soha bo'yicha tahliliy ma'lumotlar va press-relizlar*. <https://uzbektourism.uz>

¹⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. (2025). *2025-yil yanvar–fevral oylari uchun sayyohlar statistikasi*. <https://stat.uz>

¹⁸ UNWTO Tourism Highlights (2024), WTTC Economic Impact Report (2024), O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika agentligi (2024)

standartlarga moslashish yo'lidagi harakatlarni ifodalaydi. Shu bilan birga, ularning yillik ishtiroki xalqaro ko'rgazmalarda, marketing strategiyalari va xalqaro hamkorlik aloqalari ularni jahon turizm bozoriga samarali integratsiya qilmoqda.

Muhokama. O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida aniqlanishicha, jahon turizm bozorida turoperatorlik xizmatlari jadal sur'atlarda raqamlashtirilmoqda va xizmatlar diversifikatsiyasi tobora chuqurlashmoqda. Raqamli texnologiyalar, sun'iy intellekt (AI), kengaytirilgan va virtual haqiqat (AR/VR), katta ma'lumotlar (Big Data) tahlili kabi ilg'or vositalar turoperatorlik faoliyatida mijozlarga xizmat ko'rsatish sifati, shaxsiylashtirilgan tur paketlarini ishlab chiqish va bozordagi talabga tezkor javob berish imkonini yaratmoqda. Blokcheyn texnologiyalari esa to'lovlar xavfsizligini oshirish, logistika va buyurtmalarni avtomatlashtirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

O'zbekiston kontekstida esa ijobiy o'zgarishlarga qaramay, turoperatorlik faoliyatida ayrim tizimli kamchiliklar saqlanib qolmoqda. Xususan, xizmatlar sifati, xodimlarning kasbiy tayyorgarligi, xalqaro sertifikatlashtirish tizimlariga moslashuv, xorijiy hamkorlar bilan barqaror integratsiyalashuv kabi yo'nalishlarda sezilarli o'sishga ehtiyoj bor. Ayniqsa, global marketing, brendlashtirish, onlayn savdo platformalariga chiqish, SEO va SMM strategiyalarini joriy etish kabi jihatlar dolzarb masalalardan biridir.

Tadqiqotda o'rganilgan yetakchi kompaniyalar faoliyati — "Anur Tour", "Silk Road Destinations" va "Asia Travel" — O'zbekiston turoperatorlik sohasida qanday real rivojlanish yo'nalishlari shakllanayotganini yaqqol ko'rsatadi. Masalan, "Anur Tour" kompaniyasi Ipak yo'li yo'nalishlari bo'yicha xizmat ko'rsatish, tarixiy va ziyorat turizmini xalqaro bozorda ilgari surish bilan ajralib turadi. 2024-yilda 48 mingdan ortiq xorijiy sayyohga xizmat ko'rsatgan kompaniya marketing strategiyalarini Turkiya, Eron va Rossiya kabi mamlakatlarga yo'naltirmoqda.

"Silk Road Destinations" esa ekoturizm va gastronomik turizm segmentlariga ixtisoslashgan holda, xizmat sifati va autentik tajriba taqdim etish orqali Yevropa va Yaponiya bozorida muvaffaqiyat qozonmoqda. Kompaniyaning "mahalliylikka asoslangan xizmat modeli" xorijiy sayyohlar uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan tajribani yaratmoqda.

"Asia Travel" texnologik innovatsiyalarni faol joriy qilayotgan kompaniya sifatida ajralib turadi. U o'z faoliyatida onlayn bron tizimlari, mobil ilovalar, sun'iy intellekt asosidagi tavsiyalar va chat-botlar kabi vositalardan foydalangan holda, mijozlar bilan ishlash sifati va tezligini sezilarli darajada oshirgan. 2024-yil yakunlariga ko'ra, kompaniya 41 ming mijozga xizmat ko'rsatgan va qoniqlik darajasi 91% ni tashkil qilgan.

Bu kompaniyalar tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda turoperatorlik faoliyati xalqaro tendensiyalar — xizmatlarni raqamlashtirish, xizmat sifati va diversifikatsiyasini oshirish — bilan uyg'unlikda rivojlanmoqda. Ammo bu rivojlanish barcha operatorlar miqyosida emas, balki asosan yetakchi kompaniyalar misolida ko'zga tashlanmoqda.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari va muhokamalar asosida xulosa qilish mumkinki, jahon va O'zbekiston turizm bozorlarida turoperatorlik faoliyatining rivojlanish yo'nalishlari bir-biridan farq qiladi. Jahon miqyosida turoperatorlik xizmatlari sun'iy

intellekt, AR/VR texnologiyalar, Big Data tahlili, blokcheyn va raqamli marketing vositalari asosida yuqori texnologik bosqichga o'tayotgan bo'lsa, O'zbekiston bu yo'nalishda hali rivojlanish bosqichida bo'lib, ayrim ijobiy siljishlarga erishgan.

Tahlillarda ko'rsatilganidek, O'zbekiston turoperatorlik sohasi hali miqyos jihatidan global bozordan orqada qolayotgan bo'lsada, sifat, ixtisoslashuv va raqamli transformatsiya bo'yicha sezilarli harakatlarni amalga oshirmoqda. Xususan, "Anur Tour", "Silk Road Destinations" va "Asia Travel" kompaniyalarining faoliyati xizmatlar diversifikatsiyasi, eksport salohiyati, zamonaviy marketing va texnologik joriy etishlar borasida yetakchi tajribalarni shakllantirmoqda.

Shu asosda turoperatorlik tizimini takomillashtirish bo'yicha quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi:

Tur-operatorlar faoliyatini raqamlashtirish darajasini oshirish zarur — Buning uchun raqamli marketing, onlayn rezervatsiya platformalari, elektron to'lov tizimlari va mijozlar bilan muloqotni avtomatlashtiruvchi tizimlar joriy etilishi lozim. Turoperatorlar mijozlar bilan aloqani mobil ilovalar orqali yuritishi, AR/VR texnologiyalar orqali virtual turlar taklif etishi va sun'iy intellekt asosidagi tavsiyalar tizimini yo'lga qo'yishi kerak.

Marketing strategiyalarini xalqaro standartlarga moslashtirish kerak — O'zbekiston turoperatorlari o'z xizmatlarini xalqaro brendlar darajasida targ'ib etishi, zamonaviy reklama va PR yondashuvlarini joriy etishi zarur. Bunda raqamli platformalar, SEO, SMM strategiyalar, ijtimoiy tarmoqlar orqali samarali kontent yaratish va xalqaro ko'rgazmalarda faol ishtirok etish muhim.

Sertifikatlashtirish va sifat nazorati tizimini mustahkamlash lozim — Xizmatlar sifati xalqaro talablarga mos bo'lishi uchun turoperatorlar sertifikat olish jarayonlarini soddalashtirish, standartlashtirish tizimini kengaytirish kerak. ISO 9001 va boshqa xalqaro sifat menejmenti tizimlari asosida operatorlarni akkreditatsiyadan o'tkazish zarur.

Davlat-xususiy sheriklik asosida yirik loyihalarni qo'llab-quvvatlash muhim — Innovatsion xizmatlar, yangi turistik yo'nalishlar, zamonaviy infratuzilmaga ega sayyohlik markazlari yaratish bo'yicha davlat va biznes hamkorligini faollashtirish zarur. Bu loyihalarga xorijiy investorlarni jalb etish va ularni xavfsiz muhit bilan ta'minlash muhim omil hisoblanadi.

Turizm xizmatlarini xorijiy bozorlarda brend sifatida ilgari surish lozim — O'zbekistonning turistik mahsuloti yagona milliy brend ostida global bozorda tanitilishi, bu esa turoperatorlar faoliyati uchun keng eksport imkoniyatlarini ochib beradi. "Visit Uzbekistan" kabi platformalarni rivojlantirish, ko'p tilli kontent yaratish, onlayn broshyura va promoroliklar tayyorlash zarur.

Turoperatorlar salohiyatini oshirish uchun kasbiy malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish kerak — Xodimlarning xorijiy tillarni bilish darajasi, zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash qobiliyati va xalqaro etikaga asoslangan xizmat madaniyati yo'lga qo'yilishi lozim.

Turoperatorlar uchun maxsus imtiyozli kredit va grant dasturlarini yaratish muhim — Bu ularga yangi texnologiyalarni joriy etish, xizmatlar doirasini kengaytirish va yangi bozorlarni egallashda moliyaviy tayanch bo'la oladi.

Ushbu takliflar O'zbekiston turoperatorlik tizimining jahon tendensiyalariga mos rivojlanishini ta'minlash, xalqaro raqobatga bardoshli xizmatlar ishlab chiqish va milliy turizm salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. UNWTO. (2024). *Tourism Highlights Report*. World Tourism Organization.
2. WTTC. (2024). *Economic Impact Report*. World Travel & Tourism Council.
3. O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika Qo'mitasi. (2024). *Turizm sohasi bo'yicha statistik axborot*.
4. Cooper, C. (2016). *Contemporary Tourism: An International Approach*. Routledge.
5. Middleton, V. (2013). *Tourism Marketing and Management*. Butterworth-Heinemann.
6. Kotler, P., Bowen, J., & Makens, J. (2019). *Marketing for Hospitality and Tourism*. Pearson Education.
7. Karimova, Z. (2020). *Turizmni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar*. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
8. Rajabova, G. (2022). *O'zbekiston turizm salohiyatining zamonaviy yo'nalishlari*. Samarqand: SamDU nashriyoti.
9. Sattorov, A. (2021). *Ichki turizmni rivojlantirishda turoperatorlarning o'rn*. Buxoro: Innovatsiya markazi.
10. Asia Travel Uzbekistan. (2024). *Kompaniya yillik hisobotlari*.
11. Silk Road Destinations. (2024). *Annual Performance Report*. Buxoro.
12. Anur Tour. (2023). *Marketing Overview*. Toshkent.
13. Statista.com. (2024). *Global Tourism Data and Indicators*. Retrieved from <https://www.statista.com>
14. O'zbekiston Respublikasi Turizm va madaniy meros qo'mitasi. (2023–2024). *Tahliliy ma'lumotlar va rasmiy press-relizlar*.
15. Deloitte. (2023). *Global Travel and Hospitality Outlook*. Deloitte Insights.



MOLIYAVIY INTERMEDIATSIYA VA IQTISODIY O'SISHDA BANK SEKTORINING ROLI

Nasirov Oybek Shukurxonovich

Qo'qon universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

onasirov@kokanduni.uz

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 9 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1189	Mazkur maqolada moliyaviy intermediatsiya va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik, xususan, bank sektorining iqtisodiyotdagi rolga empirik yondashuv asosida baho berilgan. Panel regressiya va GMM metodlari orqali O'zbekiston bank sektorining iqtisodiy rivojlanishga ta'siri tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari moliyaviy intermediatsiyaning iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'siri mavjudligini tasdiqlaydi hamda bank tizimini rivojlantirish bo'yicha aniq amaliy tavsiyalarni ilgari suradi.
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	
moliyaviy intermediatsiya, iqtisodiy o'sish, bank sektori, panel regressiya.	

Kirish. Moliyaviy intermediatsiya zamonaviy iqtisodiyotning markaziy unsurlaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon orqali banklar va boshqa moliyaviy institutlar jamg'armalarni ortiqcha mablag'ga ega iqtisodiy agentlardan moliyaviy resurslarga ehtiyoji bo'lgan agentlarga yo'naltiradi. Bunday vositachilik tizimi iqtisodiyotda mavjud bo'lgan mablag'larning yanada samarali taqsimlanishiga, investitsion jarayonlarning faollashuviga, ishlab chiqarish quvvatlarining kengayishiga va umuman olganda makroiqtisodiy barqarorlik va o'sishning ta'minlanishiga zamin yaratadi. Moliyaviy vositachilik tizimining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bu bank sektoridir. Banklar orqali o'z vaqtida va ishonchli moliyalashtirish amalga oshirilgani sababli, iqtisodiyotning real sektori, ayniqsa, kichik va o'rta biznes subyektlari o'z faoliyatini kengaytirish, texnologik yangilanish va yangi ish o'rinlari yaratish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday qilib, moliyaviy intermediatsiyaning rivojlanishi bevosita va bilvosita yo'llar orqali iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida 2017-yildan buyon amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida bank sektorining institutsional salohiyatini oshirish, moliyaviy intermediatsiyani chuqurlashtirish va moliyaviy xizmatlarga bo'lgan kirish imkoniyatini kengaytirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida belgilangan. So'nggi yillarda xususiy sektorga berilayotgan kreditlar hajmining keskin oshgani, banklar o'rtasida raqobatning kuchaygani, depozitlar hajmining yildan-yilga ortib borayotgani, shuningdek, bank mahsulotlarining xilma-xillashuvi mazkur islohotlarning natijadorligini ko'rsatadi. Shunga qaramay, davlat ulushi yuqori bo'lgan banklarning tizimdagi salmoqli ustunligi hali-hanuz mavjud bo'lib, bu omil moliyaviy intermediatsiyaning samaradorligiga ayrim cheklolvar keltirib chiqarishi mumkin.

Ushbu maqolaning asosiy maqsadi O'zbekiston bank sektorida amalga oshirilayotgan moliyaviy intermediatsiya faoliyatining iqtisodiy o'sishga bo'lgan ta'sirini empirik ma'lumotlar asosida tahlil qilishdir. Tadqiqot 2015–2023 yillar oralig'idagi statistik ko'rsatkichlar asosida olib borilib, regressiya modellari yordamida moliyaviy intermediatsiya va YAIM o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi.

Adabiyotlar tahlili. Moliyaviy intermediatsiya – banklar va moliyaviy institutlar tomonidan jamg'armalarni yig'ish va ularni real sektorga investitsiyalash jarayoni – iqtisodiy o'sishdagi muhim mexanizmdir. Ilk nazariy asosni Shumpeter (1911)¹ yaratgan bo'lib, u innovatsiyalarni moliyalashtirish orqali iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilishini ta'kidlagan. Bu yo'nalish "supply-leading" deb ataladi, ya'ni moliyaviy sektor rivoji iqtisodni ilgari suradi. King va Levine (1993)² ham xuddi shunday qarashni qo'llab, moliyaviy chuqurlashuv va YAIM o'sishi o'rtasida ijobiy va dolzarb bog'liqlikni aniqlagan.

Empirik tadqiqotlar moliyaviy intermediatsiyaning ijobiy ta'sirini rivojlantirayotgan va rivojlangan mamlakatlar bo'yicha tasdiqlagan. Masalan, panel regressiyalarda Levine, Beck va Loayza (2000)³ moliyaviy institutlar – ayniqsa banklar – iqtisodiy o'sishga sezilarli hissa qo'shishini ko'rsatgan. Lekin bu bog'liqlik turli mintaqalar uchun turlicha bo'lishi mumkin: masalan, Janubi-Sharqiy Osiyo va Afrika uchun o'sish finanslarga talabdan keladi ("growth-led finance") holatiga chidoladi.

Mintaqaviy tahlillar ham muhim. Sub-Sahara Afrikada bank kreditlari o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va har oyda 2,28%ga o'sadi. Turkiya bo'yicha ARDL modellari moliyaviy intermediatsiya qisqa muddatda ijobiy, uzoq muddatda esa salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligi aniqlangan.

"Too Much Finance" konseptlari natijasida Arcand, Berkes va Panizza (2015)⁴ moliyaviy sektor qanchalik kengayib ketmasa, iqtisodiy o'sish uchun zararli bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi. Ularning tahliliga ko'ra, agar xususiy sektorga kredit hajmi YAIMning 80–110% dan oshsa, moliyaviy chuqurlashuv o'sishga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Mikro-nazariyalar esa banklar likvidlik yaratishi, axborot asimetriyani kamaytirishi va innovatsiyalar xavfini boshqarishi orqali o'sishga hissa qo'shishini bildiradi (Bencivenga & Smith, 1991; Diamond, 1984)⁵.

O'zbekiston kontekstida ilmiy mulohaza – O'zbekistonda bank sektori ko'plab islohotlar orqali moliyaviy bozorni modernizatsiya qilish va intermediatsiya samaradorligini oshirishga intilmoqda. 2021-yilda banklar tomonidan 86% kreditlar davlat banklari tomonidan ajratilgani (2021) O'zbekistonda xususiy sektor ishtirokining pastligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, moliyaviy sektorga fintech va likvidlik platformalarini keng joriy etish, ayniqsa QR-to'lovlar kabi innovatsiyalar, bank xizmatlarining inklyuziv va samarali bo'lishini ta'minlamoqda.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning ilmiy asoslangan metodologiyasi O'zbekiston Respublikasining 2015–2023 yillardagi makroiqtisodiy va moliyaviy ko'rsatkichlariga tayanadi. Maqolaning asosiy maqsadi – moliyaviy intermediatsiyaning iqtisodiy o'sishga ta'sirini miqdoriy jihatdan baholashdir. Bu maqsadga erishish uchun iqtisodiy modellashtirishning zamonaviy vositalaridan biri bo'lgan panel regressiya tahlili qo'llanilgan.

Model quyidagi ko'rinishda ifodalanadi:

$$\text{GDP_Growth}_{it} = \beta_0 + \beta_1 \cdot \text{Credit_to_Private}_{it} + \beta_2 \cdot \text{Deposit_to_GDP}_{it} + \beta_3 \cdot \text{Inflation}_{it} + \beta_4 \cdot \text{Trade_Openness}_{it} + \varepsilon_{it}$$

Bu yerda:

GDP_Growth – yiliga real YAIM (yalpi ichki mahsulot) o'sish sur'ati, % hisobida;

¹ Schumpeter, J. A. (1911). *The theory of economic development: An inquiry into profits, capital, credit, interest, and the business cycle* (R. Opie, Trans.). Cambridge, MA: Harvard University Press. (Original work published 1911)

² King, R. G., & Levine, R. (1993). Finance and growth: Schumpeter might be right. *The Quarterly Journal of Economics*, 108(3), 717–737.

³ Beck, T., Levine, R., & Loayza, N. (2000). Finance and the sources of growth. *Journal of Financial Economics*, 58(1–2), 261–300.

⁴ Arcand, J. L., Berkes, E., & Panizza, U. (2015). Too much finance? *Journal of Economic Growth*, 20(2), 105–148.

⁵ Bencivenga, V. R., & Smith, B. D. (1991). Financial intermediation and endogenous growth. *The Review of Economic Studies*, 58(2), 195–209.

Credit_to_Private – xususiy sektorga berilgan bank kreditlari, YalMga nisbatan foizda;
 Deposit_to_GDP – bank tizimidagi umumiy depozitlar hajmi, YalMga nisbatan foizda;
 Inflation – yillik inflyatsiya darajasi, %;
 Trade_Openness – savdo ochiqqligi darajasi (eksport + import)/YalM, %.

Ushbu modelda tanlangan barcha o'zgaruvchilar moliyaviy vositachilikning iqtisodiy faollikka qanday ta'sir ko'rsatishini baholash uchun tanlangan. Ayniqsa, Credit_to_Private va Deposit_to_GDP moliyaviy intermediasiyaning to'g'ridan-to'g'ri indikatorlari hisoblanadi. Ular orqali iqtisodiyotda moliyaviy resurslarning qanday aylanishini, ya'ni banklar orqali moliyalashtirish samaradorligini tahlil qilish mumkin.

Tahlil uchun zarur statistik ma'lumotlar quyidagi manbalardan to'plandi:

- Jahon banki – World Development Indicators (WDI) ma'lumotlar bazasi;
- O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining yillik hisobotlari (2015–2023);
- Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) tomonidan e'lon qilingan "Country Report"lar (2023–2024).

Tahliliy jarayon STATA statistik dasturiy ta'minoti yordamida amalga oshirildi. Panel ma'lumotlar (cross-section va time-series) xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi regressiya modellaridan foydalanildi:

Fixed Effects (FE) modeli – ichki o'zgarishlarni hisobga olgan holda har bir kuzatuv birligining vaqtga bog'liq bo'lgan doimiy xususiyatlarini nazorat qilishga imkon beradi;

Generalized Method of Moments (GMM) – endogenlik muammosini hal qilish va modelning barqarorlik darajasini oshirish uchun ishlatilgan.

Metodologiyaning asosiy ustunligi shundaki, u nafaqat statistik bog'liqlikni aniqlash, balki moliyaviy intermediasiyaning iqtisodiy o'sishga bevosita yoki bilvosita ta'sirini aniqlashga yordam beradi. Natijalarning iqtisodiy mazmuni esa keyingi bo'limga batafsil muhokama qilinadi.

Tadqiqot natijalari. Mazkur tadqiqotda 2015–2023 yillar davomidagi makroiqtisodiy ko'rsatkichlarning iqtisodiy o'sishga ta'siri panel regressiya tahlili orqali o'rganildi. Tahlilda asosiy e'tibor to'rt muhim omil – xususiy sektorga berilgan kreditlar, depozitlar hajmi, inflyatsiya darajasi va savdo ochiqqligi – hamda ularning yalpi ichki mahsulot (YAIM) o'sishiga ta'siriga qaratildi. Natijalar quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval

Panel regressiya tahlili

Ko'rsatkich	Koeffitsiyent	t-statistika	P-qiymat
Kreditlar	0.032	3.45	0.001
Depozitlar	0.015	2.10	0.036
Inflyatsiya	-0.025	-1.95	0.052
Savdo ochiqqligi	0.018	2.30	0.024
Determinatsiya koeffitsiyenti (R²)	0.62		

Tahlil natijalariga ko'ra, xususiy sektorga berilgan kreditlarning iqtisodiy o'sishga ijobiy va statistik jihatdan sezilarli ta'siri mavjud. Aniqrog'i, kreditlar ko'rsatkichi bo'yicha koeffitsiyent 0.032 bo'lib, u 1 foizlik o'sish YAIM o'sishini o'rtacha 0.032 foizga oshirishini anglatadi. Bu omilning t-statistikasi 3.45 va p-qiymati 0.001 bo'lib, u 1% darajada ahamiyatli natijani ko'rsatmoqda. Ushbu holat moliyaviy vositachilikning faol bo'lishi iqtisodiy faollikni rag'batlantirishi mumkinligini anglatadi.

Shuningdek, depozitlar ko'rsatkichi ham iqtisodiy o'sish bilan ijobiy bog'liq. Koeffitsiyent 0.015 bo'lib, u iqtisodiyotdagi jamg'armalarning YAIMdagi ulushi ortishi bilan iqtisodiy o'sish kuchayishini ko'rsatadi. T-statistikasi 2.10 va p-qiymati 0.036 bo'lib, bu ta'sir 5% darajada statistik ahamiyatga ega. Bu natija jamg'armalarning moliyaviy tizim orqali real sektor faoliyatiga yo'naltirilishi iqtisodiy o'sish uchun muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Inflyatsiya ko'rsatkichi esa salbiy qiymatga ega bo'lib (-0.025), u inflyatsiyaning iqtisodiy o'sishga teskari ta'sirini ko'rsatmoqda. Biroq, t-statistika -1.95 va p-qiymat 0.052 bo'lgani sababli, bu omilning statistik ahamiyati 10% darajada zaif bo'lib chiqdi. Bu shuni anglatadiki, inflyatsiyaning iqtisodiy o'sishga ta'siri mavjud bo'lishi mumkin, lekin u barqaror emas va boshqa omillar bilan bog'liq holda farqlanishi mumkin.

Savdo ochiqqligi esa iqtisodiy o'sishga ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli ta'sir ko'rsatmoqda. 0.018 koeffitsiyent iqtisodiyotning tashqi savdo bilan integratsiyalashuvi, eksport-import hajmining oshishi orqali YAIM o'sishiga ijobiy hissa qo'shishini anglatadi. T-statistikasi 2.30 va p-qiymati 0.024 bo'lib, bu omilning 5% darajada ahamiyatli ekanini bildiradi. Bunday natijalar mamlakatlararo savdo aloqalarining kuchayishi texnologiya transferi, raqobatbardoshlikning oshishi va resurslar taqsimotining samaradorligini oshirish orqali o'sishga xizmat qilishini ko'rsatadi.

Umuman olganda, modelning Determinatsiya koeffitsiyenti (**R²**) ko'rsatkichi 0.62 ni tashkil etadi. Bu esa regressiya modelida izohlangan dispersiya 62 foizni tashkil etishini bildiradi, ya'ni model iqtisodiy o'sishni sezilarli darajada tushuntirib beradi.

Yuqoridagi tahlil shuni ko'rsatadiki, moliyaviy sektorning rivojlanishi va tashqi iqtisodiy ochiqlik iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi muhim omillar sifatida namoyon bo'lmoqda. Kreditlar va depozitlar orqali moliyaviy vositachilik mexanizmlarining samarali ishlashi iqtisodiyotda investitsion faollikni oshirib, ishlab chiqarish hajmiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Savdo ochiqqligi esa tashqi

bozorlarga kirish imkonini kengaytirib, iqtisodiy o'sish uchun qo'shimcha zamin yaratadi. Inflyatsiyaning esa salbiy, ammo zaif ta'siriga ega bo'lishi, uning makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi muhim o'rnini yana bir bor tasdiqlaydi.

Muhokama. Ushbu tadqiqot natijalari moliyaviy vositachilik jarayonlari va tashqi savdo ochiqqligining iqtisodiy o'sishga ta'sirini aniq va ishonchli tarzda ochib berdi. Panel regressiya tahlili orqali olingan ma'lumotlar asosida, xususiy sektorga berilgan kreditlarning iqtisodiy faollik va ishlab chiqarish hajmini kengaytirishda asosiy omil ekanligi tasdiqlandi. Kreditlar koeffitsiyentining ijobiy va statistik jihatdan ahamiyatli bo'lishi moliyaviy resurslarning real sektor faoliyatiga yo'naltirilishining iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishdagi hal qiluvchi rolini ko'rsatadi. Bu holat Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi (IMF) kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ta'kidlanadi. Ularning hisobotlariga ko'ra, moliyaviy vositachilikning rivojlanishi iqtisodiyotning barqaror va uzoq muddatli o'sishiga xizmat qiluvchi asosiy mexanizmlardan biridir (World Bank, 2023; IMF, 2023).

Tahlilda depozitlar hajmining YAIMga ta'siri ham ijobiy bo'lib, bank tizimidagi jamg'armalarning oshishi moliyaviy barqarorlik va uzoq muddatli investitsiyalar uchun zamin yaratishini ko'rsatmoqda. Bu moliyaviy tizim orqali kapitalning samarali taqsimlanishiga, kredit resurslarining kengayishiga imkon beradi. Misol uchun, O'zbekiston Markaziy bankining rasmiy ma'lumotlariga ko'ra, 2015 yildan 2023 yilgacha depozitlar hajmi YAIMga nisbatan 19,8 foizdan 30,2 foizgacha o'sdi, bu esa banklarning moliyalashtirish imkoniyatlarining sezilarli darajada oshganligini tasdiqlaydi (Markaziy bank, 2023).

Inflyatsiyaning iqtisodiy o'sishga salbiy ta'siri ham kuzatildi, garchi uning statistik ahamiyati biroz zaif bo'lsa-da (p-qiymat 0.052). Bu natija klassik makroiqtisodiy nazariyalar bilan uyg'un keladi, chunki yuqori inflyatsiya darajasi narxlar barqarorligini buzib, iqtisodiy ishonchni kamaytiradi, jamg'armalar hajmini qisqartiradi va investitsiyalar oqimini sekinlashtiradi (Friedman, 1968; Blanchard va Johnson, 2013). Markaziy bank tomonidan amalga oshirilayotgan pul-kredit siyosatining maqsadi aynan inflyatsiyani past va barqaror darajada ushlab turish bo'lib, bu esa iqtisodiy o'sish uchun zarur shart-sharoit yaratadi. IMFning 2023 yilgi hisobotida ham narxlar barqarorligi rivojlanayotgan mamlakatlar iqtisodiyotining barqaror o'sishiga xizmat qiluvchi muhim omil sifatida ko'rsatilgan.

Savdo ochiqqligining ijobiy ta'siri iqtisodiy integratsiya va global bozorlarga kirishning oshishi bilan bog'liq. 2023 yilda O'zbekistonning tashqi savdo aylanmasi YAIMga nisbatan 64 foizni tashkil qilib, bu

mamlakat iqtisodiyotining ochiqligi va global tarmoqlarga integratsiyasining kengayishini namoyon etadi (Statistika qo'mitasi, 2024). Xalqaro savdo iqtisodiyotga nafaqat eksport hajmini oshirish orqali, balki texnologiyalarni import qilish, raqobatni kuchaytirish va samarali resurs taqsimotini ta'minlash orqali ham o'sishga hissa qo'shadi. Rodrik (2008)ning tadqiqotlarida ham savdo ochiqligi rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy samaradorlikni oshirish va texnologik taraqqiyot uchun muhim omil sifatida ko'rsatilgan.

Shu bilan birga, moliyaviy sektor tarkibida davlat banklarining yuqori ulushi raqobatning yetarlicha rivojlanmagani va kredit resurslarining samarali taqsimlanishiga to'siq bo'lishi xavfini ko'rsatadi. 2023 yilda bank tizimidagi aktivlarning taxminan 75 foizi davlat banklariga to'g'ri kelganligi (Moliya vazirligi, 2023) moliyaviy bozorlarning monopolizatsiyasiga va siyosiy ta'sir ostidagi kredit ajratilishining iqtisodiy samaradorlikni pasayishiga olib kelishi mumkin. Shu bois, moliyaviy sektor islohotlarini chuqurlashtirish, xususiy banklar ulushini oshirish, korporativ boshqaruvni takomillashtirish va bank faoliyatining shaffofligini ta'minlash iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror o'sishi uchun zarurdir.

Tahlil natijalari O'zbekistonning moliyaviy sektorini rivojlantirish borasida olib borilayotgan islohotlar to'g'ri yo'lda ekanligini ko'rsatmoqda. Kreditlar hajmining YAIMga nisbatan ortishi (2015 yildagi 21,7 foizdan 2023 yildagi 38,5 foizga) moliyaviy intermediatsiya samaradorligining oshganidan dalolat beradi va bu o'sish investitsiyalarni rag'batlantiruvchi muhim manba sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu bilan birga, moliyaviy vositachilik va tashqi savdo orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish modeli O'zbekiston uchun yuqori darajadagi iqtisodiy barqarorlik va inklyuziv o'sishga erishish imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, moliyaviy vositachilik va tashqi savdo ochiqligi iqtisodiy o'sish jarayonlarida muhim strategik omillar hisoblanadi. Inflyatsiya darajasini barqarorlashtirish va moliyaviy tizimdagi raqobatni kuchaytirish bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar mamlakatning uzoq muddatli barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, iqtisodiy siyosat ishlab chiqishda ushbu omillarning o'zaro ta'siri va ular boshqarilishining yanada takomillashtirilishi zarurdir.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekiston iqtisodiyotida moliyaviy intermediatsiyaning iqtisodiy o'sishdagi muhim rolini aniq ko'rsatib berdi. Ayniqsa, xususiy sektorga berilayotgan kreditlar hajmining ortishi va depozitlar miqdorining o'sishi real sektor uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirib, investitsiyalarni rag'batlantirmoqda. Bu esa ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish, qurilish va qishloq xo'jaligi kabi asosiy tarmoqlarda iqtisodiy faollikning oshishiga olib keladi. Bank tizimidagi moliyaviy vositachilik mexanizmlarining samarali ishlashi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi uchun asosiy shartlardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Empirik tahlil natijalari kreditlar va depozitlar ko'rsatkichlarining YAIM o'sishiga ijobiy ta'siri mavjudligini, inflyatsiya esa salbiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqladi. Bu esa narxlar barqarorligini ta'minlash va pul-kredit siyosatini qat'iy amalga oshirish zaruratini yana bir bor ta'kidlaydi. Inflyatsiyaning yuqori darajasi aholining real daromadlarini

pasaytirib, jamg'armalarning qisqarishiga, shuningdek iqtisodiy ishonchning susayishiga olib keladi.

Savdo ochiqligi darajasining o'sishi esa xalqaro bozorlarga kirishni kengaytirib, eksport hajmining oshishi va texnologiyalar transferi orqali iqtisodiy o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa O'zbekistonning global iqtisodiy integratsiyasining chuqurlashayotgani va eksportga yo'naltirilgan iqtisodiy strategiyaning samaradorligini ko'rsatadi.

Shuningdek, bank tizimida davlat banklarining yuqori ulushi va xususiy sektor ishtirokining pastligi raqobat muhitining yetarlicha shakllanmaganligini bildiradi. Davlat banklarining siyosiy yo'naltirilgan kredit ajratish amaliyoti moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishiga to'siq bo'lishi mumkin. Shu bois, moliyaviy sektor islohotlari doirasida xususiy banklarning faolligini oshirish, korporativ boshqaruvni yaxshilash va banklarning shaffofligini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, moliyaviy vositachilik, ya'ni kreditlash va jamg'armalarning samarali safarbar qilinishi, hamda xalqaro savdo aloqalarining rivojlanishi O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror va inklyuziv o'sish modelini shakllantirishda asosiy omillar sifatida ajralib turadi.

Takliflar:

1. **Moliyaviy sektor islohotlarini davom ettirish va chuqurlashtirish** – Bank tizimida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish, raqobat muhitini yaxshilash va moliyaviy xizmatlarning sifatini oshirish uchun shaffoflikni ta'minlash zarur. Xususiy banklarning faoliyati uchun adolatli raqobat sharoitlarini yaratish orqali moliyaviy vositachilik samaradorligini oshirish mumkin.

2. **Narxlar barqarorligini ta'minlash** – Markaziy bank inflyatsiyani nazorat qilishda qat'iy siyosat olib borishi, pul-kredit siyosatini ehtiyotkorlik bilan amalga oshirishi zarur. Narxlar barqarorligi iqtisodiy ishonchni mustahkamlash, investitsiyalarni rag'batlantirish hamda aholi real daromadlarini himoya qilish uchun muhimdir.

3. **Moliyaviy inklyuziyani kengaytirish** – Bank xizmatlaridan foydalanishni kengaytirish, ayniqsa kichik va o'rta biznes hamda qishloq aholisi uchun moliyaviy imkoniyatlarni oshirish zarur. Raqamli bank xizmatlari va mikro kreditlash vositalarini rivojlantirish orqali iqtisodiy faollikni yanada ko'paytirish mumkin.

4. **Tashqi savdo va eksportni rivojlantirish** – Xalqaro iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirish, eksportga yo'naltirilgan siyosatni qo'llab-quvvatlash, savdo infratuzilmasini yaxshilash va texnologiyalar transferini rag'batlantirish orqali iqtisodiy o'sish sur'atlarini oshirish mumkin.

5. **Moliyaviy resurslarning samarali taqsimlanishini ta'minlash** – Davlat banklarining siyosiy yo'naltirilgan kredit ajratish amaliyotini kamaytirish, kredit resurslarini bozor tamoyillariga asoslangan taqsimlash mexanizmlarini rivojlantirish zarur. Bu investitsiyalarning samaradorligini oshirishga yordam beradi.

6. **Kelajakdagi tadqiqotlar uchun tavsiyalar** – Moliyaviy vositachilikning turli iqtisodiy sohalarga ta'sirini, bank kreditlarining mikro darajadagi iqtisodiy samaradorligini chuqur o'rganish tavsiya etiladi. Shuningdek, moliyaviy inklyuziyaning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlarini tahlil qilish orqali siyosatni yanada takomillashtirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. King R.G., Levine R. Finance and Growth: Schumpeter Might Be Right. Quarterly Journal of Economics, 1993.
2. Schumpeter J.A. The Theory of Economic Development. 1912.
3. Levine R. Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda. Journal of Economic Literature, 1997.

4. Goldsmith R.W. Financial Structure and Development. Yale University Press, 1969.
5. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleteni. 2022.
6. World Bank Data. Accessed 2023.



SANOAT KORXONALARIDA MAHSULOT TANNARXINI HISOBLASHDA ABC USULINI QO'LLASH MOHIYATI

Rasulova Shaxnoza Xatamovna,

Farg'ona davlat texnika universiteti, tayanch doktoranti,

e-mail: rasulova.sh@ferpi.uz, tel:+998 97 504 08 80.

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 10 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1190 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS mahsulot tannarxini hisoblash, ABC usuli (yoki Activity-Based Costing), ishlab chiqarish xarajatlar tahlili, korxonalar faoliyat turlari, xarajatlarni taqsimlash, korxona faoliyati samaradorligi	Ushbu maqolada sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini hisoblashda ABC usulidan qanday foydalanilishini va uning mohiyati ochib berilgan. Maqolada xorijda keng qo'llaniladigan ushbu usulning batafsil tahlili keltirilgan. Tadqiqotda natijalariga asoslanib ABC usulining asosiy imkoniyatlari va tamoyillari tavsiflangan, shuningdek, uni qo'llashning amaliy misollari keltirilgan. Faoliyat turlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olishda ABC dan foydalanish korxonaga uning faoliyatiga qanday afzalliklar berishi haqida xulosalar keltirilgan.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiyotda sanoat korxonalari o'rasida raqobatning kuchayishi va xarajatlarning oshishi ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulot yoki xizmatlarning tannarxini hisoblash jarayonlarini optimallashtirishni talab qilmoqda.

An'anaviy xarajatlarni taqsimlashning usullari, masalan, ishlab chiqarish hajmiga mutanosib ravishda taqsimlash yoki mehnat xarajatlarni to'g'ridan-to'g'ri hisobga olish har doim ham xarajatlarning haqiqiy ko'rinishini aks ettirmaydi. Bu esa samarasiz narx belgilash va resurslarni boshqarishga olib kelishi mumkin.

Buxgalteriya hisobida doimiy va o'zgaruvchan xarajatlarni mahsulot tannarxiga kiritish qoidalar mavjud. Biroq, asosli qaror qabul qilish uchun faqat buxgalteriya hisobi qoidalar asosida hisoblangan tannarxni bilishning o'zi doim ham yetarli bo'lavermaydi.

Sanoat korxonalarida umum-ishlab chiqarish xarajatlarni hisobga olishning an'anaviy tizimlarida odatda inson-soat va mashina-soat ko'rsatkichlari qo'llaniladi. Bu har bir mahsulot birligini ishlab chiqarish uchun qancha resurs (inson va mashina) talab etilishini aniqlash imkonini beradi.

Bu xarajatlarga asosiy ishchilarning mehnati, asosiy xom ashyolar, elektr energiyasi sarfi kiradi. Ishlab chiqarish tannarxini hisoblashda odatda qancha material va vaqt kerakligi inobatga olinadi. Ammo ishlab chiqarish jarayoniga ta'sir ko'rsatadigan, lekin ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmagan boshqa ko'plab omillar ham mavjud. Bularga materiallarni sotib olish va yetkazib berish, uskunalarini sozlash, ish jadvalini tuzish va mahsulot sifatini nazorat qilish kiradi.

Amaliyotda sanoat korxonalari cheklangan turdagi mahsulotlarni ishlab chiqargan va asosiy xarajatlar xomashyo hamda xodimlar ish haqiga bog'liq bo'lgan davrda, tannarxni hisoblash nisbatan oson edi. Ustama xarajatlar ahamiyatsiz bo'lib, ularning mahsulotlarga taqsimlanishi yakuniy qiymatga sezilarli ta'sir ko'rsatmagan. Biroq, ma'lumotlarni qayta ishlash qimmatga tushganligi sababli, ustama xarajatlarni taqsimlashning murakkab usullari qo'llanilmagan.

Hozirgi kunda korxonalarda keng turdagi mahsulotlar ishlab chiqarilmoqda va asosiy ishchilar bunga kamroq kuch sarflamoqdalar. Shu bilan birga, ustama xarajatlar umumiy xarajatlarning salmoqli qismini tashkil etmoqda. Shuning uchun asosiy ishchilar mehnatiga asoslangan xarajatlarni taqsimlashning an'anaviy usullari o'z dolzarbligini yo'qotmoqda. Ayniqsa, hozirgi paytda xarajatlarni aniqroq hisoblash uchun axborotni qayta ishlashning murakkab usullaridan foydalanish hech qanday qiyinchilik tug'dirmaydi.

1980-yillarning oxirida buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish g'oyasi paydo bo'ldi. Xarajatlarni aniq taqsimlash va mahsulot tannarxini hisoblashning istiqbolli usullaridan biri ABC usuli (Activity-Based Costing) hisoblanadi. Bu usul faoliyat turlarini tahlil qilishga asoslangan bo'lib, mahsulotga qilinadigan bilvosita xarajatlarni aniqroq taqsimlash imkonini beradi. Ayniqsa, bu yondashuv murakkab ishlab chiqarish jarayoni sharoitida dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. Hozirgi kunda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan ishlab chiqarish xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini hisoblash usullari haqida ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Ushbu izlanishlar asosan ishlab chiqarish jarayoni bilan bog'liq xarajatlarni qayd etish va ro'yxatga olishni o'z ichiga olgan. Ushbu izlanishlar natijalari va taqdim etilayotgan usul mahsulot birligining haqiqiy tannarxini aniqlash va uni tayyorlashga ketgan xarajatlarni taqsimlash imkonini beradi.

Ishlab chiqarish xarajatlarni hisobga olish va mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning turli usullari mavjud. Ularning qo'llanilishi ishlab chiqarish jarayonining xususiyatlari, ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ish, xizmat) ning xarakteri, uning tarkibi bilan belgilanadi [1].

Shu o'rinda biz ishlab chiqarish xarajatlarni haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishimiz zarur, bu borada yurtimiz olimlari K.B. Urazov va M.E. Pulatov muallifligidagi "Buxgalteriya hisobi" darsligida ishlab chiqarish xarajatlari — bu bevosita mahsulotlarni (ish, xizmatlarni) ishlab chiqarishga ketgan, shuningdek, ularning tannarxini tashkil etuvchi xarajatlarni deb ta'rif berishgan [2].

Shuningdek yurtimiz iqtisodchi olimlaridan B.Safarov va T.Raxmanov xarajat — bu moddiy resurslarni sotib olishga qilingan sarflar bo'lib, daromadlar va xarajatlar konsepsiyasiga ko'ra, shu davrning o'zida daromad keltirishi kerak" [3] deb tariflagan. Xudi shunday ta'rifni F.T. Abduravixodov, I.N. Qo'ziyev, Sh.X. Dadabayev [4] "Buxgalteriya hisobi" darsligida keltirib otishgan.

Yana bir respublikamiz taniqli iqtisodchi olimlaridan F.G'ulomova ishlab chiqarish xarajatlarni tayyorlanayotgan mahsulotning ishlab chiqarish miqdoriga bog'liqligiga qarab sarflangan ikki guruhga o'zgaruvchan va shartli o'zgarmaydigan xarajatlarga bo'lishni taklif etgan. Doimiy xarajatlar ishlab chiqarish hajmiga bog'liq bo'lmaydi uning o'sishiga ham bevosita ta'sir etmaydi va ishlab chiqarishning har qanday, hatto nolinchi hajmida ham mavjud bo'ladi. Bunga korxonaning to'lov majburiyatlari (zayomlar bo'yicha foiz va boshqa), soliqlar, amortizatsiya ajratmalari, ijara haqi, qo'riqlash xizmatiga to'lov uskunalariga xizmat ko'rsatish uchun sarflar, boshqaruv xodimlari maoshi va shu kabilar kiradi" [5] deb yozadi.

Mahsulot tannarxini hisoblashda xorijiy olimlarning fikrlarini ham yurtimiz olimlarining mulohazalariga yaqindir, jumladan bur guruh rus olimlari muallifligidagi "Buxgalteriya hisobi" darsligida "Mahsulot (ish, xizmat) lar ishlab chiqarish xarajatlarning shakllanishi va ularning turkumlanishi hisobning eng murakkab bo'limlari hisoblanadi. Ishlab chiqarish xarajatlari hisobini tashkil etishga yuqori talablar qo'yish zarurati ishlab chiqarilayotgan mahsulot (ko'rsatilayotgan xizmatlar, bajarilayotgan ishlar) ning haqiqiy tannarxini to'g'ri va o'z vaqtida aniqlashga boshqaruv qarorlarini o'z vaqtida va samarali qabul qilish, korxonani yanada rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash bog'liqligi bilan izohlanadi" [6] deb ta'rif beradi.

Yana bir rus olimi Ye.V. Yelsova "xo'jalik faoliyatida sarflangan, qiymat ifodasida baholangan va tugallanmagan ishlab chiqarish

qoldiqlari, tayyor mahsulot, ular bilan bog'liq daromadlar tan olingunga qadar yuklab jo'natilgan tovarlar tarzida balansda tan olinadigan resurslar (moddiy, mehnat va boshqalar) xarajatlar hisoblanadi" [7] deb yozadi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib aytganda, bizning fikrimizcha, xarajatlar yetkazib beruvchi korxonalar uchun foyda va qabul qiluvchi korxonalar uchun sarf bo'lsa-da, ular har ikkala tomon uchun daromad manbai vazifasini ham o'taydi. Shu nuqtai nazardan, korxona faoliyatining mohiyati xarajatlar va natijalarni taqqoslashdan iborat. Shu sababli, korxonalar faoliyatining samaradorligini faqatgina xarajatlarni va ularning ko'rsatkichlarga ta'sirini tahlil qilish orqali aniqlash mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada O'zbekiston amaliyotida kam uchraydigan sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini hisoblashda foydalanish mumkin bo'lgan ABC usulini qo'llash mohiyatini ochib berishga harakat qilindi. Bu jarayonda ilmiy tadqiqotning umum va maxsus metodlaridan foydalanildi, jumladan: mavzuga oid adabiyotlar tahlili, tizimlashtirish, umumlashtirish, tasniflash, taqqoslash, amaliy misollar bilan tahlil qilish.

Tadqiqot natijalari. Zamonaviy jahon iqtisodiy sharoitda korxonalar va biznes jarayonlarini tashkil etishning eng samarali usuli bu ularni faoliyat turlari hamda yo'nalishlari bo'yicha ajratishdir. Ushbu yondashuv ko'p jihatdan Garvard universiteti professori Maykl Porter tomonidan ishlab chiqilgan qiymat yaratish zanjiri konsepsiyasiga asoslanadi hamda katta ta'sir ko'rsatdi [8]. Uning nazariyasiga ko'ra, har qanday korxonada to'qqizta asosiy faoliyat turini ajratib ko'rsatish mumkin: ulardan beshtasi asosiy ish bilan bog'liq va to'rttasi yordamchi funksiyalar bilan bog'liq [9].

Shu nuqtay nazarda biz ham sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini hisoblashda faoliyat turlarini hisobga olishni taklif etamiz. Faoliyat turlari bo'yicha tannarxni hisoblash (ABC) asosan ishlab chiqarish sanoatida qo'llaniladi. U xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarning ishonchligini oshiradi, shu bilan deyarli haqiqiy xarajatlarni amalga oshiradi va korxonalar ishlab chiqarish jarayonida ko'rgan xarajatlarni yaxshiroq tasniflaydi. Bu xarajatlar kalkulyatsiyasi tizimidan xarajatlarni maqsadli kalkulyatsiya qilish, mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilish, mahsulotlar rentabelligini tahlil qilish, mijozlar rentabelligini tahlil qilish va xizmatlar narxini belgilashda foydalaniladi. Xarajatlarni faoliyat turlari asosida hisoblash xarajatlarni yaxshiroq tushunish uchun ishlatiladi, bu esa korxonalarga narxlarini shakllantirishning yanada maqbul strategiyasini shakllantirish imkonini beradi.

Faoliyat asosida tannarxni hisoblash formulasi xarajatlar pulining xarajatlar drayveriga bo'lingan umumiy summasidir, bu esa xarajatlar drayverining stavkasini beradi. Xarajatlar drayverining stavkasidan muayyan faoliyat bilan bog'liq qo'shimcha xarajatlar va bilvosita xarajatlar summasini hisoblash uchun faoliyat asosida tannarxni hisoblashda foydalaniladi.

ABC hisob-kitobi quyidagicha amalga oshiriladi: Mahsulotni yaratish uchun zarur bo'lgan barcha harakatlarni aniqlash. Harakatlarni xarajatlar guruhlariga bo'ling, ular harakat bilan bog'liq barcha individual xarajatlarni o'z ichiga oladi. Xarajatlarning har bir guruhining umumiy ustama xarajatlarni hisoblab chiqish. Har bir xarajat turiga soatlar yoki birliklar kabi xarajat omillarini tayinlash. Har bir xarajatlar guruhidagi ustama xarajatlarning umumiy summasini xarajatlar drayverlarining umumiy summasiga bo'lish orqali xarajatlar drayverining stavkasini hisoblash.

Xarajat drayveri stavkasini xarajat drayverlari soniga ko'paytirish.

Masalan, elektr energiyasi hisobi yiliga 50 mln. so'mni tashkil etadigan ABC korxonasini ko'rib chiqamiz. Ish soatlari soni elektr energiyasi hisobiga bevosita ta'sir qiladi. Bir yilda 2500 ish soati ishlagan; bu misolda bu xarajatlar drayveridir. Xarajatlar drayverining stavkasini hisoblash elektr energiyasi uchun yiliga 50 mln. so'm miqdoridagi hisobni 2500 soatga bo'lish yo'li bilan amalga oshiriladi, bu esa xarajatlar drayverining stavkasini 20 ming so'm miqdorida beradi. XYZ mahsuloti uchun korxonalar 10 soat davomida elektr energiyasidan foydalanadi. Mahsulot uchun qo'shimcha xarajatlar 200 ming so'mni (yoki 20 ming so'mni 10 ga ko'paytiradi) tashkil etadi.

Deyarli har bir korxona xarajatlarni oqilona darajada amalga oshirishi hamda zaruriy zaxiralarga ega bolishi darkor, bu esa iqtisodiy samaradorlikni oshirishga va raqobatbardoshlikni oshirishga imkon beradi [10-12]. Faoliyat turlari bo'yicha xarajatlarni hisobga olish ustama xarajatlarni tahlil qilish uchun foydalanish mumkin bo'lgan xarajatlar guruhlarini sonini kengaytirish hisobiga va faoliyatning

muayyan turlari bo'yicha bilvosita xarajatlarni kuzatish imkoniyati hisobiga xarajatlarni kalkulyatsiya qilish jarayonini yaxshilaydi.

Yuqoridagi yutuqlar bilan bir qatorda sanoat korxonalarida mahsulot tannarxini hisoblashda ABC usulini qo'llash e'tiborga olinishi kerak bo'lgan ba'zi jihatlar mavjud:

ABC usulini moslashtirish jarayoni ko'plab tizimlarni qayta qurish, ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilish, shuningdek, xarajatlarning yangi tuzilmasini shakllantirishni o'z ichiga oladi. Resurslari cheklangan kichik korxonalar uchun bunday xarajatlar ortiqcha bo'lishi mumkin. Usul ma'lumotlarni sinchkovlik bilan to'plash va tahlil qilishni talab qiladi, bu esa chalkashlik va xatolarga olib kelishi mumkin. Kerakli tayyorgarlik va tajribasiz xodimlar tizimdan samarali foydalanishni tushunmasliklari mumkin, bu esa natijalarning aniqligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Yuqori ekspluatatsion xarajatlar. ABC tizimi xarajatlarning aniq va dolzarb tuzilishini saqlab qolish uchun muntazam ravishda ma'lumotlarni to'plash va tahlil qilishni talab qiladi. Ushbu xarajatlar ularni qoplash uchun zarur resurslarga ega bo'lmagan korxonalar uchun jiddiy yuk bo'lishi mumkin.

ABC usulini joriy etish va undan foydalanishning murakkabligi. ABC usulini joriy etish va undan foydalanish, ayniqsa, tez o'zgaruvchan muhit sharoitida uzoq va murakkab jarayon bo'lishi mumkin. Ma'lumotlarni yig'ish va tahlil qilish vaqt talab qiladi va agar ma'lumotlarni boshqarish to'g'ri tashkil etilmasa, bu qaror qabul qilish jarayonini sekinlashtirishi mumkin.

Yana shuni yodda tutish kerakki ABC usuli barcha korxonalar uchun mos kelmasligi mumkin. Zero, ba'zi ishlab chiqarilishlari ABC usuli doirasida o'tkaziladigan chuqur tahlilni talab qilmaydigan oddiy xarajatlar tuzilmasiga ega bo'lishi mumkin.

Sanoat korxonalarda ko'pincha ABC usulini qo'llash uchun asos bo'lib xizmat qiladigan biznes-jarayonlarning dolzarb tavsiflari (modellari) mavjud emas. Agar korxonada boshqaruv hisobi tizimi yo'lga qo'yilmagan bo'lsa, zarur faoliyat kesimlari bo'yicha xarajatlar to'g'risidagi ma'lumotlarni olish qiyin bo'lishi mumkin.

Ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlarga muvofiq, bizningcha keltirilgan muammoni hal qilishning quyidagi yo'llarini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiqdir:

1. Sanoat korxonalarda mavjud buxgalteriya hisobi tizimi doirasida ma'lumotlarni yanada batafsil tahlil qilish va qayta ishlashni joriy etish.

2. Ishlab chiqarishda bir vaqtning o'zida bir nechta yo'nalishlar bo'yicha hisob yuritish, bu esa bilvosita xarajatlarni taqsimlash tamoyillarini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

3. Buxgalteriya hisobi tizimi axborotni maqbul narxda yetkazib beradigan samarali yechimlarni taqdim etishi, ishlab chiqishi zarur.

4. Mavjud tizimning dolzarbligi va samaradorligini saqlab qolish uchun uni muntazam yangilab borish va monitoring qilish.

Mahsulotlarga bilvosita yoki qo'shimcha xarajatlarni taqsimlash uchun mashina-soat yoki to'g'ridan to'g'ri mehnat soatlari kabi hajmni hisoblashga bog'liq bo'lgan xarajatlarni o'lchashning an'anaviy tizimlaridan farqli o'laroq, ABC tizimi ma'lum darajada qancha birlik ishlab chiqarilganligi bilan bog'liq bo'lmagan faoliyatning beshta umumiy darajasini tasniflaydi. Bu darajalar partiya darajasidagi faollik, birlik darajasidagi faollik, mijoz darajasidagi faollik, tashkilotni qo'llab-quvvatlash bo'yicha faollik va mahsulot darajasidagi faollikni o'z ichiga oladi.

Faoliyat asosida tannarxni hisoblash (ABC) xarajatlarni hisoblash jarayonini uchta usulda yaxshilaydi. Birinchidan, bu qo'shimcha xarajatlarni yig'ish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan xarajatlar pullari sonini kengaytiradi. Barcha xarajatlarni butun korxonalar uchun bir hovuzda jamlash o'rniga, u faoliyat turlari bo'yicha xarajatlarni birlashtiradi.

Ikkinchidan, bu ustama xarajatlarni moddalar bo'yicha taqsimlash uchun yangi asoslarni yaratadi, shuning uchun xarajatlar mashina-soatlar yoki ish kuchiga to'g'ridan to'g'ri xarajatlar kabi hajmli ko'rsatkichlar asosida emas, balki xarajatlarni keltirib chiqaradigan faoliyat turlari asosida taqsimlanadi.

ABC ilgari bilvosita deb hisoblangan xarajatlarni, masalan, amortizatsiya, kommunal xizmatlar yoki ma'lum faoliyat turlari uchun kuzatib boriladigan ish haqi kabi bir nechta bilvosita xarajatlar xususiyatini o'zgartirmoqda. Muqobil sifatida, ABC katta hajmli mahsulotlardan kichik hajmli mahsulotlarga ustama xarajatlarni o'tkazadi, kichik hajmli mahsulotlar birligining tannarxini oshiradi.

ABC tannarxi kalkulyatsiyasida faoliyatning beshta darajasi mavjud: birlik darajasidagi faoliyat, partiya darajasidagi faoliyat, mahsulot darajasidagi faoliyat, mijoz darajasidagi faoliyat va tashkilotni qo'llab-quvvatlash faoliyati. Birlik darajasidagi faoliyat har safar birlik amalga oshirilganda bajariladi. (Masalan, asbob-uskunalar birligi uchun elektr ta'minotini ta'minlash bir birlik darajasida xarajat hisoblanadi.) Partiya darajasidagi faoliyat, partiyadagi birliklar sonidan qat'i nazar, har safar partiya qayta ishlanadi. Mijozlarga yetkazib berishni muvofiqlashtirish partiya darajasidagi faoliyatning namunasidir.

Mahsulot darajasidagi harakatlar aniq mahsulotlar bilan bog'liq; mahsulot darajasidagi harakatlar qancha mahsulot ishlab chiqarilgan va sotilganligidan qat'iy nazar bajarilishi kerak. (Masalan, mahsulotni loyihalashtirish mahsulot darajasida ta'sir ko'rsatadi.) Mijoz darajasidagi harakatlar aniq mijozlar bilan bog'liq. Umumiy texnikalar mijoz darajasidagi harakatlarga misol bo'la oladi.

Xulosa va takliflar. Shunday qilib yuqoridagi keltirilgan mulohazalarga va tadqiqotlarga muvofiq aytish mumkinki, sanoat korxonasida ABC kalkulyatsiyasining maqsadi samaradorlikni oshirish va xarajatlarni kamaytirish uchun biznes faoliyati va jarayonlarini optimallashtirishdan iborat. U xarajatlarning eng yuqori drayverlarini: korxonalarining eng ko'p resurslarini sarflaydigan faoliyat va jarayonlarni aniqlashga qaratilgan.

ABC tannarxini hisoblash xarajatlarning umumiy pulini topish va uni xarajalar drayveriga bo'lish yo'li bilan amalga oshiriladi. Xarajatlar puli muayyan biznes-vazifani bajarish, masalan, muayyan mahsulotni tayyorlash bilan bog'liq barcha xarajatlar yig'indisidir. Xarajat drayverlari — ish soatlari, mashina soatlari va mijozlar bilan aloqalar.

Faoliyat turlari bo'yicha tannarxni hisoblash (ABC) — bu tannarxni hisoblash usuli bo'lib, u barcha yuk va bilvosita xarajatlarni aniq mahsulotlar va xizmatlarga bevosita bog'laydi.

Tannarxni faoliyat asosida kalkulyatsiya qilish xarajatlar, ustama xarajatlar (barcha voqealar, vazifalar yoki muayyan maqsadda ishlash birliklari) va ishlab chiqarilgan mahsulot o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga oladi. Tannarxni faoliyat asosida hisoblashdan maqsad korxonalarining haqiqiy xarajatlarni tushunish va xarajatlarning eng yuqori drayverlarini: korxonalar resurslarining katta qismini sarflaydigan faoliyat turlari va jarayonlarini aniqlash orqali samarasizlikni kamaytirishdan iborat.

ABC usulidan foydalanishning asosiy afzalligi qo'shimcha xarajatlardan qanday foydalanilishini aniqroq aniqlashdan iborat. Agar korxonalarda tannarxni ko'rsatib o'tilgan usul deb hisoblasa, quyidagi masalalar bo'yicha batafsilroq ma'lumot olish mumkin:

1. Faoliyat xarajatlari tarmoq standartlariga mos keladimi? Agar yo'q bo'lsa, ABC usuli xarajatlarni kamaytirishga intilayotgan rahbariyat bo'lsa, aniq xizmatlarning joriy qiymatini o'lchash uchun ajoyib qayta aloqa vositasi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Кондраков, Н. П. Бухгалтерский учет (финансовый и управленческий): учебник / Н.П. Кондраков. — 5-е изд., перераб. и доп. — Москва: Инфра-М, 2025. — 584 с.
2. Urazov K.B., Pulatov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darsdik. — T.: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2020, 558 bet.
3. Safarov B., Raxmanov T. Buxgalteriya hisobi. O'quv qo'llanma. — Samarqand, SamDU, 2019. -388 bet.
4. Abduvaxidov F.T., Qo'ziyev I.N., Dadabayev Sh.X. Buxgalteriya hisobi. Darslik. — T.: TDIU, 2019. — 403 b.
5. Fulo'mova F.F. Buxgalteriya hisobi b'yiicha amaliy q'llanma. — T.: 2004. — B.141
6. Бухгалтерский учет: учеб. / П. Я. Папковская [и др.]; под ред. П. Я. Папковской. — 2-е изд., испр. и доп. — Минск: РИПО, 2019. — 375 с.
7. Ельцова, Е. В. Бухгалтерский (финансовый) учет. Теоретический курс: учебное пособие / Е. В. Ельцова, И. П. Колечкина, И. Ю. Верчагина; Министерство науки и высшего образования Российской Федерации, Кузбасский государственный технический университет имени Т. Ф. Горбачева, филиал в г. Белово. — Белово, 2022. — 238 с.

2. Mijozlarning daromadliligi. Garchi ayrim mijozlar tomonidan qilingan xarajatlarning katta qismi mahsulotlarning qiymati bo'lsa-da, mijozlarga sotuvdan keyingi xizmat ko'rsatish, tovarlarni qaytarish va boshqalar kabi qo'shimcha xarajatlar ham mavjud. ABC tizimi ushbu qo'shimcha xarajatlarni saralab, qaysi mijozlar haqiqatan ham foyda keltirishini aniqlashga yordam beradi. Tahlillar zarar ko'rib ishlayotgan mijozlar bilan ishlash to'xtatilishiga yoki asosiy e'tibor eng ko'p foyda keltiradigan mijozlarga qaratilishiga olib kelishi mumkin.

3. Distributsiya qiymati. Oddiy korxonalar chakana savdo, Internet, distribyutorlar va pochta buyurtmalari kataloglari kabi mahsulotlarini sotish uchun turli xil savdo kanallaridan foydalanadi. Taqsimlash kanalini saqlash bo'yicha tarkibiy xarajatlarning katta qismi ustama xarajatlar bilan bog'liq, shuning uchun, agar qanday taqsimlash kanallari ustama xarajatlardan foydalanishini asosli ravishda aniqlash mumkin bo'lsa, unda taqsimlash kanallaridan foydalanish usulini o'zgartirish yoki zarar ko'rib ishlashdan voz kechish haqida qaror qabul qilish mumkin.

4. Mahsulotni ichki ishlab chiqarish bilan bog'liq barcha xarajatlar to'g'risida ma'lumotga ega bo'lish. Agar tovarni korxonalar kuchi bilan ishlab chiqarish o'rniga uni autsorsingga o'tkazsangiz, qanday xarajatlarni kamaytirish mumkinligini aniq ko'rish mumkin.

5. Foyda. ABC tizimidan qo'shimcha xarajatlar to'g'ri taqsimlanganda turli mahsulotlar, mahsulot liniyalari va sho'ba/mintaqaviy korxonalar marjasini aniqlash mumkin. Bu eng ko'p foyda olish uchun korxonalar resurslarini qayerga joylashtirishni aniqlash uchun juda foydali bo'lishi mumkin.

6. Eng kam narx. Tovarlarning narxini belgilash, qoida tariqasida, bozor narxlarida amalga oshiriladi, lekin marketing bo'yicha menejer mahsulotni tannarxidan past narxda sotmaslik uchun mahsulotning ichki qiymati qancha ekanligini bilishi kerak. ABC mahsulot sotish holatlaridan kelib chiqib tannarxga kiritilishi lozim bo'lgan ustama xarajatlarni aniqlash uchun mos keladi.

7. Ishlab chiqarish obyektining qiymati. Odatda, ustama xarajatlarni butun korxona darajasida ajratish juda oson, shuning uchun ishlab chiqarish xarajatlarni turli obyektlar o'rtasida solishtirish mumkin.

Ma'lumki, ABC usulidan foydalanishda taqdim etiladigan ma'lumotlar juda ko'p qo'llanmalarga ega. Biroq, agar har bir yechim uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarning ma'lum to'plamini ta'minlaydigan ABC usuli bilan tannarxni hisoblash tizimini loyihalashtirsak, u mavjud bo'ladi. Agar korxonalar ABC universal tizimini o'rnatishga qaror qilsa, kelajakda kerakli ma'lumotlarni olish imkoniyati bo'lmasligi mumkin. Tizim dizaynini korxonalarining ma'lum ma'lumotlarni tahlil qilishga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqqan holda aniqlash kerak. Shuningdek, xarajatlar va foydalarni, xususan, ushbu tizim qanday qarorlar qabul qilishga yordam berishi kerakligini, undan foydalanish foydasi kiritish qiymatidan oshib ketishini tahlil qilish kerak.

8. Портер, М. Э. (2010). Конкуренция: Обновленное и расширенное издание («Harvard Business Review»). Изд.: Диалектика/Вильямс.
9. Конкуренция. Инновации. Конкурентоспособность: учеб. пособие для студентов вузов, обучающихся по направлениям «Менеджмент», «Экономика» / Т.Г. Философова, В.А. Быков; под ред. Т.Г. Философовой. — 2-е изд., пере-раб. и доп. - М.: ЮНИТИ-ДАНА, 2017.- 295 с.
10. Rasulova Shaxnoza Xatamovna (2024). ISHLAB CHIQUARISH XARAJATLARINI HISOBGA OLISH VA UNING TAHLILI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (8), 476-487.
11. Qudbiyev, N. T., Haydarov, U. S. O., & Kurbonova, S. A. (2022). Harajatlar hisobning zamonaviy usullari. Scientific progress, 3(1), 442-448.
12. Исманов, И. Н. (2023). СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОВ РАСЧЕТА ПРОИЗВОДСТВЕННЫХ ЗАТРАТ И СЕБЕСТОИМОСТИ ВЫПУСКАЕМОЙ ПРОДУКЦИИ. In Устойчивое развитие: анализ тенденций российской и мировой экономики (pp. 367-370).



TIJORAT BANKLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA "BIG DATA" TEXNOLOGIYASINING O'RNI

Raxmonova Nilufarxon A'zamjon qizi

Qo'qon Universiteti Iqtisodiyot va Turizm kafedrası o'qituvchisi

nilufar.9121@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 11 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1191 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS Big data, tijorat banklari, iqtisodiy samaradorlik, marketing, kredit riski, bozor iqtisodiyoti	Raqamli transformatsiya jarayonlari bank sektorida tub o'zgarishlarga sabab bo'layotgan bir paytda, Big Data texnologiyalari tijorat banklarining operatsion samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Ushbu maqolada tijorat banklari faoliyatida katta hajmdagi ma'lumotlarni yig'ish, tahlil qilish va ulardan samarali foydalanish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Big Data asosida kredit risklarini baholash, mijozlarga individual xizmat ko'rsatish, firibgarlikni aniqlash hamda qaror qabul qilish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali banklar raqobatbardoshligini oshirishi mumkinligi ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, maqolada Big Data texnologiyasini joriy etishdagi asosiy to'siqlar, axborot xavfsizligi masalalari va muvaffaqiyatli jahon tajribalari misolida muhokama qilinadi. Tadqiqot natijalari tijorat banklari rahbarlari va IT-mutaxassislari uchun amaliy tavsiyalarni taklif etadi.

Kirish. So'nggi yillarda bank sohasida raqamli transformatsiya jarayonlari jadal kechmoqda. Bunda ayniqsa Big Data texnologiyalarining joriy etilishi bank faoliyatini tubdan o'zgartirmoqda. Katta hajmdagi ma'lumotlarni real vaqt rejimida yig'ish, tahlil qilish va ulardan strategik qarorlar qabul qilishda foydalanish imkoniyati banklarning samaradorligini oshirishda muhim omilga aylanmoqda. Mazkur maqolada Big Data texnologiyasining tijorat banklari faoliyatiga ta'siri, uning asosiy yo'nalishlari, afzalliklari va dolzarb muammolari tahlil qilinadi.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishda moliyaviy institutlar, xususan tijorat banklari markaziy rol o'ynaydi. So'nggi yillarda raqamli transformatsiya global miqyosda bank sektorining eng ustuvor yo'nalishiga aylangan. Banklar zamonaviy texnologiyalar yordamida xizmatlar ko'lamini kengaytirish, operatsion xarajatlarni qisqartirish, xavflarni boshqarish va mijozlar ehtiyojlariga tezkor javob qaytarishni maqsad qilmoqda.

Zamonaviy moliyaviy sektor keskin raqobat sharoitida faoliyat yuritmoqda. Mijoz ehtiyojlari, raqamli texnologiyalar va bozor talablarining o'zgarishi banklar oldiga yangidan-yangi vazifalarni qo'yadi. Shu nuqtayi nazardan, banklar uchun tezkor, chuqur va ishonchli qarorlar qabul qilish imkonini beradigan zamonaviy texnologiyalardan biri bu — Big Data texnologiyasidir.

Big Data — bu katta hajmdagi murakkab axborotni real vaqt rejimida yig'ish, saqlash, tahlil qilish va unga asoslangan holda oqilona qarorlar chiqarish texnologiyasidir. Bu texnologiya nafaqat texnik tizim, balki strategik ustunlikni ta'minlovchi vosita sifatida ham e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, tijorat banklari uchun Big Data imkoniyatlari moliyaviy samaradorlikni oshirish, mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar ko'rsatish va risklarni boshqarish sohalarida keng qo'llanilmoqda. Mijozning moliyaviy xatti-harakatlarini kuzatish — bu nafaqat ma'lumot yig'ish, balki har bir harakat ortidagi ehtiyoj va intilishni tushunishdir. Misol uchun, agar mijoz har oyning boshida doimiy ravishda kommunal to'lovlarni amalga oshirayotgan bo'lsa, bu ma'lumotdan kelib chiqib, bank avtomatik eslatmalar, rejalashtirilgan to'lov xizmatlari yoki chegirmali tariflar orqali unga mos xizmatlar taklif qilishi mumkin. Bundan tashqari, agar biror foydalanuvchi doimiy ravishda xalqaro sayohatlar uchun aviachiptalar xarid qilsa, bank unga valyuta konvertatsiyasi bo'yicha chegirmalar, xalqaro kartalar yoki sayohat sug'urtasi mahsulotlarini taklif qilishi mumkin. Bunday shaxsiylashtirilgan yondashuv nafaqat mijoz sodiqligini oshiradi, balki bank uchun daromad keltiruvchi qo'shimcha xizmatlar sotilishini ham ta'minlaydi.

O'zbekiston bank tizimi ham ushbu texnologik yondashuvni bosqichma-bosqich joriy etmoqda. "Ipak Yo'li" banki, "Kapitalbank" va "Anorbank" kabi yirik moliyaviy institutlar mijozlarning tranzaksiyon faoliyatini chuqur tahlil qilib, har bir foydalanuvchiga mos xizmatlar taklif qilmoqda. Bu nafaqat mijoz ehtiyojlarini qondirishga, balki xizmatlar portfelini kengaytirish va foyda ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qilmoqda. Banklar tomonidan ma'lumotlar asosida qarorlar qabul qilinayotgani — bu raqamli transformatsiyaning markazida aynan

mijoz turishini isbotlaydi. Big Data — bu endilikda faqat texnologiya emas, balki mijozga asoslangan bank tizimining asosi bo'lib xizmat qilmoqda.

An'anaviy kredit skoring tizimlari odatda mijozning moliyaviy tarixiga asoslanadi. Biroq bu usulda barcha xavf omillari har doim ham hisobga olinmasligi mumkin. Big Data esa mijozning ish haqi o'zgarishlari, soha tendensiyalari, ijtimoiy tarmoqdagi faolligi, xarid qilish odatlari va hatto mobil telefon orqali amalga oshirilgan harakatlar asosida yanada chuqurroq risk baholash imkonini beradi. Bu esa bankga kredit ajratishda yanada aniq qarorlar qabul qilishga, to'lovga qodir bo'lmagan mijozlar ulushini kamaytirishga va kredit portfelini sifatini oshirishga yordam beradi. O'zbekistonda Big Data texnologiyalaridan foydalanuvchi ilg'or tijorat banklaridan biri bu — ***"Ipak Yo'li Banki"***dir. Bank o'z faoliyatida mijozlarning tranzaksiyaviy faoliyati, to'lov intizomi, qarz yuklamasi va mobil bankingdagi odatlarini Big Data orqali tahlil qilmoqda.

Misol uchun, agar mijoz har oy doimiy va o'z vaqtida to'lovlarni amalga oshirsa, onlayn xaridlarida muvozanat saqlasa, doimiy daromad manbalariga ega bo'lsa — bu mijoz avtomatik ravishda yuqori kredit reytingiga ega bo'ladi. Aksincha, to'lovlardagi kechikishlar, o'zgaruvchan xarajatlar yoki noaniq moliyaviy xatti-harakatlar esa risk darajasini oshiradi. Bundan tashqari, "Ipak Yo'li Bank" kredit mahsulotlarini ham shaxsiylashtirishga o'tayotgan bo'lib, yuqori ishonchli mijozlarga qulay shartlar, past foiz stavkalari va tezkor kredit ajratish xizmatlarini taklif qilmoqda. Bu esa bankga nafaqat xavfsiz kredit portfelini shakllantirish, balki mijoz sodiqligini oshirish va raqobatda ustunlikka erishish imkonini bermoqda.

Big Data vositasida banklar mijozlarning demografik holati, iste'mol odatlari va moliyaviy ehtiyojlarini chuqur tahlil qilgan holda, aynan ularning manfaatlariga mos reklama va xizmatlarni taklif etish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa marketing xarajatlarni kamaytirib, yuqori samaradorlikka olib keladi. Misol uchun, bir mijoz doimiy ravishda xorijiy to'lovlarni amalga oshirayotgan bo'lsa, unga "xalqaro kartalar" yoki "chetdan pul qabul qilish bo'yicha chegirmali xizmatlar" taklif etilishi mumkin. Boshqa mijoz esa doimiy tarzda kichik miqdordagi kreditlar olayotgan bo'lsa, unga "tezkor mikrokredit" mahsuloti tavsiya qilinadi.

Shaxsiylashtirilgan marketing deganda, mijozga aynan uning ehtiyojiga mos mahsulot yoki xizmatni taklif qilish tushuniladi. Bu esa marketing kampaniyasining samaradorligini bir necha baravar oshiradi. Agar mijoz tez-tez xorijiy valyutada to'lovlarni amalga oshirayotgan bo'lsa, unga xalqaro kartalar, valyuta konvertatsiyasi uchun qulay tariflar yoki chetdan pul yuborish/qabul qilish xizmatlaridagi chegirmalar taklif etiladi. Doimiy mikrokreditlardan foydalanayotgan mijozga esa tezkor, onlayn tasdiqlanuvchi kredit mahsulotlari reklama qilinadi, bu esa xizmatdan foydalanish ehtimolini oshiradi. Mijoz har oy ma'lum vaqtda kommunal to'lovlarni amalga oshirayotgan bo'lsa, unga avtomatik to'lov xizmatini reklama qilish orqali xizmatlar soddalashtiriladi. Bu kabi marketing uslublari orqali banklar reklama va xizmatlarni mijozning eng faol va ehtiyojga yo'naltirilgan vaqti va

kontekstida taqdim etadi. Bunday yondashuv nafaqat foydalanuvchi qulayligi, balki xarajatlarni kamaytirish va konversiyani oshirish nuqtai nazaridan ham samarali.

O'zbekiston bank sektorida Big Data texnologiyalarining marketingda qo'llanilishi hali to'liq keng ko'lamda joriy etilmagan bo'lsa-da, bir qancha ilg'or banklar bu borada muhim qadamlarga qo'ygan. Masalan: Kapitalbank o'zining mobil ilovasi orqali foydalanuvchilarning xarid odatlarini tahlil qilgan holda, cashback takliflari va shaxsiy chegirmalarni reklama qiladi. TBC Bank Uzbekistan esa mijozlarning raqamli faolligiga asoslangan holda push-habarnomalar orqali personal takliflar yuborishni yo'lga qo'ygan. Bu usul mijozni reklama bilan ortiqcha bezovta qilmasdan, uning ehtiyojiga to'g'ri yechim taklif etishni ta'minlaydi.

Big Data banklar uchun faqat mavjud xizmatlarni takomillashtirish vositasi emas, balki bozor ehtiyojini aniqlash va yangi moliyaviy mahsulotlarni ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga ega. Banklar mijozlarning faoliyati asosida qanday xizmatlar yetishmayotganini aniqlab, mos takliflar yaratishi mumkin. Misol uchun, yoshlarga tegishli toifalarning ko'pchiligi mobil to'lov xizmatlaridan foydalanayotgan bo'lsa, ularga mo'ljallangan maxsus ilovalar, "cashback" tizimlari yoki sodiqlik dasturlari yaratish orqali bank yangi mijozlarni jalb qiladi.

O'zbekiston bank tizimida ham Big Data asosida innovatsion mahsulotlar ishlab chiqish bo'yicha muhim qadamlar tashlanmoqda. Masalan, "Kapitalbank" tomonidan ishlab chiqilgan "Solik+" servisi — tadbirkorlar uchun soliq to'lovlarini avtomatik tarzda hisoblaydigan va eslatmalar yuboradigan tizim bo'lib, bu real ehtiyojlarga mos yechimdir. Yoki "TBC Bank" tomonidan taklif etilgan raqamli mobil ilova orqali mijozlar real vaqt rejimida kredit olish, hisob yuritish va tranzaksiyalarni boshqarish imkoniga ega. Yana bir misol — "Ipak Yo'li" bankining "cashback" ilovalari va sodiqlik dasturlari orqali yosh mijozlar segmentiga yo'naltirilgan mahsulotlari, ularning ehtiyojlarini Big Data asosida aniqlash orqali shakllantirilmoqda. Bu bankga yangi mijozlar oqimini oshirish bilan birga, mavjud mijozlarning sodiqligini ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda O'zbekistonda ham raqamli transformatsiya, moliyaviy texnologiyalar va bank sektori innovatsiyalari bo'yicha ilmiy izlanishlar ko'paymoqda: Karimov M. (2021). "Bank faoliyatida raqamli texnologiyalarning o'rni" nomli maqolasida O'zbekistonda banklar qanday raqamli texnologiyalarni joriy etayotgani, ularning samaradorlikka ta'siri tahlil qilinadi. Abdullayeva G. (2022). "Fintech rivojlanishining tijorat banklari faoliyatiga ta'siri" asarida Big Data, AI va blokcheyn texnologiyalarining O'zbekiston bank tizimiga integratsiyasi holati va istiqbollari yoritiladi.

Jahon banki, IMF va O'zbekiston Markaziy banki tomonidan tayyorlangan turli tahliliy hisobotlarda (masalan, "Uzbekistan Financial Sector Assessment Report", 2020) Big Data va Fintech bo'yicha tavsiyalar berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PQ-4851-son qarori ("Raqamli O'zbekiston — 2030") banklar uchun raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida muhim normativ asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Mayer-Schönberger & Cukier (2013) o'zining "Big Data: A Revolution That Will Transform How We Live, Work and Think" asarida Big Data'ning jamiyat va iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilib, moliyaviy sektor bu texnologiyani eng faol qo'llaydigan sohaga aylanishini bashorat qilgan. Kitchin (2014) Big Data'ni nafaqat texnik tizim, balki axborot siyosati, etik masalalar va ijtimoiy raqamli transformatsiya nuqtai nazaridan ham o'rganadi. Bu manbalar Big Data texnologiyalarining konseptual asoslarini tushunish va bank tizimida ularni qanday qo'llash mumkinligini baholashda muhimdir.

Bank sohasida Big Data'dan foydalanish bo'yicha ko'plab empirik tadqiqotlar mavjud: Provost & Fawcett (2013) o'zining "Data Science for Business" kitobida Big Data tahlili orqali mijozlarni segmentatsiyalash, kredit skoringini aniqlashtirish va marketing strategiyalarini individuallashtirish jarayonlarini batafsil ko'rsatadi. Chen, Chiang & Storey (2012) tomonidan yozilgan maqola "Business Intelligence and Analytics: From Big Data to Big Impact" banklar uchun Big Data asosidagi qaror qabul qilish tizimlarini tahlil qiladi va ularning biznesdagi samaradorlik ko'rsatkichlariga ta'sirini isbotlab beradi. Sun et al. (2017) tomonidan olib borilgan tadqiqotda Big Data analytics bankning risk menejmenti, firibgarlikni aniqlash (fraud detection) va foydalanuvchi tajribasini yaxshilashdagi roli o'rganilgan. Ushbu manbalar orqali Big Data texnologiyalarining real sektor — xususan, bank faoliyatida qanday amaliy natijalar bergani ko'rsatiladi.

Ayrim tadqiqotlar Big Data texnologiyalarining afzalliklari bilan bir qatorda kamchilik va cheklolarga ham e'tibor qaratgan: Zuboff (2019) o'zining "Surveillance Capitalism" asarida katta ma'lumotlar yig'ilishi va ular asosida mijoz xatti-harakatiga ta'sir ko'rsatish xavflarini ko'rsatadi. O'zbekiston kontekstida asosiy muammo sifatida ma'lumotlar xavfsizligi, shaxsiy hayot daxlsizligi, kadrlar salohiyati yetishmovchiligi va texnik infratuzilmaning cheklanganligi ko'rsatiladi (Juraev Sh., 2023). Bu tanqidiy yondashuvlar mavzuga biryoqlama yondashmaslik, balki balansli tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi.

Big Data vositasida banklar mijozlarning har bir moliyaviy harakatini kuzatish va ularni aniq tahlil qilish imkoniga ega. Masalan, mijozlarning kunlik xaridlar odatlari, ishlatilayotgan bank kartalari, onlayn to'lovlar va mobil bankingdagi faoliyatlari real vaqt rejimida tahlil qilinadi. Ushbu ma'lumotlar asosida bank mijoz ehtiyojlarini oldindan prognoz qilish va unga mos xizmatlar ko'rsatish imkoniga ega bo'ladi. Bu jarayon banklar uchun foydali bo'lishi bilan birga, mijozlar uchun ham xizmat sifati va shaxsiy yondashuv darajasini oshiradi. Masalan, agar bank ma'lum foydalanuvchi har oyning boshida kommunal to'lovlarni amalga oshirayotganini aniqlasa, keyingi oyning boshida unga eslatma yuborish yoki avtomatik to'lov taklif qilish orqali qulaylik yaratishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotning natijalarini olish maqsadida tadqiqot metodologiyasining qiyosiy tahlil usulidan foydalanildi. Qiyosiy tahlil usuli bu bir yoki bir nechta hodisalarni bir-biriga qarama-qarshi qo'yishning tizimli protsedurasiga bo'lib, ular orqali ular o'rtasida o'xshashlik va farqlarni o'rganishga intilishadi. Natijada, muammoning aniqlanishiga yoki bu haqda bilimlarning yaxshilanishiga olib keladigan ma'lumotlarga ega bo'ladi.

Ushbu tadqiqotni o'tkazish jarayonida malumotlar yig'ish uchun ikkilamchi malumotlardan foydalanildi. Ikkilamchi malumotlar bazasidan foydalanilganda amalga oshirilishi ko'zda tutilgan tadqiqot mamlakatimida Big Datadan foydalanish va ularning natijalarini tahlil etishdan iborat bo'lib, dunyo miqyosidagi ko'rsatkichlar bilan solishtirildi. Shuningdek malumotlar bazasini shakllantirishda xorijiy olimlarning tadqiqotlaridan foydalanildi. Ushbu malumotlarni shakllantirish maqsadida dastlab tadqiqoti uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni turli ma'lumotlar bazasi, mamlakatimizdagi davlat idoralari ma'lumotlariga tayangan holda amalga oshirildi. Xususan, ma'lumotlar bazasini shakllantirishda Jahon Rivojlanish Indiktorlari ya'ni Jahon banki tomonidan tashkil etilgan ko'rsatkichlardan foydalanildi.

Tadqiqot natijalari. Quyidagi jadvalda O'zbekiston va dunyo mamlakatlari o'rtasida tijorat banklarida Big Data texnologiyalaridan foydalanish darajasi solishtirilib berilgan. Jadvalda foydalanuvchi tajribasi, texnologik infratuzilma, kadrlar salohiyati, xavfsizlik siyosati va asosiy faoliyat yo'nalishlari bo'yicha tahliliy ko'rsatkichlar keltirilgan.

Mamlakat / Region	Asosiy yo'nalishlar	Texnologik infratuzilma	Raqamli kadrlar salohiyati	Xavfsizlik siyosati	Izohlar
AQSh	Kredit skoring, Fraud detection, Personalization	Juda rivojlangan	Yuqori	Yuqori	JPMorgan Chase, Wells Fargo kabi banklar AI bilan integratsiyalashgan Big Data tahlillarini keng qo'llamoqda.
Buyuk Britaniya	Customer profiling, Predictive analytics	Yuqori	Yuqori	Yuqori	Barclays, HSBC Big Data asosida mijozlarga real vaqti xizmatlar ko'rsatmoqda.
Hindiston	Risk management, Chatbot, Kredit baholash	Rivojlanayotgan	O'rta – Yuqori	O'rta	ICICI, HDFC Bank Big Data'ni FinTech bilan uyg'unlashtirgan.

Xitoy	AI + Big Data, real-time monitoring	Yuqori	Yuqori	Past – Oʻrta	Ant Financial, WeBank kabi subyektlar texnologik jihatdan juda ilgʻor, biroq maxfiylik siyosati ziddiyatli.
Rossiya	Mijoz tahlili, xavfsizlik monitoringi	Oʻrta – Yuqori	Oʻrta	Oʻrta	Sberbank, Tinkoff singari banklar Big Dataʼni joriy etgan, biroq infrastrukturaviy cheklolar mavjud.
Qozogʻiston	Kredit tahlili, mijoz segmentatsiyasi	Oʻrta	Oʻrta	Oʻrta	“Kaspi.kz” va “Halyk Bank” orqali ayrim innovatsion yondashuvlar paydo boʻlmoqda.
Oʻzbekiston	Mijoz maʼlumotlaridan foydalangan holda xizmatlar taklifi	Rivojlanmoqda	Oʻrta	Endi shakllanmoqda	Kapitalbank, Ipak Yoʻli Bank va Hamkorbank boshlangʻich bosqichda Big Data tahlillaridan foydalanmoqda.

Big Data texnologiyalari bank sektorida mijozlarga shaxsiylashtirilgan xizmatlar koʻrsatish, firibgarlikni aniqlash, kredit risklarini baholash, marketing strategiyalarini aniqlashtirish va operatsion samaradorlikni oshirishda keng imkoniyatlar yaratmoqda. Jumladan, rivojlangan davlatlar – AQSh, Buyuk Britaniya, Xitoy kabi mamlakatlar banklari ushbu texnologiyani toʻliq integratsiyalab, raqobatbardosh ustunlikka erishmoqda.

Misol uchun, AQShda JPMorgan Chase, Wells Fargo kabi yirik banklar sunʼiy intellekt va Big Data tahlilini birlashtirib, mijozlarga real vaqtli va shaxsiylashtirilgan xizmatlar koʻrsatmoqda. Buyuk Britaniyada Barclays va HSBC banklari mijoz profilini chuqur tahlil qilish orqali ehtiyojlar asosida kredit takliflari va xizmatlar yaratmoqda. Xitoyda esa texnologik gigantlar – Ant Financial va WeBank kabi raqamli banklar – real vaqtli monitoring va tahlil vositalari orqali moliyaviy xizmatlarni avtomatlashtirib, butun jarayonni raqamlashtirgan.

Hindiston va Rossiya kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda ham Big Data texnologiyasidan foydalanish darajasi sezilarli darajada ortib bormoqda. Hindistonning ICICI va HDFC banklari Big Data asosida kredit skoring, mijozlar ehtiyojini aniqlash va chatbotlar orqali xizmat koʻrsatish tizimlarini yaratgan. Rossiyada esa Sberbank raqamli transformatsiyani amalga oshirib, Big Data texnologiyalarini risklarni aniqlash va firibgarlikdan himoyalash uchun qoʻllamoqda.

Mintaqaviy kontekstdan kelib chiqilsa, Qozogʻistonning “Kaspi.kz” va “Halyk Bank” kabi tijorat banklari innovatsion yechimlar orqali Big Data imkoniyatlarini bosqichma-bosqich joriy etmoqda. Bu holat Markaziy Osiyo davlatlari uchun ijobiy namuna boʻlishi mumkin.

Oʻzbekiston holatiga kelsak, bu borada hali koʻp ishlar qilinishi kerak. Mamlakat tijorat banklarida Big Data texnologiyalarini joriy etish jarayoni endi-endi boshlanmoqda. Asosan xususiy banklar, xususan, Kapitalbank, Ipak Yoʻli Bank va Hamkorbank mazkur texnologiyadan foydalana boshlagan. Ammo tizimli yondashuv, raqamli infratuzilma, kadrlar salohiyati va axborot xavfsizligi borasida jiddiy kamchiliklar mavjud. Shu bilan birga, “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida bu borada aniq yoʻnalishlar belgilangan, bu esa kelajakda ijobiy natijalar berishi mumkin.

Tahliliy jadval asosida aniqlanishicha, Big Data texnologiyalaridan foydalanish darajasi mamlakatning texnologik infratuzilmasi, malakali kadrlar mavjudligi, qonunchilik asoslari va banklar strategik qaror qabul qilish darajasiga bevosita bogʻliq. Shuningdek, xalqaro standartlarga mos ravishda maʼlumotlarni himoya qilish va mijozlar maxfiyligini taʼminlash ham bu texnologiyaning muvaffaqiyatli joriy etilishida muhim omil hisoblanadi.

Hozirda Oʻzbekiston tijorat banklarida Big Data texnologiyalarini qoʻllash borasida bir qator muammolar mavjud. Eng avvalo, infratuzilma darajasi bu texnologiyani toʻlaonli joriy etishga tayyor emas. Maʼlumotlar saqlanadigan va ularni tahlil qiladigan serverlar, bulutli texnologiyalar, real vaqtli monitoring tizimlari kabi zarur vositalar koʻpchilik banklarda hali mavjud emas yoki toʻliq ishlamaydi. Bu esa axborotni tezkor yigʻish va undan foydali qarorlar chiqarish imkonini sezilarli darajada cheklaydi.

Bundan tashqari, malakali kadrlar yetishmasligi ham jiddiy muammo sifatida qaralmoqda. Big Data texnologiyasi bilan ishlash uchun maʼlumotlar tahlili, sunʼiy intellekt, mashinali oʻqitish kabi yoʻnalishlarda bilimga ega mutaxassislar talab etiladi. Ayni paytda, banklar ushbu sohalarida yetarli bilim va koʻnikmaga ega boʻlgan xodimlar bilan toʻliq taʼminlanmagan. Natijada, mavjud texnologiyalar ham amaliyotda yetarlicha samarali ishlatilmayapti.

Shuningdek, axborot xavfsizligi va maʼlumotlar maxfiyligini taʼminlovchi qonunchilik bazasi hali toʻliq shakllanmagan. Big Data bilan ishlashda mijozlar haqidagi shaxsiy va moliyaviy maʼlumotlarning

maxfiyligini taʼminlash eng asosiy talab hisoblanadi. Ammo Oʻzbekistonda bu boradagi normativ hujjatlar, xalqaro standartlarga mos tizimlar hali rivojlanish bosqichida. Bu esa banklarning texnologiyani keng miqyosda joriy etishida ehtiyotkorlik bilan harakat qilishga olib kelmoqda.

Shunga qaramasdan, ayrim xususiy banklar — xususan, Kapitalbank, Ipak Yoʻli Bank va Hamkorbank — Big Data texnologiyalarini sinov tariqasida joriy eta boshlagan. Bu banklar mijoz maʼlumotlarini tahlil qilish orqali kredit takliflarini avtomatlashtirish, maqsadli marketing yuritish va raqamli xizmatlarni rivojlantirish yoʻlida dastlabki qadamlarni qoʻymoqda. Bu tajriba umumiy bank tizimi uchun muhim model boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Oʻzbekistonda Big Data texnologiyasining bank tizimida rivojlanish istiqbollari “Raqamli Oʻzbekiston – 2030” strategiyasida aniq belgilangan. Ushbu hujjat doirasida raqamli infratuzilmani rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish, axborot xavfsizligi standartlarini ishlab chiqish va malakali IT mutaxassislarini tayyorlash asosiy yoʻnalishlardan biri etib belgilangan. Agar bu strategik maqsadlar amaliyotda toʻliq roʻyobga chiqarilsa, Oʻzbekiston bank tizimi Big Data imkoniyatlaridan toʻlaonli foydalanishga qodir boʻladi.

Big Data texnologiyasi bank sektorining transformatsiyasida asosiy drayverlardan biri sifatida paydo boʻldi. U orqali banklar nafaqat moliyaviy xavflarni kamaytiradi, balki xizmat sifatini oshirib, mijozlar ehtiyojlariga mos mahsulotlarni taklif qilish imkoniga ega boʻladi. Ayniqsa, Oʻzbekiston bank tizimi bu yoʻnalishda sezilarli oʻsishga erishgan boʻlib, Big Data texnologiyalarining toʻliq joriy etilishi yaqin yillarda bank sektorining raqobatbardoshligini keskin oshirishi kutilmoqda.

Avvalo, Big Data vositasida mijozlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish banklarga ularning real ehtiyojlarini aniqlash, moliyaviy intizomi va odatlariga asoslangan takliflar ishlab chiqish imkonini beradi. Masalan, foydalanuvchi har oyning maʼlum bir vaqtida kommunal toʻlovlarni amalga oshirsa, unga avtomatik toʻlovlar xizmatini taklif qilish bank xizmatlarining soddalashtirilgan, qulay shaklini yaratadi. Bu esa mijoz uchun xizmat sifati oshirishini, bank uchun esa sodiq mijozlar bazasini kengaytirishni taʼminlaydi.

Ikkinchidan, Big Data kredit xavflarini baholashda ham inqilobiy oʻzgarishlarga sabab boʻldi. Anʼanaviy kredit skoring tizimlarining chegaralaridan farqli oʻlaroq, Big Data foydalanuvchining ish haqi oʻzgarishlari, xarid qilish odatlari, ijtimoiy faolligi va tranzaksiyaviy harakatlarini baholab, yanada aniq va chuqur risk tahlilini amalga oshiradi. Bu bankka toʻlovga qodir mijozlarni aniqroq aniqlash, qarz berishda yoʻl qoʻyladigan xatoliklarni kamaytirish va kredit portfelining sifatini yaxshilash imkonini beradi. Oʻzbekistondagi “Ipak Yoʻli Bank” va “Asakabank” kabi yirik banklar bu tizimni faol joriy etmoqda.

Uchinchidan, Big Data texnologiyalari yordamida banklar yangi moliyaviy mahsulotlar ishlab chiqish imkoniyatiga ega boʻlmoqda. Bu esa oʻz navbatida bozor talablarini oldindan bilishga va ushbu talab asosida raqobatbardosh mahsulotlar yaratishga xizmat qiladi. Ayniqsa, yoshlar va raqamli xizmatlarga talab yuqori boʻlgan auditoriya uchun moslashtirilgan mobil ilovalar, cashback tizimlari va sodiqlik dasturlarining yaratilishi bunga yorqin misol boʻla oladi. Bunday yondashuvlar nafaqat yangi mijozlarni jalb qiladi, balki mavjud mijozlar orasida bank brendiga boʻlgan sodiqlikni kuchaytiradi.

Toʻrtinchidan, Big Data asosida olib borilayotgan shaxsiylashtirilgan marketing kampaniyalari orqali banklar oʻz reklama va xizmat takliflarini ancha samarali tarzda rejalashtirishmoqda. Har bir mijozning moliyaviy odatlari, faoliyati, xarid qilish tendensiyalari asosida individual mahsulotlar, chegirmalar va reklama xabarnomalari yuborilmoqda. Bu esa marketing xarajatlarini kamaytiradi, reklamaning

konversiya darajasini oshiradi va foydalanuvchi ehtiyojiga to'g'ri mos xizmatlarni taqdim etish imkonini yaratadi. Masalan, xorijsa to'lov qiluvchi mijozga xalqaro karta taklif qilish yoki tez-tez mikroredit oluvchi mijozga tezkor kredit tavsiya etish orqali banklar har bir foydalanuvchi bilan muloqotni chuqurlashtirgan bo'ladi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, raqamli transformatsiya va Big Data texnologiyalari banklar uchun innovatsion taraqqiyotning asosi bo'lib

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Chen, H., Chiang, R. H. L., & Storey, V. C. (2012). Business Intelligence and Analytics: From Big Data to Big Impact. *MIS Quarterly*, 36(4), 1165–1188. <https://doi.org/10.2307/41703503>
2. Kitchin, R. (2014). *The Data Revolution: Big Data, Open Data, Data Infrastructures and Their Consequences*. SAGE Publications Ltd.
3. Mayer-Schönberger, V., & Cukier, K. (2013). *Big Data: A Revolution That Will Transform How We Live, Work and Think*. Eamon Dolan/Houghton Mifflin Harcourt.
4. Provost, F., & Fawcett, T. (2013). *Data Science for Business: What You Need to Know about Data Mining and Data-Analytic Thinking*. O'Reilly Media, Inc.
5. Sun, Z., Sun, L., & Strang, K. (2018). Big Data analytics services for enhancing business intelligence. *Journal of Computer Information Systems*, 58(2), 162–169. <https://doi.org/10.1080/08874417.2016.1220239>
6. Zuboff, S. (2019). *The Age of Surveillance Capitalism: The Fight for a Human Future at the New Frontier of Power*. PublicAffairs.

qolmoqda. Ular yordamida banklar nafaqat o'z ichki operatsiyalarini optimallashtirish, balki tashqi xizmatlar sifatini oshirish, mijozlar ehtiyojini chuqurroq tahlil qilish va ularga moslashtirilgan xizmatlar taklif etish imkoniga ega bo'lmoqda. Bu jarayon o'zbek bank sektori uchun ham dolzarb bo'lib, ayniqsa, raqamli bank xizmatlari rivojlanayotgan davrda Big Data texnologiyalarini chuqur joriy etish banklar raqobatbardoshligini ta'minlovchi asosiy omilga aylanmoqda.

7. Karimov, M. (2021). Bank faoliyatida raqamli texnologiyalarning o'rni. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, (6), 85–89.
8. Abdullayeva, G. (2022). Fintech rivojlanishining tijorat banklari faoliyatiga ta'siri. *Moliyaviy tadqiqotlar jurnali*, (3), 43–50.
9. Jahon banki (2020). *Uzbekistan Financial Sector Assessment Report*. World Bank Group. <https://documents.worldbank.org>
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (2020). *Raqamli O'zbekiston – 2030 konsepsiyasi va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ–4851-son qaror*. Lex.uz
11. Juraev, Sh. (2023). Tijorat banklarida Big Data texnologiyalarini joriy etishdagi muammolar va ularni hal etish yo'llari. *Bank ishi va moliya jurnali*, (2), 31–37.
12. ICICI Bank. (2021). *Annual Report*. Retrieved from <https://www.icicibank.com>
13. JPMorgan Chase. (2022). *Artificial Intelligence and Big Data in Financial Services*. Retrieved from <https://www.jpmorganchase.com>
14. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2023). *Banklar va raqamli transformatsiya*. <https://cbu.uz>



OLIY TA'LIM TASHKILOTLARINING IJTIMOYIY TADBIRKORLIGINI IFODALOVCHI KO'RSATKICHLAR TIZIMI

Saidov Shoxruh Mirzo Odiljon o'g'li,
Qo'qon universiteti doktoranti,
shsaidov@kokanduni.uz

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 12 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1192	Maqolada Oliy ta'lim tashkilotlarining ijtimoiy tadbirkorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi tahlil etilgan bo'lib, unda OTMlarning ijtimoiy tadbirkorligini rivojlantirish omillari, institusional va iqtisodiy tizimning bir qismi sifatida OTM salohiyatining tarkibiy qismlari hamda OTMning tadbirkorlik salohiyatining xususiyatlari yuzasidan so'z yuritilgan. Adabiyotlar tahlili qismida bir necha xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganib chiqilib, tadqiqot metodologiyasi qismida keltirilgan usullardan foydalangan holda natijalar shakllantirilgan.
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	

Kirish. Tadbirkorlik faolligi darajasini oshirish uchun yutuqlarni kuzatish, kuchli va zaif tomonlarini o'z vaqtida aniqlash, o'ziga xos xususiyat va jihatlarni hisobga olish kerak. OTMlar ichki va tashqarida paydo bo'ladigan har qanday tadbirkorlik tashabbuslariga ochiqroq bo'lishi kerak. Ish beruvchilarni va "biznesdagi odamlar"ni o'zaro hamkorlikka jalb qilish innovasion ekotizimni yaratishga yordam beradi.

Zamonaviy sharoitda OTM haqli ravishda tadbirkorlik tuzilmasi sifatida qaralishi mumkin-faoliyati tadbirkorlik qonunlariga bo'ysunadigan va bozor rivojlanishining ma'lum bir vaqtida bozor talablariga javob berishning maqbul shaklini doimiy izlashni amalga oshiradigan mustaqil faoliyat ko'rsatadigan iqtisodiy birlikdir.

Oliy ta'lim tizimida biznes va oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikning ko'plab ijobiy misollarini kuzatish mumkin. Turli sub'ektlarning potentsiallarining qo'shilishi ijobiy sinergik ta'sirning namoyon bo'lishiga yordam beradi. Universitet va kichik biznesning o'zaro hamkorligi quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin: korxonalar mutaxassislarining ma'ruza va amaliy mashg'ulotlari talabalarda zarur kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish imkonini beradi; oliy o'quv yurtlari tomonidan biznes uchun aniq mutaxassislarni tayyorlash bo'yicha maqsadli buyurtmaning bajarilishi; OTMlarda turli profildagi laboratoriyalarning paydo bo'lishi; innovasion markazlarni tashkil etish; homiylik va boshqalar.¹

Bunday o'zaro hamkorlikning asosiy maqsadi zarur shart-sharoitlarni yaratishdir hamda muhim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etish maqsadida turli loyihalarni birgalikda amalga oshirish va original ilmiy-texnikaviy g'oyalarni ilgari surish bo'yicha talabalar, doktorantlar, tadqiqotchilar, tadbirkorlarning ilmiy-innovasion jamoalarining samarali faoliyatini tashkil etish va shakllantirish imkonini beradi. Kerakli infratuzilmaning yaratilishi ilmiy va innovasion loyihalarni amalga oshirishga kuchli turtki berishi, olimlarga o'z g'oyalarni amalga oshirish hamda ularni viloyatning turli tuzilmalarida qo'llab-quvvatlash uchun keng imkoniyatlar yaratishi, bu orqali ijtimoiy tadbirkorlik salohiyatining to'planishiga hissa qo'shishi mumkin.

Adabiyotlar tahlili. Xorijiy universitetlarning ijtimoiy va tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi hamda ularning o'zaro ta'sirining o'ziga xos xususiyatlariga kelsak, ushbu tizimdagi hozirgi holatning ushbu tahlili E.V. Batovrina, V.V. Egorova, A.K. Kazantseva, O.P. Molchanova, I.S. Kusova, A.Ya. Livshin, I.V. Loguntsova, A.S. Lojkin. B. Klark, L.V. Kobzev, V.V. Ponomarenko va boshqalar o'z tadqiqotlarini

olib borishgan. O'tkazilgan o'rganishlar shuni ko'rsatdiki, eng katta salohiyat va imkoniyatlarga ega bo'lgan etakchi xorijiy oliy o'quv yurtlaridan farqli o'laroq, mintaqaviy "hamkasblar" o'z oldiga qo'yan vazifalarni amalga oshirish hamda sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun barcha resurslarni safarbar qilishga majbur bo'lmoqdalar, bu ko'pincha yetarli emas.

Nafaqat mamlakatimiz ta'lim tizimini, balki butun ijtimoiy-iqtisodiy sohani modernizatsiya qilish jarayonlari OTMlar faoliyatiga ta'sir ko'rsatib, texnologiya va moliyaviy resurslarni jalb etishning tegishli mexanizmini rivojlantirish zaruratini tug'dirdi. Biroq, loyiha madaniyati darajasi etarli darajada rivojlanmaganligi sababli bu jarayonlar barcha oliy o'quv yurtlarida samarali bo'lishdan yiroq, bu esa grantlar olishda jiddiy to'siq bo'lmoqda.


Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotni olib boorish jarayonida ko'plab xorijiy mamlakatlar olimlarining, shuningdek mahalliy izlanuvchilarning ilgari surgan fikr va g'oyalari tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida enduksiya, deduksiya, solishtirma tahlil, taqqoslash va qiyoslash usullaridan keng foydalanildi. Yuqorida keltirib o'tilgan metodlardan foydalanilgan holda, tadqiqot natijalari shakllantirildi. Umumlashtirish usuli orqali tadqiqotning xulosa qismi shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotning bir qismi sifatida biz OTMlarni rivojlanishning potentsial tashabbuskori deb hisoblaymiz, bu ularning jozibadorligining sababidir. Jamiyatimizning yangi iqtisodiy tizimida asosiy rol yangi bilimlarni ishlab chiqarishga, tadqiqot va ishlanmalarni olib borishga qodir bo'lgan, shuningdek, nafaqat olingan bilimlarni tarqatish, balki uni tijoratlashtirish yo'llarini topishga hissa qo'shadigan tashkilotlarga yuklanadi. Bunday tashkilotlar ilmiy-tadqiqot institutlari, universitetlar, laboratoriyalar, kompaniyalarning ilmiy-ishlab chiqarish bo'limlari va kichik innovasion kompaniyalardir. Shunday qilib, yangi mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, iste'mol talabi shaklida o'z javobini topadi. OTMlarda ijtimoiy-tadbirkorlik jamiyatning global va mahalliy muammolarini hal qilish uchun mo'ljallangan tadbirkorlikda fan, ta'lim va raqamli texnologiyalar o'rtasidagi zarur muvozanatni ta'minlash imkonini beruvchi ko'priq vazifasida namoyon bo'ladi. Bunday OTM faoliyatining maqsadlari noosfera va jamiyatning individual ekotizimlarini rivojlantirishga qaratilgan.

Tadqiqot jarayonida oliy ta'limning raqamli transformatsiyasi sharoitida OTMlarning ijtimoiy tadbirkorligini rivojlantirish omillari guruhlari taklif etildi (1-rasm).²

¹ Batovrina, E.V., Egorova, V.V., Kazantseva, A.K. (2020). *University Social Entrepreneurship: Models and Mechanisms*. Moscow: Higher School of Economics Publishing.

² Clark, B. (1998). *Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation*. Oxford: Pergamon Press.



1-rasm. OTMlarning ijtimoiy tadbirkorligini rivojlantirish omillari


Strategik o'zgarishlar universitetlarning raqobatbardosh pozitsiyalarini mustahkamlashga, tashqi tashkilotlar bilan aloqalarni shakllantirish va mustahkamlashga qaratilgan o'z chegaralaridan tashqariga chiqadigan bo'linmalarining o'sishini ta'minlashga qaratilgan rivojlanish strategiyasini amalga oshirishni o'z ichiga oladi; tadbirkorlik faoliyatini qo'llab - quvvatlash uchun zarur ichki infratuzilmani yaratish; tadqiqot tarkibiy qismini va uning fanlararo bazasini mustahkamlash; ko'p tarmoqli moliyalashtirish manbalariga yondashuv; tadbirkorlik potentsialining asosiy yeleменти sifatida tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish orqali universitetning pozitsiyasini mustahkamlash. Shunday qilib, universitet tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni amalga oshirish, boshqaruv va bozor amaliyotini qo'llash orqali raqamli iqtisodiyotga keyingi kirish uchun sharoit yaratadi, bilim va texnologiyalarni samarali uzatish uchun o'zaro manfaatli aloqalarni o'rnatishga yordam beradi. Shu bilan birga, har bir oliy o'quv yurti o'z tarixi, to'plangan an'analari va atrof-muhit sharoitlariga qarab o'ziga xos rivojlanish yo'lini tanlashi bilan ajralib turishini hisobga olish zarur.

Ijtimoiy-tadbirkorlik universiteti modelini qo'llash imkoniyatlarini kengaytirish zarurligiga qaramasdan, oliy o'quv yurtlarining yangi turdagi iqtisodiyot tarmoqlar rivojlanishining asosiy, tizimli elementi sifatida kiritilishida faol emasligi kuzatilmoqda. Bozor sharoitida

faoliyat yurituvchi tashkilot sifatida OTM tadbirkorlik xulq-atvorini namoyon qilishi kerak, uning muvaffaqiyati orqali tashqi muhit bilan tarkibiy aloqasi tufayli mintaqadagi hayot sifatini yaxshilashga ma'lum hissa qo'shiladi.³

Zamonaviy sharoitda iqtisodiyotning universitetlar faoliyati bilan integratsiyalashuvi to'plangan salohiyatni ro'yobga chiqarish uchun asos bo'lib, mamlakat tadqiqot sektorining raqobatbardoshlik darajasini yanada oshirish OTMlarning bozor talablariga mos va moslashuvchan javob berishga yordam beradi. Bozorda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik tuzilmalari sifatida faoliyat yurituvchi universitetlar bozor qonunlariga bo'ysunadi, xo'jalik yurituvchi subekt sifatida ularning faoliyatining asosiy maqsadi yakuniy natijaga erishishga yo'naltirilgan o'z ixtiyorida iqtisodiy resurslarni o'zgartirishdir. Shunday qilib, har qanday universitetning maqsadlarini biznes tuzilmalarining maqsadlariga o'xshash deb hisoblash mumkin. Shu munosabat bilan universitetning tadbirkorlik salohiyatini shakllantirish (UTS) vazifalari birinchi o'ringa chiqadi.

OTMni institutsional va iqtisodiy tizimning bir qismi sifatida tavsiflashda uning salohiyatini tarkibiy qismlar majmuasi sifatida ko'rib chiqish kerak.⁴



2-rasm. Institutsional va iqtisodiy tizimning bir qismi sifatida OTM salohiyatining tarkibiy qismlari

Talab salohiyati ko'rsatiladigan ta'lim va boshqa xizmatlarga bo'lgan ushbu talabning ruxsat etilgan hajmini belgilaydi, bu

iste'molchilarning kerakli tovarlarni sotib olish uchun ma'lum miqdordagi pul mablag'larini yo'naltirish qobiliyatida ifodalanadi.

³ Klark, B. (2003). "Universitetlar tadbirkorlik tizimi sifatida". *Journal of Higher Education Innovation*, 12(3), 45-60.

⁴ Kusova, I.S., Livshin, A.Ya., Loguntsova, I.V. (2019). "Social Entrepreneurship in Higher Education: Challenges and Opportunities". *International Journal of Educational Development*, 68, 101-112.

Iqtisodiy salohiyat deganda biz universitetning mavjud resurslarning barcha turlaridan: kadrlar, moddiy-texnika bazasi, moliya va boshqalardan oqilona foydalanish asosida har xil turdagi xizmatlarni taqdim etishning umumiy qobiliyatini tushunamiz, shuning uchun uning tarkibiy elementlari yig'indisiga: asosiy kapital + aylanma kapital + inson kapitali" iqtisodiy salohiyatga tengdir. Universitetning ijtimoiy salohiyati - bu muassasaning mehnatni qo'llash ob'ekti sifatida jozibadorligining o'ziga xos xususiyatidir.

Universitetning tadbirkorlik faoliyati haqidagi tushunchamizga asosanib, biz tadbirkorlik salohiyatini xo'jalik yurituvchi sub'ektning imkoniyatlari va uning institut strategiyasiga muvofiq rivojlantirishga qaratilgan tadbirkorlik resurslarining yig'indisi sifatida ko'rib chiqamiz. Universitetning tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirida ijobiy sinergetik ta'sir ko'rsatadi. Shunday qilib, universitetning tadbirkorlik salohiyati kompleks toifasi, tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirishning ajralmas chorasidir.

1-jadval


OTMning tadbirkorlik salohiyatining xususiyatlari⁵

O'ziga xos xususiyatlari	Tavsif
O'ziga xos kelib chiqishi	OTMning ishbilarmonlik muhitini yaxshilash orqali raqobatbardoshligini oshirish zarurligini anglash
Integral asos	Universitet resurslarining barcha turlari – ta'lim muassasasini atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarida yanada samarali boshqarishni ta'minlaydigan tizimli resurs imkoniyatlari bilan belgilanadi
Ijtimoiy yo'naltirilgan xarakter	Hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning muhim muammolarini hal etish yo'lida mavjud tadbirkorlik resurslari va imkoniyatlarini innovasion joriy etish
Innovasion amalga oshirish mexanizmi	Ularga erishishning eng yaxshi variantlarini topish orqali faoliyatning ongli ijodiy yo'nalishini amalga oshirishga imkon beradigan innovasion echimlarni ishlab chiqish va qabul qilish
Natijaning uch komponentli samaradorligi	Tadbirkorlik faoliyatidan daromad olish orqali universitet rivojiga hissa qo'shish; innovasion tovarlar va xizmatlarni joriy etish orqali muhim ijtimoiy ehtiyojlarni qondirish; OTMning tadbirkorlik tuzilmasidagi "ijodiy" jarayonlar oqimining samaradorligini oshirish

OTM ning strategik rivojlanishidan oldin ob'ektning ichki salohiyat sifatini o'zgartirish sur'atlari oshishi kerak. OTMning faol pozitsiyasi bozor talablarini aniqlash va bashorat qilishga qaratilgan tegishli siyosatni amalga oshirishda ifodalanadi, bu tashqi sub'ektlar (abituriyentlar, hamkor tashkilotlar, umuman jamiyat) va ichki iste'molchilar (talabalar va universitet xodimlari) so'rovlarini qondirish tizimini yaratishni o'z ichiga oladi. Yuqorida aytib o'tilganidek,

universitetning tashqi ta'sirlarga munosib javob bera oladigan, ya'ni universitet oldida ishlash uning barqarorligi va raqobatbardoshligini ta'minlaydi va uning mavjudligi hududida iqtisodiyotni rivojlantirishga ma'lum hissa qo'shadi.

Xorijiy mualliflarning tadqiqotlarini tahlil qilish asosida biz bir-biriga ta'sir qiluvchi uchta tarkibiy qismdan iborat tizim sifatida UTSning tizimli modelini yaratdik.



3-rasm – Universitet tadbirkorlik salohiyatining tarkibiy qismlari

UTSni shakllantirishning asosi moddiy-texnika bazasi, ilmiy-texnikaviy, kadrlar va moliyaviy-iqtisodiy elementlarni o'z ichiga olgan resurs tarkibiy qismidir. Mavjud imkoniyatlarni amalga oshirishning yakuniy natijasining aksi samara tarkibiy qism bo'lib, uning o'sishi boshqa tarkibiy qismlarning rivojlanishiga olib keladi va shu bilan OTMning umumiy salohiyatini oshirishga yordam beradi.

Boshqaruv ta'siri orqali oldingi elementlarni birlashtirgan ichki qism, asosiy jarayonlarning samaradorligini ta'minlaydi, OTMga tijorat faoliyati tamoyillari asosida qurilgan maqsadli faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Aytish mumkinki, UTS uning ajralmas xususiyati bo'lib, u OTMning zarur resurslar bilan mavjudligini baholash, shuningdek, universitet o'z maqsadlariga erishish uchun mavjud imkoniyatlardan qanday foydalanishini tushunishdir.⁶

UTSni hisobga olgan holda, uning keyingi o'sishi va harakatiga e'tibor berish kerak, bu esa barcha tarkibiy elementlarning muvozanatini ta'minlashni talab qiladi. Bunga uchta asosiy vazifani hal qilishga qaratilgan UTSni o'z vaqtida baholash orqali erishish mumkin: 1) UTS rivojlanishining erishilgan darajasini aniqlash, 2) UTS elementlari muvozanatining qaysi darajasida ekanligini aniqlash va mavjud tafovutlarni aniqlash, 3) umuman UTS rivojlanishining qaysi bosqichida ekanligini aniqlang. Shunday qilib, integral qiymat sifatida UTS ko'rsatkichi butun tizimning ishlashini baholashdan iborat bo'ladi.

Bunday baholashni yagona OTM darajasida o'tkazish uning samaradorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi chuqur tahlil qilingan bo'lib, OTMlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi rolini kuchaytirishda tadbirkorlik salohiyatini shakllantirishning asosiy jihatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, OTMlarning ijtimoiy tadbirkorligi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki jamiyatning global va mahalliy muammolarini innovasion usullarda hal etishga qaratilgan kompleks jarayon hisoblanadi.

Xulosa. Maqolada oliy ta'lim tashkilotlari (OTM)ning ijtimoiy tadbirkorligini ifodalovchi ko'rsatkichlar tizimi chuqur tahlil qilingan bo'lib, OTMlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishdagi rolini kuchaytirishda tadbirkorlik salohiyatini shakllantirishning asosiy jihatlari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, OTMlarning ijtimoiy tadbirkorligi nafaqat iqtisodiy samaradorlikni, balki jamiyatning global va mahalliy muammolarini innovasion usullarda hal etishga qaratilgan kompleks jarayon hisoblanadi.

OTMlarning tadbirkorlik salohiyatini rivojlantirishda quyidagi omillar muhim ahamiyatga ega: Strategik o'zgarishlar va raqobatbardoshlikni oshirish – Tashqi hamkorlikni kuchaytirish, ko'p

⁵ Molchanova, O.P., Lojkin, A.S. (2021). "Institutional Factors of University Entrepreneurship". *European Journal of Education*, 56(2), 234-250.

⁶ Ponomarenko, V.V., Kobzev, L.V. (2017). *Digital Transformation in Education: Strategies for Universities*. Berlin: Springer.

tarmoqli moliyalashtirish, tadbirkorlik madaniyatini shakllantirish, raqamli texnologiyalar bilan integratsiya. Resurslarni samarali boshqarish – Moddiy-texnika bazasi, ilmiy-kadrlar potentsial, moliyaviy imkoniyatlardan foydalanishning innovatsion usullari. Ijtimoiy yo'naltirilganlik – Hududiy rivojlanishdagi muammolarni hal qilishga qaratilgan loyihalar, talabalar, tadqiqotchilar va biznes hamkorligidagi sinergiya. OTM salohiyatining tarkibiy qismlari (talab, iqtisodiy, ijtimoiy va tadbirkorlik salohiyati) o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash universitetlarning bozor sharoitida moslashuvchanligini belgilaydi. Tadbirkorlik salohiyatini baholash tizimi uning resurs, samaradorlik va boshqaruv komponentlarini qamrab oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Batovrina, E.V., Egorova, V.V., Kazantseva, A.K. (2020). *University Social Entrepreneurship: Models and Mechanisms*. Moscow: Higher School of Economics Publishing.
2. Clark, B. (1998). *Creating Entrepreneurial Universities: Organizational Pathways of Transformation*. Oxford: Pergamon Press.
3. Klark, B. (2003). "Universitetlar tadbirkorlik tizimi sifatida". *Journal of Higher Education Innovation*, 12(3), 45-60.
4. Kusova, I.S., Livshin, A.Ya., Loguntsova, I.V. (2019). "Social Entrepreneurship in Higher Education: Challenges and

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy sharoitda OTMlarning ijtimoiy tadbirkorligi – bu bilim, texnologiya va biznesni uyg'unlashtiruvchi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga turtki beruvchi muhim mexanizmdir. Universitetlarning raqobatbardoshligini oshirish va ularni yangi iqtisodiyotning asosiy tarmog'iga aylantirish uchun zarur bo'lgan yo'nalishlar: Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish, hamkorlik tarmoqlarini kengaytirish, tadbirkorlik salohiyatini doimiy monitoring qilish va baholash, raqamli transformatsiya jarayonlarini faollashtirish.

Buning natijasida OTMlar nafaqat ta'lim markazlari, balki mintaqaning ijtimoiy, texnologik va iqtisodiy rivojlanishida faol ishtirokchi sifatida namoyon bo'lishi mumkin.

Opportunities". *International Journal of Educational Development*, 68, 101-112.

5. Molchanova, O.P., Lojkin, A.S. (2021). "Institutional Factors of University Entrepreneurship". *European Journal of Education*, 56(2), 234-250.

6. Ponomarenko, V.V., Kobzev, L.V. (2017). *Digital Transformation in Education: Strategies for Universities*. Berlin: Springer.



BIZNES SUBYEKTLARINI RAQAMLI TRANSFORMATSIYA ORQALI RIVOJLANTIRISHNING INNOVATSION USULLARI

Toxirov Rustam Solijonovich

Qo'qon universiteti Raqamli texnologiyalar va
matematika kafedrası katta o'qituvchisi
email: tohirov7771@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 13 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1193 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS raqamli transformatsiya, kichik biznes sub'yektlari, innovatsion samaradorlik ko'effitsienti (K_innov), empirik tahlil, iqtisodiy samaradorlik indikatorlari, texnologik modernizatsiya, metodologik yondashuvlar.	Ushbu maqolada kichik biznes sub'yektlarining raqamli transformatsiya jarayonlariga integratsiyalashuvi va bu jarayonning iqtisodiy samaradorlikka ta'siri chuqur tahlil etiladi. Tadqiqotda asosiy e'tibor innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali daromad va xarajatlar dinamikasidagi o'zgarishlarni aniqlashga qaratilgan. Metodologik jihatdan kontent-tahlil, statistik va komparativ tahlil usullari, shuningdek, "Innovatsion samaradorlik ko'effitsienti"-(K_innov) formulasi asosida hisob-kitoblarni amalga oshirilgan. Farg'ona viloyatidagi uchta biznes subyekti misolida olib borilgan empirik tahlillar natijasida, raqamli texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda daromadlar 25–30% gacha oshgani, xarajatlar esa 18–20% gacha kamaygani aniqlangan. Tadqiqot natijalari innovatsion yechimlar kichik biznesning raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini oshirishda muhim vosita ekanligini isbotlab beradi. Maqola iqtisodiy samaradorlikni zamonaviy sharoitlarda baholashning amaliy ahamiyatga ega yangi yondashuvini taqdim etadi va raqamli iqtisodiyotga oid siyosat ishlab chiquvchilar hamda tadbirkorlar uchun tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kirish. Zamonaviy iqtisodiy taraqqiyot sharoitida biznes subyektlarining samarali faoliyat yuritishi ko'p jihatdan innovatsion texnologiyalarni joriy etish darajasi bilan bevosita bog'liq bo'lib bormoqda. Ayniqsa, so'nggi yillarda raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari hamda sun'iy intellekt asosida shakllangan yechimlar kichik va o'rta biznesning transformatsion jarayonlarida muhim rol o'ynay boshladi.¹ Innovatsion rivojlanish, bu borada, oddiy texnologik yangilanish emas, balki raqobatbardoshlik, mahsuldorlik va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi kompleks yondashuv sifatida namoyon bo'lmoqda.²

Ilmiy adabiyotlarda "Innovatsion rivojlanish" tushunchasi iqtisodiy o'sish va taraqqiyotning ajralmas omili sifatida turli yondashuvlar asosida talqin etiladi. Jumladan, XX asrning mashhur iqtisodchisi J.Shumpeter innovatsiyani iqtisodiy tizimda inqilobiy o'zgarishlarni yuzaga keltiruvchi asosiy dvigatel deb bilgan. U o'zining "The Theory of Economic Development" asarida innovatsiyani yangi mahsulotlar, yangi ishlab chiqarish usullari, yangi bozorlar va xomashyo manbalarining kashf etilishi orqali mavjud iqtisodiy tuzumni "ijodiy buzish" (creative destruction) bilan almashtirish jarayoni sifatida izohlagan. Shumpeterga ko'ra, innovatsiya — bu oddiy takomillashtirish emas, balki sifat jihatdan yangi rivojlanish bosqichiga o'tish vositasidir.³

Yana bir muhim nazariy yondashuvni P. Druker ilgari suradi. Uning fikricha, innovatsion rivojlanish — bu mavjud resurslardan yangi, samarali yondashuvlar orqali maksimal natija olish imkonini beruvchi boshqaruv vositasidir.⁴ Druker innovatsiyani nafaqat texnologik yangilik, balki menejment, marketing va tashkilot ichidagi jarayonlarni optimallashtirishga qaratilgan strategik o'zgarish sifatida ko'radi. Unga ko'ra, har qanday tashkilotda raqobat ustunligini shakllantirishning eng barqaror yo'li — bu innovatsion faoliyatni muntazam amalga oshirishdir.

Bu ikki olim yondashuvlari innovatsion rivojlanishning nazariy asoslarini shakllantirib, ularni zamonaviy iqtisodiyotning barqaror va dinamik rivojlanishidagi poydevoriy tushuncha sifatida qarash imkonini beradi. Shunday qilib, innovatsiya — bu iqtisodiy tizimni takomillashtirish vositasi bo'lib, u orqali raqobatbardoshlik, samaradorlik va bozor talablari o'rtasida muvozanat yaratiladi.

O'zbekistonlik olimlarning qarashlarida esa bu tushuncha iqtisodiy faoliyatda texnologik yangilanishga asoslangan o'zgarishlar tizimi sifatida yondashiladi.⁵

Raqamli texnologiyalarni iqtisodiyotning real sektori, xususan, kichik biznesda tatbiq etish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, xizmatlar sifati va tezkorligini oshirish, resurslardan oqilona foydalanish, ma'lumotlar oqimini tizimlashtirish kabi samaralarga erishish mumkin. Jahon amaliyoti, xususan, Accenture (2021), OECD (2020), va PwC (2018) tadqiqotlarida bu texnologiyalarning korxona samaradorligiga bevosita ta'siri statistik dalillar bilan asoslangan.⁶

O'zbekiston sharoitida ham bu jarayon izchil rivojlanmoqda. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida IT infratuzilmasini kengaytirish, biznes subyektlariga texnologik qo'llab-quvvatlov berish, IT Park rezidentligi orqali qulay muhit yaratish choralari ko'rilmogda.⁷ Natijada, IT xizmatlar eksporti va sun'iy intellektga asoslangan dasturiy mahsulotlar soni oshib bormoqda.

Ushbu maqolada Farg'ona viloyatida kichik biznes subyektlari faoliyatida raqamli texnologiyalar joriy etilishini tahlil qilish, mavjud tajribalar va natijalarni baholash, shuningdek, innovatsion yondashuvlarning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini aniqlash maqsad qilingan.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan biri sifatida raqamli transformatsiya va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish masalasi ko'plab tadqiqotchilarning e'tibor markazida bo'lib kelmoqda. Xususan, J.Shumpeter innovatsiyani mavjud iqtisodiy tuzumni tubdan o'zgartiruvchi kuch sifatida talqin qilib, uni "innovatsion" (creative destruction) jarayoni deb atagan.⁸ Shumpeter nazariyasiga ko'ra, innovatsion faoliyatning iqtisodiy tizimga ta'siri faqat texnologik yangiliklar bilan cheklanmay, balki ishlab chiqarish usullarining, resurslar taqsimotining va bozor tuzilmasining yangilanishini ham o'z ichiga oladi.

P. Druker esa innovatsiyani boshqaruv faoliyatining ustun yo'nalishi sifatida ko'rib, uning samaradorlikka va korxona raqobatbardoshligiga bevosita ta'sirini ta'kidlaydi.⁹ U innovatsion jarayonlarni tashkilot ichida doimiy davom etadigan strategik faoliyat

¹ Toshpo'latov, B. *Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish*. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2019, 4(2), 45–49.

² Xudoyberdiyev, D. X. *Innovatsion rivojlanishning iqtisodiy mexanizmlari*. Toshkent: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti. 2021.

³ Schumpeter, J. A. *The Theory of Economic Development*. Harvard University Press. 1934

⁴ Drucker, P. F. (1985). *Innovation and Entrepreneurship: Practice and Principles*. Harper & Row.

⁵ G'ulomov, S. S. *Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish istiqbollari*. *Innovatsion rivojlanish: nazariya va amaliyot*, 2020. 1(1), 60–65.

⁶ OECD. (2020). *OECD Digital Economy Outlook 2020*. Organisation for Economic Co-operation and Development. <https://www.oecd.org/digital/digital-economy-outlook/>

⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *2022–2026 yillarda innovatsion rivojlanish strategiyasi ta'g'irida* PF–165-son Farmon. www.lex.uz

⁸ Shumpeter, J. A. (1982). *Teoriya ekonomicheskogo razvitiya* [The Theory of Economic Development]. Moskva: Progress.

⁹ Druker, P. F. (2001). *Praktika menedzhmenta* [The Practice of Management]. Moskva: Williams.

deb hisoblaydi. Shu sababli, raqamli transformatsiya ham ko'pincha korxona boshqaruv tizimining tubdan takomillashuvi sifatida qoraladi.

Alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston sharoitida ham raqamli texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy-analitik yondashuvlar shakllanmoqda. Masalan, N.Soliyev o'z tadqiqotida raqamli transformatsiya jarayonlarini innovatsion iqtisodiyotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida tahlil qilgan.¹⁰ Muallifning fikricha, kichik biznes subyektlari raqamlashtirishni jadallashtirish orqali resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish xarajatlarini sezilarli kamaytirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Shunga o'xshash xulosalar A. Akramov va R. Sobirov tomonidan ham ilgari surilgan bo'lib, ularning asarida raqamli texnologiyalarni joriy etish kichik va o'rta biznesning barqarorligini mustahkamllovchi asosiy omil sifatida ko'rsatilgan.¹¹ Ayniqsa, ERP va CRM tizimlarini joriy etish amaliy natijalari, jumladan, moliyaviy ko'rsatkichlarning o'sishi va mijozlar bazasining kengayishi bo'yicha dalillar keltirilgan.

B. Xojiyev va A.Ibragimov O'zbekiston iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarining transformatsion jarayonlarini empirik tahlil qilib, ularning samaradorligini baholashda innovatsion yondashuvlarning ustunligini ta'kidlagan. Tadqiqot natijalarida raqamli texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda daromad va rentabellik sezilarli oshgani isbotlangan.¹²

Jahon amaliyoti ham bu jarayonning iqtisodiy samaradorligini tasdiqlaydi. Accenture tomonidan o'tkazilgan tadqiqotda raqamli texnologiyalarni birinchi bo'lib joriy qilgan kompaniyalar o'z raqobatchilaridan ustunlikka erishgani, xarajatlarni kamaytirish va daromadni oshirishga muvaffaq bo'lgani raqamli dividend konsepsiyasi doirasida asoslab berilgan.¹³

O'zbekiston Respublikasining "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi esa davlat darajasida raqamli transformatsiya uchun institutsional asos yaratgan hujjat bo'lib, IT infratuzilmani rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlariga texnologik yordam ko'rsatish va sun'iy intellekt asosidagi echimlarni rivojlantirishni strategik vazifa sifatida belgilagan.¹⁴

Yuqoridagi manbalardan ko'rinadiki, innovatsion texnologiyalarni kichik biznesda tatbiq etish bo'yicha nazariy va amaliy asoslar yetarlicha shakllangan. Biroq, amaliy empirik tadqiqotlar soni cheklangan bo'lib, aynan Farg'ona viloyati sharoitidagi kichik biznes korxonalarida raqamli transformatsiyaning moliyaviy samaradorligini chuqur o'rganish bo'yicha ishlar yetarlicha emas edi. Shu sababli, ushbu maqola raqamli transformatsiya natijalarini Innovatsion samaradorlik koeffitsienti (K_{innov}) orqali tahlil qilish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish borasida yangilikka ega.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari misolida raqamli texnologiyalarni joriy etishning amaliy holatini o'rganish va ularning iqtisodiy samaradorlikka ta'sirini baholash maqsad qilindi. Tadqiqotning metodologik asosini zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari, real sektor kuzatuvlari, xalqaro va milliy statistik ma'lumotlar tahlili tashkil etadi. Tadqiqot ob'ekti va predmetini ham ko'rib chiqilsa, tadqiqot ob'ekti sifatida Farg'ona viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va raqamli texnologiyalarni faol joriy etgan kichik biznes vakillari tanlab olindi. Jumladan, quyidagi korxonalar asosiy tahlil manbai sifatida tanlandi: "Intellectual software technology" MCHJ, "BestCabel" MCHJ, "Lochin lyuks savdo servis" MCHJ va "Universal mould" MCHJ.

1-jadval.

Kichik biznes subyektlarida tatbiq etilgan raqamli texnologiyalar turlari va ularning amaliy samaralari.

№	Korxona nomi	Tehnologiya turi	Joriy etilgan tizimlar	Raqamli yechimlar ta'siri
1	Intellectual software technology MCHJ	ERP/CRM, AI	SellerPeak24, CRM360	Eksport 500 ming \$, 14 000+ foydalanuvchi
2	BestCabel MCHJ	Avtomatlashtirilgan ERP	Mahsulot nazorat tizimi	Tsiki 17% qisqardi, nuqsonlar 12% kamaydi
3	Lochin lyuks savdo servis MCHJ	Logistika, ombor boshqaruvi	Buyurtma boshqaruvi, W-Shop	Ishlab chiqarish quvvati 22%, buyurtma aniqligi 95%
4	Universal mould MCHJ	Raqamli modellashtirish	Monitoring, BioSupervision	Tsiki 30% qisqardi, xarajatlari 18% kamaydi

Yuqoridagi jadvalda Farg'ona viloyatida faoliyat yuritayotgan va tadqiqotga jalb etilgan kichik biznes subyektlarining raqamli texnologiyalarni joriy etish holati va ularning amaliy natijalari keltirilgan. Jadvaldan ko'rinib turibdiki, tanlangan korxonalar faoliyatida ERP, CRM, sun'iy intellekt va raqamli modellashtirish kabi ilg'or texnologiyalar qo'llanilmoqda. Bu texnologik yechimlar ishlab chiqarish siklini qisqartirish, xarajatlarni kamaytirish, eksport hajmini oshirish va mijozlar bilan ishlash samaradorligini kuchaytirishga xizmat qilmoqda. Xususan, "Intellectual software technology" MCHJ tomonidan ishlab chiqilgan tizimlar eksport hajmining 500 ming AQSh dollarigacha oshishiga sabab bo'lgan bo'lsa, "BestCabel" MCHJda ishlab chiqarishdagi nuqsonlar 12% ga kamaygan.¹⁵ Shuningdek, "Lochin lyuks savdo servis" va "Universal mould" korxonalarida joriy etilgan avtomatlashtirilgan tizimlar mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshirishga olib kelgan. Ushbu ma'lumotlar asosida aytish mumkinki, korxonalarda raqamli texnologiyalarni strategik ravishda joriy etish ularning bozor pozitsiyasini mustahkamlashga va ichki boshqaruv tizimlarini optimallashtirishga xizmat qilmoqda.

Tahlil jarayonida raqamli texnologiyalarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini aniqlash uchun quyidagi Innovatsion samaradorlik koeffitsienti formulasi qo'llanildi:

$$K_{\text{innov}} = (Y_2 - Y_1) / C$$

Bu yerda:

K_{innov} – samaradorlik koeffitsienti;

Y_2 – texnologiyadan keyingi daromad;

Y_1 – texnologiyadan oldingi daromad;

C – xarajatlari.

Bu klassik investitsiya samaradorligini baholash usulining modifikatsiyasidir. Asosan, quyidagilarga asoslanadi:

ROI (Return on investment) formulasi:

$$ROI = \frac{\text{Foyda}}{\text{Sarmoya}}$$

Shu formulani innovatsion texnologiyalarga tatbiq etib, foydani: ($Y_2 - Y_1$) (ya'ni texnologiyadan keyingi va oldingi daromad farqi) deb qaraymiz.

Demak, bu formula aynan shu tadqiqot uchun ishlab chiqilgan soddalashtirilgan tahliliy model hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot doirasida Farg'ona viloyatidagi uchta turli sohalarida faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari faoliyati tahlil qilindi. Bu subyektlar raqamli texnologiyalarni (ERP, CRM tizimlari va avtomatlashtirilgan hisob-kitob vositalari) joriy etgan davrdan oldingi va keyingi moliyaviy ko'rsatkichlari asosida innovatsion samaradorlik koeffitsienti (K_{innov}) aniqlanishiga imkon berdi.

Quyidagi jadvalda texnologiya joriy etishdan avvalgi (Y_1) va keyingi (Y_2) yillik daromadlar, shuningdek, joriy etish xarajatlari (C) va hisoblangan koeffitsientlar keltirilgan.

¹⁰ Soliyev, N. S. (2021). *Innovatsion iqtisodiyot va raqamli transformatsiya* [Innovation Economy and Digital Transformation]. Toshkent: Iqtisodiyot.

¹¹ Akramov, A. A., & Sobirov, R. A. (2020). *Raqamli iqtisodiyot asoslari* [Foundations of the Digital Economy]. Toshkent: Iqtisod-Moliya.

¹² Xojiyev, B., & Ibragimov, A. (2022). Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining transformatsiyasi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, (5), 47–54.

¹³ Accenture. (2021). *The digital dividend: First-mover advantage*. Retrieved from <https://www.accenture.com/us-en/insights/digital/digital-dividend>


¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida (PF-6079-son Farmon). Retrieved from <https://lex.uz/docs/4851034>

¹⁵ Tadqiqot muallifi tomonidan Farg'ona viloyatidagi kichik biznes subyektlari faoliyati asosida olib borilgan empirik tahlil natijalari. 2025.

Raqamli texnologiyalar investitsiyasining innovatsion samaradorlik ko'rsatkichlari (K_{innov}) asosida baholanishi.¹⁶

Korxona nomi	Y_1 – texnologiyagacha (mln so'm)	Y_2 – texnologiyadan so'ng (mln so'm)	C – xarajatlar (mln so'm)	K_{innov}
"BestCabel" MCHJ	950	1350	150	2.67
"Lochin Lyuks Servis"	720	960	120	2.00
"Universal mould" MCHJ	870	1220	200	1.75

Yuqoridagi jadval asosida raqamli texnologiyalar joriy etilishi natijasida yuzaga kelgan daromad o'zgarishlari 1-rasmda grafik ko'rinishda keltirilgan.



1-rasm. Innovatsion texnologiyalar joriy etilishi natijasida daromad dinamikasi.

Yuqoridagi rasmda "BestCabel" MCHJ, "Lochin Lyuks Servis" va "Universal mould" MCHJ korxonalarida texnologiyalar joriy etilgach daromadlar qanday oshgani ko'rsatilgan. Grafikda yaqqol ko'rinadiki, texnologik yangiliklar moliyaviy samaradorlikni oshirgan va investitsiya samarasi yuqori bo'lgan. Bu natijalar xalqaro manbalardagi o'rganishlar (Accenture, 2021; PwC, 2018) bilan bog'liq holda tasdiqlanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, raqamli texnologiyalarni joriy etgan barcha korxonalarda yillik daromadlar sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa, "BestCabel" MCHJda daromad 400 million so'mga ko'paygan bo'lib, innovatsion samaradorlik koeffitsienti $K_{\text{innov}} = 2.67$ ni tashkil etdi. Bu har bir sarmoyalangan 1 so'm evaziga 2.67 so'm qo'shimcha daromad olinganini anglatadi. Shunga o'xshash tarzda, "Lochin Lyuks Servis" MCHJda bu ko'rsatkich 2.00 ni, "Universal mould" MCHJda esa 1.75 ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, korxonalar tomonidan joriy etilgan raqamli yechimlar, jumladan, axborot tizimlari, elektron hisobotlar, bulutli xizmatlar va mijozlar bilan ishlashni avtomatlashtiruvchi vositalar investitsiya sifatida o'zini to'liq oqlagan. Yuqori koeffitsient qiymatlari esa ushbu korxonalar faoliyatining diversifikatsiyalashganligi, menejment sifatining yuqoriligi hamda texnologiyalarning tegishli ehtiyojlarga moslashtirilganligi bilan izohlanadi.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiyadan so'ng operatsion xarajatlarning qisqarishi, mahsulot yoki xizmat ko'rsatish tezligining oshishi, shuningdek, mijozlar bazasining kengayishi kuzatilgan. Bu esa K_{innov} ko'rsatkichi orqali aniqlangan moliyaviy natijalarning aslida ichki boshqaruv va tashqi bozor holatiga qanday ta'sir o'tkazganini ham bilvosita ko'rsatib beradi.

Shu nuqtai nazardan, innovatsion texnologiyalarning kichik biznes subyektlarida joriy etilishi nafaqat rentabellikni oshiradi, balki barqaror raqobat ustunligini shakllantirishda ham muhim rol o'ynaydi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kichik biznes subyektlarining raqamli transformatsiyaga integratsiyalashuvi nafaqat iqtisodiy samaradorlikning oshishiga, balki

korxonalar faoliyatining strategik barqarorligiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Amaliy tahlil asosida aniqlanishicha, raqamli texnologiyalarni joriy etgan korxonalarda daromad ko'rsatkichlari o'rtacha 25–30% ga oshgan, xarajatlar esa 18–20% ga kamaygan. Bunday natijalar, o'z navbatida, innovatsion texnologiyalarning iqtisodiy jihatdan foydaliligi va tejamkorligini tasdiqlaydi. Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan innovatsion samaradorlik koeffitsienti (K_{innov}) formulasi asosida o'tkazilgan hisob-kitoblar korxonalarda kiritilgan investitsiyalarning qanchalik tez va samarali qaytishini matematik asosda isbotlab berdi. Xususan, "BestCabel" MCHJ, "Lochin Lyuks Servis" hamda "Universal mould" MCHJ korxonalarida bu ko'rsatkichlar mos ravishda 2.67, 2.00 va 1.75 ni tashkil etdi, bu esa investitsion qarorlarning to'g'ri yo'l natirilganidan dalolat beradi.

Bundan kelib chiqib, quyidagi asosiy xulosalarga kelindi: Raqamli texnologiyalarni joriy etish kichik biznes subyektlarining iqtisodiy samaradorligini oshirishda strategik omil sifatida xizmat qilmoqda. Raqamlashtirish jarayoni orqali operatsion jarayonlar soddalasib, inson omiliga bog'liqlik kamaymoqda, bu esa boshqaruv sifatini oshirmoqda. Innovatsion yondashuvlar asosida axborot oqimlarini avtomatlashtirish natijasida korxonalarning bozor holatiga moslashuvchanligi ortmoqda va ichki rezervlar samarali safarbar etilmoqda. Tahlil qilinayotgan subyektlar misolida ko'rinadiki, raqamli transformatsiya moliyaviy natijalarga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa bu jarayonni keng miqyosda joriy etish zarurligini taqozo etadi.

Takliflar

1. Hududiy darajada kichik biznes subyektlariga raqamli texnologiyalarni joriy etishda ko'maklashuvchi metodik markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish;
2. Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kengaytirish, xususan, raqamlashtirishga qaratilgan investitsion loyihalar uchun soliq va kredit imtiyozlarini taqdim etish;
3. Ilmiy-tadqiqot institutlari va IT kompaniyalari hamkorligida innovatsion samaradorlikni baholash metodologiyalarini ishlab chiqish va ularni biznes amaliyotiga integratsiyalash;

¹⁶ Manbaa: Korxonalar bilan tuzilgan amaliy hamkorlik bitimlari doirasida to'plangan birlamchi ma'lumotlar asosida muallif tomonidan hisoblangan.

4. Tadbirkorlik subyektlari uchun raqamli transformatsiyaning yo'l xaritasini ishlab chiqish va amaliyotda sinovdan o'tkazish.

Yuqorida keltirilgan xulosalar va takliflar asosida aytish mumkinki, raqamli texnologiyalarni joriy etish kichik biznes subyektlari uchun nafaqat operatsion va moliyaviy samaradorlikni oshirish vositasi, balki ularning raqobatbardoshligini mustahkamlovchi strategik omilga aylanmoqda. Ushbu transformatsiya jarayoni chuqur ilmiy yondashuv

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2020). "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida (PF-6079-son Farmon). Retrieved from <https://lex.uz/docs/4851034>

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). 2022–2026 yillarda innovatsion rivojlanish strategiyasi to'g'risida (PF–165-son Farmon). Retrieved from <https://lex.uz>

3. Accenture. (2021). *The digital dividend: First-mover advantage*. Retrieved from <https://www.accenture.com/us-en/insights/digital/digital-dividend>

4. Akramov, A. A., & Sobirov, R. A. (2020). *Raqamli iqtisodiyot asoslari* [Foundations of the Digital Economy]. Toshkent, Uzbekistan: Iqtisod-Moliya.

5. Drucker, P. F. (1985). *Innovation and entrepreneurship: Practice and principles*. New York, NY: Harper & Row.

6. Drucker, P. F. (2001). *Praktika menedzhmenta* [The Practice of Management]. Moskva, Russia: Williams.

7. G'ulomov, S. S. (2020). Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesni rivojlantirish istiqbollari. *Innovatsion rivojlanish: nazariya va amaliyot*, 1(1), 60–65.

15. .

va davlat siyosatining tizimli qo'llab-quvvatlovi bilan uyg'un holda olib borilsa, mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes segmentining salohiyati yanada to'liq ro'yobga chiqarilishi mumkin. Ayniqsa, hududiy darajadagi amaliy choralar, innovatsion texnologiyalarni amaliyotga integratsiya qilishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlar hamda normativ-huquqiy muhitning liberallasuvi bu sohada barqaror taraqqiyotga zamin yaratadi.

8. OECD. (2020). *OECD digital economy outlook 2020*. Paris, France: Organisation for Economic Co-operation and Development. Retrieved from <https://www.oecd.org/digital/digital-economy-outlook/>

9. Schumpeter, J. A. (1934). *The theory of economic development*. Cambridge, MA: Harvard University Press.

10. Schumpeter, J. A. (1982). *Teoriya ekonomicheskogo razvitiya* [The Theory of Economic Development]. Moskva, Russia: Progress.

11. Soliyev, N. S. (2021). *Innovatsion iqtisodiyot va raqamli transformatsiya* [Innovation Economy and Digital Transformation]. Toshkent, Uzbekistan: Iqtisodiyot.

12. Toshpo'latov, B. (2019). Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion tadbirkorlikni rivojlantirish. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar*, 4(2), 45–49.

13. Xojiyev, B., & Ibragimov, A. (2022). Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznes subyektlarining transformatsiyasi. *Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali*, (5), 47–54.

14. Xudoyberdiyev, D. X. (2021). *Innovatsion rivojlanishning iqtisodiy mexanizmlari*. Toshkent, Uzbekistan: Iqtisodiyot va ta'lim nashriyoti



KICHIK BIZNESDA RISKNI BAHOLASH YUZASIDAN XALQARO TAJRIBALAR

Umarov Azizxon

Qo'qon universiteti mustaqil izlanuvchisi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 14 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1194 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Ushbu maqolada kichik biznes subyektlarida riskni baholash bo'yicha xalqaro tajribalar tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida ISO 31000, FMEA, GMM va AI texnologiyalaridan foydalanilgan holatlar ko'rib chiqilib, ular yordamida xavflarni aniqlash, baholash va boshqarish mexanizmlari yoritilgan. Statistika va real so'rov natijalariga asoslangan holda, kichik biznes uchun risk baholash modelining afzalliklari ko'rsatildi. Xalqaro amaliyotlar asosida O'zbekistonga moslashtirilgan yondashuvlar ishlab chiqish zarurligi asoslab berilgan. Natijalar mahalliy siyosat va amaliyotga muhim tavsiyalar beradi.
kichik biznes, riskni baholash, xalqaro tajriba, sun'iy intellekt, risk menejmenti.	

Kirish. Kichik biznes ("small business") iqtisodiy rivojlanish, ish o'rinlari yaratish hamda innovatsiyalarni rag'batlantirishda muhim rol o'ynaydi (Dieperink et al., 2025). Biroq, resurslarning cheklanishi, boshqaruvdagi kamchiliklar va tashqi sharoitlarning o'zgaruvchanligi ularni turli xavflarga duchor qiladi (Šebestová & Sroka, 2023). Shu sababli, kichik korxonalarni omon saqlash va ularning raqobatbardoshligini ta'minlash uchun samarali riskni baholash tizimlari zarur. Bu esa nafaqat moliyaviy barqarorlikni, balki ijtimoiy va raqamli xavfsizlikni ham qamrab oladi (Curtin et al., 2024; El-Hajj & Mirza, 2024).

Xalqaro tajribada riskni boshqarish uchun keng tarqalgan standartlardan biri ISO 31000 bo'lib, u risk identifikatsiyasi, tahlil va boshqaruv bosqichlarini yagona yondashuvda tartibga soladi (ISO, 2018). Ushbu standart kichik va o'rta biznes (SME) uchun ham mos bo'lib, faoliyat strategiyasiga integratsiya qilinishi mumkin (Martins et al., 2021). Ushbu tadqiqot maqsadi — kichik biznesda riskni baholash bo'yicha xalqaro usullarni tahlil qilish va ularni mahalliy sharoitga moslashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqishdir.

So'nggi yillarda korxonalar ish jarayonida raqamli transformatsiyaga kirib bormoqda va bu zamonaviy texnologiyalarning riskni oldindan aniqlash vositasi sifatida qo'llanishini ta'minlamoqda (Fred & Forest, 2024). Misol uchun, kichik biznesda kiberxavfsizlik risklarini baholash uchun Irlandiyada yuqorida sanab o'tilgan ISO asosiy yondashuvlari bilan birga maxsus onlayn vositalar ishlab chiqilmoqda (Curtin et al., 2024). Shuningdek, MDPI 2024 yildagi tadqiqotida kiberxavfsizlik risklari uchun maxsus ramka va elektron asboblarni taklif etilgan, bu esa SME'larni tizimli xavfsizlik choralarini qo'llashga yo'naltiradi (El-Hajj & Mirza, 2024).

Moliyaviy barqarorlik va likvidlik risklarini baholash ham asosiy yo'nalishlardan. Masalan, Malayziyada amalga oshirilgan tadqiqotda korxona o'ziga xos risklarga asoslangan GMM (Gaussian Mixture Model) orqali moliyaviy barqarorlik tahlil qilingan (Bai & Harith, 2023). Bunday yondashuv korxona moliyaviy holatining turli risk profilarni aniqlash imkonini beradi. Boshqa tomondan, Buyuk Braziliyada ISO 9001:2015 doirasida samarali risk-tahlil modeli ishlab chiqilib, FMEA (Failure Mode and Effect Analysis) bilan birgalikda integratsiyalashgani haqida amaliy tavsiyalar berilgan (Martins et al., 2021).

Ushbu maqola kichik biznes uchun riskni baholashda eng ko'p ishlatiladigan xalqaro amaliyotlarni tahlil qilib, ularning afzalliklari hamda mahalliy sharoitdagi moslashuv aspektlarini ochib beradi. Tadqiqot metodologiyasi sifatida nazariy adabiyotlar tahlili, amaliy misollar va qiyosiy tahlillar qo'llaniladi. Natijada, biz kichik korxonalarga zamonaviy va integratsiyalashgan riskni baholash yondashuvlarini tavsiya etamiz.

Adabiyotlar tahlili. Xalqaro adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki: birinchidan, kichik korxonalarda kiber xavfsizlik riskini baholash

bo'yicha amaliyotlar rivojlanmoqda. Irlandiyalik tadqiqotda maxsus onlayn asbob ishlab chiqilgan (Curtin et al., 2024), undan MDPI'ning 2024 yildagi maqolasi ham qo'llab-quvvatlaydi — "kiberxavfsizlikka ixtisoslashgan SME ramkasi va vositalar" (El-Hajj & Mirza, 2024) samarali hisoblanadi. Ikkinchidan, ISO 31000 kabi xalqaro standartlar riskni bosqichma-bosqich boshqarish uchun vaziyatli yondashuvni ta'minlaydi (ISO, 2018; Silva Martins et al., 2021). Uchinchidan, moliyaviy va likvidlik risklarini baholashda statistika asoslangan yondashuvlar — masalan, GMM — innovatsion natija beradi (Bai & Harith, 2023). To'rtinchidan, ISO 9001 doirasida ishlab chiqilgan FMEA asosidagi model esa amaliyotlarda foydalanishga moslashtirilgan (Martins et al., 2021).

Bu adabiyotlar riskni baholash yondashuvlarini turli sohalarida mukammallashtirish uchun asos yaratadi: kiberxavfsizlik, moliyaviy barqarorlik va sifat boshqaruvi. Shu bilan birga, ularning moslashuvdagi muammolari aniqlanadi — resurslar, boshqaruv kulturasining yetishmasligi va standartlarga tayyorlik. Bular asosida maqolada kichik biznes uchun risk baholash uchun integratsiyalashgan modelni ishlab chiqish rejalashtiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda kichik biznes subyektlarida riskni baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish uchun sifatli (qualitative) tadqiqot metodologiyasi asos qilib olindi. Asosiy yondashuv — kontent tahlili (content analysis) bo'lib, u orqali so'nggi besh yilda (2020–2025) nashr etilgan xalqaro ilmiy maqolalar, amaliy hisobotlar va ISO standartlari tahlil qilindi. Ma'lumotlar manbai sifatida Google Scholar, Scopus va MDPI kabi akademik bazalardan tanlab olingan 20 dan ortiq maqola asos qilib olindi.

Bundan tashqari, qiyosiy tahlil (comparative analysis) usulidan foydalanilib, AQSh, Irlandiya, Malayziya, Braziliya va Yevropa Ittifoqi davlatlarida kichik bizneslarda qo'llanilayotgan riskni baholash amaliyotlari o'zaro solishtirildi. Ushbu metodlar orqali riskni identifikatsiyalash, tahlil qilish, baholash va monitoring qilish mexanizmlari o'rganildi.

Tahlil natijalari asosida kichik bizneslar uchun moslashuvchan va amaliyotda qo'llanilishi mumkin bo'lgan riskni baholash modeli ishlab chiqish maqsad qilindi. Mazkur model mahalliy kichik biznes kontekstiga moslashtirilishi uchun zarur tavsiyalar shakllantirildi.

Tadqiqot natijalari. 2024–2025 yillar davomida kichik bizneslarda riskni baholash bo'yicha o'tkazilgan tahlillar kichik korxonalar duch kelayotgan asosiy tahdidlarni va ularning xalqaro miqyosdagi yondashuvlarini raqamli va statistik jihatdan aniqlab berdi. Jumladan, Risk in Focus 2024 hisobotiga ko'ra, 4 207 ta respondent korxonaning 74 foizi **kiberxavfsizlikni**, 63 foizi esa **jarayonlardagi noaniqlik va buzilishlarni** asosiy xavf sifatida ko'rsatgan.

Kichik bizneslar uchun eng muhim deb topilgan risk turlari (2024, global)

Risk turi	Korxonalar ulushi (%)
Kiberxavfsizlik	74%
Operatsion risklar	63%
Moliyaviy likvidlik yetishmasligi	58%
Ta'minot zanjiri uzilishi	46%
Kadrlar oqimi / ishchi kuchi riski	42%

Bundan tashqari, xalqaro miqyosda qo'llanilayotgan standartlar va texnologik vositalarning samaradorligi ham sinovdan o'tkazilgan. Masalan, Indoneziyada FMEA (Failure Mode and Effect Analysis) va ISO 31000 standarti asosida olib borilgan tajribada 38 ta potentsial nosozlik aniqlandi. Eng yuqori Risk Priority Number (RPN) qiymati 162 ga yetdi va loyiha oxirida risk darajasi 48% ga kamaydi.


Malayziyada Gaussian Mixture Model (GMM) yordamida moliyaviy risklarni aniqlash metodikasi sinovdan o'tkazildi. Model 87% aniqlik bilan turli moliyaviy tahdid profillarini ajratdi. Shundan so'ng, tahdidlarni boshqarishga doir strategiyalar joriy etildi va ularning natijasida umumiy moliyaviy risk 32% ga kamaydi.

Risk baholash amaliyotlarining samaradorligi (2024)

Mamlakat	Usul	Aniqlik (%)	Risk kamayishi (%)
Indoneziya	FMEA + ISO 31000	92%	48%
Malayziya	GMM model	87%	32%
Braziliya	FMEA + ISO 9001:2015	79%	41%

Allianz Risk Barometer 2024 hisobotida esa yetkazib beruvchi bilan bog'liq uzilishlar va biznes uzluksizligi masalalari ko'tarilgan. 60% kompaniya yetkazib beruvchi diversifikatsiyasiga e'tibor qaratgan, ulardan 42% bu orqali riskni pasaytirishga erishgan.

Avstraliya misolida ScotPac hisobotida 2024 yilda 94% kichik korxona yangi moliyalashtirish variantlarini qidirayotganini bildirgan. Shu bilan birga, 29% korxona asosiy mijoz yo'qotilsa, ular bankrotlik xavfi ostida qolishini tan olgan.



1-rasm. Moliyaviy va mijoz xavfi (Avstraliya, 2024)

Hindistonda CPA Australia'ning 2024 yilgi tadqiqotiga ko'ra, mikro va kichik korxonalarning 71% tashqi moliyalashtirishga muhtoj. Shu bilan birga, 40% korxona inflyatsiya va narx oshishi tahdidi ostida ekanini bildirgan.

Texnologiyalar, ayniqsa sun'iy intellekt integratsiyasi, risklarni kamaytirishda ham, yangi xavflarni keltirib chiqarishda ham ishtirok etmoqda. Verizon Business 2024 yilgi so'rovida kichik bizneslarning 60% sun'iy intellektidan foydalanayotganini bildirgan, biroq 45% korxona AI bilan bog'liq kiberxavfsizlik tahdidlarini eng dolzarb xavf deb hisoblamogda.

Umumiy natijalarga ko'ra:

- ISO va FMEA asosidagi modellar 41%–48% gacha xavfni kamaytirishga xizmat qilmoqda.
- GMM yordamida moliyaviy barqarorlikni 87% aniqlikda baholash mumkin bo'lmoqda.
- 71% Hindiston korxonalari moliyaviy qo'llovga ehtiyoj sezmoqda.

- 94% Avstraliya kichik korxonalari moliyaviy alternativlarni izlamogda.

- 60% korxona AI integratsiyasini joriy etgan, lekin 45% bunga bog'liq xavflarni tan olmoqda.

Bu raqamlar va jadvallar kichik biznesda riskni baholash tizimlarini kuchaytirish, xalqaro amaliyotlardan moslashuvli foydalanish, va ayniqsa texnologiyalardan foydalangan holda, xatarlarni kamaytirish bo'yicha muhim dalillardir.

Muhokama. Tahlil natijalariga asosanib aytish mumkinki, kichik biznes subyektlarida riskni baholash tizimlarini rivojlantirish zamonaviy iqtisodiy sharoitda eng dolzarb masalalardan biridir. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, korxonalar duch kelayotgan asosiy xavflar — bu kiberxavfsizlik, moliyaviy barqarorlik, ta'minot zanjiri uzilishi, ishchi kuchi bilan bog'liq xavflar va AI integratsiyasidan kelib chiqadigan yangi tahdidlardir. Ayniqsa, 74% korxona kiberxavfsizlikni asosiy xavf deb bilgani, zamonaviy texnologik muhitda kichik korxonalarning zaifligi yuqori ekani va ularga qarshi mustahkam himoya tizimi zarurligini ko'rsatadi. Bunday sharoitda xalqaro amaliyotlar — xususan, ISO 31000, ISO 9001:2015 va FMEA kabi standartlar asosidagi tizimli risk

boshqaruvi usullarining joriy etilishi kichik bizneslar uchun barqarorlikni ta'minlashda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin.

Muhokama natijalaridan yana bir muhim jihat shuki, moliyaviy risklarni aniqlash va baholashda statistik modellarning, masalan, GMM yondashuvining yuqori aniqlik bilan ishlayotgani kichik bizneslarda moliyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda kuchli vosita bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi. 87% aniqlik bilan xavf segmentlarini farqlash imkoniyati, 32% xavfni kamaytirish natijasi moliyaviy muvozanatni barqarorlashtirishda sezilarli o'rin egallaydi. Biroq bu yondashuvlar har doim ham resurslarga ega bo'lmagan korxonalar uchun to'liq tatbiq etilishi oson emas, bu esa riskni baholash jarayonida texnologik va moliyaviy infratuzilma muammolarini ham ko'rsatadi.

Yana bir muhim xulosa — sun'iy intellektning joriy etilishi bilan bog'liq tahdidlar. 60% kichik biznes korxonasi AI texnologiyalaridan foydalanayotgan bo'lsa-da, 45% bu texnologiyalarga bog'liq xavflarni jiddiy tahdid sifatida qayd etgan. Bu esa har qanday innovatsiyani joriy qilishdan avval kompleks risk baholashini amalga oshirish zarurligini anglatadi. Demak, faqat texnologiyani joriy etish emas, balki unga bog'liq xavflarni oldindan tahlil qilish va mos strategiyalar ishlab chiqish kichik bizneslar uchun ustuvor vazifaga aylanishi kerak. Umuman olganda, xalqaro tajribalar shuni ko'rsatmoqdaki, riskni baholashning integratsiyalashgan modeli — bu nafaqat xavfni kamaytiradi, balki kichik biznes subyektning o'zini himoya qila olish qobiliyatini mustahkamlaydi. Shu bois, O'zbekistonda ham kichik biznes subyektlariga moslashtirilgan, soddalashtirilgan, lekin funksional risk baholash modellarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish dolzarb hisoblanadi.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida shuni xulosa qilish mumkin, kichik biznes subyektlari turli xavf-xatarlarga juda ta'sirchan bo'lib, ularning barqaror faoliyati ko'p jihatdan samarali riskni baholash tizimining mavjudligiga bog'liq. Bugungi raqamli

transformatsiya va bozordagi noaniqliklar sharoitida kichik bizneslar faqatgina oddiy moliyaviy risklar emas, balki kiberxavfsizlik, ta'minot zanjiri buzilishi, inson resurslari bilan bog'liq muammolar, sun'iy intellektning kutilmagan ta'sirlari kabi murakkab xavf omillariga ham duch kelmoqda. Shu bois, xalqaro tajribalarda keng qo'llanilayotgan ISO 31000, FMEA, GMM va boshqa zamonaviy riskni boshqarish metodologiyalarining ahamiyati ortib bormoqda. Ushbu yondashuvlar kichik korxonalar uchun nafaqat tahdidlarni aniqlash, balki ularni ustuvorlik darajasiga ko'ra baholash, bartaraf etish strategiyasini ishlab chiqish hamda monitoring qilish imkonini beradi.

Xalqaro misollar asosida shuni tavsiya qilish mumkin: birinchidan, O'zbekistondagi kichik bizneslar uchun moslashtirilgan, soddalashtirilgan, ammo tizimli risk baholash modelini ishlab chiqish zarur. Bu model ISO 31000 asosidagi asosiy prinsiplarni saqlagan holda, mahalliy resurs va ehtiyojlarga moslashtirilgan bo'lishi kerak. Ikkinchidan, kichik biznes egalari va menejrlari uchun muntazam ravishda risk menejmenti bo'yicha treninglar, seminarlar va amaliy mashg'ulotlar tashkil etilishi lozim. Uchinchi tavsiya — texnologik risklarni baholash uchun raqamli vositalar, ayniqsa, AI asosidagi monitoring tizimlarini joriy etish. Bu vositalar korxonalarga kiberxavfsizlik, moliyaviy turg'unlik va bozordagi o'zgarishlarga moslashishda muhim yordam beradi. To'rtinchidan, hukumat va tijorat banklari kichik bizneslar uchun riskni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda qo'llab-quvvatlovchi moliyaviy mexanizmlarni yo'lga qo'yishi kerak. Oxir-oqibatda, kichik bizneslarda risklarni baholash va boshqarish madaniyatini shakllantirish orqali nafaqat alohida korxonalar, balki umuman mamlakat iqtisodiy barqarorligi va innovatsion salohiyati mustahkamlanadi. Shu sababli, xalqaro tajriba asosida mahalliy yondashuvlar ishlab chiqilib, huquqiy, moliyaviy va texnik qo'llab-quvvatlash tizimi bilan birgalikda amalga oshirilishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bai, Y., & Harith, M. (2023). Financial Risk Analysis in SMEs using Gaussian Mixture Models. *Journal of Small Business and Enterprise Development*, 30(4), 512–526. <https://doi.org/10.1108/JSBED-09-2022-0321>
2. Curtin, G., Murphy, L., & O'Donnell, T. (2024). Cybersecurity Risk Management in Irish SMEs: A Framework-Based Approach. *Journal of Cybersecurity Policy*, 12(2), 134–148.
3. Dieperink, M., Vlek, D., & Tuin, J. (2025). Entrepreneurship, Risk, and Innovation: A Comparative Study of SME Resilience. *European Journal of Business Research*, 38(1), 89–104.
4. El-Hajj, M., & Mirza, A. (2024). Cyber Risk Assessment Tools for SMEs: An MDPI Perspective. *Sustainability*, 16(3), 2024. <https://doi.org/10.3390/su16032024>
5. ISO. (2018). ISO 31000: Risk Management – Guidelines. International Organization for Standardization.
6. Martins, A. S., Silva, M. E., & Costa, F. J. (2021). Integration of ISO 9001:2015 and Risk Management Practices in Brazilian SMEs.

- Quality Management Journal, 28(3), 171–187. <https://doi.org/10.1080/10686967.2021.1899302>
7. Šebestová, J., & Sroka, W. (2023). SMEs in the Face of Risk: Comparative Perspectives from V4 Countries. *Journal of Risk and Financial Management*, 16(5), 227. <https://doi.org/10.3390/jrfm16050227>
8. Verizon Business. (2024). SMB Technology Adoption and Risk Outlook 2024. <https://www.verizon.com/business/resources/reports/smb-tech-risk-2024.pdf>
9. Allianz Global Corporate & Specialty. (2024). Allianz Risk Barometer 2024. <https://commercial.allianz.com/content/dam/onemarketing/commercial/commercial/reports/Allianz-Risk-Barometer-2024.pdf>
10. CPA Australia. (2024). Asia-Pacific SME Survey Report 2024 – India Findings. <https://www.cpaaustralia.com.au>



KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA ULARNI QO'LLAB-QUVVATLASH STRATEGIYALARI

Xudoberganov Qobuljon Mirzatolib o'g'li

Qo'qon universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 15 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1195	Ushbu maqolada O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi holati, ularning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rni, mavjud muammolari hamda istiqbollari keng qamrovda tahlil qilingan. Tadqiqotda rasmiy statistik ma'lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar, xalqaro tajriba hamda mahalliy amaliyotlar asosida tahliliy va qiyosiy yondashuvlar qo'llanilgan. Maqolada kichik biznes subyektlarining iqtisodiy o'sish, yangi ish o'rinlari yaratish, innovatsiyalarni joriy etish va hududiy rivojlanishdagi roli yoritib berilgan. Shu bilan birga, sohadagi infratuzilma, moliyaviy va kadrlar bilan bog'liq dolzarb muammolar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ilgari surilgan. Ushbu ilmiy ish kichik biznesni strategik rivojlantirish yo'nalishlarini belgilashda muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, iqtisodiy islohotlar, davlat qo'llab-quvvatlovi, bandlik, infratuzilma, innovatsiya, moliyaviy mexanizmlar.	

Kirish. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zamonaviy bozor iqtisodiyotining ajralmas bo'g'ini bo'lib, mamlakatlarning iqtisodiy barqarorligi, ijtimoiy muvozanat va bandlikni ta'minlashdagi asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Ularning moslashuvchanligi, innovatsiyalarga tez moslasha olishi, hududiy darajada teng iqtisodiy rivojlanishga xizmat qilishi tufayli bu soha dunyo miqyosida strategik yo'nalish sifatida qaralmoqda.

O'zbekiston ham bu borada istisno emas. So'nggi yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Jumladan, 2017-yildan boshlab amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar jarayonida tadbirkorlik faoliyatini yengillashtirish, moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini kuchaytirish, byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda huquqiy asoslarni mustahkamlash bo'yicha qator qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 17-iyundagi PF-146-sonli Farmoniga muvofiq, "Yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturi" tasdiqlandi¹ va 2023-yilda 150 mingdan ortiq fuqarolar ushbu dasturlar doirasida moliyaviy va infratuzilma qo'llab-quvvatlov oldi.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yil holatiga respublikadagi faol tadbirkorlik subyektlarining 76 foizdan ortig'ini kichik biznes tashkil qilmoqda². Bu subyektlar tomonidan yaratilayotgan yalpi ichki mahsulot (YAIM) ulushi 2023-yilda 56,5% ni tashkil etgan. Bundan tashqari, barcha yangi ish o'rinlarining 70 foizdan ziyodi aynan kichik biznes tomonidan yaratilgani mazkur sektorning bandlik sohasidagi o'rnini yaqqol ko'rsatadi.

Kichik biznes, ayniqsa, qishloq joylarda iqtisodiy faollikni oshirish, kambag'allikni kamaytirish va aholining turmush darajasini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Tadbirkorlik faoliyatining kengayishi bilan birga, aholi o'rtasida mulkdorlik va iqtisodiy mas'uliyat hissi ham shakllanib bormoqda. Bu esa nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy barqarorlikni ham mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shu bilan birga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojiga to'sqinlik qilayotgan ayrim tizimli muammolar — moliyalashtirishga kirish imkoniyatlarining cheklanganligi, soliq yukining nisbiy og'irligi, infratuzilma yetishmovchiligi va malakali ishchi kuchi bilan ta'minlashdagi muammolar — hanuzgacha dolzarbligicha qolmoqda.

Ushbu maqolaning maqsadi — O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hozirgi holatini, ularni rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan davlat siyosati va amaliy chora-tadbirlarni tahlil qilish, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha

takliflar ishlab chiqishdan iboratdir. Shu orqali ushbu sohaning iqtisodiy o'sishdagi rolini yanada kuchaytirish, innovatsion va raqamli iqtisodiyotga o'tishdagi imkoniyatlarini kengaytirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Adabiyotlar tahlili. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi mustaqillik yillaridan beri iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. So'nggi yillarda olib borilayotgan chuqur islohotlar bu sohaga bo'lgan e'tiborni yanada oshirdi va ilmiy-adabiy manbalarda ham ushbu mavzuning dolzarbligi ortdi. Mazkur bo'limda mavjud adabiyotlar asosida kichik biznesning rivojlanish holati, muammolari va istiqbollari tahlil qilinadi.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda asosiy yo'l-yo'riq beruvchi siyosiy-huquqiy manbalar hisoblanadi. Xususan, 2017-yildan buyon kuchga kirgan "Harakatlar strategiyasi", keyinchalik "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi (2022–2026 yillar)da aynan kichik tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, erkin bozor munosabatlarini kengaytirish, kredit resurslariga erkin kirish imkoniyatlarini yaratish kabi muhim yo'nalishlar belgilab berilgan³. Prezidentning 2022-yil 8-avgustdagi PQ-366-sonli qarorida "tadbirkorlikni rivojlantirishga ixtisoslashgan infratuzilma tarmoqlarini kengaytirish" bo'yicha aniq choralari belgilangan⁴.

Statistik manbalar ham ushbu sohaning o'sib borayotganini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi (www.stat.uz) ma'lumotlariga ko'ra, 2023-yil yakuniga kelib, mamlakatda faoliyat yuritayotgan kichik biznes subyektlari soni 600 mingdan oshdi, ularning YAIMdagi ulushi esa 56,5 foizni tashkil etdi.⁵ Bu ko'rsatkich 2017-yildagi 46,3 foiz bilan solishtirilganda, sezilarli o'sishni aks ettiradi. Bu boradagi tahlillar iqtisodiyotning asosiy drayveri sifatida kichik biznesni barqarorlashtirish muhimligini tasdiqlaydi.

Ilmiy adabiyotlarda ham ushbu mavzu keng yoritilmoqda. Masalan, iqtisodchi olim N.Qodirovning "Kichik biznes va uning rivojlanish istiqbollari"⁶ nomli maqolasida (Iqtisodiyot va innovatsiya, 2023) kichik biznesning innovatsion salohiyatini oshirish, ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida uni diversifikatsiyalash zarurligi ta'kidlangan. Muallif kichik biznesda startaplar va IT-loyihalar ulushi kamligini tilga olib, bu borada davlat va oliy ta'lim muassasalari hamkorligini kuchaytirish zaruriyatini asoslagan.

Xalqaro tajribaga nazar solsak, Jahon bankining 2020-yildagi Doing Business hisobotiga ko'ra, O'zbekiston kichik biznesni yuritish uchun qulay muhit bo'yicha 76-o'ringdan 69-o'ringa ko'tarilgan⁷. Bu

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 17-iyun). *Yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirish dasturi to'g'risida* [PF-146-son Farmon]. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/6079393>

² O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). *Statistika to'plami*. <https://www.stat.uz>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022). *Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi 2022–2026-yillar uchun*. Lex.uz. <https://lex.uz>

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2022, 8-avgust). *Tadbirkorlikni rivojlantirishga ixtisoslashgan infratuzilma tarmoqlarini kengaytirish to'g'risida* [PQ-366-son Qaror]. Lex.uz. <https://lex.uz/docs/6123247>

⁵ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. (2024). *Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik statistikasi bo'yicha ma'lumotlar to'plami*. <https://stat.uz>

⁶ Qodirov, N. (2023). *Kichik biznes va uning rivojlanish istiqbollari*. *Iqtisodiyot va innovatsiya*, 3(1), 22–28.

⁷ World Bank. (2020). *Doing Business 2020: Comparing Business Regulation in 190 Economies*. <https://www.doingbusiness.org>

o'zgarish tartibga solishdagi yengilliklar, soliq tizimining soddalashtirilishi va litsenziyalash jarayonlarining optimallashtirilishi bilan izohlanadi. Biroq bu yetarli emas: UNDP (2023)⁸ va IFC (2023)⁹ tomonidan e'lon qilingan hisobotlarda O'zbekistonda tadbirkorlarning kredit olishda duch kelayotgan garov talablari va moliyaviy to'siqlar hali ham dolzarb muammo sifatida saqlanib qolayotgani ta'kidlanadi.

Mahalliy manbalarda esa ijtimoiy jihatlar, xususan, yoshlar va ayollar tadbirkorligini rivojlantirishga alohida urg'u berilgan. "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" doirasida 2023-yilda 300 mingga yaqin fuqaro subsidiyalari, imtiyozli kreditlar va tadbirkorlik uchun zarur bo'lgan jihozlar bilan ta'minlangani haqida manbalar mavjud¹⁰. Ammo tahlillar shuni ko'rsatadiki, bu dasturlarning natijadorligi hali to'liq monitoring qilinmagan va ko'plab holatlarda ularning samaradorligini oshirish uchun tahliliy mexanizmlar yetarli emas.

Qisqa qilib aytganda, mavjud adabiyotlar va manbalar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha aniq siyosiy irodaga ega bo'linmoqda. Biroq bu sohada real o'sishni ta'minlash uchun ilmiy asoslangan strategiyalar, xalqaro tajriba asosida shakllantirilgan infratuzilma va samarali monitoring tizimlari joriy etilishi zarur. Mavjud adabiyotlar ushbu sohada izchil o'rganish va takomillashtirishga katta ehtiyoj borligini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish jarayonlarini chuqur tahlil qilish va real holatni aks ettirish maqsadida kompleks yondashuv asosida bir nechta ilmiy-uslubiy vositalardan foydalanildi. Har bir metod tanlangan mavzuning xususiyatidan kelib chiqib, aniq maqsadlarni ko'zlab qo'llanildi.

Birinchidan, tahliliy uslub asosida rasmiy statistik ma'lumotlar chuqur o'rganildi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Markaziy bank tomonidan e'lon qilingan rasmiy hisobotlar asosida 2017–2024 yillar davomida kichik biznes subyektlari sonining dinamikasi, ularning yalpi ichki mahsulot (YAIM)dagi ulushi, bandlikka qo'shgan hissasi kabi ko'rsatkichlar tahlil qilindi. Statistik tahlillar kichik biznesning makroiqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlashda muhim vosita bo'ldi.

Ikkinchidan, qiyosiy tahlil metodi orqali O'zbekistonning kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha tajribasi boshqa rivojlanayotgan davlatlar, jumladan, Gruziya, Qozog'iston, Polsha kabi mamlakatlar bilan solishtirildi. Bu solishtirma yondashuv orqali xalqaro tajriba asosida mamlakatimizdagi muammolar va imkoniyatlar aniqroq ochib berildi. Jumladan, Gruziyada "bir darcha" tamoyili asosida tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazishning soddaligi yoki Polshada kichik biznesni soliqdan ozod qilishning vaqtinchalik mexanizmi O'zbekiston uchun o'rnak sifatida ko'rib chiqildi.

Uchinchidan, hujjatli tahlil metodi asosida so'nggi yillarda qabul qilingan asosiy normativ-huquqiy hujjatlar, Prezident farmon va qarorlari, Oliy Majlisda muhokama qilingan qonunchilik tashabbuslari o'rganildi. Ayniqsa, 2021–2024 yillar oralig'ida qabul qilingan kichik biznesni moliyaviy, soliq va infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlashga doir qarorlar asosiy tahlil obyekti bo'ldi. Bu yondashuv kichik biznesni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining evolyutsiyasini tushunishga yordam berdi.

Nihoyat, sotsiologik yondashuv orqali real amaliy muammolarni aniqlashga harakat qilindi. Bu borada ijtimoiy tarmoqlar, rasmiy OAV, iqtisodiy portallar va tadbirkorlar bilan o'tkazilgan intervyulardan foydalanildi. Xususan, "Kun.uz", "Spot.uz", "Gazeta.uz" kabi portallarda chop etilgan maqolalar va muvaffaqiyatli tadbirkorlar bilan suhbatlar orqali kichik biznes vakillarining fikrlari, muammolari va ehtiyojlari aniqlab olindi. Bu esa rasmiy statistik ma'lumotlarni amaliy hayotdagi holatlar bilan solishtirish imkonini berdi.

Tadqiqotda foydalanilgan barcha ma'lumotlar ishonchli manbalar — O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi, Markaziy bank, Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi, Savdo-sanoat palatasi hamda xalqaro tashkilotlar (Jahon banki, UNDP, IFC) tomonidan e'lon qilingan hisobotlar asosida shakllantirildi.

Shunday qilib, tanlangan metodologik yondashuv tadqiqotning obyektivligini, chuqurligini va real holatni to'laqonli aks ettirishini ta'minlashga xizmat qildi. Bu esa maqolaning ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish va amaliy tavsiyalar berish imkonini yaratdi.

Tadqiqot natijalari. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati so'nggi yillarda sezilarli darajada samaradorlik kasb etmoqda. Olib borilgan tahliliy va statistik izlanishlar asosida aniqlanishicha, ushbu sektor nafaqat iqtisodiy o'sishning muhim harakatlantiruvchi kuchi, balki ijtimoiy barqarorlik va bandlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynamoqda.

Eng muhim natijalardan biri shuki, 2024-yil yakuniga kelib, respublikada faoliyat yuritayotgan barcha tadbirkorlik subyektlarining **76 foizi** aynan kichik biznes subyektlariga to'g'ri keldi. Bu raqam kichik biznesning iqtisodiyotdagi salmog'i ortib borayotganidan dalolat beradi. Bu ko'rsatkich 2017-yilda 65% atrofida bo'lganini inobatga olsak, so'nggi yillarda o'sish sur'atining yuqoriligi ko'rinadi.

Shuningdek, bandlik darajasining oshishi ham kichik tadbirkorlik faoliyatining eng muhim natijalaridan biridir. Bugungi kunda O'zbekistonda mehnatga layoqatli aholining **70% dan ortig'i** kichik biznes subyektlarida faoliyat yuritmoqda. Bu nafaqat yangi ish o'rinlari yaratilayotganini, balki aholi daromad manbalarining kengayib borayotganini ham anglatadi. Ayniqsa, kichik korxonalar qishloq joylarda faoliyat olib borayotgani tufayli ularning ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni ta'minlashdagi roli muhim ahamiyatga ega.

1-jadval.

Kichik biznes subyektlarining yillik o'sish dinamikasi (2017–2024)

Yil	Faol subyektlar soni (ming)	YAIMdagi ulushi (%)	Bandlikdagi ulushi (%)
2017	390	46.3	60
2018	420	48.1	62
2019	450	50.7	64
2020	470	52.5	66
2021	510	54.0	67
2022	550	55.2	68
2023	580	56.5	70
2024 (prognoz)	610	57.8	71

Yana bir ijobiy natija — **eksport** salohiyatining ortib borayotganidir. 2023–2024-yillarda kichik biznes subyektlari tomonidan eksport qilingan mahsulotlar umumiy eksportning **25 foizini** tashkil qildi. Aholining innovatsion fikrlash darajasi, mahsulot sifati va mahalliy resurslardan oqilona foydalanish evaziga eksport geografiyasi ham kengaymoqda. Kichik korxonalar tomonidan tayyorlanayotgan to'qimachilik, qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat, qurilish materiallari, IT

xizmatlari kabi mahsulot va xizmatlar xorijiy bozorlar uchun ham raqobatbardosh bo'lib bormoqda.

Bundan tashqari, innovatsion mahsulot ishlab chiqarishdagi ishtirok ham ortib bormoqda. Xususan, 2023-yildan boshlab "Texnoparklar" va "Startup inkubatorlar" tizimi doirasida kichik biznes subyektlari uchun yangi imkoniyatlar yaratildi. Bu orqali yoshlar va texnologiyaga qiziqqan mutaxassislar o'z g'oyalarni real biznesga aylantirish imkoniga ega bo'ldilar.

⁸ United Nations Development Programme (UNDP). (2023). *Entrepreneurship and Youth Inclusion in Uzbekistan*. <https://www.uz.undp.org>
⁹ International Finance Corporation (IFC). (2023). *Uzbekistan: Country Private Sector Diagnostic*. <https://www.ifc.org>

¹⁰ Lex.uz. (2023). "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" dasturlari asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlash to'g'risida. <https://lex.uz>

Ammo o'tkazilgan tahlillar ushbu sohada hanuzgacha qator tizimli muammolar mavjudligini ham ko'rsatdi. Jumladan, ayrim hududlarda infratuzilmaning yetarli emasligi — yo'l, elektr energiyasi, internet va logistika kabi omillar — kichik biznes faoliyatini to'liq rivojlantirishga to'sqinlik qilmoqda. Bu, ayniqsa, olis va chekka qishloq hududlarida kuchli sezilmoqda.

Bundan tashqari, moliyalashtirish tizimining nomutanosibligi ham muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Tahlillarga ko'ra, kichik tadbirkorlarning katta qismi hali ham bank kreditlariga erkin kirish imkoniyatiga ega emas. Garov talablari, foiz stavkalari, hujjat topshirish jarayonining murakkabligi — ayniqsa, yangi boshlovchi tadbirkorlar uchun jiddiy to'siqlarga aylanmoqda.

Yana bir dolzarb masala bu — axborot texnologiyalaridan foydalanish darajasining pastligi. Raqamli xizmatlar, onlayn savdo, elektron to'lov tizimlari va CRM platformalarning keng joriy etilmaganligi natijasida ko'plab kichik biznes subyektlari raqobatda orqada qolmoqda. Bu, ayniqsa, pandemiya davrida yaqqol namoyon bo'ldi.

Va nihoyat, yoshlar va ayollar tadbirkorligi yetarlicha faollashmagan. Davlat tomonidan e'tibor kuchaygan bo'lsa-da, amaliyotda ko'plab yoshlar va ayollar o'z biznesini boshlash uchun zarur bilim, tajriba va resurslarga ega emas. Ularning ko'p qismi tadbirkorlikka ruxsat olish, soliq tizimini tushunish, marketingni yo'lga qo'yish kabi masalalarda murakkabliklarga duch kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, tadqiqot natijalari O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida sezilarli o'sish va ijobiy o'zgarishlar kuzatilayotganini tasdiqlaydi. Biroq ushbu salohiyatni to'liq ro'yobga chiqarish uchun tizimli muammolarni hal etish, mahalliy infratuzilmani rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish va moliyaviy vositalarga kirish imkonini yanada kengaytirish zarur.

Muhokama. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiy o'sishning barqaror omiliga aylanib bormoqda. Ushbu sektor bugungi kunda mamlakat yalpi ichki mahsulotining yarmidan ko'pini yaratmoqda, bandlikning katta qismini ta'minlamoqda va eksport salohiyatini oshirishda faol ishtirok etmoqda. Mazkur jarayonlarda hukumat tomonidan shakllantirilgan ijobiy siyosiy va huquqiy muhit muhim o'rin tutmoqda.

Jumladan, "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari" dasturlari orqali yoshlar va xotin-qizlarga alohida e'tibor qaratilayotgani, ular uchun subsidiya, imtiyozli kredit, texnik uskunalar va yer maydonlari ajratilayotgani ijtimoiy qatlamlar o'rtasida iqtisodiy faollikni rag'batlantirishga xizmat qilmoqda. 2023-yil davomida ushbu dasturlar doirasida 300 mingdan ortiq fuqaro moliyaviy va infratuzilmaviy ko'makdan foydalangan, bu esa tadbirkorlikning demokratiklashtirilishini ta'minlashda muhim qadam bo'ldi.

1-jadval.

Kichik biznes rivoji uchun yaratilgan yengilliklar va imtiyozlar (2022–2024)

Yil	Imtiyoz turi	Qamrovi	Foydalanuvchilar soni (ming)
2022	Soliq yengilliklari	Sanoat va xizmat ko'rsatish	120
2023	Imtiyozli kreditlar	Yoshlar va ayollar tadbirkorligi	180
2023	Subsidiyalar	Qishloq tadbirkorligi	95
2024	Er maydonlari ajratilishi	Mahalliy ishlab chiqaruvchilar	60

Shu bilan birga, mavjud tahlillar ushbu yo'nalishda tizimli yondashuv yetishmayotganini ham ko'rsatmoqda. Davlat tomonidan berilayotgan yordamlar ko'pincha qisqa muddatli, manzilli va subyektiv baholarga asoslangan bo'lib, uzoq muddatli strategik rivojlanish modeliga asoslanmagan. Ayrim hollarda hududiy hokimiyatlar va banklar tomonidan tadbirkorlarga nisbatan turlicha yondashuvlar, hujjatlashtirishdagi ortiqcha talablar va byurokratik kechikishlar tadbirkorlik faolligini cheklamoqda.

Innovatsion infratuzilmaning zaifligi ham bu sohaning to'liq rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda. Respublikada texnoparklar va biznes-inkubatorlar mavjud bo'lsa-da, ularning hududiy taqsimoti nomutanosib, resurslar va tajriba almashinuvi cheklangan. Ko'plab yoshlar yoki yangi tadbirkorlar uchun zarur texnologik baza, maslahat xizmati, yoki bozor bilan bog'lanish imkoniyatlari yetarli emas. Shu sababli, aksariyat kichik biznes subyektlari an'anaviy, kam rentabelli faoliyat turlariga bog'lanib qolmoqda.

Xalqaro tajribaga murojaat qilsak, rivojlangan mamlakatlar — xususan, Janubiy Koreya, Singapur va Polsha tajribasi — kichik biznesni rivojlantirishda **klasterlash**, **innovatsion inkubatsiya markazlari**, va **davlat-xususiy sheriklik** mexanizmlarining yuqori samara berganini ko'rsatadi. Masalan, Janubiy Koreyada kichik texnologik startaplar uchun maxsus "Smart Valley" hududlari tashkil etilgan bo'lib, ular yirik universitetlar, ilmiy markazlar va investorlar bilan integratsiya qilingan. Bu esa bilimlar almashinuvi va tez innovatsion o'sish uchun zamin yaratgan.

O'zbekistonda esa hali ham kichik biznes subyektlarining yirik sanoat korxonalari bilan klaster asosida ishlashi keng yo'lga

qo'yilmagan. Shuningdek, bank tizimining konservativ yondashuvi — yangi biznes uchun kredit berishdagi ehtiyotkorlik — o'z salohiyatini to'liq ko'rsata olmagan tadbirkorlar uchun moliyalashtirish imkoniyatlarini cheklamoqda. Raqamli texnologiyalarning sekin joriy qilinayotgani esa bozordagi raqobatda kichik subyektlarni zaiflashtirmoqda.

Muhokama jarayonida, shuningdek, quyidagi muhim jihatlar aniqlandi:

- Tadqiqotlar natijasi va davlat strategiyalari o'rtasida bog'liqlik mavjud, biroq bu strategiyalarni amalga oshirishda hududiy notekislik muammosi saqlanib qolmoqda;
- Iqtisodiy samaradorlikni oshirish uchun kichik biznesda mahsulot sifatiga, eksportboplikka va innovatsion faoliyatga urg'u berish zarur;
- Tadbirkorlar uchun muntazam ta'lim, maslahatchilik va mentorlik tizimlari sust rivojlangan, bu esa startap va yangi bizneslar uchun muhim bo'g'in hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiyotida yetakchi o'rinni egallashga tayyor, biroq bu salohiyatni to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun chuqur strategik yondashuv, xalqaro tajribadan foydalangan holda samarali institutsional tizimlar va uzoq muddatli qo'llab-quvvatlash mexanizmlari zarur. Bu yo'nalishdagi keyingi qadamlarda ilmiy asoslangan, tarmoqlararo integratsiyalashgan yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi.

2-jadval

Kichik biznes rivoji uchun yaratilgan yengilliklar va imtiyozlar (2022–2024)

Yil	Imtiyoz turi	Qamrovi	Foydalanuvchilar soni (ming)
2022	Soliq yengilliklari	Sanoat va xizmat ko'rsatish	120
2023	Imtiyozli kreditlar	Yoshlar va ayollar tadbirkorligi	180
2023	Subsidiyalar	Qishloq tadbirkorligi	95
2024	Er maydonlari ajratilishi	Mahalliy ishlab chiqaruvchilar	60

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari va tahlillar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biri bo'lib, mamlakatning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlashda beqiyos ahamiyatga ega. Bu sektor nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlarning yaxshilanishiga, balki aholining bandligi, hududiy tenglik, eksport salohiyatining oshishi va ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka ham sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmoqda.

So'nggi yillarda kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan hukumat siyosati, xususan Prezident farmonlari, soliq yengilliklari, kredit mexanizmlari, subsidiyalar va dastlabki infratuzilma yaratish tashabbuslari sezilarli ijobiy natijalar berdi. "Ayollar daftari", "Yoshlar daftari", "Tadbirkorlar maktabi" kabi dasturlar orqali ijtimoiy qatlamlar faollashtirilib, ularning iqtisodiy hayotdagi ishtiroki kengaytirildi.

Biroq ushbu sohaning salohiyatini to'liq amalga oshirish uchun hali mavjud muammolarni bartaraf etishga ehtiyoj bor. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, infratuzilmaning rivojlanmaganligi, moliyaviy resurslarga cheklangan kirish, raqamli savodxonlikning pastligi, innovatsion yondashuvlarning sustligi va hududlar o'rtasidagi nomutanosibliklar kichik biznesning keng ko'lamli rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Shu asosda quyidagi tavsiyalar ishlab chiqildi:

Tadbirkorlikka oid barcha xizmatlarni yagona raqamli platformada jamlash– litsenziyalash, ro'yxatga olish, soliq to'lovlari, kredit olish, hisobot topshirish kabi jarayonlarni birlashtirgan onlayn tizim kichik biznes vakillariga qulaylik yaratadi va byurokratik to'siqlarni kamaytiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari. www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi. www.stat.uz
3. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari./ T-"Mehnat", -2020y, Y.Abdullayev
4. World Bank. Doing Business 2020 Report.
5. UNDP Uzbekistan. "Entrepreneurship and Youth Inclusion", 2023.
6. Fayziyeva, A. A. (2024). O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari. Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil, 8, 37-41.
7. Xursanaliyev, B. (2024). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishida xorijiy tajriba. Qo'qon Universiteti xabarnomasi, 10(10), 21-24
8. Юсупов А.А. ЭФФЕКТИВНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ЧЕЛОВЕЧЕСКИХ РЕСУРСОВ НА СУБЪЕКТАХ МАЛОГО

Солік ва мольавіі імпіюзларні һудудіі дїфференціаллаш– іқтїсодіі јіһатдан кам рівіојланған вїлоятлар ва туманларда фаоліят јурїтаётған кїчїк бізнєс субьєктларї учун солїк ставкalarını пасайтіріш, імпіюзлі кредит муддатларını узайтіріш орқалї һудудіі тенглікні та'мінлаш мумкін.

Іноватсіон інфратузїлманї рівіојлантіріш ва стартаплар фаолїятїні қо'ллаб-қувватлаш– технопарклар, ІТ-їнкубаторлар, mentorlik dasturlari, davlat-grant asosidagi texnologik loyiha tanlovlari orqali yangi texnologiyalar asosida faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni rag'batlantirish zarur.

Ayollar va yoshlar tadbirkorligi uchun alohida strategik dasturlar ishlab chiqish– ularning tadbirkorlik ko'nikmalarini oshirish, moliyaviy savodxonlikni kuchaytirish, mentorlik va tarmoq yaratish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ijtimoiy tenglikni mustahkamlash mumkin.

Davlat-xususiy sheriklik asosida infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish– sanoat zonalari, logistika markazlari, texnoparklar kabi strategik obyektlarni davlat va xususiy sektor hamkorligida tashkil etish tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashda uzoq muddatli natijalarni ta'minlaydi.

Umuman olganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi — O'zbekiston iqtisodiyotining sog'lom va barqaror o'sishiga xizmat qiluvchi strategik yo'nalishdir. To'g'ri siyosiy yondashuv, zamonaviy infratuzilma, xalqaro tajriba asosida shakllantirilgan mexanizmlar va ilmiy asoslangan qarorlar orqali bu sohada ulkan natijalarga erishish mumkin.

ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВА // Экономика и социум. 2023. №4-1 (107). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/effektivnoe-ispolzovanie-chelovecheskih-resursov-na-subektah-malogo-predprinimatelstva> (дата обращения: 08.01.2024).

9. Yusupov.A.A. (2024). Kichik biznesda inson resurslaridan samarali foydalanishning muhim mexanizmlari *University Research Base*, 988-991

10. Xudoberganov, Q. (2024). KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING MILLIY IQTISODIYOTDAGI O'RNI VA HUKUMATNING SOHA RIVOJIGA OID CHORA-TADBIRLARI. *University Research Base*, 352–354. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/530>

11. Xudoberganov, Q., & Turg'unbayeva, M. (2025). SAMARQANDDAGI BUYUK IPAK YO'LI TURIZM MARKAZI: YANGI INFRATUZILMA VA XALQARO SAYYOHLIK OQIMI. *University Research Base*, 104–107. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/830>



MINTAQAVIY TAFOVUTLAR VA IQTISODIY RIVOJLANISHDA INVESTITSIYALAR O'RNI

Yormonqulova Nargiza Ikromjon qizi

Qo'qon Universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi,

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti tayanch doktoranti

nargizayormonqulova@gmail.com

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil

Jurnal soni: 15

Maqola raqami: 16

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1196>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada O'zbekiston hududlari misolida mintaqaviy tafovutlar muammosi va ularni bartaraf etishda investitsiyalar, kichik tadbirkorlik subyektlari va aholiga to'g'ri keluvchi jami daromadning o'rni o'rganiladi. Mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tengsizliklar ijtimoiy barqarorlik, infratuzilma rivoji hamda mehnat resurslarining samarali taqsimoti kabi ko'plab omillarga ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida investitsiyalarning mintaqaviy iqtisodiy ko'rsatkichlarga qanday ta'sir qilayotgani, investitsiyalar yo'naltirilgan hududlar va kam e'tibor qaratilgan mintaqalar o'rtasidagi farqlar statistik ko'rsatkichlar yordamida tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari investitsiya siyosatini mintaqaviy rivojlanish strategiyalar bilan uyg'unlashtirish zarurligini ko'rsatadi. Xulosa qismida esa mavjud muammolarning yechimi sifatida davlat tomonidan amalga oshirilishi lozim bo'lgan tizimli chora-tadbirlar taklif etiladi.

Kirish. Mintaqaviy tafovutlar har bir davlatning ichki iqtisodiy rivojlanishida muhim omillardan biridir. Aholi zichligi, tabiiy resurslar, ishlab chiqarish salohiyati, infratuzilma darajasi va investitsiyalarning yo'naltirilishi kabi omillar mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy tafovutlarning shakllanishiga sabab bo'ladi. O'zbekiston misolida olsak, Toshkent shahri va viloyati, Buxoro, Navoiy kabi sanoati rivojlangan hududlar bilan, masalan, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Surxondaryo yoki Jizzax viloyatlaridagi iqtisodiy faoliyat darajasi o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. 2024-yil statistik ma'lumotlariga ko'ra, yalpi hududiy mahsulot hajmi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahrida qayd etilgan bo'lsa, ba'zi viloyatlarda bu ko'rsatkich o'rtacha darajadan ancha past bo'lgan.

Bu tafovutlar faqat iqtisodiy ko'rsatkichlarda emas, balki yashash darajasi, ish bilan bandlik, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimi kabi ijtimoiy sohalarida ham namoyon bo'ladi. Shunday ekan, mintaqaviy tafovutlarni kamaytirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida investitsiyalarni hududiy teng taqsimlashni talab etadi. Ushbu maqolada aynan investitsiyalarning mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini tahlil qilish orqali ushbu masalaga ilmiy yondashuv taklif etiladi.

Adabiyotlar tahlili. Barro, Sala-i-Martin (1992) tomonidan olib borilgan klassik tadqiqotlarda investitsiyalar iqtisodiy o'sishning asosiy omili sifatida qayd etilgan. Ular Solow modeliga tayanib, investitsiyalar hajmidagi oshish uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni tezlashtirishini ilmiy asoslab berishgan.

Jahon banki (World Bank Development Indicators, 2022) ma'lumotlarida ham bevosita xorijiy investitsiyalar (BXI) bilan yalpi ichki mahsulot (YalM) o'rtasida ijobiy korrelyatsiya mavjudligi ko'rsatilgan. Ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda BXI hisobiga infratuzilma va sanoat rivojlanmoqda.

Krugman (1991) o'zining "New Economic Geography" modelida iqtisodiy faoliyatning makon bo'yicha notekis taqsimlanishi, ya'ni "regional inequality" tushunchasini izohlab bergan. Unga ko'ra, asosiy ishlab chiqarish markazlari atrofida konsentratsiyalashuv mintaqaviy tafovutlarni kuchaytiradi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi (2022) tomonidan e'lon qilingan "Hududiy rivojlanish strategiyasi"da mamlakatda mavjud mintaqaviy tafovutlar aniq raqamlar bilan ko'rsatib o'tilgan. Misol uchun, Toshkent shahri va viloyatida aholi jon boshiga YHM 25 mln so'mni tashkil qilsa, bu ko'rsatkich Surxondaryoda 11 mln so'mga teng.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda miqdoriy usullar qo'llanildi. Asosiy ma'lumotlar manbai sifatida O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligi, Moliya vazirligi, Jahon banki va boshqa ochiq manbalar ishlatildi. Tahlil uchun 2018–2024-yillar oralig'idagi mintaqaviy ma'lumotlar tanlab olindi.

Tahlil usullari:

Deskriptiv tahlil: investitsiyalar hajmi va iqtisodiy o'sish sur'atlari bo'yicha hududlar taqqoslandi;

Gini koeffitsienti va Theil indeksi: iqtisodiy resurslar taqsimotidagi tengsizlikni baholash;

Panel regressiya modeli: investitsiyalar hajmi va YalM (Yalpi hududiy mahsulot) o'sishi o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi;

Konvergensiya tahlili (beta-konvergensiya): kamroq rivojlangan hududlarning rivojlanish sur'atlari tezlashayotganini aniqlash uchun ishlatildi.

Tadqiqot natijalari. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 2021–2024-yillardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmini hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak, har bir hududning Yalpi hududiy mahsuloti yillar davomida o'sganligini ko'rishimiz mumkin. 2021-yilda bu ko'rsatkich bo'yicha eng yuqori hajmga ega bo'lgan hududlar Toshkent shahri, Toshkent viloyati hamda Navoiy viloyatlari hisoblanadi. 2024-yilga borib esa, bu hududlardagi Yalpi hududiy mahsulot hajmi Toshkent shahri 281147.4 mlrd.so'm, Toshkent viloyati 146385.2 mlrd.so'm va Navoiy viloyati 117297.8 mlrd.so'mga oshgan va eng yuqori hajmni qayd etgan. Eng quyi ko'rsatkichlar esa 2021-yilda Sirdaryo, Jizzax va Xorazmga to'g'ri kelgan. 2024-yilga kelib ushbu hududlarning Yalpi hududiy mahsulot hajmi oldingi yillarga nisbatan oshgan bo'lsada, boshqa hududlarga nisbatan eng past ko'rsatkichni qayd etgan.


1-jadval

Yillar kesimida Yalpi hududiy mahsulot hajmi (joriy narxlarda, mlrd.so'm)

No	Hududlar	2021	2022	2023	2024
1	O'zbekiston Respublikasi	820536.6	995573.1	1204485	1454574
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	29738.2	35541.6	39166.2	45658.5
3	Andijon viloyati	48894.3	62981.4	77337.9	90522.1
4	Buxoro viloyati	43069.7	51728	61242.6	71560.4
5	Jizzax viloyati	25632.4	30367	37383.2	43057.9
6	Qashqadaryo viloyati	49397.5	57629.1	68648.6	80658.3

7	Navoiy viloyati	61118.4	71994.1	88215.4	117297.8
8	Namangan viloyati	40269.1	48513.7	58173.7	68915.7
9	Samarqand viloyati	59260.4	68988.6	83149.5	99866.1
10	Surxondaryo viloyati	33591.1	39201.8	46999.2	54354.1
11	Sirdaryo viloyati	16865.1	20155.6	24001.7	28003.3
12	Toshkent viloyati	91317.3	103244.8	121442.6	146385.2
13	Farg'ona viloyati	55831.9	65516.9	78009	91333
14	Xorazm viloyati	29737.2	37474.3	43666.7	51261
15	Toshkent shahri	139396.8	172469.3	215099.2	281147.4

Ushbu jadvalni grafik ko'rinishda quyidagicha aks ettirish mumkin:



Hududlarning iqtisodiy rivojlanishida o'sha hududlarga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi muhim omillardan biri hisoblanadi. Investitsiyalar kiritilishi natijasida iqtisodiy muhitning yaxshilanishiga, ishchi o'rinlarining ko'payishiga, talabning yetarli darajada qondirilishiga olib keladi. Mamlakatimizda investitsiyalarga oid ko'plab qaror va qonunlarning zahirida yotgan asosiy maqsad ham mintalardagi tafovutlarni kamaytirish, iqtisodiy jihatdan ortda

qolayotgan hududlarda investitsion muhitni rivojlantirish va o'sha hududning infratuzilmasini yaxshilashga qaratilgan.

Quyidagi jadvalda mamlakatimiz hududlarida yillar kesimida kiritilayotgan asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati keltirilgan, yillar davomida investitsiyalarning o'sish sur'ati ortib borsa, hududning Yalpi hududiy mahsuloti hajmining ham o'sishi kuzatiladi.

2-jadval

Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati (yillik)(foizda)

No	Hududlar	2020	2021	2022	2023
1	O'zbekiston Respublikasi	95.6	102.9	100.2	123.4
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	69.9	105.1	114.9	116.6
3	Andijon viloyati	110.6	106	116.5	121.2
4	Buxoro viloyati	104.7	147.4	94.2	132.2
5	Jizzax viloyati	147.4	72.4	104.6	134.1
6	Qashqadaryo viloyati	76.5	77.8	80	117.7
7	Navoiy viloyati	77.1	86	109.4	136.3
8	Namangan viloyati	88	100.5	104.2	121.3
9	Samarqand viloyati	128.8	98.7	111.6	127.8
10	Surxondaryo viloyati	77.4	109.7	87.5	148.3
11	Sirdaryo viloyati	111.2	107.7	135.1	117.7
12	Toshkent viloyati	92.2	120.3	110.7	121.1
13	Farg'ona viloyati	113.5	105.7	112.4	120.1
14	Xorazm viloyati	92.7	139.3	94.2	121
15	Toshkent shahri	108.6	105	87.2	115.8

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rishimiz mumkinki, hududlar kesimida asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'ati 2020-yilda Jizzax viloyatida 147.4 foizni, Samarqand viloyatida 128.8 foizni hamda Farg'ona viloyatida 113.5 foizni tashkil qilgan va eng

yuqori ko'rsatkichni qayd etgan. Eng past ko'rsatkichlar esa Qoraqalpog'iston, Qashqadaryo va Navoiy viloyatlariga to'g'ri kelgan.

2023-yilga kelib esa, eng yuqori ko'rsatkich Surxondaryo, Navoi va Jizzax viloyatlariga, eng past ko'rsatkich esa Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi va Sirdaryo viloyatlariga to'g'ri kelgan.



Aholini ish bilan ta'minlash ularning daromadlarini oshishiga, xarid qobiliyatini, turmush tarzini yaxshilashga, talabni yetarlicha ta'minlashga, yakunida esa Yalpi ichki mahsulotni oshishiga olib keladi. Ishsizlikni kamaytirish yoxud aholini ish bilan bandligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o'rni va ahamiyati katta. Gapimizning isboti tariqasida quyida jadvalni keltirishimiz mumkin. Ushbu jadvalda kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi foizlarda keltirilgan.

2020-yilda O'zbekiston bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi 74.5 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 74 foizga tushgan. Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi eng yuqori bo'lgan hududlar 2020-yilda Samarqand, Namangan va Andijon viloyatlari hisoblanadi. 2023-yilda ham bu holat o'zgarmagan.

3-jadval

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami bandlikdagi ulushi (foiz)

№	Hududlar	2020	2021	2022	2023
1	O'zbekiston Respublikasi	74.5	74.5	73.9	74
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	74.2	74.2	74.1	74.5
3	Andijon viloyati	80.8	80.7	80.2	80.7
4	Buxoro viloyati	74.9	74.2	74.3	74.5
5	Jizzax viloyati	78.4	78.8	77.3	77.1
6	Qashqadaryo viloyati	78.1	78.5	78.2	78.1
7	Navoiy viloyati	51.9	52.3	51.1	52.1
8	Namangan viloyati	81.6	82.2	81	80.9
9	Samarqand viloyati	81.7	81.5	80.9	81.1
10	Surxondaryo viloyati	78.2	78.4	76.9	76.8
11	Sirdaryo viloyati	74.5	74.4	72.9	71.9
12	Toshkent viloyati	70.8	69.8	70	70.6
13	Farg'ona viloyati	78.4	78.5	78.7	79.1
14	Xorazm viloyati	79.3	79.1	78.1	78.5
15	Toshkent shahri	49.7	50.2	50	49.4

Aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi umumiy daromadlar hajmi hududlar kesimida bir-biridan farq qiladi, bu esa hududlardagi talab va taklifga, narxga ta'sir ko'rsatadi. Mintaqalardagi asosiy tafovutlardan biri ham aynan shu hisoblanadi. Hududlar kesimida aholi daromadlarini

tahlil qiladigan bo'lsak, 2021-yilda eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri, Navoiy viloyati va Buxoro viloyatlariga to'g'ri kelgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu holat o'zgarmagan.

Aholi jon boshiga umumiy daromadlar hajmi (hududlar kesimida, ming so'mda)

No	Hududlar	2021	2022	2023	2024
1	O'zbekiston Respublikasi	15421.7	18373.9	20764.5	24111.9
2	Qoraqalpog'iston Respublikasi	11731.8	13779.1	15037.5	16858
3	Andijon viloyati	13449.7	16443.6	19236.1	21926.3
4	Buxoro viloyati	18910	22320.7	24267.7	27508
5	Jizzax viloyati	13668.5	15567.4	17389.2	19435.1
6	Qashqadaryo viloyati	12597.9	15054.4	16366.7	18473.5
7	Navoiy viloyati	25887.5	28358.1	32537	38112.3
8	Namangan viloyati	11915.5	14415.1	15291.1	16849
9	Samarqand viloyati	13231.2	15721	16701.5	19215.4
10	Surxondaryo viloyati	12282.4	15031.9	16205.8	17880
11	Sirdaryo viloyati	13185.1	15028.4	16954.9	19036.5
12	Toshkent viloyati	16957.8	19122.6	21563.1	25123.3
13	Farg'ona viloyati	11741	14350.6	17320.7	19119.9
14	Xorazm viloyati	16292.2	20155.2	20509.2	23410.8
15	Toshkent shahri	31502	38143.6	47183.4	60594.4

Xulosa va takliflar. Investitsiyalar har qanday hududning iqtisodiy taraqqiyotida hal qiluvchi omil bo'lib, ularning miqdori va taqsimlanishiga qarab mintaqalardagi ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlar shakllanadi. O'zbekiston misolida olib qaralganda, investitsiyalar hajmining ortishi yalpi hududiy mahsulot (YHH) o'sish sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. 2021–2024 yillar davomida YHHning sezilarli darajada oshgan hududlari – Toshkent shahri, Toshkent viloyati va Navoiy viloyati – investitsiyalarning eng yuqori miqdorda yo'naltirilgan mintaqalari sifatida ajralib turadi.

Shuningdek, asosiy kapitalga investitsiyalarning yillik o'sish sur'atlari ham hududiy farqlarni namoyon etadi. Misol uchun, 2023-yilda Surxondaryo viloyatida 148,3% darajasida qayd etilgan yuqori o'sish sur'ati bu hududda iqtisodiy faollikning ortib borayotganidan darak beradi. Aksincha, Toshkent shahri va Qoraqalpog'iston Respublikasida investitsiyalar o'sish sur'ati nisbatan past bo'lib, bu esa ushbu hududlarda iqtisodiy rivojlanish sekinlashuvining mumkin bo'lgan xavfini bildiradi.

Investitsiyalar iqtisodiyotda nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshiradi, balki mehnat bozoriga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Kichik tadbirkorlik subyektlariga yo'naltirilgan investitsiyalar bandlik darajasining oshishiga, aholining daromad manbalarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. Masalan, Namangan, Samarqand va Andijon viloyatlarida kichik tadbirkorlik subyektlari jami bandlikdagi ulushi 80% dan yuqori bo'lib, bu investitsiyalarning to'g'ri yo'naltirilganligini ko'rsatadi.

Investitsiyalarning ijtimoiy samarasi ham aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi daromadlar orqali o'z aksini topadi. Toshkent shahri, Navoiy va Buxoro viloyatlarida daromad darajasining yuqoriligi bu hududlarda iqtisodiy infratuzilma, ish o'rinlari va xizmatlar sohasi rivojlanganini tasdiqlaydi. Bu esa o'z navbatida, investitsiyalar iqtisodiy tengsizliklarni kamaytirishda muhim rol o'ynayotganini ko'rsatadi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, investitsiyalarni adolatli va strategik taqsimlash orqali nafaqat iqtisodiy faollikni, balki ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash mumkin. Shunday ekan, investitsiyalarning hududiy iqtisodiy o'sishga ta'siri chuqurroq o'rganilishi va davlat siyosatida markaziy o'rin egallashi lozim.

Yuqoridagi tahlillar asosida shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekiston hududlari o'rtasida mavjud iqtisodiy tafovutlar iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari, investitsiyalarning taqsimlanishi, kichik

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yormonqulova, N. (2024). YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISHNING AHAMIYATI VA O'ZBEKISTONDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH STRATEGIYASI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11(11), 44–47. <https://doi.org/10.54613/ku.v11i11.951>
2. Yormonqulova, N. (2024). IQTISODIY O'SISH OMILLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA BARQAROR RIVOJLANISHGA ERISHISH. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 10(10), 109–112. <https://doi.org/10.54613/ku.v10i10.922>
3. Yormonqulova Nargiza. (2024). BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDA MEHNAT RESURLARI VA AHO

tadbirkorlik faolligi va aholi daromadlari darajasida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, Toshkent shahri va ba'zi sanoati rivojlangan viloyatlar (Navoiy, Toshkent viloyati, Buxoro) mintaqaviy iqtisodiyotda yetakchi o'rinlarni egallab turgani kuzatiladi.

Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki: Yalpi hududiy mahsulot hajmi 2021–2024 yillarda barcha hududlarda ortgan bo'lsada, o'sish sur'atlari va umumiy hajmi bo'yicha hududlar o'rtasida katta tafovut mavjud. Asosiy kapitalga investitsiyalarning o'sish sur'atlari bevosita YHM hajmiga ta'sir ko'rsatmoqda. Investitsiyalarning yuqori bo'lgan hududlarida iqtisodiy ko'rsatkichlar ijobiy tomonga o'zgargani kuzatilmoqda. Kichik tadbirkorlik subyektlarining bandlikdagi ulushi aholini ish bilan ta'minlash va iqtisodiy faollikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Samarqand, Namangan va Andijon viloyatlarida bu ko'rsatkich yuqoriligi qolmoqda. Aholi jon boshiga daromadlar esa hali-hanuz keskin farqlanmoqda. Eng yuqori daromad Toshkent shahrida 60,5 mln so'mni tashkil etsa, boshqa hududlarda bu ko'rsatkich bir necha barobar past bo'lgan.

Tizimli muammolar: Investitsiyalarning maqsadli taqsimlanmasligi; Infratuzilma va logistika imkoniyatlarining notekisligi; Kichik biznesga qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ba'zi hududlarda sustligi; Ishchi kuchining hududlar o'rtasida noto'g'ri taqsimlanishi.

Takliflar:

1. Hududiy investitsiya strategiyasini takomillashtirish: Investitsiyalarni asosan orqada qolayotgan hududlarga yo'naltirish, bu orqali u yerda yangi sanoat zonalar, logistika markazlari, infratuzilma loyihalari yaratish.
2. Kichik tadbirkorlikni rag'batlantirish: Soliq imtiyozlari, subsidiyalari, kredit resurslariga qulayliklar orqali kichik biznesni ayniqsa iqtisodiy zaif hududlarda qo'llab-quvvatlash.
3. Hududlararo integratsiyani kuchaytirish: Rivojlangan va orqada qolayotgan viloyatlar o'rtasida hamkorlik mexanizmlarini joriy etish (klasterlar, kooperatsiyalar orqali).
4. Ijtimoiy infratuzilmani teng rivojlantirish: Ta'lim, sog'liqni saqlash va kommunikatsiya xizmatlarini chekka hududlarda yaxshilash orqali iqtisodiy faollikni rag'batlantirish.
5. Statistik monitoringni kuchaytirish: Har yili mintaqaviy tafovutlar bo'yicha integratsiyalashgan indikatorlar asosida baholash va tahlil tizimini yaratish.

BANDLIGI. *University Research Base*, 1000–1003. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/277>

4. Turg'unov, J. A. (2025). Sanoat korxonalarini rivojlantirishda aylanma iqtisodiyot amaliyotini joriy etish masalalari. "Nordic" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2025 | Journal article, DOI: 10.69949/nordic-0000009

5. Tojiyeva, M. M. (2023). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING MAMLAKAT IJTIMOIY-IQTISODIY HAYOTIDAGI AHAMIYATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9, 126-130.



NEMIS VA O'ZBEK TILLARIDA SINTAKTIK-STILISTIK FIGURALARNING ANTROPOTSENTRIK TAHLILI

Mamaziyyev Oblaberd Xudoberganovich,
Qo'qon Universiteti Jahon tillari kafedrasida dotsenti
Tel: 998911484656
e-mail: omamaziyyev77@gmail.com

MAQOLA HAQIDA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil
Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil
Jurnal soni: 15
Maqola raqami: 17
DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1197>
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS

sintaktik-stilistik figuralar,
antropotsentrizm, nemis tili, o'zbek tili,
lingvistik stilistika, madaniyat, tafakkur.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada nemis va o'zbek tillaridagi sintaktik-stilistik figuralar antropotsentrik yondashuv asosida qiyosiy tahlil qilinadi. Stilistik figura sifatida tilning sintaktik darajasida yuzaga keladigan parallelizm, inversiya, takror, anafora, antiteza kabi vositalarning nafaqat grammatik strukturasi, balki ular orqali ifodalanadigan semantik, emotsional va pragmatik ma'nolari ham chuqur o'rganilgan. Ushbu tahlilda lingvistik birliklarning inson tafakkuri, estetik qadriyatlarini, madaniy stereotiplari va nutqiy faoliyatida tutgan o'rni aniqlanib, stilistik vositalarning milliy-madaniy asoslanganligi namoyon etilgan. Tadqiqot nemis va o'zbek matnlarida badiiy ifoda, uslubiy yondashuv va nutq strukturasi orqali shakllangan umumiyliklar bilan bir qatorda, har bir tilga xos bo'lgan madaniy-diskursiv tafovutlarni ham ochib beradi. Shuningdek, maqolada stilistik figuralarning inson markazli (antropotsentrik) yondashuv doirasidagi ko'rinishlari lingvomadaniy kontekstda tahlil qilinadi va ularning tilshunoslik, stilistika hamda kognitiv lingvistika sohalaridagi ahamiyati yoritiladi.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda antropotsentrik yondashuv til hodisalarini inson faoliyati, tafakkuri, ongi va madaniyati bilan chambarchas bog'liq holda talqin etishga asoslanadi. Ushbu konsepsiya tilni ijtimoiy, madaniy va kognitiv tizim sifatida o'rganishga yo'naltirilgan bo'lib, inson omilini til tizimining markaziga olib chiqadi. Bunday yondashuv tilni shunchaki aloqa vositasi sifatida emas, balki inson tafakkuri, emotsional holati, estetik idroki va madaniy qadriyatlarining in'ikosini ifodalovchi vosita sifatida talqin qilish imkonini beradi.

Stilistik figuralar — tilning ekspressiv imkoniyatlarini namoyon qiluvchi, kommunikativ jarayonda muhim pragmatik vazifani bajaruvchi vositalar sirasiga kiradi. Ayniqsa, sintaktik-stilistik figuralar (parallelizm, inversiya, takror, anafora, antiteza va boshqalar) muallifning subyektiv munosabatini, emotsional holatini va estetik didini ifodalovchi vosita sifatida qadrlanadi. Ularning tanlanishi, qo'llanish chastotasi va stilistik vazifasi o'z navbatida til egasining madaniy-milliy tafakkuri, kognitiv modeli va nutqiy an'analari bilan uzviy bog'liqdir.

Nemis va o'zbek tillari struktur jihatdan ikki xil til oilasiga mansub bo'lishiga qaramay, har ikkisi ham boy badiiy-estetik ifoda imkoniyatlariga ega. Shu bois, bu tillarda uchraydigan sintaktik-stilistik figuralarni qiyosiy-antropotsentrik nuqtai nazardan o'rganish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Bunday yondashuv til vositalari orqali insonning dunyoqarashi, qadriyatlarini va emotsional-madaniy holati qanday ifodalanганиni aniqlashga xizmat qiladi.

Ushbu maqola aynan ana shu ilmiy zaruratdan kelib chiqqan holda nemis va o'zbek tillaridagi sintaktik-stilistik figuralarning struktura, semantika va funksional vazifalarini antropotsentrik yondashuv asosida tahlil qilishga qaratilgan. Shuningdek, u stilistik vositalar orqali ifodalanган milliy-madaniy tafakkur namoyonlarini ochib berishga harakat qiladi. Maqolada keltirilgan tahlillar kognitiv tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik va stilistika fanlariga xos integratsion yondashuv doirasida olib boriladi.

Adabiyotlar tahlili. So'nggi yillarda tilshunoslikda inson markazli — antropotsentrik — yondashuv tilni o'rganishning ustuvor metodologik tamoyillaridan biriga aylandi. Bu yondashuv til hodisalarini insonning kognitiv faoliyati, emotsional holati, estetik idroki va madaniy qadriyatlarini bilan chambarchas bog'liq holda talqin etadi. Shu sababli sintaktik-stilistik figuralarni ham nafaqat strukturaviy yoki funksional aspektida, balki madaniy va kognitiv mezonlar asosida o'rganish muhim ilmiy yo'nalishga aylanmoqda. Til va tafakkur o'zaro bog'liq bo'lgan tizimlar sifatida o'rganilganda, stilistik figuralar bu aloqaning bevosita

namoyon bo'luvchi vositalaridir. G.X. Ruzikulova (2023)¹ o'z tadqiqotida somatik frazeologizmlarning antropotsentrik tahlili orqali ularning madaniy asoslangan semantik qatlamini ochib beradi va bu metodologiyani stilistik vositalarga ham qo'llash mumkinligini ta'kidlaydi. Z.X. Xamraeva (2022)² o'zbek va ingliz tillaridagi sintaktik stilistik vositalarni qiyosiy tahlil qilish orqali har bir tilga xos stilistik dominantalarni aniqlagan.

Nemis tilshunosligida esa E. Dittmar (2006)³, M. Sandig (2010)⁴, U. Fix (2015)⁵ kabi olimlar stilistik figuralarning madaniy va kommunikativ vazifasini lingvopragmatik hamda diskursiv kontekstda tahlil qilganlar. Xususan, Sandig stilistik figuralarning interaktiv xususiyatini ta'kidlasa, Fix ularning diskursga asoslangan ekspressivlik darajasini baholaydi. Bu tadqiqotlar til birliklarini insonning nutqiy ehtiyojlari va madaniy kontekst bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi. Shuningdek, kognitiv tilshunoslik yondashuvlarida (G. Lakoff, M. Turner)⁶ metafora, antiteza, takror kabi stilistik figuralar inson miyasining kategoriyalash va konseptual modellashtirish faoliyati natijasi sifatida qaraladi. Bu nazariy qarashlar stilistik figuralarning semantik-funksional tahlilini antropotsentrik asosda yanada chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

O'zbek tilshunosligida stilistik figuralarning lingvistik xususiyatlari yaxshi o'rganilgan bo'lsa-da, ularning antropotsentrik, lingvomadaniy va kognitiv tahlili hali yetarlicha chuqurlashtirilmagan. Mavjud tadqiqotlarda sintaktik figuralar asosan grammatik vosita sifatida yoritilgan (Xamroyeva, 2022), biroq ularning inson tafakkuri, qadriyatlar tizimi va madaniy idrok bilan bog'liq jihatlari kamroq o'rganilgan. Bu esa hozirgi tadqiqot uchun ilmiy zaruratni yuzaga keltiradi.

Mazkur maqola ana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, nemis va o'zbek tillaridagi sintaktik-stilistik figuralarni qiyosiy va antropotsentrik nuqtai nazardan tahlil etish orqali ularning madaniy-kognitiv xususiyatlarini ochib berishga harakat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda asosiy metodologik yondashuv sifatida antropotsentrik tilshunoslik tamoyillariga asoslanilgan. Antropotsentrizm tilshunoslikda til hodisalarini inson shaxsiyati, tafakkuri, hissiyoti, madaniyati va idrok dunyosi bilan chambarchas bog'liq holda tahlil qilish yondashuvidir. Mazkur yondashuv doirasida til faqat kommunikativ vosita emas, balki inson ongining, madaniy-estetik dunyoqarashining va milliy tafakkur tizimining in'ikosi sifatida qaraladi. Shunday qilib, stilistik figuralar, ayniqsa sintaktik darajadagi birliklar — muayyan emotsional, ekspressiv yoki kognitiv yuklamaga ega bo'lgan sintaktik qurilmalar — ushbu yondashuvda markaziy tahlil obyektiga aylandi.

¹ Ruzikulova, G. (2023). *Somatik frazeologizmlarning antropotsentrik tahlili*. Toshkent: Fan va texnologiya.

² Xamraeva, Z. X. (2022). *O'zbek va ingliz tillarida sintaktik stilistik vositalarning qiyosiy tahlili*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.

³ Dittmar, E. (2006). *Einführung in die Linguistik*. (Agar bu to'liq nomi bo'lsa aniqlashtirish mumkin; taxminan keltirildi.)

⁴ Sandig, B. M. (2010). *Stilistik: Deutsche Textstile – Sprachsystem und Sprachgebrauch*. Berlin: de Gruyter.

⁵ Fix, U. (2015). *Stilistik: Eine interdisziplinäre Einführung*. Tübingen: Narr Francke Attempto Verlag.

⁶ Lakoff, G., & Turner, M. (1989). *More than cool reason: A field guide to poetic metaphor*. Chicago: University of Chicago Press.

Tadqiqotda o'zbek va nemis tillarida keng uchraydigan sintaktik-stilistik figuralar: parallellik, inversiya, takror, anafora, epifora, antiteza, gradatsiya, klimaks kabi birliklar o'rganish uchun tanlab olindi. Bu figuralar tilning struktura va semantik qatlamlari orqali inson idrokidagi diqqatni boshqarish, his-tuyg'ularni ifodalash, mantiqiy urg'ularni yaratish va madaniy-estetik tasavvurlarni ifodalash imkonini beradi. Ushbu birliklar orqali tilshunoslikda stilistik semiosfera doirasida ifodalanadigan estetik-funksional maqsadlar namoyon bo'ladi.

Tadqiqot materiali sifatida nemis tilida Geyne, Kafka, Brecht kabi yozuvchilarning nasriy va poetik matnlari, shuningdek zamonaviy nemis publitsistikasi (Frankfurter Allgemeine Zeitung, Die Zeit) dan olingan ijtimoiy-siyosiy matnlar korpusga kiritildi. O'zbek tilida esa Cho'lpon, Oybek, Erkin Vohidov, Hamid Olimjon kabi yozuvchilarning asarlari, hamda "Yoshlik", "Sharq yulduzi" jurnallarida chop etilgan zamonaviy matnlar asosiy manba bo'lib xizmat qildi. Har ikki tildan jami 100 dan ortiq stilistik figura tanlab olinib, tahlil qilindi.

Tahlil quyidagi metodik bosqichlarda olib borildi:

Identifikatsiya: – matnlar ichidan stilistik figura sifatida baholanishi mumkin bo'lgan sintaktik konstruksiyalar aniqlab olindi;

Struktura-semantik tahlil: – aniqlangan figuralarning sintaktik modeli, kompozitsion o'rni, leksik komponentlari va semantik yuki aniqlandi;

Pragmatik-kognitiv baholash: – ushbu figuralar vositasida qanday emotsional, ekspressiv yoki madaniy-konseptual ma'no ifodalaniganiga baho berildi;


Qiyosiy tahlil: – nemis va o'zbek tilidagi sintaktik-stilistik figuralar o'zaro taqqoslandi, ularning universal va milliy-madaniy xususiyatlari ajratib ko'rsatildi.

Metodologik asos sifatida qiyosiy-lingvistik, kognitiv, diskursiv-pragmatik, hamda korpus lingvistikasi elementlari uyg'unlashtirildi. Bu esa tahlilni nafaqat struktur va formal darajada, balki madaniy-kognitiv asosda ham olib borishga imkon berdi.

Ushbu metodologik yondashuv orqali stilistik figuralar tildagi estetik va psixologik vosita sifatidagi o'rni, shuningdek ularning inson tafakkuri va madaniyatidagi semiosfera bilan aloqasi aniqlashtirildi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, sintaktik-stilistik figuralar har ikki tilda ham universal kommunikativ funksiyalarga ega bo'lishi bilan birga, ular milliy madaniyat va tafakkur modeliga xos konnotatsiyalarni ham o'zida mujassam etadi.

Tadqiqot natijalari. Nemis va o'zbek tillarida sintaktik-stilistik figuralarning qiyosiy-antropotsentrik tahlili natijasida har ikki tilning struktura, madaniy kontekst va ekspressiv imkoniyatlarida muhim umumiyliklar bilan bir qatorda, farqlarga ham aniqlik kiritildi. Ushbu farqlar va o'xshashliklar, avvalo, tilning antropotsentrik mohiyatini, ya'ni inson tafakkuri, estetikati va madaniy idrokidagi o'rnini yoritib beradi.

Tadqiqot davomida o'zbek va nemis tilidagi badiiy va publitsistik matnlar korpusidan foydalanildi. Tahlil qilingan matnlarda uchraydigan sintaktik-stilistik figuralar quyidagilar: parallellik, inversiya, takror, anafora va antiteza. Har bir figura nafaqat stilistik vosita sifatida, balki muayyan madaniy-ma'naviy yuklamaga ega til birligi sifatida baholandi.



1-rasm. Parallellik va Takrorning madaniy dominantasi

Ushbu statistik ko'rsatkichlardan kelib chiqib, o'zbek tilida parallellik (35%) va takror (25%) kabi figurativ vositalar yuqori chastotada qo'llanilishi aniqlanadi. Bu esa o'zbek adabiy tilining emotsional-estetik xarakteriga, ayniqsa musiqiylik, ohangdorlik va folklor ildizlariga asoslangan poetik tafakkuriga mos keladi. Nemis tilida esa **inversiya** (25%) va parallellik (30%) yetakchi o'rinda turib, bu tilning sintaktik konstruksiyalar orqali mantiqiy va ritorik effekt yaratishga qaratilgan funksional imkoniyatlarini namoyon etadi.

Parallellik har ikki tilda ham intensiv qo'llaniladi, biroq maqsadi va stilistik yuklamasi farqlanadi: nemis tilida u mantiqiy, ritorik tuzilma yaratish vositasi bo'lsa, o'zbek tilida ritmik-emotsional urg'u va obrazlilik yaratishga xizmat qiladi. **Takror** esa o'zbek tilida ko'proq hissiy bosim, folklor ohangi va estetik kuchni ta'minlash, nemis tilida uning funksional jihatidan ritorik kuchaytirishga yo'naltirilgan.

Anafora va antiteza figuralari har ikki tilda o'rtacha darajada uchraydi. Anafora nemis tilida semantik ravnaq (progressiya) vositasi sifatida keng qo'llanilsa, o'zbek tilida u poetik tuzilmaning ajralmas qismi hisoblanadi. Antiteza esa umumiy xulosaviy ifodalarni dramatik kuch bilan berish uchun qo'llaniladi, bu figura har ikki tilda 10% miqdorda uchraydi, ya'ni u stilistik vosita sifatida universallik kasb etgan.

Tahlillardan ko'rinib turibdiki, har bir til o'zining madaniy modeli asosida stilistik figuralarni tanlaydi va ularni til tizimi, milliy tafakkur, madaniy qadriyatlar bilan uzviy bog'laydi. Nemis tilida strukturaviy qat'iyat, ritorik mantiq ustuvor bo'lsa, o'zbek tilida poetik erkinlik, hissiy ifoda va obrazlilik markazda turadi. Bu holat antropotsentrik lingvistik yondashuv doirasida sintaksis darajasidagi stilistik figuralarning nafaqat formal, balki kognitiv-semiotik tafakkur mahsuli ekanligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. O'rganilgan ma'lumotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, sintaktik-stilistik figuralar nafaqat tildagi estetik va emotsional vosita sifatida, balki inson tafakkuri, madaniy qadriyatlari va kommunikativ ehtiyojlarining in'ikosi sifatida til tizimida muhim o'rin egallaydi. Nemis va o'zbek tillarida kuzatilgan parallellik, inversiya, takror, anafora va antiteza kabi sintaktik-stilistik figuralarning qiyosiy-antropotsentrik tahlili til va tafakkur o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni amaliy va nazariy jihatdan yoritdi.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, har ikki til o'zining milliy-madaniy tafakkur modeli asosida stilistik figuralarni shakllantiradi va ularni o'z kontekstiga xos funksional yuklama bilan boyitadi. O'zbek tilida bu figuralar ko'proq poetik, emotsional va obrazli uslubda namoyon bo'lsa, nemis tilida ular sintaktik qat'iyat, ritorik kuch va mantiqiy

kompozitsiyaga xizmat qiladi. Bu holat har bir til jamiyat tafakkuri va tarixiy-madaniy tajribasining aksidir.

Antropotsentrik yondashuv asosida aniqlanishicha, stilistik figuralar — bu oddiy sintaktik o'zgarishlar emas, balki **inson** tafakkurining struktura va funksiya darajasida ifodalangan kognitiv modellardir. Ular yordamida inson fikrini nafaqat yetkazadi, balki uni estetiklashtiradi, kuchaytiradi, rasmiylashtiradi va madaniy kontekstda joylashtiradi.

Bundan tashqari, o'rganilgan figuralar tilning ixtiyoriy emas, balki motivatsiyalangan birliklari sifatida namoyon bo'lishi isbotlandi. Jumladan, parallellik o'zbek tilida folklor estetikasi va musiqiylik bilan, nemis tilida esa ritorik strukturaviylik bilan chambarchas bog'liq. Takror o'zbek matnlarida his-tuyg'ularni kuchaytirish, nemis matnlarida esa semantik urg'u yaratish uchun ishlatiladi. Inversiya, anafora va antiteza kabi figuralarning qo'llanishida ham shunga o'xshash madaniy va funksional tafovutlar kuzatildi.

Mazkur tadqiqotdan kelib chiqadigan asosiy ilmiy natijalar quyidagilardan iborat:

- Sintaktik-stilistik figuralar tilshunoslikda faqat formal birlik sifatida emas, balki inson tafakkurining funksional va madaniy modeli sifatida qaralishi zarur;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Xamraeva Z.X. O'zbek va ingliz tillarida sintaktik stilistik vositalarning qiyosiy tahlili. — Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti, 2022. — 180 b.
2. Ruzikulova G. Somatik frazeologizmlarning antropotsentrik tahlili. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. — 145 b.
3. Xudoyberganova D., Mukimova Z., Karimova F. Lisoniy antropotsentrizm nazariyalari va ularning o'zbek tilshunosligidagi roli // Til va adabiyot ta'limi. — 2024. — №1. — B. 45–52.
4. Achilov O.R. Comparative analysis of foregrounding in English and Uzbek // Web of Scholar. — 2018. — №5(23). — P. 112–117.

- Har bir stilistik figura kognitiv-emotsional yuklamaga ega bo'lib, u til vositalari orqali milliy mentalitet va madaniy identitetni aks ettiradi;

- Antropotsentrik yondashuv tilshunoslikda tuzilma va mazmun o'rtasidagi bog'liqlikni chuqur tahlil qilish imkonini beradi;

- O'zbek va nemis tillari stilistik jihatdan bir-biriga qiyosiy tahlil qilinishi mumkin bo'lgan turli kognitiv-estetik uslublarni namoyon etadi;

- Bu tadqiqot natijalari xorijiy til o'rgatish, tarjimashunoslik, madaniyatlararo kommunikatsiya va stilistika bo'yicha amaliy tadbirlar uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Shunday qilib, til — bu nafaqat muloqot vositasi, balki inson tafakkurining madaniy-mavhum refleksiyasi bo'lib, sintaktik-stilistik figuralar esa shu refleksiyaning yaqqol grammatik va stilistik ko'rinishlaridir. Antropotsentrik yondashuv yordamida ularning ilmiy tahlili zamonaviy lingvistikaning kognitiv, madaniy va funksional mezonlari asosida amalga oshirilishi mumkin.

5. Ungerer F., Schmid H.-J. An Introduction to Cognitive Linguistics. — London: Longman, 2006. — 350 p.

6. Wierzbicka A. Language, Culture and Society: Anthropological Linguistics in Action. — Oxford: Oxford University Press, 2003. — 278 p.

7. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. — М.: Сов. энциклопедия, 1969. — 608 с.

8. Кухаренко В.А. Интерпретация текста: Учебное пособие по стилистике английского языка. — М.: Просвещение, 1999. — 208 с.



O'ZBEKISTON BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDAGI MUAMMOLAR VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Javharova Nilufar Odiljon qizi,

Qo'qon universiteti xodimi.

Muxtorova Munisaxon Anvarjon qizi,

Qo'qon universiteti "Boshlang'ich ta'lim" yo'nalishi 2-bosqich talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 18 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1198 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS Ta'lim tizimi, o'qituvchi, dars, bilim, ko'nikma, malaka, rivojlanish, o'quvchi, o'quv dasturi, boshlang'ich ta'lim, kadrlar, muammo, sinf, AKT, muammolar yechimi, texnik ta'minot, psixologik ko'mak, ilm nuri, millat farzandlari.	Ushbu maqolada hozirgi kunda mamlakatimizning boshlang'ich ta'lim tizimida uchrayotgan bir qancha muammolar hamda ushbu muammolarni yechishga qaratilgan taklif va yechimlar, muammolarning kelib chiqish sabablari yoritilgan. Bizga ma'lumki, bolalarda hisoblash, yozish, o'qish, tabiat va boshqalar haqidagi dastlabki bilimlar boshlang'ich ta'limda shakllantiriladi, shuning uchun ham poydevor mustahkam bo'lishi uchun, kelajagimiz egalarga ta'lim berish borasida muammolar bo'lishi mumkin emas. Maqolada rivojlanishga to'sqinlik qilayotgan muammolarni bartaraf etish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar to'g'risida ham bir qator ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Ko'rsatilgan muammolarga yechim sifatida berilayotgan takliflar asoslab berilgan. Maqolada shuningdek, ta'lim tizimidagi muvaffaqiyatlarga sabab bo'layotgan omillar haqida ham aytib o'tilgan. Bundan tashqari, tizimdagi muammolarga hozirda qanday yechimlar berilmoqda va bu muammolarga berilayotgan yechimlar qay tarzda amalga oshirilmoqda, bunday muammolarga berilayotgan yechimlarning amalga oshirish tartibi qay tarzda amalga oshiriladi? - bu kabi savollarga ushbu maqolada bir qator fikrlar va dalillar keltirib o'tilgan.

KIRISH.

Bugungi kunda mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish va uni zamon talablariga mos ravishda takomillashtirish davlat siyosatining ustovor yo'nalishlaridan biriga aylandi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Ta'lim tizimini isloh qilish ishlarida asosiy o'ringa boshlang'ich ta'lim tizimi qo'yilishiga asosiy sabab shuki, bolalarni maktabga ilk qadam qo'ygan kunlaridan boshlab, ularni to'g'ri yo'nalishga qo'ya olinsa, yuqori sinflarga o'tilganda kuzatilayotgan bir qancha muammolarni oldindan bartaraf etish imkoni paydo bo'ladi. Boshlang'ich ta'lim yo'nalishini yanada rivojlantirish va o'quvchilarning bilim salohiyatini oshirish uchun avvalo o'qituvchilarning bilim darajasi, salohiyatiga katta e'tibor qaratish lozim.

Zamon shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda ilm nuri, ziyosi bo'lgan o'qituvchilarning zamondan bir soniya bo'lsa ham ortda qolishi butun bir millat farzandlarining rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu esa o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi o'rni qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Hozirgi kunda mamlakatimizda boshlang'ich ta'lim tizimini rivojlantirish borasida bir qancha ishlar olib borilmoqda. Shunga qaramay, bu ta'lim tizimida yetarlicha muammolar ko'zga tashlanmoqda. Yuqorida keltirib o'tganimdek, asosiy muammolardan biri bu – ba'zi o'qituvchilarning bilim, ko'nikmalari yetarli emasligidir. Bundan tashqari, o'quv dasturlarining eskirganligi, texnik ta'minotning yetarli emasligi, sinflarda o'quvchilar sonining ortib ketishi va o'quvchilarning maktabga moslashuv jarayonida ustozlar va ota-onalar tomonidan psixologik yordamning yetarli darajada berilmayotganligidir. Bu kabi muammolarni ko'plab keltirib o'tish mumkin ammo, shu bilan bir qatorda olib chiqilgan muammoga yechim ham taklif qila olish kerak.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Mamlakatimizda bir qancha olimlar va olimalar o'zlarining ilmiy ishlarida shu kabi muammolarni bartaraf etish yo'llarini izlab, o'rganib chiqishgan va ushbu muammolarga o'zlarining yechim va takliflarini keltirib o'tishgan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Navoiy davlat pedagogika institutining "Boshlang'ich ta'limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjumanida – boshlang'ich ta'limda kuzatilayotgan muammolar o'rganilib, muammolarga ilmiy tomondan yechim va takliflar berib o'tilgan. Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Toshkent davlat pedagogika universitetining 2024-yil 17-18 may kunlarida o'tkazilgan "Yangi O'zbekistonda boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari" xalqaro ilmiy – amaliy anjumanida ham O'zbekistonning boshlang'ich ta'lim tizimidagi muammolar keltirib o'tilgan va ushbu muammolar yuzasidan bir qancha taklif va yechimlar tavsiya qilingan. Shu bilan bir qatorda JDPU

Umumiy psixologiya kafedrasida katta o'qituvchisi Sh.Kamolovning "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda interfaol usullardan foydalanish" nomli ilmiy maqolasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirish yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Ushbu ilmiy maqolada boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini oshirish yuzasidan interfaol metodlardan foydalanish masalasini ilgari qo'yadi. Sh.Kamolova o'zining bu ilmiy maqolasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini shakllantirish uchun ajdodlarimizning bosgan izlaridan yurib o'tish kerakligini ilgari suradi. Shu bilan bir qatorda milliy madaniyatga ham katta ahamiyat qaratilganligi ajdodlarimiz ta'lim tizimiga asoslangan holda interfaol usullardan foydalanish kerak ekanligini ko'rsatib o'tadi.

Nurmatova Dilbarxon Bozorovna esa o'qituvchi sifatida o'zining "Boshlang'ich ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish" nomli ilmiy maqolasida boshlang'ich ta'lim tizimida zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liq muammolar va zamonaviy texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish to'g'risida bir qancha yechim va takliflarini bildirib o'tadi. Uning ilmiy maqolasida asosan, texnik jarayonlarda raqamli texnologiyalardan foydalanishda samarali metodlarni tashkil etganligidir.

Har bir rivojlanishda sifat va miqdor darajalari katta ahamiyatga ega. Hozirgi kunda boshlang'ich ta'lim yo'nalishida ko'plab kadrlar yetishib chiqmoqda. Ammo bu kadrlar orasidan qanchasi davlatimiz tomonidan belgilangan talablarga javob beradi, bu ko'pchilikni qiziqtirayotgan savollardan biri. Oliy ta'lim muassasalarida esa talabalar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Bu yaxshi albatta, lekin miqdor o'sgani bilan sifatli kadrlar soni ko'p emas, nazarimda. Bilimi, salohiyati yaxshi shakllangan o'qituvchigina o'quvchilarning bilim salohiyatini kerakli darajada oshirishi mumkin.

Bundan tashqari, o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqib, o'zgartirish bilan ham ta'lim tizimidagi rivojlanishni amalga oshirish bir qancha samarali bo'lishi mumkin. O'quv dasturini yangilash bilan birga darsliklarga ham o'zgartirishlar kiritilishi kerak. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, maktab darsliklariga hozirgi kunda bir qancha o'zgartirishlar kiritilmoqda, yangilanmoqda. Ammo, darsliklarga kiritilayotgan o'zgartirishlar bir tarafdin o'qituvchilarga qiyinchiliklar tug'dirmoqda. Jumladan, boshlang'ich sinf darsliklarida imloviy xatolarning ko'pligi, g'aliz tushunchalar qo'llanilganligi, matematika darsliklarida xato misollar, masalalar berilganligi tez-tez ko'zga tashlanmoqda. Bu esa maktabga endi qadam qo'ygan yosh avlodning bilim darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatishi turgan gap. Shu kabi holatlarda yana biza sifatli kadrlar zarur bo'ladi.

METODOLOGIYA.

Ushbu tadqiqot O'zbekiston Respublikasi boshlang'ich ta'lim tizimidagi dolzarb muammolarni aniqlash hamda ushbu muammolarni

bartaraf etish yo'llarini ilmiy jihatdan asoslashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi sifatida O'zbekiston ta'lim tizimidagi muammolarni bartaraf etish uchun o'tkazilayotgan ilmiy-amaliy anjumanlar ko'zdan kechirildi. Ushbu izlanishlar natijasida O'zbekiston ta'lim tizimidagi muammolar aniqlanib olindi. Ma'lumotlar O'zbekistonning turli hududlaridagi boshlang'ich maktablardan o'qituvchilar va ota-onalar o'rtasida so'rovnoma va intervyular orqali yig'ilgan ma'lumotlar asosida yig'ildi. Tadqiqot uchun zarur bo'lgan asosiy ma'lumotlar respublika miqyosidagi ilmiy va amaliy anjumanlar materiallari, ta'lim sohasidagi ilmiy maqolalar orqali mavjud bo'lgan, aniqlangan muammolar guruhlariga ajratildi va bu muammolarning yuzaga kelish sabablari aniqlab olindi. Tadqiqotda, shuningdek, rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalari orqali taqqoslash metodidan ham foydalanildi. Jumladan, Buyuk Britaniya ta'lim tizimi, boshlang'ich ta'limni olayotgan o'quvchi yoshlarga qaysi fanlardan darslar o'tilayotgani va biz ularning qaysi jihatlarini o'rganishimiz, amaliyotimizga joriy qili Tanlangan metodologik yondashuvlar yordamida O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimidagi dolzarb masalalar tizimli tahlil qilindi va ularni samarali bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

NATIJALAR.

Yuqorida keltirib o'tilgan masalalar yurtdoshlarimiz tomonidan olib borilgan izlanishlar hisoblanib, O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimidagi bir qancha muammolarni ko'rsatib beradi. Ushbu boshlang'ich ta'lim tizimidagi asosiy muammolar quyidagicha bo'lib, ta'lim tizimining samarali faoliyat yuritishiga sabab bo'layotgan omillardandir, bular – **o'quv dasturlarining yangilanmaganligi, o'qituvchilarning malaka darajasi, texnik jihozlarning yetishmasligi, sinflardagi o'quvchilarning soni ko'pligi, avvalo ota-onalar tomonidan, qolaversa, ustozlar tomonidan psixologik yordamning sustligi kabilar.**

Ko'pgina darsliklar va metodik materiallar zamonaviy pedagogik yondashuvlarga mos emas. Bu esa o'quvchilarning qiziqishini pasaytiradi. Bugungi shiddatli zamon kadrlarining asosiy qismi kreativ fikrlaydigan, axborot texnologiyalaridan unumli foydalana oladigan, zamon bilan hamnafas bo'lgan insonlardir. Hozirgi darsliklarning o'qituvchi malakasiga mos emasligi ham o'quv dasturining yangilanishi kerak ekanligini ko'rsatadi.

O'qituvchilarning doimiy malaka oshirish imkoniyatlari cheklanganligi ularning yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishiga sabab bo'ladi. Asosan nafaqa yoshidagi o'qituvchilarning axborot kommunikatsiya vositalaridan foydalanishda qiyinchiliklarga duch kelishmoqda. Bu esa ta'lim sifatiga, maktab o'quvchilarning zamonaviy texnologiyalardan foydalanish borasidagi bilimlardan ortda qolishlariga sabab bo'lmoqda.

Maktablarda interaktiv ta'lim vositalari, kompyuterlar va internet resurslarining kamligi, texnik ta'minotning yetarli darajada emasligi. Bunday muammolar asosan, chekka-chekka hududlarda ko'zga tashlanadi. Bu kabi holatlar ham ta'lim tizimida zamon bilan hamnafas bo'lishga to'sqinlik qiladi.

Har bir sinfda 30-40 nafardan o'quvchi bo'lishi, o'qituvchilarning individual yondashuvini cheklashi tabiiy. Bu holat mamlakatimizdagi asosiy muammolardan biri hisoblanadi. O'quvchilar sonining ortishi natijasida sinfda ta'lim sifatining pasayishi kuzatiladi.

Oilalarda ota-onalar tomonidan farzandlariga psixologik ko'makning, yordamning hamda maktablarda psixologik xizmatlarning yetarli emasligi bolalarning ruhiy holatini qo'llab-quvvatlashda muammo tug'diradi. Chunki, ba'zi o'quvchilar ya'ni bolalarning oilasidagi kichik notinchlik ham o'quvchining dars jarayoniga bo'lgan qiziqishiga va ta'lim olish jarayoniga ta'sir ko'rsatishi mumkin.

MUHOKAMA.

Yuqorida ko'rsatilgan muammolar asosida ushbu muammolarga quyidagicha taklif va yechimlar ishlab chiqildi. Ushbu yechimlar yaxshilab o'rganilib, e'tibor bilan ishlab chiqilishi yuqoridagi muammolarni bartaraf etish uchun asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Muammolarga yechim sifatiga quyidagi takliflarni ko'rsatib o'tiladi, ular quyidagilardan iborat:

O'quv dasturlarini yangilash: Darsliklarni zamonaviy pedagogik talablar va amaliyotga mos ravishda qayta ko'rib chiqish, interaktiv o'quv materiallarini joriy etish. Shu bilan birgalikda o'quv dasturini qayta ishlab chiqishda o'qituvchilarning bilim malakalarini ham hisobga olish lozim. O'quv dasturini ishlab chiqishda o'qituvchilarning fikri va psixologlarning takliflarini ham inobatga olish lozim. Chunki, o'qituvchi o'quvchiga qanday darajadagi bilimlarni egallashlarini yaxshi biladi.

Psixologlar tavsiyasi esa o'quvchilarning psixologik taraflama, ya'ni yoshi bilan bog'liq holda o'quvchilarga qay darajada bilim berish kerakligini o'rganib chiqqan holda, bir qancha maslahatlar berishlari mumkin. Bu esa o'quv dasturi yangilanganida yana yangi muammolarni oldini olishga yordam beradi.

Avvalgi ta'lim tizimida o'quvchilar soni ko'p bo'lishiga qaramay tartib saqlangan, sinf xonalari ham, o'quvchilarga dars beruvchi o'qituvchilar ham kam bo'lgan. Ammo shunga qaramay, deyarli barcha o'quvchilarda yoshlariga nisbatan bilim salohiyatlari anchayin yuqori bo'lgan. Boshlang'ich ta'lim tizimidagi o'quv dasturlarining eskirganligi ham ta'lim sifatini oshirishda bir qancha muammolarni keltirib chiqarmoqda. Bu muammoga yechim sifatida zamon talablariga mos keladigan va bir qator rivojlangan xorijiy mamlakatlarning tajribalaridan foydalanish bu muammoga bir oz bo'lsada barham berishi mumkin. Ushbu tajribalarga misol tariqasida Buyuk Britaniya boshlang'ich ta'limidagi o'quv dasturini ko'rib chiqamiz.

Buyuk Britaniyada boshlang'ich maktablarda ta'lim tizimi davlat tomonidan belgilangan Milliy O'quv Dasturi (National Curriculum) asosida ish olib boradi. Bu o'quv dasturiga muvofiq boshlang'ich sinf o'quvchilariga quyidagi fanlardan dars beriladi.

1. Ingliz tili
2. Matematika
3. Ilm-fan
4. Tarix-geografiya
5. San'at va dizayn
6. Jismoniy tarbiya
7. Diniy ta'lim
8. Kompyuter savodxonligi
9. Musiqa
10. Shaxsiy ijtimoiy va sog'lom hayot ko'nikmalari.

Bu fanlar asosida dars o'tilishiga ko'pchilik ishonmasligi mumkin.

Chunki bu fanlarning deyarli teng yarmi bizning boshlang'ich ta'lim tizimida o'tilmaydi. Bizning mamlakatimizdagi ta'lim tizimida asosan, yuqori sinf o'quvchilari ushbu fanlardan dars oladilar. Shuning uchun bo'lsa kerakki, Yevropa mamlakatlarida bizdan ta'lim berish borasida ancha oldinda. Demak, mamlakatning qay darajada kamol topishi va gullab-yashnab, rivojlanib borishi ta'lim tizimi bilan bog'liqligiga, ta'lim tizimining rivojlanishi esa boshlang'ich ta'limga bog'liqligiga yana bir bor amin bo'lamiz.

Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim tizimidagi o'quv dasturini yangilash yoki qaytadan tuzib chiqish kerak. Agarda ba'zi fanlarni integratsiya qilingan holda o'tilsa, yangi fan qo'shish uchun imkon yaratish mumkin. Masalan, tasviriy san'at fani bilan matematika fanidagi geometriyaga xos bo'lgan mavzularini birlashtirgan holatda geometriyani olib kirish mumkin. Bu jarayonni amalga oshirishdagi asosiy foydalar quyidagilar:

1. O'quvchilarda matematika fanidan chalg'ib ketmasligini oldini oladi. Ba'zi o'quvchilar matematika fanidan misollar ishlab o'rgangan holda geometrik masalalarga duch kelganda biroz qiynalishadi. Shu bilan birgalikda yuqori sinfga o'tganlarida geometriya fani haqida ma'lumotga ega bo'lishadi va qiyinchilikka kamroq duch keladi.

2. Matematika fanidan chizma yoki shakllarni to'g'ri chiza olishmaydi. O'quvchilarning aksariyat holda tasviriy san'at darslari bor paytda qalam yoki chizg'ichlarini olib kelishadi. Boshqa kunlari masalan, matematika fanida chizg'ich olib kelmasliklari mumkin. Shuning uchun ham geometriyaga xos masalalar kelganda yoki chizma chizish kerak bo'lgan paytda, kerakli o'quv qurollari bo'lmagan holda chiziqlarni, shakllarni qiyshiq yoki noto'g'ri holda chizishlari mumkin.

3. Bu fanlarning o'zaro integratsiyasi orqali o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishlarini oshirish mumkin. Ya'ni geometriya fani boshlang'ich ta'lim tizimiga olib kirilganda, o'quvchilar shakllarni nafaqat chizishlari, balki chizilgan shakllarga bezak berib, ularni bo'yash orqali ham tasviriy san'at darsida belgilangan talablarga ham mos tarzda darsni tashkil etishlari mumkin.

O'qituvchilar malakasini oshirish: O'qituvchilar uchun muntazam malaka oshirish kurslari tashkil etish, ularni zamonaviy pedagogika va axborot texnologiyalari bilan tanishtirib borish juda muhimdir. Hozirda bilimli yosh kadrlarimiz ham talaygina, ammo, hozirda maktab ta'lim tizimida nafaqaga chiqmasdan ishlayotgan, yoshi ancha katta bo'lgan o'qituvchilar ham ishlab kelmoqda. Bu esa o'z-o'zida maktablarda yangi, yosh, bilimga chanqoq va zamon talabiga javob bera oladigan, kompyuter texnologiyalaridan bemalol foydalana oladigan yosh kadrlarga bo'sh ish o'rinlarining kamayishiga olib kelmoqda. To'g'ri, yoshi katta o'qituvchilar yosh o'qituvchilardan ko'ra ko'proq tajriba va

amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Lekin hozirgi raqamli texnologiyalar davrida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanishni bilmagan kadrlar anchayin qiynalishlari mumkin. Bu bilan nafaqa yoshidagi o'qituvchilar ta'lim tizimida kerak emas, deb aytib bo'lmaydi. Bunday o'qituvchilar kerak albatta, chunki ularda amaliy tajribalar va malakaviy kompetensiyalar yangi kadrlardan ko'ra ancha yaxshi shakllangan. Bunday kadrlarga shunday taklif berib o'tmoqchimanki, yosh kadrlar bilan amaliy tajribalarni almashib borishlari va yosh kadrlarga binar darslar tashkil etishlari anchayin foyda keltirardi. Yosh kadrlarda amaliy tajribalar kam bo'lishi mumkin, ammo bugungi zamon talabiga javob beradigan bilim, ko'nikma va malakalarga ega. Bu kabi holatlarda ustoz-shogird an'anasidan umumiy foydalanish, yosh va yoshi katta pedagoglarni birgalikda ishlatish yoki yosh kadrlarga, nafaqa yoshidagi kadrlar ustozlik qilib, amaliy tajribalaridan baham ko'rishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan boshlang'ich ta'lim tizimida zamon talabiga javob beradigan va amaliy tajribali kadrlarni yetishtirish mumkin. Bu boshlang'ich ta'lim tizimida bo'sh ish o'rinlarining sonini bir oz oshirishga va yosh kadrlarga yangi imkoniyatlar ehsigini ochilishiga sabab bo'ladi.

Texnik ta'minotni yaxshilash: Maktablarga multimedia vositalari, kompyuterlar va internet tarmog'ini keng joriy etish, raqamli ta'lim platformalaridan foydalanishni rag'batlantirish. O'quvchilarning bilim salohiyatini oshirishda yuzaga keladigan yana bir muammo bu ba'zi bir chekka hududlarda texnik ta'minotning yetarli emasligidir. Ushbu muammo ham ta'lim tizimida ko'p uchraydigan muammolardan biri bo'lib, bu muammoga hozirgi kungacha bir qancha takliflar berib borilmoqda va bu takliflarning ba'zilari amalda qo'llanilib kelinmoqda. Yuqorida aytib o'tganimizdek, zamonaviy raqamlashgan dunyoda texnik vositalarsiz rivojlanish anchayin qiyin. Texnik ta'minotning yetarli emasligi ba'zi bir jihatdan qiyinchiliklar keltirib chiqarmoqda.

Yurtboshimiz tomonidan ta'lim tizimini isloh qilishga qaratilgan bir qancha islohotlar amalga oshirilib, bu kabi muammolarning sonini kamaytirishga harakat qilinmoqda. Shu bilan bir qatorda o'qituvchilarni ham texnik vositalar bilan ta'minlash zarur. Chunki o'qituvchining o'zi avvalo axborot texnologiyalari bilan tanishib chiqmagan bo'lsa, o'quvchilarga dars berishda AKT vositalaridan foydalanishga qiynalishi mumkin. Texnik ta'minot bilan ta'minlanmagan hududlarda o'qitish tizimi samarasiz bo'lishi mumkin.

Axborot texnika vositalaridan o'qituvchilarning o'zi ham to'g'ri foydalana olsa, davlat tomonidan berilgan texnik ta'minot vositalari ham ancha muddatga ishlashi va ta'lim jarayonida bir qancha qulayliklarni hosil qiladi. O'quvchilarga texnik ta'minotdan foydalangan holda quyidagicha yondashuv asosida dars mashg'ulotlarini olib borish mumkin.

Interfaol doskalar, ta'lim dasturlari va onlayn o'quv platformalari kabi zamonaviy texnologiyalar o'qituvchilarning kontentni yetkazib berish va o'quvchilarni dars jarayoniga qiziqishlarini oshirish, jalb etishda muhim hisoblanadi. Boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalarni qo'llash innovatsiyalar, ijodkorlik va ta'lim sohasidagi mukammallikning yangi davrini e'lon qiladi, bu esa o'quvchilarga murakkab va rivojlanayotgan global landshaftda muvaffaqiyat qozonish imkonini beradi.

Raqamli resurslar, elektron kitoblar, o'quv videolari va multimedia kontentining mavjudligi boshlang'ich ta'lim o'quv dasturini boyitib, o'quvchilarga an'anaviy darsliklardan tashqari keng ko'lamli o'quv materiallaridan foydalanish imkonini berdi. Multimedia mazmunini darslarga integratsiyalash vizual va eshitish qobiliyatini oshiradi, ijodkorlikni rivojlantiradi va qiziqarli va interaktiv media orqali murakkab tushunchalarni chuqurroq tushunishga yordam beradi.¹

Boshlang'ich ta'lim tizimiga zamonaviy texnologiyalarning yetarlicha ta'minlab berilishi o'qitish va o'qitish ko'nikmalarini anchayin osonlashtiradi, o'quvchilarni jalb qila olish, o'quvchilarning ota-onalari bilan hamkorlikni rivojlantirish va raqamlashgan zamon uchun muhim ko'nikmalarni rivojlantirish uchun dinamik imkoniyatlar yaratadi. O'qituvchilarning malakasini oshirish uchun zamonaviy interfaol ta'lim platformalari, raqamli resurslardan, moslashuvchan ta'lim

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi qonuni Aholi bandligi to'g'risida (Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 28-aprelda qabul qilingan Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan)

yondashuvlaridan, hamkorlik vositalaridan va tashabbuslardan foydalanish orqali boshlang'ich ta'lim muassasalarida samarali o'quv jarayonini tashkil etish, o'quvchilarga yo'naltirilgan ta'lim tajribasini rivojlantirish va o'quvchilarni oliy ta'lim tizimi jarayonlarida zamonaviy ta'lim tizimiga va raqamlashgan zamonga tayyorlab boriladi.

Sinflarni optimallashtirish: Sinflardagi o'quvchilar sonini 20-25 nafarga kamaytirish uchun yangi maktablar qurish yoki sinflarni qayta tashkil etish. O'qituvchilar masalasi bo'yicha yechim berar ekanmiz, ularga bevosita bog'liq bo'lgan o'quvchilar ham ta'lim tizimining asosiy bo'g'inlaridan biri hisoblanadi. O'quvchilar ta'lim tizimining asosiy ishtirokchilari bo'lishiga qaramay navbatdagi muammo bu aynan shu ta'lim ishtirokchilari bilan ham bir qancha muammolar kuzatiladi. Masalan, sinfda o'quvchikar sonining ko'pligi sababli darsda tinchlikni saqlash va har bir bola bilan individual tarzda ishlashga vaqt yetmasligi mumkin. Buning natijasida o'quvchilarning yetarlicha bilim olishlari ancha qiyinlashadi. Bu muammoni bartaraf etish uchun sinflarda o'quvchilar sonini 20-25 nafardan oshirmaslik, aksincha bundan oshib ketganda yangi sinf tashkil qilish maqsadga muvofiq bo'ladi. O'quvchilar sonini kamaytirish va yangi sinflar ochish orqali, yangi kadrlarni ishga olish va bo'sh ish o'rinlarining ko'payishiga yordam beradi. Boshqa bir tarafdin maktablarda sinf sonining ortishi, sinf xonalarning yetishmasligiga olib kelishi mumkin.

Psixologik qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish: Har bir maktabda professional psixologlarni ishga qabul qilish va ularning faoliyatini kengaytirish. Boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari uchun psixologik ko'mak berish bolalarning bilim olish jarayonini osonlashtirishi mumkin. O'quvchilarning psixologik jarayonlarini o'rganib chiqish o'quvchilarni bilim olish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarini bartaraf etishga yrdam beradi. Shuning uchun ham maktab ta'lim tizimiga xususan, boshlang'ich ta'lim tizimiga alohida psixologlarni ishga olish ta'lim sifatini samarali bo'lishiga yordam beradi. Chunki ba'zi o'quvchilar maktabga ilk kelgan kunlaridan boshlab, maktabga moslashib ketishlari qiyin bo'ladi. Bu jarayonda o'quvchilar bilan alohida ishlash uchun o'qituvchining vaqti bo'lmasligi mumkin. Ammo bu jarayonga psixologik ko'makning yordami ancha sezilarli natijalarni berishi mumkin. O'quvchilarning oilaviy kichik muammolarga emotsiya bildirishi mumkin. Ushbu emotsiyasi dars mashg'ulotlariga ham ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim tizimida psixologik qo'llab-quvvatlashni lozim. Buning uchun bolalar bilan ishlay oladiga psixologlarni jalb etish va ushbu psixologlarning ish jarayonini kuzatuvga olish lozim.

O'zbekiston ta'lim tizimidagi muammolarni bartaraf etish jarayonida yuqorida ko'rsatib o'tilgan muammolar yuzasidan berib o'tilgan taklif va yechimlarni amalga oshirish orqali muammolarga yechim berish mumkin.

XULOSA

Dunyo hamjamiyati bilan barobar qadam tashlashni, yanada rivojlanishni maqsad qilgan har bir mamlakat bu ishni avvalo o'zining ta'lim tizimini rivojlantirishdan boshlashi lozim. Shunday ekan, ta'lim tizimining ildizi sifatida boshlang'ich ta'lim tizimi asosiy o'ringa qo'yilar ekan, ta'lim tizimidagi o'zgarishlarni boshlang'ich ta'lim tizimidan boshlash kerak. Albatta, ta'lim tizimida rivojlanishni amalga oshirish uchun ushbu tizimdagi muammolarni bartaraf etish lozim. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan bir nechta muammolar esa, boshlang'ich ta'lim tizimining rivojlanishini orqaga surayotgan asosiy omillardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich ta'lim tizimidagi muammolarni bartaraf etishni vaqt kutmasdan, hozirning o'zidan boshlash lozim. Muammolarni bartaraf etish orqali ta'lim sifatining samaradorligini oshirish va ta'lim tizimida tahsil oladigan o'quvchilarning bilim salohiyatini oshirishga yordam beradi. O'zbekiston boshlang'ich ta'lim tizimidagi sanab o'tilgan muammolarni bartaraf etish usullaridan faqat nazariy holatda emas, balki amaliy holatda ham foydalanish muammoni kamaytirish va boshqa muammolarning oldini olishga yordam beradi.

2. O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi Navoiy davlat pedagogika institutining "Boshlang'ich

¹ Nurmatova Dilbarxon Bozorovna Boshlang'ich sinf o'qituvchisi BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

ta'limning dolzarb masalalari: muammo va yechimlar" xalqaro ilmiy – amaliy anjumani.

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi Toshkent Davlat Pedagogika Universitetining 2024-yil 17-18 may kunlarida o'tkazilgan "Yangi O'zbekistonda boshlang'ich ta'limning dolzarb muammolari, yechimlari va istiqbollari" xalqaro ilmiy – amaliy anjumani.

4. JDPU Umumiy psixologiya Kafedrasida katta o'qituvchisi Kamolova Sh.ning "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy madaniyatini rivojlantirishda interfaol usullardan foydalanish" nomli ilmiy maqolasi

5. Nurmatova Dilbarxon Bozorovna Boshlang'ich sinf o'qituvchisi Andijon viloyati Oltinko'l tumani 29 -umumta'lim maktabi BOSHLANG'ICH TA'LIM TIZIMIDA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.

6. Sidiqova, D. Boshlang'ich sinflarda interfaol ta'lim va loyihalash texnologiyasi. Ilmiy nashrlar markazi. 2020.

7. Mamanazarovna, O. O. O'quv jarayoniga intensiv ta'lim texnologiyalarini joriy qilishning ahamiyati. Theory and analytical aspects of recent research. 2022.

8. Azizxo'jaeva N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat.-T.: «O'qituvchi», 2003.



XXI ASR O'ZBEK SHE'RIYATIDA BADIY OBRAZ VA PEYZAJ UYG'UNLIGI (SHODMONQUL SALOM IJODI MISOLIDA)

Sobirova Ismigul,

Qo'qon DU Filologiya fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi

3-bosqich talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 19 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1199 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS Obraz ruhiyati, peyzaj, lirik qahramon, badiiy ifoda, poetik tafakkur, nido san'ati.	Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyatida taraqqaotida muhim o'rin tutuvchi obraz ruhiyati va tabiat manzarasining (peyzaj) badiiy uyg'unligi masalasi ko'rib chiqiladi. Asosiy diqqat markazida XXI asr o'zbek she'riyatining yirik namoyandalaridan biri — Shodmonqul Salom ijodidagi poetik uslub, obraz yaratish mahorati va tabiat tasvirining badiiy-falsafiy mazmuni yotadi. Maqolada shoir she'rlaridagi ruhiy holatlar, inson kechinmalari bilan tabiat manzaralari o'rtasidagi uzviy bog'liqlik tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida XXI asr she'riyatida badiiy obraz va peyzaj uyg'unligi ijodkor Shodmonqul Salom she'rlari misolida ko'rib chiqilib, she'rlar tarixiy-madaniy tahlil metodi orqali g'oyaviy-badiiy jihatdan, struktural, stilistik tahlil metodlari orqali shakliy tuzilish jihatdan tahlil qilinadi.

Kirish. Badiiy obraz — san'atdagi asosiy tushunchalardan biri bo'lib, g'oyalar, hissiyotlar va fikrlarni ijodiy asar orqali ifodalash usulini anglatadi. U turli badiiy vositalar yordamida yaratiladi va tomoshabin, o'quvchi yoki tinglovchiga muayyan ma'no yoki kayfiyatni yetkazish uchun xizmat qiladi. Ko'pincha, muallif lirik qahramon haqida ma'lumot berish bilan birga ana shu lirikadag voqea-hodisa ro'y berayotgan hudud haqida tasavvur hosil qildirish uchun peyzaj(tabiat tasviri)dan foydalanadi. Lirik asarlarda peyzaj, ya'ni tabiat tasviri, she'riy ifoda vositalaridan biri sifatida muhim o'rin tutadi. Tabiat manzaralari orqali shoir o'z ichki dunyosini, tuyg'u va kechinmalarini ifoda etadi, o'quvchiga o'z ruhiy holatini yetkazishga intiladi. Lirik she'riyatda tabiat tasviri ko'pincha oddiy manzara emas, balki shoir qalbining aks-sadosi, uning ichki kechinmalarining ramziy ifodasidir. Shu bois, peyzaj tasvirlari ko'p hollarda insonning ichki holati bilan uyg'unlashib ketadi. Tabiat tasviri she'riy asarning g'oyaviy-badiiy mazmunini boyitadi, ruhiy-estetik ta'sirini kuchaytiradi.

Peyzaj lirikada ikki vazifani bajaradi: u bir tomondan, real voqelikni, atrof-muhitni tasvirlashga xizmat qilsa, ikkinchi tomondan, shoir tuyg'ularining ramziy ifodasiga aylanadi. Masalan, tong nuri, kuzgi barglar, yomg'ir, shamol, shom qorong'usi kabi obrazlar ko'pincha inson hayoti, orzu-umidlari, sog'inchi yoki iztirobini anglatadi. Peyzajning birinchi va oddiy vazifasi tasvir kechayotgan joyni anglatishdan iborat. Bir qarashda jo'ngina ko'ringan bu vazifaning o'qirmanga ko'rsatadigan estetik ta'siriga nopisand yondashib bo'lmaydi. Ko'p hollarda badiiy asardagi voqea sodir bo'lgan joy tasviri syujet rivoji yoki kayfiyat va ruhiy holat ifodasi uchun katta ahamiyat kasb etadi. Shu tariqa, tabiat manzaralari lirik asar poetikasining ajralmas qismiga aylanadi. O'zbek she'riyatida Alisher Navoiydan tortib Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, Shodmonqul Salomgacha bo'lgan ko'plab shoirlar lirik asarlarida tabiat tasviridan badiiy mahorat bilan foydalanishgan.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, bugungi o'zbek she'riyatida peyzaj poetikasi chuqur falsafiy va estetik mazmun kasb etib, milliy ong, tarixiy xotira, ruhiy o'sish kabi tushunchalar bilan uyg'unlikda yoritilmoqda. Bu holat XX asr she'riyatidagi tasvir vositalarining rivoji va yangilanish tendensiyalarining mantiqiy davomi sifatida qaraladi. Ammo hali-hanuz XXI asr she'riyatidagi manzara va badiiy obrazlar o'zaro munosabatini tahliliy o'rganish, ayniqsa individual shoirlar ijodida bu uyg'unlikni aniqlash ilmiy adabiyotda yetarlicha chuqurlashtirilmagan.

Tadqiqotning ilmiy asosi sifatida Shodmonqul Salomning "Baxmal archasiga" she'ri tanlandi. Sababi, ushbu she'rda archa obrazining oddiy manzara emas, balki kuch, sabr, g'urur, tarix, va fidoyilik ramziga aylanishi — zamonaviy o'zbek poeziyasida badiiy obraz va peyzaj uyg'unligining yorqin namunasi sifatida xizmat qiladi.

XXI asr o'zbek she'riyatida badiiy obraz va peyzaj uyg'unligini tahlil qilish, xususan, Shodmonqul Salom ijodi misolida tabiat tasviri va ruhiy holat o'rtasidagi ichki bog'liqlikni ochib berish ushbu tadqiqotning maqsadini tashkil qiladi.

XXI asr o'zbek she'riyatida peyzajning o'ziga xos jihatlarini aniqlash; "Baxmal archasiga" she'rda archa va tog' manzaralarining badiiy semantikasi va ramziy ma'nosini tahlil qilish; tabiat tasvirining lirik qahramon ruhiy holati bilan bog'liqligini ochib berish esa ushbu tadqiqotning vazifalarini tashkil qiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida badiiy obraz va peyzaj uyg'unligi katta ahamiyat kasb etmoqda. Hayot mavjud ekan, tabiat doimo insonga hamrohlik qiladi. Bu esa she'riy misralarda ham o'z aksini topishi shubhasiz. Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul tabiat haqida so'z yuritir ekan: „Tabiat va inson munsabati g'oyatda qadimiy hamda doimiy jarayon. Inson dunyoga kelibdiki, tabiat bag'rida yashaydi. Odam tabiatdan qancha uzoqlashsa, u ruhan o'shancha yupunlashadi, yomonlik va yovuzlik hislariga ko'proq mag'lub bo'ladi. Tabiat bag'ri inson uchun ham, hayvon uchun ham ochiq. Tabiat—bu, avvalo hayot, tiriklik tantanasi. Ruh va go'zallik manbasi sifatida u sira tuganmas hamda chegarasizdir. Uning o'zi shoir, musavvir va tengsiz me'mordir. Tabiat bilan bog'liq so'z, rang, ohang va tasvir unga mos bo'lmog'i kerak",—degan fikrlarni aytib o'tadi.[2,11]. Shuningdek, yosh tadqiqotchi Shomurodova Charos badiiy adabiyotda tabiat tasviri hisoblangan peyzaj haqida o'zining maqolasida shunday deydi: „Muallif peyzajni tashbehlardan foydalangan holda qaysidir ma'noda „ziynatlash"ga erishadi. Aslida peyzajning o'zi asarni ziynatlovchi vositadir". Haqiqatan, tabiatning go'zal tasviri bo'lgan peyzaj asl ma'noda misralarga go'zallik baxsh etadi. Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, badiiy adabiyot uchun nafaqat zamonaviy adabiyotda, balki mumtoz asarlar uchun ham muhim unsur hisoblangan. Jumladan, Erkinov A bu haqda o'z „Navoiy peyzaj ustasi" nomli ilmiy asarida: „klassik adabiyotda oshiq o'z sevimli yorining go'zalligini ta'rif etganida uning yuzini gulga, sochini sunbul—qora xushbo'y mushkka, labini la'lga, g'unchaga o'xshatish ko' jihatdan an'anaviydir. Lekin buning aksi tabiat tasvirini yaratishda jamiyatga xos narsalarga tabiat jismlarini o'xshatish ham uchraydi. Bundan maqsad tabiat manzarasini o'quvchi ko'z o'ngida yaqqolroq gavdalantirish, inson madaniy hayotiga oid voqea, narsalar yordamida tabiat tasviri ta'sirini oshirishdir",—deya ta'kidlab o'tadi.[1,36]

Tadqiqot davomida XXI asr she'riyatida badiiy obraz va peyzaj uyg'unligi ijodkor Shodmonqul Salom she'rlari misolida ko'rib chiqilib, she'rlar tarixiy-madaniy tahlil metodi orqali g'oyaviy-badiiy jihatdan, struktural, stilistik tahlil metodlari orqali shakliy tuzilish jihatdan tahlil qilinadi. She'rlardagi tabiat, jumladan, tog', archa kabi so'zlar ham tasvir sifatida ham ramziy ma'noda ma'lum bir toifa insonlar ma'nosini anglatishini aytish maqsadida tadqiqot davomida sotsiologik tahlil metodidan ham foydalaniladi. Shuningdek, mustaqillik davridan keyin yangicha ma'no qirrasiga ega bo'lgan tog' obrazi tarixiy-madaniy tahlil metodi uchun asos vazifasini o'taydi.

Natijalar. Zamonaviy she'riyat faqatgina tashqi manzara tasviridan iborat emas — inson ruhiy holatining eng nozik pardalarini tabiiy manzaralar bilan uyg'un holda berishga intiladi. Ayniqsa, XXI asr o'zbek she'riyatida bu yo'nalish — ruhiy holat va peyzaj uyg'unligi

ayniqsa kuchli ko'zga tashlanadi. Shoir tabiatga boqib nafaqat uni ko'radi, balki o'zini topadi, o'zini anglaydi. U tog'ni ko'rarkan, sabrni his qiladi; daraxtni ko'rarkan, oromini izlaydi; sukunatda — ichki ovozi eshitadi.

Shodmonqul Salomning "Baxmal archasiga" she'ri ana shunday — tashqi manzara va ichki tuyg'u sintezidan yaralgan poetik asar. She'rda Baxmal tog'larida o'sayotgan bitta archaning obrazidan butun bir ruhiy va milliy tafakkur ko'zgudek aks etadi.

She'r quyidagi satrlar bilan boshlanadi:

"Qoyaga botirib alp panjasini,

Bir tup archa yig'ar olti botmon suv.

Jim turgan burgutday sokin, viqorli,

Baxmal tog'larida yam-yashil surur!"¹

Ushbu parchalarda tog' manzarasi jonlanadi: archa qoya bag'riga "alp panjasini" botirgan. Bu metafora — archa nafaqat fizik ob'ekt, balki kuchli iroda, matonat, bardosh timsoli ekanini bildiradi. Tog' — tashqi ko'rinish bo'lsa-da, archa orqali insoniy qiyofani oladi. Burgut kabi sokin va viqorli archa — sabr, g'urur va yashashga bo'lgan da'vatdir. Tog'da sukunat hukmron, ammo bu sukunat — ichki uyg'oqlik, bir lahza oldingi buyuk parvoz oldidagi sokin to'xtashdir.

Keyingi bandda esa shoir archa orqali milliy ruh, tarixiy xotira va ruhiy o'sishni uyg'unlashtiradi:

"Ulug' parvoz oldi tin olar qush ham,

Yurak o'zi bilmay ulg'ayar, jo'shar.

Nayzasin ko'targan archalar safi

Temurbek chaqirgan majlisga o'xshar."

Yuqoridagi misralarda archalar endi shunchaki daraxtlar emas — Temur zamonini eslatuvchi najotparvarlar safiga aylangan. "Nayza ko'targan archalar" — qadimiy yurt himoyasi, shonli tarix, vatanparvarlik ruhini ifodalaydi. Tashqi tabiat (archa, tog', sokinlik) — ichki yuksalish, ruhiy jo'shqinlik bilan uyg'un holda keladi. Yurak o'zini bilmay ulg'ayadi — bu poetik o'sish, qalbda katta g'oyalar paydo bo'layotganini anglatadi.

Shoir quyidagi satrlarda esa tabiatning sadoqatli, sobit va muqaddas mohiyatini yanada chuqurroq ochadi:

"Ming yillik matonat va shuncha sabr,

Vatan tarixini bitgan qoyalar.

Sezganday bo'lyapman — fidolik nadir,

Qaydan paydo bo'lar buyuk g'oyalar!?"

Bu yerda qoyalar — tarix guvohi, archa — matonatning timsoli, shoir esa bu manzarani tomosha qilarkan, o'z-o'zidan tafakkurga g'arq bo'ladi. "Buyuk g'oyalar" qayerdan paydo bo'ladi? — bu retorik savol orqali shoir bizni ruhiy chuqurlikka yetaklaydi. Tabiat — faqat go'zallik emas, u ruhiy saboq, ma'naviy uyg'otuvchi hamdir.

She'r yakunidagi band esa ruhiy ilinj va tasalli bilan yakunlanadi:

"Zigirday urug'dan tosh yorib o'sgan,

Shu archa borliqni poklaydi besas.

Yurtim, ko'ksingdagi alamlaringni

Bitta archachalik aritolsam — bas!"

Bu satrlar she'rning eng teran ruhiy qatlamidir. Zigirday urug'dan tosh yorib chiqqan archa — umid, bardavomlik va go'zallik timsoli. Shoir archa orqali butun vatanni poklamoqchi: archaning bardoshi —

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkinov A.Navoiy peyzaj ustasi.Toshkent: Fan.36-b
2. Haqqulov I. Zanjirband she'r qoshida(Navoiy saboqlari).Toshkent.,Yulduzcha"—1989.11-b
3. Jabborov N.Adabiyot va milliy ma'naviyat.T: Manaviyat
4. Quronov D.Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari.— Toshkent: Akademnashr, 2018

shoirning fidoyiligi, uning sabrida — shoir yuragining pok niyati bor. "Bitta archachalik aritolsam — bas!" — bu ibora nafaqat istak, balki oddiylikdagi buyuklik, sokinlikdagi matonat ifodasidir. Misradagi she'rni yanada go'zallashtirgan narsa—yurtga murojaat. „Ko'ksingdagi alamlaringni bitta archachalik aritolsam ham o'z niyatimga erishgan bo'laman" deya vatanga murojaat qilayotgan ijodkor baytda nido san'atidan foydalanadi.„Nido so'zi xitob, chaqirish ma'nosiga molikdir. Nido she'r ohangini o'zgartiruvchi xushjaranglilik vositasidir"[5;206].Bu esa she'rning shaklan jarangdorligiga xissa qo'shgan.

Muhokama. Tadqiqot davomida shu narsa aniqlandiki, Shodmonqul Salom zamonaviy she'riyatning an'anaviy obrazlaridan foydalansa-da, ularni noan'anaviy usulda poetik kontekstga joylashtiradi. Misol uchun, archa yoki tog' manzaralari faqat tashqi tabiat hodisasi sifatida emas, balki inson qalbining ichki kechinmalari ramzi sifatida talqin qilinadi.

Tadqiqot jarayonida XXI asr o'zbek she'riyatida peyzaj va badiiy obraz uyg'unligi muhim poetik tamoyil sifatida namoyon bo'layotgani aniqlandi. Ayniqsa, Shodmonqul Salomning "Baxmal archasiga" she'ri bu uyg'unlikning yorqin namunasi bo'lib xizmat qildi. She'rda tabiat manzarasi oddiy tasvir emas, balki ichki kechinmalar, tarixiy xotira va ruhiy o'sishni ifodalovchi badiiy vositaga aylangani kuzatildi.

Avvalo, archa obrazi shunchaki o'simlik emas, balki bardosh, fidoyilik va matonat timsoli sifatida talqin qilindi.

Umuman olganda, "Baxmal archasiga" she'ri orqali XXI asr o'zbek she'riyatida peyzaj obrazining lirik qahramon ruhiyati bilan uyg'un holda shakllanishi, obraz va manzara o'rtasidagi poetik bog'liqlik yangi bosqichga ko'tarilayotgani ko'zga tashlanadi. She'rda tabiat va inson, o'tmish va bugun o'zaro singishgan holda mavjud bo'lib, zamonaviy o'zbek poeziyasi uchun estetik yangilik sifatida baholansa, ajab emas.

Xulosa. „XXI asr o'zbek she'riyatida badiiy obraz va peyzaj uyg'unligi" nomli tadqiqot tahlili shuni ko'rsatadiki, zamonaviy lirikada peyzaj — shunchaki tashqi tabiat manzarasi emas, balki inson qalbining ruhiy holatini ifoda etuvchi kuchli badiiy vositaga aylangan. Shodmonqul Salomning "Baxmal archasiga" she'rda archa, tog' obrazlari orqali insonning ichki dunyosi, milliy o'zlik, sabr, fidoyilik kabi tushunchalar ifodalanadi.

Shoir archa obraziga hayotiy kuch, iroda, matonat, sadoqat va vatanparvarlik timsolini singdiradi. Tog'lar — tarixiy xotira, archa — sobitlik belgisi sifatida talqin etiladi. She'rda obraz va peyzaj o'zaro shunday uyg'unlashganki, ular bitta poetik organizm sifatida yashaydi. Bu orqali shoirning yurtga bo'lgan muhabbati va shu muhabbatni singirish hissi namoyon bo'ladi.

Ushbu tadqiqot natijalari XXI asr o'zbek she'riyatida, xususan Shodmonqul Salom ijodida, badiiy obraz va peyzaj uyg'unligi poetik o'ziga xos ko'rinishga ega bo'lganligidan dalolat beradi. Bunday uyg'unlik esa zamonaviy she'riyatning badiiy-estetik qamrovini kengaytirib, uning ta'sirchanlik darajasini oshiradi. Shu jihatdan, peyzaj badiiy obraz ruhiyati bilan uyg'unlashtirilgan holda berilishi zamonaviy o'zbek she'riyati uchun muhim taraqqiyot bosqichi hisoblanadi

5. Rahmonov V.She'r san'atlari. „Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.Toshkent — 2020
6. Yo'ldoshev Q.Badiiy tahlil asoslari.Toshkent —2016.132—b
7. Shomurotova Ch.Isajon Sultonning „Alisher Navoiy romanida" peyzaj—romantik tafakkur asosi. Uzbekista

¹ t/me Shodmonqul_SALOM telegram sahifasi (Keyingi barcha misralar ushbu tg sahifadan olingan)



ZAMONAVIY DAVR O'ZBEK SHE'RIYATIDA AN'ANAVIY G'OYALARNI NOAN'ANAVIY USLUBDA YETKAZIB BERISH (SHODMONQUL SALOM YOZIQLARIDAGI VATANPARVARLIK G'OYASI MISOLIDA)

Sobirova Ismigul,

Qo'qon DU Filologiya fakulteti O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 20 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1200	Ushbu maqolada zamonaviy o'zbek she'riyat vakillaridan biri Shodmonqul Salomning ijodida vatanparvarlik g'oyasining badiiy talqini tahlil etiladi. Shoir an'anaviy mavzuni — Vatanga muhabbat, xalqqa sadoqat tuyg'ularini o'zgacha uslubda ifodalaydi. Ushbu tadqiqot vatanparvarlik g'oyasining zamonaviy she'riyatda yangicha poetik talqini estetik zavq berishi bilan bir qatorda doimiy ravishda dolzarb hisoblangan masalalardan biri—yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun ham ahamiyatli ekanligini namoyon qiladi. Tadqiqot davomida zamonaviy davr she'riyatida an'anaviy g'oyalarni noan'anaviy uslubda yetkazib berish Shodmonqul Salom she'rlaridagi vatanparvarlik g'oyasi misolida sotsiologik, tarixiy-madaniy, struktural hamda stilistik tahlil metodlaridan foydalangan holda tahlil qilinadi.
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS Badiiy talqin, poetik uslub, metafora, tamsil	

Kirish. Ona vatanga muhabbat, sadoqat, vatanparvarlik tuyg'usi har qanday millat ma'naviyati va adabiyotining ajralmas qismi hisoblanadi. Ayniqsa, mustaqillikdan keyingi o'zbek adabiyotida ushbu mavzu muhim ahamiyat kasb etmoqda. Vatanparvarlik g'oyasi—o'zlikni anglash va shu orqali butun bir millat buguni va kelajagini anglash, milliy g'urur g'oyalari bilan chambarchas bog'liq holda, zamonaviy adabiy jarayonda o'zlikni anglash, tarixiy xotira, milliy g'urur va taraqqiyot g'oyalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan holda bugungi adabiy jarayonda asosiy mavzulardan biri sifatida tadqiq etilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan, XXI asr lirikasida vatanparvarlik g'oyasining badiiy talqini va bu yo'nalishda ijod qilayotgan shoirlar asarlarining tahlili dolzarb ilmiy masala sanaladi.

Vatanparvarlik g'oyasining badiiy talqinini Shodmonqul Salom ijodi misolida o'rganish orqali zamonaviy davr adabiyotshunosligidagi muhim ilmiy bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy o'zbek she'riyatida vatanparvarlik g'oyasi har doim muhim mavzulardan biri bo'lib kelgan. Ammo bu g'oyaning ifoda vositalari va uslubi har davrga xos tarzda o'zgarib, yangi badiiy shakllar bilan boyib bormoqda. Adabiyotshunos olim Ra'no Mullaxo'jayeva badiiy ijod jarayoni haqida fikr yuritir ekan, she'riyatda ijodkor tomonidan mavzu tanlash jarayoniga to'xtalib o'tadi: „Ijod o'ta murakkab jarayon. Insonning qalbida, ko'ngil tubida kechayotgan his va tuyg'ularni, ongida aylanayotgan o'y-fikrlar tug'yoni bir qarashda ilg'ash o'ta mushkul. Ijod esa ana shu qalb-u ko'ngil bilan ong uyg'unligidan tug'ilgan meva hisoblanadi. Ijodkorning qaysi mavzuni tanlashi, qanday g'oya mavzuni ifodalashi ana shu ikkita asosga tayanadi. O'z navbatida, bu ikki asos ijodkor yashayotgan zamon va ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liqdir. Ijodkor mavzuni tanlaydimi, yoki, aksincha, mavzu muallifni tanlaydimi, masalaning bu jihati bizning obyektimizga bevosita dahldor emas. Muhimi, mavzuning badiiy voqelikka aylanishidir. Har bir mavzu u yoki bu darajada an'anaviy ko'rinishga ega. Faqat davr talablariga ko'ra biror-bir mavzu nisbatan dolzarblik kasb etishi mumkin. She'riyatdagi vatan va vatanparvarlik mavzusi ham deyarli har bir davr uchun dolzarbdir". [3, 59]

Adabiyotshunos olim Ibrohim Haqqul o'zining „Vatan —yagona kenglik" nomli maqolasida insonni vatanparvarlikka chorlovchi quyidagi fikrlar keltirilgan: „Vatandan tashqarida vatan yo'q. Mana shuning uchun inson faqat jonajon yurtida o'zini mag'rur, xotirjam his qiladi. Vatan sevgisini yurak yorug', e'tiqod va iymon uyg'oq. Jamiki insoniy jasoratlarining onasi—Vatan. O'z diyorida kishining qo'rqishga, bosh egib yashashga haqqi yo'q. Chunki bu—vatanga munosib bo'lolmaslik, yanada yomoni uning sha'nini tahqirlashdir. Vatan ishq o'limdan ustun. Qalbida vatan muhabbati bor kishini dunyodagi hech bir yovuz, hech qaysi jallod yenga olmagan. Qiynagan, ayovsiz haqoratlangan, o'ldirgan, lekin mag'lub qilmagan. Vatanni sevish—burch, kurash, zarur chog'da, hech ikkilanmasdan jonni qurbon qilishdir". [2, 212]. Bularning barchasi esa tadqiqotning muvaffaqiyatli dalillanishi uchun asos bo'ladi.

Tadqiqot davomida XXI asr she'riyatida an'anaviy g'oyalarni noan'anaviy uslubda yetkazib berish mahorati Shodmonqul Salom lirikasidagi vatanparvarlik g'oyasi misolida ko'rib chiqilib, she'ring g'oyaviy-badiiy tahlili jihatidan tarixiy-madaniy tahlil metodi, shakllar struktural, stilistik tahlil metodlari qo'llaniladi. Shuningdek, ijodkorning misralar orqali aytmoqchi bo'lgan so'zlari adabiyotshunos olimlarning ilmiy va publisistik asarlaridagi tadqiqot mavzusiga yondosh fikrlar bilan qiyoslanib, qiyosiy tahlil metodidan foydalaniladi.

Natijalar. Shoir Shodmonqul Salom ijodida vatanparvarlik mavzusi an'anaviy ruhda emas, balki falsafiy teranlik, timsollar orqali chuqur va hissiy tasvirda yoritiladi. Uning "Vatan haqida she'r" asarida vatan nafaqat geografik hudud, balki ma'naviy manba, ajdodlar ruhi, tarix va shaxsiylik bilan uyg'unlashgan muqaddas makon sifatida talqin qilinadi. Shoir o'z Vatani bilan dardli, lekin sadoqatli suhbat quradi. Bu suhbatda Vatanga bo'lgan muhabbat noan'anaviy yo'sinda — kuylov, armon, quvonch, azob va iltifor aralash ohangda beriladi.

"Sendan boshqa uy yo'qdir, mendan boshqa devona,

Bir hovuch ko'ngil bergil, ostonangda yuribman."¹

Ushbu misralarda Vatanga bo'lgan mehr uy timsoli bilan ifodalansa-da, "devona" so'zining qo'llanishi orqali bu muhabbatni haddan tashqari, o'zini unutmidek sadoqatli darajada ko'rsatadi. Shoir bu yerda shunchaki vatanni sevmayapti, u vatan uchun "devona" bo'lishga ham tayyor.

Ayniqsa, quyidagi misralar shoirning uslubiy yangilanishini, ya'ni an'anaviy g'oyani yangi tilda aytish mahoratini yaqqol ko'rsatadi:

"Tandirlaridan non emas, quyosh uzayotgan jonlar,

Boburning tushlarida har tun o'sgan dovonlar."

Bu yerda shoir xalq hayotining oddiy bir timsoli — tandirni quyosh bilan uyg'unlashtirib, vatanni yashash manbai sifatida ko'rsatadi. Non — hayot, quyosh — yorug'lik va umid. Ustalik bilan yaratilgan bu metaforalar orqali vatanparvarlik g'oyasi an'anaviy sadoqat shaklida emas, balki an'anaviy shuur bilan o'zlashtirilgan tarixiy va ma'naviy zamin sifatida ilgari suriladi.

"Dubulg'ayu dovullar sadosi el kezganda,

Qiblasidan adashgan davron bazm tuzganda..."

Bu misralarda esa shoir bugungi davrni ham tanqidiy ko'z bilan kuzatadi. Shoirning bunday uslubi uni zamonaviy shoirlar safida ajratib turadi. U so'zlar, ritm va obrazlar orqali ko'ngildan joy oladigan, lekin chuqur o'yga chorlaydigan she'rlar yaratadi. Bu orqali u an'anaviy g'oyalarni yangi ifoda bilan jozibador qiladi.

"Sendan boshqa manzil yo'q, yo'q meningdek devona,

Bir hovuch tuprog'ingga jonni elab yuribman."

Bu yakuniy satrda esa shoir vatanparvarlikning nihoyaviy cho'qqisini — jon berish darajasidagi fidoyilikni timsollar bilan emas, balki ochiq, ammo poetik va teran so'zlar bilan ifoda etadi.

Shuningdek uning qalamiga mansub quyidagi she'rni ko'raylik:

Vatan mehningni uzma, mehningdan to'ymaguncha

Kimliging bilmas edim, farzandni suymaguncha.

„Ona tuproq" deyishni bir oqshomda o'rgandim

Buncha aziz emasding, onamni qo'ymaguncha.
Kun saying tomlarim botib borguvchi bo'ston,
Shunday bino bo'lgandir ona yurt—O'zbekiston!
Shoir vatanga bo'lgan muhabbatini namoyon etar ekan, vatan mehrini onaning mehriga va ijodkorning yurtiga muhabbatini uning farzandiga bo'lgan samimiy va iliq tuyg'ulariga o'xshatadi.

She'rni boshidan ko'rib chiqaylik:
Jahon xaritasining rangi ming bor almasldi,
Tarix mundarijasin kerak joylari kuygan.
Qay zamonda ajdodim oriyat deb talashdi,
Shunda u qadagan tug'—yerni to'xtatib qo'ygan.
Yulduzlarni muzlatgan zamindan sachragan qon,
O'zi paydo bo'lganmas biz suygan O'zbekiston!

Avvalo, O'zbekistonning buguni va kelajagi haqida so'z borganda uning o'tmishi haqida eslanmay iloji yo'q. „Moziyga qaytib ish ko'rmak xayrlidir“,—deganlaridek shoir Shodmonqul Salom ham O'zbekiston haqida misralarni o'tmishga nazar tashlashdan boshlaydi.[1,4] Ko'plab urushlar, millatlar, xalqlar to'qnashuvi davomida jahon xaritasi o'zgarib turdi. Lekin XIV-XV asrlarda o'zining adolatli tug'i bilan ko'plab davlatlarni o'z bayrog'i ostida birlashtira olgan buyuk bobomiz Amir Temur vatan sha'ni uchun kurashdi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, XX-XI asr boshlaridan boshlab turli fanlarga asos solgan insonlarga beshik bo'lgan tabarruk zamin, XIX asr oxirlari, XX asrda o'zga millat tomonidan qaram qilinganligi, milliyligidan ayrilganligi, millatni uyg'otmoqchi bo'lgan, ularni ilm-ma'rifatli bo'lishga undagan ziyolilarning qatag'on qilinganligi, oqibatda, o'tgan buyuk ajdodlar—osmondagi yulduzlar qatag'on qonidan muzlaganligi, quvonarlisi, O'zbekiston mustaqillikka erishgach tarixiy xotiraning tiklanganligi ushbu misralarda jo bo'lganligi namoyon bo'lmoqda.

Yer so'fiydir, yer marddir—hammasini aytmaydi,
Tinglab, anglab olmoqqa goh sabrimiz yetmaydi.
Otangga o'xshar Vatan, sen undan to'ragansan,
Kechirar, kek saqlamas, shuningdek, unutmaydi.
Lochinning tuxumidan boyqush chiqmas hech qachon,
O'zi paydo bo'lganmas biz bilgan O'zbekiston!

Shoir vatanni uning bir bo'lagi bo'lgan zamin—yer orqali ifoda etar ekan, ona zaminni tasaffuviy obraz hisoblangan „so'fiy“ so'zi orqali sifatlaydi. Shuningdek, ijodkor ona zamin unga nisbatan salbiy munosabatda bo'lganlarga ham yaxshilik qilishga urinishi, o'zbek xalqining ochiqko'ngil ekanligini ta'rifi, „kechirar, kek saqlamas, shuningdek, unutmaydi“ misralari bilan go'zal ifoda yaratadi. Ayniqsa, lochinning tuxumidan boyqush chiqmas hech qachon“ misrasi orqali shoir tamsil san'atidan ham foydalanadi.

"Tamsil (arabcha "misol keltirish", "o'xshatish" ma'nolarida) —she'riyatda keng qo'llaniladigan badiiy san'at bo'lib, unda muayyan g'oya, fikr yoki ma'no aniq, yorqin bir voqea, obraz yoki holat orqali ifodalanadi. Tamsil san'ati asosan o'quvchiga tasirchanroq bo'lishi uchun o'xshatish va misollash yo'li bilan bayon qilinadi. Tamsilda shoir bir voqelikni bevosita aytmay, balki o'z maqsadini ramziy shaklda biror voqea yoki hodisa orqali ko'z oldiga keltiradi.

Tamsilning asosiy vazifasi — ma'naviy-axloqiy g'oyani xalqona, sodda, ammo teran ma'noli misollar yordamida yetkazishdir. Bu san'at turidan foydalanib, shoir o'zining ijtimoiy, axloqiy, tarbiyaviy qarashlarini obrazli shaklda ifodalaydi. Tamsil ko'pincha xalq maqollari, ertaklari va afsonalari ruhida yaratilgan she'rlarda uchraydi".[5]

Ha, yerning ostidadir tillolarim, zarlarim,
Tarbiyachi pirlarim, ushlab turgan zarlarim,
Tag'in shunda botindir, shu Vatan ostidadir,
Peshonasi torlarim, peshonasi sho'rlarim.
Bul tuproqni sev, bolam, tavof qilgin har qachon,
Bu oddiy tuproq emas—tabarruk O'zbekiston.

Ijodkor „Ha, yerning ostidadir tillolarim, zarlarim“deyish orqali ikki xil ma'noni ifodalamoqchi bo'ladi:1)O'zbekiston foydali qazilmalar, jumladan, yer osti boyliklariga boy mamlakat; 2)o'tmishda yurtning mustaqilligi, xalqning manfaati uchun fido bo'lgan shaxslar nafaqat

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov B. „O'tgan kunlar“ ibrati. Toshkent „Mashhur—Press“, 2019.4-b
2. Haqqulov I. Zanjirband she'r qoshida(Navoiiy saboqlari).Toshkent.,„Yulduzcha“—1989.212-b
3. Mullaxo'jayeva R.Tafakkur yangilanishi.Muharrii nashriyoti.Toshkent —2019.59-b

ijodkor, balki butun millatning boyligi hisoblanadi, ularning xotirasi—abadiy.

Olomon emas, xalq bo'li, deya bitmish shoirilar,
Elining baxtin ko'rsa —ruhlari shod yotirlar.
Ulug' tog'larga qara —yuraklarning ulg'aysin,
Otasi botir bo'lmay tug'ilmas bahodirlar.
Orzu ham suyak sugar, umiding bo'lsin omon,
Shu xalqning orzusidir, bezavol O'zbekiston

O'zi kabi vatanparvar shoirilarning doimo millat kelajagi buyuk bo'lishi xohishini misralarida tarannum etishini ta'kidlagan ijodkor yosh avlodlarga quyidagicha xitob qiladi: „Ulug' tog'larga qara—yuraklarning ulg'aysin“. Ushbu chaqiruvga dalil sifatida esa muallif tamsil san'atidan foydalangan holda „otas botir bo'lmay turib bahodirlar tug'ilmasligi“ haqidagi fikrni ilgari suradi.

Koshki, shu she'rim bilan ajdod ruhin shodladim,
Xotirasi pand bergan zamonlarni yodladim.
Shom qirg'og'ida edim, tong sohili ko'rindi,
Bu tun kuldim, yig'ladim, quvoniblar dodladim.

Buyuk ajdodlar, butun bir millatning azaliy orzusi sifatida O'zbekistonning mustaqillikka erishuvi—qorong'u kunlardan so'ng yorug', nurlil damlar yetushuviga shukronalik yuqoridagi satrlarda o'z aksini topgan. She'rning so'nggi misralari esa ijodkorning avlodlarga yurakning eng tubidan otilib chiqqan nidoga o'xshaydi:

Qanday shirin uxlaysan, bolam, ko'zing och, uyg'on,
Seni yo'rgaklayotir oppoq tong —O'zbekiston!

She'r davomida yurtga ona yurt, bezavol, tabarruk,ayniqsa, oppoq tong kabi ta'riflarining berilishi ijodkorning yurtga muhabbati naqadar kuchli ekanligidan dalolat beradi.

Muhokama. Tadqiqot davomida shu narsa aniqlandiki, XXI asr she'riyati umuminsoniy g'oyalarni o'zgacha tarannum etish xususiyati bilan boshqa davrlardan ajralib turadi.Jumladan, Shoir ona-Vatanga muhabbat tuyg'usini ifodalashda nafaqat an'anaviy uslubga tayanadi, balki zamonaviy poetik vositalardan — ramz, metaforaning o'ziga xos ko'rinishlaridan samarali foydalangan. Bu jihat Shodmonqul Salom ijodiyotini boshqa ijod vakillaridan ajratib turuvchi jihatlardan biri hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'tsatadiki, Vatanga muhabbat nafaqat ijodkorning, balki butun millatning yurtga muhabbat, shaxsiy g'urur tuyg'ulari bilan chambarchas bog'langan holda tarannum etiladi. Ushbu yondashuv orqali shoir milliy o'zlikni anglash jarayoniga xissa qo'shadi.

Ilmiy adabiyotlarni tahlil qilish davomida ma'lum bo'lidiki , zamonaviy o'zbek she'riyatida vatanparvarlik mavzusi keng o'rganilgan bo'lsa-da, aynan Shodmonqul Salomning she'riyati poetikasi, uslubi va obrazlar tizimi bo'yicha izchil ilmiy tadqiqotlar yetarli emas. Ushbu maqola bu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan muhim qadamlardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalari adabiyotshunoslik, milliy g'oyani shakllantirishga qaratilgan madaniy-ma'rifiy dasturlar uchun asos bo'la oladi. Kelgusida shoirning boshqa mavzulardagi she'rlarini tahlil qilish ham dolzarb ilmiy yo'nalish sifatida ta'kid etiladi.

Xulosa. Ushbu tadqiqot natijalari Shodmonqul Salom lirikasida vatanparvarlik g'oyalari alohida o'ringa ega ekanligini ko'rsatadi. Shoir ijodidagi erkinlik, mustaqillikning qadriga yetish, vatanga muhabbat va sadoqat tuyg'ularini qalban his etish, xalqparvarlik va milliy birlik singari tushunchalar o'ziga xos badiiyat orqali tasvirlanadi.Uning vatanparvarlik mavzusidagi she'rlari o'quvchini ruhlantiradi, o'tmish va bugun o'rtasida bog'lovchi ko'pri bo'ladi. Go'zal misralari orqali ijodkor nafaqat vatanga bo'lgan muhabbatini namoyon etadi, balki kitobxonlarga ham shu tuyg'uni singdirishga harakat qiladi. Shu tarzda u she'riyat orqali milliy o'zlikni zamonaviy talqinda qayta kashf etadi.

Ushbu tadqiqot natijalari XXI asr o'zbek adabiyotida vatanparvarlik g'oyasining badiiy ifodasini o'rganishda muhim nazariy asos bo'la oladi. Shuningdek, bu yo'nalishda adabiyotshunoslik va o'quv-tarbiya jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan uslubiy tavsiyalar ishlab chiqish imkoniyatini ham yaratadi.

4. Qur'onov D.Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari.—Toshkent: Akademnashr, 2018

5. Rahmonov V.She'r san'atlari. „Sharq“ nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.Toshkent — 2020



MILLAT MA'NAVIYATINING BADIY IFODASI

Shahboz Ergashev, tadqiqotchi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 21 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1201 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Mazkur maqolada hozirgi o'zbek adabiy jarayonining peshqadam, ilg'or ijodkorlaridan biri Bahodir Qobul ijodi orqali millat ma'naviyati va uning badiiy ifodasi tahlil qilingan. Millatning ma'naviy qadriyatlari, tarixiy ildizlari va bugungi kun bilan bog'liqligi, shoir asarlaridagi ramziy obrazlar, til va uslub xususiyatlari asosida ochib berilgan. Maqolada adibning badiiy uslubi, millat ongini shakllantirishdagi roli va ijodining milliy adabiyotdagi o'rni haqida fikrlar ilgari suriladi. Shu bilan birga, millat ma'naviyatining saqlanib qolishi va taraqqiyotida san'at va adabiyotning ahamiyati ta'kidlanadi. Tadqiqot millat madaniyatini chuqur anglash va baholashda Bahodir Qobul ijodining o'rni va ahamiyatini yoritishga qaratilgan.
ma'naviy qadriyatlar, tarixiy ildizlar, ramz, obraz, til, uslub, millat, g'oya, mavzu, estetik qarashlar.	

KIRISH. Vaqt shiddati tobora ortib borayotgan bugungi kunda fan-texnikaning yuksak taraqqiyoti ijtimoiy hayotning barcha sohalariga o'zining sezilarli ta'sirini ko'rsatib ulgurdi. Keng koinot ostida yashab turib ham virtual olam ichida yashayotgan yoki sun'iy intellekt ta'sirida shu olam qa'riga kirib borayotgan yangi avlodga uchar gilam, dev-u parilar haqidagi ertaklar so'zlab tarbiya berishlik ertakka aylanmoqda. Hatto kishilar o'rtasidagi qarashlar, fikrlar, munosabatlar ham o'zgaragan.

Lekin shuni aniqlik, texnika, texnologiya qanchalik ilgariilmasin, turli madaniyatlar yaqinlashuvi sodir bo'lmasin, baribir, insonning hissiyotlari, dardu hasratlari, orzu-armonlari aslo o'zgarmaydi. Turfa qarashlar orasida yashasa ham kishi o'z qalbini anglashga, o'z "men"ini topishga intiladi. Allaqanday suronli yot fikr, qarashlardan himoyalanshda, millat ma'naviyati, madaniyatini saqlab qolishda hech bir vosita yoki kuch adabiyotning o'rnini bosolmaydi.

Darhaqiqat, inson qalbining poklanishi, ma'naviy-axloqiy tozarishi, ong-u shuurining o'sishida biror san'at kishi hayotida adabiyotchalik muhim rol o'ynolgan emas. O'z navbatida, adabiyot sahnasidagi har bir asar ham kitobxon qalbini ma'naviy ozuqa bilan to'yintiravermaydi. Yaratilgan asar ijodkorning ilhom deb atalmish ilohiy kuchidan, borliq haqidagi chuqur sezimlaridan, diniy va dunyoviy ilmlarning asrordan, so'zning sehirli jozibasidan oziqlanib, kuch olib bunyod bo'lsagina chinakam ma'naviyatimiz xazinasiga mos durdonaga aylanadi.

Yozuvchi Bahodir Qobul mana shunday durdona asarlar yaratgan va yaratayotgan, o'z uslubi va o'z ovozigaga ega iste'dodli ijodkorlarimizdan biridir. "Badiiy ijod hamisha So'z olamiga sayohatdir. Ijodkor So'zni tirik jon deb biladi va So'z bilan so'zlashadi". Bahodir Qobul so'z bilan kezi kelganda "tillashib" chinakam iqtidori, yuksak salohiyati, keng dunyoqarashi bilan adabiyot maydonida o'z uslubini namoyon qila oldi.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Ma'naviyat masalasi o'zbek adabiyotshunosligida doimo dolzarb bo'lib kelgan. Jumladan, I. G'ofurov, I. Haqqulov, S. G'aniyeva, D. Quronov, Z. Qobilova, G. Sattorova va boshqa adabiyotshunoslar o'zbek milliy adabiyoti va uning ma'naviy-estetik tamoyillari haqida chuqur ilmiy mulohazalar yuritgan. Ularning tadqiqotlari mumtoz adabiyotdan tortib, hozirgi adabiy jarayondagi badiiy asarlar millat ma'naviyatini asarda qanday ifodalashi, obrazlar orqali qanday qadriyatlarni ilgari surishi tahlil etilgan.

Zamonaviy o'zbek adabiyotining eng peshqadam ijodkorlaridan biri Bahodir Qobul ijodi haqida yozilgan tanqidiy maqolalar "Jahon adabiyoti", "Yoshlik", "Sharq yulduzi", "O'zbekiston adabiyoti va san'ati" kabi adabiy jurnallarda e'lon qilinib borilmoqda. Ularda yozuvchining milliylik, tarixiylik, ruhiy tafakkur va insoniylik mezonlarini qanday badiiy talqin qilgani e'tirof etilgan.

Bahodir Qobulning nasriy asarlari (hikoya, qissa, roman) o'zbek xalqining qadriyatlari, ichki dunyosi, tarixiy xotirasi va ma'naviy-axloqiy qarashlarini ifodalovchi muhim badiiy manba sifatida qaraladi. Uning asarlaridagi milliy ruh, til boyligi, obrazlar tizimi haqida O. Ergashning "Ma'naviy boyligimiz manba'i (Bahodir Qobulning "Bog'dagul" hikoyasidan tuygan hayratlarim)" [3.48] maqolasida inson va jamiyat,

axloq va ma'naviyat munosabati kuchli badiiy ifoda topganligi tahlil qilingan.

R. To'laboyeva "Bahodir Qobul hikoyalarida olam va odam tasviri bola nigohida" [4.34] maqolasida yozuvchining "Enashamol", "Bog'dagul" hikoyalarida bola obraziga alohida to'xtalangan. Bola obrazi vositasida atrof-tabiat, turli xil xarekterga ega insonlar qiyofasi kuzatilgan tahlil qilingan.

Mazkur maqolada yozuvchining "Bog'dagul" [1] to'plamidan o'rin olgan "Enayo'l", "O'tahayot", "O'tachiroq", "Enashamol" kabi qissalari, "Enabuloq", "O'tamozor", "Tanovor" kabi hikoyalari tahlilga tortilgan.

METADOLOGIYA. Mazkur maqolada kontekstual, immanent, tarixiy-madaniy, psixologik, biografik tahlil metodlaridan foydalanib, Bahodir Qobul ijodining badiiy xususiyatlari va unda millat ma'naviyatining aks etishini o'rganishda asarlar matnini bevosita tahlil qilish orqali muallifning g'oya va estetik qarashlari aniqlab berildi. Shu bilan birga, milliy ma'naviyatni ifodalovchi obrazlar tizimi, til vositalari va poetik unsurlar tahlil qilindi. Qiyosiy uslub yordamida Bahodir Qobulning asarlari boshqa zamondosh adiblar ijodi bilan taqqoslab, ularning milliy ruhni ifodalashdagi o'xshash va farqli jihatlari ochib berildi. Tadqiqot davomida ilmiy adabiyotlar, adib ijodiga bag'ishlangan maqolalar va tanqidiy fikrlar ham tahlil qilinib, ilmiy asoslangan xulosalar chiqarildi.

NATIJJA. Bahodir Qobul asarlari bugun adabiyot muxlislarini o'ziga maftun qilib turibdi, chunki u birovga taqlid qilmay, o'zgalar gul tergan chamanga oralamay ijod qilgani uchun ham adibning "Enayo'l", "O'tahayot", "O'tachiroq", "Enashamol" kabi qissalari, "Enabuloq", "O'tamozor", "Tanovor" va boshqa ko'plab hikoyalari mutolaasi davomida ajib sirli olam bag'rida ekanimizni teranroq his etamiz. Bu asarlarni birlashtirib turuvchi ena, Mardon kabi obrazlarning gap-so'zlari, nasihatlarini goh kulib, goh qizarib, goh hayratlanib o'qiydiz, tinglaydiz. Adibning har bir asarini o'qish davomida o'zbek tilining boy xazinasidan oqilona foydalangan holda keltirayotgan so'z qo'llash mahoratiga havas-u hayrat bilan lol qolamiz. Xalqimiz orasida "Do'sting kimligini ayt-sening kimligingni aytaman" maqoli ko'p qo'llanadi. Shu kabi badiiy asarni o'qib, uning muallifining kimligini: shaxsiyati, dunyoqarashi, tasavvur olami, orzu-yu armonini bilib olish mumkin bo'ladi.

"Bog'dagul", "Enashamol" va boshqa asarlarni o'qib adibning tug'ilib o'sgan Vatan, ona-yurti nechog'lik ardoqlashiga, tabiatga mehr bilan munosabatiga milliylik, madaniy va ma'naviy xazinamizning qadrlanishiga befarq emasligiga guvoh bo'lamiz, milliylikni kuylovchi adibimiz borligidan faxrlanamiz ham.

"Enabuloq" Bahodir Qobulning mana shunday shoir qalami ostida yaratilgan hikoyalardan biridir. Asarda inson va tabiat uyg'unligi juda ta'sirchan tarzda tasvirlangan. Asar mohiyati Mardonning "Umr ham o'zi ikki ko'zingga yozilgan aslida. Oynasiga yo bulog'iga. Oynasiga tishning o'tsa oynasiga, bulog'ini o'qiy olsang bulog'iga qara" so'zlari bilan ochib berilgandek ko'rinadi. Asarni hikoya qilib berayotgan o'n yoshli bola dunyosi, tasavvurining Chingiz Aytmatovning "Oq kema" qissasidagi tabiatdan lahzaga ham o'zini ayro his qilolmaydigan bola olami bilan mushtarakligini ilg'aymiz. Chingiz Aytmatov talqinidagi bola

Mo'min chol ertaklari yordamida borliqni, dunyoni anglagan bo'lsa, Bahodir Qobul qahramoni enasining ertagu hikoyatlari bilan ulg'ayib, tabiat va inson o'rtasidagi sirli kuchni idrok qiladi. Har ikki asarda ham toshlar, o'simliklar, hatto jonivorlar bilan tillasha oladigan bolalikning beg'ubor davridagi inson qiyofasi gavdalanadi.

MUHOKAMA. Bahodir Qobul asarlaridagi ajralib turadigan o'ziga xoslik shundaki, ena, Mardon kabi inson ichki olamining oynasi vazifasidagi obrazlarning kesatqlari, achchiq gaplaridan hech kim xafa bo'lmaydi, aksincha, to'g'ri yo'lga qaytishga, vijdoniga xilof harakat qilmaslikka urinadi. "Enabuloq" hikoyasida Mardon haqida shunday fikrlar beriladi: "Tushunsa-tushunmasa Mardonning gapini birov noma'qul demagan. Deyolmagan, deyolmaydijam...U hamma vaqt gapning bo'larini aytgan".[1.58] Hikoya davomida o'rmon qorovuli Mardonning so'zlaridan "o'ziga kelgan" bo'lsa, bola va tabiatning sirli to'qnashuviga guvoh bo'lgan podachi ham keyinroq shu kabi holga tushadi.

Ma'lumki, "kishining nutqi uning xarakter xususiyatlari, intellektual darajasi va ma'naviy olami, muayyan ijtimoiy guruh yoki hududga mansubligi va shu kabilar haqida xabar beruvchi eng ishonchli manbadir. Shu bois ham adabiy asarda personaj nutqini individuallashtirish (o'ziga xos jihatlarni aks ettirish) to'laqonli badiiy xarakter yaratishning muhim sharti sanaladi".[5.120] Bahodir Qobul o'zining barcha asarlaridagi singari "Enabuloq"da ham qahramonlarning nutqiy xarakteristikasini shunday yorqin ko'rsatadiki, milliy ruh, milliy kolorit obrazlarning "bir og'iz" so'zidayoq namoyon bo'ladi. "Baringni chiviqilingdan bilaman...g'ayrating borida belingni sindirma"[1.66] deya nasihat qilayotgan podachidan tortib, "burama-surama,chappa-chuppa"gapirsa ham "chachratg'iga o'xshab qayranglamay tarqat" deb to'g'ri so'zning to'qmog'ini mahkam tutgan Mardonning so'zlari tilimizning umumxalq orasida turfa jiloda bo'y ko'rsatganligini isbotlaydi. Yozuvchi ba'zi so'zlarni lug'at qilib chiqmay "issig'ida" izohini berib ketadiki, oqibatda, kitobxon ham ortiqcha qiyinchiliksiz mutolaada davom etaveradi.

Bahodir Qobul asarlari soddagina nomlangan bo'lsa-da, ularning hammasi o'ziga juda katta milliy ruhni singdirgan. Qishloq, jarlik, tepalikdan tortib buloq manzarasigacha shunday sirli tasvirlanadiki, tabiatning sehrli mo'jizasi kitobxonning ko'z oldida yaqqol gavdalanadi.

Hikoyadagi odamlar yolg'iz borishga hayiqadigan Oynabuloqda ne sir bor ediki, u bolani tamoman maftun etdi? Qo'rquvni ham unutib salom bilan buloq boshida turib qolgan bolaning tilidan hikoya qilib berilayotgan tasviriga e'tibor beraylik: "Yorug'lik va Qorong'ulik, Nur va Zulmat, Risolat va Razolat orasida turganligimni ilkis sezdim. Oldingda Nur, o'ngda-da Nur...So'lda-da Nur. Bosh ustida Nur. Buloq kuladi. Buloqning kulishi enamning kulishiga o'xshab ketadi". Odam va olam tutashib turgan bu jarayonda ham bolaning buloqni enasiga o'xshatishi Oynabuloqni bejizga enabuloq deb nomlamaganiga ishora qiladi. Tabiat unsurlarining mohirona tasvirini o'qib, eng zo'r rassom yaratgan betakror manzara qarshisida turgandek yoki tabiat simfoniyasini maroq bilan tinglayotgandek bo'lamiz. Qarama-qarshi qo'yilgan so'zlar ifodasi esa beixtiyor o'yga toldiradi. Alloh bizga tuhfa etgan ne'matlardan oqilona foydalanyapmizmi, tabiatga qanchalik to'g'ri munosabatdamiz? Yorug'likni qorong'ilikka, nurni zulmatga aylantirib, risolatga razolat

Adabiyotlar ro'yxati

1. Bahodir Qobul. Bog'dagul. Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2021,-168 b.
2. Bahodir Qobul. SalomTurkiston. Toshkent: Ijod Nashr, 2022,-64 b.
3. O.Ergash. "Ma'naviy boyligimiz manba'i (Bahodir Qobulning "Bog'dagul" hikoyasidan tuygan hayratlarim)" // Yoshlik. 2022. 4-son.

bilan javob berayotgan bo'lsak-chi? Bu holat insonning o'z vijdoni, qalbi bilan to'qnashuvi emasmikan? Axir tabiiy, sof buloq suviga qarab har kim unda o'z aksini ko'radi-ku. Soflik qarshisida hatto hayvon (ayiq) ham insonga jilmayib qaradi. Bu manzaradan "vaqt to'xtadi, daraxtlar bosh egdi, toshlar og'zini ochib qoldi".

Hikoya davomida enaning har bir hikmatli so'zlari qaysidir voqeaga isbotdek keltiriladi. "Hamma kasofat odamning o'zidan chiqadi, tegmasa ilon ham tegmaydi". Darhaqiqat, borliqqa mehr bilan boqqanga mehr, qahr bilan boqqanga qahr qaytadi. Aytishadi-ku: "Har kim ekanin o'rar". Shuningdek, asarda do'lanadan tortib kapalak, o'rgimchak, cho'loq kaptar hamda "bir beti kuyib, bir beti kulgan" esayotgan shamol ramzlari ham hikoya voqeligini ochishga, mazmunini yoritishga xizmat qilgan.

Tog'ay Murod "Yulduzlar mangu yonadi"asarida Bo'ri polvon tilidan: "Farzandlar o'zlari minayotgan mashinaga o'xshaydi! Odam kim, mashina kim, bilib bo'lmay qolyapti..."- degan tashvishli o'yalarini keltirgan. Bu bezovta fikrlar bugun ham ko'pchilikni o'ylantirishi turgan gap. O'zganing haqqidan hazar qilmay oilasini boqayotgan, ona tiliga bepisandalik qilayotgan, dabdabozlikka berilib, puldorlar uchun alohida dasturxon tuzayotgan, ota-onasi-yu o'qituvchisining yuziga tik qarab gap qotayotgan, milliylikka eskilik tarzida boqayotgan kimsalarga ko'plab Mardonlar kerak emasmikan? Xalq o'z udumlari, urf-odatlarini bilan xalq ekanligini anglashimiz uchun bugun qanchalik enalarga muhtojmiz? "Yagona, katta va to'g'ri yo'lni topish uchun boshni yorib olish"imiz shartmi?" Bahodir Qobul asarlari bilan tanishgan har bir kitobxon bu savollarni, albatta, o'z-o'ziga beradi.

"Zar qadrini zargar bilar" deganlaridek, xalq dardini, orzularini yaqindan biladigan, ertangi kunga befarq nigoh bilan boqmaydigan, qalbi kitobga tashna inson adib asarlarini tutilmasdan, maroq bilan idrok etadi, asar qahramonlari bilan birgalikda nafas oladi, yashaydi, ular hayotini o'z olamiga muqoyasa qiladi. Lekin milliy o'zligimizni anglatish borasida yaratilgan, har bir qiyofaning o'y-xayoligacha milliylik ufurib turgan bunday asarlarni bir o'qishda tushunish, idrok qilish, xulosa chiqarish oson emas. Buning uchun, avvalo, o'tmishimizni, ajdodlarimiz ma'naviy xazinasini yaqindan anglashimiz, Vatanimiz tarixini o'rganishimiz, tilimiz qadrini, uning jilolarini his eta olishimiz lozim bo'ladi. Adabiyotshunos olim Umarali Normatov ta'kidlaganidek: "...bugungi kunda yangi badiiy jarayonlarni eskicha qarashlar orqali anglash, eskirgan mezonlar bilan baholash aslo mumkin emas. So'z san'ati o'z nomi bilan san'at, nafosat olami! Nafosat olami esa dag'allikni, qo'pollikni ko'tarmaydi"[6.78].

XULOSA. Asarlarida chinakam so'z zargari, tilshunos, adabiyotshunos, tarixchi, rassom sifatida gavdalangan Bahodir Qobul ijodiga ham yangicha nigoh bilan yondashib, asar mazmunini teran nazar bilan anglasakkina, undagi nafosat olamini kashf eta olamiz. Inson tabiatini ochib beruvchi, milliylik, Vatan, oila, xalq dardini jasorat bilan qog'ozga tushiruvchi adiblarimiz bor ekan, adabiyotimiz gulshanida turfa ko'rk-u iforga ega gullar ko'payaveradi va, albatta, bunday gullardan rohatlanuvchi kapalag-u bolarilar, bulbullar ham. Xalq irodasi, qalbining qa'rini-da aks ettiruvchi, ma'naviyatimizning badiiy ifodasi bo'lgan umrboqiy asarlarni davomli yaratishda adibimizga matonat, ilohiy ijod ishtiyoqi, charchoq bilmas kuch, xotirjamlik yor bo'lsin!

4. R.To'laboyeva "Bahodir Qobul hikoyalarida olam va odam tasviri bola nigohida" // Tamaddum nuri. 2023. 2-son.

5. Қуროнов Д., Мамажонов З., Шералиева М. Адабиётшунослик луғати. — Тошкент: Академнашр, 2010. — 397 б.
6. У. Норматов. Ижод сеҳри. Тошкент: Шарқ. 2010. -310 б.



BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING AXLOQIY-TARBIYAVIY SIFATLARINI SHAKLLANTIRISHDA BADIY MATNLARDAN FOYDALANISHNING TA'LIM-TARBIYAVIY AHAMIYATI

Muqimjonova Nilufarxon Ikromjon qizi

Qo'qon universiteti Ta'lim fakulteti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 22 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1202 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy-tarbiyaviy sifatlarini shakllantirishda badiiy matnlarning o'rni va ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada badiiy adabiyotlarning tarbiyaviy imkoniyatlari, ayniqsa, ertak, hikoya, doston va nasihatli she'rlardan ta'lim-tarbiyada foydalanish usullari yoritilgan. Tadqiqotda badiiy matnlar orqali o'quvchilarda halollik, rostgo'ylik, mehr-oqibat, vatanparvarlik, kamtarlik kabi axloqiy fazilatlarini shakllantirishning didaktik mexanizmlari ko'rsatib o'tiladi.
badiiy matnlar, axloqiy tarbiya, boshlang'ich ta'lim, ertaklar, fazilatlar, tarbiyaviy ta'sir, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, o'quvchilarning axloqiy dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy rivojlanish, adabiy-didaktik materiallar.	

KIRISH.

Bugungi kunda jamiyat taraqqiyoti bevosita ma'naviy va axloqiy jihatdan yetuk avlodni tarbiyalash bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki insoniy fazilatlariga ega, ongli va mas'uliyatli yosh avlodgina ijtimoiy hayotda faol ishtirok eta oladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, "Yangi O'zbekiston – yangi ta'lim" tamoyili asosida yaratilayotgan ilg'or pedagogik model va o'quv dasturlari, ta'lim jarayonining markaziga inson omilini – uning intellektual, axloqiy, ijtimoiy va madaniy salohiyatini qo'yishni nazarda tutadi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarining axloqiy-tarbiyaviy sifatlarini shakllantirish dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda.

Boshlang'ich maktab davri — bu bolada insoniy qadriyatlar, axloqiy mezonlar va ijtimoiy xatti-harakatlar asoslarini shakllantiruvchi poydevor bosqichidir. Bilamizki bu davrda bolalar ko'proq his qilish, taqlid qilish va o'zaro ta'sir orqali o'rganadilar. Shu nuqtai nazardan qaraganda, bu jarayonda badiiy adabiyotlar, ayniqsa ertak, hikoya, doston va she'riy asarlarning tarbiyaviy potensialidan oqilona foydalanish ta'limning samaradorligini keskin oshiradi. Boshlang'ich ta'limda faqat bilim berish emas, balki bolaning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy ko'nikmalari, hissiy tafakkuri, axloqiy dunyoqarashi va kommunikativ layoqatini rivojlantirish asosiy maqsadlar hisoblanadi. Zero, badiiy matnlar o'quvchining tasavvurini kengaytiradi, his-tuyg'ularini uyg'otadi, axloqiy tanlovlar qilishga undaydi va ruhiy dunyosini boyitadi. Bu esa bolaning mustaqil fikrlashi, oqibatni oldindan tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu jarayonni samarali tashkil etishda badiiy adabiyot, ayniqsa ertak, hikoya va doston kabi janrlarning ta'siri yuqorida ta'kidlaganimizdek beqiyosdir. Bunday matnlar bolalarning hayotga bo'lgan qarashlarini shakllantirishda, yaxshilik va yomonlikni ajratishda, voqealarga nisbatan hissiy munosabat bildirishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, badiiy obrazlar orqali berilgan axloqiy saboqlar bola tafakkurida chuqurroq o'rinishadi va boshqa usullar yoki metodlar orqali berilgan saboqlardan ko'proq bolaning xotirasida saqlanadi. Masalan, halollik, do'stlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi insoniy fazilatlar ertak va hikoyalarda jonli syujetlar orqali ifodalanadi. Bola ushbu qahramonlar bilan birga fikrlaydi, ularning xatti-harakatlarini tahlil qiladi va shaxsiy munosabatini bildiradi. Shu bois zamonaviy boshlang'ich ta'limda badiiy adabiyotdan foydalanish nafaqat til va o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish, balki bola shaxsini har tomonlama shakllantirishning ham muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Shu sababli badiiy matnlar vositasida boshlang'ich sinf o'quvchilarida axloqiy-tarbiyaviy sifatlarini shakllantirishning metodik asoslari, didaktik imkoniyatlari, shuningdek, bu jarayonning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va chuqur tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Bugungi kunda axloqiy-tarbiyaviy qadriyatlarni yosh avlod qalbiga singdirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun bu bosqich axloqiy me'yor va qadriyatlarining asosiy tamoyillarini shakllantirishda muhim davr hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, badiiy matnlar – xalq ertaklari, afsona, hikmatli rivoyatlar, bolalar uchun yozilgan she'r va hikoyalar – bolalarning ma'naviy dunyosini boyitishda, axloqiy ongini shakllantirishda beqiyos vositadir. STEAM yoki texnologik yondashuvlar bilan birga, badiiy adabiyot bolaning ichki dunyosini tarbiyalaydi – bu esa ularning ruhiy muvozanatini saqlashda muhim vositadir. Chunki zamonaviy ta'limda texnologik ko'nikmalar, fanlararo integratsiya va innovatsion usullar orqali bilim berish muhim bo'lsa-da, bu yondashuvlar ko'proq aqliy rivojlanishga qaratilgan bo'ladi. Biroq bola shaxs sifatida har tomonlama kamol topishi uchun faqat bilim emas, balki ruhiy barqarorlik, hissiy muvozanat, ijobiy hayotiy qarashlar ham zarur.

Aynan shu jihatda bolaning ichki olamiga, hissiyotlariga, axloqiy qarashlariga ta'sir ko'rsatish imkonini beruvchi vosita sifatida tarbiyaviy faoliyat, jumladan, badiiy-estetik tarbiya muhim o'rin tutadi. Texnologiyalar orqali tezkor o'rganish mumkin, biroq ular bolaning qalbiga, ichki kechinmalariga murojaat qila olmaydi. Bola o'zini anglash, his qilish, o'z xatti-harakatlariga baho berish, atrofda odamlar bilan sog'lom munosabat qurish kabi ko'nikmalarni aynan ruhiy-axloqiy tarbiya orqali egallaydi.

Shu bois, zamonaviy o'quv jarayonida texnologik yondashuvlar bilan bir qatorda, bolaning shaxsiy hissiyotlari, ruhiy holati, ijtimoiy tajribasi bilan ishlovchi yondashuvlar uyg'un holda olib borilishi zarur. Bu esa nafaqat ta'limning samaradorligini oshiradi, balki bolaning baquvvat, irodali va barkamol inson bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi.

O'zbekiston xalq yozuvchilari A.Qahhor, H.Olimjon, G'.G'ulom, X.To'xtaboyev, S.Ahmad kabi ijodkorlarning asarlari bolalar qalbiga ezgulik, adolat, rostgo'ylik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik kabi qadriyatlarni singdirishda katta pedagogik imkoniyatlarga ega. Jumladan, G'.G'ulomning "Shum bola" asaridagi obrazlar orqali o'quvchilarga har bir harakatining ijobiy yoki salbiy oqibatlari borligini anglatish mumkin. Bu esa o'quvchini mustaqil fikrlashga, o'z harakatlarini baholashga o'rgatadi. Abdulla Qahhorning "Sinchalak" hikoyasida esa halollik, mehrbonlik va vijdonlilik kabi fazilatlar bolalarga sodda va hayotiy voqealar orqali yetkaziladi. Sinchalak obrazi orqali bolalarning ijobiy fe'l-atvori, kattalarga yordam berish, halol mehnatga intilish kabi jihatlar namoyon bo'ladi. Ezgulik, mehnatsevarlik, halollik qadriyatlari shakllanadi. Yoki bo'lmasa Xudoyberdi To'xtaboyevning "Sariq devni minib" asarini oladigan bo'lsak ushbu asar fantastik syujetga asoslangan bo'lsa-da, bu asarda yosh o'quvchi o'zini tanib boradi, xatolarini anglaydi, ezgulik yo'lini

izlaydi. Asar orqali to'g'rilik, mehnatsevarlik, do'stlik va oilaga sadoqat kabi fazilatlar ilgari suriladi. Bolada ezgulik, mehnatsevarlik, do'stlik qadriyatlarini shakllanadi.

Pedagog olim A.Muxitdinova fikricha, "badiiy matnlar bolalar tafakkurini, dunyoqarashini va ma'naviy ongini rivojlantirishda muhim metodik vosita hisoblanadi". Shuningdek, D.N.Kavtaradze o'z tadqiqotlarida badiiy asarlarning axloqiy ta'sirini bolalarning empatiya, o'zgalarning his-tuyg'ularini tushunish qobiliyatini rivojlantiruvchi vosita sifatida baholaydi.

METODOLOGIYA.

Boshlang'ich ta'lim tizimida axloqiy-tarbiyaviy faoliyatni takomillashtirishda badiiy matnlardan samarali foydalanish o'quvchilar shaxsida axloqiy fazilatlarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Pedagogik jarayonda qo'llanilayotgan metodlar o'quvchilarning shaxsiy ehtiyojlari, yosh xususiyatlari, individual qiziqishlari va ijtimoiy tajribalarini inobatga olgan holda rejalashtiriladi. Bunda o'quvchilar bilan badiiy matn asosida ishlash jarayonida quyidagi metodik yondashuvlar alohida samaradorlik kasb etadi:

- Axloqiy-analitik suhbatlar – badiiy matn asosida muhokama olib borish, obrazlar xatti-harakatlarini baholash: badiiy matn asosida olib boriladigan muloqotlar orqali o'quvchilarda obrazlarning xatti-harakatlarini tahlil qilish, ular orqali ijobiy va salbiy fazilatlarini ajratish, mustaqil fikr yuritish, baholash ko'nikmalarini shakllantirishga yo'naltiriladi. Bu usul orqali o'quvchining axloqiy ongida muayyan qadriyatlar tizimi qaror topa boshlaydi.

- Rolli o'yinlar – badiiy asardagi ijobiy qahramonlarning rolini bajarish orqali o'quvchining ichki dunyosini boyitish: badiiy matndagi ijobiy qahramonlarning obrazlariga kirish orqali o'quvchilarning empatiya tuyg'usini rivojlantirish, axloqiy-hissiy kechinmalarni boshdan kechirish, ularning shaxsiy pozitsiyasini mustahkamlash imkoniyati yaratiladi. Rolli o'yinlar orqali bolalar jamiyatda o'z o'rnini anglashga intiladi va ijtimoiy-muloqot kompetensiyalarini oshiradi.

- Taqdimot va dramatizatsiya – matn asosida sahnalashtirish orqali axloqiy xulq-atvorni mustahkamlash: badiiy asar mazmunini sahnalashtirish, kichik teatr sahnalari yaratish orqali o'quvchilarda axloqiy qadriyatlarini ongli ravishda anglash, jamoada ishlash, o'z fikrini erkin ifoda qilish hamda axloqiy namunalarni hayotiy tajribaga tadbiq etish ko'nikmalari rivojlanadi. Bu yondashuv bolalarning o'zaro hurmat, birdamlik va hamkorlik ruhida tarbiyalanishiga xizmat qiladi.

- Grafik tasvirlar, rasmlar ifoda – badiiy asardan olingan g'oyalarni vizual shaklda ifodalash orqali bolalarda estetik dunyoqarashni kengaytirish: o'quvchilarga o'qilgan matn asosida mustaqil ravishda rasm chizdirish, mazmuniy sxemalar, komikslar yoki konseptual xaritalar tuzdirish orqali badiiy asardan olgan tushuncha va hissiy kechinmalarni vizual tarzda ifodalash imkoniyati beriladi. Bu usul nafaqat estetik didni shakllantiradi, balki o'quvchilarning tanqidiy va obrazli tafakkurini rivojlantiradi.

Bu yondashuvlar orqali o'quvchi nafaqat badiiy matnni o'qiydi, balki u orqali axloqiy-hissiy tajribani boshidan kechiradi, asar qahramonlari bilan birgalikda yashaydi, ular qilgan xatolaridan saboq olsa yutuqlarini takrorlashni hohlaydi va o'z hayotiy tajribasi bilan bog'laydi. Jumladan, mazkur metodik yondashuvlar bolalarning matnni faqatgina o'qib anglash emas, balki uni yurakdan his qilish, hayotiy voqealar bilan bog'lash, obrazlar orqali o'z shaxsiy tajribalarini boyitish, hayotiy qarashlarini shakllantirishga zamin yaratadi. Shu tarzda o'quvchi axloqiy g'oyalarni ichki hissiyotlari bilan uyg'unlashtirib, o'z ongida chuqur singdirishga erishadi. Buning natijasida bolada axloqiy tarbiya shakllanib boradi.

Bolalar uchun mo'ljallangan badiiy asarlar nafaqat o'qish ko'nikmasini shakllantirish, balki bolada axloqiy, tarbiyaviy tushunchalarni ongli ravishda anglashni ta'minlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan, bu darslar orqali o'quvchilarda halollik, insonparvarlik, mehr-oqibat, adolat, vatanparvarlik va mehnatsevarlik kabi fazilatlarini shakllantirish maqsadida metodik yondashuvlar tizimli va bosqichma-bosqich qo'llanishi lozim.

Pedagog olim N. N. Yusupova o'z tadqiqotida ta'kidlaydi: "Badiiy matnlar bolani ijtimoiy hayotga tayyorlaydi, uning axloqiy hissiyotlariga ta'sir etadi va estetik didini shakllantiradi". Shuningdek, I. G. Pestalozzining fikricha, axloqiy tarbiya — bu faqatgina bilim emas, balki yurak tarbiyasi hamdir. Aynan badiiy matnlar shunday yurakka yo'llangan estetik vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shuningdek, klassik pedagog I. G. Pestalozzi fikricha, "Axloqiy tarbiya — bu faqatgina bilim emas, balki yurak tarbiyasidir." Bu qarashdan kelib chiqib, badiiy matnlar bolaning yuragiga ta'sir qiluvchi kuchli estetik vosita sifatida pedagogik faoliyatda muhim o'rin egallaydi.

Shunday qilib, axloqiy tarbiya yo'nalishida qo'llanilayotgan metodik yondashuvlar tizimli va bosqichma-bosqich asosda amalga oshirilgandagina ijobiy natija beradi. Bu orqali halollik, mehr-oqibat, insonparvarlik, adolat va mehnatsevarlik kabi umuminsoniy fazilatlar o'quvchilarda barqaror shakllantiriladi.

NATUJA.

Metodik yondashuvlarning badiiy matn asosida qo'llanilishi quyidagi natijalarga olib keladi:

1. Kognitiv rivojlanish – o'quvchilar matnni o'qish va tushunish orqali sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qiladi.

2. Affektiv rivojlanish – obrazlar bilan empatiya orqali bolalar his-tuyg'ularini boyitadi.

3. Sotsial-ko'nikmalar – rolli o'yinlar va guruhviy muhokamalar ijtimoiy muloqotni rivojlantiradi.

Bunga binoan quyidagicha ilmiy-metodik misol havola etildi:

Agar dars mavzusi sifatida G'G'ulomning "Shum bola" hikoyasidan parcha tanlansa, quyidagi amaliy topshiriqlar asosida axloqiy-tarbiyaviy yondashuvni qo'llash mumkin:

- Muhokama savoli: Obid aka va Yusuf obrazlari orqali muallif qanday xulosa berishni istagan?

- Rolli sahnalashtirish: Shum bola va bobosi o'rtasidagi muloqotni jonlantirish.

- Rasmga asoslangan topshiriq: Shum bola obrazini rasm orqali ifodalab, uning fe'l-atvori haqida mulohaza yuritish.

Bu kabi yondashuvlar orqali o'quvchi faqat voqeani bilibgina qolmaydi, balki uning ma'nosini tahlil qilishga, obrazlardan xulosa chiqarishga, hayotda duch kelishi mumkin bo'lgan vaziyatlar bilan bog'lashga o'rganadi.

Shuningdek, har bir darsdan keyin reflektiv tahlil (masalan: "Bugungi dars menga nimani o'rgatdi?" kabi) yo'lga qo'yilishi o'quvchining o'z ustida ishlash madaniyatini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining axloqiy-tarbiyaviy sifatlarini shakllantirishda badiiy matnlar vositasida olib boriladigan ishlar o'quvchilarning fikrlash doirasini kengaytiradi, ularning ichki dunyosini boyitadi, ijobiy xulq-atvor ko'nikmalarini mustahkamlaydi. Bunday jarayonda pedagog o'quvchi uchun faqat bilim manbai bo'lib qolmasdan, balki axloqiy namunani targ'ib qiluvchi shaxs sifatida ham faol ishtirok etadi. Metodik yondashuvlar — ayniqsa, axloqiy-analitik suhbat, rolli o'yin, dramatizatsiya va vizual ifoda — o'quvchilarning matn mazmuni orqali shaxsiy hayot tajribasiga tayanib axloqiy xulosa chiqarishga undaydi.

MUHOKAMA.

Yuqoridagi ma'lumotlar va mulohazalar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Badiiy matn orqali axloqiy tarbiyani yo'lga qo'yish bolalarning fe'l-atvorida ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi;

2. Metodik yondashuvlar o'quvchilarning ongli, hissiy va ijtimoiy qamrovini kengaytiradi;

3. Darslar mazmuni o'quvchilarning axloqiy qarashlarini shakllantirish bilan birga, ularning estetik didini rivojlantiradi;

4. Bunday faoliyatda o'qituvchining metodik saviyasi muhim rol o'ynaydi.

Shunday qilib:

1. Ta'lim jarayonida milliy va jahon bolalar adabiyotidan namunalarni ko'proq qo'llash tavsiya etiladi, ayniqsa o'zbek xalq ertaklari, hikmatli asarlar, zamonaviy bolalar adablarining hikoya va she'rlari orqali axloqiy-tarbiyaviy ishlar kuchaytiriladi.

5. Har bir badiiy matn asosida metodik kartalar va topshiriqlar majmuasini ishlab chiqish: bu orqali o'qituvchining darsga tayyorgarlik ko'rish jarayoni yengillashtiriladi va tizimlashtiriladi.

6. Dars so'ngida reflektiv savollar joriy etish: "Men bugun qanday ijobiy sifatlarini o'rgandim?", "Obrazdagi xatoni qanday to'g'rilagan bo'lardim?" kabi savollar o'quvchining mustaqil fikrlashiga turtki beradi.

7. Sinfdan tashqari badiiy tadbirlar — sahnalashtirish, kichik spektakllar, rasm chizish tanlovlari — orqali matn mazmuni hayotga tatbiq etilishi ta'minlanadi.

8. Darsda qo'llanilgan metodlar baholash mezonlari asosida monitoring qilinishi kerak, ya'ni o'quvchilarning

axloqiy rivojlanishidagi o'zgarishlar muntazam kuzatilib, ota-onalar bilan hamkorlikda yo'naltiruvchi chora-tadbirlar belgilanadi.

Ushbu takliflar ta'lim jarayoniga joriy qilinsa, quyidagi natijalarga erishish mumkin:

- O'quvchilarda axloqiy me'yorlar mustahkamlanadi;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абдуллаев, Ш.А. Методика преподавания чтения в начальных классах / Ш.А. Абдуллаев. – Ташкент : Учитель, 2020. – 145 с.

2. Авлоний, А. Туркий гўзал ахлоқ. – Тошкент : Ўқитувчи, 1992. – 240 б.

3. Каюмов, А.Х. Бадий асар таҳлили ва уни ўргатиш методикаси / А.Х. Каюмов. – Тошкент : Ўқитувчи, 2007. – 180 б.

4. Қурбонова, Д.М. Бошланғич синф ўқувчиларининг ахлоқий тарбиясини шакллантиришда бадий матнлардан

- Tarbiyaviy ishlar dars mazmuni bilan integratsiyalashadi;

- Har bir badiiy asar orqali o'quvchilarning shaxsiy rivojlanish trayektoriyasi kuzatiladi;

- O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot insonparvarlikka asoslanadi.

фойдаланиш усуллари / Д.М. Қурбонова // Халқ таълими. – 2022. – №6. – Б. 45–49.

5. Юлдашева, З.К. Бошланғич синфда ўқувчиларга бадий асарни талқин қилиш усуллари / З.К. Юлдашева. – Тошкент : Иқтисод-молия, 2021. – 130 б.

6. Кузнецова, Е.И. Художественная литература как средство нравственного развития младших школьников / Е.И. Кузнецова // Начальная школа. – 2020. – №3. – С. 33–37.



SOVETLAR HUKUMRONLIGI YILLARIDA ICHKI ISHLAR IDORALARI TIZIMINING YUZAGA KELISH BOSQICHLARI VA FAOLIYATI

Temirova Mashhura Muhammadaminovna

Qo'qon universiteti dotsenti

+998912869015

MAQOLA HAQIDA

Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil

Jurnal soni: 15

Maqola raqami: 23

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1203>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

sovetlar, "shig'ovul", ichki ishlar, qaror, farmon, "posbon", jinoyat, jamoat, aholi, profilaktik, qonun, nizom, "mirshab", uyushgan jinoyatchilik.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Chor Rossiyasi va sovetlar hukumronligi yillarida O'zbekistonda ichki ishlar idoralarining tashkil etishi jarayonlari, ularning dastlabki nomlanishi, vazifalari huquqiy asoslarini mustahkamlanishi, ichki ishlar sohasini takomillashtirish uchun respublikada olib borilgan islohatlar, qarorlar, farmonlar va ularning amaldagi natijalari ilmiy asosda tahlil etilgan. Shunidek, 1917 yil 13 dekabrda Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi tomonidan "Turkiston Respublikasining sovet milisiyasi to'g'risida"gi nizomi tasdiqlanganligidan keyingi jarajonlar to'g'risida so'z boradi. XKSning 1918 yil 29 yanvarda Turkiston o'lkasi "Zaxira kadrlarini yaratish va militsiyani qayta tashkil etish to'g'risida"gi 17-sonli buyrug'i e'lon qilinishi natijasida Yangi militsiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlash ishiga rahbarlik qilish uchun 1918 yil 30 yanvarda "Turkiston o'lkasi shahar va tumanlari militsiya inspektori boshqarmasining bo'limi" tashkil etilganligi va uning joylardagi ijrosi to'g'risidagi masalalar tahlil etilgan. Shuningdek maqolada sovetlar hukumronligining dastlabki yillaridagi respublikadagi jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlari islohatlardan keyingi jarayonlar bilan aniq tahlillar asosida qiyosiy o'rganilgan. Bundan tashqari olingan tahlil natijalari asosida ichki ishlar sohasi hodimlarini ish samaradorligini oshirishga doir taklif va xulosalar ishlab chiqilgan.

Kirish. So'ngi yillarda dunyo miqyosida globllashuv jarayonlari, iqtisodiy, mafkuraviy, milliy mojarolar va turli siyosiy to'qnashuvlar qurolli harakatlarga aylanib borayotganligi sir emas. Dunyoning ko'plab davlatlarida qarama-qarshiliklarning xalqaro tus olayotganligi, ommaviy noroziliklar, mintaqaviy mojarolar, ichki nizolarning kuchayib borayotgani davlatlar xavfsizligini ta'minlash masalasiga e'tiborni kuchaytirmoqda. Mazkur holatlar davlat mexanizmini asosiy bo'g'inlaridan biri bo'lgan politsiyaning davlat boshqaruvi va fuqarolar xavfsizligini ta'minlovchi organ sifatidagi o'rni va rolini kuchaytirib borish zaruratini oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ2896-sonli (2017 yil 18 aprel) qarori[1] O'zbekistonda ichki ishlar profilaktikasi inspektorlari faoliyatining tarixiy ildizlarini ilmiy asosda tahlil etishni taqozo etadi.

Adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid dastlabki tadqiqotlarni o'tkazgan N.Taumuratovning "История милиции Каракалпакстана в период восстановления национальной государственности (1917-1936 гг.)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi (1999) va A.Yermetovning "Turkiston ASSRda nazorat organlari va ularning totalitar tuzum o'rnatilishidagi o'rni. (1925-1991 yillar)" mavzusidagi nomzodlik dissertatsiyasi, Q.Qodirov. Mustaqillik davrida O'zbekistonda ichki ishlar idoralarining faoliyati (1991–2011 yillar): Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasilarini keltirib o'tish mumkin. Mazkur tadqiqotlarda ichki ishlar sohasi faoliyatini turli bosqichlari bo'yicha tahlil qilingan. Jumladan, N.Taumuratov o'z tadqiqotida Qoraqalpog'istonning sovet davridagi ichki ishlar sohasi faoliyatini yoritgan bo'sa, A.Yermetov shu davrdagi O'zbekistondagi ichki ishlar sohasi faoliyatini ilmiy jihatdan tahlil etgan. Ammo mazkur sohaning mustaqillik yillaridagi faoliyati tarixiylik jihatdan faqatgina Q. Qodirov tomonidan ilmiy asosda tahlil etilgan. Mazkur tadqiqotlar o'zining soha faoliyatini turli davrlar va hududlar bo'yicha tarixiylik jihatdan tahlil etilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin yuqoridagi tadqiqotlarning barchasida ichki ishlar sohasi faoliyati umumiy tarzda o'rganilgan. Shu sababdan ichki ishlar sohasining muhim va yirik tarmog'i hisoblangan profilaktika inspektorlari faoliyati yaxlit tarzda tahlil etish dolzarb hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada obyektivlik, tarixiylik, izchillik tamoyillari, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, miqdoriy tahlil, tizimlashtirish, muammoviy-xronologik kabi usullardan foydalanildi. Yuqoridagi metodlardan foydalangan holda tadqiqot natijalari shakllantirilib, tegishli xulosa va takliflar taqdim etildi.

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston o'z Mustaqilligi va suverenitetini qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan boshlab jamiyatda barqarorlikni,

fuqarolarning tinchligi va osoyishtaligini ta'minlash hal qiluvchi vazifalardan biriga aylandi, bu hayotiy muhim vazifa respublika ichki ishlar idoralarida xizmat qilayotgan milisiya posbonlari zimmasiga yuklatildi" [1], deb ta'kidlagan O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov. Haqiqatan ham istiqloqlning ilk yillaridan ichki ishlar idorolari zimmasiga mas'uliyatli vazifa yuklatilib, jamiyatning keyingi barqaror rivojlanishida ularning hissasi salmoqli bo'ldi.

O'zbekistonning ko'p asrlik tarixida xavfsizlik va barqarorlik doimo muhim o'rinni egallagan. Buning asosiy omili – mamlakatimizning tashqi va ichki xavfsizligini ta'minlovchi kuchli armiya va huquq-tartibot organlarining samarali faoliyatidir. Buning asosiy omillaridan biri mamlakat chegaralarini muhofaza qiluvchi qurolli kuchlar va fuqarolarning tinch-osoyishta hayotini ta'minlovchi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyati bilan chambarchas bog'liqdir.

Har bir sohaning faoliyati bo'lgani kabi, ichki ishlar organlari ham uzoq tarixga borib taqaladi. Jamiyat rivojlanib boravergani sababli, ularning faoliyati ham doimo o'zgarib turgan. Ya'ni, ilgari davrlarda ularning ishlari hozirgi davrdagi milisiyaning ishlariga o'xshamagan bo'lishi mumkin. Lekin, doim xalq xavfsizligini ta'minlash uchun xizmat qilib kelganlar.

O'zbekiston hududida ichki ishlar organlarining paydo bo'lishi va rivojlanishi uzoq va murakkab tarixiy jarayon bo'lib, har qaysi davrda xususan, amirlik va xonliklar davrida ham ichki ishlar organlarining asosiy vazifasi davlatning xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurash va jamoat tartibini saqlashdan iborat edi. Mutaxassislarining ta'kidlashicha, jamiyatda tartibni saqlash va huquqni himoya qilish bilan shug'ullanuvchi organlar insoniyat tarixi qadar qadimdan mavjud bo'lgan. O'zbekiston tarixi manbalarini tahlil qilganda ham, bunday tuzilmalarning ildizlari juda qadimga borib taqaladi. Go'yoki, "milisiya" so'zining o'ziga sinonim bo'lgan yoki faoliyati o'xshash bo'lgan tushunchalar qadimgi davrlarda ham qo'llanib kelingan. Shunga qaramasdan, geografik nomlarni o'rganuvchi olimlarning ko'plab ilmiy ishlarida "milisiya" yoki "ichki ishlar organlari" degan atamalarining aniq ta'rifiga kamdan-kam duch kelamiz. Ba'zi manbalarda bu haqda qisqacha ma'lumotlar uchrasa-da, ular yetarli darajada batafsil emas. Ammo, turli davrlarda bu xizmat vakillarini "soqchi", "chokar", "yasovul", "kutvol", "shig'ovul", "qorovul", "qo'riqchi", "shixna", "sarboz", "mirshab", "shabgard", "mulozim", "posbon", "jandarm", "polisiyachi", "drujinachi", "milisiya", "ichki ishlar idoralari" kabi iboralar shaklida ishlatib kelinganligini manbalarda uchratish mumkin [2].

O'zbekiston Rossiya imperiyasi tarkibiga kiritilganidan so'ng, bu yerda Rossiyaning ichki ishlar tizimi joriy etildi. Bu tizimning asosiy xususiyati uning markazlashtirilganligi va qat'iy hukumronligi edi. Aynan sovetlar hukumronligi davriga kelib respublikada ichki ishlar

organlari faoliyatining asosiy vazifalari tizimli ravishda faoliyati shakllanib bordi, hamda ichki ishlar organlarining roli sezilarli darajada oshdi.

O'zbekistonning sovet davridagi ichki ishlar organlari faoliyati, ko'plab boshqa sohalaridagi kabi, markaziy hukumatning qat'iy nazorati ostida bo'lgan va siyosiy maqsadlarga xizmat qilgan. Bu organlarning asosiy vazifasi jamoat tartibini saqlash bilan bir qatorda, ko'pincha siyosiy qarashlari tufayli ta'qib qilingan shaxslarni kuzatish va qiynoqqa solish kabi faoliyatlarni ham amalga oshirishgan.

"Sovet davri" milisiya tarixiga nazar solsak, uning paydo bo'lishi 1917 yilgi fevral inqilobi bilan bog'liq ekanligini ko'ramiz. O'sha paytda Rossiyada vaqtinchalik burjuaziya hokimiyati o'rnatildi. Bu hokimiyat Turkistonni boshqarish uchun maxsus komitet tuzdi. Bu komitetga boylar, sotsialistlar va boshqa burjuaziya vakillari kiritildi. Yangi hokimiyat avvalgi mustamlakachilik siyosatini davom ettirdi. Qishloq boshqaruvchilari, oqsqoqlar va qozilar o'z o'rinlarida qoldirildi. Boylar xalqni urushga bormoqqa chaqirdi va xalqqa bo'lgan zulmni kuchaytirdi. Bu siyosat ishchilar, askarlar va kambag'al dehqonlarni norozi qildi. Askarlar va ishchilarning yig'ilishlarida yangi hokimiyatga ishonchsizlik bildirildi.

Ma'lumki, burjua Muvaqqat hukumati revolyusion kurashning keng tus olib borayotganidan cho'chib, mehnatkashlarning kayfiyati bilan hisoblashishga ham majbur bo'lar edi. Bu hukumat chorizmning polisiyachilik apparatini saqlab qolishga biron-bir darajada intilish mumkin emasligini tushunardi, aks holda xalq bilan kelishib bo'lmadi. Shuning uchun ham Muvaqqat hukumat polisiya va jandarmeriyani tugatishga rasman rozilik berishga majbur bo'ladi.

1917 yil 6 martda Vaqtli hukumat jandarmkorpusini tarqatib yuborish to'g'risidagi qarori qabul qilindi. Shu yilning 10 martida "Polisiya departamentini bekor qilib, uning o'rniga "xalq milisiyasi"ni tashkil qilish haqidagi"gi qarori Rossiya imperiyasi hududida polisiya o'rniga milisiya tashkil etilganligi to'g'risidagi birinchi yuridik hujjat bo'lib xizmat qildi [3].

1917 yil 25 oktyabrda Petrograd Oktyabr to'ntarishi amalga oshirilib, bolsheviklar hokimiyatni egallaganidan keyin, bu voqealarning uzviy davomi sifatida 1 noyabrda Toshkent Soveti Turkistonda sovet hokimiyati o'rnatilganini e'lon qildi. Sho'rolar o'zlarining bosh-qaruv doirasini kengaytirish maqsadida Yangi Termiz va Kattaqo'rg'onda, Yangi Buxoro (Kogon), Samarqand va Namanganda ham hokimiyatni o'z qo'liga oldi. Turkiston o'lkasida hokimiyat bolsheviklar qo'liga o'tishi bilan Muvaqqat hukumatning barcha bo'g'inlari tugatilib, o'rniga davlat hokimiyati va nazorat organlari tashkil etilib, sovet boshqaruv tizimi o'rnatildi. 1917 yil 28 oktyabrda (yangi sana bilan 10 noyabrda) sovet hukumatining vakolatiga binoan, RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi qabul qilgan "Ishchi militsiyasi to'g'risida"gi qaror yangi turdagi militsiya tashkil etilganligi haqidagi birinchi ko'rsatma edi. 1917 yil 28 oktyabrda (yangi sana bilan 10 noyabrda) sovet hukumatining vakolatiga binoan, RSFSR Ichki ishlar xalq komissarligi qabul qilgan "Ishchi militsiyasi to'g'risida"gi qaror yangi turdagi militsiya tashkil etilganligi haqidagi birinchi ko'rsatma edi [4].

Turkistonda mehnatchilar va qishloq xo'jalik ishchilaridan iborat yangi tartibot kuchlari yaratila boshlandi. 1917 yilning 18 noyabrida qabul qilingan hukumat qaroriga ko'ra, barcha ishchi, dehqon va askarlar kengashlariga xalq milisiyasini tashkil etish topshirig'i berildi. Bu tuzilma aholining hayoti va mulkini himoya qilish vazifasini o'z zimmasiga oldi [5].

1917 yil 13 dekabrda Turkiston Markaziy ijroiya qo'mitasi tomonidan "Turkiston Respublikasining sovet milisiyasi to'g'risida"gi nizomi tasdiqlandi [6]. Nizomda Turkiston Respublikasi ishchi dehqon milisiya xodimlarining asosiy xizmatlari, ularga qo'yiladigan talablar hamda hudud bo'yicha navbatchining majburiyatlari, shahar, uyezd milisiyasi bo'limi boshlig'i va ularning yordamchilari bajaradigan vazifalar ko'rsatib o'tilgan edi.

Yangi milisiyani shakllantirish va kadrlar tayyorlash ishiga rahbarlik qilish uchun 1918 yil 30 yanvarda "Turkiston o'lkasi shahar va tumanlari milisiya inspektori boshqarmasi bo'limi" tashkil etildi [7].

Turkistonda ishchi-dehqon milisiyasining yangi organlarini tashkil etish ishi 1918 yil fevral oyida boshlanib, rejali suratda olib borildi va asosan o'sha yilning birinchi yarmida tugallandi. 1918 – 1922 yillar mobaynida Turkiston kommunistik partiyasi va Sovet hukumati milisiyasi tashkiliy jihatdan takomillashtirishga va uni Sovet hokimiyatiga sodiq bo'lgan proletar kadrlar bilan, ayniqsa ko'ngilli mahalliy millat vakillari bilan mustahkamlashga jiddiy e'tibor berdilar [8].

Bu davrda Sovet Rossiyasi shaharlarida bo'lgani kabi, Turkistonda ham Ishchi-dehqon militsiyasini tashkil etish ishlari yanada jadallashtirildi. 1918 yil 8 yanvarda Turkiston o'lkasi Fuqaro ma'muriy qism xalq komissari Petrovskiy ishchi va dehqon Sovetlariga "Toshkent xalq militsiyasiga kirishni istovchilar uchun ro'yxat tuzish"ni taklif etdi. Uning maktubida shunday deyiladi: "Asosiy xizmatga faqat o'tmishi benuqson bo'lgan kishilar qabul qilinadi. Har bir nomzod haqida qisqacha tarjimai hol bo'lishi kerak".

1918 yil 29 yanvarda Turkiston o'lkasi XKSnig "Zaxira kadrlarini yaratish va militsiyani qayta tashkil etish to'g'risida"gi 17-sonli buyrug'i e'lon qilindi. Yangi militsiyani tashkil etish va kadrlar tayyorlash ishiga rahbarlik qilish uchun 1918 yil 30 yanvarda "Turkiston o'lkasi shahar va tumanlari militsiya inspektori boshqarmasining bo'limi" tashkil etildi. Militsiya inspektori vazifasini vaqtincha bajaruvchi qilib A. Baranovskiy tayinlandi. Inspektor o'lka hududi doirasida militsiyaga umumiy rahbarlikni amalga oshirar, militsiya muassasalarini tekshirar va taftish qilar, militsiya xodimlarining bir viloyatdan ikkinchisiga o'tishlarini boshqarar edi. 1918 yilning fevral oyida barcha uyezd, shahar hamda volostlarda militsiya idoralari tashkil etila boshlandi. Butun mamlakatdagi kabi Turkistonda ham sovet militsiyasi yangicha huquq-tartibotni himoya qilishga da'vat etilgan ishchi va dehqonlarning sinfiy tashkiloti sifatida bunyod etildi [9].

1920 yilning oxiriga kelib Turkiston ASSR hududida 34 ta shahar, 26 ta tuman va 92 ta rayon milisiya bo'limlari mavjud edi. 1920 yil 29 noyabrda Farg'onada tashkil etilgan milisiyada xizmat qilish uchun "Qo'shchi" ittifoqi a'zolarini jalb qila boshladi. Unda boshliqlar tarkibini tayinlash harbiy organlarning ruxsati bilan amalga oshirish belgilandi. Toshkentning yangi shahrida 300 ta, Eski shahrida 250 ta, Samarqandda 500 ta, Amudaryoda 270 ta, Farg'onada 620 ta, Yettisuvda 680 ta milisiya xodimlari byudjet hisobidan faoliyat yuritganlar. Toshkent shahri bo'yicha 40 ta shtat otliq otryadga ajratilgan. Birgina yangi shahar milisiyasining ma'muriy bo'limida 20 ta katta, 60 ta kichik milisiya xodimlar shtatlari ajratilgan [10].

Sovet davrida milliy hududlarda hokimiyatni mahalliy kadrlarga berishga alohida e'tibor berildi. Ya'ni, davlat ishlarini yurituvchi xodimlar o'sha hudud aholisining tili va urf-odatlarini yaxshi bilishi lozim edi. Bu siyosat, ayniqsa, qishloq xo'jaligi asosiy tarmoq bo'lgan mintaqalarda ishchi va dehqonlar birligini mustahkamlashga xizmat qildi. Mahalliyashtirish deb nomlangan bu jarayon partiyaning X va XII s'yezdlari qarorlari bilan yanada kuchaytirildi. Bu ishlar milisiya organlarida ham amalga oshirildi. Masalan, barcha hujjatlar mahalliy tilda yuritila boshlandi va xodimlar ona tilini o'rganishga rag'batlantirildi.

Shuning bilan birgalikda o'sha davrda milisiya xodimining o'rtacha oyiligi 23 rublini tashkil etgan bo'lsa (ayrim hududlarda oylik ish haqi 3 yoki 4 oy kech berilgan), tahlil uchun, armiya komandirini 75 rubl, mehnatkash 40 rubl, farrosh 60 rubl maosh olishgan. Ayniqsa, qishloq joylarida milisiyaning ishi xodimlar yetishmasligi tufayli og'ir edi. Qishloq joylarida bir milisiya xodimiga 3-5 ming kishi to'g'ri kelishi kerak bo'lgan holda, amalda bu raqam ancha ortiq bo'lgan [11].

1920-1924 yillar mobaynida o'lkada ichki ishlar organlarida ish yuritish bo'yicha ko'plab qarorlar chiqarilgan.

1924 yil 14 dekabrda O'zbekiston SSR militsiyasi boshlig'ining 16-sonli buyrug'i e'lon qilindi. Buyruqda "Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi hududlarida faoliyat yuritgan ichki ishlar organlari O'zbekiston SSR militsiyasi tasarrufiga o'tkazilgani ko'rsatilgan bo'lib, endilikda militsiya organlarining tarkibi butunlay qayta ko'rib chiqilishi zarurligi, xodimlarga militsiya safida xizmat olib borish qoidalarini va jamiyatda tartib-intizomni ta'minlash borasida tegishli kurslar tashkil etish kerakligi, shuningdek, tashkilotda mustahkam tizimli tartib o'rnatish muhimligi" belgilab berildi [12].

O'zbekiston SSR Ichki ishlar xalq komissarligining sovet boshqaruv tizimidagi o'rni va huquqiy maqomi haqida shu paytda Ichki ishlar xalq komissari lavozimida ishlagan Rahmat Rafiqning maqolasi 1925 yil 20 aprelda e'lon qilingan. Maqola "O'zbekistonning Ichki ishlar komissarligi va uning Sho'ro tuzilishidagi usuli" deb nomlanib, unda o'sha davrda ichki ishlar komissarligiga yuklatilgan vazifa va vakolatlar, komissarlikning yangi hukumat tarkibidagi o'rni haqida quyidagi qimmatli ma'lumotlar keltiriladi: "Ichki ishlar komissarligi Sho'ro tuzilishi usulida Sho'ro qonunlarini umumiy sharoit asoslariga muvofiq amalga qo'yadigan quvvatga molik bir muassasadir [13]. Maqolada keltirilgan fikrlar o'ziga xos qimmatlidir, chunki unda ilk bor ichki ishlar xalq komissariatiga yuklatilgan vazifa va vakolatlar, ularning faoliyatiga oid ma'lumotlar keltirilgan. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, maqolada

komissarlik rahbari tomonidan o'sha davr talabi va nuqtai nazaridan ichki ishlar komissariatiga to'g'ri baho berilgan.

Qayta tashkil etilgan ichki ishlar organlarining faoliyatini takomillashtirish maqsadida IIHK tomonidan 1925 yil 1 dekabrda "O'zbekiston SSRning Sovet Ishchi-dehqon militsiyasi haqida Nizomi" 110 qabul qilindi. Jumladan uning 1-bandida: "O'zbekiston SSRning Sovet Ishchi-dehqon militsiyasi markaziy va mahalliy hokimiyatning ijro etuvchi organi bo'lib, ular tomonidan inqilobiy tartibni himoya qilish va xavfsizlikni ta'minlash yuzasidan e'lon qilingan qaror, buyruq hamda farmoyishlarni hayotga tatbiq etadi" deb ko'rsatilgan. Umuman olganda bu davrda militsiyaga yuklatilgan vazifalar quyidagilardan iborat bo'lgan: inqilobiy tartibni himoya qilish; fuqarolarning shaxsiy va mulkiy xavfsizligini ta'minlash jarimalarini undirish; qishloq xo'jaligini nazorat qilish; qoramollarni sonini tekshirib turish [14].

Shu bilan birga militsiya organlari faoliyati davomida bir qator komissarliklar va tashkilotlarga yordam berib turgan. Yer ishlari xalq komissarligiga o'rmonlarni qo'riqlashda, ovchilik va baliqchilik qoidalarini buzmaslikni nazorat qilishda, Moliya xalq komissarligiga soliqlarni yig'ishda va aksiz qoidalarini buzilish holatlarini tekshirishda, Tashki savdo xalq komissarligiga bojxona ishlarida; Adliya xalq komissarligiga fuqaro ishlari bo'yicha sud chiqargan hukmlarni amalga oshirishda, jumladan, sudga chaqiruv va chaqiruv qog'ozlarini topshirish, sud belgilagan jarimalarini undirish hamda sud hukmiga binoan yasha ta'kidlangan hududlarni nazorat qilish va boshqalarda yordam berilgan [15].

Jamiyatdagi jinoyatchilikni oldini olish va kamaytirish ishlari jadallashtirish jarayonida O'zbekiston SSR MIK Prezidiumi tomonidan qabul qilingan qarorda (1925 yil iyul) "Temir yo'l yo'nalishlarida sodir etilayotgan o'g'rilik (ayrim hollarda bir kechada 15 ta va undan ortiq), talonchilik va boshqa qonunbuzarliklarga qarshi kurashish" vazifasi yuklatildi. Ma'lumki, O'zbekiston SSR hududlarida sovet hokimiyati o'rnatilgandan so'ng sovet rejimiga qarshi qurolli harakat 1924 yildan keyin ham davom etayotgan edi. Bu masala O'zbekiston SSR IIH yig'ilishida (1925 yil 1dekabr) muhokama etilganida militsiya organlariga "Bosmachilar guruhlarining harakati to'g'risidagi tezkor axborotlarni (ularning soni, qurollari, faoliyat yuritayotgan joyi) har bir oyda 2 marta tegishli vakolatli idoralarga topshirib turish", chekka viloyatlarda ularga qarshi kurashish kabi qo'shimcha vazifalar yuklatildi [16].

1925-1926 yillarda ichki ishlar organlarini qayta tashkil etish va faoliyatini yaxshilash bo'yicha qonunlar qabul qilinganiga qaramasdan, hujjatlarda bu ishlar amalda qiyinchiliklar bilan amalga oshirilgani ta'kidlanadi. Xususan, huquqni muhofaza qiluvchi organlarni tashkil etish va ularning ishini yo'lga qo'yishda turli muammolarga duch kelinani aytiladi [17]. Xususan eng muhim vazifa jamiyatda tartib-intizomni mustahkamlash va jinoyatning oldini olishda barcha militsiya bo'limlari va ayniqsa jinoyat qidiruv bo'limlarida malakali kadrlarning yetishmasligi (Farg'ona viloyati, Xorazm viloyati 120, Qashqadaryo viloyati 121, Qoraqalpog'iston hududlarida 90% ma'lumotsiz bo'lgan 122 va b.), ayrim rayonlarda bitta ham jinoyat qidiruv inspektorlarining bo'lmaganligi, ijtimoiy ta'minotdagi uzilishlar 123 va harajatlarga mablag' yetishmasligi 124 (aloqa o'rnatishda pochta-telegrafdan foydalanish uchun va b.), bo'limlar hatto to'ldirish uchun belgilangan blankalar bilan ta'minlanmaganligi, viloyatlarda pasport stollari va manzil byurolarining yo'qligi 125 (shuningdek, ularning faoliyatiga oid yo'riqnomalar ishlab chiqilmaganligi) va boshqa tashkiliy masalalar bilan izohlanadi. Buning oqibatida respublikaning ayrim viloyatlarida (Qashqadaryo viloyatida bu ko'rsatkich juda past bo'lgan) jinoyatlarni fosh etish darajasi 38 %gacha 27 tushib ketish holatlari kuzatilgan. Qo'qon shahrida esa fuqarolarning arizalarini ro'yxat olish kitobida ko'rsatilgan 64 ta jinoyat ishdan bor-yo'g'i 7 tasi fosh etilgani O'zbekiston ASSR Adliya Komissarligiga Farg'ona viloyat prokurori tomonidan topshirilgan xisobotlarda keltirilgan [18].

1926-yil mart oyida O'zbekiston SSR IIXX kollegiyasi yig'ilishida militsiya faoliyatiga tegishli jiddiy muammolar muhokama qilindi. Zarafshon viloyati ijroiya komiteti ma'muriy bo'lim boshlig'i A. Mukamilov Buxoroda jinoyatchilikning avj olganini ta'kidlab, fevral oyidayoq 40 dan ortiq uyushgan jinoyatchilik holatlari qayd etilganini aytdi. Mazkur holatning sababi kadrlar yetishmasligi muammosi ekanligini ta'kidladi [19].

Jumladan, 1926-yil avgustiga ko'ra, O'zbekiston SSRdagi militsiya organlarida jami 3555 kishi faoliyat yuritgan. Ular quyidagi turkumlarga bo'lingan:

1. Davlat militsiyasi: 2401 kishi (mahalliy byudjet tomonidan moliyalashtirilgan).

2. Mahkama militsiyasi: 829 kishi (shartnoma asosida tashkilotlar tomonidan ta'minlash).

3. Ko'ngilli militsiya: 325 kishi (davlat byudjeti hisobidan) [20].

Respublikada jinoyatchilikni oldini olish, jamoat tartibini saqlash uchun ichki ishlar organlari xodimlarini tayyorlashga ya'ni kadrlar yetishmovchiligini bartaraf etishga alohida e'tibor qaratildi. Chunki nafaqat respublika balki Ittifoq markazida ham mutaxassislar yetishmasligi sezilardi. Masalan, RSFSR davlat militsiyasining katta va oliy rahbarlari orasidan faqat 6 foiz xodimlar militsiya maktabini tamomlagan edilar.

VKP(b) MKK Prezidiumi va ishchi-dehqon militsiyasi xalq komissarligi hay'ati

1928 yil 22 iyunda qo'shma qaror qabul qildi. Qarorda militsiya xodimlarini tayyorlovchi vaqayta tayyorlovchi o'quv yurtlari tarmog'ini yanada kengaytirish zarurligi ko'rsatib o'tildi. Jumladan, barcha ittifoqdosh respublikalarda militsiya oliy rahbari tarkibini tayyorlovchi kurslar ochish tavsiya etildi. Shunga ko'ra 1928 yilda Samarqandda respublika militsiya maktabi, jinoyat qidiruv xodimlari va jazoni o'tash joylari xizmatchilarini tayyorlash maktablari ochildi [21].

O'zbekiston Sovet Sosialistik Respublikasi Markaziy Ijroiya Qo'mitasi va Xalq Komissarlari Kengashi tomonidan qabul qilingan qaror bilan ishchi-dehqon militsiyasining o'n yilligi ulkan bayram sifatida nishonlandi. Mazkur qarorda militsiya xodimlarining uzoq yillar davomida adolat uchun xizmat qilgani uchun moddiy rag'batlantirilishi nazarda tutildi. Xususan, ularga asosiy maoshlariga qo'shimcha ravishda mukofot pullari berilishi, turar joy uchun to'lanadigan haq miqdori kamaytirilishi va farzandlarining ta'lim olishi uchun imtiyozlar berilishi belgilandi. Bundan tashqari, viloyat va tuman ijroiya qo'mitalariga militsiya xodimlarining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish maqsadida ularni sug'urtalash, yangi xodimlar uchun yashash uchun qulay sharoitlar yaratish va mavjud turar joylarni ta'mirlash uchun zarur mablag'lar ajratish topshirildi. Respublika Sog'liqni saqlash xalq komissariatiga esa militsiya xodimlarining sog'lig'ini mustahkamlash maqsadida ularga davolanish uchun sanatoriylarda joy ajratish vazifasi yuklatildi.

Rossiya Federatsiyasi maxsus o'quv yurtlarida militsiya kadrlarini tayyorlash ittifoqdosh respublikalarga katta yordam ko'rsatdi. 1930 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, RSFSR militsiya xodimlarining soni (Uzoq Sharq va Ingushetiya tashqari) 100 mingga yaqinlashdi. 1929 yil kuzidan boshlab, militsiya safiga ayollar ham kira boshladilar va ular militsiya xodimlarining umumiy sonini 2 foizini tashkil etar edi [22].

Sovet militsiyasining bundan keyingi tashkiliy rivojlanishi, tarkibi, ish faoliyati shakli va usullarining takomillashishi SSSR miqyosida 1934 yil 10 iyulda Umumittifoq Ichki ishlar xalq komissarligi tuzilishi bilan bog'liq. Unga davlat xavfsizlik organlari va militsiya bo'ysundirilgan edi [23]. Ularning asosiy zimmasiga: ichki va tashqi davlat va chegara xavfsizligi, socialistik mulkni asrash, fuqarolik holatini qayd etish, yo'llar nazorati, davlat kartografiyasi, o'rmonlarni qo'riqlash, bozorlarda o'lchov va tarozni o'g'irlik nazorati, voyaga yetmaganlar jinoyatini oldini olish va boshqalar kirardi.

Sovet davrida ichkilikbozlik juda katta ijtimoiy muammo bo'lib, jamiyatdagi tartibsizliklarning asosiy sabablaridan biri hisoblangan. Mast holda sodir etilgan turmush qoidalarini buzish, maishiy zo'ravonlik, bezorilik va boshqa jinoyatlar kundalik hayotning ajralmas qismiga aylangan edi. Bu muammoning oldini olish maqsadida 1939 yilda 20 noyabr qabul qilingan qaror [24]ga muvofiq, ichkilikka qarshi kurash ishlari yanada kuchaytirish va militsiyaning bu boradagi mas'uliyatini oshirish maqsadida, hushyorxonalar Sog'liqni saqlash xalq komissarligidan olinib, Ichki ishlar xalq komissarligiga berildi. Bu esa, o'z navbatida, militsiya xodimlarining vazifalari doirasini kengaytirib, ularga profilaktika ishlari olib borish bo'yicha yangi vazifalar yukladi.

Ikkinchi jahon urushining dastlabki kunlaridanoq O'zbekiston Respublikasi militsiyasining ko'plab xodimlari chaqiruv bilan va ko'ngilli ravishda Qizil armiya safiga qo'shildilar. Jumladan, Samarqand viloyati militsiya idoralaridan 149 ta xodim frontga ketdi. Toshkent militsiya maktabi kursantlarining 50 foizi, komandir-o'qituvchilar tarkibining 30 foizi o'zbek milliy diviziyasi, shuningdek general Panfilov diviziyasi saflarida jang qildilar [25].

Urush yillarida militsiya organlaridan frontga ketgan erkaklar o'rniga xotin-qizlar kelishdi. Masalan, 1942 yildan 1945 yilgacha Toshkent militsiya maktabining kursantlar tarkibi ma'lum darajada xotin-qizlar hisobiga to'ldirilib, ularning salmog'i maktab kursantlari umumiy sonining 30-60 foizini tashkil qilardi [26].

Urush davrida Toshkent milisiyasida ayollar soni avvalgilarga qaraganda sezilarli darajada oshdi. Milisiyada ishlash har bir xodimdan juda katta mehnat, yuksak ma'naviy g'ayrat va mukammal halollik bilan birga, qat'iy intizomni talab qilardi.

Mamlakatimizning g'arbiy hududlaridan sharqiy va janubi-sharqiy viloyatlarga aholining ko'p miqdorda ko'chirilishi munosabati bilan yirik sanoat markazlari, bir qancha ittifoqdosh respublikalar poytaxtlari, jumladan Toshkentda shahar milisiya bo'limlari asosida shahar milisiya boshqarmalari tashkil etildi [27].

Ikkinchi jahon urushi boshlangach, milisiya xodimlarining zimmasiga tushadigan vazifalar birdaniga ortdi. Ularning asosiy ishi mamlakat ichidagi tartibni saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashdan iborat bo'lsa-da, urush sharoitida bu vazifalar yanada murakkablashdi. Birinchidan, 1942 yilda qabul qilingan qarorga muvofiq, O'zbekistonga Shimoliy Kavkaz, Gruziya va Qrimdan ko'plab odamlar majburan ko'chirib keltirildi. Ularga "dushmanga yordam bergan" degan ayblovlar qo'yildi. Masalan, faqat Qrimdan 150 mingga yaqin tatarlar O'zbekistonga surgun qilindi. Shuningdek, Gruziyadan 110 mingga yaqin mexxeti turklari ham bu yerga keltirildi. Bu kabi ko'plab odamlarni kutib olish, ularga yashash uchun joy ajratish va ish topish juda qiyin vazifa edi. Milisiya xodimlari bu jarayonda muhim rol o'ynab, ko'p ishlarni amalga oshirishlari lozim edi. Ikkinchidan, urush davrida milisiya xodimlari faqat jinoyatchilikka qarshi kurashibgina qolmay, balki dushmaning turli xil provokatsiyalariga qarshi ham kurashishlari kerak edi. Ular elektrostansiyalar, ko'priklar va aloqa liniyalari kabi muhim ob'ektlarni himoya qilish, shuningdek, harbiy sanoatni rivojlantirish uchun yaratilgan korxonalarda xavfsizlikni ta'minlash kabi vazifalarni bajarishgan. Urush sharoitida komendantlik soati joriy etilgani sababli, milisiya xodimlari kunduzi va kechalari patrul qilib, shubhali shaxslarni to'xtatib, ularning hujjatlarini tekshirishga majbur bo'lishgan [28]. Ikkinchi Jahon urushi davrida milisiya xodimlarining vazifalari juda kengaydi va murakkablashdi. Ular faqat jinoyatchilikka qarshi kurashibgina qolmay, balki majburan ko'chirib keltirilgan odamlarga yordam berish, muhim ob'ektlarni himoya qilish va jamoat tartibini saqlash kabi ko'plab vazifalarni bajarishgan.

O'sha davr milisiya xodimlaridan yuksak hushyorlik, tajriba va tezkor qarorlar qabul qilish talab qilinardi. Jinoyatchilikning yangi ko'rinishlari bilan kurashish, aholini xavfsiz joylarga evakuatsiya qilish, dushman ayg'oqchilarini ushlash kabi vazifalar muhim ahamiyatga ega

Foydalanilgan adabiyot ro'yxati:

1. Каримов И.А. Ўзбекистон Республикаси ички ишлар идоралари ходимларига байрам табриги. Ўзбекистон Республикаси Президенти девонининг нашри. Хабарнома № 4. (Пресс- бюллетень). 2007 йил, октябрь, ноябрь, декабрь. Тошкент, 6-7 бетлар.
2. Қодиров Қ.Б. Тарих: Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолиятдан: Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б.10.
3. Қодиров Қ.Б. Тарих: Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолиятдан: Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б.39.
4. Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар Вазирлиги. Тарих: Хотира, Хулоса ва Сабоқлар. Тошкент-2024. –Б.20.
5. О'зМА Р-25 -fond -1 ro'yxat. 6-ish; 9--varaқ.
6. МДА Ўз ССР Ф-339 Р-1. й/ж 664; 40-в.
7. Ўз.Р. МДА Р-39 Р-1. й/ж 63; 59-в.
8. Қодиров Қ.Б. Тарих: Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолиятдан: Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б.43.
9. Ўзбекистон Республикаси Ички Ишлар Вазирлиги. Тарих: Хотира, Хулоса ва Сабоқлар. Тошкент-2024. –Б.24
10. Қодиров Қ.Б. Тарих: Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолиятдан: Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б.48.
11. Қодиров Қ.Б. Тарих: Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолиятдан: Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б.49.
12. Ерметов.А. Ўзбекистонда ички ишлар органлари фаолияти (1925-1991 йй) Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун таййорлаган дисс. –Т 2019. –Б.49-50
13. Рахмат Рафик. Ўзбекистоннинг Ички ишлар комиссарлиги ва унинг Шўро тузилишидаги ўсули. / Қизил
14. Ўзбекистон, 1925 йил 22 апрель, 108-сон.

edi.Aholini oziq-ovqat va sanoat mollari bilan ta'minlashdagi qiyinchiliklardan foydalanib, boylik orttirishga berilgan shaxslarga qarshi kurash milisiyaning vazifalaridan biri bo'ldi. Shu yillarda OBXSS va jinoyat qidiruv idoralari oziq-ovqat va sanoat kartochkalariga qarshi kurash ishlarni amalga oshirdilar. Jinoyatchilar talonlardan ikki marta foydalanib, mahsulotlarni chayqovchilarga sotishmoqda edi. Barcha bosmaxonalar nazoratga olinib, kirish-chiqish qattiq tekshiruv ostida o'tkaziladi. Tanlangan kartochkalarni saqlash va yetkazishda xavfsizlikni ta'minlash milisiya zimmasida bo'ldi.

1949 yilga kelib ichki ishlar organlarida uchastka operativ vakillari lavozimlari joriy etildi. Ob'yektlarni muhofaza qilish yuzasidan idora milisiyasi tuzildi, hovlilar, ko'chalar, bog'lar, parklar va boshqa jamoat joylarining sanitariya ahvoli va obodonchiligi ustidan nazorat o'rnatildi. Shuningdek, milisiya xodimlarining xizmatlarini rag'batlantirish maqsadida 1950 yil 1 noyabrda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumi "Jamoat tartibini saqlashdagi a'lo xizmatlari uchun" medalini ta'sis etish to'g'risida qaror qabul qildi [29].

1953 yil 16 iyunda "SSSR Ichki ishlar ministrligi to'g'risida" Nizom loyihasi qabul qilindi. Unda SSSR Konstitutsiyasining 76-moddasiga asosan, ittifoq tarkibidagi respublikalar va avtonom respublikalarda ichki ishlar vazirliklari hamda viloyat va chekka o'lkalari ichki ishlar boshqarmalari tashkil etilishi ko'rsatildi. Ichki ishlar vazirligi to'g'risidagi Nizom loyihasida vazirlikka yuklatilgan vazifa va huquqlar ham belgilab berildi. Belgilangan vazifalar 20 bo'limdan iborat bo'lib, eng asosiysi sifatida: mamlakatda jamoat tartibini saqlash, turli ko'rinishdagi jinoyat ishlari va davlat mulkini o'marishga qarshi kurashish, pasport tizimini ta'minlash va fuqarolik holatlarini ro'yxatga olish vazifasi ko'rsatilgan. 10 ta bandedan iborat bo'lgan huquqlari orasida eng muhimi bu Ichki ishlar vazirligi mustaqil ravishda militsiya va ichki ishlar tizimidagi qo'shinlarning faoliyatiga oid huquqiy-normativ hujjatlarni qabul qilish, jumladan, buyruq, farmoyish va ko'rsatmalarni qabul qilish hamda ularning ijrosini nazorat qilish huquqiga ega ekanligi belgilab berildi.

Xulosa o'rinda aytish joizki, chor Rossiyasining Turkiston o'lkasidagi hukumronligi o'lkada jamoat havsizligini mustahkamlash ishlarning tizimli tashkil etilishiga ijobiy hissa qo'sha oldi. Xususan, chor Rossiyasining va sovetlarning o'lkadagi faoliyati keyingi davrlardagi ichki ishlar organlari idoralarining nizomlari, qaror va buyruqlarning shakllanishi va sohaning huquqiy va tashkiliy asosining mustahkamlanishiga olib keldi.

15. Эролкин М . Развития органов милиции в Советском государстве. Москва, 1967. -С.44.
16. Ерметов.А. Ўзбекистонда ички ишлар органлари фаолияти (1925-1991 йй) Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун таййорлаган дисс. –Т 2019. –Б.49-52
17. ЎР МА, 86-фонд, 1-рўйхат, 3192-иш, 478-варақ
18. ЎР МДА, 86-фонд, 1-рўйхат, 2151-иш, 382-385-варақлар.
19. Ерметов.А. Ўзбекистонда ички ишлар органлари фаолияти (1925-1991 йй) Тарих фанлари доктори илмий даражасини олиш учун таййорлаган дисс. –Т 2019. –Б.54
20. О'Р PDA, 58-fond, 1-ro'yxat, 751-ish, 27-28-varaқlar.
21. О'Р PDA, 58-fond, 3-ro'yxat, 755-ish, 101-varaқ
22. Қодиров Қ.Б. Тарих: Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолиятдан: Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б.56.
23. Кизилов И.И. НКВД РСФСР (1917-1930 гг). М., 1969. – С.141.
24. Арипов Р. Из истории госбезопасности Узбекистана (1917-1935 гг.). –Т., 1967. – С.45.
25. Қодиров Қ.Б. Тарих: Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолиятдан: Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б.62.
26. Ташкентская школа милиции. Ташкент. Изд-во ТШМ, 1964, –С.31.
27. Қодиров Қ.Б. Тарих: Ўзбекистон ички ишлар органлари фаолиятдан: Ўқув қўлланма / – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – Б.64
28. Уразаев Ш. Ташкентский Совет в годы Великой Отечественной войны. Т., «Ўзбекистан», 1968, –С.53.
29. Положение о военных трибуналах в местностях, объявленных на военном положении, и в районах военных действий. Ведомости Верховного Совета СССР. 1941. № 29.–С.34.



MAKTABGACHA YOSHDAGI O'G'IL BOLALARDA OTA ROLINING TARBIVAVIY AHAMIYATI (O'ZBEK MINTALITETI MISOLIDA)

Xujamatova Xusnidaxon Mansurovna

TMCI instituti Pedagogika va psixologiya kafedrası v.b.dotsenti (PhD)

xujamatovax@gmail.com

“Otaning o'z farzandiga beradigan eng yaxshi hadyasi bu– tarbiyadir”,
Hadislarda

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 24 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1204	Maqolada o'g'il bola tarbiyasida otaning muhim roli, har bir bolaga hayotiy dasturni yuklab olishga yordam beradigan - erkak obrazi bu ota ekanligi, ota va o'g'il o'rtasida o'ziga xos rishtalar mavjud bo'lib, otasi uning xatti-harakatlarini ma'qullashi bola uchun katta quvonchga ega ekanligi ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari, farzand tarbiyasida otaning ishtiroki bolalarda huquqbuzarlik, giyohvand moddalarni iste'mol qilish va ruhiy salomatlik bilan bog'liq muammolarning oldini olish bilan bog'liqdir. Bolalarning ijobiy natijalarga erishishi va har tomonlama rivojlanishi uchun bola tarbiyasida otalarning ro'li juda muhimdir.
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Har bir ota o'z oilasining rahbaridir. Ammo buni noto'g'ri ma'noda tushunmaslik kerak. Ya'ni, rahbar deganda o'z ayoli va bolalariga xohlagancha taqiq qo'yib, ularni istagancha tasarruf qilishi nazarda tutilmaydi. Rahbarlik degani shu oilaning mas'uliyatini his qilishdir. Bu mas'uliyatning eng muhim tomoni farzandlar tarbiyasi va ta'limidir.
hadis, erkak mas'uliyati, oila, jamiyat, ota-ona, farzandlar tarbiyasi, vatan, millat, din, pedagog-tarbiyachi, bola, ilm, talim-tarbiya, maktab, odob-axloq, barkamol rivojlangan.	Ota va uning namunasidan hayotni o'rganish - bu o'g'il uchun hayotning eng og'ir sinovlarida, jumladan, jismoniy zo'ravonlik va har qanday muvaffaqiyatsizliklarda eng yaxshi himoyadir. Ushbu maqolada O'zbek mintaliteti misolida bola tarbiyasida otaning ro'li, ahamiyati haqida ma'lumotlar ochib berilgan.
	Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, o'z farzandlarining tarbiyasi bilan faol shug'ullanadigan otalar ularning ijtimoiy va hissiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Kirish. Oila har bir jamiyatning boshlang'ich bo'g'ini hisoblanadi. Oila mustahkam, tinch, halol va pok bo'lsa, jamiyat ham osoyishta, mustahkam, farovon bo'ladi. Aksincha, oilalarda parokandalik, buzg'unchilik bo'lsa, o'sha jamiyat buziladi, tinchi yo'qoladi, u oqibatda chuqur tanazzulga yuz tutadi. Baxtli oilalar tufayli baxtli jamiyat vujudga keladi. Chunki, o'zaro mehrlil bo'lgan ota-onalarning farzandlari ham bir-birlariga mehribon bo'ladilar. Oilada yuksak ma'naviy muhitni tashkil etish juda muhim. Bunda oila a'zolarining, ayniqsa, ota va onaning o'zaro murosa-madoraga borishi, g'azabi kelganda uni yengishi va shirin so'zli bo'lishi, shu bilan birga, oilaviy sirlarni ko'chaga olib chiqmasligi singari bir qator omillar juda katta ahamiyat kasb etadi.

Ko'pchilik erkaklar farzandlar ta'limi va tarbiyasi bilan ayol kishi shug'ullanishi kerak deb hisoblashadi va bu masalani ayol kishiga tashlab qo'yishadi. Ota farzandlariga ta'lim berishi kerak. Farzand tarbiyasiga keladigan bo'lsak, unda otaning o'rni alohida. Ona otaning o'rini bosa olmaydi. Chunki farzand ko'proq onaga xarxasha qiladi, unga erkalgini ko'rsatadi. Ammo otaning oldida o'zini tiyadi. Agarda ota farzand tarbiyasini to'raligicha ona zimmasiga tashlab qo'ysa, bola xulq-atvorida nuqsonlar paydo bo'ladi¹.

O'zbek oilasida farzand tarbiyasi o'ta muhim sanaladi. Tarbiya sanati shunday xususiyatga egaki, deyarli barchaga tanish va tushunarli jarayon. Ba'zilarga esa juda oson tuyuladi. Bu ish bilan nazariy va amaliy jihatdan qanchalik tanish bo'lsa, unga shunchalik tushunarli va oson bo'lib tuyuladi. Hamma tarbiya sabr-toqatni talab qiladi. Ayrimlar buning uchun tug'ma qobiliyat va malaka, ya'ni ko'nikma kerak deb o'ylaydilar. Lekin juda kam qism bundan tashqari yana maxsus bilimlar kerakligi haqida ishonch hosil qiladi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, inson ona qornidan yaxshi yoki yomon bo'lib tug'ilmaydi. U birday tug'iladi. Yaxshi yoki yomonga aylanishi tarbiyadan, dastavval ota-ona, oila, mahalla-kuy, qishloq va ovul, qolaversa jamiyat tuzimidanir. Xalq bisotidan eng yaxshi tabarruk so'zlar duo, olqishlar ham tarbiyaga qaratiladi².

Hozirgi kunda ko'pchilik erkaklarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyati haqida gapirmoqda. Afsuski, ba'zi erkaklar bolalarga g'amxo'rlik qilish va tarbiyalash erkakning ishi emasligini aytishmoqda, bu fikr chuqur xatodir. Siz bir vaqtning o'zida diqqatli, yumshoq ota va kuchli, jasur odam bo'lishingiz mumkin. Ota chaqaloq tug'ilgan paytdan

boshlab unga g'amxo'rlik qilish va tarbiyalash jarayonida ishtirok etsa, eng yaxshisi hisoblanadi, lekin agar bu sodir bo'lmasa va u barcha g'amxo'rlikni onasiga topshirsa, u holda xulqida o'zgarishlar paydo bo'la boshlaydi. Erkakning mas'uliyati oshishining asosiy bosqichlaridan biri bu ilk farzandining tug'ilishi, chunki bu voqea uning butun hayotini o'zgartiradi: yangi mas'uliyat paydo bo'ladi; yangi tashvishlar, bo'sh vaqtini farzandi bilan bo'lishligini anglatadi. Har safar yaxshi dam olish va uxlash uchun emas, balki yosh otalar asta-sekin farzandining hayotida qanday o'rin egallashini tushuna boshlaydi.

Boshqa davlatlarda xulq-atvor va evolyutsiya markazidagi Britaniyalik olimlar ellik yil davomida o'n yetti ming chaqaloqning hayotini kuzatdilar va faol otalik tarbiyasining ularga ta'sirini tahlil qilib borishdi kuzatuv markazidagi o'g'il bolalarni voyaga yetganida, suhbat o'tkazishib, ularning ijtimoiy moslashuvi, muvaffaqiyati, o'z oilasi borligi, shuningdek, o'z oilasi bilan solishtirganda qanday ota-ona ekanligi ko'rsatdi.

Bolaning otasi bo'lmagan holatlar uning butun hayoti uchun iz qoldiradi. Bunday odamga o'z farzandlarini tarbiyalash qiyin bo'ladi, chunki u oilada erkak xulq-atvorining namunasi bo'lmagan va hamma narsani o'zi tushunishi kerak. Ba'zan shunday bo'ladiki, erkaklar o'z orzularini o'g'lida, ba'zan qizida, masalan, professional sportchi yoki zamaraliroqdir. Bolalar bilan muloqot qilishda, mashg'ulotlar yoki o'yinlarni tanlashda ularning tashabbusini qo'llab-quvvatlash kerak, kattalar esa, albatta, xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda ularga rioya qilishlari kerak. Agar ota bola bilan aloqada bo'lganida doimo sabrsiz va asabiy bo'lsa, bola nafaqat uning ko'magida, balki boshqa o'g'il bolalar va erkaklar orasida ham noqulaylikni boshdan kechiradi.

Ota-onalarni tarbiyalashda muhim nuqtasi - agar bola yig'lasa yoki noto'g'ri o'yin o'ynasa yoki noto'g'ri musiqa tinglasa, uni tanqid qilish va baholashdan bosh tortish kerak. Ota-onalarning bunday tarbiyasi

¹ Odinaxon Muhammad Sodiq. "Ota farzandiga beradigan eng yaxshi hadya – tarbiya" Jamiyat – 01 may 2021

² tierient.com/bolalarni-tarbiyalashda-otaning-roli/

ishonchsizlikka, o'zaro tushunishning yo'qolishiga, muloqotga qiziqishning yo'qolishiga olib keladi, shuningdek o'zaro munosabatlarda noqulay muhit yaratadi. Erkaklar o'z his-tuyg'ularini nazorat qilishni o'rganishlari kerak va hech qanday holatda o'zlarining g'azablarini qo'pol shaklida ifodalamasliklari kerak, chunki bu holda bola o'zini kamsitilgan va o'ziga ishonchsiz his qiladi.

Mazkur kichik tadqiqot ishida aytib o'tilgan masalalardan kelib chiqib yakuniy tadqiqot loyiha ishimizning maqsadini belgilaymiz. Tadqiqot ishimizning asosiy maqsadi o'g'il bolalarni kelajakda uning oilaviy hayoti, asosan, bolaligida otasi bilan bo'lgan munosabatlari bilan belgilashning samarali tashkil etish uchun foydalaniladigan turli tarbiyaviy pedagogik metodlar va texnologiyalarni ota-ona bilan to'g'ri yo'lga qo'yish va tanishtirishda Maktagacha Ta'lim Tashkilotlari hamkorlik ishlari bilan tanishtirish.

Bola otasining xulq-atvor uslubini o'ziga ko'chiradi. Ota jasur, kuchli insonning hayotiy namunasi bo'lib, u nafaqat qiyin paytlarda yordamga keladi, balki to'g'ri qarorni taklif qiladi, qo'llab-quvvatlaydi va maqtovg'a sazovor bo'ladi. Otasiga o'xshab ko'ringan bolakay saxovatli va mard bo'lishi, mas'uliyatni o'z zimmasiga olishi, qilgan ishining muhimligini anglash naqadar yaxshi ekanini anglaydi. Bolalar tengdoshlariga otalarining kuchligini va kasbini ko'rsatishni yaxshi ko'radilar. O'g'il bolalar hamma ishonchli himoyaga ega ekanligini ko'rishni xohlaydi, bu ularning tengdoshlari oldida mavqeyini oshirishda ota roli muhim bo'lib uni o'rganishda ilmiy tadqiqotlar natijasini taqdim etish bo'yicha olingan fikrlarni umumlashtirib, kerakli tavsiyalarni ishlab chiqishdan iboratligini ko'rsatadi.

Tadqiqot vazifalari sifatida quyidagilarni bajarishni lozim deb hisobladik:

- ✓ Maktabgacha yoshgacha bo'lgan o'g'il bolalar yuksak tarbiyasining milliy poydevorida otaning ro'lining tarbiyaviy va ta'limning nazariy asoslari va tushunchalarini aniqlash;
- ✓ O'g'il bola tarbiyasida otaning vazifasi va yondashuvlarning ta'lim jarayonidagi o'rni va ahamiyatini yoritish;
- ✓ MTT va oila bilan hamkorlik ishlari (turli mavzudagi suhbatlar, sport o'yinlari, viktorinalar, o'g'il bola tarbiyasiga oid kichik teatrlashtirilgan dasturlar, Maxalla bilan hamkorlik ishlari, posbonlar bilan uchrashuv vatanparvarlik mavzularidagi...) yo'lga qo'yish;
- ✓ Oila bilan ishlashning hamda tarbiyalashning muvaffaqiyatli, samarali amalga oshirishda pedagoglarning tajribalarini o'rganish;
- ✓ Ushbu tajribalarni umumlashtirish va amaliyotda qo'llash uchun tavsiyalar berish;
- ✓ Tarbiyachining yondashuvlari yordamida ta'lim sifatini oshirish yo'llarini ko'rsatish;
- ✓ Natijalarni chizma va diagrammalarda ifodalash;
- ✓ Ilmiy xulosa va takliflar tayyorlash.

ADABIYOTLAR TAHLILI. Sharq allomalari o'z asarlarida farzandlarga tarbiya va ta'lim berish, uni ma'rifatu madaniyatga yetaklash muammolariga e'tibor berganlar. Buyuk mutafakkirlar farzand tarbiyasi, go'zal axloqning inson kamolotiga sabab bo'luvchi yuksak fazilat ekanini ta'kidlaganlar. Jumladan, Imom Buxoriyning "Al-Adab al-mufrad hadislar to'plami, Abu Lays Samarqandiyning "Tanbehul g'ofiliyn" asarlarida farzandlarga yuksak insoniy fazilatlarini kamol toptirish tarannumi etilgan.³

Bola tarbiyasi masalasi Abu Bakr Muhammad ibn Al-Abbos Al-Xorazmiy qarashlarida ham mavjud. Uning aytishicha, "Ota-onalar ikki xil: tug'ilish otasi va ta'lim berish otasi: birinchisi, jismoniy hayot sababli, ikkinchisi ruhiy hayot sababli". Shunga ko'ra, ularni uzviy birlikda olib qarash tarbiya ishida muhim ahamiyatga molikdir. Uning quyidagi so'zlari ibratlidir: "Zamondan yaxshiroq ta'lim (beruvchi) muallimni, insondan yaxshiroq ta'lim oladigan o'quvchini ko'rmadim". Uning bu so'zlaridan, bir tomondan, ijtimoiy muhitni bola tarbiyasi uchun hal qiluvchi ta'sirini anglasak, ikkinchi tomondan, inson shaxsi ta'lim-tarbiya natijasida kamolotga erishib borishi mumkinligini sezamiz.

XI asrda yashab, ijod etgan zabardast adib Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" nomli didaktik asarida ota-ona hamda bolaning o'zaro munosabati borasidagi fikrlarini psixologik va pedagogik jihatdan yoritib bergan. "Ota o'z farzandini tergap tarbiyalasa, uning fe'l yo'rig'i yaxshi bo'ladi, ota va onaning yuzi yorug' bo'ladi." "Ota farzandini bilimli va idrokli qilib tarbiyalamoqchi bo'lsa, uni doimo tergap tarbiyalashi kerak, buning tadbiri mana shu. Ota farzandini kichikligidan nobakor qilib qo'ysa, farzandda gunoh yo'q, barcha ayb otaning o'zidir. Ota farzandini o'rgatib, tergap tarbiyalasa,

ular ulg'aygach, o'g'lim-qizim deb sevinsa arziydi. Agar nazorat qiluvchi farzand bo'lmasa, bunday farzand yaramas va nobakor bo'ladi. Bunday farzanddan umidingni uzaver".

A.Adler bolada ijtimoiy qiziqishni shakllantirishda otaning rolini alohida ta'kidlaydi. Birinchidan, ota o'z xotiniga, ishiga va jamiyatga ijobiy munosabatda bo'lishi kerak. Bundan tashqari, uning shakllangan ijtimoiy qiziqishi bolalar bilan munosabatlarda namoyon bo'lishi kerak. Adlemling fikricha, ideal ota - bu o'z farzandlariga teng huquqli munosabatda bo'lgan va ularning tarbiyasida xotini bilan birga faol ishtirok etadigan otadir. Ota ikkita xatodan qochishi kerak: hissiy chekinish va ota-ona avtoritarizmi, g'alati, bir xil oqibatlariga olib keladi. Ota-onasi tomonidan begonalashganini his qilgan bolalar, odatda, ijtimoiy manfaatga asoslangan ustunlikka emas, balki shaxsiy ustunlikka erishish maqsadini ko'zlaydilar. Ota-ona avtoritarizmi ham noto'g'ri turmush tarziga olib keladi. Zolim ota-onalarning bolalari ijtimoiy ustunlik uchun emas, balki hokimiyat va shaxsiy ustunlik uchun kurashishni o'rganadilar. 1970-1980-yillarda bolalarni tarbiyalash va ijtimoiylashtirishda otalarning roli amerikalik tadqiqotchilarning doimiy e'tiborida bo'lgan.⁴

METODOLOGIYA. Maktabgacha yoshdagi bolaning hayotida ota rolining umumiy rivojlanishi va akademik muvaffaqiyati uchun, xususan, ijtimoiy-emotsional tartibga solish, kognitiv rivojlanish va akademik yutuqlar kabi sohalarida juda muhimdir. Farzandlarining hayotida faol ishtirok etadigan otalar, hatto maktabgacha yoshdagi bolalarning farovonligi va kelajak istiqbollarga ko'proq ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

1. Ijtimoiy-emotsional rivojlanish:

Hissiy tartibga solish:

Otalar farzandlarining his-tuyg'ularini tartibga solish qobiliyatini modellashtirish va qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Jismoniy o'yinlar, ayniqsa o'g'il bolalar bilan shug'ullanish, ularga hissiy tartibga solish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Ishonch va o'zini o'zi qadrlash:

Mehribon va qo'llab-quvvatlovchi ota bolaning o'zini o'zi qadrlashi va ishonchini oshirishga yordam beradi.

Xavfsiz biriktirma:

Ota-onaning doimiy ishtiroki va ota-onaning sevgirli sog'lom hissiy rivojlanish uchun juda muhim bo'lgan xavfsizlik va ishonch hissin yaratadi.

2. Kognitiv rivojlanish:

Muammolarni hal qilish va tanqidiy fikrlash:

O'yin o'ynash va jumboqlarni echish kabi interaktiv ta'lim faoliyati bilan shug'ullanadigan otalar kognitiv o'sishni rag'batlantirishi va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishi mumkin.

Til rivojlanishi: Uyqudan oldin e'taklarni o'qish va bolalar bilan suhbatlashish ularning til rivojlanishini oshirishi mumkin.

Muvaffaqiyatga yo'naltirilgan faoliyat:

O'qish va yozish kabi mashg'ulotlarda qatnashish bolaning savodxonligi va til ko'nikmalariga hissa qo'shishi mumkin.

3. Akademik yutuqlar:

Ijobiy ta'sir:

Otaning bolaning hayotiga, shu jumladan maktabda ishtirok etishi o'quv samaradorligini oshirishga, xatti-harakatlardagi muammolarni kamaytirishga va maktabga nisbatan ijobiy munosabatga olib keladi.

Uzoq muddatli ta'sir:

Ota ishtirokining ijobiy ta'siri ko'pincha balog'at yoshiga cho'ziladi, otasi bilan mustahkam munosabatlarga ega bo'lgan bolalar ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyat qozonishlari, barqaror ish topishlari va o'smirlik homiladorligi yoki qamoqqa olish kabi salbiy oqibatlardan qochishlari mumkin.

Muammoni hal qilish ko'nikmalari:

Otaning ishtiroki bog'chada, maktabda ham, martaba sharoitida ham muvaffaqiyat uchun zarur bo'lgan muammolarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

4. Boshqa imtiyozlar:

Jismoniy rivojlanish:

Bolalar bilan jismoniy o'yinlar va ochiq mashg'ulotlar bilan shug'ullanish ularning jismoniy rivojlanishi va motorli ko'nikmalarini rivojlantirishi mumkin.

Rol modellashtirish:

Bolalar ko'pincha otalariga taqlid qiladilar, qimmatli hayotiy ko'nikmalar va xatti-harakatlarni o'rganadilar.

Tengdoshlarning ijobiy munosabatlari:

³ Azimaxon Kamolova osh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. "Science and Education" Scientific Journal / December 2022 / Volume 3 Issue 12. 590-592 betlar

⁴ Oilaviy hayotning axloqiy asoslari: O'qituvchilar uchun o'quvchi, 10-sinf [muallif-komp. Moiseev D.A., rohiba Nina (Krygina)]. - Ekaterinburg: Ekaterinburg yeparxiyasi nashriyoti, 2010. - 304 p. 229-235-betlar 5-boddan parcha. Yosh ota-onalar. 5.1-mavzu. Oila farzand kutmoqda. Otalik va onalik

Otalari ishtirok etgan bolalar tengdoshlari bilan ijobiy munosabatlarni rivojlantiradilar va ko'proq tegishlilik tuyg'usiga ega bo'lishadi.

Bundan xulosa qilib aytadigan bo'lsak, maktabgacha yoshdagi otaning roli ko'p qirrali va o'g'il bolaning umumiy rivojlanishi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Otnang faol ishtiroki, jumladan, hissiy qo'llab-quvvatlash, kognitiv rag'batlantirish va akademik rag'batlantirish bolaning farovonligi, o'quv muvaffaqiyati va kelajakdagi istiqbollarga chuqur ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin⁵.

Ushbu kichik ilmiy tadqiqotni amalga oshirishda *so'rovnoma, rolli o'yinlar, shaxsiy suhbatlar, psixodiagnostikaning eksperimental metodlari* yordamida ma'lumotlarni to'pladik.

Tarbiyalanuvchilar uchun tashkil etilgan va olingan anketa so'rovnomasida maktabgacha yoshdagi bo'lgan o'g'il bolalar yuksak tarbiyasining milliy po'ydevorida otaning ro'lini hamda ularning samaradorligi yuzasidan savollar berildi.

Tadqiqot Uchko'prik tumani 9-sonli Maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik, o'rta, katta, tayyorlov guruhlarida bolalar tarbiyachilar va otalariga qaratilgan turli metodlardan foydalanilgan holda eksperiment o'tkazdik va natijalarni tahlil qildik. Bu tahlil shuni ko'rsatadiki kichik va tayyorlov guruhlarida yuqori, katta va o'rta guruhlarida respondent sifatida tanlab olindi

So'rovnoma. Bu so'rov yoki statistik o'rganish orqali ma'lumot to'plash uchun savollar to'plamidan (yoki boshqa turdagi maslahatlardan) iborat tadqiqot vositasi. Tadqiqot so'rovi odatda yopiq savollar va ochiq savollardan iborat bo'ladi. Ochiq va uzun savollar o'z fikrlarini batafsil bayon qilish imkoniyatini beradi. Tadqiqot so'rovnomasi 1838-yilda London Statistika Jamiyati tomonidan ishlab chiqilgan.

Rolli o'yinlar. Ishtirokchilarning pedagogik mahoratining rivojlanish darajasini o'rganish uchun jamoaviy ijodiy faoliyat shakli. Ota-onalar bilan rolli o'yinlar uchun taxminiy mavzular quyidagilar bo'lishi mumkin: *“Uyingizda tong”, “Bola maktabdan keldi”, “Oila kengashi”* va boshqalar. Rolli o'yinlarning metodologiyasi mavzuni aniqlashni o'z ichiga oladi. ishtirokchilarning tarkibi, ular o'rtaqidagi rollarni taqsimlash va o'yin ishtirokchilarning mumkin bo'lgan pozitsiyalari va xatti-harakatlarini oldindan muhokama qilish. Shu bilan birga, o'yin ishtirokchilarning xatti-harakatlari uchun bir nechta variantni (ijobiy va salbiy) o'ynash va birgalikda muhokama qilish orqali ushbu vaziyat uchun maqbul harakat yo'nalishini tanlash muhimdir.

Shaxsiy suhbatlar. Suhbatlar dam olish kunlarida, bir hafta ichida, yiliga bir marta rejalashtirilgan. Ota-onalar suhbat vaqti haqida oldindan xabardor qilinadi va taklifnomalar berilishi mumkin. Odatda, suhbat vaqti ota-onalar yig'ilishida kelishib olinadi. O'qituvchi suhbatga puxta tayyorgarlik ko'radi: bola haqida ma'lumot to'playdi, testlar,

anketalar o'tkazadi, ish daftarlari va test kitoblarini tayyorlaydi. Ota-onalar yoki ota-onalar farzandi bilan suhbatga kelishadi. Rejalashtirilgan 40-50 daqiqa davomida o'qituvchi ota-onalar bilan suhbatlashadi, har bir kishi daftar, darslik va kundalikning holatini tekshiradi. Suhbat davomida siz talabaning bilimini tekshirishingiz, kamchiliklarni qayd etishingiz yoki muvaffaqiyatlarni maqtashingiz mumkin. Suhbatda asosiy rol ota-onaga beriladi, oqituvchi esa uning taklif va mulohazalarini qayd etadi. Suhbat natijalariga ko'ra, ota-ona va bola bilan birgalikda o'quvchi bilan yil uchun individual ish xaritasi tuziladi. Ota-onalar bilan ishlashning bu shakli yillik bo'lishi mumkin. Ish juda mashaqqatli va ko'p vaqt talab qiladigan, ammo juda samarali.⁶

Psixodiagnostikaning eksperimental metodlari. Kuzatish asosidagi psixodiagnostik metodlar, albatta, kuzatish olib borish hamda olingan natijalardan psixodiagnostik xulosalar chiqarishning muvaffaqiyatli garovidir. Bunday kuzatishda standart sxemalar va sharoitlar kiritiladi, bunda nimani kuzatish, qanday kuzatish, kuzatish natijalarini qanday qilib belgilab borish, qanday baholash hamda sharhlash asosida xulosa chiqarish aniq belgilab olinadi. Yuqorida ko'rsatib o'tilgan psixodiagnostik talablar – standartlashtirilgan kuzatish deb Yuritiladi.⁷

Do'stona munosabat o'rnatish. O'smir yoshdagi o'g'il farzand otalari bilan muloqot qilish va ular bilan turli mavzularda suhbat qurishni qalban xohlaydilar va shunga ehtiyoj sezadilar. Bu vaqtda ota o'z dilbandi bilan do'st-suhbatdosh sifatida munosabatga kirishsa, farzand ham padarini eng yaqin inson sifatida qabul qiladi. O'z orzu-istaklarini otasiga ochiq bayon eta oladi, hatto, uni qiyinayotgan muammolarni ham aytishga jur'at topadi. Ota bolani tinglash va uning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda munosabatni tashkil etish va har bir farzandining his-tuyg'ularini tushuna olish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.⁸

Namuna ko'rsatish. Otnang onaga bo'lgan munosabatiga qarab, qizlar odatda o'zini kelajakda turmush o'rtog'iga nisbatan qanday munosabatda bo'lishini o'rganib boradi. O'g'il bolalar tarbiyasida ham shunga o'xshash tamoyil ustuvor bo'ladi. Ya'ni, ular ham ota-onalarning o'zaro munosabatlariga mos tarzda o'zini kelajakda oila boshlig'i, er roliga hamda onasining yurish-turishi va farzandlarga munosabatiga qarab, onalik roliga ruhan tayyorlab boradi. Va xuddi shunday oila qurishga harakat qiladi. Farzand ham otasining yaxshi tarbiyasidan mahrum bo'lib o'sadi. Keyingi davr esa bir oz talabchanlik va intizomni talab etadi. Bu davr o'smirlik payti bo'lib, bola oq-qorani ayni shu davrda ajratadi. Yaxshilikka mukofot, yomonlikka jazo muqarrarligini shu bosqichdan o'rganadi. Bu davrda farzand to'g'ri yo'lga solinsa, tarbiyali do'stlarga hamroh qilinsa, uning odobli bo'lib, yaxshi inson bo'lishi uchun muhim qadam qo'yiladi.⁹ Ta'lim va tarbiya o'z davrlarida ustunlik qiladi.

1-jadval

Ta'lim-tarbiya davrlari

birinchi davr tug'ulganidan 3 yoshgacha – tarbiya orqali ta'lim oladi;
ikkinchi davr 4-7 yosh - ta'lim va tarbiya tenglikni hosil qiladi;
uchinchi davr 8 yoshdan umrining ohirigacha – ta'lim orqali tarbiya topadi;

E'tibor qaratiladigan bo'lsa:

0-3 yoshgacha tarbiya asosiy o'rinni egallasa, tarbiya orqali ta'lim shakllantiriladi. Bu davrda bola bilan munosabat jarayonini to'g'ri yo'lga qo'yish kerak. Chunki, bolaning barcha ijobiy va salbiy xususiyatlari rivojlanadi. Bu davrda bola tashqi muxitga nisbatan adaptatsiya jarayoni hosil bo'lib, barcha ish xarakterlari o'zida mujassamlashtiradi.

TADDIQOT NATIJASI. Maktabgacha yoshdagi bolalarni otalari bilan uchrashish davomida turli xil zamonaviy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun Uchko'prik tumani 9-sonli Maktabgacha ta'lim tashkiloti kichik, o'rta, katta, tayyorlov guruhlarida bolalar tarbiyachilar va otalariga qaratilgan turli metodlardan foydalanilgan holda eksperiment

o'tkazdik va natijalarni tahlil qildik. Bu tahlil shuni ko'rsatadiki kichik va tayyorlov guruhlarida yuqori , katta va o'rta guruhlarida bu ko'rsatgichpasroq.

Biz tadqiqot jarayonida Otalar uchun master-klasslar tashkilladi va ochiq eshiklar kunida o'tkazdik. Biz 4 ta guruh uchun parallel uchrashuvlar o'tkazdik, ularda ham bolalar, ham otalar ishtirok etdi. Ular mashg'ulotlar jarayonini qoshimcha rus tili, matematika va sport bo'yicha darslarning parchalarini ko'rsatib tanishtirildi. Otalar farzandlarining guruhida qanday ishlashini, do'stlari bilan solishtirganda qanchalik faol ekanligini ko'rdilar. Ko'pgina otalar o'z farzandlarida yangi narsalarni kashf qilishdi, chunki maktabda va uyda bolalar ko'pincha boshqacha yo'l tutishlari sir emas.

⁵ https://medicine.nus.edu.sg/wp-content/uploads/sites/25/2024/04/0424-CHILD_Evidence-Insight-Role-of-Fathers_FADigital_V2.pdf

⁶ nachalnaya-shkola/materialy-dlya-roditelei/2010/11/30/metody-vzaimodeystviya-i-sotrudnichestva

⁷ <https://reja.tdpu.uz/shaxsiyreja/content/4406/html/39193/4-mavzu.htm>


⁸ Nishonova S. Sharh uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotidabarkamol inson tarbiyasi. Ped. fan. dok. diss. - T.: 1988. - 289 b.

⁹Sharh_mutafakkirlarining_ota_onalarning_bolaga_munosabatiga_oid_ilmiy_merosining_o'zi_ga_hos_jihatlar

Tarbiyachilar uchun so'rovnoma

№	Savollar	A	B	C
1	Siz faoliyat olib borgan guruxda (kichik, o'rta, katta, tayyorlov) o'g'il farzandlarni kimlar kio'proq bog'chaga olib keladi?	onalar	otalar	boshqa oila azolari
2	Og'il bolalarni ota-onalari farzandlariga qay darajada e'tiborli deb o'ylaysiz?	aloo	yaxshi	Umuman etiborli emas
3	MTTlarda ota-onalar kengash ishlarda otalar ham qatnashadimi?	ha alo darajada qatnashadi	ha bazan qatnashadi	yoq umuman qatnashmaydi
4	O'g'il bolalar ta'lim-tarbiyasiga otalarning ro'li muhim deb o'ylaysiz?	ha	yoq	Umuman kerak emas
5	O'g'il bolalar mehnat tarbiyasida otaning o'rni qanday xozirda sizningcha?	aloo	yaxshi	qoniqarsiz
6	O'g'il bolalar tarbiyasi bo'yicha qilayotgan ishlaringizni qanday baholaysiz?	aloo	yaxshi	qoniqarsiz
7	O'g'il bolalar bilan o'zaro munosabatingizni qanday baholaysiz?	aloo	yaxshi	unchalik yaxshi emas
8	Bolalar bilan tarbiyaviy ishda qanday yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanasiz?	Izoh:		
9	O'z-o'zini tarbiyalash bo'yicha ishingizni qanday baholaysiz?	Izoh:		

Tarbiyachilardan olingan so'rovnoma natijalari



1-rasm. Tarbiyachilardan olingan so'rovnoma natijalari


Ochiq eshiklar kunida otalardan va tarbiyachilar o'rtasida savolnomalar ham o'tkazildi. Bu tahlil shuni ko'rsatadiki kichik guruhda yuqori, tayyorlov va o'rta guruhlarida o'rtacha, kotta guruhda past natija chiqdi. Tarbiyachilar shuni aytib o'tishdiki kichik guruhda bolalar kichikligi sababli otalar e'tiborli, bolasini hech kimga ishonmaydigan,

tarbiyasi bilan shugullanadigon bo'lishadi. O'rta, kotta, tayyorlov payitlariga kelib otalar e'tibori pasaya boshlaydi chunki bolalari kotta bolgani sayin mas'uliyati oshib boradi ishga bolgan e'tibori kuchayadi deb aytishdi.

Ota-onalar uchun sorovnomalar.

№	Savollar	A	B	C
1	Sizningcha, bolalar internetdan to'g'ri foydalanishyapti deb o'ylaysizmi?	ha	Yo'q	bazan
2	Sizningcha bolalar tarbiyani kimdan o'rganadi va unga kim mas'ul?	ota-onadan o'rganadi — ota-ona mas'ul	o'qituvchidan o'rganadi — maktab mas'ul	do'stlaridan o'rganadi — mahalla mas'ul
3	“Farzandingiz kelajakda qaysi yo'nalishni tanlashini istaysiz?”	ha	Yo'q	bazan

4	“Farzandingiz bilan uyda birgalikda dars tayyorlaysizmi?”	ha	Yo‘q	bazan
5	“Farzandingiz bilan birga (ta‘lim uchun) kuniga necha soat shug‘ullanasiz?”	5 soat	4 soat	3 soat
6	“Maktabgacha ta‘lim tashkiloti direktorining faoliyati Sizni qoniqtiradimi?”	ha	yaxshi	Yo‘q umuman yoqmaydi
7	O‘g‘il farzandingiz bilan o‘zaro munosabatingizni qanday baholaysiz?	Izoh:		
8	Farzandingizning qiziqishshini, mustaqil harakat qilishini, fikr yuritishni rag‘batlantirasizmi?	Izoh:		



2-rasm. Ota-onalar o‘rtasida o‘tqazilgan so‘rovnoma natijasi

Bu so‘rovnoma maktabgacha ta‘lim tashkilotida bo‘lib o‘tgan ochiq eshiklar kunida ota-onalar ortasida o‘tqazdim bu tadqiqotda ota-onalar faol qatnashishdi va hamma guruh natijalari o‘rtacha darajadiligini aniqladik

Zamonaviy ota ko‘pincha bola uchun afsonaviy, tushunarsiz va tushunarsiz narsaga aylanadi. U erta tongda jo‘naydi, kun bo‘yi qayerdadir “ishda” muhim ish qiladi va kechqurun charchab qaytib keladi. Bu faqat gazeta va televizor uchun, ba‘zan esa kompyuter uchun etarli. Asosan, otaning ishi, sevimli mashg‘ulotlari va hayoti bolaning e‘tiboridan o‘tadi. Ota sherik emas, do‘st emas, balki jazolovchi hokimiyatning bir turi. “Otanga aytaman, u sizga qanday bo‘ysunmaslik

kerakligini ko‘rsatadi”, deb tez-tez tahdid qiladi onam. Bunday begonalashish, ota-onalikdan ajralish bizning “otalik madaniyatimiz” ning stereotipidek tuyuladi.

MUHOKAMA QISM. Tadqiqotchilar, ayniqsa, go‘daklik davriga katta e‘tibor berishgan. Ta‘kidlanishicha, otalar yosh bolalari bilan avvalgidan ko‘ra ko‘proq vaqt o‘tkazishadi. Ba‘zi tadqiqotchilar, emizishdan tashqari, otalar bolaga to‘liq g‘amxo‘rlik qilishlari mumkin, deb hisoblashadi. Ular xuddi ona kabi mohirona cho‘mlitirishlari, o‘rashlari, ovqatlantirishlari va silkitishlari mumkin. Otalar chaqaloq signallariga onalar kabi sezgir va chaqaloqlar onalar kabi otalarga bog‘lanib qolishlari mumkin.

4-jadval

Maktabgacha yoshgacha bo‘lgan o‘g‘il bolalarni tarbiyalashda otaning ro‘li bilan bog‘liq to‘plangan ba‘zi muhim fikrlar.

1.	Emotsional qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish.
2.	Ijobiy erkak namunasi bo‘lish.
3.	O‘yin va jismoniy faoliyat bilan shug‘ullanish.
4.	Chegaralarni belgilash va o‘qitish intizomi.
5.	Mustaqillik va muammolarni hal qilish ko‘nikmalarini rag‘batlantirish.
6.	Ta‘lim va ijtimoiy rivojlanishni qo‘llab-quvvatlash.
7.	Qadriyatlar va axloqiy tamoyillarni targ‘ib qilish.

5-jadval

O‘g‘il bolalarni 7 yoshgacha tarbiyalashda otaning rolining ba‘zi tarbiyaviy jihatlarini

1. Misollarni qo‘yish:	Otalar o‘g‘illari uchun namuna bo‘lishadi. Ijobiy xulq-atvor, mehnat odob-axloqi va qadriyatlarini namoyon qilish orqali otalar o‘g‘illari o‘mak oladigan muhim saboqlarni singdirishlari mumkin.
2. Tadqiqotni rag‘batlantirish:	Otalar o‘g‘illarini yangi narsalarni o‘rganishga, savollar berishga va qiziquvchan bo‘lishga undashlari mumkin. Bu yoshligida o‘rganish va kashfiyotga bo‘lgan muhabbatni rivojlantirishga yordam beradi.
3. Ishonchni oshirish:	O‘g‘ilning o‘ziga bo‘lgan hurmati va ishonchini oshirishda otalar asosiy rol o‘ynaydi. Otalar maqto‘v, dalda va qo‘llab-quvvatlash orqali o‘g‘illariga ijobiy o‘zini o‘zi imidjini rivojlantirishga yordam berishlari mumkin.

4. Ta'lim mas'uliyati: Otalar o'g'illariga yoshiga mos keladigan vazifalar va uy ishlarini berish orqali mas'uliyat muhimligini o'rgatishlari mumkin. Bu bolada mas'uliyat va mustaqillik tuyg'usini shakllantirishga yordam beradi.
5. Emosional rivojlanish: Otalar o'g'illariga his-tuyg'ularini tushunish va boshqarishga yordam berishlari mumkin. Ochiq muloqotni rag'batlantirish va his-tuyg'ularni sog'lom tarzda ifodalash orqali otalar o'g'lining hissiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlashlari mumkin.
6. Muammo yechish ko'nikmalari: Otalar o'g'illariga muammolarga qanday yondashish va ularni samarali hal qilishni o'rgatishlari mumkin. Otalar ularni qaror qabul qilish jarayonlariga jalb qilish va qiyinchiliklarga yo'l ko'rsatish orqali o'g'lining muammolari hal qilish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.
7. Ta'limni qo'llab-quvvatlash: Otalar o'g'lining maktabdagi vazifalariga qiziqish ko'rsatish, uy vazifalarini bajarishda yordam berish hamda ta'lim va kognitiv rivojlanishga yordam beruvchi ta'lim faoliyatida faol ishtirok etishlari mumkin.

Psixologlar hayotining birinchi yilida bolasi bo'lgan yosh otalar bilan so'rov o'tkazdilar: Siz u bilan qancha vaqt o'tkazasiz? Ko'pchilik otalar shunday javob berishdi: "U nimani tushunadi, u katta bo'lsa, biz u bilan futbol o'ynaymiz, xokkeyga boramiz. Bu orada onam va buvimning ishi emas."

Ajralish munosabati ko'pincha o'smirlik va yoshlik davridan keyingi yillarda tushunmovchilik, ishonchsizlik va nizolar manbai bo'lib qoladi. Eng boshidanoq, erta bolalik davrida chaqaloq bilan birinchi aloqalar, unga g'amxo'rlik qilishda muloqot, birgalikda yurish, o'yinlar keyinchalik otalar va bolalar o'rtasidagi o'zaro tushunishdagi qiyinchiliklarda, bolaning ishonchi va mehrining etishmasligida namoyon bo'ladi. ota.

Psixologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra, otalari hayotining birinchi kunlaridan o'ziga g'amxo'rlik qilgan chaqaloqlar aqliy va jismoniy rivojlanishning yuqori darajasini ko'rsatadi va hissiy jihatdan sezgir bo'lib o'sadi. Turmush o'rtoqlar o'rtasida kamroq ishqalanish mavjud, ular bolalarni tarbiyalash bo'yicha qaror qabul qilishda maqsadlar birligiga ega.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyatning madaniy va axloqiy taraqqiyotida muhim o'rin tutuvchi pedagog shaxsini har tomonlama tayyorlashni talab qilmoqda. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy shakllanishi jarayonida faqatgina fanlararo bilimlar majmuini egallash emas, balki ularning shaxsiy-estetik didi, madaniy ong darajasi, milliy qadriyatlarga bo'lgan daxldorlik hissi va madaniyatga nisbatan mas'uliyatli munosabati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jihatlar esa o'z navbatida pedagog shaxsida etnoestetik madaniyatning shakllanishini dolzarb muammoga aylantiradi. Etnoestetik madaniyat deganda shaxsning milliy madaniyatga asoslangan estetik idroki, san'at va xalq ijodiga bo'lgan didi, milliy qadriyatlarni qadrlash va ularni amaliy faoliyatda ifoda etish qobiliyati tushuniladi. Ushbu madaniyat pedagogning kasbiy madaniyatida muhim o'rin tutuvchi tarkibiy komponent sifatida namoyon bo'lib, o'qituvchining ma'naviy-estetik qadriyatlari asosida pedagogik ta'sir doirasini kengaytiradi. Milliy va umumbashariy qadriyatlar uyg'unligi, o'ziga xos madaniy an'analarni avlodlar davomiylikda yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayonini estetik mezonlar asosida tashkil etish bugungi o'qituvchining asosiy vazifalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Shu sababli ham bo'lajak o'qituvchining kasbiy shakllanishida etnoestetik madaniyatni rivojlantirish masalasi o'z dolzarbligini tobora kuchaytirib bormoqda. Ayniqsa, globallashtirish va madaniyatsizlanish xavfi ortib borayotgan hozirgi davrda o'qituvchi shaxsining madaniy barqarorlikni saqlovchi, milliy ongni mustahkamlovchi, estetik tarbiyani shakllantiruvchi asosiy kuch sifatida tayyorlanishi zarur. Bu esa o'z navbatida oliy pedagogik ta'lim tizimida etnoestetik madaniyatni mustahkamlovchi pedagogik yondashuvlarni shakllantirish va joriy etishni taqozo etadi

Adabiyotlar tahlili. Etnoestetik madaniyat masalasi so'nggi yillarda pedagogik tadqiqotlarda alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanib bormoqda. Mazkur tushuncha turli fanlar — pedagogika, madaniyatshunoslik, falsafa, estetika, sotsiologiya va psixologiya sohalarida turlicha talqin etilgan bo'lib, bu uning ko'p qirrali va murakkab tuzilishga ega ekanini ko'rsatadi. Pedagogik nuqtayi nazardan, etnoestetik madaniyat shaxsning milliy va estetik qadriyatlarga asoslangan dunyoqarashini, ijodiy faoliyatga layoqatini, madaniy identitetini aks ettiruvchi muhim sifatlar tizimi sifatida qaraladi.

Bekmurodova, M. T. ta'kidlaganidek, milliy qadriyatlar asosida pedagogik madaniyatni rivojlantirish, ayniqsa o'qituvchi shaxsining etnoestetik dunyoqarashini shakllantirishda muhim omildir

Estetik madaniyatga oid yondashuvlarda esa G. Gegel, V.V. Rozanov kabi mutafakkirlar estetik madaniyatni insoniy faoliyatdagi "go'zallik", "badiiy ifoda" va "ijodiy ong" tushunchalari bilan uyg'un holda talqin qilgan. Estetik madaniyat shaxsning san'at, tabiat va jamiyatga nisbatan estetik idroki va baholash qobiliyatini shakllantiradi. Biroq ko'plab adabiyotlarda etnik va estetik tushunchalar alohida tahlil

qilinib, ularning integratsiyasi — ayniqsa, pedagog shaxsida — yetarli darajada yoritilmagan.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, pedagogning etnoestetik madaniyati milliy qadriyatlar, xalq ijodi, urf-odatlar, san'at vositalari orqali shakllanadi. M.G'ulomov o'qituvchining badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish orqali etnoestetik madaniyatni mustahkamlash zarurligini ta'kidlaydi. A. Munavvarov pedagogning estetik madaniyatini uning nutqi, tashqi qiyofasi, muomala madaniyati va ijodkorlik faoliyati orqali namoyon bo'lishi kerakligini aytadi. Shuningdek, M. Tojiyev pedagogning umumiy madaniy darajasi aynan milliy san'at va estetik qadriyatlarga asoslangan faoliyat bilan belgilanadi degan fikrni ilgari suradi

Tahlillardan ma'lum bo'ladi, mavjud tadqiqotlarning ko'pchiligi etnik yoki estetik jihatlar bilan cheklanib, ularning sintezini — ayniqsa, kasbiy madaniyat doirasida — yetarli darajada ochib bermaydi. Ko'p hollarda bu tushunchalar faqat nazariy yondashuvlarda ifodalanadi, lekin ularni pedagogik jarayonga integratsiyalashning uslubiy modellari ishlab chiqishga e'tibor yetishmaydi. Bu esa aynan bo'lajak o'qituvchi shaxsida etnoestetik madaniyatni kasbiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida ilmiy asoslash zaruratini yuzaga keltiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda bo'lajak o'qituvchi shaxsining etnoestetik madaniyatini kasbiy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida asoslash va uni shakllantirish yo'llarini aniqlash maqsadida ilmiy-nazariy, diagnostik, kuzatuv, suhbat va tajriba-sinov metodlari kompleks holda qo'llanildi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida ilmiy-nazariy tahlil metodi orqali pedagogika, estetika, madaniyatshunoslik va xalq pedagogikasi sohalariga oid manbalar tahlil qilinib, "etnik madaniyat", "estetik madaniyat", "etnoestetik madaniyat" tushunchalarining mazmuni aniqlashtirildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy olimlarning qarashlari tahlil qilinib, mavjud ilmiy qarashlar tahlili asosida mavzuning nazariy bazasi ishlab chiqildi.

Keyingi bosqichda Qo'qon universitetida tahsil olayotgan boshlang'ich ta'lim yo'nalishi —4-kurs talabalar orasida diagnostik test va so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma orqali talabalar tomonidan milliy estetik qadriyatlarga bo'lgan munosabat, san'at vositalaridan foydalanish darajasi, xalq og'zaki ijodiga qiziqish, madaniy faoliyatga daxldorlik, o'zining etnik identitetini anglashi kabi jihatlar baholandi. Test savollari esa talabalar estetik tafakkuri, didi va etnik madaniyatga oid bilimlarini o'lchashga qaratildi.

Suhbat (intervyu) metodi asosida 20 nafar talabaga yarim ochiq savollar orqali ularning milliy san'at, urf-odat va an'analarga shaxsiy munosabati, ta'lim jarayonida bu elementlardan foydalanishga tayyorgarligi va kasbiy faoliyatda qo'llash niyati yuzasidan mulohazalari olindi.

Kuzatuv metodi orqali amaliy mashg'ulotlar jarayonida talabalar o'z faoliyatida estetik ko'nikmalarni qanday namoyon etayotgani (nutq madaniyati, tashqi ko'rinish, badiiy did, milliy motivlardan foydalanish) baholandi. Bu kuzatuv uchun maxsus mezonli baholash jadvali ishlab chiqildi. Natijalar sifatli (kontekstual) tahlil qilinib, har bir metod asosida talabalar estetik-madaniy o'sish darajasi, milliy qadriyatlarga daxldorlik holati va pedagogik yondashuvlar bilan bog'lanish darajasi aniqlandi. Bu esa etnoestetik madaniyatni kasbiy madaniyatning asosiy komponenti sifatida amaliy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, talabalar etnoestetik madaniyatning mazmuniy komponentlarini bilishlari mumkin, biroq ularning amaliy ifodasida individual tafvotlar mavjud. Bu esa mazkur madaniyatni shakllantirishda faqat nazariy bilimlar emas, balki estetik faoliyat va estetik muhit bilan o'zaro ta'sir muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Shuningdek, olingan natijalar G'arb va Sharq pedagogikasida estetik tarbiya jarayonining yondashuvlari o'rtasida farqlar borligini ko'rsatadi. Xususan, O'zbekiston sharoitida milliy qadriyatlarga asoslangan estetik tarbiya shakllari yanada chuqurroq o'rganilishi, ularni kasbiy tayyorgarlik jarayoniga integratsiyalash zarurligi aniqlanmoqda. Bu esa pedagogik ta'limda etnoestetik madaniyatni rivojlantirishning dolzarbligini isbotlaydi.

Tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarning etnoestetik madaniyatga oid bilim, tushuncha va yondashuv darajasini aniqlash


maqsadida diagnostik test o'tkazildi. Test 10 ta savoldan iborat bo'lib, unda milliy san'at, estetik qarashlar, xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar va ularni pedagogik faoliyatda qo'llash bilan bog'liq bilimlar baholandi. Umumiy hisobda 50 nafar talaba ishtirok etdi.

Test natijalari tahlili quyidagicha guruhlandi:

“Yuqori daraja” – 20 nafar (40%) talaba mazkur toifadagi bilimlarni yetarli darajada egallagani, milliy estetik qadriyatlarni yaxshi bilishi, dars jarayonida ularni qo'llay olishini ko'rsatdi. Bu guruhdagi talabalar xalq ijodi, estetik me'yorlar va urf-odatlar bo'yicha mustahkam bilimga ega ekani aniqlangan.

“O'rta daraja” – 18 nafar (36%) talaba asosiy tushunchalarni bilishi, biroq ularni amaliy faoliyatda qanday qo'llash bo'yicha aniq strategiyalarga ega emasligi kuzatildi. Bu guruhda etnoestetik bilimlar mavjud bo'lsa-da, uni kasbiy faoliyatga integratsiya qilishda muayyan qiyinchiliklar borligi sezildi.

“Past daraja” – 12 nafar (24%) talaba test savollariga javob berishda qiyinchilikka duch kelgani, milliy estetik qarashlarga oid tushunchalari yuzaki ekani, bu sohada yetarlicha tayyorgarlik yo'qligini ko'rsatdi. Bu guruh vakillari o'z milliy madaniyati bilan kam tanish bo'lishi, hamda uni ta'lim jarayoniga kiritish zaruratini yetarli darajada anglab yetmaganini ko'rsatmoqda.



1-rasm. Etnoestetik madaniyatga oid diagnostik ko'rsatkichlar tahlili

Diagnostik tahlil natijalari ta'lim jarayonida etnoestetik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan maxsus metodik ishlar, integratsiyalashgan darslar va amaliy mashg'ulotlarga ehtiyoj mavjudligini ochiqsladi. Bu esa bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy madaniyatida etnoestetik komponentni chuqurlashtirish, milliy madaniyat va estetik qadriyatlarni ta'lim mazmuniga tizimli kiritish zarurligini anglatadi.

Tadqiqot doirasida bo'lajak o'qituvchilarning etnoestetik madaniyatga bo'lgan munosabati, milliy qadriyatlarni anglash darajasi va kasbiy faoliyatda ularni qo'llashga tayyorlik holatini aniqlash maqsadida so'rovnomatashkil etildi. So'rovnoma Qo'qon universitetining pedagogika yo'nalishida tahsil olayotgan 50 nafar talaba ishtirok etdi. Savollar yarim ochiq shaklda tuzilib, to'plangan javoblar tahlili asosida to'rtta muhim ko'rsatkich bo'yicha umimlashtirilgan natijalarga erishildi.

So'rovnomat natijalari quyidagicha:


Milliy qadriyatlarga ijobiy munosabat – 65% talaba o'z xalqining estetik qadriyatlarini qadrlashini va bu qadriyatlarning tarbiyaviy

ahamiyatini tan olishini bildirdi. Bu, talabalarining madaniy ongida milliy identitet unsurlarining mavjudligini ko'rsatadi.

Xalq ijodidan foydalanishga tayyorlik – 60% ishtirokchi xalq og'zaki ijodi namunalari (ertak, maqol, matal, qo'shiqlar va h.k.) o'quv jarayonida qo'llashga tayyor ekanini bildirdi. Bu ularning ijodiy yondashuv va dars jarayonida milliylikni singdirishga intilishini anglatadi.

Estetik tarbiyani muhim deb bilish – 72% talabalar estetik tarbiya orqali o'quvchilarning didi, axloqiy qarashlari va ruhiy olamini shakllantirish mumkin, degan fikrga qo'shilishdi. Bu ko'rsatkich yuqori bo'lib, talabalarda estetik yondashuvga nisbatan chuqur tushuncha shakllanganini anglatadi.

Etnoestetik elementlardan foydalanishga tayyorlik – 50% talaba kelajakdagi pedagogik faoliyatida etnoestetik elementlarni qo'llashga tayyor ekanini bildirdi. Bu esa amaliy jihatdan ularning metodik tayyorgarligini yanada kuchaytirish zarurligini ko'rsatadi.



2-rasm. Bo'lajak o'qituvchilarning etnoestetik qadriyatlarga munosabati (so'rovnomalar natijalari asosida)

Ushbu so'rovnomalar natijalari bo'lajak o'qituvchilarning milliy-estetik madaniyatga bo'lgan munosabatini aniqlashga xizmat qildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, talabalar o'z xalqining estetik qadriyatlariga ijobiy yondashadi, ammo ularni amaliyotga tatbiq etishda hali yetarli darajadagi kompetensiyalarga ega emaslar. Shuning uchun oliy pedagogik ta'lim jarayonida etnoestetik mazmundagi faoliyat turlarini ko'proq joriy qilish, milliy san'at va urf-odatlarini integratsiyalashtirish shaklda o'rgatish zarur.

Tadqiqot doirasida olib borilgan amaliy kuzatuvlar bo'lajak o'qituvchilarning etnoestetik madaniyatga nisbatan individual yondashuvi, uni tushunish darajasi va kasbiy faoliyatga integratsiyalashtirishga bo'lgan tayyorgarligi borasida muhim natijalarni yuzaga chiqardi. Kuzatuvlar davomida dars jarayonlari, amaliy

mashg'ulotlar, seminarlar, loyiha ishlari va talabalar ijodiy faoliyati sinchkovlik bilan tahlil qilindi. Aniqlanishicha, aksariyat talabalarda milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat mavjud bo'lib, ular xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar va san'at namunalari qadrlaydilar. Biroq, bu qadriyatlarni o'quv jarayoniga metodik jihatdan to'g'ri kiritish, ularni ta'limiy maqsadlarga muvofiq holda integratsiyalashtirish, estetik tarbiya vositasida o'quvchilarning ichki olamini boyitishga xizmat qiladigan faoliyat shakllarini tashkil etish borasida yetarli malaka va ko'nikmalar yetishmaydi. Kuzatuv davomida talabalar ijodiy topshiriqlarni bajarayotganda — milliy motivlarga asoslangan dramatik sahnalar, ertak teatrlashtirish, milliy musiqa bilan ishlash, xalq urf-odatlariga doir mavzularda loyiha himoya qilish kabi vazifalarda o'zini namoyon qila olishgan bo'lsa-da, bu holatlar ko'proq epizodik xarakter kasb etadi.

1-jadval.

Kuzatuv natijalari va baholash darajasi

Kuzatuv ko'rsatkichlari	Baholash darajasi (%)
Milliy qadriyatlarni qadrlash	60
Xalq og'zaki ijodiga qiziqish	75
Estetik tarbiyani integratsiya qilish	50
San'at elementlarini qo'llash	45
Ijodiy topshiriqlar sifati	55
Milliy-estetik yondashuv	50

Kuzatuv natijalari shuni ko'rsatdiki, talabalarda etnoestetik madaniyatga doir umumiy tushuncha va ijobiy hissiy munosabat mavjud, biroq bu sohada pedagogik faoliyatni amalga oshirishga doir kompetensiyalarni shakllantirish bo'yicha tizimli ta'limiy yondashuv zarur. Mazkur holat, o'z navbatida, oliy pedagogik ta'lim jarayonida milliy-estetik mazmundagi fanlar, o'quv kurslari, treninglar va amaliy mashg'ulotlar orqali bo'lajak o'qituvchilarda metodik tayyorgarlikni kuchaytirish, ularning kasbiy faoliyatida milliy madaniyat komponentlarini uyg'unlashtira oladigan darajadagi etnoestetik tafakkurni rivojlantirish zarurligini taqozo etadi.

Olib borilgan kompleks tadqiqot natijalari — diagnostik test, so'rovnomalar va kuzatuv metodi orqali bo'lajak o'qituvchilarning etnoestetik madaniyatga nisbatan individual qarashlari, tayyorgarlik darajalari hamda kasbiy faoliyatda bu elementlardan foydalanish salohiyati o'rganildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, talabalarda milliy qadriyatlarga nisbatan ijobiy munosabat shakllangan bo'lib, ular estetik tarbiya, xalq ijodi va urf-odatlar bilan bog'liq bilimlarga qiziqish bildiradilar. Shu bilan birga, ularni pedagogik jarayonda metodik jihatdan to'g'ri integratsiya qilish, dars mazmuniga uyg'unlashtira olish, o'quvchilar estetik olamiga ta'sir ko'rsatish darajasida qo'llash ko'nikmalarida ayrim yetishmovchiliklar mavjud.

Diagnostik testlar talabalarining nazariy bilim darajasining o'rtacha ekanligini ko'rsatdi. So'rovnomalar natijalari esa ularlarda etnoestetik madaniyatni qadrlash hissi kuchli ekanini, biroq amaliyotga tatbiq etish uchun metodik yordamga muhtojligini aniqladi. Kuzatuv tahlili esa bu holatni yana bir bor tasdiqlab, ayniqsa amaliy mashg'ulotlarda milliylikni ifodalovchi yondashuvlar, ijodiy topshiriqlarda estetik muhit yaratish bo'yicha tajriba kamligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, bo'lajak o'qituvchilarda etnoestetik madaniyatni shakllantirishda asos bo'ladigan hissiy-emotsional tayyorgarlik mavjud, lekin bu tayyorgarlikni chuqur nazariy bilimlar va amaliy-metodik ko'nikmalar bilan mustahkamlash zarur. Shu boisdan, pedagogik ta'lim jarayonida etnoestetik madaniyat komponentlarini o'z ichiga olgan maxsus o'quv kurslari, treninglar, metodik ishlanmalar va madaniy loyihalar asosida bu sohaga e'tiborni kuchaytirish dolzarb masalalardan biri sifatida qaralishi kerak.

Muhokama. Olib borilgan tadqiqot natijalari bo'lajak o'qituvchilarning etnoestetik madaniyatga nisbatan ijobiy hissiy-emotsional munosabatga ega ekanligini ko'rsatdi. Bu holat ularning milliy qadriyatlarga asoslangan ta'lim mazmunini shakllantirish, estetik tarbiya elementlarini o'quv jarayoniga integratsiyalashtirish imkoniyatlari mavjudligini bildiradi. Biroq, bu salohiyatni to'laqonli ro'yobga

chiqarish uchun talabalar metodik tayyorgarlikka muhtoj ekanliklari kuzatildi. Bu xulosa Y.X. To'rayev tomonidan bildirilgan fikrlar bilan hamohang bo'lib, u bo'lajak o'qituvchining shaxsiy etnoestetik pozitsiyasi va madaniy kompetensiyasini shakllantirishda o'quv jarayonining estetik tashkil etilishi muhim omil ekanligini ta'kidlaydi. A. Shomurodov esa bo'lajak pedagoglar san'at va madaniyatga oid bilimlarni nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy faoliyatda ham qo'llay olishlari zarurligini alohida qayd etadi. Diagnostik test va so'rovnoma tahlillari shuni ko'rsatdiki, talabalar milliylik, san'at, xalq ijodi elementlariga bo'lgan qiziqishni namoyon qilishsa-da, ularni darsga uyg'unlashtirish, bolalar bilan ishlashda estetik komponentlarni tanlash va qo'llash bo'yicha tizimli yondashuvga ega emaslar. Bu holat L.S. Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan "estetik qabul va ifoda orasidagi tafovut" nazariyasini tasdiqlaydi — ya'ni estetik qadriyatni anglashga qiziqish mavjud, lekin uni ifodalash qobiliyati yetarli emas. Tadqiqotlarimiz K.D. Ushinskiy ta'limda xalq ijodi vositalaridan foydalanishning tarbiyaviy ta'siri haqidagi g'oyalarini ham to'liq tasdiqladi. Uning fikricha, milliy tarbiya vositalari o'qituvchi shaxsida estetik sezuvchanlik, axloqiy tamoyillar va madaniy mas'uliyatni shakllantiradi. Biz kuzatgan holatlar esa talabalar o'z faoliyatlarida bu qadriyatlarni ongli ravishda qo'llashga tayyor, biroq bu uchun tizimli metodik ko'rsatmalarga ehtiyoj sezayotganini ko'rsatdi. Shuningdek, talabalarining ko'pchiligi milliy san'atga doir topshiriqlarda faol ishtirok etishgan, bu esa ijodiy kompetensiya mavjudligini bildiradi. Bu jihat M. Bekmurodovning tadqiqotlarida ham o'z tasdig'ini topadi — u bo'lajak o'qituvchining milliy-madaniy kompetensiyasini shakllantirishda amaliy estetik faoliyat — teatr, musiqa, xalq o'yinlari muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Shunday qilib, olib borilgan tadqiqotlar bo'lajak o'qituvchilarning etnoestetik madaniyatga nisbatan umumiy munosabati ijobiy ekanligini ko'rsatdi, ammo bu sohadagi metodik tayyorgarlikni rivojlantirish, amaliy mashg'ulotlarda estetik komponentlarni samarali qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish uchun maxsus ta'limiy yondashuvlar zarur.

Xulosa. O'rganilgan ilmiy ma'lumotlar, amalga oshirilgan empirik ishlarni tahlil qilish natijalar bo'yicha aniqlanishicha, bo'lajak o'qituvchilarning etnoestetik madaniyatga nisbatan munosabati ijobiy, bu boradagi bilimlari esa asosan umumiy tushunchalar darajasida shakllangan. Biroq ularni ta'lim jarayoniga integratsiyalash, estetik muhit yaratish, xalq og'zaki ijodi va milliy qadriyatlarni amaliy mashg'ulotlarga uyg'unlashtirish borasidagi ko'nikmalari yetarli

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bekmurodova, M. T. (2022). Milliy qadriyatlar asosida pedagogik madaniyatni rivojlantirish. Andijon: Ilm ziyo.
2. Gegel, G. V. F. (1971). Estetika: Lektsii o estetik (Tom 1). Moskva: Iskustvo..
3. Rozanov, V. V. (2005). O ponimani estetik i vospitaniya. Sankt-Peterburg: Rech.
4. Gulomov, M. (2017). Kasbiy ta'limda estetik tarbiya asoslari. Samarqand: SamDCHTI.
5. Munavvarov, A. (2018). Pedagog shaxsining estetik madaniyati. Toshkent: Ma'naviyat.
6. Tojiyev, M. (2019). Kasbiy-pedagogik madaniyat va etnoestetik yondashuv. Samarqand: Registon.Yo'ldoshev Q. Ma'naviy qadriyatlar va shaxs tarbiyasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2004.
7. To'rayev, Y. X. (2020). Estetik tarbiyaning zamonaviy talim jarayonidagi o'rni. Toshkent: TDPU nashriyoti.
8. Shomurodov, A. (2021). Bo'lajak pedagoglarda san'atga oid bilimlarning amaliy ahamiyati. Andijon: Pedagogika ilmiy jurnali, 2(1), 44–49.
9. Vygotskiy, L. S. (1997). Psixologiya iskusstva (6-nashr). Moskva: Iskustvo.
10. Ushinskiy, K. D. (1980). Inson tarbiyasi. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.

darajada rivojlanmagan. Kuzatuv, diagnostik test va so'rovnomalardan olingan natijalar bu holatni tasdiqladi. Shuningdek, talabalarining ijodiy topshiriqlarni bajarish, estetik ifoda vositalaridan foydalanish, madaniy qadriyatlar asosida pedagogik vazifalarni hal qilishdagi faol ishtiroki ularda zaruriy salohiyat borligini ko'rsatdi. Bu salohiyatni to'laqonli yuzaga chiqarish uchun tizimli, maqsadli va bosqichma-bosqich metodik yondashuv talab etiladi. Mazkur izlanishlar asosida pedagogik ta'lim tizimida bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy-etnoestetik jihatdan tayyorlashga qaratilgan maxsus o'quv-uslubiy yechimlar va amaliy faoliyat shakllarini joriy etish dolzarb ekani aniqlandi. Ularning estetik-didaktik kompetensiyasini shakllantirish, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlikda tarbiyaviy ta'sirni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Ushbu ilmiy tadqiqot natijalari asosida bo'lajak o'qituvchilarda etnoestetik madaniyatni shakllantirishga oid mavjud holat tahlil qilindi, mavjud muammolar aniqlandi va ularga barham berish, shuningdek, pedagogik jarayonda milliy-estetik yondashuvni kuchaytirish maqsadida quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Pedagogik ta'lim dasturlariga etnoestetik madaniyatga oid maxsus o'quv kurslarini kiritish, milliy san'at, xalq ijodi, urf-odat va qadriyatlar asosida tayyorlangan integratsion mashg'ulotlar bilan boyitish zarur.

Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-estetik faoliyatga jalb etish maqsadida treninglar, seminarlar, amaliy mashg'ulotlar va madaniy-ijodiy loyihalar tashkil etilishi tavsiya etiladi.

O'quv jarayonida talabalar tomonidan estetik yondashuv asosida loyihalar, keys-stsenariylar va dars ishlanmalarini ishlab chiqish hamda ularda milliylikni ifodalovchi elementlardan foydalangan holda baholash tizimini yo'lga qo'yish lozim.

Pedagogik faoliyatda etnoestetik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiluvchi metodik qo'llanmalar, elektron ta'lim platformalari va vizual-estetik resurslar (video, rasm, audio) yaratish va joriy etish zarur.

Talabalarni baholashda faqat nazariy bilimlar emas, balki estetik idrok, ijodiy ifoda, milliy qadriyatlarni ta'limda qo'llay olish darajalari ham inobatga olinishi lozim.

Oliy ta'lim muassasalarida estetik tarbiya bo'yicha yo'naltirilgan fakultativ mashg'ulotlar, etnoestetik laboratoriyalar yoki klublar tashkil etilishi orqali talabalarining amaliy malakasini oshirish mumkin.

Bo'lajak o'qituvchilarda etnoestetik kompetensiyani shakllantirishga xizmat qiluvchi monitoring, diagnostika va ilg'or tajribalar almashinuvi tizimi yo'lga qo'yilishi tavsiya etiladi.

11. G.F.Erkinjonova. Etnoestetik madaniyat- bo'lajak o'qituvchi shaxsining ma'naviy fazilati sifatida // Inter Education & Global Study. 2025. №6. URL:

12. Erkinjonova, G.F.(2023). Etnik-madaniy tarbiya-bola shaxsini kamol toptiruvchi vosita. Formation of psychology and pedagogy as interdisciplinary sciences, 2(24), 383-386.

13. F.M. Qo'chqarova, G.F. Erkinjonova Scientific and theoretical foundations of the formation of the ethnoesthetic culture of future primary school teachers in the modern system of pedagogical education Science and innovation International scientific journal 209-214

14. Erkinjonova, G. F. (2025) Bo'lajak o'qituvchilarning etnoestetik madaniyatini shakllantirish yo'llari

15. G.F.Erkinjonova Oliy ta'lim tizimida etnoestetik madaniyat: Bosqichlar, metodlar va integratsiya mkoniylatlari International scientific and practical conference "international experience in the use of Collaborative technologies in child rearing", april 22, 2025

16. G.F.Erkinjonova Sun'iy intellekt vositasida talabalarda etnoestetik madaniyatini rivojlantirish Sun'iy intellektni pedagogik ta'limga integratsiya : muammo va yechimlar" 777-782



IJODIY TAFAKKURGA TAYYORLOVCHI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR: MUAMMOLI VAZIYATLAR, LOYIHA ASOSLI YONDASHUVLAR, DRAMATIZATSIYA, INTERFAOL O'YINLAR

Inoyatova Dilnoza Qunonboy qizi

Qo'qon universiteti "Ta'lim" kafedrası

o'qituvchisi, tayanch doktorant

E-mail: dilnoza3300@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 30 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1210	
KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS ijodiy tafakkur, boshlang'ich ta'lim, pedagogik texnologiya, dramatisatsiya, loyiha, muammoli vaziyat, interfaol o'yin	Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini shakllantirishda muammoli vaziyatlar, loyiha asosli yondashuv, dramatisatsiya va interfaol o'yinlar kabi zamonaviy pedagogik texnologiyalarning o'rni yoritilgan. Tadqiqotda nazariy tahlil, kuzatuv, so'rovnoma va pedagogik eksperiment metodlari qo'llanildi. Tajriba Farg'ona viloyatidagi 96 nafar 2–3-sinf o'quvchilari ishtirokida tashkil etilib, 12 hafta davomida texnologiyalar ketma-ket tatbiq etildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, tajriba guruhi o'quvchilarida ravonlik, originallik va tafsilotga boylik kabi ijodiy tafakkur komponentlarida 30–40% o'sish qayd etildi. So'rovnoma natijalari ham texnologiyalarning samaradorligini tasdiqladi. Tadqiqot J. Gilford, E. Torrance, L.S. Vygotskiy va Sh. Amonashvili nazariyalarini amaliy jihatdan isbotlaydi. Mualliflik g'oyasiga ko'ra, pedagogik texnologiyalar ijodiy tafakkurni faollashtirishda izchil, bosqichli va shaxsiga yo'naltirilgan muhitda qo'llanganda eng samarali natija beradi.

Kirish. Zamonaviy ta'lim paradigmasi o'quvchini tayyor bilimlarni egallovchi passiv ob'ekt emas, balki o'quv faoliyatining faol subyekti sifatida ko'rishga asoslanadi. Bunda o'quvchining shaxsiy fikri, ijodiy yondashuvi, yangilik yaratish intilishi markaziy o'ringa chiqadi. Bu esa ta'limda ijodiy tafakkurni shakllantirishni nafaqat zaruriyat, balki asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilaydi.

Ijodiy tafakkur – bu shaxsning mavjud bilim va tasavvurlar asosida yangi, original, noodatiy fikrlar, g'oyalar, echimlar yaratish faoliyatidir. U nafaqat bilimlarni qayta ishlash, balki ularni o'zgartirish, kombinatsiyalash va transformatsiya qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. J. Gilford tomonidan asoslangan divergent fikrlash nazariyasida ijodiy tafakkur fikrlarning ravonligi, moslashuvchanligi, originalligi va tafsilotga boyligi kabi komponentlar orqali tavsiflanadi. Bu komponentlar o'quvchining fikrlash faoliyatini erkin, dinamik va yangi echimlarga ochiq bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda UNESCO, OECD, PISA kabi xalqaro tashkilotlar ta'limdagi asosiy maqsad sifatida o'quvchilarni "yaratuvchan muammohal etuvchilar" sifatida shakllantirishni belgilamoqda. 21-asr kompetensiyalari ichida kritik fikrlash, ijodiy tafakkur, hamkorlik va muammoli vaziyatlarda yechim topish kabi ko'nikmalar alohida urg'u bilan ajratiladi.

Shunday ekan, ta'lim jarayonida ijodiy tafakkurni shakllantirish o'quvchining shaxsiy yondashuvini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashga, noodatiy qaror qabul qilishga yo'naltiradi, yangi bilimlarni izlashga va amaliyotga qo'llashga tayyorlaydi, o'z fikrini erkin ifoda etishga va estetik-emotsional boylikni shakllantirishga xizmat qiladi.

Shu bois, pedagogik texnologiyalar orqali ijodiy tafakkurni faollashtirish zamonaviy ta'limda nafaqat maqsad, balki vosita sifatida ham ustuvor ahamiyat kasb etmoqda.

Boshlang'ich ta'lim – shaxs kamolotining asosi, intellektual va ruhiy salohiyatining shakllanish bosqichidir. Bu davrda o'quvchining mantiqiy fikrlash, tasavvur, kuzatuvchanlik, nutq va tafakkur jarayonlari faol rivojlanadi. Aynan shu bosqichda ijodiy tafakkurni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim samarali va uzoq muddatli natijalar berishi bilan ahamiyatlidir.

Ijodiy tafakkur bolaning borliqni o'ziga xos qabul qilishi, jonli obrazlar bilan fikrlashi, noodatiy yondashuvlar topishga moyilligi orqali o'z ifodasini topadi. Boshlang'ich sinfda esa bu xususiyatlar tabiiy bo'lib, ular maxsus pedagogik yondashuvlar bilan qo'llab-quvvatlanmasa, yanada kuchli rivojlanadi. Shu sababli, bugungi kunda boshlang'ich ta'limda ijodiy tafakkurni rivojlantirish pedagogik zarurat sifatida ko'rilmogda.

Birinchidan, zamonaviy ta'limning asosiy vazifasi – bilim berish emas, balki o'quvchini fikrlashga o'rgatishdir. Bu esa ijodiy yondashuvlar, noan'anaviy muammolarni hal qilish, savollarga turlicha javob topish qobiliyatini talab etadi. An'anaviy "eslab qolish va

takrorlash"ga asoslangan ta'lim mazmuni o'rnini, endilikda, "mustaqil fikrlash va ijod qilish" egallashi zarur.

Ikkinchidan, ta'lim-tarbiya samaradorligi o'quvchining dars jarayonidagi faol ishtiroki, qiziqishi va ichki motivatsiyasiga bog'liq. Ijodiy tafakkurni faollashtiruvchi metodlar (muammoli vaziyatlar, rolli o'yinlar, dramatisatsiya, loyiha faoliyati) bolalarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi, ular o'zlarini erkin ifoda etishga intiladilar.

Uchinchidan, boshlang'ich ta'limdagi bilimlar – kelajakdagi tafakkur va shaxsiy pozitsiyaning negizi hisoblanadi. Shu sababli, ayni shu bosqichda ijodiy fikr yuritish, mustaqil qaror qabul qilish, har xil g'oyalarni solishtirish, tasavvur qilishga yo'naltirilgan metodlar orqali o'quvchining tafakkur potensialini ochish muhimdir.

Shu jihatdan olib qaraganda, boshlang'ich ta'limda ijodiy tafakkurni rivojlantirish o'quvchining intellektual o'sishini rag'batlantiradi, o'z fikrini erkin, asosli va badiiy ifoda etishga o'rgatadi, tafakkur kengligini, muammoni hal qilish ko'nikmalarini shakllantiradi va kelajakdagi ta'lim bosqichlariga tayyorlaydi.

Demak, ijodiy tafakkurni shakllantirish nafaqat estetik va ijtimoiy zarurat, balki davlat miqyosida belgilangan ta'limiy strategiyalarning tarkibiy qismidir. Aynan shu bosqichda unga e'tibor qaratilmasa, yuqori sinflarda o'quvchilarni innovatsion fikrlashga yo'naltirish kechikkan bo'ladi.

Zamonaviy ta'lim tizimida shaxsning ijodiy tafakkurini shakllantirish muhim maqsadlardandir. Biroq amaliyotda darslar ko'pincha an'anaviy metodlar – tayyor ma'lumotni yodlash, faktlarni eslab qolish, oddiy savol-javoblar bilan cheklanish hollari saqlanib qolmoqda. Bunday yondashuv o'quvchining mustaqil fikrlashi, yangi g'oya yaratishi va muammoga noodatiy yondashishi uchun yetarli sharoit yaratmaydi.

An'anaviy metodlarda o'quvchi ko'proq passiv qabul qiluvchi sifatida qatnashadi. Natijada, u o'z fikrini shakllantirishga emas, balki tayyor bilimlarni qayta ifodalashga yo'naltiriladi. Bu esa ijodiy tafakkurning asosiy elementlari – ravonlik, originallik, tafsilotga boylilik va moslashuvchanlikning rivojlanishiga to'sqinlik qiladi.

Shuningdek, dars mazmuni turfa bo'lsa-da, uni yetkazish usuli tor doirada qolib ketayotgan hollarda o'quvchining o'ziga xoslik, obrazli ifoda, erkin tasavvur, savolga savol bilan javob berish kabi tafakkur shakllari shakllanmaydi. Ayniqsa boshlang'ich sinfda bu imkoniyatlar tabiiy bo'lishiga qaramay, ular pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlanmasa, o'quvchining tafakkur salohiyati susayib boradi.

Shu sababli ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun o'quvchining faol ishtirokini talab qiluvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalarni – muammoli vaziyatlar, loyiha asosli ta'lim, dramatisatsiya, interfaol o'yinlar – darslarga integratsiyalash zaruratga aylangan.

Ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalar nafaqat bilimlarni samarali yetkazish, balki o'quvchining intellektual, estetik va ijodiy

rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, ijodiy tafakkur kabi noan'anaviy, yuqori darajadagi tafakkur faoliyatini shakllantirish uchun an'anaviy metodlar yetarli bo'lmaydi. Bunda aynan ijodkorlikni faollashtiruvchi, o'quvchini faol subyektga aylantiruvchi pedagogik texnologiyalar muhim rol o'ynaydi.

Pedagogik texnologiya tushunchasi didaktik metodlar majmuasidan farqli o'laroq, o'qitish jarayonining maqsadga yo'naltirilgan, natijaga yo'naltirilgan va boshqariladigan bosqichma-bosqich tizimi sifatida izohlanadi. Bu texnologiyalar o'quvchining o'z ustida mustaqil ishlashi, bilimlarni yaratish, tahlil qilish va o'ziga xos tarzda ifodalash ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Ijodiy tafakkurga tayyorlovchi pedagogik texnologiyalar quyidagi o'ziga xos funksiyalarni bajaradi:

Motivatsion – o'quvchini ichki qiziqish asosida faollashtiradi;

Konstruktiv – bilimlar yaratish, qayta ishlab chiqish va o'zlashtirish jarayonini tashkil qiladi;

Reflektiv – o'quvchini o'z fikrini tahlil qilish, xulosalashga o'rgatadi;

Kommunikativ – fikr almashinuvi, guruhda ishlash, bahs yuritish orqali ijtimoiy-ijodiy faoliyatni rag'batlantiradi.

Bugungi kunda ta'limda qo'llanilayotgan muammoli vaziyatlar yaratish, loyiha asosli ta'lim, dramatisatsiya va interfaol o'yinlar kabi texnologiyalar aynan ijodiy tafakkurni uyg'otishga xizmat qilmoqda. Muammoli vaziyat texnologiyasi o'quvchini javob izlashga, tahlil qilishga, muammoni noodatiy yo'l bilan hal qilishga undaydi. Bu usul tanqidiy va ijodiy fikrlashni faollashtiradi.

Loyiha asosli yondashuv o'quvchilarga real hayotiy vaziyatlar asosida mustaqil faoliyat olib borish imkonini yaratadi. Bu texnologiyada o'quvchi bilim oluvchi emas, balki yangi bilim yaratuvchiga aylanadi.

Dramatisatsiya bolalar tafakkurining obrazli, emotsional va estetik qirralarini ochish, ularni badiiy fikrlashga undashda muhim vositadir. She'r, hikoya, sahnalashtirish orqali o'quvchi o'zini ijodkor sifatida kashf etadi.

Interfaol o'yinlar esa bola psixologiyasiga yaqin, motivatsiyaviy jihatdan kuchli va tafakkur mexanizmlarini bevosita ishga soluvchi vositadir. Bu usullar orqali tasavvur, jonlantirish, metafora bilan ishlash ko'nikmalari mustahkamlanadi.

Ayniqsa, boshlang'ich ta'limda bu texnologiyalar o'quvchining tabiiy qiziqishidan kelib chiqib, ijodiy salohiyatini erta yoshdan oqchib berish imkonini beradi. Shunday qilib, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda mustaqil va noodatiy fikrlash, emotsional-estetik qabul qilish, badiiy obraz yaratish, real hayotga yangi yondashuvlar ishlab chiqish ko'nikmalarini shakllantirish orqali ijodiy tafakkurning faol rivojlanishiga xizmat qiladi.

Boshlang'ich ta'lim bosqichi — bu bolada obrazli fikrlash, erkin tasavvur, jonlantirish, dramatik ko'nikmalar tez shakllanadigan bosqich hisoblanadi. Ammo an'anaviy dars metodlarida bu imkoniyatlar yetarli darajada ochildmaydi. O'quvchilar ko'proq tayyor axborotni qabul qiluvchi sifatida qatnashadi, bu esa ularda ijodiy tafakkur rivojini sustlashtiradi. Shu sababli, muammoli vaziyatlar, loyiha asosli yondashuv, dramatisatsiya, interfaol o'yinlar kabi zamonaviy texnologiyalarni ta'limga integratsiyalash dolzarb ehtiyoj bo'lib qolmoqda.

Ushbu texnologiyalar o'quvchini o'quv jarayonida faol ishtirokchi, fikr ishlab chiqaruvchi, muammoni tahlil qiluvchi, badiiy obraz yaratishga qodir shaxs sifatida shakllantiradi. Ayniqsa, she'riyat,

dramatik voqealarni sahnalashtirish, vaziyatli o'yinlar orqali obrazlilik va emotsional idrok bilan bog'liq tafakkur shakllari kuchli rivojlanadi.

Ushbu tadqiqotning maqsadi — boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiluvchi muammoli vaziyatlar, loyiha asosli yondashuv, dramatisatsiya va interfaol o'yinlar kabi pedagogik texnologiyalarning imkoniyatlarini aniqlash, ularning samaradorligini tahlil qilish hamda amaliy qo'llash bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Ijodiy tafakkur tushunchasi xalqaro va milliy pedagogik ilm-fanda muhim o'rinni egallab kelmoqda. Psixologiyada bu tushuncha eng avvalo J. Gilford tomonidan "divergent fikrlash" nazariyasi orqali izohlangan bo'lib, u ijodkorlikni — fikrlarning ravonligi, moslashuvchanligi, originalligi va tafsilotlarga boylik kabi komponentlar orqali o'lchashni taklif qilgan¹. E. Torrance esa bu komponentlar asosida ijodiy fikrlashni diagnostika qilish metodikasini ishlab chiqqan².

L.S. Vygotskiy ijodni bola tafakkurining ichki tabiiy qismi deb baholagan. Unga ko'ra, har bir bola o'z tasavvurlari, obrazlari va emotsional idroki orqali ijodiylikka moyil bo'ladi, ammo bu tabiiy salohiyatni ochish uchun tegishli ijtimoiy-pedagogik sharoit zarur³.

Pedagogika fanida ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodlariga oid qarashlar J. Dewey, K. Rogers, A. Amonashvili⁴, V.V. Davidov, Ye.N. Kabankova, G. Normatova, N. Erkaboyeva, Z. Muxamedova kabi olimlar asarlarida chuqur tahlil qilingan. Jumladan, J. Dyui "tajribaviy ta'lim" konsepsiyasini ilgari surib, o'quvchini passiv tinglovchi emas, balki faol tajriba egasi sifatida tarbiyalashni taklif etgan⁵. Bu yondashuv aynan ijodiy tafakkur uchun zamin yaratadi.

Pedagogik texnologiyalarga oid tadqiqotlar ta'limda muammoli vaziyatlar, o'yinli faoliyat, loyiha va sahnalashtirish kabi metodlarni ijodiylikni rivojlantiruvchi eng samarali vositalar deb baholagan⁶. G.K. Selevko pedagogik texnologiyalarni didaktik tizimdan farqli ravishda shaxsiy rivojlanishga yo'naltirilgan, innovatsion, tizimli faoliyat deb ta'riflaydi⁷.

O'zbekiston olimlari tomonidan ham ijodiy tafakkur va innovatsion metodlar mavzusi faol tadqiq qilinmoqda. Bundan tashqari, PISA, OECD Learning Compass, UNESCO Education for Sustainable Development kabi xalqaro hujjatlarda ijodiy tafakkur — 21-asr shaxsi uchun zarur kompetensiyalardan biri sifatida tan olingan.

Tahlillarga asoslanib aytish mumkinki, hozirgacha ijodiy tafakkur va pedagogik texnologiyalar alohida yoritilgan bo'lsa-da, aynan ijodiy tafakkurni shakllantiruvchi texnologiyalar majmuasi (muammoli vaziyat, loyiha, dramatisatsiya, interfaol o'yin)ning boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun qo'llanishi bo'yicha tadqiqotlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ushbu maqola shu bo'shliqni to'ldirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan muammoli vaziyatlar, loyiha asosli ta'lim, dramatisatsiya va interfaol o'yin texnologiyalarining samaradorligini aniqlash maqsad qilingan. Tadqiqot tajriba-sinov asosida olib borildi va sifatli hamda miqdoriy tahlillar uyg'unligiga tayangan.

Ushbu tadqiqotda kuzatish, so'rovnoma va pedagogik eksperiment metodlaridan foydalanildi.

Ijodiy tafakkurning shakllanish darajasi quyidagi mezonlar asosida baholandi:

1-jadval

Ijodiy tafakkur baholanishi	
Mezoni	Tavsifi
Ravonlik	Berilgan mavzu asosida fikrlar oqimini erkin davom ettirish
Originallik	Noodatiy, kutilmagan, ijodiy g'oyalarni taklif etish
Tafsilotga boylik	G'oyalarni batafsil bayon qilish, obrazli tasvirlash qobiliyati

Baholash 3 balli tizim asosida olib borildi: past — 1 ball, o'rta — 2 ball, yuqori — 3 ball.

Kuzatuv. Kuzatuv metodidan foydalanishning asosiy maqsadi — dars jarayonida o'quvchilarning ijodiy tafakkurga yo'naltirilgan

¹ Гилфорд Дж. П. Креативность // *Psychological Review*. — 1950. — Т. 64, № 6. — С. 352–361.
² Торранс Э. П. Тесты креативного мышления: Методическое пособие. — Миннесота: Миннесотский ун-т, 1974. — 128 с.
³ Вygотский Л. С. Воображение и творчество в детском возрасте. — Москва: Айрис-пресс, 2004. — 96 с.

⁴ Амонашвили Ш. А. Основы гуманной педагогики. — Тбилиси: Мерани, 2010. — 224 с.
⁵ Дьюи Дж. Опыт и образование. — Нью-Йорк: Макмиллан, 1938. — 125 с.
⁶ Хуторской А. В. Креативная педагогика. — Москва: Изд-во АРКТИ, 2005. — 184 с.
⁷ Селевко Г. К. Энциклопедия образовательных технологий. — Москва: Педагогика, 1998. — 256 с.

pedagogik texnologiyalar (muammoli vaziyatlar, loyiha asosli ishlar, dramatisatsiya va interfaol o'yinlar) bilan qanday aloqadorlikda qatnashayotganini bevosita kuzatish, ularning fikrlash faoliyati, savollarga yondashuvi, obrazli ifoda qilish ko'nikmalarini o'ziga xos tarzda tahlil qilishdan iborat bo'ldi.

Boshqacha aytganda, kuzatuv usuli orqali o'quvchining o'qituvchi bergan topshiriq yoki muammoga qanday javob berayotgani, qanday tasavvur yaratayotgani, savollarga yangicha yondashayotganiga baho berildi.

Kuzatuv metodi Farg'ona viloyati Qo'qon shahri 2-sonli umumta'lim maktabida 48 ta respondent orasida o'tkazildi.

Kuzatuvlar davomida o'quvchi o'z fikrini ochiq aytish, bir savolga bir nechta turli, kutilmagan javoblar taklif qilishi, she'r asosida rasm chizish, dramatisatsiya qilishga qanday yondashishi, o'yin yoki loyiha davomida o'quvchi o'z yondashuvini tushuntirish, guruhli ishlarda o'ziga xos yondashuvlar, mas'uliyat va tashabbus ko'rsatishi, metafora, jonlantirish, badiiy ifoda vositalaridan foydalanish darajasi, yangi savollar ishlab chiqish, o'rganayotgan narsaga shubha bilan yondasha olishi, ijtimoiy-tafakkuriy va didaktik jihatlar bevosita kuzatildi.

So'rovnoma. Tadqiqotda so'rovnoma usuli qo'llanishining asosiy maqsadi – boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning ijodiy tafakkurini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarning (muammoli vaziyatlar, loyiha, dramatisatsiya, interfaol o'yinlar) amaliyotda qanday qo'llanilayotganini aniqlash hamda o'qituvchilarning bu texnologiyalarga bo'lgan yondashuvi va ularning samarasini qanday baholashini aniqlashdan iborat bo'ldi.

Bundan tashqari, o'quvchilarning o'zlari ushbu metodlardan foydalangan darslarda qiziqish, erkin fikr bildirish, noodatiy javob berish, tasavvur qilish imkoniyatlarini qanday sezganliklari ham o'rganildi. So'rovnoma Qo'qon shahar 12-sonli umumta'lim maktabida 96 nafar respondent orasida o'tkazildi.

O'qituvchilar uchun quyidagi savollar berildi:

1. Siz darslaringizda muammoli vaziyat yaratishga necha foiz hollarda murojaat qilasiz?

2. Loyiha asosida tashkil qilingan mashg'ulotlar sizning amaliyotingizda necha marotaba o'rin olgan?

3. Dramaga asoslangan topshiriqlarni (dramatisatsiya, rolli o'yin) necha sinfda qo'llagansiz?

4. O'quvchilarda ijodiy javoblar ko'proq qaysi metodda namoyon bo'lgan?

5. Interfaol o'yinlarning siz sinfda ko'proq foydalangan turlari?

6. Sizningcha, ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun eng samarali usul nima? (ochiq savol)

7. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilarda qanday o'zgarishlar sezdingiz?

8. Siz foydalanadigan darsliklar va qo'llanmalar bu texnologiyalarga mosmi?

9. Shaxsiy fikringiz: ijodiy tafakkur muhimmi, yoki faktga asoslangan yondashuvmi?

Bundan tashqari, o'quvchilar uchun ham ularning yoshiga mos qiziqarli savollardan iborat so'rovnoma tuzildi. O'qituvchilarning javoblari foizlik tahlil, ko'p uchragan fikrlar guruhlanishi, grafiklar orqali tahlil qilindi.

Pedagogik eksperiment. Pedagogik eksperimentning asosiy maqsadi – boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy tafakkurini rivojlantirishda muammoli vaziyatlar, loyiha asosli yondashuv, dramatisatsiya va interfaol o'yinlar kabi pedagogik texnologiyalarning samaradorligini amaliy tajriba asosida aniqlash va ularni an'anaviy metodlar bilan taqqoslashdan iborat bo'ldi.

Tajriba guruhi Quva tumani 8-maktabda, nazorat guruhi Farg'ona shahri 24-maktab da 96 respondent orasida o'tkazildi. O'quvchilarning ijodiy tafakkur darajasi dastlabki holatda aniqlashtirildi. Eksperiment sifatida ularga Agar men quyosh bo'lsam... jumlasini davom ettirish, berilgan rasm asosida hikoya tuzish, she'rga mos dramatik sahna yozish yoki jonlantirish topshiriqlari berildi.

12 hafta davomida tajriba guruhida quyidagi pedagogik texnologiyalar ketma-ket va integratsiyalashgan holda qo'llandi:

2-jadval

Qo'llanilgan pedagogik texnologiyalar

Haftalar	Qo'llangan texnologiyalar	Mavzu yoki faoliyat namunasi
1–3-hafta	Muammoli vaziyatlar	“Nega yomg'ir doim bulutdan yog'adi?”, “Harflar o'zini tanitdi” (topshiriqlar)
4–6-hafta	Loyiha asosli ta'lim	“Orzular maktabi” – plakat, hikoya, rasm va video-prezentatsiya
7–9-hafta	Dramatisatsiya	“Qor bola”, “Yashil daraxt bilan suhbat” (she'r asosida dramatik sahnalar)
10–12-hafta	Interfaol o'yinlar	“Bir so'zdan hikoya”, “Kim tez topadi?”, “She'rdagi yashiringan obrazni top”

Faoliyat davomida o'quvchilar individual va guruhli ishlarga jalb etildi, topshiriqlar yozma va og'zaki ko'rinishda bajarildi.

3-jadval.

Baholash va tahlil mezonlari jadvali

Mezon	Tavsifi
Ravonlik	Bir savolga bir nechta turli javoblar bera olish qobiliyati
Originallik	O'xshamagan, kutilmagan javoblar soni
Tafsilotga boylik	Berilgan g'oyani chuqur, obrazli va batafsil ifodalash qobiliyati
Estetik ifoda	She'riy tasvir, metafora, jonlantirish kabi badiiy vositalardan foydalanish

Har bir mezon uchun o'quvchilarga past, o'rta, yuqori darajalar belgilandi va ularga mos 1–3 ballik tizim asosida baholar qo'yildi.

Tadqiqot natijalari. Kuzatuv metodi asosida o'tkazilgan tahlillar Farg'ona viloyati, Qo'qon shahri 2-sonli umumta'lim maktabida 48 nafar boshlang'ich sinf o'quvchilari ishtirokida olib borildi. Kuzatuv dars jarayonida o'quvchilarning ijodiy tafakkurga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar — muammoli vaziyatlar, loyiha asosli faoliyat, dramatisatsiya va interfaol o'yinlar bilan aloqadorlik darajasi, fikrlash faoliyati va ijodiy yondashuvlarini tahlil qilishga qaratildi.

Tahlillar davomida aniqlanishicha, o'quvchilar ijodiy topshiriqlarga sezilarli darajada faol va o'ziga xos tarzda javob berishga harakat qilgan. O'quvchilarning aksariyati berilgan muammoli vaziyatga bir xil emas, bir nechta turli javoblar taklif qila oldi. Masalan, “Agar men quyosh bo'lsam...” yoki “Kitob menga nima dedi?” kabi topshiriqlarda o'quvchilar shaxsiy va kutilmagan tasavvurlar bilan javob bergan.

O'quvchilar she'r asosida rasm chizish, hikoya tuzish, dramatik chiqish tayyorlashda jonlantirish, metafora, emotsional va poetik ifoda vositalaridan keng foydalandi. Bu holat poetik tafakkur va obrazli idrok darajasining mavjudligini ko'rsatdi. Rolli o'yinlar va sahnalashtirishga

asoslangan faoliyatlarda o'quvchilar obrazga kirish, his-hayajonni berish, sahna mazmunini tushuntirishda faol bo'lishdi. Ba'zi o'quvchilar o'z replikalarini mustaqil ishlab chiqishga harakat qilgani qayd etildi.

Guruhiy ishlar davomida o'quvchilar o'z rollarini mustaqil taqsimlab oldilar, tashabbus ko'rsatdilar va loyiha mazmunini turli shakllarda (plakat, og'zaki taqdimot, hikoya) ifoda etdilar.

O'quvchilar tomonidan berilgan ba'zi javoblarda savollarga nisbatan shubha bilan qarash, muqobil savol o'ylab topish, mavjud javobni inkor etib yangi taklif kiritish hollari kuzatildi.

Guruh ishlarida ayrim o'quvchilar boshqalar fikrini baholash, murosaga kelish, fikrlarni birlashtirish kabi ijtimoiy va muloqotga asoslangan tafakkur ko'nikmalarini namoyon qildi.

Ba'zi o'quvchilar tomonidan so'zlar yoki buyumlarga insoniy sifatlar yuklash ("so'z achchiq edi", "kitob uyga ketdi" kabi) kuzatildi. Bu esa ularning tasavvur va ijodiy ifoda salohiyatining tabiiy va ochiq shaklda namoyon bo'layotganini ko'rsatdi.

Umuman olganda, kuzatuv natijalari boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rag'batlantirishga yo'naltirilgan pedagogik texnologiyalar ularning emotsional, obrazli, estetik va intellektual faoliyatini faollashtirishini ko'rsatdi. O'quvchilar topshiriqlarga ijodkorona, o'ziga xos tarzda yondashgan, o'z fikrini erkin ifodalashga intilgan va guruhiy ishda ijtimoiy muloqot ko'nikmalarini rivojlantirgan. Bu natijalar tajribaning keyingi bosqichlari uchun puxta zamin yaratdi va ijodiy tafakkurni rivojlantirish metodikasi asosida faoliyatlarni tizimli tashkil etish zarurligini ko'rsatdi.

4-jadval.


So'rovnoma natijalari jadvali

Savol mazmuni	Natija (foizda)
Muammoli vaziyatlardan darsda foydalanasizmi?	72% o'qituvchi muntazam foydalanadi
Loyiha asosli ishlarga necha marotaba murojaat qilasiz?	65% o'qituvchi oyiga kamida 1 marta qo'llaydi
Dramatizatsiyani darsga qanchalik integratsiya qilasiz?	48% faqat maxsus tadbirlarda ishlatadi
Interfaol o'yinlarning samaradorligini qanday baholaysiz?	85% samarali deb hisoblaydi
Ishlatayotgan darslik va metodikalar texnologiyalarga mosmi?	90% metodik ta'minot yetarli emas deb hisoblaydi
O'quvchilarda ijodiy tafakkur qanday rivojlanmoqda?	O'quvchilar erkin fikrlashga intilmoqda (o'qituvchilarning 78% fikricha)

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari orasida o'tkazilgan so'rovnoma natijalariga ko'ra, respondentlarning 72 foizi muammoli vaziyat yaratish texnologiyasidan darslarida doimiy foydalanishini bildirgan. 65 foiz o'qituvchi loyiha asosli faoliyatlarni oyiga kamida bir marta tashkil etadi. 48 foiz o'qituvchi dramatizatsiya (sahnalashtirish) usulini faqatgina bayram va ochiq darslarda qo'llashini bildirgan. 85 foiz o'qituvchilar interfaol o'yinlar bolalarda ijodiy faollikni oshiradi, deb hisoblaydi. 93 foiz o'qituvchilar esa pedagogik texnologiyalar ijodiy tafakkurni rivojlantirishda an'anaviy metodlardan samaraliroq ekanini e'tirof etgan.

O'quvchilar bilan og'zaki tarzda o'tkazilgan suhbatlar asosida aniqlanishicha, 78 foiz o'quvchi dramatizatsiya, she'r aytish, rolda chiqish darslarini eng esda qolarli deb topgan. 67 foiz o'quvchi interfaol o'yinlar orqali o'z fikrini erkin ayta olganini bildirgan. 62 foiz o'quvchi muammoli savollarga bir nechta javob topishga harakat qilganini aytgan. 54 foiz o'quvchi o'zi she'r yoki hikoya to'qib ko'rganini bildirgan.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, zamonaviy pedagogik texnologiyalar darsni jonlantirish, o'quvchining ichki salohiyatini ochish, uning erkin va ijodiy fikrlashga bo'lgan intilishini rag'batlantirishda samarali vosita bo'lib xizmat qilmoqda.



1- rasm. Tajriba guruhida ijodiy tafakkur me'zonlari bo'yicha o'sish

Eksperiment davomida 96 nafar o'quvchi ishtirokida (48 tajriba, 48 nazorat) o'quvchilarning ijodiy tafakkur darajalari uchta asosiy mezon bo'yicha baholandi: ravonlik, originallik, tafsilotga boylik.

Tajriba guruhida 12 haftalik aralashuvdan so'ng har uchala mezon bo'yicha 30-40% gacha o'sish kuzatildi. O'quvchilar savollarga bir nechta javob taklif qilish, noodatiy fikr aytish va fikrini obrazli tasvirlashga moyillik bildirgan.

Nazorat guruhidagi o'zgarishlar

Mezon	Eksperiment oldi (%)	Eksperiment so'nggi (%)
Ravonlik	46%	52%
Originallik	39%	44%
Tafsilotga boylik	41%	48%

Nazorat guruhida an'anaviy metodlar qo'llangan darslardan so'ng ijodiy tafakkur o'sishi sezilarli emas – atigi 5–7% atrofida.

Tajriba guruhi bilan ishlashda muammoli vaziyatlar, loyiha asosli topshiriqlar, dramatisatsiya va o'yinlar orqali o'quvchilar:

- Fikrlarini erkin va ravon bayon qilishga;
- Noodatiy, kutilmagan yondashuvlar taklif qilishga;
- Tasvirlar va badiiy obrazlar yaratishga moyil bo'lgan.

Pedagogik eksperiment natijalari shuni ko'rsatdiki, muammoli vaziyatlar, loyiha asosli yondashuv, dramatisatsiya va interfaol o'yinlar kabi texnologiyalar boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Eksperimentdan oldin va keyingi bosqich natijalari o'rtasida sezilarli farq kuzatildi. Xususan, o'quvchilarda ravonlik, originallik va tafsilotga boylik darajalari 30–40 foizgacha oshdi. Bu esa ijodiy tafakkur tabiiy ravishda mavjud bo'lgan salohiyat ekanini va uni to'g'ri pedagogik yondashuv bilan faollashtirish mumkinligini amaliy jihatdan isbotladi.

Muhokama. O'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy tafakkurini shakllantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning, xususan muammoli vaziyatlar, loyiha asosli ta'lim, dramatisatsiya va interfaol o'yinlarning samarasi yuqori bo'lib, ularning to'g'ri tanlanishi va ketma-ket qo'llanishi orqali o'quvchilarda mustaqil, obrazli va noodatiy fikrlash ko'nikmalari rivojlanadi. So'rovnomalarda kuzatuv va eksperiment orqali to'plangan empirik ma'lumotlar, ayniqsa, dramatik mashg'ulotlar, o'yinli topshiriqlar va ijodiy loyiha ishlari o'quvchilarning tafakkur faoliyatini kuchaytirishini ko'rsatdi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar ijodiy topshiriqlarga javob qaytarishda avvalgi passivlikdan farqli ravishda o'z fikrlarini ko'plab shakllarda ifodalashga o'tdilar – bu esa ijodiy tafakkurning eng muhim belgilaridan biri hisoblanadi. Mazkur natijalar mashhur amerikalik psixolog J. Guilford tomonidan 1950-yilda ilgari surilgan "divergent fikrlash" nazariyasiga to'la mos keladi. Guilford ta'kidlashicha: "Ijodiylik – bu yagona javobga emas, ko'p javobli yo'nalishga yo'naltirilgan tafakkurdir. Bu fikrlash ravonligi, originallik va tafsilotga boylik orqali namoyon bo'ladi." Tadqiqot natijalarida o'quvchilarning aynan ushbu ko'nikmalari faollashgani – bir savolga turlicha javoblar topish, noodatiy g'oya ilgari surish, metafora va dramatik obrazlar bilan ishlash holatlari orqali amalda tasdiqlandi.

Bundan tashqari, E. Torrance tomonidan taklif etilgan ijodiylikni baholovchi mezonlar – fluency (ravonlik), originality (originallik), elaboration (tafsilotga boylik) – ushbu tadqiqotning eksperimental bosqichida ishlatilgan baholash indikatorlariga asos bo'ldi. Shunday mezonlar asosida kuzatilgan natijalar Guilford va Torrance nazariyalarining boshlang'ich ta'lim amaliyotida samarali qo'llanishi mumkinligini ko'rsatadi.

Mualliflik yondashuvi shundan iboratki, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metodlar mustaqil ravishda emas, balki tizimli tarzda, o'zaro integratsiyada qo'llanilgandagina yuqori natija beradi. Masalan, avval muammoli vaziyat bilan bolada fikriy ehtiyoj uyg'otiladi, keyin bu loyiha ishlari bilan mustahkamlanadi, dramatisatsiya orqali obrazli va emotsional ifoda beriladi, so'ng o'yinlar orqali erkinlik va ijodiy muhit yaratiladi. Shu tarzda, o'quvchining tafakkur salohiyati bir yo'nalishda emas, balki ko'p qirrali shaklda namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Guilford, J. P. (1950). Creativity, Psychological Review, 64(6), 352–361.
2. Torrance, E. P. (1974). Torrance Tests of Creative Thinking, University of Minnesota.
3. Vygotsky, L. S. (2004). Imagination and Creativity in Childhood (original 1930s).
4. Dewey, J. (1938). Experience and Education. Amerika pragmatizm maktabining asosiy pedagogik asari.

Tadqiqot natijalari yana shuni ko'rsatdiki, bolalar she'riyati bilan ishlash – ayniqsa dramatisatsiya, jonlantirish, metaforik tafakkur asosida fikr bildirish – o'quvchilarda tanqidiy va poetik tafakkurni uyg'otadi. Bu esa ijodiy tafakkur va estetik idrok o'rtasida bevosita aloqadorlik borligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, olib borilgan tadqiqot shuni isbotladiki, ijodiy tafakkur darsga qo'shilgan yangi mavzu emas – u darsning ichki strukturasi singdirilishi, topshiriqlarning shakli, metodlarning xususiyati, o'qituvchining pozitsiyasi orqali amalga oshiriladigan doimiy pedagogik jarayon bo'lishi lozim.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ijodiy tafakkur boshlang'ich sinf o'quvchilari tafakkur salohiyatining asosiy ko'rinishlaridan biri bo'lib, uni o'z vaqtida pedagogik texnologiyalar orqali rag'batlantirish o'quvchining fikrlash doirasini kengaytiradi, erkin va obrazli ifoda imkoniyatlarini rivojlantiradi. Ayniqsa, muammoli vaziyatlar, loyiha asosli mashg'ulotlar, dramatisatsiya va interfaol o'yinlar o'quvchining tafakkurini nafaqat faollashtiradi, balki uni yangilik yaratishga undaydi.

Kuzatuvlar va so'rovnomalarda shuni ko'rsatdiki, ijodiy tafakkurni rivojlantirishda o'yinli, emotsional, obrazli faoliyatlarga asoslangan metodlar o'quvchilar tomonidan yuqori qiziqish va ishtirok bilan qarshi olinmoqda. Eksperiment natijalari esa mazkur texnologiyalarning ijodiy fikrlash mezonlari – ravonlik, originallik, tafsilotga boylik – bo'yicha sezilarli o'sishga olib kelganini tasdiqladi.

Tadqiqot davomida Guilford, Torrance va Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan nazariyalar amaliyotda o'z tasdig'ini topdi. Xususan, Guilfordning "ko'p yo'nalishli tafakkur" nazariyasi bilan uyg'un ravishda o'quvchilarda muammoga bir nechta yechim topishga, tasavvur asosida obrazlar yaratishga moyillik kuchaydi. Dramatisatsiya va o'yinli yondashuvlar esa poetik tafakkur va estetik ifodaning kuchli vositasiga aylandi.

Muallif sifatida shuni ta'kidlayman: ijodiy tafakkur alohida dars yoki mavzu sifatida emas, balki ta'lim jarayonining ichki mazmuni, topshiriq shakli, metodikasi, o'qituvchining shaxsiy yondashuvi orqali uzviy ravishda shakllanishi kerak. Bu borada bolalar she'riyati – o'zining obrazlilik, emotsionallik va badiiy tuzilmasi bilan – eng qulay pedagogik vositalardan biri hisoblanadi.

Takliflar.

1. Boshlang'ich sinf darsliklari va metodik qo'llanmalarga ijodiy tafakkurni rag'batlantiruvchi topshiriqlar – metafora yasash, dramatik sahna tuzish, she'rni rasmga aylantirish kabi mashqlar kiritilishi lozim.
2. O'qituvchilar uchun "Ijodiy tafakkur va texnologiyalar" mavzusida metodik treninglar, seminarlar tashkil etish maqsadga muvofiq. Bu o'qituvchilarning amaliy tayyorgarligini oshiradi.
3. Ijodiy tafakkurni baholash mezonlari asosida o'quvchilarning rivojlanish xaritasi yuritilishi tavsiya etiladi. Bu orqali o'quvchining individual tafakkur o'sishi kuzatib boriladi.
4. Poetik matnlarga asoslangan integratsiyalashgan darslar (she'r + rasm, she'r + drama, she'r + loyiha) tajriba shaklida keng joriy etilishi lozim.
5. Keyingi tadqiqotlar uchun sun'iy intellekt yordamida bolalar ijodkorligini rivojlantirish vositalari, raqamli o'yinlar orqali ijodiy tafakkurga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari o'rganilishi mumkin.

5. Amonashvili, Sh. A. (2010). Osnovy gumanoy pedagogiki. Gumanistik pedagogikaning asoschisi sifatida tanilgan.
6. Selevko, G. K. (1998). Pedagogicheskie tekhnologii: klassifikatsiya i opisaniye
7. Khutorskoy, A. V. (2005). Kreativnaya pedagogika
8. Inoyatova, D. Q. (2024). Boshlang'ich ta'limda ta'lim texnologiyalarini qo'llash: tajriba va istiqbol. *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 12, 96-98.



OLIV TA'LIMDA TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARNING AHAMIYATI

Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi

Qo'qon universiteti Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

maftunaxonjaloliddinova@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 31 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1211 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS Transversal kompetensiyalar, ta'lim, XXI asr ko'nikmalari, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish, ijodiy yondashuv, ijtimoiy-emotsional ko'nikmalar, ijodkorlik, kommunikativ kompetensiya, ta'lim sifatini oshirish, integratsiyalashgan ta'lim yondashuvi, zamonaviy o'quv dasturlari, talaba kompetensiyasi, kompetensiyaviy yondashuv.	Maqolada oliy ta'limda transversal (kesishuvchi) kompetensiyalarning ahamiyati va ularning zamonaviy ta'lim jarayonidagi o'zni batafsil tahlil qilinadi. Globalizatsiya, raqamli transformatsiya hamda mehnat bozorida tezkor o'zgarishlar sharoitida talabalarda shakllantirilishi lozim bo'lgan shaxslararo muloqot, muammolarni hal qilish, tanqidiy fikrlash, ijodkorlik va hamkorlik kabi transversal ko'nikmalar keng yoritiladi. Ushbu kompetensiyalar yoshlarni nafaqat kasbiy faoliyatga tayyorlash, balki ularni ijtimoiy, madaniy va axborot maydonida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishlari uchun zarur bo'lgan malaka va qobiliyatlarni bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimi oldiga mutlaqo yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarining zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishi, ularning nafaqat kasbiy bilimga, balki keng qamrovli, ya'ni transversal (kesishuvchi) kompetensiyalarga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Transversal kompetensiyalar - bu tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, muloqotga kirishish, jamoada ishlash, muammolarni hal qilish, o'z-o'zini boshqarish kabi umumiy ko'nikmalardir. Bunday kompetensiyalar nafaqat ma'lum bir sohaga doir bilimlarni chuqur o'zlashtirishda, balki hayotiy vaziyatlarda samarali qarorlar qabul qilishda ham muhim rol o'ynaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan so'nggi yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, raqamli iqtisodiyotga mos kadrlar tayyorlash va zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirish borasida bir qator muhim qaror va farmonlar qabul qilindi. Xususan, 2020-yil 6-noyabrda PQ-4884-sonli "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaror ta'lim tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan keng qamrovli islohotlarni o'z ichiga oladi.¹

Ushbu maqolada oliy ta'lim jarayonida transversal kompetensiyalarni shakllantirishning dolzarbligi, ularni o'quv dasturlariga integratsiyalash usullari hamda pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Maqsad - ta'limning mazmun va sifatini oshirish orqali har tomonlama yetuk, moslashuvchan va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga xizmat qiluvchi ilmiy asoslangan tavsiyalarni ishlab chiqishdir.

Adabiyotlar tahlili. Transversal kompetensiyalar tushunchasi ilk bor XX asrning oxiri va XXI asr boshlarida ta'lim sohasida keng tarqaldi. Zamonaviy pedagogika adabiyotlarida transversal kompetensiyalar ko'plab olimlar tomonidan tahlil qilingan va ularning ta'lim jarayonidagi o'zni haqida keng fikrlar ilgari surilgan.

Oliy ta'lim tizimida transversal kompetensiyalarni rivojlantirish, bugungi kunda, ta'lim tizimining eng dolzarb masalalaridan biriga aylangan. Transversal kompetensiyalar o'quvchilarda bilimdan tashqari, ijtimoiy va shaxsiy ko'nikmalarni ham rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu kompetensiyalar ta'lim jarayoniga integratsiya qilinishi ta'lim tizimi va jamiyat uchun, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash uchun katta ahamiyatga ega ekanligini alohida ta'kidlash lozim.

G.O. Ochilova, S.Sh. Akbarovning Kasbiy kompetentlik nomli darslik kitobida kasbiy kompetentlik, mutaxassislarni tayyorlashda

kasbiy kompetentlikning o'zni, muloqot madaniyatini shakllantirish, muvaffaqiyatli kasbiy faoliyat motivatsiyasi, rahbar shaxsi etikasi, tashkilot imidji, bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda kreativlikni rivojlantirish yo'llari haqidagi ma'lumotlar bilan tanishtiradi.

Kompetensiya shaxsning yurish-turishini baholashga oid bilimlar majmui bo'lib, u orqali biz tashkilotni samarali rivojlanishi yo'lida xodimning o'z faoliyatini amalga oshirishida qanday darajadagi muvaffaqiyatlarga erishayotganligini aniqlashimiz mumkin. Kompetensiyalarning mavjudligi odatda shaxs xulq-atvorini o'lchovchi (indikatorlar yordamida) muayyan holatlar orqali qayd qilinadi (yaxshi shakllangan xulqiy malakalar). Ko'pincha kundalik muloqotda biz "kompetensiya" yoki "bilimdonlik" tushunchalarini tez-tez ishlatamiz. Ayniqsa, "professional kompetensiya" tushunchasi ko'proq diqqatni tortadi. Lekin, ba'zan insonlar bilan ishlash borasida "kommunikativ kompetensiya" tushunchasi ham ishlatiladi. Bu aslida o'zgaralar bilan til topisha bilish, o'z nutqini ravon va bir tekisda tuzish orqali fikrlarini boshqalarga yetkaza olish kabi muhim xususiyatlar bilan bog'lanadi.² Yuqorida keltirilgan kompetensiyalar talabalarni kasbiy tayyorlashda zarur bo'lgan transversal kompetensiyalarning bir qismi sifatida xizmat qiladi.

A. Xoliqovning Pedagogik mahorat nomli darsligida: "Pedagogik mahorat - yuksak pedagogik tafakkur, ta'lim-tarbiya jarayoniga ong, ijodiy yondashuv, metodik bilimlarni samarali qo'llay olish qobiliyati bo'lib u doimiy ravishda pedagogik bilimlarni oshirib borish, o'tmish qadriyatlarini, O'rta Osiyo mutafakkirlari ijodiy merosida yoritilgan murabbiylarni tayyorlash to'g'risidagi ma'lumotlar hamda zamonaviy axborot texnologiyalari, portal yangiliklaridan xabardor bo'lish, ilg'or xorijiy davlatlarning o'qituvchilar tayyorlash texnologiyalarini nazariy jihatdan o'rganish jarayonida tarkib topadi. Yosh o'qituvchilarning, shuningdek, ta'lim muassasasida bir necha yillik mehnat stajiga ega bo'lgan o'qituvchilarning pedagogik mahoratga ega bo'lishlari o'zlarini kasbiy jihatdan takomillashtirib borish yo'lida bir qator shartlarga amal qilishi hisobiga rivojlanib boradi".³ degan fikrlar keltirilgan. Pedagogik mahorat talabalarda oliy ta'limda kasbiy ta'lim olish jarayonida rivojlanib boradi.

UNESCO tomonidan e'lon qilingan "Rethinking Education: Towards a Global Common Good" (Ta'limni qayta o'ylash: Global umumiy yaxshilik sari) nomli kitobida ta'limning global kontekstdagi roli va uning jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy o'zgarishlarga qanday moslashishi masalalari ko'rib chiqiladi. UNESCO fikricha, XXI asrda ta'limda shaxsiy rivojlanish va ijtimoiy integratsiya kabi transversal

¹ lex.uz — PQ-4884-son qarori matni

² G.O. Ochilova, S.Sh. Akbarova Kasbiy kompetentlik. Darslik. TOSHKENT- 2022. 16-bet

³ A. Xoliqov Pedagogik mahorat nomli darslik. Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011. 21-bet

kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Kitobda ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda oliy ta'limning o'рни va uning jamiyatdagi o'zgarishlarga moslashishdagi roli tahlil qilinadi.

Keltirib o'tilgan adabiyotlar oliy ta'limda transversal kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyatini ko'rsatib, xalqaro tajribalarga asoslanadi. O'zbekiston ta'lim tizimi ham ushbu global tendensiyalarni hisobga olgan holda o'quv dasturlarini yanada takomillashtirishga intilmoqda. Shunday qilib, talabalarda zamonaviy ko'nikmalarni shakllantirish va ularni kelajakdagi mehnat bozorida muvaffaqiyatli faoliyat yuritishga tayyorlash ta'limning asosiy maqsadlaridan biriga aylanishi lozim.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda transversal kompetensiyalarni oliy ta'lim tizimida rivojlantirishning ahamiyatini o'rganish uchun kvalitatif metod (sifat tahlil metodi), kvantitativ tadqiqot (tadqiqotdagi hodisa, jarayon yoki munosabatlarni miqdoriy ko'rsatkichlar orqali o'lchash va statistik tahlil), eksperimental yondashuv, davomiy monitoring kabi bir qator metodologik yondashuvlar qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi, oliy ta'lim muassasalarida transversal kompetensiyalarni shakllantirish jarayonini tahlil qilish va ularni rivojlantirishga yo'naltirilgan samarali pedagogik yondashuvlar va metodlarni ishlab chiqishdan iboratdir.

Tadqiqotda kvalitatif metod ya'ni sifat tahlil metodi qo'llanildi. Bu metod orqali oliy ta'lim muassasalarida ishlaydigan pedagoglar, talabalar, ilmiy rahbarlar bilan chuqur intervyular o'tkazildi. Intervyular orqali talabalar va o'qituvchilarning transversal kompetensiyalarni tushunishi va ular bilan bog'liq tajribalari tahlil qilindi. Intervyu natijalari, oliy ta'limda transversal kompetensiyalarni shakllantirishda yuzaga keladigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari haqida muhim ma'lumotlar taqdim etdi.

Oliy ta'limda transversal kompetensiyalarning mavjudligi va rivojlanishini o'rganish uchun kvantitativ metoddan foydalanildi. Unga ko'ra, tadqiqotdagi hodisa, jarayon yoki munosabatlarni miqdoriy ko'rsatkichlar orqali o'lchash va statistik tahlil qilishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuvdan foydalanildi. Kvantitativ metod so'rovnomalar orqali amalga oshirilib, talabalar va o'qituvchilardan transversal kompetensiyalarni qanday baholashlari, ta'lim jarayonida bu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun qanday yondashuvlar samarali ekani haqidagi fikrlar yig'ildi. So'rovnomalar natijalari yordamida ta'lim tizimida transversal kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlar va strategiyalarni aniqlash imkoniyati yaratildi.

Eksperimentlar orqali, o'quv dasturlariga transversal kompetensiyalarni kiritishning samaradorligini o'rganish maqsadida kichik guruhlar bo'yicha sinovlar o'tkazildi. Tadqiqotda ta'lim jarayoniga transversal kompetensiyalarni integratsiyalash orqali talabalarining ijodiy yondashuvi, tanqidiy fikrlash va jamoaviy ishlash ko'nikmalarining o'zgarishi kuzatildi. Eksperimentlar oliy ta'limda transversal kompetensiyalarni rivojlantirishning samaradorligini aniq ko'rsatdi.

Tadqiqotning yakuniy bosqichida talabalar va o'qituvchilarning transversal kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlarining samaradorligini kuzatish uchun monitoring mexanizmi (davomiy monitoring) yaratildi. Bu monitoring tizimi orqali, o'quv jarayonida transversal kompetensiyalarni rivojlantirish darajasi aniqlanib, metodik yondashuvlarni yaxshilash bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tadqiqot natijalari.

Tadqiqotda o'qituvchilarning transversal kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha qo'llagan metodlari va yondashuvlari tahlil qilindi. Natijalar quyidagi jadvalda aks etgan.

1-jadval

Kvalitatif metod ya'ni sifat tahlil metodi. Pedagogik yondashuv va metodlar bo'yicha tahlil

Pedagogik metod	Qo'llanilgan o'qituvchilar (%)	Samaradorligi	Tavsiyalar
Muammoli o'qitish (Problem-based learning)	45%	80% talabalar tomonidan yuqori baholangan	Ushbu metodni kengaytirish, jamoaviy loyihalarni ko'proq jalb qilish
Ijodiy loyihalar va case-study	35%	75% talabalar tomonidan yuqori baholangan	Innovatsion fikrlashni rivojlantirish uchun maxsus kurslar tashkil etish
Guruh ishlari va seminarlar	50%	85% talabalar tomonidan yuqori baholangan	Guruh ishlari uchun maxsus o'quv dasturlari va treninglarni kuchaytirish
Tanqidiy tahlil va munozara	40%	70% talabalar tomonidan yuqori baholangan	Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun o'qitishning interaktiv usullarini kengaytirish

Kvantitativ metodga ko'ra so'rovnomalar natijalari, oliy ta'limda transversal kompetensiyalarni rivojlantirishning hozirgi holatini tahlil qilish maqsadida olib borildi. So'rovnomada ishtirok etgan Qo'qon

universiteti Maktabgacha ta'lim yo'nalishining 40 nafar talabalardan olingan javoblar asosida quyidagi natijalar yig'ildi.

2-jadval

Kvantitativ metod ya'ni tadqiqotdagi hodisa, jarayon yoki munosabatlarni miqdoriy ko'rsatkichlar orqali o'lchash va statistik tahlil qilishga yo'naltirilgan ilmiy yondashuv natijalari

Transversal Kompetensiya	Jami talabalar soni	Ijobiy baholagan talabalar (%)	Nega ijobiy baholagan?	Nega salbiy baholagan?
Tanqidiy fikrlash	40	75%	Talabalarda o'z fikrini izchil bildirish, masalalarga tanqidiy yondashuvni ko'rish	O'quv dasturlarida tanqidiy fikrlashni rivojlantiradigan maxsus metodlarning yo'qligi
Kommunikativ ko'nikmalar	40	68%	Jamoaviy ishlash va guruh muhokamalaridagi ishtirok etish imkoniyati	O'quv jarayonida ko'proq amaliy mashg'ulotlar yetishmaydi
Innovatsion fikrlash	40	60%	Talabalar yangi g'oyalar yaratishda erkinlikni sezadilar	Innovatsion loyihalar uchun maxsus kurslar va dasturlar yo'qligi
Jamoadi ishlash ko'nikmalari	40	85%	Jamoaviy loyihalar va muhokamalar orqali ko'nikmalarni rivojlantirish imkoniyati	O'quv dasturlarida jamoada ishlashni mustahkamlovchi metodlar mavjud emas
O'z-o'zini boshqarish	40	70%	Shaxsiy rivojlanish va mustaqil ishlarni bajarish imkoniyati	Boshqaruv va o'z-o'zini boshqarish bo'yicha maxsus darslar yoki treninglar yetishmaydi

Oliy ta'lim muassasasida olib borilgan eksperimentda talabalar o'zlarining transversal kompetensiyalarini shakllantirish uchun maxsus

dasturlar bo'yicha treninglarda qatnashdilar. Eksperiment natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Eksperimental yondashuv. Eksperiment natijalari: transversal kompetensiyalarni rivojlantirishdagi samaradorlik

Kompetensiya	Eksperimentdan oldingi o'rta ball	Eksperimentdan keyingi o'rta ball	O'zgarish (%)
Tanqidiy fikrlash	3.4	4.2	+23.5%
Kommunikativ ko'nikmalar	3.8	4.6	+21.1%
Innovatsion fikrlash	3.1	4.0	+29.0%
Jamoadi ishlash ko'nikmalari	4.0	4.8	+20.0%
O'z-o'zini boshqarish	3.5	4.3	+22.8%

O'quv jarayonida transversal kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan metodlarning samaradorligini baholash

uchun davomiy monitoring tizimi joriy etildi. Monitoring natijalari quyidagi jadvalda keltirilgan.

Davomiy monitoring. Monitoring va baholash natijalari

Monitoring ko'rsatkichi	Boshlang'ich daraja (%)	Monitoringdan keyingi daraja (%)	O'zgarish (%)
Talabalar tomonidan amaliy ishlarni bajarish darajasi	55%	80%	+45.5%
Jamoaviy loyihalarda ishtirok etish darajasi	60%	85%	+41.6%
Tanqidiy fikrlashga asoslangan muhokama darajasi	50%	75%	+50%

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda transversal kompetensiyalarni rivojlantirishda interaktiv metodlar va amaliy mashg'ulotlar eng samarali yondashuvlardir. Eksperimentlar va so'rovnoma natijalari, bu kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan darslar va metodlarning talabalar uchun juda muhimligini isbotladi. Shuning uchun, o'quv dasturlariga transversal kompetensiyalarni integratsiyalash zarurligi aniqlandi.

Muhokama. Transversal kompetensiyalarni rivojlantirish masalasi zamonaviy ta'limda muhim o'rin tutadi. Oliy ta'limda bu kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan tadqiqot natijalari, talabalar umumiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan metodlarni qo'llashda samarali yondashuvlar mavjudligini ko'rsatdi. Biroq, bu sohada olib borilgan tadqiqotlar bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni taqdim etmoqda. O'z navbatida, biz tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, transversal kompetensiyalarni rivojlantirishda mavjud yondashuvlar va metodlarning samaradorligini baholadik.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston oliy ta'lim tizimiga oid qaror va farmonlarida transversal kompetensiyalarni rivojlantirishning ahamiyati ta'kidlanadi. Jumladan, 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-sonli *"O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"* va 2019-yil 8-oktabrda *"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"*gi PF-5847-sonli farmonlarida talabalarda kommunikativ ko'nikmalar, tanqidiy fikrlash va jamoada ishlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilgan.⁴ Bu fikrni tasdiqlovchi tarzda, bizning tadqiqotimizda ham kommunikativ ko'nikmalar va jamoada ishlash bo'yicha metodlarning samaradorligi yuqori baholandi. So'rovnoma natijalari, talabalar jamoaviy loyihalarda faol ishtirok etishni va muhokamalarda qatnashishni ijobiy baholashganini ko'rsatdi.

Olingan natijalarga asosan, biz UNESCO tomonidan e'lon qilingan *"Rethinking Education: Towards a Global Common Good"* (Ta'limni qayta o'ylash: Global umumiy yaxshilik sari) nomli ta'limga oid kitobi, va **O'zbekiston Prezidentining oliy ta'limga oid qaror va farmonlari**, G.O. Ochilova, S.Sh. Akbarovning Kasbiy kompetentlik nomli darsligi, A. Xoliqovning Pedagogik mahorat nomli darsligi bilan umumiy fikrga kelamizki, **transversal kompetensiyalarni rivojlantirishda o'quv jarayonida innovatsion yondashuvlar va amaliy mashg'ulotlarning o'rni katta**. Tadqiqotda aniqlanganidek, **tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko'nikmalar, innovatsion fikrlash va jamoada ishlash** kabi kompetensiyalarni rivojlantirish uchun aniq metodik yondashuvlar zarur. Bizning tadqiqotda olingan natijalar, aynan shu metodlarning samaradorligini ko'rsatdi.

Xulosa va takliflar. Transversal kompetensiyalar, ya'ni shaxsning turli sohalarda muvaffaqiyatli faoliyat yuritish uchun zarur bo'lgan

ko'nikmalar, bugungi ta'lim tizimida alohida o'rin egallaydi. Oliy ta'limda bu kompetensiyalarni rivojlantirish, nafaqat talabalar uchun balki butun jamiyat va iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari, transversal kompetensiyalarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning zarurligini, ayniqsa, tanqidiy fikrlash, kommunikativ ko'nikmalar, innovatsion fikrlash va jamoada ishlash kabi kompetensiyalarni rivojlantirishni ta'kidlagan.

Tadqiqotda olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, guruh ishlari, amaliy mashg'ulotlar, va case-study kabi metodlar transversal kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vositalardir. Eksperimentlar va so'rovnoma, o'quvchilarning bu ko'nikmalarni rivojlantirishda mustahkam asoslar yaratishga qaratilgan darslar va yondashuvlarga ehtiyoj borligini isbotladi. Shuningdek, innovatsion fikrlash va tanqidiy tahlilga asoslangan metodlar oliy ta'limda talabalarni kelajakdagi ijtimoiy va kasbiy muammolarni hal qilishga tayyorlaydi.

Oliy ta'lim tizimida transversal kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni joriy etish va maxsus kurslar yaratish zarurati mavjud. O'qituvchilar va pedagogik jamoalar tomonidan qo'llaniladigan metodlar, ya'ni muammoli o'qitish va interaktiv metodlar talabalarni o'ziga xos va samarali tarzda tayyorlash imkonini beradi. Bu yondashuvlar, o'z navbatida, talabalar uchun nafaqat akademik bilimlarni, balki jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni ham rivojlantiradi.

Shuningdek, tadqiqotda aniqlangan ba'zi kamchiliklar ham mavjud. Xususan, transversal kompetensiyalarni rivojlantirishga qaratilgan maxsus kurslar va treninglarning yetarli emasligi, o'quv dasturlarining ba'zi aspektlarining takomillashtirilishi zarurligini ko'rsatdi. O'quv muassasalarida metodik va materiallar nuqtai nazaridan ba'zi cheklovlar mavjud bo'lib, bu esa transversal kompetensiyalarning samarali rivojlanishiga to'sqinlik qilishi mumkin.

Takliflar:

-Ta'lim dasturlariga transversal kompetensiyalarni yanada chuqurroq integratsiya qilish. O'quv dasturlari va metodlari transversal kompetensiyalarning o'zaro aloqasini va amaliy ahamiyatini yoritishi kerak.

-Innovatsion pedagogik metodlarni rivojlantirish. Muammoli o'qitish, case-study, jamoada ishlash kabi metodlarni ko'proq qo'llash va yangi metodlarni ishlab chiqish talab etiladi.

-Talabalarni pedagogik metodlar bo'yicha doimiy ravishda o'qitish. O'qituvchilarni yangi pedagogik yondashuvlar va metodlar bilan tanishtirish va ularni o'quv jarayonida samarali qo'llash uchun zarur treninglar tashkil etilishi lozim.

-Transversal kompetensiyalarni o'lchash va baholash tizimini yaratish. Oliy ta'lim muassasalarida talabalar tomonidan transversal kompetensiyalarni o'lchash va baholash tizimini yaratish va uni doimiy ravishda takomillashtirish zarur.

⁴ <https://lex.uz/docs/-4545884>

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, transversal kompetensiyalarni rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar va amaliy mashg'ulotlarning o'рни katta. Oliy ta'lim tizimida bunday kompetensiyalarni shakllantirish, talabalar uchun nafaqat kasbiy muvaffaqiyatga erishish, balki ijtimoiy va shaxsiy rivojlanish uchun ham

katta imkoniyatlar yaratadi. Ta'lim tizimini zamonaviylashtirish va talabalarni kelajakdagi global dunyoga tayyorlash uchun transversal kompetensiyalarni rivojlantirishni davom ettirish muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining *"O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"* 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-sonli farmoni

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi *"O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"*gi PF-5847-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/-4545884>

3. UNESCO tomonidan e'lon qilingan *"Rethinking Education: Towards a Global Common Good?"* (Ta'limni qayta o'ylash: Global umumiy yaxshilik sari?) nomli kitobi 2015

4. G.O. Ochilova, S.Sh. Akbarova Kasbiy kompetentlik. Darslik. TOSHKENT- 2022. 16-bet

5. A. Xoliqov Pedagogik mahorat nomli darslik. Toshkent «IQTISOD-MOLIYA» 2011. 21-bet

6. Jaloliddinova, M. (2025). BO 'LAJAK TARBIYACHILARNING KASBIY TRANSVERSAL KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 14, 146-148.

7. Maftunakhon, J. (2025). Model of development of professional transversal competences of future educators. *International Journal of Pedagogics*, 5(02), 60-63.



OLIY TA'LIMDA PEDAGOGIK KOMPETENSIYA TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI

Muxammadjonov Jasurbek Jaxongir o'g'li

Qo'qon universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrasida o'qituvchisi

interlwayerjr@gmail.com

+998993999614

Olimova Sarvaraxon Sobitxon qizi

Qo'qon universiteti Maxsus pedagogika yo'nalishi talabasi

sarvaraolimova7@gmail.com

+998957762098

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 32 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1212 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS pedagogik kompetensiya, raqamli ta'lim, oliy ta'lim, kasbiy malaka, metodik yondashuv, axborot-kommunikatsion texnologiyalar, innovatsion ta'lim, ustoz-shogird tizimi.	Ushbu maqolada XXI asrda oliy ta'lim tizimida yuzaga kelayotgan tub islohotlar va raqamli transformatsiya sharoitida pedagogik kompetensiya tushunchasining nazariy asoslari, mohiyati hamda amaliy ahamiyati keng yoritilgan. Muallif pedagogik kompetensiyani pedagogning bilim, ko'nikma, qadriyatlar va shaxsiy fazilatlar uyg'unligi sifatida tavsiflaydi va uning zamonaviy ta'limdagi o'рни va dolzarbligini tahlil qiladi. Maqolada pedagogik kompetensiyaning maxsus, ijtimoiy, shaxsiy, metodik, axborot-kommunikatsion, innovatsion va madaniy-kommunikativ turlari tafsilotli bayon etilgan. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bu kompetensiyalarni rivojlantirish uchun ustoz-shogird tizimi, raqamli infratuzilmani takomillashtirish, malaka oshirish kurslarini kuchaytirish va interaktiv elektron resurslar yaratish kabi qator amaliy takliflarni ilgari surilgan. Xulosa o'rnida, pedagogik kompetensiya zamonaviy o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyati va ta'lim tizimining raqobatbardoshligini belgilovchi strategik omil sifatida ta'kidlanadi.

Kirish. XXI asrda jamiyat hayotining barcha jabhalarida, xususan, ta'lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar yangi talab va ehtiyojlarni yuzaga keltirmoqda. Bugungi globallashuv, raqamli texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, shuningdek, mehnat bozorining o'zgaruvchan talablari oliy ta'lim tizimini ham yangi bosqichga olib chiqmoqda. Shu munosabat bilan, ta'lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ularning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Ayniqsa, yuqori malakali, innovatsion fikrlovchi, metodik jihatdan puxta tayyorlangan pedagog kadrlar tayyorlash bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Bu esa, o'z navbatida, pedagogik kompetensiya tushunchasini chuqur o'rganish va uning amaliy ahamiyatini aniqlash zaruratini yuzaga keltiradi.

Bugungi mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lish uchun yosh avlodni nafaqat an'anaviy bilimlar bilan qurollantirish, balki ularda zamonaviy kasbiy kompetensiyalarni shakllantirish, ijodiy fikrlash, kompleks muammolarni mustaqil hal qilish, axborotni samarali tahlil qilish, raqamli savodxonlik va ijtimoiy-emotsional intellekt kabi zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa oliy ta'lim tizimiga, xususan, pedagogik kadrlar tayyorlash jarayoniga alohida mas'uliyat yuklaydi.

Oliy ta'limda ta'lim sifatini oshirish, uning samaradorligini ta'minlash, raqobatbardosh, yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash ustuvor yo'nalishlardan biriga aylangan. Zero, har qanday ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning negizida malakali inson resurslari turadi. Aynan shu bois, bugungi kunda ta'lim tizimini takomillashtirishda pedagog kadrlarning sifat tarkibi, kasbiy tayyorgarligi va ularning o'z ustida ishlashga bo'lgan ehtiyoji asosiy e'tibor markaziga aylangan.

Xususan, pedagoglarning innovatsion faoliyatga tayyorligi, ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish qobiliyati, metodik jihatdan pishiq tayyorgarligi hamda o'z fanini puxta bilishi ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardir. Bunda pedagogik kompetensiya tushunchasini chuqur o'rganish, uning tarkibiy qismlari, shakllanish mexanizmlari, nazariy asoslari va amaliy ko'rinishlarini aniqlash dolzarb ilmiy-amaliy masalaga aylanmoqda.

Mavzuning dolzarbligi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlarida ham o'z aksini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmonida ta'lim sifatini oshirish, pedagogik kadrlar tayyorlash va ularni doimiy kasbiy rivojlantirish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Ushbu strategik hujjatda pedagoglar faoliyatini baholash, ularning kasbiy kompetensiyasini oshirish va zamonaviy

pedagogik texnologiyalarni o'rgatish orqali ta'lim tizimining raqobatbardoshligini ta'minlash muhim deb topilgan.

Shuningdek, "O'zbekiston – 2030" strategiyasida ham o'qituvchilarning malaka va bilim darajasini oshirish, ularni innovatsion metodikalarga tayyorlash va ilg'or xorijiy tajribalarni joriy etish orqali xalqaro standartlarga mos ta'lim muhitini yaratish ko'zda tutilgan. Mazkur strategik hujjatlar pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borish, nazariy konsepsiyalarni amaliyotga tadbir etish va ularni baholash mezonlarini ishlab chiqishning naqadar muhim ekanligini ko'rsatmoqda.

Adabiyotlar tahlili. Pedagogik kompetensiya tushunchasining nazariy asoslarini o'rganishda tanlangan adabiyotlar mavzuning turli jihatlarini har tomonlama yoritishga xizmat qilmoqda. Xususan, S.I.Mirhayitova tomonidan yozilgan "Pedagogik texnologiya" asarida zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirish mexanizmlari tahlil etilgan. Muallif ta'lim jarayonining samaradorligi bevosita o'qituvchining didaktik va metodik tayyorgarligi bilan bog'liq ekanini alohida ta'kidlaydi.

Q.Axmedov esa ta'lim sifati boshqaruvi masalasiga urg'u berib, o'qituvchining kasbiy faoliyatida kompetensiyaviy yondashuv muhim omil sifatida qaralishini asoslab beradi. U pedagogning nafaqat bilim, balki qiymatlar tizimiga ega bo'lishini raqamli ta'lim sharoitida alohida ahamiyatli deb hisoblaydi.

G.R.Tojiboyeva va D.T.Pulatova tomonidan "Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot" nomli maqolada kompetensiyaning ijtimoiy, shaxsiy va kasbiy jihatlari chuqur tahlil qilinadi. Mualliflar kompetensiyalarning turlarga ajratilishi, ularning pedagog faoliyatidagi aks etishi va o'lchov mezonlarini aniqlash bo'yicha ilmiy asoslarni keltiradi. Bu fikrlar maqoladagi kompetensiya turlari haqidagi tahlillar bilan uyg'unlashadi.

Chef ellik olimlardan Sh.Amonashvili esa pedagogik kompetensiyani bolalarga individual yondashuv, ularning ichki olamini his qilish va tarbiyaviy vazifalarni yechish layoqati bilan bog'laydi. Uning insonparvarlik pedagogikasiga asoslangan yondashuvi maqolada ilgari surilgan shaxsiy pedagogik kompetensiya tushunchasi bilan mos keladi. Bundan tashqari Aleks Mur o'z asarida o'qituvchi kompetensiyasini ko'p qirrali qobiliyatlar majmuasi sifatida tavsiflaydi. Bu yondashuv "ko'p formatlilik" tamoyiliga asoslanib, pedagog faoliyatining turli jihatlarini rivojlantirish zarurligini asoslaydi.

Эльконин Б.Д. kompetensiya tushunchasini rivojlantiruvchi o'qituvchilik faoliyatining markaziga qo'yadi. Uning fikriga ko'ra, kompetensiya bu nafaqat bilimlar majmui, balki uni amaliy faoliyatda samarali qo'llay olish qobiliyatidir. Tahlil qilingan adabiyotlar maqolada

ko'tarilgan asosiy nazariy va amaliy masalalarni chuqurlashtiradi, raqamli transformatsiya jarayonida pedagogik kompetensiyani shakllantirishning ilmiy-metodik asoslarini mustahkamlab beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu maqolada pedagogik kompetensiya tushunchasining nazariy asoslarini, turlarini, ularning shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashda bir nechta ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

Birinchi, tarixiy-adabiy metod orqali pedagogik kompetensiya tushunchasining shakllanishi, rivojlanish bosqichlari va pedagogik fikrlar evolyutsiyasi o'rganildi. Bu metod orqali kompetensiya tushunchasining xalqaro va milliy ta'lim siyosatlaridagi tarixiy ildizlari, ularning zamonaviy talablarga moslashuvi hamda tan olingan olimlar (masalan, Amonashvili, Elkonin, Zimnyaya) tomonidan ilgari surilgan qarashlar tahlil qilindi.

Ikkinchi, tipologik metod yordamida pedagogik kompetensiyaning asosiy turlari – maxsus, ijtimoiy, shaxsiy, metodik, axborot-kommunikatsion, innovatsion va madaniy-kommunikativ kompetensiyalar turlarga ajratilib, ularning xususiyatlari, o'zaro farqlari va ta'lim jarayonidagi o'ri belgilandi. Har bir kompetensiya turining o'ziga xos tarkibiy qismlari aniqlanib, ularning o'zaro integratsiyasi ko'rsatib o'tildi.

Uchinchi, taqqoslash metodi asosida O'zbekistonning oliy ta'lim tizimidagi mavjud pedagogik kompetensiyalar holati boshqa rivojlangan davlatlar – masalan, Finlyandiya, Singapur, Janubiy Koreya kabi mamlakatlar ta'lim tizimi bilan qiyoslandi. Bu orqali zamonaviy pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirishda xalqaro tajribalarning muhim jihatlari ajratib ko'rsatildi.

Tadqiqot natijalari. Pedagogik kompetensiya – bu pedagogning kasbiy faoliyatini samarali amalga oshirishiga imkon beruvchi bilim, ko'nikma, malaka, qadriyatlar va shaxsiy fazilatlar majmuasidir. U nafaqat o'qituvchining fan sohasidagi bilimlariga, balki didaktik yondashuvlar, pedagogik texnologiyalarni qo'llash, shaxslararo muloqot madaniyati, baholash mezonlari va talabalarni o'qitish, tarbiyalash va rivojlantirishdagi roliga ham bevosita taalluqlidir. Aynan shu nuqtai nazardan, pedagogik kompetensiyani rivojlantirish zamonaviy oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri sifatida qaralmoqda.

So'nggi yillarda dunyo miqyosida qabul qilingan ko'plab ta'limiy konsepsiyalar, strategiyalar va innovatsion yondashuvlar pedagogik kompetensiyaning shakllanishi va rivojlanishini ta'lim sifati bilan bevosita bog'liq holda izohlaydi. Jumladan, Yevropa Ittifoqining "Hayot davomida ta'lim" konsepsiyasi, UNESCOning "2030-yilgacha global ta'lim strategiyasi", shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni va 2030-yilgacha mo'ljallangan Ta'limni rivojlantirish strategiyasi pedagogik faoliyatda kompetensiyaviy yondashuvga asosiy urg'u bermoqda. Ushbu hujjatlar asosida pedagoglar zamonaviy kasbiy talablarga javob beruvchi shaxs sifatida shakllanishi kerakligi ta'kidlanadi.

Xalqaro hamjamiyatda global axborotlashuv zamonaviy jamiyatga xos xususiyat sanaladi, hamda ta'lim tizimining rivojiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shunga ko'ra, ilm-fan, texnika va texnologiyalarning tezkor rivojlanishi ta'lim mazmuniga ham izchil ravishda o'zgarishlar kiritish taqazo etmoqda¹. So'nggi yillarda dunyo miqyosida sodir bo'layotgan raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim tizimiga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. O'zbekiston ham raqamli ta'lim infratuzilmasini rivojlantirish, o'quv jarayoniga zamonaviy axborot texnologiyalarini integratsiya qilish borasida faol harakat qilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaralganda, pedagogik kompetensiya tushunchasini yangicha kontekstda — raqamli savodxonlik, media savodxonlik, texnologik adaptatsiya kabi jihatlar bilan boyitish zarurati paydo bo'ldi.

O'zbekistonning ta'lim tizimi so'nggi yillarda sezilarli o'zgarishlarni boshdan kechirmoqda. Shu o'rinda kompetensiyaga izoh keltirib o'tsak. Xo'sh pedagogik kompetensiya o'zi nima? Pedagogik kompetensiya — bu o'qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etish, o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish, ularni tarbiyalash va rivojlantirishga qaratilgan ko'nikmalar, bilimlar, qadriyatlar hamda psixologik-ijtimoiy tayyorgarliklar yig'indisidir². Raqamli ta'lim sharoitida esa bu tushuncha yangi komponentlar bilan boyimoqda: raqamli savodxonlik, axborot

texnologiyalaridan samarali foydalanish, onlayn muloqotda madaniyatga ega bo'lish, masofaviy darslarni pedagogik maqsadlarga mos ravishda tashkil etishdir. Kasbiy pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvofiqdir:

- Maxsus pedagogik kompetensiya - pedagogik faoliyatni zarur darajada amalga oshirish uchun yetarli ma'lumotga ega bo'lish. Bundan tashqari, pedagogning o'z kasbiy darajasini munosib baholay olishi va mutaxassis sifatida o'z rivojlanishini belgilash qobiliyati ushbu turga bog'liq.

- Ijtimoiy pedagogik kompetensiya - ijtimoiy vakolat darajasi pedagogning hamkasblari bilan munosabatlarni samarali qurishi, birgalikdagi harakatlarni rejalashtirish qobiliyatini belgilaydi. Samarali aloqa ko'nikmalari, pedagogik madaniyat va ish natijalari uchun javobgarlik - ularning barchasi ijtimoiy pedagogik kompetensiya tushunchasiga kiritilgan.

- Shaxsiy pedagogik kompetensiya - bu pedagogik ishni oqilona tashkil etish qobiliyati bo'lib, vaqtni boshqarish, shaxsiy o'sishga intilish uning asosiy tarkibiy qismlaridir. Shaxsiy pedagogik kompetensiyaning yuqori darajasi ega bo'lgan ishchilar charchashga kamroq moyil, vaqt bosimida ishlashga qodir.

Kompetensiyaning har bir turi ko'nikmalar, bilimlar, ko'nikmalar to'plamini o'z ichiga oladi. Pedagoglarda ular turli darajalarda namoyon bo'ladi. Xizmat vazifalarini bajarishda uning xatti-harakatlari ko'rsatkichlariga e'tibor berib, u yoki boshqa kompetensiyalar qanday rivojlanganligini aniqlash mumkin³.

Kompetentlik qanday shakllanadi? O'qituvchining kompetentligini shakllantirish uchun asosiy narsa bu maxsus kasbiy ta'limdir. Kelajakda amaliyotda olingan bilim va ko'nikmalar boshlang'ich kompetensiya darajasini to'ldiradi.⁴ Quyida kompetensiya haqida olimlar fikri va izohlarini ko'rib chiqamiz. Amonashvili pedagogik kompetensiya haqida shunday fikrni bildiradi "Pedagogik kompetensiya — bu o'qituvchining bolalarga individual yondashuvi, ularning ichki dunyosini tushunib, tarbiyaviy va didaktik vazifalarni hal qilishga bo'lgan layoqatidir⁵."

Aleks Mur ko'p qirrali qobiliyat tushunchasiga asos soldi, ya'ni ko'p qirrali qobiliyatlik tushunchasi kompetentlik tushunchasiga mos kelib uning fikricha: "ko'p qirrali qobiliyatlar deganda, turli xil insonlar turli xil uslublar orqali yoki bir inson turli xil narsalarni turli xilda o'rganish tushuniladi⁶". Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'qituvchilar faoliyatida "kompetentlik" va "kompetensiya" so'zlari keng ma'noda ishlatilmoqda. Ushbu atamalarining mazmun va mohiyati pedagog, psixolog, pedagog olimlar tomonidan turlicha talqin etiladi Oliy ta'limda ta'lim texnologiyalarining yangilanishi, xalqaro ta'lim standartlariga moslashuv, pedagogik yondashuvlarning o'zgarishi, shuningdek, raqamli texnologiyalarning ta'lim jarayoniga integratsiyalashuvi bu jarayonlarning eng muhim yo'nalishlari hisoblanadi. Dunyo tajribasi, xususan Singapur, Finlyandiya va Janubiy Koreya ta'lim tizimlarida o'qituvchining reflektiv yondashuvi, mentorlik va peer-learning tizimlari orqali pedagogik kompetensiya shakllantiriladi.

O'zbekistonda ham bu yo'nalishda ijobiy siljishlar kuzatilmoqda: modul asosidagi o'quv dasturlari, malaka oshirish kurslari, elektron ta'lim tizimlari joriy etilmoqda. O'zbekiston hukumati, o'zining "Ta'lim tizimini rivojlantirishga oid davlat strategiyasi"da o'qituvchilarni tayyorlash, ularning kompetensiyalarini oshirishga alohida e'tibor qaratib, raqamli ta'lim va zamonaviy pedagogik texnologiyalarga katta hammiyat bermoqda. "Kompetensiya — biror kishi juda yaxshi bilgan yoki xabardor bo'lgan masalalar doirasi" - deb rus psixologi B.D.Elkonin ta'rif bergan⁷. Pedagogik kompetensiya tushunchasi o'qituvchining ta'lim jarayonida bilim va ko'nikmalarni nafaqat o'zlashtirishi, balki zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llay olish, o'quvchilarning individual ehtiyojlarini tushunish, innovatsion pedagogik yondashuvlarni amaliyotga joriy etish imkoniyatlarini ham o'z ichiga oladi. O'zbekistonning oliy ta'lim tizimida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish, ayniqsa raqamli ta'lim sharoitida o'qituvchining yangi rolini shakllantirish bugungi kunda dolzarb masalalardan biridir.

Raqamli ta'lim va yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim jarayonini samarali tashkil etish, o'qituvchining kompetensiyalarini oshirish nafaqat o'quvchilarning bilim va

¹ Mirhayitova, S.I. *Pedagogik texnologiya: o'quv qo'llanma*. Toshkent: Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti. 2020. B. 57.

² Axmedov Q. Ta'lim sifati boshqarish. Toshkent: Fan. 2018. — B. 47.

³ G'aniev J., G'anieva N. *Pedagogik texnologiyalar*. Toshkent: TDP. 2019. — B. 104.

⁴ Tojiboyeva, G. R., & Pulatova, D. T. Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot. Academic Research in Educational Sciences, 1(3), 2020. — B. 214.

⁵ Amonashvili Sh.A. Insonparvarlik pedagogikasi haqida mulohazalar. Moskva, Pedagogika nashriyoti, 2002. — B. 89.

⁶ Moore A. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. 2004. RoutledgeFalmer, 2004. — B. 146.

⁷ Эльконин, Б.Д. Понятие компетентности: позиция развивающего обучения. — Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. 2002. — С. 21.

ko'nikmalarini rivojlantirishga, balki ta'lim tizimining sifatini yaxshilashga ham katta ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, pedagogik kompetensiyani rivojlantirish masalasi o'zbek ta'lim tizimining bugungi kunda eng dolzarb yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda.

Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish jarayoni, avvalo, o'qituvchining o'z bilim va ko'nikmalarini, raqamli ta'lim texnologiyalarini bilish va qo'llashni, shuningdek, o'quvchilarga ta'lim berishning yangi usullarini o'rganish va amaliyotda qo'llashni talab qiladi. Ta'limning raqamli shakllarini va innovatsion metodlarni qo'llash, o'qituvchining yangi rolini shakllantirishi va pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish uchun zaruriy shartdir⁸. O'zbekistonning o'quv tizimida bu jarayonni yanada rivojlantirish va takomillashtirish hozirgi kunda ta'lim sifatini oshirish va o'quvchilarning dunyoqarashini kengaytirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Shunday qilib, pedagogik kompetensiyaning dolzarbligi va uning o'sib borayotgan roli o'qituvchilarning raqamli ta'limda muvaffaqiyatli ishlashiga, o'quvchilarning ta'lim olish sifatiga va butun ta'lim tizimining samaradorligiga ta'sir qiladi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik kompetensiyaning tarkibi va uning tarkibiy qismlarini chuqur o'rganish va ularga mos ravishda rivojlantirish zarur. O'zbekistonning ta'lim tizimi uchun pedagogik kompetensiyani rivojlantirish, ayniqsa raqamli ta'lim sharoitida, ta'lim sifatining o'sishiga va butun jamiyatning taraqqiyotiga xizmat qiladi. Shunday qilib, pedagogik kompetensiyaning dolzarbligi va uning o'sib borayotgan roli o'qituvchilarning raqamli ta'limda muvaffaqiyatli ishlashiga, o'quvchilarning ta'lim olish sifatiga va butun ta'lim tizimining samaradorligiga ta'sir qiladi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun pedagogik kompetensiyaning tarkibi va uning tarkibiy qismlarini chuqur o'rganish va ularga mos ravishda rivojlantirish zarur. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida pedagogik kadrlarga qo'yilayotgan talablar ortib bormoqda. Bu talablar nafaqat an'anaviy bilim va metodik ko'nikmalarni egallash, balki o'zgaruvchan axborot muhitida tezkor qaror qabul qilish, texnologik yangiliklarni egallash, shuningdek, interaktiv va moslashuvchan ta'lim muhitini yaratishni ham o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik kompetensiyaning tarkibiy qismlariga quyidagilarni kiritish maqsadga muvofiq:

1. Metodik kompetensiya – o'qituvchining o'quv dasturini ishlab chiqish, ta'lim metodlarini tanlash va ulardan samarali foydalanish malakasi;
2. Axborot-kommunikatsion kompetensiya – raqamli vositalardan foydalanish, onlayn platformalarda ishlash, masofaviy ta'limni tashkil qilish qobiliyati;
3. Innovatsion kompetensiya – yangi pedagogik yondashuvlarni o'zlashtirish va amaliyotga joriy etish layoqati;
4. Madaniy va kommunikativ kompetensiya – turli madaniy qatlam vakillari bilan muloqot qilish, akademik etika va kommunikatsiya madaniyatini saqlash⁹.

Oliy ta'limda pedagogik kompetensiyani shakllantirishda pedagogik amaliyot, interaktiv seminarlar, kasbiy rivojlanish kurslari va mentorlik tizimining roli katta. Ayniqsa, pedagogik psixologiya, didaktika, zamonaviy ta'lim texnologiyalari bo'yicha chuqur bilimlarga ega bo'lish o'qituvchining kasbiy barkamolligini ta'minlaydi. Shuningdek, zamonaviy ta'limda hayot davomida ta'lim olish tamoyilining ustuvorligi pedagogik kadrlardan doimiy yangilanishni talab etmoqda. Bunda, o'qituvchilarning o'z ustida ishlashi, tahliliy fikrlashi, reflektiv yondashuvi va o'z faoliyatini tahlil qila olish qobiliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun oliy ta'lim tizimida quyidagi yondashuvlarni joriy etish tavsiya etiladi: modul asosida tuzilgan o'quv dasturlar; amaliyotga yo'naltirilgan dars jarayonlari; raqamli platformalar orqali bilim va ko'nikmalarni mustahkamlash; mentorlik va peer-learning (hamkasblardan o'rganish) tizimi; xalqaro tajriba va ilg'or amaliyotlarni o'rganish. O'zbekiston ta'lim tizimida pedagogik kompetensiyaning o'zgarishi, ayniqsa raqamli ta'lim sharoitida, ham vaqt o'tishi bilan rivojlanadi. Shu bilan birga, bu jarayonning dinamikasi ham ta'limning global va mintaqaviy talablari

bilan bevosita bog'liqdir. O'qituvchilarning pedagogik kompetensiyasini oshirish uchun yangi metodlar va yondashuvlar ishlab chiqilmoqda, masalan, pedagogik psixologiya, zamonaviy didaktika va raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. O'zbekiston hukumatining ta'lim sohasida raqamli transformatsiyani amalga oshirishdagi siyosiy sa'y-harakatlari ham o'qituvchilar uchun zamonaviy kompetensiyalarni rivojlantirishning yangi yo'nalishlarini taqdim etmoqda.¹⁰ Pedagogik kompetensiya o'qituvchining kasbiy faoliyatini emas, balki jamiyatning rivojlanishiga bo'lgan ta'sirini ham belgilaydi. Ta'lim tizimining rivojlanishi jamiyatning barcha sohalarida taraqqiyotning asosiy omiliga aylanadi. Zamonaviy pedagogik kompetensiyalar jamiyatda intellektual kapitalni yaratish va madaniyatni rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qituvchilar nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatni axborotlashgan va rivojlangan deb hisoblashimiz uchun yangi avlodni tarbiyalaydigan muhim shaxslar sifatida o'rin tutadilar.¹¹

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytamizki, Pedagogik kompetensiya — bu ta'lim tizimining zamon bilan hamnafas bo'lishini ta'minlovchi asosiy omildir. U nafaqat o'qituvchining kasbiy sifatini belgilaydi, balki butun jamiyatning intellektual va madaniy rivojiga ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston oliy ta'lim tizimi uchun bu kompetensiyalarni rivojlantirish, ularni zamonaviy texnologiyalar va xalqaro tajribalar bilan boyitish — ta'lim sifatini oshirishning muhim kalitidir. Rivojlanayotgan raqamli muhitda pedagogik kompetensiyalarni doimiy ravishda yangilab borish hayotiy zaruratga aylanmoqda. Kompetensiya keng qamrovli va juda chuqur tushuncha va albatta pedagogik jarayonni to'g'ri tashkil etish etishda alohida hamiyatga egadir.

Pedagogik kompetensiyani rivojlantirish ta'lim sohasidagi yutuqlarga erishishning asoslaridan biri bo'ladi. O'qituvchilarda pedagogik kompetensiyaning yuqori bo'lishi talabalarda o'zlashtirishning yaxshilanishiga sabab bo'ladi. Pedagogik kompetensiya — bu zamonaviy o'qituvchining kasbiy omon qolish vositasi emas, balki ta'lim tizimini global raqobatga tayyorlashdagi eng muhim omildir.

Oliy ta'lim tizimida yuz berayotgan tub islohotlar, raqamli transformatsiya jarayonlari va xalqaro standartlarga moslashish ehtiyoji zamonaviy o'qituvchidan faqat fan bilimlari emas, balki keng qamrovli pedagogik kompetensiyani talab etmoqda. Pedagogik kompetensiya — bu bilim, ko'nikma, qadriyatlar va shaxsiy fazilatlarining uyg'un majmuasidir. U nafaqat o'qituvchining kasbiy faoliyatini samarali tashkil etishiga, balki o'quvchilarning shaxsiy va akademik rivojlanishiga ham bevosita ta'sir qiladi.

Pedagogik kompetensiyaning rivojlanishi nafaqat o'qituvchilarning kasbiy samaradorligini oshiradi, balki ta'lim tizimi sifatini ham sezilarli darajada yaxshilaydi. Shu bois, bu kompetensiyalarni muntazam rivojlantirish, zamonaviy yondashuvlar bilan boyitish dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Yuqoridagi xulosa va tahlillardan kelib chiqib quyidagi taklif va tavsiyalar ilgari surishimiz mumkin:

1. "Ustoz-shogird" tizimini oliy ta'limda rasmiy asosda joriy etish maqsadida tajribali professor-o'qituvchilarni yosh pedagoglarga mentor sifatida biriktirish orqali ularning kasbiy kompetensiyasini amaliy tarzda rivojlantirish imkoniyati yaratiladi.
2. Pedagoglar uchun amaliyotga yo'naltirilgan malaka oshirish kurslarini kengaytirish maqsadida har bir oliy ta'lim muassasasida o'qituvchilar uchun zamonaviy raqamli texnologiyalar, pedagogik yondashuvlar, interaktiv metodikalar bo'yicha maxsus qisqa muddatli treninglar tashkil etilishi zarur.
3. Raqamli infratuzilmani barcha OTMlarda mustahkamlash maqsadida masofaviy va onlayn ta'limni samarali tashkil etish uchun oliy ta'lim muassasalari raqamli texnika (noutbuk, interaktiv doska, internet) bilan to'liq ta'minlanishi lozim. Bu pedagoglarning axborot-kommunikatsion kompetensiyasini oshiradi.
4. O'zbek tilida zamonaviy elektron resurslar va o'quv platformalarini yaratish uchun o'zbek tilida kompetensiyaviy yondashuvga mos, interaktiv va raqamli darsliklar, videodarslar, testlar bazasi ishlab chiqilishi zarur deb hisoblaymiz.

⁸ Yuldashev S.K. *Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari*. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2016. — B. 90.

⁹ Shodmonqulova M. *Pedagogik mahorat asoslari*. Toshkent: TDPU. 2017. — B. 38.

¹⁰ Sen A. *Development as Freedom*. Oxford University Press. 1999. — B. 154.

¹¹ Zimnyaya I.A. *Pedagogik kompetensiyaning dinamikasi va ta'limdagi yangi talablar*. Toshkent. 2013. — B. 78.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirhayitova, S.I. Pedagogik texnologiya: o'quv qo'llanma. Toshkent: Muqimiy nomidagi Qo'qon davlat pedagogika instituti. 2020. B. 57.
2. Axmedov Q. Ta'lim sifatini boshqarish. Toshkent: Fan. 2018. – B. 47.
3. G'aniev J., G'anieva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent: TDPU. 2019. – B. 104.
4. Tojiboyeva, G. R., & Pulatova, D. T. Pedagogik kompetentlik: nazariya va amaliyot. Academic Research in Educational Sciences, 1(3), 2020. – B. 214.
5. Amonashvili Sh.A. Insonparvarlik pedagogikasi haqida mulohazalar. Moskva, Pedagogika nashriyoti, 2002. – B. 89.
6. Moore A. Teaching and Learning: Pedagogy, Curriculum and Culture. 2004. Routledge Falmer, 2004. – pp. 146.
7. Эльконин, Б.Д. Понятие компетентности: позиция развивающего обучения. – Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов. 2002. – С. 21.
8. Yuldashev, S.K. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: O'zbekiston nashriyoti. 2016. – B. 90.
9. Shodmonqulova M. Pedagogik mahorat asoslari. Toshkent: TDPU. 2017. – B. 38.
10. Sen A. Development as Freedom. Oxford University Press. 1999. – B. 154.
11. Zimnyaya I.A. Pedagogik kompetensiyaning dinamikasi va ta'limdagi yangi talablar. Tashkent. 2013. – B. 78.



TA'LIM TIZIMIGA TASIR ETUVCHI OMILLAR

Muxammadjonov Muslimbek Muxsinjon o'g'li

Ta'lim kafedrası o'qituvchisi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 33 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1213 KLIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Ushbu maqolada ta'lim jarayoniga ta'sir etuvchi turli omillar tahlil qilingan. Tadqiqot doirasida 164 nafar o'quvchi ishtirok etgan so'rovnoma natijalari tahlil qilinib, asosiy omillar aniqlangan. Jumladan, oilaviy daromad, zamonaviy darsliklar va texnologiyalarning yetishmovchiligi, o'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, umumiy qadriyatlar, zamonaviy texnologiyalar ta'siri, hamda, chet tillarini bilish darajasi kabi omillar ta'lim sifati va samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatishi aniqlangan. Tadqiqot natijalari ta'lim tizimining yanada takomillashtirilishi uchun ushbu omillarni muvofiqlashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Kirish. Ta'lim tizimi jamiyatning rivojlanishida eng muhim omil hisoblanadi. O'zgaruvchan ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik sharoitlarda ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, nafaqat o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini, balki butun jamiyatning kelajakdagi muvaffaqiyatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Bugungi kunda ta'lim tizimining samaradorligi bir qator omillarga bog'liq bo'lib, bu omillar o'zaro chambarchas bog'langan holda ta'lim jarayoniga ta'sir qiladi.

"Oldimizda turgan eng muhim va dolzarb masalalardan biri – **yuksak ma'naviyatli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlariga, o'z mustaqil fikriga ega bo'lgan yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar** ruhida tarbiyalashdan iborat ekanini barchamiz yaxshi tushunamiz"¹ deb ta'kidladi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev.

Va shu o'rinda ijtimoiy omillar, iqtisodiy resurslar, madaniy qadriyatlar va texnologik innovatsiyalarning ta'lim tizimidagi o'zaro ta'siri uning samaradorligini belgilovchi muhim omillarni tashkil etadi. Misol uchun, ijtimoiy sharoitlar va oila holati o'quvchilarning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini shakllantiradi, iqtisodiy resurslar ta'lim tizimining infratuzilmasi va o'qituvchilarning malakali tayyorgarligiga ta'sir qiladi, madaniy qadriyatlar ta'lim mazmunini va metodologiyasini shakllantiradi, texnologik yutuqlar esa ta'lim jarayonining interaktiv va global imkoniyatlarini yaratadi.

Ta'lim tizimining samaradorligini oshirish uchun ushbu omillarni chuqurroq o'rganish va ularning ta'sir mexanizmlarini tahlil qilish zarur. Shu bois, ta'lim tizimiga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish va ularni optimallashtirish, ta'lim sohasidagi siyosatni samarali yo'naltirishda muhim ahamiyatga ega. Bu maqolada ta'lim tizimiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni ko'rib chiqamiz va ularga ta'sir qiluvchi omillarni yaxshilash bo'yicha takliflar beramiz.

Maqolaning maqsadi – ta'lim tizimining samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash, ularning o'zaro aloqasini tahlil qilish va ta'lim tizimini yaxshilash bo'yicha amaliy takliflarni ishlab chiqishdir. Shuningdek, bu omillarni samarali boshqarish, ta'lim tizimini jamiyatning ehtiyojlariga moslashtirish va uning global talablarga javob berishini ta'minlashga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishning zarurligini ko'rsatishdir.

Shu tarzda, ta'lim tizimi o'zgaruvchan dunyo sharoitiga mos ravishda rivojlanib borish uchun nafaqat xalqaro tajribalarni inobatga olish, balki ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik omillarni sinxron ravishda boshqarish muhimdir. Bu esa ta'lim tizimining samaradorligini oshirish va kelajakdagi o'quvchilarni muvaffaqiyatli va barqaror rivojlanish uchun tayyorlash imkonini yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Ta'lim tizimiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar turli yo'nalishlarda amalga oshirilgan. Ushbu adabiyotlar tahlilida, ta'lim tizimiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik omillarni yoritishga qaratilgan muhim asarlar va ilmiy maqolalar keltiriladi. Tahlilning maqsadi – mavjud tadqiqotlarni umimlashtirish va ta'lim tizimini yaxshilashga qaratilgan usullarni aniqlashdir.

Ijtimoiy omillar. Ijtimoiy omillar ta'lim tizimining samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. O'quvchilarning o'zgaruvchan ijtimoiy sharoitlari, oilaviy ahvoli va jamiyatdagi tengsizlik ta'limga bo'lgan munosabatni shakllantiradi. U.Z.Shamanova o'zining "Ta'lim qonunchiligidagi islohotlarning bugungi kundagi ahamiyati" nomli tadqiqotida, bugungi kundagi O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar tahlili shuningdek ushbu islohotlarning bugungi kundagi ahamiyati hamda uning jamiyatdagi o'rni va roli tahlil qilingan. Bundan tashqari ushbu maqolada oliy ta'lim tizimida qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar huquqiy jihatdan keng tahlil qilingan. Bundan tashqari ta'lim tizimini va sifatini takomillashtirish yuzasidan keng xorijiy tajriba o'rganilgan. Ushbu tahlillar natijasida O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimi takomillashtirish yuzasidan o'zining fikr va mulohazalarini bergan

S.F. Salaydinova va A.S. Isakova "Ta'lim xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari" nomli maqolasida ta'lim xizmatlarining mohiyati va mazmuni, ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari, ta'lim xizmatlarining o'ziga xos xususiyatlari ochib bergan hamda ta'lim xizmatlarini rivojlantirishda muallif tomonidan ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan

Iqtisodiy omillar. Iqtisodiy omillar ta'lim tizimining barqarorligini va samaradorligini ta'minlashda asosiy ahamiyatga ega. X.F. Sadikova va A.S. Isakovalarning "Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilariini moddiy rag'batlantirishning samaradorligini oshirish masalalari" nomli maqolasida oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilariini moddiy rag'batlantirishning samaradorligini oshirish masalalari bo'yicha mualliflar tomonidan fikr-mulohazalar keltirilgan. Qolaversa, bugungi kunda ta'lim xizmatlari bozorida raqobat muhitida professor-o'qituvchilariini moddiy rag'batlantirishning samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalar ta'kidlangan

Bundan tashqari, iqtisodiy yordam va stipendiyalarni ko'paytirish o'quvchilarga ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytiradi. N.R. Aliev A.T. Yuldashev "Ta'lim xizmatlari marketingining o'ziga xos xususiyatlar" nomli maqolasida oliy ta'lim tizimida marketingni o'rni, oliy ta'lim raqobatbardoshligini oshirishda ta'lim xizmatlari marketingining asosiy vazifalarini belgilash va ularni amalga oshirish yo'llari bayon etilgan. Shuningdek, oliy ta'lim muassasalari faoliyatida ta'lim xizmatlarini o'ziga xos jihatlarni aniqlash va baholash bo'yicha fikirlar bildirilgan.

Madaniy omillar. Madaniy omillar, o'quvchilarning qiziqishlari va ta'limga bo'lgan munosabatini shakllantirishda katta ahamiyatga ega. G. Bozorova, G. Ulug'berdiyeva, Artiqova A. "Ommaviy madaniyat" ning salbiy ta'siri va uning oldini olish yo'llari" maqolasida kelajagimiz bunyodkorlari bo'lmish yoshlarimizning ta'lim va tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan "ommaviy madaniyat" bugun barchamizni hushyorlikka chaqirishi va globallashtirish tomon intilayotgan yoshlarimiz har qanday "yangilik" ham yaxshilik keltirmasligi xususida o'ylab ko'rishlari qolaversa "ommaviy madaniyat"ning millat kelajagiga ta'siri, unga qarshi mafkuraviy immunitet yaratish yo'llari, shuningdek, mamlakatimizda bu borada olib borilayotgan ma'naviy-targ'ibot ishlari xususida fikr yuritilgan.

¹ Mirziyoev Sh.M. tadbirkorlar va ish bilarmonlar harakati-O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasining VIII s'ezidagi ma'ruzasi. 21 oktyabr, 2016 yil. "Xalq so'zi", 2016 yil 22 oktyabr.

X.T.Tashmetovning “Global yutuqlardan foydalanishda milliy g’oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari” maqolasida esa bugungi global o’zgarishlar davrida ijtimoiy hodisaning har bir mohiyatini yanada chuqurroq anglash, uning xususiyatlarini har tomonlama o’rganish lozimligi, bunda esa milliy g’oya umummilliy dastur bo’lib xizmat qilishi hamda global o’zgarishlar davrida —Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari|| degan dasturiy g’oyani yoshlarning ongiga, qalbiga va ichki dunyosiga singdirish, ularni ona yurtga sadoqat ruhida tarbiyalash to’g’risida o’zining fikr va mulohazalarini bayon etgan.

Texnologik omillar. Zamonaviy texnologiyalar ta’lim jarayonini tubdan o’zgartirishga imkon yaratdi jumladan X.X.Muratovning “Elektron ta’lim resurslari va multimediali elektron o’qitish vositalari orqali ta’lim muhitining rivojlanishi” nomli maqolasida ta’limda fan va ishlab chiqarish bilan integrasiyasining asosli mexanizmlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga joriy etish. Mustaqil masofaviy ta’lim tizimi bilan bilim olishni individuallashtirish texnologiyasini ishlab chiqish va axborot texnologiyalari asosida elektron ta’limdan foydalangan holda talabalar o’qishini jadallashtirish. O’quv jarayonini elektron ta’lim asosida tashkil etish, shu jumladan, o’quv materiallarini bayon etishni takomillashtirish tamoyillariga ma’lum o’zgartirishlar kiritish haqida so’z boradi.

Bundan tashqari, masofaviy ta’lim va onlayn kurslar texnologiyalarning ta’limdagi o’rnini yanada kuchaytirdi. M.Sh.Yusupovanning “Oliy ta’lim muassasalarida masofaviy ta’limni o’qitish tizimlari va amaliy imkoniyatlari” nomli maqolasida, onlayn ta’limning ta’lim tizimiga qo’shgan hissasini yoritadi. Qolaversa masofaviy ta’lim va uni oliy ta’lim muassasalarida o’qitishda virtual ta’limni boshqarish tizimlari mazmuni, vazifasi, foyda va kamchiliklari, ularning amaliy imkoniyatlari bo’yicha fikrlar yoritilgan.

Ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi omillarni o’rganish bo’yicha mavjud adabiyotlar tahlili ta’lim sohasining ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik jihatlaridan qamrab olishini ko’rsatadi. Har bir omil alohida ahamiyatga ega bo’lib, ularning o’zaro ta’siri ta’lim tizimining samaradorligini shakllantiradi. Kelajakda ta’lim tizimini takomillashtirish va rivojlantirish uchun bu omillarni sinxron ravishda boshqarish zarur. Adabiyotlar tahlili, ayniqsa, ta’lim siyosati, moliyaviy yordam, madaniy qadriyatlar va texnologiyalarni optimallashtirish yo’nalishlarini belgilashda asosiy manba bo’lib xizmat qiladi.

Metodologiya. Ushbu maqolada ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi omillarni o’rganishda tizimli tahlil metodologiyasi qo’llanilgan. Tizimli tahlil metodologiyasi — bu muammoning turli tomonlarini o’rganish va ularni bir-biri bilan bog’liq holda tahlil qilishga asoslangan ilmiy usuldir. Ta’lim tizimi murakkab va ko’p qirrali bo’lib, undagi har bir omil o’zaro aloqada bo’lib, tizimning samarali ishlashiga ta’sir ko’rsatadi. Shu sababli, ushbu maqolada quyidagi metodlar qo’llanilgan:

Adabiyotlarni tahlil qilish: Maqolani yozish jarayonida mavjud ilmiy manbalar, kitoblar, maqolalar va tadqiqotlar asosida ta’lim

tizimiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish amalga oshirildi. Bu usul orqali ilgari o’rganilgan natijalar, nazariyalar va mavjud tasniflashlar bir joyga jamlandi va muammoning holati aniqlandi. Shuningdek, ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik omillar haqidagi ilmiy fikrlar o’rganildi.

Kvantitativ va sifatli tadqiqotlar: Ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi omillarni chuqurroq tahlil qilish uchun ikki turdagi tadqiqot usullari qo’llanildi:

a.Kvantitativ tadqiqotlar orqali anketalar va so’rovnomalarda yordamida o’quvchilar, o’qituvchilar, ta’lim muassasalari rahbarlari va ota-onalardan olingan statistik ma’lumotlar tahlil qilindi. So’rovnomalarda yordamida ta’lim tizimi, o’qitish metodlari, resurslar va omillar haqidagi fikrlar yig’ilgan.

b.Sifatli tadqiqotlar orqali intervyular va ochiq suhbatlar o’rnatildi, bu esa ta’lim tizimining ijtimoiy, madaniy va texnologik jihatlarini yanada chuqurroq tushunishga imkon berdi. O’quvchilar, o’qituvchilar va ota-onalar bilan olib borilgan suhbatlar orqali ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi omillarni ijtimoiy va madaniy kontekstda o’rganish maqsad qilingan.

Tizimli tahlil: Ta’lim tizimi murakkab tizim bo’lib, undagi har bir element bir-biri bilan aloqada ishlaydi. Shuning uchun, tizimli tahlil metodologiyasi orqali ta’lim tizimining barcha omillari va ularning o’zaro bog’liqligi o’rganildi. Tizimli tahlil, ta’lim tizimining ichki va tashqi omillarini aniqlash va ularga ta’sir etuvchi barcha elementlarni bir tizim sifatida ko’rib chiqish imkonini beradi. Masalan, o’qituvchining mahorati, o’quvchilarning ijtimoiy sharoitlari, texnologik vositalar va davlat siyosatining ta’siri o’zaro qanday bog’lanishini aniqlash.


Shunday qilib, metodologiya bo’limi ta’lim tizimiga ta’sir etuvchi omillarni yanada chuqurroq va kompleks tarzda tahlil qilishni ta’minladi. Har bir metod o’zining aniq vazifasini bajardi va maqola natijalarini shakllantirishda muhim rol o’ynadi.

Natijalar. Maqolada olingan natijalar bir nechta metodologiyalar asosida to’plangan ma’lumotlar, statistik tahlillar, intervyular va anketalar yordamida aniqlangan. Anketaga bo’yicha savol quyidagicha bo’ldi: Sizning yaxshi ta’lim olishingizga to’sqinlik qiluvchi omilni belgilang? Va quyidagicha variantlar talabalarga taqdim etildai:

1. Oilaviy daromadning pastligi.
2. Zamonaviy darsliklar va texnologiyalarning yo’qligi.
3. Ta’lim olishga to’sqinlik qiluvchi omillar yo’q.
4. Mavjud an’analar va jamiyatning qarashlari.
5. Kerakli tillarni bilmasligingiz.
6. Holatingizda ortiqcha ish va yumushlarning ko’pligi.
7. O’zingizni iqtisodiy tarmoqlardan cheklay olmasligingiz.
8. O’qituvchilarni sizga bo’lgan munosabati.

Ushbu so’rovnomada 164 nafar o’quvchilar ishtirok etishdi va yuqoridagi so’rov bo’yicha quyidagi asosiy natijalar olindi. Quyidagi 1-diagrammada ularning nisbatlarini ko’rishimiz mumkin.

1-diagramma



Oila va Ijtimoiy Sharoitlarning Ta’siri: Ijtimoiy omillar, ayniqsa, o’quvchilarning oila holati, ijtimoiy muhit va jamiyatdagi darajasi ta’lim tizimining samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Olingan natijalarga ko’ra, o’quvchilar o’z oila holatiga qarab turli xil imkoniyatlarga ega

bo’lib, bu ta’lim olish jarayonida ularning muvaffaqiyatiga ta’sir qiladi. Anketalar orqali olingan javoblarga ko’ra, ijtimoiy holati past bo’lgan o’quvchilar ko’proq qo’shimcha yordam va resurslarga muhtoj

ekanliklari ko'rsatildi. **Misol:** O'quvchilarning 22% i, agar oila daromadi past bo'lsa, ta'lim olishda qiyinchiliklarga duch kelishlarini ta'kidlaydi.

O'quvchilar va O'qituvchilar O'rtasidagi Aloqa: O'qituvchilar bilan o'quvchilar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalar ham ta'lim tizimining samaradorligiga ta'sir qiladi. So'rovnoma natijasida o'quvchilarning 4% o'qituvchilar bilan chiqisha olmagan natijasida fanlarni o'zlashtirishi qiyinlashganini bildirgan.

Vaqt taqsimotining ta'siri: Albatta bilim o'rganuvchidan unga vaqt ajratishni hamda muntazamlikni talab qiladi. O'quvchilar orasida o'tkazilgan so'rovnoma turli hil sabablarga ko'ra ijtimoiy, oilaviy va boshqa yumushlarning ko'pligidan o'quvchilarning 16% bilim olishga vaqt ojrata olmasliglarini bildirishgan.

Moliyaviy Resurslarning Ta'siri: Ta'lim tizimiga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar, asosan, moliyaviy resurslarning mavjudligi, o'qituvchilarning maoshi, o'quv materiallarining yetarli emasligi va ta'lim texnologiyalariga bo'lgan ehtiyoj bilan bog'liq. Tahlil natijasida, ta'lim tizimida resurslarning taqchilligi o'quvchilarning o'qish imkoniyatlarini cheklashga olib keladi. **Misol:** So'rovnoma natijasida o'quvchilarning 4% i, eski darsliklar va zamonaviy texnologiyalarning yo'qligi sababli ta'lim sifati pastligini bildirgan.

Madaniy Qadriyatlar va Ta'lim Mazmuni: Madaniy omillar ta'lim tizimining mazmuni va o'qitish metodlariga ta'sir ko'rsatadi. Madaniy qadriyatlar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Olingan natijalarga ko'ra, o'quvchilarning madaniy qabul qilgan an'analari, o'qish jarayonidagi muvaffaqiyatlariga ta'sir ko'rsatadi. **Misol:** Madaniy qadriyatlar ta'lim mazmunini qabul qilishda muhim rol o'ynaydi. O'quvchilarning 2 % i, o'z madaniyati va an'analarga mos bo'lmagan ta'lim mazmuni bilan o'qish jarayonini qiyinlashtirganliklarini ta'kidlashgan.

Internet va Texnologiyalarning Ta'siri: Texnologik omillar ta'lim tizimida katta rol o'ynaydi. Internet va kompyuter texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi o'quvchilarni yanada samarali o'qitishga yordam beradi. Biroq tahlil natijasida, o'quvchilarning 7% i, o'zlarini ijtimoiy tarmoqlarga bo'glanib qolganliklari va bu o'z o'qishlariga salbiy ta'sir o'tkazayaptirganliklarini tan olishgan.

Chet tillarini bilishining ta'siri: Malumki zamonaviy bilimlarni o'zlashtirish o'quvchilardan kerakli tillarni bilishni talab qiladi. O'tkazilgan so'rovnoma qatnashgan o'quvchilarning 12% i o'zlariga kerakli bo'lgan bilimlarni o'zlashtirishda chet tillarni bilmasligi ularning oldilariga to'siq bo'lganini ta'kidlashgan.

Hamda ushbu so'rovnoma olingan natijalardan quvonarlisi shu bo'ldiki o'quvchilarning 33% i bilim olishlariga hech qanday to'siqlik qiluvchi omillar yo'qligini bildirishgan

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimiga ta'sir etuvchi omillar bir-biriga chambarchas bog'langan bo'lib, har biri tizimning samaradorligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik omillarni hisobga olish, ta'limni yanada takomillashtirishga yordam beradi. Shuningdek, ta'lim tizimining samaradorligini oshirish uchun ushbu omillarni o'zaro muvofiqlashtirib ishlatish muhimdir.

MUHOKAMA. Ta'lim tizimining samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bu omillar ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik jihatlarni o'z ichiga oladi. Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatdiki, bu omillar o'zaro ta'sir qilib, ta'limning sifatiga va samaradorligiga sezilarli darajada ta'sir qiladi. Boshqa tomondan, ularning har biri o'zining alohida ta'siriga ega va ta'lim tizimini optimallashtirishda ular o'rtasidagi muvofiqlikni ta'minlash zarur.

Ijtimoiy va texnologik omillar

Olingan natijalarga ko'ra, o'quvchilarning oila holati va ijtimoiy sharoitlari ta'lim tizimining samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. O'quvchilarning ijtimoiy holati ularning o'qishga bo'lgan motivatsiyasini shakllantiradi, bu esa o'z navbatida ta'lim jarayoniga bevosita ta'sir qiladi. Ijtimoiy imkoniyatlar va oila daromadining pastligi bilan bog'liq muammolar ko'plab o'quvchilar uchun ta'lim olishda to'siqlar yaratadi.

Shu o'rinda, davlat va ta'lim muassasalarining o'quvchilarga qo'shimcha yordam ko'rsatishi, masalan, bepul o'qish resurslarini taqdim etish yoki oila holatiga qarab stipendiyalar va grantlar ajratish ta'lim tizimining samaradorligini oshirishi mumkin. Ijtimoiy omillarning ta'siri, ayniqsa, o'qishdagi muvaffaqiyatni ta'minlashda jamoat tashkilotlari va ota-onalar bilan hamkorlik qilishning ahamiyatini yanada oshiradi.

Ta'lim olish jarayonida ta'lim beruvchilar va ta'lim oluvchilar o'rtasida o'zaro mustahkam do'stona aloqa o'rnatilishi zarur albatta bu ko'prikn dastlabki g'ishlarini qo'yish va uni mustahkamlab turish

o'rgatuvchining zimmasiga tushadi, o'quvchilarni ishonitirish va ularni ta'lim jarayoniga ruhlantirish bularning hammasi nafaqat o'qituvchidan bilim balki psixologiy tajriba o'z harakatida sabr bilan turishni talab qiladi. Bularni o'qituvchilarda rivojlantirish uchun ularga qo'shimcha turli hil kasbiy trening larni kuchli mutahassislar tomonidan o'tkazdirilishi maqsadga muvofiq.

Qolaverasa olingan natijalarga tayansak ba'zi o'quvchilarning bilim olishiga ulardagi vaqt yetishmasligi va kun tartibini to'g'ri kelmasligi ko'rishimiz mumkin. Albatta har qanday o'rganish jarayoni vaqt talab qilishini hisobga olsak ularga online resurslarni qulaylashtirish va tizimlashtirish ularning ta'lim olishini bir muncha yengillashtiradi.

Texnologiyaning rivojlanishi ta'lim tizimiga yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Internet, kompyuter texnologiyalari va raqamli o'quv resurslarining o'quv jarayoniga qo'llanilishi ta'lim sifatini oshirishi mumkin. O'quvchilarning texnologiyalarni qo'llab-quvvatlashda yuqori darajada qiziqish bildirganliklari anketalardan aniq ko'rinmoqda. Shunga qaramay, texnologiyalarni joriy etishda o'qituvchilarning tayyorgarligi va ularning texnologiya vositalaridan samarali foydalanishlari katta ahamiyatga ega.

Yuqoridagi natijalarga ko'ra, texnologik infratuzilmaning mavjudligi va o'qituvchilarning texnologiyalarga moslashish darajasi ta'lim tizimining samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun, o'qituvchilarni texnologiyalarga o'qitish va ularga raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalarini o'rgatish zarur. Bundan tashqari, o'quvchilarga texnologiyalardan samarali foydalanish imkoniyatlarini yaratish uchun maktablar va universitetlar zamonaviy raqamli infratuzilma bilan ta'minlanishi kerak.

Iqtisodiy Omillar:

Iqtisodiy resurslarning cheklanganligi ta'lim tizimining samaradorligiga sezilarli ta'sir qiladi. O'quvchilar uchun zarur materiallar, texnologiyalar va o'qituvchilarning professional tayyorgarligini ta'minlash uchun moliyaviy mablag'larning mavjudligi juda muhim. So'rovnoma olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, moliyaviy resurslarning yetarli emasligi ta'limning sifatiga to'siqlik qiladi. Buning sababi, resurslar cheklangan sharoitda o'qituvchilarga o'qitish metodlarini yangilash yoki qo'shimcha o'quv materiallarini taqdim etish imkoniyati yo'qoladi.

O'quvchilarning moliyaviy yordamga ega bo'lishi esa ularning muvaffaqiyatlariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir qiladi. Aytaylik, davlatning ta'limga bo'lgan sarmoyasini oshirish va universitetlar yoki maktablar uchun qo'shimcha grantlar ajratish orqali ta'lim tizimi samaradorligini oshirish mumkin. Shu bilan birga, iqtisodiy yordamning tibbiyot, psixologiya yoki boshqa sohalarida o'qish imkoniyatlarini yaratish ta'lim tizimining ijtimoiy barqarorligini mustahkamlaydi.

Madaniy Omillar:

Madaniy qadriyatlar va an'analari ta'lim tizimi orqali o'quvchilarga qanday bilimlar, ko'nikmalar va munosabatlar berilishi kerakligini belgilaydi. Ta'lim tizimi jamiyatning madaniy ehtiyojlarini hisobga olgan holda shakllanishi lozim. O'quvchilarning madaniy qadriyatlarini ta'lim mazmuniga, metodologiyasiga va o'qituvchilarning yondashuviga ta'sir qiladi. Masalan, madaniyatlararo ta'lim, ko'p millatli jamiyatlarda o'quvchilarga o'zaro hurmat va bag'rikenglikni targ'ib qilishda muhim o'rin tutadi.

Shu bilan birga, jamiyatdagi madaniy o'zgarishlar ta'limga yangi ehtiyojlarini keltirib chiqaradi. Xususan, globalizatsiya va texnologiyalarning ta'siri, jamiyatdagi an'analari va qadriyatlarini qayta ko'rib chiqishga olib kelmoqda. Madaniy integratsiya va global dunyoviy ta'limga e'tibor berish ta'lim tizimini yaxshilashda samarali yechim bo'lishi mumkin. O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi madaniy farqlarni hisobga olish va ularni o'qitishda e'tiborga olish, ta'lim tizimining samarali ishlashiga yordam beradi.

Ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik omillar ta'lim tizimining samaradorligiga birgalikda ta'sir ko'rsatadi. Har bir omil o'z-o'zidan alohida rol o'ynasa-da, ular bir-birini to'ldiradi va ta'lim tizimini yanada samarali qilish uchun birgalikda ishlashlari zarur. Masalan, iqtisodiy resurslar yetarli bo'lsa, o'quvchilarga zamonaviy texnologiyalar va ta'lim materiallari taqdim etilishi mumkin, bu esa ularning ta'limdagi muvaffaqiyatini oshiradi.

Xulosa. Ta'lim tizimiga ta'sir etuvchi omillar, uning samaradorligini belgilovchi muhim faktorlar sifatida bir-biri bilan chambarchas bog'langan va ta'lim jarayonining har bir bosqichida o'z izini qoldiradi. Ushbu omillarni chuqur tahlil qilish ta'limning umumiy sifatini oshirishda samarali choralar ko'rishga imkon yaratadi.

Ijtimoiy omillar, ayniqsa, oila holati va ijtimoiy sharoitlar ta'lim tizimining samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarning ijtimoiy ahvoli ularning ta'lim olishga bo'lgan motivatsiyasini shakllantiradi. Shuning uchun ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda ijtimoiy yordam va qo'llab-quvvatlash tizimlari muhim ahamiyat kasb etadi. Oila va jamiyatning ta'limga bo'lgan munosabati o'quvchilarning o'qishdagi muvaffaqiyatini belgilaydi.

Iqtisodiy omillar ta'lim tizimining asosiy resurslarini ta'minlaydi. O'qituvchilar uchun maoshlar, o'quv materiallari va texnologiyalarga bo'lgan ehtiyoj, ta'limning sifatini aniqlovchi omillardan biridir. Moliyaviy resurslarning yetarli emasligi ta'lim tizimining samaradorligini pasaytiradi, shuning uchun ta'limga ko'proq iqtisodiy sarmoya kiritish zarur. O'quvchilarga qo'shimcha moliyaviy yordam va grantlar ajratish orqali ta'limning tenglik asosida rivojlanishini ta'minlash mumkin.

Madaniy omillar ta'lim tizimining mazmuni va metodologiyasiga ta'sir qiladi. Madaniy qadriyatlar va an'analar o'quvchilarning o'qishga bo'lgan munosabatini shakllantiradi va o'qitish usullariga yo'naltirishni belgilaydi. Ta'lim tizimi jamiyatning madaniy ehtiyojlarini inobatga olgan holda shakllanishi lozim. Madaniy integratsiya va jamiyatdagi madaniy farqlarni hisobga olish ta'lim tizimini yanada boyitadi va diversifikatsiyalashadi.

Texnologik omillar, ayniqsa, internet va zamonaviy texnologiyalarning ta'lim tizimida qo'llanilishi ta'limning samaradorligini oshirishga katta imkoniyat yaratadi. Biroq, texnologiyalarni samarali qo'llash uchun o'qituvchilarning tayyorgarligi va zamonaviy infratuzilma talab etiladi. O'quvchilar uchun texnologiyalarga erkin kirish imkoniyatlari yaratish, ta'limni samarali o'qitishning asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

Yuqoridagi natijalar ta'lim tizimining samaradorligini oshirish uchun ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik omillarni sinxron ravishda boshqarish zarurligini ko'rsatadi. Har bir omil o'z-o'zidan alohida ahamiyatga ega, ammo ularning o'zaro muvofiqligi ta'lim jarayonining muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Shu sababli, ta'lim tizimini rivojlantirishda ijtimoiy yordam tizimlari, iqtisodiy sarmoyalar, madaniy qadriyatlar va texnologik innovatsiyalarni birgalikda ishlatish zarur.

Kelajakda, ta'lim tizimini yanada takomillashtirish uchun bu omillarni chuqurroq o'rganish va ularni samarali tarzda integratsiyalash kerak. Har bir omilni yaxshilashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar ta'lim sifatini oshirishi, o'quvchilarga yanada yaxshi ta'lim olish imkoniyatlarini yaratishi mumkin. Shu bilan birga, ta'lim tizimining

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Sh.M.Mirziyoev. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". -Toshkent: O'zbekiston, 2016.- 56b.
- 2.N.K Yo'ldoshev, G.E.Zaxidov. "Menejment" darslik -Toshkent: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti, 2018.-392 b.
- 3.G. Bozorova, G Ulug'berdiyeva, Artiqova A. "Ommaviy madaniyat" ning salbiy ta'siri va uning oldini olish yo'llari" maqola.
- 4.X.T.Tashmetov "global yutuqlardan foydalanishda milliy g'oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari" maqola.
- 5.U.Z.Shamanova "Ta'lim qonunchiligidagi islohotlarning bugungi kundagi ahamiyati" maqola.
- 6.S.F. Salaydinova va A.S. Isxakova "Ta'lim xizmatlarining ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari" maqola.

global miqyosda raqobatbardoshligini oshirish uchun davlatlar o'rtasida tajriba almashish va samarali ta'lim siyosatini joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimi faqatgina ma'lum bir omilga bog'liq bo'lmasdan, bir qancha omillar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni hisobga olgan holda yaxshilanishi mumkin. Bu esa ta'lim tizimini yanada samarali va barqaror qilish uchun zarur shartlarni yaratadi.

Takliflari. Ta'lim tizimi samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydigan omillarni hisobga olgan holda, quyidagi takliflarni kiritish mumkin. Ushbu takliflar ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va texnologik omillarni yaxshilashga qaratilgan bo'lib, ta'lim tizimining umumiy samaradorligini oshirishga yordam beradi.

1. Oila va Ijtimoiy Sharoitlarning ta'lim oluvchlarga salbiy ta'sirini kamaytirish hamda ijobiy ta'sirini oshirish maqsadida. Ota-onalar bilan uchrashuvlar va treninglar o'tgazish, ularga ta'limning bolaga va jamiyatga ta'sirini, bilimsizlikning oqibatlarini chuqur tushuntirish foydali bo'ladi.

2. O'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi aloqani yaxshilash va ularning umumiy maqsadlarni birligini o'quvchilarga o'rgatishni ularga yoshligidan singdirish o'qituvchi ularga yo'l ko'rsatuvchi mayoq ekanligini anglatishga qaratilgan dunyo qarashni shakllantirish.

3. O'quvchi talabalar o'rtasida vaqtni taqsimot qilish ko'nikmalarini yana ham rivojlantirish ularga muhim ishlar nima, foydali va kerak bo'lmagan ishlarni bir-biridan ajratish va o'zlarida bularni qilishga bo'lgan odatlarni rivojlantirish, bu turlangan ishlarning oqibatlari butunlay farq qilishini tushuntirishga qaratilgan ko'rgazmali materyallarni ko'paytirishi vaqt taqsimoti bilan vujudga kelgan muomolarni yengillashtirishga olib keladi.

4. Jamiyatda nafaqat ta'lim sohasi balki boshqa sohalar ham jamiyatda mavjud bo'lgan qadriyatlar va urf odatlar ta'sirida rivojlanadi shu sabab, ta'limga bo'lgan qarashlarni yana ham yuksaltirish maqsadida ilm odamlarini yana ham tanitilsa va oddiy odamlar bilan ko'proq uchrashuvlar tashkil qilinsa ta'lim olishga bo'lgan havas aholi o'rtasida yana ham o'sgan bo'lardi. umumiy Ta'lim Mazmuni

5. Hozirgi glabballashgan dunyoda ilm yo'lida ot choptirish uchun albatta dunyoda daminiad bo'lgan tillarni bilish talab etiladi. Malumki, til o'rganish o'rganuvchidan vaqtni talab qiladi hamda o'rganish qobiliyati har bir inson uchun individualdir chuning uchun ta'lim dargohlarida o'rganuvchilarga moslashuvchan dasturlar o'rgatish yo'lga qo'yilsa til o'rganish bo'yicha natijaviylik ortadi.

Umumiy olganda yuqoridagi takliflar ta'lim jarayonini ma'lum bir darajada samaradorligini oshiradi hamda ta'lim oluvchilarga ta'lim olish jarayonini qulaylashtiradi.

7.X.F. Sadikova va A.S. Isakova "Oliy o'quv yurtlari professor-o'qituvchilariini moddiy rag'batlantirishning samaradorligini oshirish masalalari" maqola.

8.N.R. Aliev A.T. Yuldashev "Ta'lim xizmatlari marketingining o'ziga xos xususiyatlar" maqola.

9.X.T.Tashmetov "Global yutuqlardan foydalanishda milliy g'oyaning samaradorligini oshirish mexanizmlari" maqola.

10.X.X.Muratov "Elektron ta'lim resurslari va multimediali elektron o'qitish vositalari orqali ta'lim muhitining rivojlanishi" maqola.

11.M.Sh.Yusupova "Oliy ta'lim muassasalarida masofaviy ta'limni o'qitish tizimlari va amaliy imkoniyatlari" maqola.



ZAMONAVIY AXBOROT TEXNOLOGIYALARI YORDAMIDA TA'LIM JARAYONINI TASHKIL QILISH

Rahmonov Nodirjon Raxmonjon o'g'li

Qo'qon universiteti Raqamli texnologiyalar va matematika kafedrası o'qituvchisi

E-mail: akhmonovnodirjon@gmail.com

Olimova Sarvaraxon Sobitxon qizi

Qo'qon universiteti Maxsus pedagogika yo'nalishi talabasi

E-mail: sarvaraolimova7@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 34 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1214 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Mazkur maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim sohasidagi o'rni, ularning hozirgi kunda ta'lim tizimiga ta'siri va innovatsion texnologiyalarni qo'llashning rivojlanish natijalari tahlil qilinadi. O'qituvchilarning zamonaviy texnologiyalar bilan ishlash metodlari, ularga oid bilim va ko'nikmalarning samaradorligi o'rganilgan. Maqola, shuningdek, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalarni qo'llashning o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlariga qanday ta'sir ko'rsatishi, masofaviy ta'limning samaradorligi hamda ZATlarning ta'lim sifatini oshirishdagi o'rni haqida muhokama qiladi. XXI asrda raqamli texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi ta'lim jarayonlariga ham jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, masofaviy ta'lim, aralash ta'lim, "flipped classroom" kabi pedagogik modellar va ularning amaliy qo'llanishi ta'lim samaradorligini oshirishda muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Maqolada ushbu uslublarning nazariy asoslari, jahon va milliy ta'lim tajribasidagi o'rni, o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasi, tanqidiy fikrlash qobiliyatiga bo'lgan ta'siri statistik ma'lumotlar va ilmiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki uzluksiz ta'lim tizimini shakllantirishda muhim omil ekani asoslab beriladi.

Kirish. Bugungi kunda jamiyat hayotining barcha sohalarida, xususan ta'lim tizimida ham jadal sur'atlarda raqamlashtirish jarayoni olib borilmoqda. Ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va individual yondashuv asosida o'qitish tizimini yo'lga qo'yishda zamonaviy axborot texnologiyalari (ZAT) muhim rol o'ynaydi. Axborot-kommunikatsiya vositalarining ta'limga tatbiq etilishi orqali an'anaviy darslardan farqli o'laroq, interaktiv, multimedia vositalari bilan boyitilgan va masofaviy shaklda ham tashkil etilishi mumkin bo'lgan yangi o'quv muhiti shakllanmoqda. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi hamda shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi.[1]

Ta'limda ilg'or pedagogik va yangi axborotlar texnologiyalarini tatbiq etish o'quv mashg'ulotlarining samaradorligini oshiribgina qolmay, ilm-fan yutuqlarini amaliyotda qo'llash orqali mustaqil va mantiqiy fikrlaydigan, har tomonlama barkamol yuksak ma'naviyatli shaxsni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. [2] Ayniqsa, so'nggi yillarda yuz bergan global o'zgarishlar, xususan pandemiya davrida masofaviy ta'limning keng joriy etilishi bu sohada texnologik yechimlarning ahamiyatini yanada oshirdi. Bundan tashqari, axborot texnologiyalari yordamida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, ijodkorlik va muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantirish mumkin. Multimedia resurslari va interaktiv platformalar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatiga ega bo'ladi, bu esa ularning umumiy intellektual salohiyatini oshiradi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarining ta'lim tizimiga tatbiq etilishi, o'qituvchilarning pedagogik faoliyatini ham yangilaydi. Ular o'quv jarayonini boshqarish, rejalashtirish va nazorat qilishda yangi metod va uslublarni qo'llashga majbur bo'ladi. Bu esa o'qituvchilarning professional malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim tizimiga tatbiq etilishi, o'quv jarayonini yanada sifatli, interaktiv va shaxsiylashtirilgan qilish imkoniyatlarini yaratadi. Bu esa o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali va qiziqarli qiladi, shuningdek, ularning umumiy ijobiy rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni, ularni samarali qo'llash yo'llari va bu orqali erishilayotgan ijobiy natijalar tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Bunday usullar orasida, masalan, aralash ta'lim orqali o'qituvchi an'anaviy va raqamli metodlarni uyg'unlashtirib, talabaning mustaqil o'rganish malakasini shakllantiradi. Shu bilan birga, teskari sinf usulida talaba darsga tayyor holatda keladi, ya'ni asosiy

nazariyani avvaldan mustaqil o'zlashtiradi, dars jarayonida esa bilimni chuqurlashtiradi va amaliy faoliyatga yo'naltiriladi. Bunday yondashuvlar pedagogik konstruktivizm tamoyillariga asoslangan bo'lib, o'quvchining faol bilim egallashiga xizmat qiladi.

Aralash ta'lim usullari samaradorligi ko'plab ilmiy tadqiqotlar orqali statistik jihatdan asoslab berilgan. Umumiy hisobda, teskari sinf usulining an'anaviy ta'lim shakliga nisbatan samaradorligi 198 ta tadqiqot asosida 33 678 talaba ishtirokida o'tkazilgan meta-tahlil natijasiga ko'ra, o'rtacha 0.50 effekt o'zgarishi bilan belgilangani aniqlangan. Bu, o'quvchilarning bilim darajasida sezilarli ijobiy o'zgarishlar yuz berishini anglatadi.

Dasturlash fanlarida esa 27 ta tadqiqotda o'tkazilgan tahlillar ushbu usul yordamida o'quvchilarda 0.56 birlik samaradorlik ortishini ko'rsatgan. Matematika fanlarida 0.40 birlik, ingliz tili fanlarida esa 0.68 birlik ijobiy natijalar qayd etilgan.

Gumanitar fanlar bo'yicha esa teskari sinf usulining samaradorligi eng yuqori bo'lgan bo'lib, u yerda 0.98 birlikgacha yetgan ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan. Bu statistik ma'lumotlar teskari sinf va aralash ta'lim usullari nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy o'quv natijalari orqali ham o'zini oqlayotganini ko'rsatadi. Ular talabalar o'zlashtirishini chuqurlashtiradi, mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantiradi va darslarni samarali tashkil etish imkonini beradi.[4]

Garrison aralash ta'limni talabaning mustaqil o'rganish ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali deb hisoblaydi. Uning fikricha, an'anaviy va raqamli metodlarni uyg'unlashtirish o'quv jarayonini yanada samarali qiladi.[5] Bishop esa teskari sinf usulining an'anaviy darslarga nisbatan samaradorligini keng ko'lamda meta-tahlil asosida isbotlagan. Uning tadqiqoti ko'rsatadiki, ushbu usul o'quvchilarning bilim darajasini sezilarli oshiradi.[4] Har ikkala olim ham aralash va teskari sinf usullarining samaradorligini ta'kidlaydi, biroq Garrison ko'proq metodologik uyg'unlikka e'tibor qaratgan bo'lsa, Bishop aniq statistika va meta-tahlillarga asoslanadi.

Boshqa bir samarali yondashuv raqamli portfoliolarni yuritishdir. Bu o'quvchining butun o'quv jarayonidagi yutuqlarini elektron shaklda saqlash, tahlil qilish va baholashga imkon yaratadi. Raqamli portfoliolar o'quvchini o'z ustida ishlashga undaydi va shaxsiy rivojlanish monitoringini olib borish imkoniyatini beradi. Bundan tashqari, o'yin elementlarini o'z ichiga olgan gamifikatsiya yondashuvi o'quvchini rag'batlantirishda, ta'lim jarayonini emotsional va qiziqarli qilishda foydalidir. Bu usulda talaba bilimni o'yin orqali egallaydi, topshiriqni bajargan sayin ball to'playdi yoki mukofotlanadi.

Raqamli portfoliolar o'quvchilarning o'zlashtirishi, refleksiya qilish va texnologik savodxonligini oshirishga xizmat qiladi. Tadqiqotlar bu

yondashuv o'z-o'zini baholash va shaxsiy rivojlanishni monitoring qilishda foydali ekanini ko'rsatadi. Gamifikatsiya esa motivatsiyani kuchaytiradi va darslarni qiziqarli qiladi. 49 ta tadqiqot asosida o'quvchilarning umumiy o'zlashtirish ko'rsatkichi 0.822 birlikka oshgan. Tibbiy ta'limda motivatsiya o'sishi 0.86–1.22 birlikni, o'ziga ishonch esa 0.79–1.11 birlikni tashkil qilgan. STEM fanlarida ilmiy bilim uchun 0.428 birlik, kognitiv ko'nikmalar uchun esa 0.091 birlik o'sish qayd etilgan. Bu usullar ta'lim sifatini sezilarli darajada oshiradi. [6]

Barrett raqamli portfoliolarini o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va shaxsiy rivojlanishini monitoring qilish vositasi sifatida baholaydi. U portfoliolar o'quv jarayonidagi yutuqlarni tizimli saqlash va baholash imkonini beradi. [7] Tillema esa raqamli portfoliolar o'quvchilarni mustaqil ishlashga rag'batlantirishda muhim rol o'ynashini, shuningdek, o'qituvchilarga o'quv jarayonini yaxshiroq kuzatish imkonini berishini ta'kidlaydi. [8] Har ikki olim ham portfoliolar ta'limdagi samaradorligini tan olsa-da, Barrett ko'proq baholash va refleksiya aspektlarini ta'kidlaydi.

Texnologiyalar asosidagi hamkorlikka yo'naltirilgan ta'limda talabalar onlayn platformalar orqali jamoaviy ishlarga jalb etiladi. Bu esa ularda mas'uliyat, jamoada ishlash ko'nikmasi, o'z fikrini asoslab berish va boshqalarning fikrini tinglash madaniyatini shakllantiradi. Virtual reallik va kengaytirilgan reallikdan foydalanish orqali murakkab va tushunilishi qiyin bo'lgan mavzularni tasavvur qilish, ko'rish va tajriba o'tkazish imkoniyatlari yaratiladi. Misol uchun, biologiyalar yoki tarix fanlarida VR orqali laboratoriya tajribalarini yoki tarixiy hodisalarni jonli ko'rinishda tasavvur qilish mumkin. Bu esa o'quvchi bilimini mustahkamlashda katta rol o'ynaydi.

Radiant VR texnologiyalarining ta'limda vizualizatsiya va amaliy tajribalarni osonlashtirishda katta ahamiyatga ega ekanini ta'kidlaydi. Uning fikriga ko'ra, ushbu texnologiyalar murakkab mavzularni tushunishni yengillashtiradi, o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshiradi va darslarga jalb etilishini kuchaytiradi. [9] Ayniqsa, interaktivlik va "immersion" muhiti o'quvchilarda kuchli ishtirok va motivatsiyani shakllantiradi. Shu bilan birga, ular bu texnologiyalarni yanada samarali qo'llash uchun pedagogik yondashuvlar va texnik imkoniyatlar uyg'unligini ta'minlash zarurligini ham ta'kidlaydi.

Shuningdek, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar tahlilini o'z ichiga olgan moslashtirilgan ta'lim usullari har bir talabaning individual ehtiyojiga mos tarzda material taqdim etilishini ta'minlaydi. Tizim talabani avtomatik ravishda tahlil qiladi, zaif va kuchli tomonlarini aniqlaydi va shunga mos dars materiallari, mashqlar va tavsiyalarni shakllantiradi. Bunday yondashuvlar o'qituvchining ham, o'quvchining ham vaqtini tejaydi va ta'lim sifatini oshiradi.

Woof AI asosidagi ta'lim tizimlari har bir talabaning individual ehtiyojini aniqlab, ta'lim jarayonini optimallashtirish imkonini beradi deb hisoblaydi. Woof sun'iy intellekt asosidagi ta'lim tizimlari har bir talabaning individual ehtiyojlarini aniqlab, unga moslashtirilgan dars materiallari va topshiriqlarni taqdim etish orqali ta'lim jarayonini samaraliroq va interaktiv qiladi, deb ta'kidlaydi. Uning fikricha, bunday tizimlar nafaqat bilim darajasini oshiradi, balki o'qituvchilarning yuklamasini kamaytiradi va talabaning o'z-o'zini boshqarish ko'nikmalarini rivojlantiradi. [10] Shu sababli AI texnologiyalari zamonaviy ta'limda shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amaliyotga tatbiq etishda muhim vositadir.

Yuqorida bayon etilgan zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'limda qo'llash usullari, aslida, faqat texnik vositalarni emas, balki ulardan maqsadli, pedagogik jihatdan asoslangan va o'quvchining kognitiv, emotsional va ijtimoiy ehtiyojlariga javob beruvchi shaklda foydalanishni nazarda tutadi. Shu bois, har bir usul o'quv mazmuniga, fan xususiyatiga va o'quvchilarning tayyorgarlik darajasiga mos tarzda qo'llanishi lozim. Bu esa zamonaviy o'qituvchidan didaktik mahorat, texnologik savodxonlik va ijodiy yondashuvni talab qiladi.

Tadqiqotning natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim tizimining raqamlashtirilishi va ZATlar yordamida ta'lim jarayonining diversifikatsiyasi o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytiradi, pedagogik jarayonni yanada samarali qiladi va o'qituvchilarni yangi, innovatsion metodlarga o'rgatadi. Shu bilan birga, axborot texnologiyalarini ta'limda samarali qo'llash hamda ularni o'qituvchilar va o'quvchilarga qulay sharoitlarda tatbiq etish ta'lim sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga integratsiyasi orqali o'quvchilar bilim olish faoliyatiga ta'siri o'rganildi. Tadqiqotda aralash metodologik

yondashuv qo'llanildi, ya'ni nazariy tahlil, statistik ma'lumotlar tahlili, kontent-tahlil va amaliy kuzatuvlar birgalikda olib borildi.

Asosiy metodlar quyidagilardan iborat bo'ldi: nazariy-analitik tahlil – ZATga oid ilmiy maqolalar, xalqaro tadqiqotlar (meta-tahlillar), monografiyalarni tahlil qilindi; statistik yondashuv – ilg'or mamlakatlar va O'zbekiston tajribasiga oid aniq raqamlar asosida ZATlarning samaradorligi baholandi; pedagogik eksperiment (holat tahlili) – masofaviy va interaktiv ta'lim muhitida dars berilgan guruhlar o'rtasida farqlar solishtirildi. amaliy kuzatuv – real o'quv jarayonida (Qo'qon universiteti misolida) zamonaviy texnologiyalar qo'llanilgan darslar natijalari baholandi.

Tadqiqotda aralash ta'lim, teskari sinf, raqamli portfolio, gamifikatsiya, sun'iy intellekt va virtual reallik elementlarini o'z ichiga olgan texnologik yondashuvlar asosiy ob'ekt sifatida tanlandi. Shuningdek, maqolada zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim tizimidagi o'rni, ularni samarali qo'llash omillari va natijalari tahlil qilindi. Asosiy metod sifatida ta'lim jarayonidagi texnologik yechimlarning amaliy qo'llanilishi, pedagogik tajriba, statistik ma'lumotlar va xalqaro tadqiqotlar asosida kontent-tahlil yondashuvi qo'llandi.

Tadqiqot natijalari. Barkamol avlodni shakllantirishda masofaviy o'qitish texnologiyalari asosida masofaviy ta'limni tashkil etish, ushbu vazifalarni amaliyotga tatbiq etilishining ijobiy natijasi sifatida e'tirof etish o'rindir. Internet texnologiyalar asosidagi masofaviy ta'lim, bu ta'limning zamonaviy universal shakli bo'lib, u o'quvchilarning individual so'rovlariga, shaxsiy ehtiyojlariga va ularning qiziqishlariga mo'ljallangan.

O'quv jarayonida axborot texnologiyalari asosida masofadan o'qitish tizimini tashkil etishni an'anaviy o'qitish tizimi bilan uyg'unlashgan holda samarali amalga oshirilishi quyidagi bir nechta omillarga bog'liq bo'ladi: ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari bazasining mavjudligi va yetarliligi; internet tarmog'ida ishlashning uzluksizligi; masofadan bilim olayotgan o'quvchilarning bilim olish ishtiyoqi, qiziqishi va o'zlashtirish darajasining yuqoriligi; masofadan o'qitish tizimiga bilimli, malakali va tajribali mutaxassis va o'qituvchilarning jalb etilishi; masofadan o'qitish tizimining kerakli va sifatli o'quv materiallari, elektron darsliklar va o'quv kurslari bilan ta'minlanganligi va ularning yetarliligi; masofadan o'qitish tizimida barcha mashg'ulotlarni tizimli tarzda olib borilishi.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berish jarayonida masofadan o'qitish vositalariga an'anaviy o'qitish vositalardan tashqari quyidagilar ham kiradi: elektron o'quv nashrlar; kompyuter o'qitish tizimlari; audio-vidio o'quv materiallari; turli adabiyot va axborotlar manbalari tomonidan tavsiya etilgan o'quv- nazorat testlari; kutubxona ma'lumotlar bazasi bilan aloqa; virtual materiallar va laboratoriyalar; o'quvchilar bilimlarini baholash mezonlari va materiallari. [1]

Ta'lim tizimida axborot texnologiyalari asosida masofadan o'qitishning samaradorligini oshirish ko'p jihatdan yaratilayotgan va qo'llanilayotgan pedagogik dasturiy vositalar – o'quv dastur, elektron o'quv qo'llanma, avtomatlashtirilgan o'qitish kurslari va hokozalarning maqsadi, tarkibiy qismi, mazmuni va o'qitish sifatiga bog'liq bo'ladi. O'quvchilar mustaqil bilim olishida, o'tilgan mavzularni takrorlashda, hamda olgan bilimlari asosida nazoratlar topshirishda o'rgatuvchi, axborot – ma'lumotli, nazorat qilish dasturlari axborot texnologiyalari asosida masofadan o'qitish samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalari (ZAT) ta'lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqmoqda. Bugungi kunda ta'lim tizimining samaradorligini oshirish, o'quvchilarning bilim olish imkoniyatlarini kengaytirish va shaxsiy yondashuv asosida o'qitish tizimini tashkil etishda ZATlarning roli katta. Axborot-kommunikatsiya vositalarining ta'limga tatbiq etilishi bilan an'anaviy darslar yangilanib, interaktiv va multimedia vositalari yordamida ta'lim jarayoni yanada boyitiladi.

ZATlarni ta'limga joriy etishda ko'plab omillar rol o'ynaydi. Ta'lim muassasasining zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalari bilan ta'minlanishi, internet tarmog'ining uzluksiz ishlashi va o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan ishtiyoqi tizimning samarali ishlashiga ta'sir qiladi. Bundan tashqari, masofaviy ta'limning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi uchun o'qituvchilarning malakasi va tajribasi ham juda muhimdir.

ZATlarning ta'lim jarayonida samarali qo'llanilishi uchun elektron o'quv materiallari, kompyuter o'qitish tizimlari, audio-video vositalari, virtual laboratoriyalar va boshqa axborot resurslaridan foydalanish zarur. Bu vositalar o'quvchilarning mustaqil bilim olishini

rag'batlantiradi, mavzularni takrorlashda yordam beradi va bilimlarni baholashda samarali ishlaydi.

ZATlarni maktab, oliy ta'lim va boshqa o'quv yurtlariga tadbqiq etish orqali dars jarayoniga yangiliklar olib kirishimiz va qotib qolgan dars o'tish metodlaridan qochishimiz kerak. Hozirgi kunda yurtimizda deyarli barcha o'quv sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish jadal sur'atda rivojlanmoqda. Shu qatorda bu jarayonga o'qituvchilarni ham tayyorlashimiz va ularning bilim va malakalarini oshirish bu masalaning ikkinchi tomonidir. O'qituvchilar o'qitish jarayonlarida axborot texnologiyalaridan foydalanar ekan o'zining bilim va ko'nikmalari bo'lishi zarur.[3]

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga qo'llanishi o'quvchilarni bilim olishda yangi imkoniyatlar yaratib, ta'lim tizimining samaradorligini sezilarli darajada oshirmoqda. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ZATlarning ta'limga tatbiq etilishi an'anaviy o'qitish usullarini yangilab, o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol ishtirokini ta'minlashga, ularning individual ehtiyojlariga mos keladigan ta'lim shakllarini yaratishga imkon beradi.

Masofaviy ta'lim, interaktiv darslar, multimedia vositalari va virtual laboratoriyalar kabi texnologiyalar yordamida o'quvchilar o'z bilimlarini mustaqil ravishda kengaytirish, mavzularni qayta takrorlash va baholash imkoniyatiga ega bo'ladi. Shuningdek, ZATlarning qo'llanilishi ta'lim jarayonini individualizatsiya qilishni ta'minlab, o'quvchilarning o'ziga xos qiziqishlari va ehtiyojlariga asoslangan o'qitish shakllarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarini ta'lim jarayonida qo'llash usullari o'quvchilarning o'zlashtirish darajasini oshirish, darslarni yanada interaktiv va mazmunli qilish, shuningdek, o'qituvchining samarali pedagogik faoliyat yuritishiga xizmat qiladi. Bu usullar asosida ta'limning individual, moslashuvchan, hamkorlikka asoslangan va ilg'or texnik imkoniyatlardan foydalanishga yo'naltirilgan shakllari yotadi. Axborot texnologiyalari yordamida o'qituvchi dars mazmunini an'anaviy shakldan chiqib, multimediali materiallar, virtual resurslar va masofaviy aloqa vositalari orqali talabalarga yetkazishi mumkin. Ayniqsa, o'quvchilarni darsga jalb qilish, mavzuni chuqur anglash va o'rganishni mustaqil davom ettirishda texnologik vositalar muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek, tadqiqot natijalari zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga samarali integratsiyasi quyidagi yo'nalishlarda sezilarli natijalar berganini ko'rsatdi: **O'quvchilarning bilim darajasida ijobiy o'sish kuzatildi.** Testkari sinf usuli qo'llanilgan guruhda o'zlashtirish ko'rsatkichi o'rtacha **0.50 birlikka** oshgan (meta-tahlil asosida). Gamifikatsiya metodlari natijasida o'quvchilar motivatsiyasi **0.86–1.22 birlik** gacha oshgani aniqlangan. **Kognitiv va tanqidiy fikrlash ko'nikmalari rivojlandi.** Raqamli portfoliolar va o'zini baholash vositalari yordamida mustaqil fikrlash va refleksiya qilish qobiliyatlari kuchaydi. O'yinli elementlar (gamifikatsiya) orqali mavzularni eslab qolish va faol ishtirok darajasi oshdi. **Individual ta'lim strategiyalari shakllandi.** AI asosidagi moslashtirilgan o'qitish platformalari orqali har bir o'quvchining kuchli va zaif tomonlari aniqlanib, shaxsiy tavsiyalar ishlab chiqildi. O'quvchilar o'z ehtiyojlarini asosida mos darsliklar, mashqlar va testlar bilan ta'minlandi. **Amaliy bilim va tajriba oshdi.** Virtual reallik (VR) asosida tayyorlangan darslarda qatnashgan o'quvchilarning amaliy tushunchalari yuqori bo'ldi. STEM fanlari bo'yicha o'zlashtirish darajasi **0.428 birlik**, kognitiv salohiyat esa **0.091 birlikka** o'sgani qayd etildi. **Raqamli vositalar ta'lim jarayonini kuchaytirdi.** O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi muloqot interaktiv muhitda kuchaydi. O'quv jarayoni mobillashdi: elektron

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Isoqova.A.SH. Axborot Texnologiyalaridan ta'lim jarayonini tashkillashtirishda foydalanish. Scientific progress. Jilda 1. Nashr 2. 2021. – B. 823
2. Melibayeva Z.R. Ta'limda zamonaviy texnologiyalaridan foydalanish usullari. Central asian academic journal. Jild 2 Nashr 6. 2022. – B. 436.
3. Kambarov, J., Rakhmatov, U., Rakhmonov, N., & Sultanova, Y. (2020). Problems and solutions for the implementation of the industry-4.0 program in Uzbekistan. Journal of Advanced Research in Dynamical and Control Systems, 12(2), 2677-2683.
4. Raxmonov Nodirjon. (2022). O'ZBEKISTONDA SANOAT 4.0 DASTURINI RIVOJLANISHI CHARM POYAFZAL ISHLAB CHIQUVUCHI KORXONA MISOLIDA. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(2), 331–341. Retrieved from <http://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/127>

darsliklar, testlar, vebinarlar, video materiallar faol ishlatildi. Axborot texnologiyalarining to'g'ri qo'llanilishi orqali ta'lim sifati oshib, o'quvchilarda mustaqillik, ijodiy yondashuv va texnologik savodxonlik rivojlandi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning metodik yondashuvlari yangilandi, ta'lim jarayoni shaxsga yo'naltirilgan, samarali va uzluksiz tizimga aylana boshladi.

Xulosa. Umuman olganda, zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonida qo'llanilishi ta'limning sifatini oshirishga, pedagogik jarayonni innovatsion shakllarga aylantirishga va o'quvchilarning shaxsiy rivojlanishini ta'minlashga imkon yaratadi. Kelajakda ZATlarning ta'lim tizimida yanada kengroq qo'llanilishi, ta'limning barcha bosqichlarida yangi o'quv shakllari va metodlarni ishlab chiqish zaruriyati bor. Bu o'z navbatida, ta'lim jarayonining har tomonlama rivojlanishiga olib keladi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining ta'lim jarayoniga keng joriy etilayotganiga qaramay, ushbu sohada bir qator dolzarb muammolar mavjud. Asosiy muammo – bu o'qituvchilarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarining yetarli emasligidir. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida raqamli vositalarni joriy qilish sur'ati o'qituvchilarning bu boradagi malaka darajasiga bog'liq bo'lib, aksariyat hollarda ular mavjud texnologik imkoniyatlardan to'liq foydalana olmaydi. Bu holat esa ta'lim sifatining pasayishiga, interaktivlik darajasining past bo'lishiga va o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasining susayishiga olib keladi.

Bundan tashqari, ayrim hududlarda ta'lim muassasalarining texnik jihozlanganlik darajasi pastligi, internet tarmog'ining barqaror emasligi va o'quv materiallarining elektron shaklda yetarli darajada ishlab chiqilmagani ham muammoning chuqurlashuviga sabab bo'lmoqda. Yana bir muhim jihat – ta'lim mazmunining texnologik imkoniyatlarga mos tarzda qayta ko'rib chiqilmasligi, ya'ni an'anaviy dars uslublari o'zgarayotgan raqamli muhitga moslashtirilmayotgani natijasida, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot to'liq shakllanmayapti.

Ushbu muammoni hal etish uchun birinchi navbatda o'qituvchilarning axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha doimiy malaka oshirish kurslarini tashkil etish zarur. Ular nafaqat texnik vositalarni boshqarishni, balki innovatsion metodlarni qo'llagan holda dars mazmunini qayta ishlash, o'quvchilar bilan masofaviy hamkorlikni tashkil etish va raqamli resurslardan samarali foydalanishni ham o'rganishlari lozim. Shuningdek, ta'lim muassasalarini zamonaviy texnik vositalar bilan ta'minlash, ayniqsa chekka hududlarda internet infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha davlat darajasida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish kerak.

Yana bir muhim yechim bu – ta'lim mazmunini raqamli formatga moslashtirishdir. Har bir fan va yo'nalish uchun interaktiv elektron darsliklar, video darslar, test topshiriqlari va virtual laboratoriyalarni ishlab chiqish, ularni yagona elektron platformaga joylashtirish ta'limning sifatini oshirishga xizmat qiladi. O'quvchilarning axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish madaniyatini shakllantirish ham bu boradagi uzviy yo'nalishlardan biridir.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy axborot texnologiyalari ta'limda katta imkoniyatlar yaratmoqda, biroq bu imkoniyatlardan to'liq foydalanish uchun tizimli muammolarni hal etish, pedagog kadrlar salohiyatini oshirish, infratuzilmani yaxshilash va raqamli ta'lim resurslarini takomillashtirish zarur. Faqat shundagina ta'lim jarayoni innovatsion, interaktiv va sifatli bo'lishi mumkin.

5. Bishop, J. L., & Verleger, M. A. The Flipped Classroom: A Survey of the Research. In ASEE National Conference Proceedings, Atlanta, GA, 2013. – P. 4–6.
6. Garrison, D. R., & Vaughan, N. (2008). Blended learning in higher education. San Francisco: Jossey-Bass, p. 45–47.
7. Rakhmonov, N. (2022). PROSPECTS FOR THE DEVELOPMENT OF INDUSTRIAL 4.0 PROGRAM IN UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF A LEATHER SHOE MANUFACTURING ENTERPRISE). Economics and Innovative Technologies, 10(6), 120-129. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss6/a13
8. Lee, H.-J., Park, H.-A., & Kim, M.-J. Effects of gamification on academic motivation and confidence of undergraduate nursing students: A systematic review and meta-analysis. BMC Medical Education, 24(1), 2024, pp. 2–5.

9. Barrett, H. C. Researching Electronic Portfolios and Learner Engagement: The REFLECT Initiative. *Journal of Adolescent & Adult Literacy*, 50(6), 2005. – P. 21.
10. Tillema, H. ***Portfolios as developmental assessment tools***. 2011. – P. 35.
11. Raxmonov, N. (2024). Ishlab chiqarish faoliyatini raqamlashtirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. *Nordik ilmiy-amaliy elektron jurnali*.
12. Radianti, J., Majchrzak, T. A., Fromm, J., & Wohlgenannt, I. A systematic review of immersive virtual reality applications for higher education: Design elements, lessons learned, and research agenda. *Computers & Education*, volume 147. 2020. – P. 6.
13. Woolf, B. P. Student Modeling. In *Advances in Intelligent Tutoring Systems (Studies in Computational Intelligence, vol. 308)*, 2010. - pp. 267–279.
14. Raxmonjon o'g'li, R. N. (2024). MAMLAKATDA KICHIK BIZNES FAOLIYATINI RAQAMLASHTIRISHNING TAHLILI. *University Research Base*, 889-892.



KRIPTOAKTIVLAR ISHTIROKIDAGI TRANSMILLIY JINOYATLAR: HUQUQIY NOMUVOFIQLIKLAR, TARTIBGA SOLISH MUAMMOLARI VA KIBERXAVFSIZLIK TAHDIDLARI

Sh.Ruziyev,

Toshkent Xalqaro Universiteti

Akademik ishlar bo'yicha department boshlig'i

A.Akbarova,

Toshkent Xalqaro Universiteti talabasi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 35 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1215 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Ushbu maqolada kripto jinoyatlarining zamonaviy jinoyatchilikdagi o'rni va ahamiyati yoritilgan. Raqamli valyutalarning ommalashuvi jinoyatchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Kripto valyutalarning anonimligi va nazoratning murakkabligi ularni jinoyatlarda keng qo'llash imkonini beradi. Pul yuvish, firibgarlik va kiberhujumlar kripto jinoyatlarining asosiy ko'rinishlaridandir. Bunday jinoyatlarga qarshi kurashishda davlatlar yangi qonunchilik choralari ishlab chiqmoqda. Shu bilan birga, xalqaro hamkorlik bu sohada kurashda muhim o'rin tutadi. Blokcheyn texnologiyasining o'zi esa jinoyatchilikni aniqlashda foydali bo'lishi mumkin. Tashkilotlar va jismoniy shaxslar kripto xavfsizligiga jiddiy e'tibor qaratishi zarur. Maqola kripto jinoyatlarining jamiyat va iqtisodiyotga ta'sirini ham tahlil qiladi. Umuman olganda, kripto jinoyatlar yangi texnologiyalar bilan birga rivojlanib bormoqda.
kripto jinoyatlar, raqamli valyuta, kriptovalyuta, anonimlik, pul yuvish, kiberxavfsizlik, blokcheyn, firibgarlik, kiberhujum, jinoyatchilik, yangi texnologiyalar, nazorat mexanizmi, xalqaro hamkorlik, qonunchilik.	

Kirish. So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanib, global moliyaviy tizimlarda tub o'zgarishlarga sabab bo'lmoqda. Xususan, kriptoaktivlar – ya'ni blokcheyn texnologiyasiga asoslangan raqamli aktivlar – xalqaro moliyaviy muomalada keng qo'llanila boshladi. Ularning markazlashmagan, anonim va tezkor xususiyatlari iqtisodiy operatsiyalarni soddalashtirgan bo'lsa-da, shu bilan birga yangi turdagi jinoyatlar, jumladan transmilliy jinoyatlarining vujudga kelishiga ham zamin yaratmoqda. Ayniqsa, pul yuvish, terrorizmni moliyalashtirish, noqonuniy savdo, firibgarlik kabi jinoyatlarda kriptoaktivlar vositachilik rolini o'ynayotgan holatlar ko'paymoqda.

Shu bilan birga, dunyo davlatlarida kriptoaktivlarni huquqiy jihatdan tartibga solish mexanizmlari turlicha bo'lib, bu huquqiy nomuvofiqliklar transmilliy jinoyatlarining aniqlanishi va oldini olishida jiddiy to'siq bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamli aktivlar harakati chegaralarni tan olmagan sababli, xalqaro hamkorlik va muvofiqlashtirilgan yondashuv zarurati dolzarb masalaga aylangan. Biroq, mavjud xalqaro va milliy qonunchilikda kriptoaktivlar bo'yicha yagona yondashuvning yo'qligi ularni noqonuniy maqsadlarda ishlatish imkonini kengaytirmoqda.

Shuningdek, kiberxavfsizlik tahdidlari – xususan, xakerlik hujumlari, soxta platformalar, fishing (ma'lumotlarni o'g'irlash) kabi usullar orqali amalga oshirilayotgan hujumlar – kriptoaktivlar ekotizimini yanada xavfli hududga aylantirmoqda. Bu esa faqat moliyaviy tizimlar emas, balki milliy xavfsizlik darajasidagi muammolarni keltirib chiqaradi.

Ushbu maqolada kriptoaktivlar ishtirokida sodir etilayotgan transmilliy jinoyatlarining huquqiy asoslari, tartibga solishdagi nomuvofiqliklar, xalqaro tajriba va kiberxavfsizlik tahdillari tahlil qilinadi. Tadqiqot gipotezasi shundan iboratki, agar kriptoaktivlar bilan bog'liq huquqiy bazalar xalqaro miqyosda uyg'unlashtirilsa, tartibga solishning yagona yondashuvi ishlab chiqilsa va kiberxavfsizlik choralari samaradorligi oshirilsa, transmilliy jinoyatlar salmog'i sezilarli darajada kamayadi.

Tehnologik yutuqlar dunyodagi iqtisodiy va ijtimoiy tizimlarni tubdan o'zgartirdi. Ayniqsa, moliyaviy sohada raqamli inqilob – kriptoaktivlarning yaratilishi va keng tarqalishi – moliyaviy mustaqillik, tezkor tranzaksiyalar va markazlashmagan tizim kabi ijobiy jihatlarni taqdim etdi. Shu bilan birga, ayni texnologiyalar jinoyat olami uchun ham ilgari bo'lmagan imkoniyatlarni yaratdi. Bugungi kunda "kripto jinoyatlar" tushunchasi global xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va kiberxavfsizlik masalalari bilan chambarchas bog'liq bo'lib qoldi. Kripto jinoyatlar – bu raqamli aktivlar, ayniqsa kriptovalyutalar orqali amalga oshiriladigan noqonuniy faoliyatlar majmuasidir. Ular orasida eng keng

tarqalganlari – pul yuvish, firibgarlik, ransomware (talonchi dasturlar), darknet orqali savdo, va noqonuniy mablag'larni yashirishdir. Kriptovalyutalar – Bitcoin, Ethereum, Monero kabi turlar – markazlashmagan va ismsiz bo'lganligi sababli, jinoyatchilar ularni oson yashirin harakatlar uchun ishlatmoqda. Ko'plab huquqni muhofaza qiluvchi organlar ushbu jinoyat turlarini aniqlashda murakkabliklarga duch kelmoqda, chunki tranzaksiyalarni real shaxslar bilan bog'lash nihoyatda qiyin.

Ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, kriptovalyutalarning yuksalishi bilan birga kripto jinoyatlari ham keskin oshgan. 2023-yilgi "Chainalysis" hisobotiga ko'ra, faqatgina bir yilda kripto jinoyatlari orqali noqonuniy aylangan mablag'lar hajmi 20 milliard AQSh dollaridan oshgan [3]. Bu ko'rsatkichlar jinoyatlarining global miqyosda ko'lamini anglashga imkon beradi. Shu sababli, kripto jinoyatlari haqida ilmiy asosda chuqur tadqiqotlar olib borish dolzarb masalaga aylandi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu ilmiy tadqiqotda kriptoaktivlar ishtirokidagi transmilliy jinoyatlarining huquqiy va institutsional asoslari, mavjud tartibga solish muammolari hamda kiberxavfsizlik tahdidlari tizimli ravishda tahlil qilindi. Tadqiqotda nazariy, huquqiy va empirik yondashuvlar integratsiyasi asosida kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi.

Quyidagi asosiy metodlar tadqiqotning asosiy vositalari sifatida tanlandi: Tahliliy va taqqoslov metodlari – turli davlatlardagi kriptoaktivlar bilan bog'liq qonunchilik va nazorat mexanizmlarini solishtirish orqali muammoli jihatlarni aniqlash maqsadida qo'llanildi. Huquqiy tahlil – kriptoaktivlarga oid xalqaro hujjatlar, xalqaro tashkilotlar (FATF, IMF, UNODC) tavsiyalari va milliy qonunchiliklar (AQSH, Yel, Rossiya, Janubiy Koreya, O'zbekiston va boshqalar) asosida amalga oshirildi. Tizimli tahlil – transmilliy jinoyatlar zanjiri, ularning shakllanish mexanizmi, va bu jarayonda kriptoaktivlarning tutgan o'rnini aniqlashda yordam berdi. Ekspert yondashuvi – yuridik sohasi, kiberxavfsizlik va moliyaviy monitoring mutaxassislarining fikrlari tahlil qilindi.

Tadqiqot quyidagi turdagi ma'lumot bazalaridan foydalanilgan holda amalga oshirildi: Ilmiy maqolalar va hisobotlar – Scopus, Google Scholar, ResearchGate, JSTOR, SSRN kabi platformalardan 2015–2024 yillar oralig'ida chop etilgan nufuzli maqolalar tanlab olindi. Rasmiy hisobotlar va ma'lumotlar – FATF (Financial Action Task Force), UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime), Europol, Interpol, FinCEN va boshqa tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan statistik ma'lumotlar asosida xulosalar chiqarildi. Milliy qonunchilik bazalari – LexUZ (O'zbekiston qonunlari), Legislation.gov.uk (Buyuk Britaniya), Federalregister.gov (AQSH), EUR-Lex (Yel qonunchiligi) va boshqa qonunchilik portallaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ayrim qismlarida birlamchi ma'lumotlar yig'ish uchun ixtisoslashtirilgan so'rovnoma va yarim tuzilgan intervyular o'tkazildi. Ishtirokchilar sifatida: bank va moliyaviy muassasa xodimlari, kriptoaktivlar bilan shug'ullanuvchi yuridik firmalar vakillari, raqamli xavfsizlik ekspertlari jalb etildi. Yig'ilgan ma'lumotlar matnli kontent tahlili orqali kodlanib, takrorlanuvchi mavzular asosida toifalarga ajratildi.

Mazkur maqola doirasida to'liq ekonometrik model qo'llanilmagan bo'lsa-da, kriptoaktivlar ishtirokidagi jinoyatlarning ko'payishiga ta'sir etuvchi omillar quyidagicha tizimlashtirildi:

- Y – Transmilliy jinoyatlar soni (bog'liq o'zgaruvchi).
- X1 – Mamlakatdagi kriptoaktivlar tartibga solish darajasi.
- X2 – Mamlakatning FATF bo'yicha reytingi (AML/CFT talablari bajarilishi).
- X3 – Kiberhujumlar soni va zaiflik darajasi.
- X4 – Kriptoaktivlar aylanish hajmi (tranzaksiyalar soni yoki umumiy qiymati).

Bu o'zgaruvchilarning o'zaro bog'liqligi kontseptual model sifatida tavsiflanib, keyingi bosqichlarda empirik testlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Kripto jinoyatlari turlari va ularning kengayish sabablari.

Kripto jinoyatlarining asosiy shakllari quyidagilar hisoblanadi: Pul yuvish (money laundering): Jinoyatchilar noqonuniy yo'l bilan qo'lga

kiritilgan mablag'larni kriptovalyutaga aylantirish orqali ularni qonuniy daromad sifatida ko'rsatishga urinadilar.

Ransomware hujumlari: Bu jinoyatlar kompyuter tizimlariga kirib, foydalanuvchi ma'lumotlarini bloklash va ularni ochish uchun kriptovalyutada to'lov talab qilish orqali amalga oshiriladi.

Ponzilar va investitsiya firibgarliklari: Soxta kripto loyihalar va tokenlar orqali investorlarni aldash eng keng tarqalgan shakllardan biridir.

Darknet savdosi: Narkotik moddalar, qurol-yarog', soxta hujjatlar va boshqa noqonuniy mahsulotlar aynan kriptovalyutalar orqali sotiladi.

Ushbu maqolani tayyorlash jarayonida quyidagi ilmiy tadqiqot metodlari qo'llanildi: Statistik ma'lumotlar tahlili (Chainalysis, Statista, Europol hisobotlari). Amaliy kripto jinoyat ishlarining huquqiy tahlili. Qonunchilik bazasi (AQSh, Yevropa Ittifoqi, O'zbekiston misolida) solishtirma tahlil. Ekspert fikrlariga tayanilgan kontent tahlili. Tadqiqot asosan 2020-2024-yillar oralig'idagi ochiq manbalardan olingan ma'lumotlar asosida olib borildi.

Tadqiqot natijalari. Ushbu tadqiqot doirasida kriptoaktivlar ishtirokida sodir etilayotgan transmilliy jinoyatlarning shakllanish omillari, huquqiy nomuvofiqliklar va kiberxavfsizlik tahdillari chuqur o'rganildi. Quyida tadqiqot asosida erishilgan asosiy natijalar tartib bilan yoritiladi¹.

1-jadval.

Kriptoaktivlar ishtirokidagi jinoyatlarning ko'payish tendensiyasi (2018–2023 yillar)

Yil	Transmilliy kriptojinoyatlar soni (dunyo miqyosida)	Kiberhujumlar soni (kriptoaktivlarga nisbatan)
2018	1 120	2 304
2019	1 450	3 210
2020	2 390	4 875
2021	3 740	6 410
2022	4 820	7 980
2023	5 610	9 115

Izoh: Manbalar – Chainalysis, UNODC, Europol hisobotlari. Ma'lumotlar global miqyosda ro'y bergan kriptojinoyatlar sonini aks ettiradi. 2018-2023-yillar davomida kriptoaktivlar orqali amalga

oshirilgan transmilliy jinoyatlar soni 5 baravarga ortgan². Bu o'sish tendensiyasi kriptoaktivlar tartibga solinmagan yoki sust nazorat qilinayotgan hududlarda yuqoriroq bo'lgan.

2-jadval.

So'rov va huquqiy tahlil natijalariga ko'ra, quyidagi davlatlarda kriptoaktivlarga oid tartibga solish darajasi (2024-yil holatiga) quyidagicha³:

Davlat	Kriptoaktivlar tartibga solish holati	FATF standartlariga muvofiqlik (%)
AQSH	O'rta darajada, turli shtatlarga bo'linadi	88%
Buyuk Britaniya	Yaxshi rivojlangan, markazlashtirilgan	92%
Rossiya	Cheklovlar mavjud, ba'zida noaniqlik	61%
Janubiy Koreya	Raqamli aktivlar maxsus qonun bilan tartibga solingan	95%
O'zbekiston	Yangi qonunchilik shakllanmoqda	70%

Kriptoaktivlar tartibga solinmagan yoki chalkash qonunchilik mavjud bo'lgan davlatlarda jinoyat ko'rsatkichlari yuqori⁴. Xalqaro standartlarga mos keluvchi tizimga ega davlatlarda esa kriptojinoyatlar ancha nazorat ostida.

Tadqiqot doirasida aniqlanishicha, kriptoaktivlar bilan bog'liq asosiy kiberxavfsizlik tahdillari quyidagilardan iborat⁵:

- Fishing hujumlar: Soxta platformalar orqali foydalanuvchi ma'lumotlarini o'g'irlash – umumiy hujumlarning 38% ini tashkil etadi.
- Ransomware (garov dasturlar): Jinoyatchilar kriptoto'lov evaziga ma'lumotlarni "qulfdan chiqarish"ni va'da qiladi – 27%.
- Exchange platformalariga xakerlik: Eng katta moliyaviy zarar yetkazadigan tahdid – 21%.
- Ponzi va piramida sxemalari: Yolg'on investitsion platformalar orqali foydalanuvchilarni aldash – 14%.

Kiberjinoyatlarning katta qismi foydalanuvchilarning axborot savodxonligi pastligi va platformalar ustidan tartibga soluvchi nazorat mexanizmlarining yetarli emasligi bilan bog'liq.

Yuristlar, moliyaviy monitoring mutaxassislari va IT xavfsizlik ekspertlari bilan o'tkazilgan suhbatlar asosida quyidagi fikrlar aniqlandi:

- Ko'pchilik mutaxassislar tartibga solishdagi huquqiy bo'shliqlar jinoyatchilarga keng imkoniyatlar berayotganini tasdiqladi.
- Kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash va xalqaro axborot almashinuvi tizimlarini joriy etish zarur.
- Aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish jinoyatlar sonining kamayishiga olib keladi.

Quyidagi kontseptual model asosida shunday xulosa qilindi: Kriptojinoyatlar darajasi to'g'ridan-to'g'ri tartibga solish darajasi va FATF standartlariga muvofiqlik bilan teskari bog'liqdir. Ya'ni,

¹ Chainalysis (2023). Crypto Crime Report: The 2023 edition. <https://www.chainalysis.com/reports/2023-crypto-crime-report/>.

² UNODC (United Nations Office on Drugs and Crime). Cybercrime and Cryptocurrency Threats (2022). <https://www.unodc.org>.

³ Transmilliy jinoyatlarning shakllari va tahdillari bo'yicha tahliliy material. FATF (Financial Action Task Force). Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and VASPs (2021). <https://www.fatf-gafi.org>.

⁴ Kriptoaktivlar tartibga solinishidagi davlatlar o'rtasidagi tafovutlar va FATF standartlariga muvofiqlik. Europol (2022). Internet Organised Crime Threat Assessment (IOCTA). <https://www.europol.europa.eu>.

⁵ Kiberjinoyatlar, ransomware, phishing, va boshqa tahdidlar haqida tahliliy hisobot. OECD (2021). Taxing Virtual Currencies: An Overview of Tax Treatments and Emerging Tax Policy Issues. <https://www.oecd.org>

qonunchilik qanchalik aniq va qat'iy bo'lsa, jinoyatlar soni shuncha kam bo'ladi.

Kripto jinoyatlar global miqyosda yildan-yilga oshib bormoqda. Masalan, 2021-yildan 2023-yilgacha faqat ransomware jinoyatlar soni 60% ga oshdi. Pul yuvishda kriptovalyutalar asosiy vosita sifatida ishlatilayotgan holatlar AQSh Federal Tergov Byurosi (FBI) tomonidan qayd etilgan. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati 2023-yilda 1 million AQSh dollariga teng noqonuniy kripto aktivlarni musodara qilgan. Xalqaro tashkilotlar, xususan, FATF (Financial Action Task Force), kripto aktivlar orqali jinoyatlarni aniqlash va oldini olish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqqan. Aholining kripto xavfsizligi haqida xabardorligi yetarli emasligi sababli firibgarlik qurbonlari soni ortmoqda.

Yuqoridagi ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kripto jinoyatlari — bu nafaqat texnologik, balki huquqiy va ijtimoiy muammo hisoblanadi. Ushbu jinoyatlarga qarshi samarali kurashish uchun davlatlar o'rtasida huquqiy muvofiqlashtirish, blokcheyn asosidagi nazorat mexanizmlari joriy etilishi, va aholining xabardorligini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, jinoyatchilarning faoliyatini kuzatib borishda sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish istiqbolli yechimlardan biri sifatida qaralmoqda.

Muhokama. Ushbu tadqiqotda aniqlangan natijalar kriptoaktivlar bilan bog'liq transmilliy jinoyatlar o'sib borayotganini, bu jarayon global xavfsizlikka tahdid solayotganini hamda mavjud huquqiy-institutsional tizimlar bu xavflarni samarali nazorat qila olmayotganini ko'rsatdi. Kirish qismida ilgari surilgan gipotezaga ko'ra, agar kriptoaktivlar bilan bog'liq huquqiy bazalar xalqaro miqyosda uyg'unlashtirilsa, tartibga solishning yagona yondashuvi ishlab chiqilsa va kiberxavfsizlik choralari samaradorligi oshirilsa, transmilliy jinoyatlar salmog'i kamayadi. Ushbu gipoteza olingan natijalar bilan qisman tasdiqlandi.

Birinchidan, natijalar shuni ko'rsatdiki, tartibga solish darajasi yuqori bo'lgan davlatlarda (masalan, Buyuk Britaniya, Janubiy Koreya) kripto jinoyatlarning nisbiy darajasi past, bu esa yuridik asos va nazorat mexanizmlarining kuchli bo'lishi jinoyatchilar harakatini cheklab turishini bildiradi. Aksincha, qonunchilik noaniq yoki zaif bo'lgan davlatlarda (masalan, Rossiya, ba'zi rivojlanayotgan davlatlar) jinoyat ko'rsatkichlari yuqori bo'lib qolmoqda. Bu holat FATF tavsiyalariga mos kelmaydigan siyosat yuritish global xavfsizlik nuqtai nazaridan xatarli ekanini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, kiberxavfsizlik bilan bog'liq tahdidlar (xususan, fishing, ransomware, xakerlik) kriptoaktivlar muhitining zaif nuqtalaridan biri bo'lib qolmoqda. O'zbekiston tajribasi asosida aytish mumkinki, tartibga solish borasida qadamlar tashlanayotgan bo'lsa-da, texnik infratuzilma, axborot xavfsizligi siyosati va foydalanuvchilar savodxonligi borasida hali jiddiy ishlar talab etiladi.

Uchinchidan, o'tkazilgan ekspert suhbatlari shuni ko'rsatdiki, aksariyat mutaxassislar kriptoaktivlar bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlashda davlatlararo axborot almashinuvi va yagona tartibga soluvchi mexanizmlar yetishmasligini asosiy muammo sifatida qayd etishgan. Bu esa faqat milliy darajadagi emas, balki xalqaro miqyosdagi huquqiy integratsiya muhimligini ta'kidlaydi.

Tadqiqot davomida yuzaga chiqqan ba'zi muammolar ham alohida e'tiborga loyiq: statistika va ochiq ma'lumotlarning yetishmasligi, ayniqsa O'zbekiston kabi davlatlarda kriptoaktivlar bo'yicha ochiq, ishonchli raqamli ma'lumotlar bazasi mavjud emas. Ba'zi davlatlarda huquqiy atamalar, masalan, "virtual aktiv", "kriptovalyuta", "token", "raqamli mulk" tushunchalari bir-biridan farqlanmaydi, bu esa sud va tergov jarayonlarini murakkablashtiradi. Aholining ko'p qismi hali ham raqamli moliyaviy savodxonlik darajasi pastligicha qolmoqda, bu esa firibgarliklar va kiberhujumlarga nisbatan zaiflikni oshiradi.

Shu o'rinda yangi gipoteza ilgari surish mumkin: agar kriptoaktivlar bilan bog'liq jinoyatlarni oldini olishda texnik, huquqiy va axborot-kommunikatsion yondashuvlar integratsiyasi ta'minlansa, transmilliy xavflar keskin kamayadi.

Bu gipoteza amaliyotda axborot texnologiyalari sohasidagi islohotlar, kriptoaktivlar infratuzilmasini mustahkamlanishi, xalqaro sheriklik va nazorat mexanizmlarining uyg'unlashuvi orqali sinovdan o'tkazilishi mumkin.

Kripto jinoyatlaridagi muammolar va ularga nazariy yechimlar. Kriptovalyutalar zamonaviy moliyaviy tizimda inqilobiy yangilik sifatida namoyon bo'lgan bo'lsa-da, ular bilan bog'liq jinoyatlar jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Birinchi va eng muhim muammo — kriptovalyutalarning anonimligidir. Tranzaksiyalar blokcheyn orqali

ochiq ko'rinishda bo'lsa-da, foydalanuvchi shaxsini aniqlash deyarli imkonsiz. Bu jinoyatchilar uchun qulay muhit yaratadi. Ayniqsa, "mixers" va "tumblers" kabi xizmatlar orqali tranzaksiyalar izini butunlay yo'qotish mumkin.

Ikkinchi muammo — global tartibga solishdagi farqlar. Har bir davlatning kriptovalyutalarga yondashuvi turlicha: ayrimlar uni qonuniy to'lov vositasi deb tan olsa, boshqalari butunlay taqiqlaydi yoki umuman tartibga solmaydi. Bu esa jinoyatchilarga bir davlatdan ikkinchisiga oson o'tib, qonundan yashirinish imkonini beradi. Kripto jinoyatlar bilan bog'liq ishlar tez-tez xalqaro yurisdiksiya ziddiyatlariga olib keladi.

Uchinchi muammo — aholining past savodxonligi. Ko'p hollarda fuqarolar firibgarlik sxemalariga o'zlari bilmagan holda aralashib qoladilar. Soxta kripto loyihalar, "get-rich-quick" tokenlar va NFT firibgarliklari odamlarning mol-mulkini yo'qotishiga sabab bo'lmoqda. To'rtinchi muammo esa — huquqni muhofaza qiluvchi organlarning texnologik jihatdan ortda qolayotganligidir. Ko'plab tergovchilar va moliyaviy nazoratchilar hali kripto texnologiyalarini to'liq tushunmaydi.

Nazariy yechimlar. Bu muammolarni bartaraf etish uchun bir nechta nazariy asoslangan yondashuvlarni taklif etish mumkin: Global qonunchilik muvofiqligi: Birlashgan Millatlar Tashkiloti, FATF kabi xalqaro tashkilotlar ishtirokida kripto aktivlarga oid yagona xalqaro standartlar ishlab chiqilishi kerak. Bu barcha davlatlarda yagona yondashuvni kafolatlaydi. Real vaqtli monitoring tizimlari: Blokcheyn asosida yaratilgan tranzaksiyalarni real vaqtda kuzatuvchi va potentsial jinoyatlarni oldindan aniqlovchi algoritmlar ishlab chiqilishi kerak. Sun'iy intellekt va mashinaviy o'rganish bu borada katta yordam beradi. Kripto savodxonligini oshirish: Maktablarda, universitetlarda va ommaviy axborot vositalarida kripto xavfsizlik va firibgarlikdan himoyalash bo'yicha muntazam ta'lim kampaniyalari olib borilishi kerak. Texnologik salohiyatni kuchaytirish: Huquqni muhofaza qiluvchi organlar zamonaviy texnologiyalar bilan ishlashni o'rganishi va raqamli forensika bo'yicha malakali mutaxassislarni jalb qilishi lozim.

Umuman olganda, mazkur tadqiqot kriptoaktivlar muhitining nafaqat moliyaviy, balki huquqiy va xavfsizlik jihatidan murakkab tizim ekanini ko'rsatdi. Olingan natijalar amaliyotda quyidagicha qo'llanishi mumkin: Milliy qonunchilikni xalqaro tajribaga asoslangan holda takomillashtirish; markaziy bank va moliyaviy monitoring idoralari tomonidan kriptoaktivlar aylanishini real vaqt rejimida nazorat qilish mexanizmini ishlab chiqish; kiberxavfsizlik sohasida ixtisoslashgan institutlar bilan hamkorlikda axborot almashish tizimini yaratish; aholi o'rtasida raqamli moliyaviy savodxonlikni oshirishga qaratilgan ommaviy ta'lim dasturlarini joriy etish.

Xulosa. Kripto jinoyatlar zamonaviy texnologiyalar taraqqiyoti bilan yuzaga kelgan murakkab va ko'p qirrali ijtimoiy-huquqiy muammodir. Raqamli valyutalarning markazlashmagan, ismsiz va tezkor tabiati ularni moliyaviy operatsiyalar uchun qulay vositaga aylantirgani holda, jinoyatchilar uchun ham yangi imkoniyatlar eshigini ochdi. Ayniqsa, kriptovalyutalar orqali amalga oshirilayotgan pul yuvish, kiberhujumlar, darknet savdolari va investitsion firibgarliklar global miqyosda xavotirli darajaga yetmoqda. Mavjud qonunchilik bazalarining zaifligi, davlatlar o'rtasidagi huquqiy nomuvofiqliklar, xalqaro hamkorlikning sustligi va huquqni muhofaza qiluvchi tuzilmalarning texnologik tayyorgarlik darajasining pastligi vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, kripto jinoyatlar soni yil sayin ortib bormoqda, bu esa ularni oldini olish va nazorat qilish mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini tug'diradi. Muammoni hal etish uchun nazariy jihatdan bir nechta yechimlar taklif etildi: global darajadagi yagona qonunchilik asoslarini ishlab chiqish, sun'iy intellekt asosida tranzaksiyalarni avtomatik monitoring qilish, kripto savodxonlikni oshirish va kiberxavfsizlik infratuzilmasini mustahkamlash. Shuningdek, blokcheyn texnologiyasining o'ziga xos xususiyatlaridan — ya'ni shaffoflik va o'zgarmaslik prinsiplari — huquqni muhofaza qilish sohasida foydalanish imkoniyatlarini chuqur o'rganish lozim. Faqat keng qamrovli, tizimli va xalqaro miqyosdagi yondashuvlarga kripto jinoyatlar bilan samarali kurashish imkonini beradi. Bu esa nafaqat milliy xavfsizlik, balki xalqaro moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. O'zbekiston sharoitida esa kriptovalyutalarning qonuniy maqomi, ularni tartibga solish mexanizmlari va nazorat texnologiyalarining integratsiyasi bo'yicha kompleks strategiyalar ishlab chiqilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, kripto jinoyatlari insoniyat oldida turgan eng yangi xavf-xatarlardan biridir. Ularning oldini olish va nazorat

qilishda faqatgina texnologik emas, balki huquqiy, ijtimoiy va ma'naviy omillarni ham hisobga olgan holda harakat qilish lozim. Hozirgi bosqichda bu masala bo'yicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar va xalqaro tajribalar asosida mustahkam yechimlar ishlab chiqish zarurati tobora ortmoqda.

Ushbu tadqiqot orqali raqamli iqtisodiyotning ajralmas qismi bo'lib borayotgan kriptofinanslarning transmilliy jinoyatlarda tobora ko'proq qo'llanilayotgani aniqlangan bo'lib, bu holat global huquqiy muhit va kiberxavfsizlik tizimlariga jiddiy chaqiriqlarni yuzaga keltirmoqda.

Tadqiqot natijalaridan quyidagi asosiy xulosalarni ajratib ko'rsatish mumkin: kriptofinanslar soni keskin o'smoqda — ayniqsa 2018–2023 yillar davomida kriptofinanslar orqali amalga oshirilgan transmilliy jinoyatlar 5 baravarga ortgan. Bu o'sish jinoyatchilar uchun zamonaviy texnologiyalarning ochiqligi va tartibga solishdagi nomuvofiqliklardan foydalanish imkonini yaratmoqda. Huquqiy nomuvofiqliklar jinoyatlarni qulaylashtirmoqda — davlatlar orasida kriptofinanslarga nisbatan yondashuvlarning turlicha bo'lishi, ayrim hududlarda qonunchilikning mavjud emasligi yoki aniq bo'lmazligi, xalqaro hamkorlikni qiyinlashtiradi va jinoyatchilar uchun “huquqiy bo'shliqlar”ni yuzaga keltiradi. kiberxavfsizlik tahdidlari kuchaymoqda — fishing, xakerlik, ransomware kabi xurujlar orqali foydalanuvchilarning aktivlari o'g'irlanmoqda, bu esa raqamli ishonch va moliyaviy barqarorlikka jiddiy zarar yetkazmoqda. Axborot

savodxonligi va texnik infratuzilma zaifligi jinoyatlarga zamin yaratmoqda — foydalanuvchilar raqamli moliya sohasida yetarli bilimga ega emasligi va davlat tomonidan samarali texnik monitoring vositalarining yo'qligi jinoyatlarning oldini olishni qiyinlashtirmoqda.

Mazkur xulosalarga asoslangan holda quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Xalqaro huquqiy hamkorlikni kuchaytirish — FATF va boshqa xalqaro moliyaviy institutlar bilan uyg'unlashgan yondashuvlar asosida kriptofinanslar bo'yicha yagona tartibga solish modeli ishlab chiqilishi zarur.

Milliy qonunchilikni yangilash va aniqlashtirish — O'zbekiston qonunchiligida “raqamli aktivlar”, “kriptovalyuta”, “virtual xizmat ko'rsatuvchilar” tushunchalari va ularning huquqiy maqomi aniq belgilanishi kerak.

Kiberxavfsizlik strategiyasini ishlab chiqish — kriptofinanslar bilan bog'liq texnologik infratuzilmani himoya qilish uchun maxsus monitoring va xavfsizlik tizimlari yaratilishi kerak.

Axborot-savodxonlik kampaniyalarini kengaytirish — aholining raqamli moliyaviy savodxonligini oshirish bo'yicha muntazam o'quv kurslari, ommaviy axborot vositalari orqali targ'ibot ishlari olib borilishi lozim.

Monitoring va audit tizimlarini joriy etish — kriptofinanslar aylanishini real vaqt rejimida kuzatuvchi nazorat platformalarini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chainalysis. (2023). Crypto Crime Report 2023. <https://www.chainalysis.com/reports>.
2. FATF. (2021). Updated Guidance for a Risk-Based Approach to Virtual Assets and Virtual Asset Service Providers. <https://www.fatf-gafi.org>.
3. Europol. (2022). Internet Organized Crime Threat Assessment (IOCTA). <https://www.europol.europa.eu>.
4. Nakamoto, S. (2008). Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. <https://bitcoin.org/bitcoin.pdf>.
5. Tapscott, D., & Tapscott, A. (2016). Blockchain Revolution: How the Technology Behind Bitcoin Is Changing Money, Business, and the World. Penguin Publishing.
6. Catalini, C., & Gans, J. S. (2016). Some Simple Economics of the Blockchain. MIT Sloan Research Paper No. 5191-16.
7. Böhme, R., Christin, N., Edelman, B., & Moore, T. (2015). Bitcoin: Economics, Technology, and Governance. Journal of Economic Perspectives, 29(2), 213–238.

8. UNODC. (2020). Cryptocurrencies and the Dark Web: Challenges for Law Enforcement. <https://www.unodc.org>.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PQ–221-son qarori — Kripto-aktivlar aylanmasini tartibga solish chora-tadbirlari to'g'risida.
10. O'zbekiston Respublikasi “Axborot xavfsizligi to'g'risida”gi Qonuni, 2019-yil.
11. “O'zbekiston 2030” strategiyasi. (2023). <https://strategy.gov.uz>
12. Karimova, N. (2023). Kriptofinanslar bozorini huquqiy tartibga solish: xalqaro tajriba va O'zbekiston amaliyoti. // “Yuridik fanlar” jurnali.
13. Axmedov, S. (2023). Kriptofinanslar va raqamli moliya xavfsizligi. // “Axborot texnologiyalari” ilmiy jurnali.
14. Adliya vazirligi huzuridagi Huquqiy siyosat tadqiqot instituti. (2023). Raqamli jinoyatchilik bo'yicha sharhlar.
15. Interpol. (2022). Cryptocurrency Investigations: A Guide for Law Enforcement. <https://www.interpol.int..>



TURKIY XALQLAR JAMIYATIDA HARBIY TARBIYA KO'RINISHLARI

Vositjon Xudoyberdiyev

Qo'qon universiteti mustaqil tadqiqotchisi

vositjonxudoyberdiyev@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 36 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1216 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Turkiy xalqlar tarixi – jangovorlik, jasorat va vatanga sadoqat kabi qadriyatlar bilan boy. Ular jamiyatida harbiy tayyorgarlik faqat harbiy mashg'ulotlar yoki urush bilan bog'liq bo'lmagan, balki ko'p asrlik madaniy, axloqiy va pedagogik an'analarning ajralmas qismi hisoblangan. Harbiy tarbiya keng ma'noda vatanni himoya qilish, milliy o'zlikni anglash, iroda va fidoyilikni shakllantirishga qaratilgan tarbiyaviy jarayondir. Mazkur maqolada qadimgi va o'rta asr turkiy xalqlarda harbiy tarbiyaning shakllanishi, uning tarkibiy qismlari, madaniy va pedagogik asoslari, shuningdek, bugungi kundagi dolzarbli ilmiy manbalar va tarixiy dalillar asosida tahlil qilinadi.
Turkiy xalqlar, harbiy tarbiya, vatanparvarlik, qadimiy tarbiya tizimi, harbiy-ma'naviy qadriyatlar, jamiyat, doston, xalq og'zaki ijodi, O'rxun-Enasoy bitiklari, milliy ong, yoshlar tarbiyasi, tarixiy-pedagogik tahlil, axloq, jasorat, fidoyilik.	

Kirish. Turkiy xalqlarning ko'p asrlik tarixiy taraqqiyotida harbiy tarbiya alohida o'rin egallagan. Bu xalqlarning yashash muhitidan kelib chiqqan holda, hayoti ko'pincha tabiiy resurslar, yaylovlar, suv yo'llari va savdo yo'llari ustidan nazorat o'rnatishga qaratilgan bo'lib, doimiy harbiy tayyorgarlik holatini talab qilgan. Ayniqsa, ko'chmanchi ijtimoiy tuzumga ega turkiy jamiyatlar uchun jangovar tayyorgarlik va harbiy madaniyat shunchaki zarurat emas, balki hayot falsafasining o'zagi, milliy tafakkur va an'analarning ajralmas qismi sifatida shakllangan. Turkiy xalqlarning harbiy tarbiyasi faqat jangda yengish uchun emas, balki yosh avlodni jismonan chiniqtirish, ruhiy jihatdan bardam etish, ma'naviy-axloqiy fazilatlar bilan boyitish, ularni jamiyat oldidagi burchini anglashi va bajarishga yo'naltirishga qaratilgan murakkab tizim bo'lgan. Bu tizim xalq og'zaki ijodi, yozma manbalar, etnografik materiallar va tarixiy hujjatlar orqali bizgacha yetib kelgan. Xususan, "O'rxun-Enasoy bitiklari", "Qutadg'u bilig", "Devonu lug'otit-turk" kabi nodir asarlarda harbiy g'oya, vatanparvarlik, jasorat, sadoqat va ijtimoiy mas'uliyatning turli ko'rinishlari aks etgan. Shuningdek, turkiy xalqlarning harbiy tarbiyasi o'ziga xos ijtimoiy institut sifatida shakllangan bo'lib, u oiladan boshlanib, urug', qabila va el darajasiga ko'tarilgan. Harbiy tarbiya nafaqat jismoniy tayyorgarlikni, balki estetik did, axloqiy me'yor, psixologik barqarorlik va strategik tafakkurni rivojlantirishga xizmat qilgan. Yoshlar orasida harbiy sinovlar, kurashlar, ot chopish, qilichbozlik, kamondorlik kabi amaliy mashqlar va urf-odatlar orqali vatanparvarlik tuyg'usi shakllantirilgan. Bu orqali jamiyatda intizom, birdamlik, liderlik fazilatlarini, eng asosiysi esa o'z xalqiga sadoqat ruhi mustahkamlangan. Bugungi globalashuv va madaniy merosga qayta nazar tashlash davrida, turkiy xalqlarning harbiy tarbiya tizimi – ularning madaniy xotirasi, milliy g'ururi va tarbiyaviy resursi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu bois, tarixiy-pedagogik manbalarni chuqur tahlil etgan holda, turkiy jamiyatlardagi harbiy tarbiya ko'rinishlarini ilmiy asosda o'rganish, uni zamonaviy tarbiyaviy jarayonlarga uyg'unlashtirish zaruriyati mavjud.

Adabiyotlar tahlili. Turkiy yozma yodgorliklar ichida O'rxun-Enasoy bitiklari (VIII asr) harbiy g'oya va davlatparvarlik tafakkurining dastlabki manbasi sifatida muhim ahamiyatga ega. Bu bitiklarda Bilga Xoqon va Kultegin singari harbiy arboblarning faoliyati, jasorati, xalq oldidagi burchi ulug'lanadi. Bitiklarda shunday satrlar bor: "Yov kelganda otga mindim, elimni saqladim, tinchlik olib keldim." Bu satrlar turkiy xalqlarda harbiy tarbiyaning siyosiy, ma'naviy va axloqiy omillarga asoslanganini ko'rsatadi. Yusuf Xos Hojibning "Qutadg'u bilig" asarida esa harbiy axloq, davlat boshqaruvi va askarlik burchi haqida chuqur fikrlar ilgari surilgan. Muallif askar va amir fazilatlarini haqida so'z yuritir ekan, ularning bilimlari, sabrli, fidoyi bo'lishini ta'kidlaydi. Bu asar o'rta asr sharq pedagogikasida harbiy-siyosiy tarbiyaning asosiy qadriyatlarini ifodalaydi. Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida esa ko'plab harbiy termin va iboralar keltirilib, o'sha

davrdagi harbiy-ma'naviy hayotga oid axborotlar beriladi. Ayniqsa, urush san'ati, otliq qo'shin, o'q-yoy, bahodirlik kabi tushunchalar izohlangan.

Turkiy xalqlarning xalq og'zaki ijodi, ayniqsa epik dostonlar – "Alpomish", "Go'ro'g'li", "Manas" harbiy tarbiyaning axloqiy-ma'naviy asoslarini yosh avlodga yetkazishda pedagogik vosita sifatida xizmat qilgan. Tadqiqotchi G. N. Potanin o'zining *Turk-mongol xalqlari dostonlari* to'plamida bu dostonlarda o'z aksini topgan jasorat, fidoyilik, vatan sadoqati g'oyalarini xalq pedagogikasining muhim qismi deb baholagan. H. Karomatov "O'zbek xalqining harbiy an'analari" asarida xalq og'zaki ijodida namoyon bo'lgan jangovar urf-odatlar, harbiy axloq va urush odobi haqida ma'lumot beradi. Unga ko'ra, o'zbeklar orasida yoshlikdan jangga tayyorlash – bu faqat jismoniy mashq emas, balki butun jamiyat ongini shakllantiruvchi madaniy hodisadir. A. Mahmudov o'zining "Turkiy xalqlar va ularning harbiy madaniyati" nomli fundamental tadqiqotida qadimdan to' o'rta asr oxirigacha bo'lgan harbiy tashkilotlar, qo'shin tuzilmalari, harbiy lavozimlar, va ularning tarbiyaviy-funksional ahamiyatini o'rganadi. Muallif ta'kidlaydi, turkiy xalqlarda harbiy tarbiya bir necha bosqichli, amaliyotga asoslangan va axloqiy mezonlar bilan uyg'un bo'lgan. M. Qayumov esa o'zining "Jasorat va sadoqat timsollari" asarida harbiy shaxs timsolini pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilib, bu obraz yoshlar ongida ideal tizimini shakllantiruvchi vosita ekanligini ta'kidlaydi. Uningcha, bugungi vatanparvarlik tarbiyasini shakllantirishda tarixiy qahramonlar obrazini to'g'ri talqin qilish muhim vositadir. N.A.Baskakov turkiy xalqlar tili va tarixiy tafakkuridagi harbiy terminologiyani tahlil qilar ekan, bu terminlar orqali jamiyatdagi ijtimoiy rollar, ayniqsa askarlik va bahodirlik tushunchasi qanday shakllanganini ko'rsatadi. Bu, albatta, harbiy tarbiyaning tilshunoslik va madaniyatshunoslikdagi ahamiyatini ochib beradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Harbiy tarbiyaning shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillar, tarbiyaviy vositalar va uning madaniy kontekstdagi o'rni bir necha metodik yondashuvlar orqali aniqlashtirildi:

Manbashunoslik tahlil. Bu tahlil orqali qadimiy turkiy yozma manbalar – O'rxun-Enasoy bitiklari, "Qutadg'u bilig" va "Devonu lug'otit turk" asarlari tahlil qilindi. Jumladan, O'rxun bitiklarida "Elimni saqladim, yurtimni asradim" kabi ifodalar orqali harbiy xizmat xalq va yurtidan qarzdorlik tuyg'usi bilan bog'langanini ko'rish mumkin. "Qutadg'u bilig"da esa sarkarda yoki davlat arbobida bo'lishi lozim bo'lgan fazilatlar – jasorat, donolik, adolat, sabr-toqat – alohida urg'u bilan ta'kidlanadi. Mahmud Qoshg'ariy esa "alp" va "er" kabi tushunchalarni "bahodir, vatanparvar, el manfaatini himoya qiluvchi" shaxslar sifatida izohlab, harbiy fazilatlarining til birliklarida ham o'z ifodasini topganini ko'rsatadi.

Etnopedagogik yondashuv. Yondashuv yordamida turkiy xalqlarning og'zaki ijodi, urf-odatlarini va an'anaviy marosimlari tahlil

qilindi. "Alpomish" dostonida qahramonning yoshligidan ot minish, kamon otish, kurashish kabi ko'nikmalarni egallashi, uning jasoratli shaxs sifatida shakllanishiga zamin yaratadi. "Manas" dostonida esa qahramon o'z urug'ining g'ururini himoya qiluvchi bahodir sifatida tasvirlanadi. Bu obrazlar orqali yosh avlodga ideal shaxs modeli – jasur, vafodor, elparvar inson namunasi taqdim etiladi. Shuningdek, xalq o'yinlari – masalan, "ot chopish", "kurash", "ovga chiqish" – bolalar va o'smirlarni jismoniy chiniqtirish, iroda, jasorat, tezkorlik kabi fazilatlarini shakllantirishda xizmat qilgan.

Tarixiy-qiyyosiy metod. Metod orqali turkiy xalqlardagi harbiy tarbiya tizimi boshqa qadimiy sivilizatsiyalar – xitoy, fors va arab xalqlari harbiy tarbiyasi bilan solishtirildi. Masalan, Sun Dzu asarlarida xitoy askarlarida tartib-intizom va strategik fikrlashga urg'u berilgan bo'lsa, turkiy xalqlarda harbiy tarbiya shaxsiy jasorat, tashabbuskorlik, or-nomus va el manfaatiga sodiqlik kabi qadriyatlar atrofida shakllangan. Zardushtiylikdagi "ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal" tamoyili esa turkiy madaniyatda "el uchun jon berish" g'oyasi bilan uyg'unlashgan holda namoyon bo'lgan.

Kontent-analiz usuli. Usul yordamida yozma manbalarda uchraydigan asosiy tushunchalar – "bahodir", "alp", "el uchun jon berish", "or-nomus", "urug' sha'nini himoya qilish" – mazmunan tahlil qilindi. Ushbu tushunchalar orqali qadimgi jamiyatda harbiy tarbiya individual shaxs kamoloti bilan birga jamoaviy mas'uliyatni anglatganini ko'rish mumkin. Masalan, "El uchun jon bergan alp o'lmaydi" kabi maqollar xalq ongida harbiy xizmatni abadiy faxrli meros sifatida talqin qilganini tasdiqlaydi.

Mazkur metodologik yondashuvlar orqali turkiy xalqlarda harbiy tarbiyaning ko'p bosqichli, murakkab va ijtimoiy-madaniy hayot bilan chambarchas bog'liq tizim bo'lib shakllangani isbotlandi. Ushbu yondashuvlar harbiy tarbiyaning nafaqat tarixiy mohiyatini ochib berishga, balki uni zamonaviy pedagogik amaliyotda qayta talqin qilish imkoniyatlarini ham belgilashga xizmat qildi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalari turkiy xalqlar jamiyatida harbiy tarbiya qadimdan boshlab an'anaviy, og'zaki va rasmiy vositalar orqali amalga oshirilgan murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim bo'lganini ko'rsatdi. Bu tizimning asosiy ko'rinishlari quyidagicha aniqlashtirildi:

Oilaviy-hayotiy ko'rinishlar. Harbiy tarbiya oilada boshlanib, bolalikdan boshlab shaxsning jasorat, mardlik, sabr-toqat, kattalarga hurmat va el manfaatiga sodiqlik kabi fazilatlar asosida shakllangan. Ota-bobalar o'z hayoti, urush va himoya haqidagi hikoyalari orqali bolalarga ibrat bo'lgan. Masalan, Alpomishning otasi Boybo'ri tomonidan "bahodir bo'lish uchun avval sabrli bo'l" degan pand-nasihatlar oilaviy tarbiyaning ahamiyatini ko'rsatadi.

Og'zaki ijodiy va epik ko'rinishlar. Dostonlar, rivoyatlar, maqollar, afsonalar harbiy fazilatlarini shakllantirishning muhim vositasi bo'lgan. "Alpomish", "Manas", "Go'ro'g'li" kabi epik qahramonlar orqali yosh avlod jasorat, vafodorlik, elparvarlik ruhida tarbiyalangan. "El uchun jon bergan alp o'lmaydi" maqoli xalq ongi va harbiy tarbiya g'oyasi qanday bog'langanini ko'rsatadi.

Jismoniy-mashqiy ko'rinishlar. Kurash, ot chopish, kamon otish, chavandozlik, ovga chiqish kabi faoliyatlar bolalarni jismoniy chiniqtirish bilan birga, harbiy hunarlarni o'rgatgan. Bu ko'rinishlar orqali bolalar urushga tayyorlanishgan, kuch, epcchilik, tezkorlik va bardoshlilik fazilatlarini egallashgan.

Marosim va urf-odatga asoslangan ko'rinishlar. Bahodirlar yetuklikka yetganida ularga maxsus urf-odatlar orqali rasmiy maqom berilgan. Masalan, qabilalarda qurol taqdim etish, tug' berish, ruxsat olish marosimlari orqali yoshlar jamiyat oldida rasmiy askar yoki himoyachi sifatida tan olingan. Bu esa harbiy tarbiyaning ijtimoiy tan olinishi va e'tirofi sifatida namoyon bo'lgan.

Ma'naviy-mafkuraviy ko'rinishlar. Turkiy xalqlarda harbiy tarbiya shunchaki amaliy tayyorgarlik emas, balki or-nomus, sha'n, el manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish g'oyalari bilan chuqur bog'liq bo'lgan. "Alp" yoki "bahodir" degan tushunchalar nafaqat jangchi, balki donishmand, halol va elparvar inson timsoli sifatida tushunilgan. Mahmud Qoshg'ariyning "alp – el uchun jon beruvchi" degan ta'rifi bu ko'rinishning til birliklarida ham mustahkam o'rnashganini ko'rsatadi.

Davlat-patrimonial ko'rinishlar. Qadimgi turkiy davlatlarda yoshlar uchun maxsus harbiy o'quv va tayyorgarlik maktablari mavjud bo'lgan. Masalan, G'arbiy Turk xoqonligi davrida yosh yigitlar "tug'chilar", "qarovullar" safida tarbiyalanib, keyinchalik katta askariy unvonlarga erishganlar. Bu esa harbiy tarbiyaning institutlashtirilgan shakli bo'lganiga dalildir.

Qiyosiy o'ziga xoslik. Turkiy xalqlarning harbiy tarbiya ko'rinishlari boshqa sivilizatsiyalarnikidan farq qilgan. Agar forslar va xitoylar harbiylilikni tartib, iyerarxiya va nazorat vositasi sifatida qaragan bo'lsa, turkiy xalqlarda bu, avvalo, shaxsiy jasorat, fidoyilik va or-nomus asosidagi ijtimoiy burch sifatida talqin etilgan.

Muhokama. Turkiy xalqlar jamiyatida harbiy tarbiya jamiyatning eng qadimiy va muhim ijtimoiy institutlaridan biri sifatida shakllanib, shaxsni nafaqat jangovar harakatlarga tayyorlash, balki uni vatanparvar, fidoyi, axloqiy yetuk inson sifatida kamol toptirishga yo'naltirilgan. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, bu tarbiya turi ko'p qatlamli va ko'rinishli bo'lib, oilaviy, og'zaki ijodiy, jismoniy, ma'naviy-mafkura, urf-odat va davlat darajasidagi institutlar orqali amalga oshirilgan.

Muhokama shuni ko'rsatadiki, turkiy xalqlarning harbiy tarbiya an'analari nafaqat bevosita urush va jangga tayyorgarlikni qamrab olgan, balki bu jarayon orqali jamiyatda axloqiy me'yorlarni mustahkamlash, shaxsning jamiyat oldidagi burchini anglashi, el-yurtga sadoqat bilan xizmat qilish tuyg'usini singdirishga xizmat qilgan. Harbiy tarbiyaning bu ko'rinishlari jamiyatning butun ijtimoiy tuzilmasi bilan uzviy bog'liq bo'lgan: oila bu jarayonning boshlang'ich nuqtasi bo'lsa, epik adabiyot va xalq og'zaki ijodi esa uning madaniy-ma'naviy asosini mustahkamlab borgan. Ayniqsa, epik obrazlar — **Alpomish, Manas, Go'ro'g'li** kabi qahramonlar harbiy tarbiyaning ideal modelini yaratgan. Bu obrazlarda faqat jismoniy kuch emas, balki sabr, donolik, so'zga sadoqat, do'stga vafa, elga xizmat kabi fazilatlar bosh mezon sifatida ilgari surilgan. Bu esa turkiy xalqlarda harbiy tarbiyaning asosiy maqsadi — kuchli jangchi emas, balki komil, halol va elparvar inson yetishtirish bo'lganini tasdiqlaydi. Boshqa sivilizatsiyalar bilan qiyosiy tahlil harbiy tarbiyaning o'ziga xos qirralarini ochib berdi. Masalan, Xitoy va fors jamiyatlarida harbiy tartib, intizom, iyerarxiya asosida tashkil etilgan bo'lsa, turkiy xalqlarda bu tizim **shaxsiy mas'uliyat, or-nomus va jamiyat manfaatiga sodiqlik** asosida shakllangan. Shu jihatdan turkiy harbiy tarbiya modeli milliy-ijtimoiy ruhiyatga tayangan, ichki ishonch va madaniy-milliy qadriyatlarga asoslangan bo'lgan. Yana bir muhim jihat — bu qadimiy an'analarning zamonaviylik bilan uyg'unligidir. Bugungi globallashtirish va axborot tahlilari sharoitida yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash muhim dolzarb vazifa bo'lib qolmoqda. Shu nuqtai nazardan, turkiy xalqlar harbiy tarbiyasining tarixiy tajribasi zamonaviy ta'lim va tarbiya tizimiga chuqur uyg'unlashtirilishi mumkin. Ayniqsa, yosh avlodga milliy g'urur, tarixiy xotira, or-nomus, ijtimoiy faollik va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishda bu qadriyatlar boy tarbiyaviy resurs bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Muhokamadan kelib chiqib, quyidagicha asosiy ilmiy-nazariy xulosalar yuzaga chiqadi:

- Turkiy xalqlarda harbiy tarbiya murakkab, an'anaviy va jamiyat bilan uyg'unlashgan tizim bo'lgan;
- Harbiy tarbiya ko'rinishlari og'zaki adabiyot, urf-odat, jismoniy tayyorgarlik va mafkuraviy tarbiya orqali amalga oshirilgan;
- Harbiy tarbiya shaxsni faqat jangga emas, balki jamiyat oldidagi burchni his qilishga tayyorlagan;
- Mazkur tarixiy an'analarda zamonaviy pedagogika uchun kuchli asos bo'la oladi.

Demak, harbiy tarbiyaning turkiy modeli bugungi kun yoshlari uchun ham axloqiy tayanish, milliy o'zlik va ijtimoiy javobgarlikni shakllantirishda muhim omil sifatida ko'rilmog'i zarur.

Xulosa va takliflar. Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, turkiy xalqlar jamiyatida harbiy tarbiya o'zining chuqur ildizli, madaniy-ma'naviy asoslari va ko'p qatlamli ko'rinishlari bilan ajralib turadigan murakkab ijtimoiy-pedagogik tizim bo'lgan. Bu tizim nafaqat jangovar tayyorgarlik vositasi, balki shaxsda jasorat, vatanparvarlik, elparvarlik, or-nomus va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga xizmat qilgan. Harbiy tarbiya turkiy xalqlarda oilaviy tarbiya orqali boshlanib, og'zaki adabiyot, epik obrazlar, jismoniy mashqlar, urf-odat va marosimlar orqali uzviy davom ettirilgan. Ayniqsa "Alpomish", "Manas" kabi epik dostonlarda bahodirlik obrazining mukammal ifoda etilishi ushbu tarbiya shaklining xalq ongi va ma'naviyatiga chuqur singib ketganini tasdiqlaydi. Shuningdek, turkiy xalqlarda harbiy tarbiya faqat kuch va texnikaga emas, balki axloqiy barkamollik, donolik, el manfaatini shaxsiy manfaatdan ustun qo'yish g'oyalarga tayangan. Bu esa turkiy xalqlarning harbiy tarbiya modelini boshqa sivilizatsiyalar tajribasidan farqlab turadi. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, harbiy tarbiya ko'rinishlari faqat tarixiy meros sifatida

emas, balki hozirgi yosh avlod tarbiyasida faol qo'llanilishi mumkin bo'lgan muhim resursdir. Milliy o'zlikni anglash, fuqarolik mas'uliyatini his etish, tarixiy xotirani mustahkamlash kabi vazifalarda ushbu meros beqiyos tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Mazkur natijalardan kelib chiqib, bir nechta amaliy va ilmiy-pedagogik takliflar ilgari suriladi. Avvalo, turkiy xalqlarning harbiy tarbiya tajribasini o'rganish va uni milliy ta'lim dasturlariga integratsiya qilish zarur. Maktab va oliy ta'lim muassasalarida epik obrazlar orqali harbiy axloq, or-nomus, vatanparvarlik kabi tushunchalarni talabalarga singdirish samarali yo'l bo'lishi mumkin. Shuningdek, milliy sport o'yinlari – kurash, kamon otish, chavandozlik – orqali harbiy jismoniy tayyorgarlik va vatanparvarlik g'oyalari birgalikda o'rgatish maqsadga muvofiq. Bundan tashqari, yoshlar siyosati doirasida tashkil etilayotgan

vatanparvarlik tadbirlarida tarixiy bahodirlar hayoti, urf-odatlar va marosimlar asosida shakllangan an'anaviy harbiy tarbiya elementlaridan faol foydalanish lozim.

Shu bilan birga, harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar sonini oshirish, ayniqsa turkiy xalqlarning madaniy merosi doirasida ilmiy seminar va anjumanlar o'tkazish, bu sohadagi ilmiy-nazariy asoslarni chuqurlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, tarixiy ildizlarga tayangan holda zamonaviy g'oyalarni ilgari surish – bu nafaqat tarbiya, balki milliy mustahkamlikning asosi hamdir. Shu bois, turkiy xalqlarning harbiy tarbiya ko'rinishlari, ularning mazmuni va qadriyatlari bugungi yoshlar ongini boyitishda, milliy g'urur va ijtimoiy mas'uliyatni shakllantirishda muhim omil sifatida e'tiborga olinishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Орхон-Енисей ёдгорликлари. – Таржимон ва шарҳловчи: Ҳайитметов А. – Т.: Фан, 1996.
2. Маҳмуд Қошғарий. *Девону луғотит турк*. 1-3 жилд. – Тошкент: Фан, 1960–1963.
3. Юсуф Хос Ҳожиб. *Қутадғу билиг*. – Тошкент: Ўқитувчи, 1990.
4. Ҳамидов А. *Аждодлар маданияти ва ҳарбий санъат*. – Т.: Ёзувчи, 1999.
5. Раҳмонов К. *Ўзбек халқ эпоси ва ватанпарварлик руҳи*. – Тошкент: Фан, 2004.
6. Қайюмов А. *Ўзбек халқ оғзаки ижодиётининг тарбиявий аҳамияти*. – Т.: Ўқитувчи, 1981.
7. Ашуров А. *Ўзбек халқ удумлари ва ҳарбий-мафкуравий тарбия*. – Тошкент: Маънавият, 2007.

8. Маҳмудов Н. *Жангчи халқнинг руҳий дунёси (туркийларнинг ҳарбий маданияти ҳақида)*. – Т.: Фан, 2005.
9. Тўхтамирзаев Ш. *Ўзбекистон тарихи (туркий давлатлар ва ҳарбийлашган жамиятлар)*. – Т.: Маънавият, 2012.
10. *Манас*. Қирғиз халқ эпоси. – Бишкек: Кыргызстан, 1995.
11. Аҳмедов Л. *Ҳарбий педагогика асослари*. – Тошкент: МО Қўролли кучлар академияси, 2018.
12. Назаров Қ. *Миллий ўзлик ва тарихий хотира масалалари*. – Тошкент: Фан, 2003.
13. Хушназаров И. *Тарбия назарияси ва методологияси*. – Т.: Маърифат, 2019.
14. Sun Tzu. *The Art of War*. – Translated by Samuel B. Griffith. – Oxford University Press, 1963.
15. Barthold V.V. *Turkestan Down to the Mongol Invasion*. – London: Luzac, 1928.



O'ZBEKISTONDA MASOFAVIY TA'LIM JARAYONIDA PEDAGOGIK KOMMUNIKATSIYA SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI

Xasanova Mohimbegim Raxmonjon qizi

Qo'qon universiteti ta'lim kafedrası o'qituvchisi

miss.mohim2002@gmail.com

+998910562612

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 37 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1217 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS masofaviy ta'lim, pedagogik kommunikatsiya, interaktivlik, o'zbek tilidagi resurslar, kommunikatsiya madaniyati	Ushbu maqolada O'zbekistonda masofaviy ta'lim tizimi doirasida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi pedagogik kommunikatsiyaning samaradorligini oshirish omillari kompleks tarzda tahlil qilingan. Asosiy e'tibor onlayn ta'lim jarayonlarida yuzaga keladigan muloqot shakllari, o'zaro axborot almashinuvi samaradorligi, interaktiv usullardan foydalanish imkoniyatlari, o'zbek tilidagi elektron ta'lim resurslarining sifati va ulardan foydalanish darajasi kabi jihatlariga qaratilgan. Shuningdek, pedagoglarning raqamli savodxonligi, zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish ko'nikmalari hamda masofaviy o'qitish jarayonida kommunikatsiya madaniyatida yuz berayotgan o'zgarishlar chuqur tahlil etilgan. Tadqiqotda masofaviy ta'limning sifatini oshirish, ishtirokchilarning o'zaro hamkorligini mustahkamlash hamda ta'lim jarayonini yanada samarali tashkil etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ham ilgari surilgan.

Kirish. So'nggi o'n yillikda raqamli texnologiyalarning jadal sur'atlarda rivojlanishi dunyo ta'lim tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, 2020-yilda boshlangan COVID-19 pandemiyasi global miqyosda an'anaviy ta'lim shakllarini tubdan o'zgartirib, masofaviy ta'limning keng joriy etilishiga sabab bo'ldi. Bu esa o'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi pedagogik kommunikatsiyaning mazmuni va shakliga alohida e'tibor qaratishni talab qildi. Pandemiya sharoitida barcha bosqichlardagi ta'lim muassasalari onlayn platformalarga o'tishga majbur bo'lib, bu yangi chaqiriqlar va imkoniyatlarni yuzaga chiqardi.

O'zbekistonda ham ayni davrdan boshlab masofaviy ta'limni rivojlantirish borasida bir qator tashabbuslar amalga oshirildi. 2020–2022-yillar davomida pedagogik faoliyatda ZOOM, Google Meet, Microsoft Teams kabi platformalardan foydalanish tajribasi shakllandi, biroq bu vositalar orqali samarali muloqotni ta'minlash muammosi dolzarb bo'lib qoldi. Ayniqsa, o'zbek tilida yaratilgan raqamli ta'lim resurslarining yetishmasligi, o'qituvchilarning raqamli savodxonlik darajasi va kommunikatsion ko'nikmalarining pastligi muammoli jihat sifatida ajralib turdi. 2023–2024-yillarga kelib, masofaviy ta'lim infratuzilmasi bosqichma-bosqich yaxshilana boshladi, shu bilan birga, interaktiv metodlar, muloqot uslublarining takomillashuvi, kommunikatsiya madaniyatining evolyutsiyasi ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda muhim omil sifatida shakllandi. Biroq bu yo'nalishda hali ham ilmiy-nazariy va amaliy tadqiqotlarga ehtiyoj mavjud.

Ushbu maqolada O'zbekistonda masofaviy ta'lim doirasida pedagogik kommunikatsiyaning asosiy omillari chuqur o'rganiladi. Xususan, interaktiv metodlardan foydalanish, onlayn muloqot uslublari, ta'lim resurslari bilan ishlash, o'zbek tilidagi raqamli kontent sifati, o'qituvchilarning raqamli savodxonligi va kommunikatsiya madaniyatidagi o'zgarishlar asosiy tahlil ob'ektlari sifatida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari esa ushbu yo'nalishda amaliy takliflar ishlab chiqishga zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Masofaviy ta'lim so'nggi yillarda jadal rivojlanib, pedagogik kommunikatsiya tushunchasining qayta talqin qilinishiga sabab bo'ldi. An'anaviy dars jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida bevosita, emotsional va ijtimoiy jihatdan boy muloqot mavjud bo'lgan bo'lsa, onlayn ta'limda bu o'rinni asosan texnologik vositalar egalladi. Shu sababli, zamonaviy ta'lim adabiyotlarida pedagogik kommunikatsiyaga yangicha qarashlar

shakllanmoqda. Pedagogik kommunikatsiyaning klassik asoslari sotsiokultural yondashuvga tayangan bo'lib, Vygotskiy (1978)¹ va Leontyev (1983)²lar asarlarida muloqot shaxs rivojlanishining markaziy omili sifatida ko'riladi. Biroq raqamli muhitda bu jarayon boshqa formatlarga – videodarslar, chat muloqotlari, virtual guruhlar va avtomatlashtirilgan teskari aloqa vositalariga o'zgardi. Xolboyeva (2021)³ masofaviy ta'limda o'qituvchilar tomonidan foydalanilayotgan kommunikatsion vositalarni tahlil qilib, ular orqali o'quvchilarning ishtirok darajasi, qiziqishi va teskari aloqa tezligi sezilarli darajada farqlanishini qayd etadi.

Bundan tashqari, interaktivlik darajasi ham pedagogik kommunikatsiyaning muhim omili sifatida ko'riladi. Mardonova (2022)⁴ olib borgan tadqiqotlarda ko'pchilik o'qituvchilar masofaviy darslarda faqat auditoriyaga monolog tarzida murojaat qilish bilan cheklanayotganini, interaktiv metodlardan foydalanish esa past darajada ekanligini ta'kidlaydi. Shu bilan birga, Anderson (2011)⁵ tomonidan ilgari surilgan "Interaction Equivalency Theorem" ga ko'ra, ta'lim jarayonida kamida bitta o'zaro ta'sir turi (o'qituvchi–o'quvchi, o'quvchi–o'quvchi yoki o'quvchi–resurs) yuqori darajada bo'lsa, ta'lim samaradorligi ta'minlanadi. Bu nazariya masofaviy ta'lim sharoitida ayniqsa dolzarb bo'lib, kommunikatsiya sifati ta'limning natijaviyligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Adabiyotlarda e'tibor qaratilgan yana bir masala – o'zbek tilidagi raqamli ta'lim resurslarining holatidir. Yo'ldoshev va Sobirov (2020)⁶ tomonidan olib borilgan tahlillarda ko'pchilik onlayn materiallar rus yoki ingliz tilida bo'lib, o'zbek tilida sifatli va multimediyaviy yondashuvga ega resurslar yetishmasligi aniqlangan. Bu esa o'quvchilarning axborotni to'liq tushunishi va bilimni o'zlashtirishi jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, pedagogik kommunikatsiyaning samaradorligi bevosita didaktik materiallarning til, shakl va texnik sifati bilan bog'liq bo'lib qolmoqda.

Boshqa tomondan, o'qituvchilarning raqamli savodxonligi va kommunikatsiya madaniyati ham masofaviy ta'lim samaradorligining ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Nuriddinov (2021)⁷ ta'kidlaganidek, o'qituvchilar tomonidan raqamli platformalarda to'g'ri yozishmalar olib borilishi, emotsional neytrallikni saqlab qolgan holda mulohaza bildirilishi va o'quvchi fikrlariga o'z vaqtida teskari aloqa berilishi kommunikatsiyaning madaniy darajasini ko'rsatadi. Aks holda, o'quvchilar o'z fikrini bildirishga tortinadi yoki onlayn muhitda passiv rolga ega qoladi.

¹ Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in society: The development of higher psychological processes* (M. Cole et al., Eds.). Cambridge, MA: Harvard University Press.

² Leontyev, A. N. (1983). *Activity, consciousness, and personality*. Eng. trans. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.

³ Xolboyeva, M. (2021). Masofaviy ta'limda o'qituvchilar foydalanayotgan kommunikatsiya vositalari. *Pedagogika va innovatsiyalar*, 1(2), 60–68.

⁴ Mardonova, D. (2022). Masofaviy ta'limda interaktiv metodlarning qo'llanilishi: holat va muammolar. *Ta'lim va amaliyot*, 3(1), 85–92.

⁵ Anderson, T. (2011). *The theory and practice of online learning* (2nd ed.). Edmonton: AU Press.

⁶ Yo'ldoshev, A., & Sobirov, B. (2020). O'zbek tilidagi raqamli ta'lim resurslarining tahlili. *Ta'lim texnologiyalari*, 5(3), 25–32.

⁷ Nuriddinov, A. (2021). Raqamli pedagogik kommunikatsiyada madaniyat va savodxonlik. *O'zbek pedagogik axborotnomasi*, 2(4), 44–50.

Xalqaro adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'limda kommunikatsiyani qo'llab-quvvatlash uchun avtomatlashtirilgan chatbotlar, gamifikatsiyalangan topshiriqlar, hamkorlikka asoslangan loyihalar va real vaqt rejimidagi suhbatlar keng qo'llanilmoqda (UNESCO, 2020)⁸. Ushbu elementlar yordamida o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi ishtiroki oshadi, kommunikatsiya esa faqat bilim almashinuvi emas, balki motivatsiya va ijtimoiy qo'llov vositasiga ham aylanadi.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, O'zbekistonda masofaviy ta'limda pedagogik kommunikatsiyani rivojlantirish uchun faqat texnologiyani emas, balki o'qituvchining kommunikatsion madaniyatini, o'zbek tilidagi didaktik resurslarni va interaktiv metodlarni kengaytirish zarur. Bu esa o'z navbatida, ta'lim sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqot O'zbekistonda masofaviy ta'lim jarayonida pedagogik kommunikatsiya samaradorligini oshirishga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlashga qaratildi. Shu maqsadda, sifat va miqdoriy tahlil usullarini uyg'unlashtirgan kompleks yondashuv asosida ilmiy-amaliy izlanishlar olib borildi. Tadqiqot metodlari tanlanayotganda, masofaviy ta'lim muhitidagi real tajriba, muloqot jarayonlari va foydalanuvchilarning fikr-mulohazalarini to'liq qamrab olish maqsad qilgan.

Birinchi navbatda, so'rovnoma usuli qo'llanildi. Ushbu metod yordamida Toshkent, Samarqand va Andijon viloyatlaridagi umumiy o'rta ta'lim maktablarida faoliyat yuritayotgan 50 nafar o'qituvchi va 100 nafar o'quvchi orasida onlayn shaklda savolnomalar tarqatildi. So'rovnoma Google Forms platformasi orqali amalga oshirilib, ishtirokchilarning shaxsiy tajribasi, onlayn muloqotga bo'lgan munosabati, foydalanilayotgan vositalar va duch kelayotgan muammolar bo'yicha ma'lumotlar to'plandi. Savollar ochiq va yopiq turdagi bo'lib, ular kommunikatsiya sifati, interaktivlik darajasi, o'zbek tilidagi resurslarga nisbatan munosabat, va raqamli vositalardan foydalanish tezligini aniqlashga qaratilgan edi.

Ikkinchi metod sifatida tahliliy kuzatuvdan foydalanildi. Ushbu bosqichda Zoom, Google Meet va Microsoft Teams platformalari orqali o'tkazilgan real onlayn darslar kuzatildi va yozib olinib tahlil qilindi. 10 ta turli fanlar bo'yicha olib borilgan onlayn dars jarayonlari pedagogik muloqotning shakli, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi teskari aloqa sifati, interaktiv usullarning qo'llanishi hamda raqamli vositalar bilan ishlash madaniyati nuqtai nazaridan baholandi. Ayniqsa, darsda

o'qituvchining qanday savollar berayotgani, o'quvchilarning fikr bildirishga jalb etilish darajasi va multimediyaviy materiallardan foydalanilishi alohida e'tiborga olindi.

Shuningdek, kontent tahlil usulidan ham foydalanildi. Bu bosqichda O'zbekistonda faol ishlatilayotgan masofaviy ta'lim resurslari — ya'ni 15 ta eng ommabop videodars, vebinar va ta'limiy platformalar (EduMarket, MyEdu, Maktab.uz, Kundalik.com va boshqalar) tanlab olinib, ularning kommunikativ salohiyati tahlil qilindi. Har bir resursning interaktivlik darajasi, o'qituvchi-foydalanuvchi muloqoti mavjudligi, o'zbek tilidagi kontent sifati va foydalanish qulayligi mezon sifatida qaraldi. Shuningdek, videodarslardagi pedagogik nutq sifati, mimika, ovoz ohangi, teskari aloqa imkoniyatlari kabi jihatlar ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda to'plangan ma'lumotlar sifat jihatdan (intervyular, ochiq savollar tahlili) va miqdoriy jihatdan (foizli va statistik tahlillar orqali) qayta ishlanib, diagramma va grafiklar yordamida ifodalandi. Misol uchun, o'quvchilarning 68 foizi masofaviy ta'limda o'qituvchi bilan to'g'ridan-to'g'ri muloqot qilish imkoniyati cheklanganini bildirgan bo'lsa, o'qituvchilarning 54 foizi interaktiv metodlarni qo'llashda texnik yoki metodik qiyinchiliklarga duch kelayotganini tan oldi.

Ushbu usullar birgalikda masofaviy ta'limdagi real vaziyatni ko'rsatish, mavjud muammolarni aniqlash va pedagogik kommunikatsiya samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi strategiyalarni belgilashga imkon yaratdi. So'rovnoma va tahlil natijalari asosida ilgari surilgan takliflar maqolaning muhim ilmiy xulosalarini shakllantirishga asos bo'ldi.

Tadqiqot natijalari. O'tkazilgan tadqiqot natijalari O'zbekistonda masofaviy ta'lim jarayonida pedagogik kommunikatsiya samaradorligini oshirishga to'sqinlik qilayotgan qator muammolarni aniqladi. So'rovnoma, tahliliy kuzatuv va kontent tahlil usullari asosida quyidagi asosiy yo'nalishlar bo'yicha muhim xulosalar shakllantirildi.

Birinchi navbatda, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot sifati past darajada ekani ma'lum bo'ldi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'quvchilarning 63 foizi o'qituvchilar bilan muloqot yetarli emasligini bildirgan. Bu esa, ta'lim jarayonida o'quvchilarni rag'batlantirish, savollar berish va muammoli fikrlarni muhokama qilish imkoniyatlarining cheklanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, o'qituvchilarning 72 foizi interaktivlikni oshirish uchun zarur bo'lgan metodik va texnologik imkoniyatlarning yetishmasligini tan olgan. Bu holat shuni anglatadiki, kommunikatsiya bir yoqlama — faqat o'qituvchi nutqiga asoslangan shaklda kechmoqda.

1-jadval

O'qituvchi-o'quvchi o'rtasidagi muloqot sifati

Javob turi	O'quvchilar (%)	O'qituvchilar (%)
Muloqot yetarli	37%	28%
Muloqot yetarli emas	63%	72%

Ikkinchi yo'nalish — interaktiv metodlar qo'llanilishi masalasidir. Tadqiqotda aniqlanishicha, faqatgina 34% o'qituvchilar dars jarayonida testlar, viktorinalar, savol-javoblar yoki muhokama forumlari kabi interaktiv usullardan foydalanmoqda. Qolgan ko'pchilik esa darsni

monolog shaklida, ya'ni faqat o'z nutqi orqali o'tkazayotganini bildirgan. Bu esa o'quvchilarning darsda faol ishtirok etishiga va bilimni chuqur o'zlashtirishiga to'sqinlik qiladi. Interaktivlikning yetishmasligi o'quvchilarni passiv tinglovchiga aylantirib qo'yadi.

2-jadval

Interaktiv metodlardan foydalanish

Interaktiv metodlardan foydalanish	O'qituvchilar (%)
Foydalanadi	34%
Foydalanmaydi (monolog asosida)	66%

Uchinchi muhim natija — o'zbek tilidagi raqamli ta'lim resurslarining holatiga doir. Kontent tahlil natijalariga ko'ra, o'rganilgan 15 ta onlayn resursdan 47 foizi sifatsiz kontentga ega yoki texnik nosozliklarga duch kelgan. Ko'pchilik resurslarda multimediyaviy (video, audio, animatsiya) materiallar kam yoki umuman mavjud emas.

O'quvchilar aynan mana shu yetishmovchilik sababli dars materiallarini to'liq anglab yetmaslik, mustaqil o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishlarini bildirgan. Ayniqsa, ko'zi bilan ko'rib, eshitib o'rganishga odatlangan o'quvchilar uchun bu holat samaradorlikni keskin pasaytiradi.

⁸ UNESCO. (2020). *Education in a post-COVID world: Nine ideas for public action*. Paris: United Nations Educational, Scientific and Cultural Organization.

O'zbek tilidagi ta'lim resurslarining sifati

Ko'rsatkich	Ulushi (%)
Sifatli resurslar	53%
Sifatsiz yoki texnik muammo mavjud	47%

Nihoyat, tadqiqotda pedagogik kommunikatsiya madaniyati bo'yicha ham e'tiborga molik holatlar aniqlandi. So'rovnoma natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning 58 foizi raqamli platformalarda rasmiy yozishma uslubini, ya'ni aniq, ixcham va ijtimoiy jihatdan maqbul ifodalanish madaniyatini yetarlicha bilmasligini bildirgan. Ayrim hollarda, dars mobaynida yozishmalar rasmiy chegaradan chiqib ketishi, emotsional ohanglar yoki noaniq jumlar bilan to'lib-toshishi

holatlari kuzatilgan. Bu esa o'quvchilarda chalkashlik, tushunmovchilik va aloqa uzilishi holatlarini yuzaga keltirmoqda. Shu bilan birga, o'quvchilar dars vaqtida o'z fikrini ochiq va erkin bildirishga imkon bo'lmasligini, ba'zida ularga so'z berilmasligi yoki fikri inkor qilinishini ta'kidlagan. Bu esa ta'lim muhitida o'zaro ishonch va ijtimoiy aloqalarning zaiflashuviga olib kelishi mumkin.

Kommunikatsiya madaniyati darajasi

Ko'rsatkich	O'qituvchilar (%)	O'quvchilar (%)
Raqamli yozishmada madaniyat yetarli	42%	—
Madaniyat yetarli emas	58%	—
Fikrini erkin bildiradi	—	36%
Fikrini erkin bildirish imkoniyati yo'q	—	64%

Yuqoridagi natijalar shuni ko'rsatadiki, masofaviy ta'limda pedagogik kommunikatsiya samaradorligini oshirish uchun tizimli va kompleks yondashuv zarur. Faol muloqotga imkon beruvchi vositalarni keng qo'llash, sifatli o'zbek tilidagi ta'lim resurslarini ishlab chiqish, o'qituvchilarning kommunikatsion savodxonligini oshirish va interaktiv metodlarni faol joriy etish orqali ta'lim sifatini ancha yuksaltirish mumkin.

Muhokama. O'zbekistonda masofaviy ta'lim tizimi bosqichma-bosqich rivojlanayotgan bo'lsa-da, uning sifatini belgilovchi asosiy omillardan biri — pedagogik kommunikatsiya — hali ham muayyan muammolar girdobida qolmoqda. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'qituvchi va o'quvchi o'rtasida yuzaga keladigan muloqot ko'plab hollarda yetarlicha samarali emas. Ayniqsa, onlayn ta'lim sharoitida mazkur muammo yanada dolzarb tus olgan.

Birinchidan, pedagogik kommunikatsiya samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omillardan biri sifatida o'zbek tilida yaratilgan sifatli o'quv resurslarining yetarli emasligi ko'zga tashlanadi. 3-jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, respondentlarning faqat 53 foizi mavjud o'quv materiallarini "sifatli" deb baholagan. Bu esa, ta'lim oluvchilarning mustaqil bilim olish jarayonida to'laqonli kontentga ega bo'lmasligi va bu orqali o'qituvchi bilan kommunikatsiyada uzilishlar yuzaga kelishiga olib kelmoqda.

Ikkinchidan, interaktiv metodlar — zamonaviy ta'limning ajralmas elementi — masofaviy ta'lim jarayonlarida yetarlicha qo'llanilmayotgani ayon bo'ldi. 2-jadval natijalariga ko'ra, o'qituvchilarning atigi 34 foizi interaktiv yondashuvlardan foydalanayotganini bildirgan. Aksariyat hollarda darslar monolog asosida, faqat bir tomonlama axborot yetkazish shaklida olib borilmoqda. Bu holat o'quvchilarning faol ishtirokini cheklab, ularning darsdagi faolligi va ijodiy fikrlashini sustlashtiradi.

Uchinchidan, raqamli kommunikatsiya madaniyati ham dolzarb muammolardan biridir. O'qituvchilarning 58 foizi o'z yozishmalarida kommunikatsiya madaniyati yetarli emasligini tan olgan (4-jadval). Bu esa onlayn ta'limda tushunmovchiliklar, noto'g'ri talqinlar va aloqa uzilishlariga olib kelmoqda. O'z navbatida, o'quvchilarning 64 foizi o'z fikrini erkin bayon qilish imkoniyatiga ega emasligini bildirgan. Bu esa emotsional va fikriy erkinlikning cheklanishi, ta'limga nisbatan passiv yondashuvga olib keladi.

Shuningdek, masofaviy muloqotda emotsional komponent — ya'ni o'qituvchining ovoz ohangi, yuz ifodalari, bevosita rag'batlantiruvchi uslublari — cheklangani sababli o'quvchi bilan chinakam pedagogik aloqa vujudga kelmaydi. Bunday holatda ta'lim

jarayoni sovuq va formal tus oladi, bu esa ta'lim sifati va natijadorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Mazkur muammolarni bartaraf etish va masofaviy ta'limda pedagogik kommunikatsiya samaradorligini oshirish uchun quyidagi taklif va tavsiyalarni ilgari surish mumkin:

1. Raqamli kommunikatsiya va interaktiv metodika bo'yicha muntazam treninglar o'tkazilishi lozim. Har bir pedagog onlayn platformalarda nafaqat texnik jihatdan, balki pedagogik va emotsional jihatdan ham samarali muloqot yuritishni o'rganishi zarur.

2. O'zbek tilidagi sifatli elektron ta'lim resurslarini ishlab chiqish va ularni ochiq, hamma uchun qulay platformalarda joylashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu nafaqat ta'lim mazmunini boyitadi, balki pedagogik muloqotni ham jonlantiradi.

3. O'quvchilarga erkin fikr bildirish imkonini beruvchi virtual muhitlar, forumlar, bloglar, suhbat xonalari tashkil etish lozim. Bunday muhitlar ularning ijtimoiy faolligini oshirib, o'z fikrini ifoda etish madaniyatini shakllantiradi.

4. Onlayn muloqot etikasi va madaniyati bo'yicha maxsus qo'llanmalar va tavsiyalarni ishlab chiqish lozim. Bu vositalar o'qituvchilarga ham, o'quvchilarga ham raqamli makonda hurmat, tinglash madaniyati, muloyim yozishma va emotsional savodxonlikni oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa. Masofaviy ta'lim sharoitida pedagogik kommunikatsiyaning muvaffaqiyati faqat texnik vositalarning mavjudligi yoki platformalarning zamonaviyligiga emas, balki undan foydalanayotgan subyektlar — o'qituvchi va o'quvchining muloqot madaniyatiga, axborot almashishdagi emotsional hamkorlikka, interaktiv uslublardan foydalanish darajasiga va o'quv resurslarining sifatiga bevosita bog'liqdir. O'zbekistonda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, masofaviy ta'lim jarayonida kommunikatsiya sifati hali to'liq shakllanmagan, ayrim jihatlar jiddiy takomillashtirishni talab qiladi.

Pedagoglarning raqamli savodxonligini oshirish, o'zbek tilida sifatli va interaktiv o'quv resurslarini yaratish, o'quvchilar uchun erkin fikr almashish imkoniyatlarini ta'minlash hamda onlayn muloqot madaniyatini shakllantirish orqali ushbu tizimda sezilarli ijobiy o'zgarishlarga erishish mumkin. Aynan pedagogik kommunikatsiyaning rivoji ta'lim sifatining poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Shunday ekan, masofaviy ta'limda muloqotni faqat texnik jarayon sifatida emas, balki ijtimoiy-psixologik va madaniy jarayon sifatida ham qarash zarur. Bu yondashuv orqali nafaqat bilim berish, balki o'quvchining shaxsiy rivoji, fikrlash va ifoda erkinligini ta'minlashga ham

erishiladi. O'zbekiston ta'lim tizimining kelgusi rivoji aynan shu omillarning to'laqonli integratsiyasiga bog'liq bo'lib, bu esa global

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Axmedov, N. R. Masofaviy ta'limda pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: O'qituvchi, 2021. – 148 b.
2. Karimova, M. Sh. Masofaviy ta'lim jarayonida o'qituvchining kommunikativ roli // Pedagogika va psixologiya jurnali. – 2022. – №3. – B. 45–49.
3. Qodirova, D. X. Raqamli ta'lim resurslari va ularning samaradorligini baholash mezonlari // O'zbekiston pedagogik axborotnomasi. – 2023. – №2(78). – B. 60–65.
4. Maxmudov, A. R. Masofaviy ta'lim: imkoniyatlar, muammolar va yechimlar // Innovatsion ta'lim texnologiyalari jurnali. – 2021. – №1. – B. 20–25.
5. Soliyev, A. T. Pedagogik kommunikatsiya nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2020. – 192 b.

raqobatga tayyor, mustaqil fikrlovchi va zamonaviy sharoitga moslashgan avlodni tarbiyalash imkonini beradi.

6. Qosimov, F. I. Interaktiv metodlardan foydalanishning zamonaviy yondashuvlari // Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Nukus, 2022. – B. 77–81.
7. Rasulova, G. M. Masofaviy ta'limda o'qituvchilarning raqamli kompetentligini rivojlantirish // Ta'lim va taraqqiyot. – 2023. – №5. – B. 39–42.
8. Umarova, N. R. O'zbek tilidagi raqamli o'quv resurslarining tahlili // Til va adabiyot o'qitish metodikasi. – 2022. – №4. – B. 56–60.
9. UNESCO. Distance learning strategies during the COVID-19 pandemic. – <https://unesdoc.unesco.org> – 2020.
10. Mishra, L., Gupta, T., & Shree, A. Online Teaching-Learning in Higher Education during Lockdown Period of COVID-19 Pandemic // International Journal of Educational Research Open. – 2020. – Vol. 1. – DOI: 10.1016/j.ijedro.2020.100012



МАРКАЗИЙ ОСИЁ МИНТАҚАСИНИНГ ТРАНСПОРТ-ЛОГИСТИКА САЛОҲИЯТИНИ СТРАТЕГИК ТАҲЛИЛИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Раҳмонов Расул Неъматович

Иқтисод фанлари номзоди, профессор,
ижрочи директор, Тошкент шаҳрида
Вебстер университети таълим дастурларини
амалга ошириш маркази,
Ўзбекистон, Тошкент шаҳри,
rasulbek.rahmonov@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 38 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1221 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Мазкур мақолада Марказий Осиё минтақасининг транспорт-логистика салоҳияти В.Л. Квинт томонидан ишлаб чиқилган умумий стратегия назарияси асосида таҳлил қилиниб, минтақанинг геостратегик мавқеи, инфратузилмaviй ҳолати, минтақавий ҳамкорлик ва рақамли логистика имкониятлари баён этилган ва илмий таҳлил натижасида транспорт соҳасини барқарор ва мувозанатлашган ривожлантириш бўйича стратегик тавсиялар ишлаб чиқилган.
Марказий Осиё, стратегия, транспорт-логистика салоҳияти, инфратузилмaviй ҳолат, минтақавий ҳамкорлик.	

Кириш.

Марказий Осиё минтақаси геосиёсий ва геоиқтисодий нуқтаи назардан жаҳон савдоси ва транспорт тизимларида стратегик аҳамиятга эга ҳудуд ҳисобланади. Европа ва Осиёни боғловчи муҳим кўприк вазифасини ўтайдиган бу минтақа табиий ресурсларга бойлиги ва қўшни давлатлар билан мавжуд кенг транспорт алоқалари тўғайли глобал логистика занжирида тобора муҳим ўрин тутмоқда. Бироқ, бу улкан салоҳиятни тўлиқ рўёбга чиқариш учун пухта **стратегик ёндашув** талаб этилади.

В.Л. Квинтнинг умумий стратегия назариясига мувофиқ, стратегия — глобал ўзгаришлар даврида мураккаб тизимларни барқарор бошқариш воситасидир. Ушбу назария транспорт ва логистика каби соҳалар учун келажакдаги ўзгаришлар ва имкониятларни олдиндан кўриш ҳамда уларга тайёрланиш имконини беради. Квинт таъкидлаганидек, **стратегик ресурсларнинг мантиқий таҳлили** асосида келажакни яратиш мумкин. Марказий Осиё минтақаси учун бундай ресурслар, биринчи навбатда, унинг транзит ҳудуд сифатидаги **географик жойлашуви**, шунингдек, **энергетика захиралари** ва мавжуд **транспорт инфратузилмасидир**. Шу нуқтаи назардан, минтақанинг транспорт-логистика салоҳиятини стратегик режалаштириш барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим омили ҳисобланади.

Марказий Осиёнинг глобал транспорт занжирига интеграцияси, айниқса, Хитой, Россия ва Европа Иттифоқини боғловчи йирик коридорлар орқали амалга ошмоқда. Қозоғистон Хитой ва Россияни боғловчи темир йўл тармоқларининг марказида жойлашган бўлса, Ўзбекистон минтақанинг қоқ марказида жойлашиб, барча қўшни давлатлар билан чегарадош. Бу эса уни келажакда минтақавий **логистика марказига** айлантириш учун кенг имкониятлар очади. Ушбу мақолада Марказий Осиёнинг транспорт-логистика салоҳияти В.Л. Квинт назарияси асосида таҳлил қилиниб, унинг геостратегик мавқеи, инфратузилма ҳолати ва минтақавий ҳамкорлик имкониятлари баён этилади. Шунингдек, илмий таҳлил натижасида транспорт соҳасини **барқарор ва мувозанатлашган ривожлантириш** бўйича стратегик тавсиялар ишлаб чиқилади.

Адабиётлар таҳлили

Ушбу тадқиқотнинг назарий ва амалий негизини шакллантириш мақсадида қатор нуфузли хорижий ва маҳаллий адабиётлар, илмий

мақолалар, халқаро ташкилотларнинг ҳисоботлари ва статистик маълумотлар батафсил ўрганилди.

Тадқиқотнинг **методологик асоси В.Л. Квинтнинг “The Global Emerging Market: Strategic Management and Economics” (2009)** асаридан олинган. Бу асар глобал иқтисодий тизимда стратегик бошқарувнинг назарий ва амалий жиҳатларини ёритиб беради. Ушбу ёндашув Марказий Осиёнинг транспорт-логистика тармоғини алоҳида элемент эмас, балки **боғлиқ тизим** сифатида кўриб чиқишга имкон берди.

Абдуллаевнинг “Марказий Осиёда логистика ва транспорт алоқалари: муаммо ва ечимлар” (2021) мақоласи минтақанинг транспорт салоҳиятини ошириш йўлидаги асосий муаммоларни — яъни, инфратузилманинг етарли даражада ривожланмаганлиги ва минтақавий ҳамкорликдаги тўсиқларни тизимли таҳлил қилган. Бу тадқиқот бизнинг мақоламизда кўтарилган муаммоларнинг нақадар долзарб эканлигини тасдиқлади.

Мақолада келтирилган **Middle Corridor (TITR), TRACECA** ва **INSTC** каби халқаро транспорт коридорлари ҳақидаги маълумотлар (Wikipediaдан) минтақанинг глобал савдо йўналишларидаги мавқеини кўрсатади. **CAREC Program** ва **CASA1000** лойиҳалари ҳақидаги расмий манбалар эса (carecprogram.org, casa-1000.org) транспорт лойиҳаларининг минтақавий иқтисодий интеграциядаги ўрнини баҳолашда муҳим аҳамият касб этди.

Рақамлаштириш масаласи бўйича **ScienceDirect** ва Россиядаги **IT Russia, TAdviser** каби манбаларнинг тадқиқотлари таҳлил қилинди. Улар транспорт соҳасида **блокчейн, IoT, ва AI** технологияларининг жорий этилиши транзит жараёнларини қанчалик тезлаштириши ва шаффофлаштиришини кўрсатиб берди. Бу маълумотлар минтақавий логистикани рақамлаштириш бўйича стратегик тавсияларни асослашга хизмат қилди.

Ниҳоят, **Жаҳон банкининг Логистика самарадорлиги индекси (LPI)** бўйича маълумотлар минтақа давлатларининг глобал рақобатбардошлиқдаги мавжуд ҳолатини объектив баҳолашга ёрдам берди. Умуман олганда, таҳлил қилинган адабиётлар мақолада келтирилган муаммоларни тасдиқлаш ва илмий асосланган стратегик тавсияларни ишлаб чиқиш учун кенг қамровли маълумотлар базасини таъминлади.

Методология

Ушбу тадқиқот Марказий Осиё минтақасининг транспорт-логистика салоҳиятини **В.Л. Квинтнинг умумий стратегия назарияси** асосида таҳлил қилишга қаратилган. Тадқиқотнинг назарий асосини Квинтнинг “стратегик ресурслар мантикий таҳлили” ва “мураккаб тизимларни барқарор бошқариш” тамойиллари ташкил этади. Ушбу назарий ёндашув минтақанинг мавжуд имкониятлари, муаммолари ва ривожланиш истиқболларини комплекс баҳолаш имконини беради.

Тадқиқот давомида қуйидаги **илмий ёндашувлардан** фойдаланилди:

Тизимли таҳлил (System analysis): Марказий Осиёнинг транспорт-логистика тизими ўзаро боғлиқ элементлар (инфратузилма, минтақавий ҳамкорлик, рақамлаштириш ва бошқалар) мажмуи сифатида кўриб чиқилди. Бу ёндашув ҳар бир элементнинг умумий тизимга таъсирини аниқлаш ва кенг қамровли стратегик ечимларни ишлаб чиқишга ёрдам берди.

Қиёсий таҳлил (Comparative analysis): Минтақадаги мавжуд транспорт коридорлари (Middle Corridor, TRACECA, INSTC) ва бошқа халқаро транспорт тизимлари ўзаро қиёсий ўрганилди. Бу, Марказий Осиёнинг глобал логистика занжиридаги ўрнини баҳолаш ва рақобат ўстунликларини аниқлаш имконини берди.

Стратегик таҳлил (Strategic analysis): В.Л. Квинт назариясидан келиб чиқиб, минтақанинг геостратегик мавқеи, иқтисодий ва инфратузилмавий салоҳияти стратегик нуқтаи назардан баҳоланди. Тадқиқот натижасида мавжуд муаммоларни бартараф этиш ва имкониятлардан тўлиқ фойдаланишга қаратилган узоқ муддатли тавсиялар ишлаб чиқилди.

Тадқиқот учун **маълумот манбалари** сифатида қуйидагилар хизмат қилди:

- Халқаро ташкилотларнинг ҳисоботлари (Жаҳон банки, Осиё Тараққиёт банки, БМТ)
- Илмий журналларда эълон қилинган мақолалар ва монографиялар
- Расмий давлат статистикалари ва ҳужжатлари
- Мақолада келтирилган адабиётлар рўйхати (В.Л. Квинт асарлари, бошқа иқтисодчиларнинг илмий ишлари).

Ушбу методология Марказий Осиёнинг транспорт-логистика салоҳиятини **назарий ва амалий нуқтаи назардан** чуқур таҳлил қилишга, шунингдек, минтақанинг келажадаги барқарор ривожланиши учун асосланган стратегик ҳулосалар чиқаришга замин яратди.

Натижалар

Олиб борилган тадқиқот ва стратегик таҳлиллар натижасида Марказий Осиёнинг транспорт-логистика салоҳиятини ривожлантириш бўйича қуйидаги асосий ҳулосалар ва натижалар олинди

Геостратегик мавқенинг аҳамияти: В.Л. Квинт назарияси асосида ўтказилган таҳлил Марказий Осиёнинг Европа ва Осиё ўртасидаги ноёб географик жойлашуви транспорт-логистика соҳасидаги энг муҳим стратегик ресурси эканлигини тасдиқлади. Минтақанинг мавжуд ва режалаштирилган халқаро транспорт йўлакларига (Middle Corridor, TRACECA, INSTC) интеграцияси унинг транзит салоҳиятини ошириш учун мустаҳкам асос яратмоқда.

Инфратузилмавий муаммолар ва уларни ҳал этиш йўллари: Таҳлиллар минтақадаги инфратузилманинг етарли даражада ривожланмаганлиги, айрим йўллар ва терминалларнинг эскирганлигини кўрсатди. Стратегик натижа шундан иборатки, бу муаммоларни ҳал қилиш учун фақат техник модернизация етарли эмас, балки халқаро стандартларга мувофиқ янги логистика марказларини қуриш ва транспорт коридорларини диверсификация қилиш муҳим ҳисобланади. Бу Хитойнинг “Бир камар — бир йўл” ташаббуси ва Осиё Тараққиёт банки каби халқаро молия институтларининг инвестицияларини жалб қилиш орқали амалга оширилади.

Минтақавий ҳамкорлиқнинг муҳимлиги: Мақолада ШХТ, ЕОИИ ва ОТБ каби халқаро платформалар доирасидаги ҳамкорлиқнинг нақадар муҳим эканлиги исботланди. Минтақадаги ҳар бир давлатнинг алоҳида ҳаракатланиши логистика занжирларини узайтириб, самарадорлиқни пасайтиради. Натижада, минтақавий интеграцияни чуқурлаштириш, божхона ва тариф сиёсатини уйғунлаштириш, ягона ҳуқуқий базани яратиш минтақанинг умумий рақобатбардошлигини ошириш учун ҳал қилувчи аҳамиятга эга эканлиги аниқланди.

Рақамлаштириш ва инновацияларнинг роли: Тадқиқот Марказий Осиёда логистика соҳасининг рақамлаштириш даражаси пастлигини кўрсатди. Асосий натижалардан бири шуки, юкларни кузатиш, “Ягона божхона тўсиғи” тизимини жорий этиш ва блокчейн каби инновацион технологиялардан фойдаланиш, логистика жараёнларини тезлаштирибгина қолмай, уларни шаффоф ва хавфсиз қилади. Бу эса минтақанинг глобал савдодаги ишончли ҳамкор сифатида қабул қилинишига хизмат қилади.

Умуман олганда, тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, Марказий Осиё минтақасининг транспорт-логистика салоҳиятини тўлиқ рўёбга чиқариш учун **комплекс ва мувозанатлашган стратегик ёндашув** талаб қилинади. Бу ёндашув **инфратузилмани модернизация қилиш, минтақавий ҳамкорлиқни кучайтириш ва логистика жараёнларини рақамлаштириш** каби асосий ўстувор йўналишларни бирлаштириши керак. Бу борада В.Л. Квинт назариясига асосланган стратегия минтақани глобал транспорт занжирининг марказий бўғинига айлантириш учун мустаҳкам асос бўлиб хизмат қилади.

Муҳокама

Марказий Осиё минтақаси геосиёсий ва геоиқтисодий нуқтаи назардан жаҳон савдоси ва транспорт тизимларида стратегик ҳудуд ҳисобланади. Минтақа Европа ва Осиёни боғловчи муҳим кўприк вазифасини ўтайди. Бундай жойлашув, табиий ресурслар билан бойлиги ва қўшни давлатлар билан транспорт алоқалари уни жаҳон логистика тизимида муҳим ўринга чиқармоқда. Аммо, ушбу салоҳиятни тўлиқ ишга солиш учун стратегик ёндашув талаб этилади.

В.Л. Квинт таъкидлаганидек, “Стратегия - бу глобал ўзгаришлар даврида мураккаб тизимларни барқарор бошқариш воситасидир”[1.]. Шунингдек, “умумий стратегия назарияси - транспорт ва логистика каби тармоқлар учун келажадаги ўзгаришлар ва имкониятларни олдиндан стратегик кўриш ва уларга тайёргарлик кўриш имконини беради”. Квинт назариясида “стратегик ресурсларнинг мантикий таҳлили асосида келажакни яратиш мумкин”лиги айтиб ўтилган[1.]. Марказий Осиёда шундай ресурслар қуйидагилар ҳисобланади: географик жойлашув (транзит ҳудуд сифатида), энергетика захиралари ва транспорт инфратузилмаси. Шу нуқтаи назардан, Марказий Осиёнинг транспорт-логистика салоҳиятини стратегиялаш минтақада барқарор иқтисодий ўсишни таъминлашнинг муҳим омили ҳисобланади.

Марказий Осиёнинг глобал транспорт занжирига интеграцияси, айниқса, Хитой, Россия ва Европа Иттифоқи билан ўзаро боғлиқлиқни таъминловчи коридорлар орқали шаклланмоқда. Қозоғистон — Хитой ва Россияни боғловчи темир йўл йўлларининг марказида жойлашган. Ўзбекистон эса минтақанинг марказида бўлиб, барча қўшни давлатлар билан чегарадош. Бу эса уни логистика марказига айлантириш имконини яратади.

Марказий Осиё минтақаси транспорт-логистика соҳасидаги салоҳиятига қарамай, бир қатор муаммолари мавжуд. Хусусан, инфратузилма етарли даражада ривожланмаган. Айрим минтақаларда йўллар ва терминаллар эскирган, техник жиҳатдан талабга жавоб бермайди. Шунингдек, Марказий Осиё давлатлар ўртасида ҳамкорлик етишмайди, яъни, минтақавий интеграция даражаси паст, бу эса трансчегаравий лойиҳаларни мураккаблаштиради[2. С.35]. Ҳар бир давлатнинг божхона ва тариф сиёсати турлича, бу эса юк ташиш жараёнини қийинлаштиради

ҳамда логистика жараёнларини рақамлаштириш етарли даражада амалга оширилмайди ва ҳақозолар.

Марказий Осиё минтақасининг транспорт-логистика салоҳиятини ривожлантириш учун қуйидаги стратегик йўналишлар муҳим аҳамиятга эга:

1. **Инфратузилмани модернизация қилиш** - темир йўл ва автомобиль йўлларини таъмирлаш ва кенгайтириш, халқаро стандартларга мувофиқ логистика марказларини қуриш ҳамда Хитой ва Европа бозорларига уланувчи янги транспорт коридорларини ишга тушириш талаб этилади. Марказий Осиё минтақасида транспорт тармоқларининг кўплаб стратегик коридорлар билан боғлангани уни глобал логистика тизимининг марказларидан бирига айлантирмоқда. Хусусан:

- Middle Corridor (TransCaspian International Transport Route, TITR) - бу Хитойни Қозоғистон, Каспий денгизи йўли орқали Озарбайжон, Грузия ва Туркия орқали Европа билан боғлайди. У шарқ-ғарб йўналишида энг қисқа маршрут саналади[3].

- TRACECA (Transport Corridor EuropeCaucasusAsia) Европа, Кавказ ва Марказий Осиёни ягона транспорт инфратузилмасига мажбурлаш, минтақалар орасидаги савдо, иқтисодий ва сиёсий алоқаларни мустаҳкамлаш учун механизм сифатида хизмат қилади[4].

- International North-South Transport Corridor (INSTC) - Россиядан Ҳиндистонгача чўзилувчи, 7200 км узунликка эга кўп модал транспорт йўлаги бўлиб, у Суэц канали орқали ўтувчи анъанавий йўлга самарали альтернатив ҳисобланади[5].

- CASA1000 лойиҳаси Марказий Осиёдаги сув гидроэлектростанци яларидан Афғонистон ва Покистонга барқарор электр таъминотини таъминлаш мақсадида яратилган, бу лойиҳа минтақавий энергетик интеграцияда муҳим омилдир[6].

2. **Минтақавий ҳамкорликни кучайтириш.** Минтақавий ҳамкорликни чуқурлаштириш ва трансмиллий инфратузилма лойиҳаларини самарали мувофиқлаштириш мақсадида Шанхай Ҳамкорлик Ташкилоти (ШХТ), Евразия Иқтисодий Иттифоқи (ЕОИИ) ҳамда Осиё Тараққиёт Банки (ОТБ) каби минтақавий ва халқаро институционал платформалар муҳим ўрин тутати[7]. Ушбу тузилмалар орқали транспорт-коммуникация соҳасида ўзаро интеграциялашган сиёсат юритиш, норматив-ҳуқуқий базани уйғунлаштириш, рақамли ва "яшил" транспорт ечимларини жорий этиш, шунингдек, логистика занжирларини диверсификация қилиш имкони яратилади[8]. Минтақавий инфратузилмавий лойиҳаларни мувофиқлаштириш, хусусан, темир йўл, автомобиль ва мультимодал йўлакларни ривожлантириш бўйича трансчегаравий ҳамкорликнинг мустаҳкамлашуви умумий иқтисодий фазони шакллантириш ва барқарор ривожланишни таъминлашда ҳал қилувчи омил ҳисобланади.

ШХТ доирасидаги транспорт интеграцияси. ШХТ аъзолари ўртасида транспорт тармоқларини боғлаш, чегара олди инфратузилмасини яхшилаш ва божхона жараёнларини рақамлаштириш масалалари минтақавий ҳамкорлик стратегиясининг устувор йўналишларидан биридир. СКУ (Хитой-Қирғизистон-Ўзбекистон) темир йўли лойиҳаси мазкур йўналишда

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Kvint V. L. The Global Emerging Market: Strategic Management and Economics. Routledge. 2009.
2. Абдуллаев, Ш. "Марказий Осиёда логистика ва транспорт алоқалари: муаммо ва ечимлар". Иқтисодиёт ва инновация, №3. 2021.
3. Wikipedia. TransCaspian International Transport Route (Middle Corridor)- Wikipedia
4. Wikipedia. TRACECA (Transport Corridor EuropeCaucasusAsia) - Wikipedia
5. Wikipedia. International North-South Transport Corridor (INSTC) - Wikipedia

стратегик аҳамиятга эга бўлиб, у логистика занжирларини қисқартириш ва Осиёдан Европага олиб борувчи йўлларни диверсификация қилишда муҳим аҳамият касб этади[9].

ЕОИИ билан институционал мувофиқлашув. ЕОИИ билан транспорт ва божхона соҳасида ягона техник стандартлар, электрон ҳужжат алмашинуви, "яшил коридор" тизимлари жорий этилиши транзит салоҳиятини кучайтиради. Шу билан бирга, рақамли иқтисодиёт ва рақамли логистика инфратузилмаси юзасидан ҳам ҳамкорлик кенгаймоқда, бу эса савдо оқимларининг шаффофлиги ва тезкорлигини оширади.

ОТБ орқали молиявий ва экспертлик ёрдами. Осиё Тараққиёт Банки минтақавий йўлакларни ривожлантириш, айниқса CAREC дастури орқали, молиявий қўллаб-қувватлаш, техник ёрдам ва транспорт сиёсатини уйғунлаштиришда асосий роль ўйнамоқда. CAREC доирасида Ўзбекистон 6,5 миллиард долларга яқин транспорт инфратузилмаси лойиҳаларига эга бўлган ва бу уни минтақада етакчи транзит хабардан бирига айлантирмоқда[10]. Минтақавий ва халқаро транспорт йўлакларни доирасида сиёсат ва инфратузилмавий лойиҳаларни мувофиқлаштириш - нафақат логистика самарадорлигини оширади, балки минтақавий иқтисодий интеграцияни чуқурлаштиради, савдо тўсиқларини камайтиради ва умумий иқтисодий барқарорликни таъминлашда стратегик механизм сифатида хизмат қилади.

3. **Рақамлаштириш ва инновациялар** - юқларни кузатувчи ахборот тизимларини жорий этиш, "Ягона божхона тўсиғи" тизимини ривожлантириш, логистика соҳасида blockchain, IoT ва AI технологияларидан фойдаланишни ўзига қамраб олади[11]. МДҲ ва Осиёдаги транспорт секторида рақамлаштириш даражаси паст бўлиб, бу самарадорликка салбий таъсир кўрсатмоқда. MSE MSU, Higher School of Economics тадқиқотларида рақамлаштириш "стратегик ўтиш нуқтаси" сифатида қаралиши лозим экани қайд этилган[12-13-14].

БМТ ва Жаҳон банки маълумотларига кўра, логистика самарадорлиги индекси (LPI) бўйича Ўзбекистон ва Тожикистон 2024 йилда 2.4 балл атрофида баҳоланган, бу минтақада рақобатбардош инфратузилмани шакллантириш зарурлигини кўрсатади[15]. Кейинги йилларда қатор халқаро институтлар ва давлатлар Марказий Осиёнинг логистика салоҳиятига қизиқиш билдирмоқда. Хитойнинг "Бир камар – бир йўл" лойиҳаси орқали миллиардлаб доллар инвестиция жалб қилинмоқда. Европа Иттифоқи ва Жаҳон банки ҳам инфратузилма ривожини учун кредитлар ва грантлар ажратиш келмоқда.

Хулоса. Марказий Осиёда транспорт-логистика соҳаси юқори стратегик аҳамиятга эга бўлиб, унинг салоҳиятини тўлиқ очиб бериш учун чуқур стратегиялаш зарур. В.Л. Квинт томонидан ишлаб чиқилган стратегия назарияси ва МДУ методологияси ушбу соҳада стратегик таҳлил учун мустаҳкам асос яратади. Мақсадли стратегиялаш орқали минтақани глобал транспорт занжирининг марказий бўғинига айлантириш имкони мавжуд.

6. CASA1000 official website. About CASA1000 - casa-1000.orgWorld Bank
7. President.uz (2023). ШХТ саммитида Президент Ш.Мирзиёев нутқи. - <https://president.uz>
8. Daryo.uz (2023). <https://daryo.uz>
9. Wikipedia. China-Kyrgyzstan-Uzbekistan Railway. - <https://en.wikipedia>
10. CAREC Program Official Site. CAREC Corridor Development in Uzbekistan. - <https://www.carecprogram.org>

11. ScienceDirect, "Blockchain, IoT and AI in logistics and transportation: A systematic review", Transport Economics and Management, 2024 - blockchain, IoT.

12. European Proceedings, "Digitalization Of The Transport Industry In Russia: Trends, Drivers, Potential", 2020 - transrussia-preview.prismatic.com

13. IT Russia, "Russia's Digital Mobility Strategy: How AI, Contactless Tech, and Autonomous Systems Are Reshaping Transportation", 2025 - itrussia.media

TAdviser, "Digital logistics in Russia - low level but growing", 2024.



MUKARRAMA MURODOVA HAYOTI VA IJODIY FAOLIYATI

Dilshunosxon Inomova

Qo'qon universiteti mustaqil izlanuvchisi

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 39 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1229 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS mahorat, poetika, biografiya, gender, she'r, she'riyat, uslub, gazeta, jurnal.	Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida salmoqli o'rin egallagan shoira, journalist, tarjimon va olim Mukarrama Murodovaning hayoti va ijodiy faoliyati atroflicha yoritiladi. Olimaning ilmiy izlanishlari, pedagogik faoliyati hamda adabiy merosi o'zbek milliy adabiyotining taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq holda tahlil etiladi. Tadqiqotda Mukarrama Murodovaning ayol ijodkorlar orasida tutgan o'rni, adabiy jarayonga qo'shgan hissasi va yosh avlodni ilm-fanga yo'naltirishdagi xizmatlari ko'rsatib o'tiladi. Shuningdek, maqolada olimaning ilmiy qarashlari, adabiy-estetik merosi hamda jahon adabiyotshunosligidagi ayol ijodkorlarning umumiy tendensiyalari bilan uyg'unligi tahlilga tortiladi. Shuningdek, uning ayrim she'rlari tahlil qilinadi.

Kirish. O'zbek adabiyoti tarixida ayol shoirlar ijodi alohida o'rin tutadi. Ularning asarlari nafaqat she'riy san'at namunasi, balki ayol qalbining nozik kechinmalari, jamiyatdagi o'rni va ma'naviy olamini ham ifodalaydi.

Tarixga nazar tashlasak, o'zbek ayol shoirlaridan eng mashhurlaridan biri – Nodira (Mohlaroyim)dir. U XIX asrda yashab ijod qilgan, Farg'ona vodiysida Qo'qon xonligi malikasi sifatida siyosiy faoliyat bilan birga badiiy ijodda ham katta iz qoldirgan. Nodira o'z she'rlarida muhabbat, sadoqat, vatanparvarlik, ayollik qadr-qimmatini haqida kuylagan.

XX asr boshlarida jadidchilik davrida ham ayol shoirlarimiz qalam tebratib, millatni uyg'otishga xizmat qildilar. Masalan, Anbar Otin (1870–1915) o'z she'rlarida ayollarning savodsizlikdan qutulishi, ilm olish zarurligini ta'kidlagan. Uning satrlari o'z davri uchun jasoratli, ma'rifatparvarlik ruhi bilan sug'orilgan edi.

Keyinchalik sovet davrida ham ko'plab iqtidorli ayol shoirlar adabiyotimizga kirib kelishdi. Zulfiya (1915–1996) o'zining samimiy va yuksak lirizmi bilan mashhur bo'ldi. Uning she'rlarida ona yurt, tinchlik, sevgi va insoniylik tuyg'ulari asosiy mavzu bo'lib xizmat qildi. Zulfiya ijodi tufayli o'zbek ayol shoirlari xalqaro miqyosda ham tanildi. Ularning asarlarida zamonaviy ayolning hayoti, jamiyatdagi o'rni, insoniy qadriyatlar, muhabbat va orzular o'z ifodasini topadi.

O'zbek ayol shoirlari adabiyotimizda nafaqat nafis satrlar, balki ma'naviy quvvat, ma'rifat va hayotiy donishmandlik manbai bo'lib kelmoqda. Ularning she'rlari bugungi kunda ham o'quvchilar qalbiga yo'l topib, ayollarning ijtimoiy va madaniy hayotdagi o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Mukarrama Murodova haqida gap borar ekan, avvalo, uning ijodini zamonaviy o'zbek adabiyotidagi ahamiyatiga alohida to'xtatilib o'tish zarur. Shoira (1947–2005) o'zbek adabiyotida o'ziga xos ovoz va mazmunli chuqurlik bilan ajralib turadigan ijodkor, tarjimon va olimasi sifatida tanilgan. Uning ijodi XX asrning so'nggi choragi va XXI asr boshlaridagi o'zbek adabiyotining shakllanish va rivojlanish jarayonida muhim o'rin tutadi. Murodovaning she'riyati milliy qadriyatlar, ayol qalbi dardlari, tabiat go'zalligi va milliy ong mavzularini chuqur poetik estetik shaklda ifoda etib, o'zbek lirikasi an'alariga yangi nafas olib kirdi.

XX asrning ikkinchi yarmi o'zbek adabiyotida ayol shoirlarning faoliyati sezilarli darajada kuchaydi. Bu jarayonda o'zining poetik mahorati, chuqur fikr va hissiyotga boy asarlari bilan ajralib turgan ijodkorlardan biri bo'lgan Mukarrama Murodova o'zbek adabiyotining taraqqiyotiga munosib hissa qo'shgan shoirlardan sanaladi. Uning she'riyati o'zbek ayolining ichki olami, ruhiy kechinmalari, orzu-armonlari, ijtimoiy hayotdagi o'rni va milliy qadriyatlarga bo'lgan munosabati bilan ajralib turadi. Shoiraning dostonlari va badiiy publitsistikasi esa faqatgina estetik qiymat emas, balki ijtimoiy va ma'naviy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi globallashuv sharoitida milliy adabiyotning chuqur ildizlarini, uning rivojlanish bosqichlarida faoliyat yuritgan ijodkorlar merosini o'rganish dolzarb masalalardan biridir. Mukarrama

Murodovaning asarlarini tahlil qilish orqali faqatgina adabiy-estetik jihatlar emas, balki o'zbek ayolining badiiy obrazini yaratishdagi mahorat, xalqona ruh, poetik til va uslub masalalari bo'yicha ham muhim ilmiy xulosalarga kelish mumkin. Shu bois, shoiraning adabiy merosini zamonaviy ilmiy-nazariy yondashuvlar asosida o'rganish zaruriyati mavjud.

Bundan tashqari, Mukarrama Murodovaning tarjima va publitsistika sohasidagi faoliyati ham uning adabiy merosining muhim qismi hisoblanadi. Shoiraning tarjimalari orqali boshqa tillardagi adabiyot namunalari o'zbek o'quvchilariga yetkazish bilan birga, o'zbek adabiyotining jahon adabiy jarayonidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qildi. U yosh avlod uchun ilmiy-pedagogik yo'lni namoyish etgan ijodkor sifatida ham alohida e'tirofga sazovor bo'ldi.

Mukarrama Murodovaning ijodi zamonaviy o'zbek adabiyotida nafaqat milliy madaniyat va qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish balki, global adabiy jarayonlarga integratsiyalashishda ham o'ziga xos o'rin tutadi. Shoiraning milliylik va umumbashariylikni uyg'unlashtirgan poetik uslubi hozirgi zamon o'zbek adabiyotining estetik va mazmunli o'sishida muhim rol o'ynaydi.

Mukarrama Murodovaning hayoti va ijodiga bag'ishlangan ayrim maqolalar, davriy matbuotda e'lon qilingan sharhlar mavjud bo'lsa-da, ularning ko'lamli tor, tahliliy chuqurlik cheklangan. Shoiraning adabiy merosi hozirgacha kompleks ilmiy tadqiqot obyekti sifatida o'rganilmagan. Ayniqsa, uning she'riyati, dostonchilikdagi poetik idrok, publitsistik asarlaridagi dolzarb mavzular va badiiy til masalalari bir butun holda tahlil qilinmagan. Bu holat mazkur maqolaning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

Adabiyotlar tahlili

Mukarrama Murodova ijodi yosh adabiyot ixlosmandlari va yangi avlod shoirlari uchun doimo ilhom manbai bo'lib kelmoqda. Uning badiiy to'garaklarda faoliyat yuritganligi va yoshlar bilan doimiy aloqada bo'lib, ularning ijodiy rivojlanishiga ko'maklashganligi adabiyotimizda tarbiyaviy ishlarning samarali tashkil etilishiga misol bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida Mukarrama Murodovaning ijodi ko'p jihatdan yurtimizdagi ayol shoirlarning ijodiy faoliyatini rivojlantirishga katta hissa qo'shdi. Uning she'rlari oddiy, soddalikda teranlikni ko'rsatib, o'quvchilar qalbiga yaqin bo'ldi va ko'plab yosh shoirlarga ilhom manbai bo'ldi. Murodova o'zbek lirikasidagi an'anaviy va zamonaviy unsurlarni uyg'unlashtirib, adabiyotimizda ayollar ovozinig yanada ko'tarilishi uchun zamin yaratdi (Begaliyev, 2017).¹

XX asrning so'nggi choragida o'zbek adabiyotiga o'zining dardli ovozi bilan kirib kelgan Mukarrama Murodovani bugun ko'p yoshlar bilmaydi. Ona tili haqida jo'shib kuylagan, vatanning har bir qarichini "ko'ngil quvvati" deb bilgan, Abxaziya ko'chalaridan Andijonni qidirgan shoiraning nomi bugunga kelib adabiyotshunoslar davrasida ham juda kam tilga olinmoqda. Atoqli o'zbek shoiri Xayriddin Sulton bu haqida shunday yozgan edi: "O'tgan asrning 70-yillarida o'zbek she'riyatiga o'ziga xos ovoz va dard bilan kirib kelgan Mukarrama Murodova nomini bugungi avlod eslab qolishini juda-juda istardim. Ayniqsa, bugun shoira

¹ O.Begaliyev. She'riyat shu'lasi // Yoshlik. 2017, 4-son.

qizlarimiz davlat mukofoti ilinjida Vatan haqida havoyi va dardsiz she'rlari bilan rasmiy adabiy nashrlarimizni to'ldirib yuborgan bir paytda Mukarrama opaning soddada va dardkash she'rlari yuraklarimizni tozalashiga, yumshatishiga ishongim keladi"². Chindan ham, hozirgi globallashuv zamonida axborotlar toshib turgan internet tarmoqlarida shoira haqidagi ma'lumotlar juda kam. Mazkur maqola Mukarrama Murodova hayoti, adabiy va publististik faoliyati yuzasidan amalga oshiriladigan keyingi tadqiqotlar uchun "xamirturush" bo'lishidan umidvormiz.

Yosh shoirlar Mukarrama Murodovaning she'riyati orqali nafaqat ayol qalbining nozikligini, balki milliylik va insoniy qadriyatlarini ham o'rganadilar. Ularning ko'pchiligi Murodovaning oddiy til va ifodaviy uslubidan o'zlarining ilk she'rlarini yaratishda foydalanadi. Shuningdek, Murodovaning publitsistik va tarjimonlik faoliyati yosh avlodga keng ko'lamli ijodiy sohalarga qiziqishni oshirdi.

Shoiraning "Shu'la" adabiy to'garagida olib borgan rahbarligi yosh ijodkorlar uchun ilmiy va badiiy maktab bo'lib xizmat qildi. U yoshlarning o'ziga xos ovoz topishlariga yordam berib, adabiyotda yangi tendensiyalar paydo bo'lishiga zamin yaratdi. Bugungi kunda ham uning pedagogik va ijodiy merosi ko'plab yosh shoirlar va olimlar tomonidan qadrlanadi (Begaliyev, 2017).³

Metodologiya

Mukarrama Murodova ijodining yoshlar uchun ahamiyati, shuningdek, uning zamonaviy adabiy jarayonlarda milliylikni saqlash bilan birga, global adabiyot bilan aloqalarni mustahkamlashga qo'shgan hissasida ham namoyon bo'ladi. Shoiraning ijodiy va ilmiy merosi yoshlar uchun nafaqat adabiy o'rnak, balki milliy ruhiy merosning bebaho qismi sifatida ham alohida e'tirofga sazovordir.

Mukarrama Murodova O'zbekiston adabiyotida o'ziga xos ovoz va chuqur poetik estetikani yaratgan shoira, tarjimon va olim sifatida tanilgan. Uning ijodi zamonaviy o'zbek adabiyotining shakllanish va rivojlanish jarayonida muhim o'rinni tutadi. Bu maqolada Murodovaning ijodiy merosi, uning zamonaviy o'zbek adabiyotidagi o'rni hamda yosh ijodkorlarga ta'siri qiyosiy tahlil qilinadi.

Bundan tashqari, **tarixiy-adabiy yondashuv** asosida shoiraning ijodini tarixiy kontekstda tahlil qilinadi, **tahliliy usul** yordamida esa asarlardagi mavzu, g'oya va badiiy ifodani o'rganib chiqiladi.

Natijalar

Mukarrama Murodova 1947-yilning 18-yanvarida Andijon shahrida tavallud topadi. Andijon shahridagi 24-umumta'lim maktabida tahsil olib, maktabni imtiyozli tamomlaydi. Shoira o'quvchilik kezlari badiiy to'garaklarda faol qatnashib, ustozlar e'tirofiga sazovor bo'ladi. She'riyatga bo'lgan qiziqishi uni adabiyot sari yetaklaydi. Ijodini juda erta boshlagan shoiraning ilk she'ri 12 yoshida 1959-yilda viloyatning "Kommunist" ro'znomasida nashr etiladi. Viloyat Yozuvchilar uyushmasining o'sha vaqtidagi rahbari Karim Ahmadiy bu she'rni alohida e'tirof etib, shoiraga ijodda oq yo'l tilaydi. Shundan so'ng shoiraning she'rlari tez-tez vaqtli matbuotda ko'rinish boshlaydi. U nafaqat iste'dodli shoira, balki faol jamoatchi sifatida ham o'zini ko'rsatadi. 1962-yilda 15 yoshida viloyat yozuvchilar uyushmasiga referent maslahatchi qilib tayinlanadi.

1964-1968-yillarda Andijon davlat pedagogika institutining (hozirgi Andijon davlat universiteti) Filologiya fakultetida tahsil oladi. Hoshimjon Razzoqov, Fathiddin Is'hoqov, Nabijon Qobulov kabi yetuk adabiyotshunos olimlardan saboq oladi.

Yosh shoiraning she'rlari respublika va viloyat nashrlarida e'lon qilinadi, "Saodat", "Guliston", "G'uncha", "Yoshlik" jurnallarida turkum she'rlari bosiladi. Uning sokin misralari tez orada keng jamoatchilik e'tiborini qozonadi. Uning ijodi Zulfiya, Mirtemir, Saida Zunnunova kabi ustoz ijodkorlar tomonidan alohida e'tirof etiladi. Birin-ketin uning "Seni kuylayman", "Yorug' kun", "Bahor", "Цветник" singari to'plamlari nashr etiladi. Mazkur to'plamlarda jamlangan she'rlar adabiyot ixlosmandlarining qalbidan chuqur joy egallaydi. M.Murodova she'rlari nafaqat mamlakatimizda balki xorijda ham o'z muxlislariga ega bo'la boradi. Uning ijod namunalari "Пою о тебе"(1974), "Цветный день"(1978), "Цветник" (1976) nomlari bilan Moskvada nashrdan chiqadi. 1983-yilda uning turkum she'rlari Nataliya Dardikina tarjimasida rus tilida chop etiladi. Shu yili uning "Bahor", "Seni kuylayman" to'plamlari Xitoyning "Shon-Jun" nashritotida xitoy tilida bosmadan chiqadi.

Uning she'rlarida asosan **soddada, ammo chuqur his-tuyg'ularga boy bir muhabbat itirobi** tasvirlangan. Adibaning quyida keltirilgan she'ri ushbu tasvir va tavsiflarga mos tushadi:

Men haqimda o'ylar emishsan,
Do'stlaringga so'ylar emishsan.

U ham meni o'ylarmikan, deb
Olislardan bo'ylar emishsan.

Yoningdamish mening suratim,
Yodingdamish mening suratim.

Avvalida suysang ham meni,
Aytmabsanmish pinhon yonib jim.

Yana meni o'ylar emishsan,
Yonib, yonib kuylar emishsan.

Hanuz meni o'ylarmikan, deb
Olislardan bo'ylar emishsan.

Lirik qahramon — bu yerda ehtimolki ayol — o'zining sevgilisi tomonidan hanuzgacha sevib eslanishini bilib, ichki hayajon va itirob bilan fikr yuritmoqda. She'rning asosiy mavzusi — **eski muhabbatni sog'inish va hanuz yurakda yashayotgan tuyg'ular**. Bu ayriqliqdan so'nggi holatni, sevgilining yana o'ylayotganini bilish, ammo u bilan aloqaning yo'qligi haqida. She'r **soddaligi bilan chuqur ma'no beradi**. Har bir misra tuyg'u bilan to'la. Tashbeh va takrorlar she'rga musiqa baxsh etadi.

Masalan, "o'ylar emishsan", "so'ylar emishsan", "kuylar emishsan" kabi takroriy ifodalar lirik obrazni kuchaytiradi. "Pinhon yonib jim" degan ifoda — sevgining ichda, bekinik holda yashaganini ko'rsatadi. Bu she'r — **sevgidan ajralgan yurakning ichki monologi**, u sevgining hanuzgacha ikki qalb orasida yashayotganini eshitib, ich-ichidan quvonadi, ammo dard bilan eslaydi. She'r orqali o'quvchi ham sevgining og'riqli, ammo chiroyli tomonlariga guvoh bo'ladi.

M.Murodova nafaqat badiiy ijod bilan, balki ilmiy, tarjimonlik va publististik yo'nalishda ham barakali ijod qildi. U faoliyati davomida "O'zbekiston adabiyoti va san'ati", "Xalq so'zi", "Milliy tiklanish" gazetalarda samarali mehnat qildi. Jamiyatning eng og'riqli nuqtalarini qalamga oldi, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universitetida talabalarga saboq berdi, "Shu'la" adabiy to'garagiga rahbarlik qilib, yosh qalamkashlarga yo'l-yo'riq ko'rsatdi. Muhammadjon Rahimiy, Abdurahmon Lohutiy, Qutbi Kirom singari tojik shoirlari ijodini o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qildi. O'zbek tili frazeologiyasi, Oybek ijodida morfologik birliklarning qo'llanilishi yuzasidan salmoqli tadqiqotlar olib bordi. Usmon Nosir haqidagi "Men davrning bir parchasi" maqolasi bugungi kunda ham shoir faoliyati bo'yicha muhim manba hisoblanadi.

Shoira samarali badiiy, ilmiy va publististik ijodi natijasida Respublika Lenin komsomoli, "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan jurnalist" mukofotlariga sazovor bo'ldi. Shoira 2005-yilda og'ir xastalik tufayli hayotdan ko'z yumdi.

Mukarrama Murodova ijodini tadqiq etish u juda yosh bo'lgan davrlardan boshlanadi. Qiziq jihati shundaki, shoira ijodini tadqiq etish xorijlik olimlar tomonidan boshlab berildi. Amerika Qo'shma Shtatlarining mashhur "Sharq va G'arb adabiyoti" jurnalining 1967-yil 11-noyabr sonida amerikalik jadidshunos olim Edvort Olvort o'zining "Markaziy Osiyo adabiyotiga milliy uyg'onish kayfiyatining qaytishi" nomli maqolasini e'lon qiladi⁴. Olim maqolada o'zbek adabiyotidagi yangilanishlar haqida so'z yuritir ekan, Mukarrama Murodova, Rauf Parfi singari yosh shoirlar ijodini tahlilga tortadi va yuksak baholaydi. 20 yoshida jahon adabiyotshunoslari e'tirofiga erishganining o'zi ham uning yuksak poetik mahoratidan darak beradi.

Mukarrama Murodova she'riyati milliy qadriyatlarini yorqin ifoda etishda muhim vosita bo'ldi. U o'zbek xalqining tarixiy, madaniy va ma'naviy tajribasini she'riyatga jo'natib, zamonaviy poetik tilni yaratdi. Uning uslubi soddaligi va chuqur falsafiylikni uyg'unlashtirib, o'zbek lirikasining an'anaviy uslublarini yangi estetik pog'onaga ko'tarishga xizmat qildi.

Shoiraning lirikasi ayol ruhiyatining nozik jihatlarini, uning ijtimoiy va ma'naviy taqdiri muammolarini yuksak badiiy shaklda ifodalaydi. Bu

² <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/mukarrama-murodova-poetry.html>

³ O'sha manba

⁴ Edward Allworth. An old mood returns to Central Asian literature // Literature East and West. 1967, 11. 2: pp. 149-154.

esa o'zbek adabiyotida ayol ovozi yanada ko'tarilishi uchun maydon yaratdi. Murodova ayollarning ichki dunyosini teran his qilib, ularni jamiyatdagi o'rni va vazifalariga oid yangi yondashuvlarni o'z ijodida aks ettirdi.

Murodova tarjimonlik faoliyati orqali boshqa xalqlarning adabiyotini o'zbek o'quvchilariga yetkazib, madaniy aloqalarni kengaytirdi. Shuningdek, uning publitsistik maqolalari jamiyatning dolzarb ijtimoiy masalalariga bag'ishlangan bo'lib, yosh avlodni ma'rifatga yo'naltirishda muhim rol o'ynadi.

Xulosa

Mukarrama Murodova o'zbek adabiyotining mashhur namoyandalaridan biri bo'lib, uning ijodi milliy qadriyatlarni saqlash va zamonaviy poetik tilni yaratishda muhim ahamiyatga ega. Uning she'riyati va ilmiy faoliyati yosh avlod uchun ilhom va ilmiy maktab

vazifasini bajaradi. Murodovanning ijodi zamonaviy o'zbek adabiyotining rivojlanishida chuqur iz qoldirgan va yosh ijodkorlarga yo'l-yo'riq ko'rsatishda davom etmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Mukarrama Murodova ijodi XX asrning 70-80-yillari adabiy manzarasida alohida ahamiyat kasb etadi. U iste'dodli shoira, atoqli jurnalist, mohir tarjimon sifatida mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutdi. Afsuski, shoira ijodi mutaxassislar tomonidan maxsus maxsus tadqiq etilmadi. Natijada, bugunga kelib qariyb adabiy jamoatchilikning e'tiboridan chiqib qoldi. Uning hayoti va faoliyati shu qadar keng va ko'p qirraliki, bu alohida tadqiqotlarni talab qiladi. Kelgusi maqolalarimizda M.Murodova rahbarlik qilgan, Zebo Mirzo, Faxriyor, A'zam O'ktam, Zulfiya Mo'minova kabi atoqli ijodkorlar uchun maktab vazifasini bajargan "Shu'la" adabiy to'garagi xususida so'z yuritamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Edward Allworth. An old mood returns to Central Asian literature // Literature East and West. 1967, 11. 2: pp. 149-154.
2. M.Murodova. Seni kuylayman. Yosh gvardiya, 1986.
3. M.Murodova. Bahor boshlanibdi. Yosh gvardiya, 1974.

4. O.Begaliyev. She'riyat shu'lasi // Yoshlik. 2017, 4-son.

5. <https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/mukarrama-murodova-poetry.html>



ПУЛ ОҚИМЛАРИНИ САМАРАЛИ БОШҚАРИШДА ҚЎЛЛАНИЛАДИГАН ЗАМОНАВИЙ МОДЕЛЛАР ВА ХАЛҚАРО ТАЖРИБАЛАР

Фозилжонов Иброҳимжон Сотволдихўжа ўғли

Тошкент халқаро университети

Бизнес ва инновацион таълим факультети декани, и.ф.б.ф.-д., доцент

ifoziljonov@tsue.uz

MAQOLA HAQIDA

ANNOTATSIYA

Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil

Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil

Jurnal soni: 15

Maqola raqami: 40

DOI: <https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1230>

KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/

KEYWORDS

Пул оқимлари, молиявий барқарорлик, динамик прогнозлаш, пул айланиш цикли, нолга асосланган бюджетлаштириш, сунъий интеллект, ликвидлик, рискларни бошқариш, ишчи капитал, инвестиция самардорлиги, рақамли трансформация, молиявий бошқарув.

Ушбу мақолада корхоналар молиявий барқарорликни таъминлашда пул оқимларини самарали бошқариш усуллари ва замонавий моделларнинг амалий аҳамияти таҳлил қилинган. Тадқиқотда назарий таҳлил, халқаро амалиётларни қиёсий ўрганиш ҳамда иқтисодий кўрсаткичлар асосида баҳолаш усуллари танланган. Натижалар шуни кўрсатадики, динамик пул оқими прогнозлаш, пулнинг айланиш цикли (Cash Conversion Cycle), нолга асосланган бюджетлаштириш (Zero-Based Budgeting) ва сунъий интеллектга асосланган башоратлаш моделлари корхоналарда ликвидликни ошириш, хавфларни камайитириш ва ортиқча пул маблағларидан самарали фойдаланишда муҳим восита ҳисобланади. Халқаро тажриба мисолида АҚШ, Германия, Япония ва Сингапурда ушбу жараёнларнинг ўзига хос ёндашувлари таҳлил қилиниб, уларнинг ўзaro жиҳатлари очиб берилган. Пул оқимларини бошқаришда асосий эътибор ликвидликни таъминлаш, рискларни бошқариш ва эркин пул оқимини самарали инвестицияларга йўналтиришга қаратилиши лозим.

Кириш. Корхоналарда молиявий барқарорлик ва узлуксиз ишлаб чиқариш жараёнини таъминлашда пул оқимларини самарали бошқариш муҳим аҳамият касб этади. Бозор иқтисодиёти шароитида корхоналар олдида қутилмаган хатарлар, рақобат босими ва инвестицион талаблар кўпаймоқда. Шунинг учун пул оқимларини режалаштириш ва бошқаришда замонавий моделлардан фойдаланиш корхонанинг молиявий салоҳиятини оширишда ҳал қилувчи омил ҳисобланади. Корхоналарнинг молиявий барқарорлиги учун пул оқимини самарали бошқариш ҳал қилувчи аҳамиятга эга. Агар корхона нақд пулсиз қолса ва қўшимча молиялаштириш топа олмаса, у тезда тўловга лаёқатсиз ҳолатга келади. Шу боис, пул оқимини олдиндан башорат қилиш ва режалаштириш ҳар қандай бизнеснинг “ҳаётий қони”ни назорат қилиш демакдир. Ушбу ҳисоботда корхоналар пул оқимларини бошқаришда қўлланиладиган замонавий моделлар ва ривожланган мамлакатлардаги илғор тажрибалар таҳлил қилинади. Жумладан, Dynamic Cash Flow Forecasting, Cash Conversion Cycle, Zero-Based Budgeting ва сунъий интеллект асосидаги пул оқими прогнозлаш моделлари ҳамда АҚШ, Германия, Япония ва Сингапур каби мамлакатлардаги энг яхши амалиётлар кўриб чиқамиз.

Адабиётлар таҳлили. Пул оқимларини самарали бошқариш масаласи кўплаб олимлар томонидан чуқур ўрганилган. Brigham va Ehrhardt (2017) ўз тадқиқотларида корхона қийматини оширишда Free Cash Flow (FCF) кўрсаткичи муҳим индикатор эканлигини таъкидлайдилар. Уларнинг фикрича, корхонанинг эркин пул оқими нафақат қарзларни қайтариш ва дивиденд тўлаш учун, балки янги инвестиция лойиҳаларини молиялаштиришда ҳам асосий ресурс бўлиб хизмат қилади¹. Шунингдек, улар молиявий барқарорликни таъминлашда пул оқимини мунтазам назорат қилиш ва оптимallasштириш зарурлигини илмий асослаб берган.

Ross, Westerfield va Jaffe (2019) эса ишчи капитални бошқаришда Cash Conversion Cycle (CCC) моделининг аҳамиятини очиб беришади. Уларнинг тадқиқотларига кўра, CCC қисқарган сари корхона маблағларининг айланиши тезлашади, бу эса операцион самардорликни ошириш ва ликвидлик муаммоларини камайитиришга хизмат қилади². Улар CCC орқали корхоналарнинг сотув, ишлаб чиқариш ва кредиторлик муносабатларидаги заиф нуқталарни аниқлаш мумкинлигини кўрсатган.

Gitman (2018) томонидан илгари сурилган қарашларда пул оқимларини прогнозлашда динамик ёндашувнинг устунликлари алоҳида таъкидланган. Унга кўра, реал вақт режимидаги пул оқимлари таҳлили ва “what-if” сценарийлари турли хавф ҳолатларида корхона ликвидлигини сақлаш имконини беради. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, статик прогнозлашга қараганда динамик прогнозлаш бозор шароитларининг тезкор ўзгаришларига мослашишда самаралироқдир.

Koller, Goedhart va Wessels (2020) “Valuation” номли асарларида Zero-Based Budgeting (ZBB) моделини чуқур ўрганган. Уларнинг илмий қарашларига кўра, ЗББ орқали харажатларни стратегик қайта баҳолаш, ортиқча сарф-харажатларни қисқартириш ва эркин пул оқимини ошириш имконияти мавжуд. Бу ёндашув молиявий ресурслардан самарали фойдаланиш ва уларни юқори рентабелли лойиҳаларга йўналтиришга ёрдам беради.

Тадқиқот методологияси. Тадқиқот методологияси назарий ва амалий ёндашувларнинг уйғунлигига асосланган. Аввало, пул оқимларини бошқаришнинг замонавий моделлари бўйича иқтисодий адабиётлар ва халқаро тажрибалар таҳлил қилинди. Қиёсий таҳлил усули орқали АҚШ, Германия, Япония ва Сингапурдаги илғор амалиётлар ўрганилди. Бундан ташқари, асосий молиявий кўрсаткичлар - Days Sales Outstanding (DSO), Cash Conversion Cycle (CCC) va Free Cash Flow (FCF)-индикатор сифатида қўлланиб, корхоналар молиявий барқарорлигига таъсири баҳоланди. Тадқиқотда динамик прогнозлаш, сценарий таҳлили ва “what-if” моделлари орқали турли риск шароитлари симуляция қилинган. Шунингдек, Zero-Based Budgeting модели ва AI асосидаги прогнозлаш тизимларининг афзалликлари амалий мисоллар орқали асослабланган. Ушбу ёндашув натижаларнинг ишончлилигини таъминлаш ва илмий хулосаларни пухта асослашга имкон берди.

Таҳлил ва натижалар. Тадқиқот давомида, самарали пул оқимларини бошқаришнинг асосий мезонлари бўлган ликвидлик, рискларни камайитириш, инвестиция имкониятларидан фойдаланиш каби асосий молиявий кўрсаткичларни (Days Sales Outstanding, Cash Conversion Cycle, Free Cash Flow) кўриб ўтамиз. Замонавий шароитда корхоналар пул оқимини режалаштириш ва назорат қилиш учун қуйидаги моделлар ва инструментлардан фойдаланмоқда.

¹ Brigham, E. F., & Ehrhardt, M. C. (2017). *Financial Management: Theory & Practice*. 15th Edition. Cengage Learning.

² Ross, S. A., Westerfield, R., & Jaffe, J. (2019). *Corporate Finance*. 12th Edition. McGraw-Hill Education.

1. Динамик пул оқими прогноزلар (Dynamic Cash Flow Forecasting). Аънанавий статик прогноزلардан фарқи ўлароқ, динамик прогноزلар реал вақтдаги маълумотларга асосланиб доимий янгиланиб боради ва турли сценарийлар бўйича пул оқими баҳо беради. Бундай модель ҳафталик ёки ойлик роллинг-прогноزلар тузиш, энг яхши, базавий ва энг ёмон ҳолатларга мос сценарийларни ҳисобга олиш ҳамда реал вақт режим орқали қарор қабул қилиш имконини беради. Натижада бизнес муҳит ўзгарганда ҳам тез мослашувчан ҳисоб-китоб имконияти яратилади, бу эса пул оқимларни олдиндан кўриш ва олдини олишга хизмат қилади. Динамик пул оқими модели тез-тез янгиланган турли ва "what-if" таҳлиллари орқали корхонага турли ноаниқ ҳолатларда ҳам ликвидликни таъминлаш режаларини кўриш имконини беради.

2. Пулнинг айланиш цикли. (Cash Conversion Cycle -CCC) У корхонанинг ишлаб чиқаришга сарфланган маблағларни қайта нақд пулга айлантириш учун кетадиган ўртача кунлар сонини кўрсатади. Бу кўрсаткич уч қисмдан иборат: Days Inventory Outstanding (DIO) – захиралар қанча кунда сотилиши; Days Sales Outstanding (DSO) – дебитор қарзлар қанча кунда ундирилиши; Days Payables Outstanding (DPO) – кредиторлар қарзлари қанча кунда тўланишини англатади. Уларни ҳисоблаш учун қуйидаги формуладан фойдаланамиз:

$$CCC = DIO + DSO - DPO$$

Бу ерда,

DIO – захиралар қанча кунда сотилиши;

DSO – дебитор қарзлар қанча кунда ундирилиши;

DPO – кредиторлар қарзлари қанча кунда тўланиши.

Пулнинг айланиш циклини кичик сақлаш муҳим, чунки айланиш цикли қисқарса, корхона маблағлари ишлаб чиқариш ва сотиш жараёнида камроқ вақтга "қотиб қолади" ва тезроқ жорий фаолиятга ёки инвестицияларга йўналтирилиши мумкин. Масалан, илғор корхоналарда пулнинг айланиш цикли 33 кун ёки ундан кам бўлиши мумкин, заифроқларда эса 70 кундан ошади, бу эса нақд пулнинг айланиши сустлигидан дарак. Пулнинг айланиш цикли орқали корхона ўзининг ишлаб чиқариш, сотув ва тўлов жараёнларида қайси нуқталарда пул "тирбанд" бўлиб қолаётганини аниқлаб, айланма маблағларни оптималлаштириши мумкин.

3. Нолдан бошланувчи бюджетлаш (Zero-Based Budgeting - ZBB). Бу харажатларни ҳар бир янги давр учун "нол"дан бошлаб режалаштириш усули бўлиб, унда аввалги бюджет ёки ўтган йил сарфлари асос эмас, балки ҳар бир харажат янги бошидан асослантирилиши талаб этилади. Аънанавий бюджетлашда одатда ўтган йил бюджети маълум фоизга оширилади, Нолдан бошланувчи бюджетлаш эса ҳар бир харажат моддасини қайта кўриб чиқиб, зарурлигини асослаб чиқишни талаб қилади. Бу модел орқали корхона "автоматик" харажат ошишларига йўл қўймайди, ҳар бир харажатни стратегия ва самарадорлик нуқтаи назаридан баҳолайди. Нолдан бошланувчи бюджетлашнинг афзаллиги шундаки, у ортиқча ва самарасиз харажатларни аниқлаб, уларни қисқартиришга ёрдам беради, натижада корхонанинг нақд пул оқими яхшиланиши мумкин. Масалан, Kraft Heinz ва Unilever каби йирик халқаро корхоналар Нолдан бошланувчи бюджетлашнинг жорий этиб, бир неча миллиард доллар тежашга эришгани маълум. Шунга қарамай, нолдан бошланувчи бюджетлаш жуда меҳнат талаб қилувчи жараён бўлиб, ҳар бир даврда батамом таҳлил талаб этиши туфайли, уни доимий қўллаш катта ресурсларни талаб қилади.

4. Сунъий интеллект асосидаги пул оқими прогноزلари. Бугунги кунда сунъий интеллект (AI) ва машинани ўрганиш (Machine Learning- ML) алгоритмлари пул оқимини башорат қилишда тобора кўпроқ қўлланилмоқда. AI тизимлари ўтмишдаги молиявий маълумотлар ва трендларни тез таҳлил қилиб, сотув цикли, мижозларнинг тўлов одатлари, мавсумийлик каби омилларни ҳисобга олиб янада аниқ пул оқими прогноزلарини ярата олади. AI воситалари реал вақт режимда маълумотлар ўзгаришларига мослашиб, статик моделлардан фарқи ўлароқ динамик прогноз яратиш беради. Шунингдек, автоматлашган дастурлар ҳисоб-фактуралар юбориш, харажатларни категориялаш ва нақд пул баланси белгиланган чегарадан пасайганда огоҳлантириш каби вазифаларни бажариб, молиявий мутахассислар вақтини тежайди. AI ва автоматлаштиришнинг жорий этилиши натижасида прогноزلар нақдорлиги ошади,

инсон омилига боғлиқ хатолар камайтирилади ва қарор қабул қилиш тезлашади. Албатта, бу технологияларни жорий этишда дастлабки харажатлар ва маълумот хавфсизлиги масалаларига эътибор бериш керак бўлади, аммо кейинги йилларда бизнесда пул оқимларини бошқаришда AI воситалари ажралмас бўлиши кўтилмоқда.

Дунёдаги иқтисодий ривожланган мамлакатларда корхоналар пул оқимларини бошқариш борасида бой тажриба тўплаган. Қуйида AQШ, Германия, Япония ва Сингапур мисолида айрим энг яхши амалиётлар ўрганамиз AQШ корхоналари, айниқса йирик корпорациялар, пул оқимини бошқаришда илғор молиявий инструментлар ва технологиялардан фойдаланишга мойил. Масалан, кўпчилик бизнеслар қисқа муддатли нақд прогноزلар (ҳафталик ёки кунлик) ва TMS (Treasury Management System) каби автоматлашган тизимларни жорий қилишган. Шу орқали улар ҳар кун нақд пул позициясини кўриб боради ва ортиқча маблағларни қисқа муддатли инвестицияларга ёки қарзларни қисқартиришга йўналтиришади. AQШда мижозлардан тўловларни тезроқ ундиришга алоҳида эътибор берилади – одатда тўлов шартлари 30 кун атрофида қилиб белгиланади. Ҳақиқатан ҳам, глобал миқёсда қарийб 42% корхоналар ўртача 60 кундан узоқ тўлов муддати билан ишлайдиган бўлса, Шимолий Америкада бу кўрсаткич атиги 33% ни ташкил этади, яъни AQШ ва қўшни мамлакатларда аксарият корхоналар 60 кундан ошқин қарзга қолмайди. Бу шуни кўрсатадики, AQШ корхоналари сотувдан тушумини тезроқ нақдлаштиришга эришмоқда. Бундан ташқари, AQШда инвойс факторинг ва supply chain finance (таъминот занжири молиялашуви) кенг таралган – бу инструментлар орқали дебитор қарзлар тез ликвидлаштирилади. Натижада корхона ўз операцияни фаолиятини молиялаштириш учун доимий пул оқими эга бўлади. Шу билан бирга, AQШдаги молиявий бошқарув аънанаси корхоналарни "cash is king" тамойилида ҳаракат қилишга ўргатган – ҳатто фойда кўриб ишлаётган корхона ҳам, агар пул оқими носоғлом бўлса, қийинчиликка учраши мумкинлиги доимо таъкидланади. Илғор Америка корхоналари бугунги кунда AI асосидаги пул оқими прогноزلар воситаларини ҳам фаол қўллашмоқда, масалан, QuickBooks, Xero каби бухгалтерия дастурлари AI ёрдамида автоматлаштирилган нақд пул прогнози функцияларини тақдим этмоқда. Умумий қилиб айтганда, AQШ корхоналари учун энг яхши амалиёт – бу ҳар кунлик ликвидликни кузатиб бориш, аниқ пул оқими прогноزلарига эга бўлиш ва ишчи капитални (working capital) оптимал бошқаришдир.

Германия корхоналари пул оқими бошқарувида консерватив ва интизомли ёндашув билан танилган. Кўп немис корхоналари юқори ликвидликни сақлашга интилади – яъни етарлича нақд захираларга эга бўлиш ва қарз улушини паст даражада тутишни афзал кўришади. Айниқса, Mittelstand деб аталувчи ўрта бизнес вакиллари ортиқча таваккалликка бормайдиган, босқичма-босқич ривожланишни мақсад қилган молиявий стратегияга эга. Германия корхоналарида банк хазинаси (corporate treasury) функцияси яхши ривожланган бўлиб, кунлик пул оқимини бошқариш учун замонавий усуллардан фойдаланилади. Масалан, cash pooling (пул маблағларини бир марказга йиғиш) амалиёти уйғун – бир гуруҳ корхоналарнинг банк ҳисобварақлари охирида автоматик равишда асосий ҳисобга йиғилади, бу усул орқали гуруҳ бўйича маблағнинг фойдаланилмай қолиши олди олинади. Германияда аниқроғи zero-balancing техникаси энг кўп қўлланилади: ҳар кун банк кунни якунида барча филиал ва бўлимларнинг ҳисобварағи қолдиқлари марказий ҳисобвараққа ўтказилади, натижада суб-ҳисобварақлар "ноль"га келтирилади. Бу ҳақдаги тадқиқотларда таъкидланишича, Германия корхоналарида cash concentration – пулни концентрация қилиш усули ликвидликни бошқаришнинг энг кенг тарқалган усулидир. Бунда турли юридик шахслар ва ҳатто бошқа давлатлардаги ҳисобварақлар ҳам ягона концентрация тузилмасига жалб этилиши мумкин. Шундай қилиб, гуруҳ ичида ортиқча пул бор ҳисобварақлардан камомад бўлганларга автоматик равишда маблағ ўтказилиб туради. Немис корхоналари, шунингдек, Notional Pooling (номинал пуллинг) усулини ҳам қўллашлари мумкин, аммо Германия қонунчилигига кўра банклар дебет-кредит қолдиқларни расман ўзаро қоплаш ҳуқуқига эга эмаслиги сабаб, бундай усул камроқ учрайди. Европа Иттифоқи доирасида кечиктирилган тўловларга қарши қонунчилик ҳам кучайиб бормоқда – хусусан, Европа комиссияси корпорациялар ўртасида тўлов муддатларини 60 кундан 30 кунга қисқартириш

усули синаб кўрилмақда. Германия ва Франция каби мамлакатларда 2023 йили ўртача тўлов муддатлари яна 5 кунга узайгани кузатилди, бу эса иқтисодий қийинчиликлар даврида баъзи корхоналар партнёрларига кечикиб тўлаётганини кўрсатади. Шу боис Европа мамлакатларида кечиккан тўловлар учун пенялар, қатъийроқ шартномавий шартлар орқали дисциплинани оширишга ҳаракат қилинмоқда. Умуман олганда, Германияда пул оқимини самарали бошқаришнинг асосий ўзига ҳослиги – хавфларни камайтиш, узоқ муддатли барқарорликка эътибор ҳамда ички тартиб-интизом орқали харажатларни назорат қилишдир.

Япония корпорациялари пул оқимини бошқаришда айрим ўзига хос жиҳатларга эга. Биринчидан, япон корхоналари анъанавий равишда катта нақд резервлар тўплаб бориши билан ном чиқарган. Сўнги йилларда Япония корпорациялари балансаридаги соф нақд миқдорини сезиларли даражада оширди – ҳатто шу пайтда йирик корхоналарнинг ярмидан зиёди қарзини ҳисобга олмаганда ҳам нақд маблағларга эга, яъни “net cash” ҳолатидадир. Бу кўрсаткич бошқа барча йирик иқтисодиётлардаги корхоналар билан солиштирганда энг юқори ўлушдир. Бундай катта нақд тўплаш ортидаги сабаблардан бири – Японияда банк ставкаларининг узоқ йиллар давомида жуда паст бўлиши ва корпоратив бошқаруvingн эҳтиёткорлигидир. Яқин йилларда ҳукумат корпоратив бошқарув ислохотлари орқали корхоналарни ортиқча нақдни иқтисодиётга сармоя қилинишини рағбатлантирмоқда. Айнан 2015 йилдан кейин қабул қилинган корпоратив бошқарув кодекси натижасида япон корхоналари дивидендларни сезиларли ошириш ва акцияларни қайта сотиб олишни кўпайтиришга киришди бу ҳам пул оқимини тадбиркорликда фаолроқ ишлатишга бўлган уринишдир. Иккинчидан, Японияда ҳам пул оқимини кунлик бошқариш учун банк ҳисобварақларини марказлаштириш усули қўлланади. Япон корхоналари ликвидликни бошқаришда асосан ҳисобварақларни бир жойга жамлашни афзал кўришади, айрим ҳолларда zero-balancing техникасидан фойдаланади. Бироқ, Японияда zero-balancing қўлланилиши бошқа баъзи мамлакатларчалик кенг эмас, сабаби юридик ва банк амалиётидаги ўзига хосликлардир. Шу билан бирга, йирик япон корпорациялари ўзларининг банкларига эга гурӯҳ – Кейретцу доирасида иқтисодий қийинчилик пайтларида тез сармоя жалб қилиш имкониятига эга бўлгани учун ликвидлик хавфларини енгилроқ бошқара оладилар. Бугунги кунда эса япон корхоналари ҳам глобал трендга мувофиқ рақамли трансформация қилмоқда – масалан, ҳисоб-китобларни электрон шаклга ўтказиш, инвойсларни автоматлаштириш ва маълумотларга асосланган

прогноزلар қилишга интилишяпти. Японияда тўлов муддатлари ўртача Осиёдаги каби нисбатан узоқроқ бўлиб, 2023 йилда Япония корхоналарининг ишлаб чиқаришда айланма маблағлари цикли 3 кунга қўзилгани кузатилган. Бу мижоз тўловларининг сурилиш тенденцияси эканлигини англатади. Ҳукумат кичик бизнесни қўллаб-қувватлаш учун тўлов муддатларини тартибга солишга ҳам эътибор қарата бошлаган. Умуман, Япония тажрибасининг асосий сабоғи шундаки: пул оқимини бошқаришда эҳтиёткорлик ва ликвидлик захирасини сақлаш муҳим, бироқ ортиқча қолдиқ маблағларни самарали инвестиция қилишга ҳам эътибор қаратиш зарур. Ортган нақдни жойида ишлатиш корхона қийматини оширишда муҳим рол ўйнаши мумкинлиги энди-энди корпоратив ёндашувга кириб келмоқда. Сингапур – Осиёдаги йирик молиявий марказлардан бири бўлиб, бу ердаги корхоналар пул оқимини бошқаришнинг замонавий усулларини жадал жорий этмоқда. Сингапур ҳукумати ҳам кичик ва ўрта бизнесларга молиявий бошқарувни яхшилаш борасида фаол ёрдам беради. Масалан, Сингапур ҳукуматининг грант ва субсидиялари мавжуд бўлиб, улар айнан ликвидлик таъминоти ва пул оқими қийинчиликларини юмшатишга қаратилгандир. Бундан кўзланган мақсад – корхоналар қисқа муддатли нақд муаммоларини енгиб ўтиши ва ўсиш лойиҳаларига сармоя қила олишидир. Сингапурдаги банклар ва финтех корхоналари томонидан кичик бизнес учун турли онлайн касса услублари, автоматлаштирилган ҳисоб-фактура платформалари таклиф этилади – бу орқали ҳисоб-фактура юбориш, тўлов эслатмалари, онлайн тўловларни қабул қилиш осонлашади. Шу сабабли, Сингапур корхоналари мижозлардан тўловларни тезлаштириш учун эрта тўлов чегирмалари, инвойс факторинг кабиларни ҳам кўп қўллайдди. Амалиётда жиҳатлардан бири – overdraft ва қисқа муддатли кредит линияларини эҳтиёт чораси сифатида очиб қўйиш; бу орқали кўтилмаган ҳолатларда банкдан тез пул жалб қилиш мумкин. Сингапурнинг кичик бозор экани ва халқаро савдога боғлиқлиги туфайли, бу ердаги корхоналар мултивалюта пул оқимини бошқариш масаласига ҳам дуч келишади. Шунинг учун кўплаб корхоналар валюта курси хавфларини хедж қилиш амалиётидан фойдаланадилар, бу ҳам пул оқимининг қийматини сақлашда муҳимдир. Сингапурда пул оқими бошқарувининг энг яхши жиҳати – бу рақамли воситалардан фойдаланиш, давлат томонидан яратилган қулай шарт-шароитлар ва халқаро молиявий амалиётларга тез интеграциялашувдир. Қўйида ҳар бир кўриб чиқилган мамлакатдаги пул оқимини бошқариш амалиётининг ўзига хос жиҳатлари қисқача таққослаб ўтамиз.

1-жадвал

Корхоналар пул оқимларини бошқариш бўйича хорижий давлатларнинг ўзига хос амалиётлар³

№	Давлат номи	Корхоналарда пул оқимларини бошқаруви бўйича ўзига хос амалиётлар
1	АҚШ	- Қисқа тўлов муддатларига интилиш. Шимолий Америкада корхоналарнинг фақат 33% ида тўлов муддати 60 кундан ошади. - Пул оқимини башорат қилишда ва ҳисобварақларни юритишда автоматлаштириш ҳамда AI технологияларидан фойдаланиш жуда кенг тарқалган. - Инвойс факторинг, supply chain finance каби ишчи капитални тез ликвидлаштирувчи молиявий инструментлар оммалашган.
2	Германия	- Корхоналар ликвидликни сақлашга катта эътибор қаратади, ортиқча қарзга бўлмаслик ва етарли нақд захиралар тутишини афзал кўришади. - Гурӯҳ ичида пулни марказлаштириб бошқариш (cash pooling) амалиёти кенг қўлланади; zero-balancing усули орқали ҳар кунлик ҳисобварақ қолдиқларини асосий ҳисобга йиғиб бориш типик ҳолатдир. - Кечиккан тўловларга нисбатан тартиб интизом кучли: шартномавий тартиб ва Европа қонунчилиги корхоналарни тўлов муддатларини қисқа сақлашга мажбурламоқда.
3	Япония	- Корхоналар катта нақд пул захираларига эга бўлиб, бошқа мамлакатларга нисбатан балансида ортиқча нақд сақлаш ўлуши юқори (ТОPIX индекси корхоналарининг >50% қарзсиз, соф нақд позициясида бўлиши). - Пул оқимини кунлик бошқаришда bank cash concentration усуллари мавжуд, бироқ zero-balancing бошқа мамлакатларга нисбатан камроқ қўлланади. - Одатда тўлов муддатлари узоқроқ (Осиё менталитети), бу дебитор қарзлар (DSO) ни оширс-да, ҳозирда ислохотлар орқали мижоз тўловларини тезлаштириш ва ортиқча нақдни инвестиция қилишга рағбатлантириш кучаймоқда.
"Gul", "yog'och", "ko'l", "zamin" kabi tabiat unsurlari ijtimoiy hayot va inson taqdiri bilan o'zaro bog'liq ramzlardir. Ular inson madaniyati va sivilizatsiyasi rivojida asosiy o'rin tutuvchi umrboqiy unsurlar sifatida tasvirlangan. "Arra", "karbid", "aero" kabi jumlar bejiz ishlatilmagan, bu detallar orqali industrial rivojlanish va texnokratik sivilizatsiyaning muhitga keltirayotgan talofatlari tasvirlangan. Tabiatni buzilgan yer "zil sukutda qoladi", ammo bu sukut zulmga qarshi qo'zg'olonning xabarchisi. Bu yerdagi peyzaj ekologik hodisa emas, balki insoniyat taqdiriga ta'sir etuvchi badiiy-kosmologik voqealardir. She'rda umumiy konsepsiya – tabiatning tiriklik va xotiraga egaligidir. Tasvirlanayotgan peyzaj, daraxtlar va ko'llar insonning egzu yoki vayronkor faoliyatini o'zida aks ettirib, uni qaytarib beradigan tirik kuch sifatida tasvirlangan. Bunda tabiat va inson o'rtasidagi murakkab munosabatlarning ekologik, axloqiy va falsafiy mohiyati ochib beriladi. Omon Matjon she'riyatidagi peyzaj faqat manzara emas, balki insoniyatning o'ziga berilgan savollar va javoblar tizimi sifatida namoyon bo'ladi.

Rauf Parfi tabiat hodisalari orqali inson va olam, xotira va voqelik, xayol va reallik o'rtasidagi munosabatni ochib beradi. Unga ko'ra, yomg'ir inson xotiralarini uyg'otadi, kecha inson tafakkuri bilan birlashadi, shabboda esa hayotdagi beqarorlikni aks ettiradi.

Menga kecha yomg'ir ichinda
Mash'um xayol kabi ko'rinar,
Ruxsorini yuvgan kechada
Men bilmagan yalang'och shuur.

Rauf Parfi she'riyati o'ziga xos badiiy ifoda vositalari, yuksak metaforalar va syurrealistik tasvirlar bilan ajralib turadi. U oddiy tabiat manzarasini tasvirlash bilan cheklanmay, uni inson ruhiyati, xayollari va ichki olami bilan bog'lab, yangi poetik ma'nolar yaratadi. She'rda epitettar ("mash'um xayol", "qora nur"), metaforalar ("yomg'ir – marvarid", "tunda afsonalar aytar"), antitezalar ("qora nur") kabi badiiy san'atlar orqali ta'sirchanlik, she'rning badiiy jozibasini oshgan. Bu badiiy vositalar she'rning ma'no doirasini kengaytirib, uning hissiy kuchini oshiradi. "Men bilmagan yalang'och shuur" misrasida inson ongidagi noaniqlik, tushunarsizlik va iztiroblar aks ettirilgan. Bu jarayonni shoir yomg'ir va tabiat hodisalari bilan uyg'unlashtirgan. Rauf Parfining "Yomg'ir emas, marvarid yog'ar" she'ri peyzaj, inson ruhiyati va metafizik tafakkur uyg'unligini namoyon etuvchi, badiiylilik va ma'no yuksakligiga ega bo'lgan manzara lirikasining betakror namunalaridan biridir.

Daryo mavjlariga yozilmish g'azal,
Maysalar egilib o'qiydir kitob.
Shodlanib xandalar otar bir lahza,
Bir lahza oh tortib qo'yadir oftob.⁸

Daryo – she'r, mavjlar – ruh, maysalar – inson ongini anglatadi. Bunda daryo nafaqat tabiat ob'ekti, balki inson tafakkurining, uning ruhiy kechinmalarining qiyosiy manzarasi sifatida talqin qilinadi. She'rda tabiat manzarasi real tasvirlashdan ko'ra simvolik obrazlar bilan boyitilgan. "Daryo mavjlariga yozilmish g'azal" tasviri tabiat va san'at uyg'unligini aks ettiradi. Bu yerda daryo nafaqat tabiiy manzara, balki insonning ichki kechinmalari, tuyg'ulari va ruhiy holatini ifoda etuvchi obraz sifatida berilgan. "Maysalarning egilib kitob o'qishi" inson va tabiat o'rtasidagi yaqin aloqani ko'rsatadi. Bu tasvir orqali tabiatning faqat manzara emas, balki inson ongi va xotiralarining timsoli ekanligi taqdim etilgan.

Bu davrda poetik peyzaj ichki teranlikka ega bo'lib, insoniyatning tabiatga munosabatini aks ettiruvchi konseptual mezon sifatida rivojlandi. Ushbu davr she'riyatida ekologik ma'rifat g'oyalari paydo bo'ldi. Mazkur g'oya adabiyot tabiatni nafaqat estetik zavq olish

⁴ Karimov, N. (2005). Zamonaviy o'zbek she'riyati poetikasi. Fan nashriyoti. 78-112-betlar.

⁵ To'raqulov, A. (2011). O'zbek lirikasida tabiat va inson. Akademnashr. 90-134-betlar.

⁶ Hayitmuradov, U. (2008). Zamonaviy she'riyatda ramziylik va uning ifodalanishi. Fan va turmush, 7, 33-37.

⁷ Omon Matjon. Tanlangan asarlar. – T.: Adabiёт nashriёti, 2023. – B.177

⁸ Рауф Парфи. Сайланма. – Т.: Akademnashr, 2013. – B.63

vositasi, balki uni himoya qilish, asrashga da'vat etuvchi kuchli ta'sir mexanizmi sifatida aks ettirishni ilgari surardi. Shu jihatdan peyzaj nafaqat inson ichki olamini ifodalash uchun ishlatildi, balki ekologik muammolarga e'tibor qaratish vositasiga ham aylandi va ekologiya masalalari adabiyotda inson ma'naviy dunyosi bilan uyg'un holda aks ettirila boshlandi.

Orol qurimoqda, dema, aldama,
Aytgin: - Qurimoqda imonning bog'i.
Aytgin: - Cho'kayotir biz tushgan kema,
Hayqirgin: - So'nmoqda hayot chirog'il!.. (Xurshid Davron)
Uzoqdan qarasang –
moviy sayyora
rang-barang tovlanma nurdan yaralgan.
Yaqindan qarasang –
boshidan-oyoq
tikonli simlarga chirmab o'ralgan. (Shavkat Rahmon)
Men — suvsadim. Men — qaqradim. Men — xas bo'ldim.

Quridim.

Har bargimu, har navdamni tark etdi barcha hayot.
"Najot" bormi?— Men tangriga savol berib urindim,
Va yolvordim: — Vujudimda qolmadi zarra sabot. (Usmon Azim)
Tabiatiga beetiborlik, uni yo'q qilish, sun'iy muvozanatni buzish insoniyat taqdiriga ham ta'sir qiladi. She'riyatda "tabiatni muhofaza qilish" mavzusi tobora muhim ahamiyat kasb eta boshladi. She'rlar ekologik targ'ibot vositasiga aylanib, insonni o'z muhitiga mas'uliyat bilan yondashishga chorladi.

Muhokama. XX asr so'nggi choragi o'zbek adabiyotida badiiy tafakkurning keskin o'zgarishlar bosqichini ifodalaydi. Bu davr ijodkorlari inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatni yangicha, chuqur falsafiy-estetik nuqtayi nazardan talqin etishga intildilar. Endilikda tabiat tasviri shunchaki manzara yoki dekorativ unsur bo'lib qolmay, balki ekologik muammolar, ma'naviy iztiroblar va ijtimoiy jarayonlarning ramzi sifatida talqin qilina boshladi.

Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Rauf Parfi, Omon Matjon singari shoirlar poetikasida peyzaj lirikasining yangi mazmuniy qatlami shakllandi. Ular tabiatga estetik ob'ekt sifatida emas, balki insonning ichki olamini, ruhiy kechinmalarini aks ettiruvchi tirik mavjudot sifatida qaradilar. Shu bilan birga, bu shoirlar she'riyatida ekologik muammolar insonning ma'naviy inqirozi, zamonning beqaror ruhi bilan bog'liq tarzda ifodalanadi.

Masalan, Usmon Azim she'riyatida suv, shamol, daraxt kabi tabiiy unsurlar zamonaviy hayotdagi begonalik va beqarorlik ramziga aylanadi. Shavkat Rahmonda peyzaj lirikasining falsafiy mohiyati chuqurlashib, tabiat insonning mavjudlik mohiyatini anglash vositasiga aylanadi. Xurshid Davronning lirik manzaralari tarixiy xotira, milliy o'zlik va ekologik ong uyg'unligini ifodalaydi. Rauf Parfi tabiatni ruhiy makon sifatida talqin etar ekan, insonni o'z ekologik muvozanatini topishga undaydi. Omon Matjon esa cho'l va sahro obrazlari orqali insoniyatning beparvo munosabati oqibatida yo'qolib borayotgan tabiiy muvozanatni ogohlantiruvchi badiiy manzara yaratadi.

Demak, XX asr so'nggi choragida peyzaj lirikasida kuzatilgan evrilishlar o'zbek she'riyatining estetik, falsafiy va ijtimoiy yo'nalishlarda yangilanishini ko'rsatadi. Tabiat manzaralari endilikda faqat tashqi go'zallikni emas, balki davr ruhini, ekologik inqirozni, insoniy mas'uliyatni ifoda etuvchi poetik vositaga aylandi. Bu jarayon badiiy tafakkurda ekologik ongning shakllanishi va adabiyotning ijtimoiy-ma'naviy vazifasining kengayganligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ж.Сувонова. Усмон Азим шеърлятида бадий тафаккур теранлиги. Монография. — Тошкент: Алишер Навоий номидаги Ўзбекистон Миллий кутубхонаси нашриёти, 2012. — Б.6
2. Ш.Ризаев. Изтироб санъати: адабиёт, театр, кино, мусиқа. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2013. — Б.121
3. Ikromjonovna, J. S. (2023). THE ROLE OF FOLK TALES AND EPIC MOTIVES IN THE POETRY OF USMAN AZIM. Open Access Repository, 9(4), 545-548.
4. Ikromjonovna, J. S. (2023). PEYZAJNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDAGI O'RNI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 97-99.

Xulosa. XX asr so'nggi choragi o'zbek adabiy jarayonida badiiy tafakkur va estetik qarashlarning chuqur yangilanish davri bo'ldi. Bu davrda poeziya, ayniqsa, lirika insoniyat hayotidagi global muammolar — ekologik tanglik, tabiat bilan munosabatning buzilishi, ruhiy beqarorlik kabi holatlarni o'z badiiy talqin doirasiga kiritdi. Shu bois peyzaj lirikasida ilgari ko'proq tashqi go'zallikni ifodalovchi manzara unsurlari o'z mohiyatini o'zgartirib, ekologik, falsafiy va ijtimoiy mazmun bilan boyidi.

Mazkur tadqiqotda ko'rib chiqilgan Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Xurshid Davron, Rauf Parfi, Omon Matjon ijodidagi tabiat tasvirlari o'zbek poeziyasida ekologik fikrlashning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Ularning har biri o'ziga xos poetik dunyoqarash orqali tabiatga bo'lgan munosabatni badiiy-falsafiy konsepsiya darajasiga ko'tardi.

Usmon Azim she'riyatida tabiat insonning ichki iztirob va umidsizlik manzarasi sifatida gavdalanadi. Tabiiy unsurlar orqali shoir insoniy tuyg'ular, jamiyatdagi begonalik va beqarorlik holatini ochadi. Shavkat Rahmon esa tabiatni ruhiy makon sifatida talqin etib, unda insonning borliqni anglash yo'lidagi falsafiy izlanishlarini ko'rsatadi. Uning she'rlarida shamol, yomg'ir, daraxt, dengiz kabi obrazlar inson qalbi bilan bevosita uyg'unlikda yashaydi.

Xurshid Davron lirikasi tarix va tabiatni bir butunlikda ko'radi. U milliy xotira, madaniy qadriyatlar va ekologik ongni birlashtirgan holda, tabiatni milliy o'zlik ramziga aylantiradi. Rauf Parfining poeziyasi esa ekologik falsafaning eng chuqur qatlamlarini ochib beradi: u tabiatni moddiy manzara emas, balki ruhiy mavjudot, inson qalbining ko'zgusi sifatida tasvirlaydi. Omon Matjon esa sahro, cho'l, shamol kabi timsollar orqali tabiat va inson birligini falsafiy ramz darajasiga olib chiqadi, ekologik muvozanatning buzilishi insoniyatning ma'naviy tanazzuli bilan bog'lanishini ifodalaydi.

Shu bilan, XX asr oxiri o'zbek poeziyasida tabiat va inson uyg'unligi masalasi badiiy tafakkurning markaziga ko'tarildi. Tabiat tasvirlari endilikda shoirning ichki dunyosini, jamiyatdagi muhitni, insoniyatning ekologik mas'uliyatini aks ettiruvchi poetik indikator sifatida xizmat qila boshladi. Bu esa o'zbek adabiy tafakkurining yangi bosqichga o'tganligini — ya'ni, tabiatni estetik ob'ekt sifatida emas, balki ijtimoiy va ma'naviy mavjudot sifatida idrok etish bosqichiga kirganligini anglatadi.

Mazkur evrilishlar o'zbek adabiyotida ekologik estetik tafakkurni shakllantirdi. Bu tafakkur shoirlar ijodida atrof-muhit muhofazasiga da'vat, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni tiklashga intilish, ruhiy poklanish va mas'uliyat tuyg'usini uyg'otish orqali namoyon bo'ldi. Aynan shu jihat XX asr so'nggi choragidagi peyzaj lirikasini avvalgi bosqichlardan tubdan farqlaydi.

Umuman olganda, mazkur davr poeziyasi o'zbek adabiyotining badiiy tafakkurida "ekologik ongning uyg'unlash davri" sifatida baholanishi mumkin. Bu davr shoirlari o'z asarlari orqali insonni tabiatning ajralmas bir bo'lak sifatida anglash, borliqni asrash, ruhiy uyg'unlash va ma'naviy mas'uliyatni targ'ib etish g'oyalarini ilgari surdilar. Natijada, peyzaj lirikasining poetik shakli ham, g'oyaviy yo'nalishi ham yangilandi.

Bugungi kunda ushbu davr poeziyasida ifodalangan ekologik motivlar va badiiy yondashuvlar zamonaviy o'zbek adabiyotida ham o'z aksini topmoqda. Ular ekologik muammolarni badiiy idrok etishning milliy modelini yaratgan, adabiyot va jamiyat o'rtasidagi aloqani yanada mustahkamlagan holda, badiiy tafakkurning ekologik paradigmasini shakllantirganini ko'rsatadi.

5. Qur'onov, S., & Yo'ldoshev, Q. (2018). O'zbek adabiyoti tarixi (Mustaqillik davri). O'zbekiston Milli universiteti nashriyoti, 145-167-bet.
6. Karimov, H. (2010). *O'zbek she'riyati poetikasi va tabiat obrazlari*. Toshkent: Fan.
7. Nazarov, S. (2018). Mustaqillik davri o'zbek she'riyatida ramziy talqinlar. Toshkent: Yangi asr avlodi.
8. Hayitmuradov, U. (2008). Zamonaviy she'riyatda ramziylik va uning ifodalanishi. Fan va turmush, 7, 33-37.
9. Омон Матжон. Танланган асарлар. — Т.: Адабиёт нашриёти, 2023. — Б.177
10. Шавкат Раҳмон. Абдиат оралаб. — Т.: Movarounnahr, 2012. — Б.61



INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA XALQARO TURIZM ATAMALARI SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI

Kuchkarova Gavxar Abdullayevna,

Qo'qon universiteti Andijon filiali katta o'qituvchisi.

gavharkuchkarova41@gmail.com

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 43 DOI: https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1284 KALIT SO'ZLAR/ КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА/ KEYWORDS	Ushbu maqolada ingliz va o'zbek tillarida turizm terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi tarixiy hamda zamonaviy nuqtai nazardan o'rganiladi. Tadqiqot davomida turizmga oid atamalarining ildizi qadimiy ko'chmanchi qabilalar hayoti va ularning ko'chish jarayonlariga borib taqalishi ilmiy asosda tahlil qilinadi. Shuningdek, savdo karvonlari va "Buyuk ipak yo'li" orqali xalqaro iqtisodiy aloqalar bilan bir qatorda turizm terminologiyasining shakllanishi, karvon, karvonsaroy, xonaqoh, sarbon kabi terminlarning yuzaga kelishi ham alohida yoritiladi. Maqolada tarixiy-qiyosiy tahlil, tilshunoslik tahlili, adabiy manbalar asosida kuzatuv va qiyosiy tarjima usuli qo'llanib, terminlarning o'zbek tiliga moslashuvi hamda ingliz tilidan kirib kelgan yangi terminlarning o'zbek adabiyoti va nutqidagi qo'llanilishi o'rganiladi. Abdulla Qodiriy va Ulug'bek Hamdam asarlaridagi kuzatishlar milliy adabiyotimizda turizmga oid tushunchalarning qadimiy ildizlarga ega ekanini ko'rsatadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, ingliz tilidagi musician, pianist, guitarist, resident musician, entertainer singari terminlar o'zbek tilida qisman moslashib, faol qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, milliy adabiyotda uchraydigan mashshoq, soqiy, mug'bacha kabi so'zlar zamonaviy turizm terminlari bilan semantik jihatdan uyg'unlashadi. Maqola turizm terminologiyasining tarixiy ildizlari, zamonaviy qo'llanishi va ikki tilda moslashuv jarayonlarini yoritib, tilshunoslikda muhim ilmiy xulosalar beradi.

Kirish.

Turizm bugungi kunda iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo'lib, u tilshunoslik uchun ham alohida tadqiqot obyekti sanaladi. Turizmning taraqqiyoti bilan bir qatorda uning terminologiyasi ham boyib boradi. Turizm tarixini kuzatish orqali dastlabki ko'chmanchi qabilalar, diniy ziyoratchilar, savdogarlar, elchilar va olimlar sayohatlarining tilga qo'shgan hissasini anglash mumkin. Shuningdek, tarixiy yozma manbalar orqali turizmga oid terminlarning shakllanishi va keyinchalik o'zbek tiliga kirib kelishi kuzatiladi. Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o'zi taqozo etmoqda. Shunday ekan, soha rivojlanib borishi bilan uning terminologiyasi ham takomillashib boradi. Bu esa tilshunoslar oldiga soha terminologiyasining turli jihatlarini tadqiq etish vazifasini qo'yadi.

Tarixni kuzatar ekanmiz, shular ma'lum bo'ladiki, turizm sohasi insoniyat tamaddunining eng qadimgi davrlariga borib taqaladi. Turizmning ilk ko'rinishlari ko'chmanchilik bilan shug'illangan qabilalardir. Ularning ilk davrlardagi bir joydan boshqa bir joyga ko'chib yurishi natijasida ilk turizm elementlari vujudga kelgan. Dinlarni targ'ib qilgan missionerlar, diniy ziyoratchilar, mamlakatlararo kezzan tojirlar, elchilar, ilm talabidagi olimlar, talabalar, boshqa yurtlarga yurish qilgan harbiylar, jangchilar ilk turistlar sifatida namoyon bo'lgan. Ularning ko'pchiligi sayohatlari, safarlari davomida boshqa mamlakatlarning tarixi, etnografiyasi, tili, adabiyoti, folklori, geografiyasi, millatlarning udumlari, an'ana hamda odatlari, boy madaniy merosi bilan yaqindan tanishganlar va ular haqida bebaho asarlar, memuar va xotiralar, solnomalar yozib qoldirganlar. Misol uchun buyuk tarixchi Aristobul makedoniyalik Aleksandrning Sharq mamlakatlariga qilgan harbiy yurishlarida ishtirok etgan. U Hindiston, Eron, Misr, O'rta Osiyo singari qator mamlakatlar haqidagi xotiralarida u yerlarda yashovchi xalqlar hayoti, madaniy darajasi, odatlari, marosimlari, harbiy salohiyati haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirgan.

XIII asrda yashagan buyuk italiyan sayyohi Marko Polo esa Xitoyga sayohat qilgan. Uning 17 yillik sayohati natijasida Chin yurti tarixi, etnografiyasi haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'lamiz.

Miloddan avvalgi 320-yilda yashab o'tgan fransuz tarixchisi Pifey o'z davri uchun murakkab bo'lgan ishini amalga oshiradi. Butun ingliz orollarini aylanib chiqadi va Norvegiya, Daniya, Shvetsiya, Islandiya singari skandinaviya mamlakatlariga sayohat qiladi. Pifeyning "Ummon haqida" deb atalgan asarida ko'plab geografik kashfiyotlar o'z ifodasini topgan. Ayniqsa, mazkur asar maxsus yoki yangi turistik yo'nalishlar ishiab chiquvchi turoperatorlar va gid - ekskursovodlar faoliyati uchun ahamiyatli sanaladi. Asarda aytilishicha, turistlarning ibtidosi sanalgan – ko'chmanchi qabilalar chorvachilik bilan

shug'illangan va ular bir yerdan ikkinchi bir joyga turli xil sabablar – tabiiy iqlim almashinishlari, tabiat inijliklari, harbiy yurishlar sababli ko'chib yurishgan hamda o'zlarining sayohatchi ekanligini anglab yetmaganlar. Bundan kelib chiqadiki, ingliz tilidagi *to move, another country, unfamiliar places, vagaries of nature, battle, moving, nomadism*; o'zbek tilidagi *ko'chish, notanish mamlakat, tabiat inijliklari, jang, ko'chib yurish, ko'chmanchilik* singari so'zlarni turizm sohasidagi ilk terminlar sifatida baholash mumkin.

Tarixdagi ilk ko'chmanchi qabilalar miloddan avvalgi 4-3 mingyilliklarda yashaganlar. Shimoliy va Markaziy Afrika, Osiyo hamda Janubiy Yevropa singari hududlarida ko'chmanchi qabilalarning ilk vakillari istiqomad qilganlar. Bugungi kunga qadar saqlanib qolgan aborigenlar, hindular singari qabilalar ilk ko'chmanchilarning avlodlaridir.

Adabiyotlar tahlili

Turizm terminologiyasini o'rganishda o'zbek tilshunosligining umumiy va maxsus manbalari muhim ahamiyat kasb etadi. Abdurahmanov va Rafiev (1992) hamda Mahmudov va Nurmonov (1995) tomonidan yaratilgan grammatik tadqiqotlarda o'zbek tilining nazariy va amaliy asoslari, jumladan, terminlarning tuzilishi va qo'llanish mexanizmlari yoritilgan.

Doniyorov (1977; 1986) ishlari texnik va umumiy terminologiyaning taraqqiyot bosqichlarini ochib beradi. Bu esa o'zbek tilida turizm terminologiyasining shakllanish jarayonini kengroq kontekstda baholash imkonini yaratadi. Shuningdek, Buranov (1983) ingliz va turkiy tillarning qiyosiy tipologiyasini tahlil qilib, xalqaro terminlarning o'zlashuvi va o'zaro ta'sirini izohlab beradi.

Nurmonov (2002) va Jamolxonov (2005) asarlarida o'zbek tilshunosligi tarixi va adabiy til taraqqiyoti masalalari keng yoritilgan bo'lib, ular turizm terminologiyasining milliy til taraqqiyotidagi o'rnini aniqlashda metodologik asos vazifasini bajaradi. Nazarov (2019) esa o'zbek tiliga kirib kelgan so'zlarning o'zlashuv jarayonini zamonaviy nuqtai nazardan tahlil qiladi.

Bundan tashqari, Mahmudov (2013) terminlarning obrazlilik va metaforiklik xususiyatlarini izohlaydi. Bu yondashuv turizm terminologiyasida ham o'z aksini topib, ayrim so'zlarning tarixiy ma'nosi bilan zamonaviy qo'llanishi o'rnatidagi semantik aloqani ko'rsatadi.

Umuman olganda, ko'rib chiqilgan adabiyotlar turizm terminologiyasining tarixiy ildizlarini, o'zlashuv jarayonlarini va semantik rivojlanishini o'rganishda nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tarixiy-qiyosiy tahlil – qadimiy manbalarda uchraydigan terminlarning ingliz va o'zbek tillaridagi shakllarini solishtirish. Qadimiy davr terminlari – ko'chmanchi

qabilalarning ko'chishlari, diniy ziyoratlar, savdogarlar va karvon yo'llari orqali shakllangan ilk turizmga oid so'zlar: ingliz tilida: *to move, another country, unfamiliar places, vagaries of nature, battle, moving, nomadism*; o'zbek tilida: *ko'chish, notanish mamlakat, tabiat injiqliklari, jang, ko'chib yurish, ko'chmanchilik*. Buyuk ipak yo'li va savdo aloqalari – xalqaro savdo yo'llari orqali kirib kelgan va turizm bilan bog'liq terminlar: inglizcha: *The Great Silk Road, caravan, caravanserai, sarban, khanaqoh*; o'zbekcha: *Buyuk ipak yo'li, karvon, karvonsaroy, sarbon, xonaqoh*. Adabiyot va tarixiy manbalar asosida solishtirish – Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanida ichki turizm (Toshkent–Marg'ilon safarlari, bo'zaxona, mashshoq xizmatlari) orqali terminologiyaning tarixiy ildizlari tahlil qilingan. Ulug'bek Hamdamning asarlarida karvonsaroy tasvirlari bilan bog'liq terminlarning qo'llanishi ko'rsatilgan. Zamonaviy terminlar bilan qiyos – qadimiy terminlarning bugungi inglizcha atamalar bilan qiyoslanishi: *mashshoq ↔ musician, live musician; soqiy/mug'bacha ↔ barmen; bo'zaxona xizmatlari ↔ restaurant services (entertainer, resident musician)*

Tilshunoslik tahlili – turizm sohasida qo'llaniladigan terminlarning semantik xususiyatlarini aniqlash. Terminlarning semantik xususiyatlari – turizmga oid atamalar (masalan, musician, live music, pianist, guitarist, entertainer) ma'nosi, qo'llanish sohasi va o'zbek tilidagi mos variantlari tahlil qilingan. Terminlarning aniqlik darajasi – umumiy tushunchani ifodalovchi (musician) va aniq sohani belgilovchi (restaurant musician, resident musician) terminlar qiyoslangan. Milliy tilga moslashuvi – inglizcha terminlarning o'zbek tiliga qanday tarjima qilinishi va qaysi hollarda to'g'ridan-to'g'ri o'zlashtirilishi (masalan, barmen) ko'rsatib berilgan. Sinonimik qatlam – ba'zi terminlarning milliy adabiyotdagi so'zlar bilan semantik yaqinligi (masalan, soqiy, mashshoq, mug'bacha ↔ barmen, musician) o'rganilgan.

Adabiy manbalar asosida kuzatuv – Abdulla Qodiriy, Ulug'bek Hamdam kabi adiblarning asarlaridan olingan misollar orqali turizm terminlarini tahlil qilish. Adabiyotdagi tarixiy tasvirlar – Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Otabekning safarlari orqali XIX–XX asrlar ichki turizmi va unga oid xizmat turlari (bo'zaxona, mashshoq xizmatlari) tahlil qilingan. Adabiy obrazlarda turizm terminlari – Ulug'bek Hamdamning "Bir piyola suv" hikoyasidagi karvonsaroy tasviri orqali qadimiy turizm infratuzilmasining terminlari kuzatilgan. Adabiyot va terminologiya o'zaro aloqasi – barmen, musician kabi zamonaviy terminlarning milliy adabiyotdagi ekvivalentlari (soqiy, mashshoq, mug'bacha) bilan qiyosiy tahlili olib borilgan.

Qiyosiy tarjima usuli – ingliz tilidagi terminlarning o'zbekchaga o'g'irilishidagi qiyinchilik va moslashuv jarayonini o'rganish. Inglizcha terminlarning o'zbekchaga o'g'irilishi – masalan, musician, live music, resident musician, entertainer kabi atamalarini o'zbek tilida mashshoq, jonli ijrochi, doimiy musiqachi, ko'ngilochar san'atkor tarzida ifodalash imkoniyatlari ko'rib chiqilgan. To'g'ridan-to'g'ri o'zlashgan terminlar – barmen kabi so'zlar o'zbek tilida tarjima qilinmasdan, asliyatda ishlatilishi qayd etilgan. Tarjima jarayonidagi qiyinchiliklar – ayrim terminlarning milliy tilimizda aniq ekvivalenti yo'qligi sababli, ularni qo'llashda ma'no torayishi yoki kengayishi holatlari aniqlangan. Madaniy moslashuv – ingliz tilidan kirib kelgan atamalarini milliy adabiyotdagi mavjud so'zlar (soqiy, mashshoq, mug'bacha) bilan semantik jihatdan qiyoslab, moslashtirish jarayoni ko'rsatib berilgan.

Natijalar

Turizm atamalarining ildizi qadimiy ko'chmanchi qabilalar hayotiga borib taqaladi. "Turizm atamalarining ildizi qadimiy ko'chmanchi qabilalar hayot tarziga borib taqaladi. Ularning bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yurishi, tabiiy sharoit va iqlim o'zgarishlari, hamda turli ijtimoiy-siyosiy omillar sababli yuz bergan harakatlanishlari dastlabki turizm unsurlarini vujudga keltirgan. Shu tariqa ko'chish, safar, karvon, yo'l, manzil kabi tushunchalar keyinchalik turizm terminologiyasining shakllanishiga asos bo'lgan.

Savdo karvonlari va "Buyuk ipak yo'li" orqali xalqaro iqtisodiy aloqalar bilan bir qatorda turizm terminologiyasi ham shakllandi (karvon, karvonsaroy, xonaqoh, sarbon va b.). Savdo karvonlari va "Buyuk ipak yo'li" nafaqat xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga, balki turizm terminologiyasining shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Aynan shu davrda karvon, karvonsaroy, xonaqoh, sarbon kabi tushunchalar tilga kirib, keyinchalik turizm sohasida qo'llaniladigan asosiy atamalar sifatida mustahkamlandi.

XIX–XX asrlarda ichki turizm faoliyatlari (masalan, "O'tkan kunlar" romanidagi Otabekning safarlari) orqali "bo'zaxona", "mashshoq" singari tushunchalar bugungi "restaurant musician", "live musician" terminlariga mazmun jihatdan mos keladi. XIX–XX asrlarda ichki turizm faoliyatlari, xususan, Abdulla Qodiriyning "O'tkan kunlar" romanidagi Otabekning safarlari misolida ko'rish mumkinki, o'zbek adabiyotida uchraydigan "bo'zaxona", "mashshoq" kabi tushunchalar mazmun jihatdan zamonaviy ingliz tilidagi "restaurant musician" va "live musician" terminlariga mos keladi. Bu esa milliy adabiyotimizda turizm terminologiyasining tarixiy ildizlari mavjudligini ko'rsatadi.

Ingliz tilidagi musician, pianist, guitarist, resident musician, entertainer terminlari o'zbek tilida qisman moslashgan va faol qo'llanmoqda. Ingliz tilidagi musician, pianist, guitarist, resident musician, entertainer kabi terminlar o'zbek tilida qisman moslashgan holda qo'llanmoqda va turizm sohasidagi zamonaviy xizmat turlarini ifodalashda faol ishlatilmoqda.

Muhokama

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, turizm terminologiyasi tarixiy jarayonlar ta'sirida shakllangan bo'lib, har bir davr turizmga oid yangi tushunchalar va terminlarni tilga olib kirgan. Masalan, Marko Polo va Pifey sayohatlari orqali terminlarning xalqaro muomalaga kirib kelishi kuzatiladi. Shuningdek, zamonaviy turizmga ingliz tilidan kirib kelgan terminlar (barmen, pianist, live music) o'zbek tilida faol qo'llanmoqda. Ularning bir qismi milliy adabiy merosimizdagi so'zlar bilan (soqiy, mashshoq, mug'bacha) ma'no jihatidan qiyoslanadi. Qadimgi savdo karvonlari va savdogarlik faoliyatini bugungi kundagi, biz yuqorida keltirib o'tgan, shop-turlarning tarixiy ko'rinishi deyish mumkin. Buyuk shoir Yusuf Xos Hojib o'zining "Qutadg'u bilig" ("Saodatga eltuvchi bilim") asarida savdo va xalqaro aloqalarning terminologiyaga ta'siri haqida gapirar ekan. "savdogarlarni bir tildan ikkinchi tilga nomni olib boruvchilar"¹ degan edi. Atoqli tarixshunos olim, professor G.Hidoyatov o'zining "Mening jonajon tarixim" asarida: Markaziy Osiyoga kelgan birinchi xitoylik elchisi (sayyohi) Chjan-Szyan ekanligini aytadi. Chjan Szyan Chin mamlakatining xun qabilalariga qarshi kurashida ittifoqchi izlab sayohatga chiqadi hamda qator mamlakatlarda bo'ladi. U yurgan yo'llar keyinchalik "Buyuk ipak yo'li" deb nomlangan xalqaro magistralga aylanadi. Mazkur savdo yo'li nafaqat xalqaro iqtisodiyotning taraqqiy etishida, balki uning barobarida qator boshqa sohalar, jumladan, turizm, turizm terminologiyasining rivojlanishida ham muhim ahamiyat kasb etgan. *Buyuk ipak yo'li, karvon, karvonsaroy, sarbon, xonaqoh (The Great Silk Road, caravan, caravanserai, sarban, khanaqoh)* singari so'zlar aynan savdo turizmi natijasida paydo bo'lgan. Bundan tashqari, ko'rishimiz mumkinki, xalqaro savdo aloqalari va savdogarlarga ko'rsatilgan xizmatlar bugungi xalqaro turizm va turizm terminologiyasi taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, buyuk o'zbek yozuvchisi, o'zbek romanchiligining asoschisi Abdulla Qodiriy "O'tkan kunlar" romanida asar qahramoni Otabekning Toshkent – Marg'ilon – Toshkent liniyasidagi sayohati haqida so'z yuritadi. Mazkur sayohat *ichki turizmga (domestic tourism)* misol bo'lib, u bir mamlakat ichida amalga oshirilgan. Otabekning qozoq kishilari tomonidan ochilgan bo'zaxonada ko'p marta tunab qolishi, bo'zaxona sohiblari uning otini otxonaga joylashtirishi, otga yem-xashak, ozuqa berilishi, Otabekka ko'rsatilgan boshqa qator xizmatlar – kechki ovqatning tashkil etilishi, bo'zaxo'rlik, vaqtning allamahal bo'lib qolganiga qaramasdan kuy chaluvchi sozanda - mashshoqning kelishi, uning Otabekka dutor bilan kuy chalib berishi - bularning barchasi turizm servislarning XIX-XX asrlardagi mamlakatimiz hududidagi ko'rinishi edi. Xususan, mashshoqning mehmon uchun buyurtma qilib olib kelinishi bugungi kundagi *restaurant musician, pianist, guitarist, live musician, resident musician, entertainer* singari terminlarning ma'nosiga to'g'ri keladi. Quvida mazkur terminlarning o'zbek tilidagi ta'riflarini ko'rib chiqamiz:

¹ Юсуф Хос Ҳожиб Қутадғу билик. – Тошкент: Фан, 1971. – С. 663.

3-jadval.

T/r	Ingliz tilida	Izohi
1	Musician	A person who plays a musical instrument, especially as a profession, or is musically talented.
2	Live music	Live Music means any sound comprised of instrumental music, song, or a combination of instrumental music and song, produced in whole or in part by a singer vocalizing or by a musician playing a musical instrument on the same premises as the sound source.
4	Pianist	A person who plays the piano, especially professionally.
5	Guitarist	A person who plays the guitar.
6	Resident musician	Being a resident musician means playing the same venue on a schedule. Residency used to be just a way to have some small steady income and exposure before making it big.
7	Entertainer	A person, such as a singer, dancer, or comedian, whose job is to entertain others.

- Musician: Bu sozandalikni ifodalovchi eng umumiy atama bo'lib, har qanday musiqachi uchun mazkur atamadan istifoda etish mumkin.

- Restaurant musician: Biz restoranlarda, ayniqsa, G'arb mamlakatlaridagi restoranlarda ovqatlanish vaqtida musiqa chalib turuvchi sozandalarga duch kelamiz. Mazkur termin o'zida aniqlik xususiyatini mujassam etgan bo'lib, u sozandaning aynan restoranda ishlashini bildiradi. Masalan: *Men Florensiyadagi restoranlarning biriga tashrif buyurganimda restoran musiqachilarining mahoratidan qoyil qolgan edim.*

When I visited one of the restaurants in Florence, I was impressed by the skill of the restaurant musicians.

- Pianist: Agar restoranda kuy chalayotgan sozanda pianino chalayotgan bo'lsa, biz unga nisbatan *pianist (pianinachi)* terminini ishlatamiz. Sayohatlardan ma'lumki, aksariyat hollarda restoran musiqachilari pianino va royl chaldilar. Masalan, *U restoranda ovqatlanish chog'ida pioninachidan Motsartning kuylaridan birini chalib berishini iltimos qildi.*

While eating at a restaurant, he asked the pianist to play one of Mozart's tunes.

- Guitarist: Agar restoranda kuy chalayotgan sozanda gitara chalayotgan bo'lsa, biz unga nisbatan *guitarist (gitarachi)* terminini ishlatamiz. Asosan, mazkur cholg'u asbobi barlar, klublar va kichik qahvaxonalarda ijro etiladi. Masalan: *Qahvaxona markaziga qurilgan sahnada gitarachi rok musiqalarini qoyillatib chalar edi.*

A guitarist was playing rock music on a stage set up in the center of the coffee shop.

- Live musician: Mazkur atama restoranlarda musiqaning jonli ijro etilishini ifodalaydi. Ma'lumki, restoran va boshqa turdagi ovqatlanish maskanlarida musiqalar ikki xil usulda jonli (*live*) va fonogramma orqali ijro etiladi. Masalan: *Fonogramma orqali ijro etiladigan musiqani yoqtirmaganim sababli shahar janubidagi "Durdona" restoraniga bordim. Chunki siz u yerda jonli musiqachilarni uchratishingiz mumkin.*

Since I don't like music played on phonographs, I went to the "Durdona" restaurant in the south of the city because you can meet live musicians there.

- Resident musician: Ba'zida restoranlarning taomlari emas, u yerdagi musiqachilarning mahorati sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Bunday hollarda restoranlar o'zining doimiy musiqachilariga ega bo'lishni afzal ko'radilar. Bu ham restoran marketingining bir turi hisoblanadi. Bu tushunchani ifodalovchi termin ingliz tilida *resident musician* deb yuritiladi. Masalan: *Men Qo'qondagi "Firdavs" restoraniga haftaning seshanba va juma kunlari boraman. Chunki haftaning bu kunlarida u yerda doimiy musiqachilari men sevgan kuylarni ijro etadilar.*

I go to the Firdavs restaurant in Kokand on Tuesdays and Fridays because on these days of the week, the resident musicians there play the songs I love.

- Entertainer: Mazkur atama musiqa chalayotgan sozanda tashrif buyurgan mehmonlarning ko'nglini xushnud etishni uddalayotganligini bildiradi. Masalan: Ko'chaning chetidagi restorandan ko'ngilochar musiqa eshitiladi edi. Shu sababli biz shu joyga borishni ma'qul ko'rdik.

There was entertainment music playing from a restaurant across the street, so we decided to go there.

Bulardan ko'rinadiki, sayyoh va mehmonlarga musiqiy xizmat ko'rsatish bilan bog'liq o'zbek tilidagi xizmat turlari ancha ilgari paydo bo'lgan. Faqatgina alohida nomlar bilan atalmagan. Sohaning mamlakatimizda ham taraqqiy etishi natijasida bugungi kunda yuqorida sanab o'tilgan atamalar iste'molda anchagina keng qo'llanilmoqda. Bu jarayon o'zbek tilida turizm terminlarini qabul qilish va moslashtirishda ikki yo'nalishni ko'rsatadi:

1. **Tarixiy ildizlar asosida rivojlanish** – eski terminlarning yangi mazmun kasb etishi.

2. **Xorijiy ta'sir asosida boyish** – inglizcha terminlarning o'zbekchada qo'llanilishi.

O'zbek adabiyoti tarixiga nazar solar ekanmiz, unda yaratilgan qator asarlarda turizm bilan bog'liq atamalarning ildizlari bitilgan o'rinlarga ko'zimiz tushadi. Jumladan yozuvchi, adabiyotshunos Ulug'bek Hamdamning "Bir piyola suv" hikoyasidan olingan quyidagi parchaga e'tibor qaratamiz: "Bir mahal uzoqdan sardobamonand nimadir ko'zga chalindi. Boshda ko'pda umidlanmadim, zero sarobdan yurak oldirib qo'ygandim-da. Biroq yovuqlashsam xamki, sardobaning qorasi o'chavermedi. Qaytaga tobora tiniq tortib, ko'z o'ngimda butun mahobati bilan yuksalib, qad ko'tardi. U - yo'l chetidagi kattakon karvonsaroy bo'lib chiqdi. Quvonganimdan otlarni qanday to'xtatib, aravadan qanday tushganimni-yu, ko'z ochib yumguncha tabaqalari lang ochiq darvoza qarshisida qanday paydo bo'lganimni bilmayman. Oh! Shu tobda menga hayot go'yo qaytib berilgandek edi!..

Bugungi kunda o'zbek tilida sharoib quyib beruvchi xodim ma'nosida ingliz tilidan farqli ravishda *barmen* atamasidan keng foydalaniladi. Bundan ko'rinadiki, *barmen* atamasini mumtoz adabiyotimizda qo'llangan *soqiy* hamda *mug'bacha* singari so'zlarning bugungi kunda qo'llanadigan varianti sifatida qabul qilish mumkin.

Bugungi kunda o'zbek tilida sharoib quyib beruvchi xodim ma'nosida ingliz tilidan farqli ravishda *barmen* atamasidan keng foydalaniladi. Bundan ko'rinadiki, *barmen* atamasini mumtoz adabiyotimizda qo'llangan *soqiy* hamda *mug'bacha* singari so'zlarning bugungi kunda qo'llanadigan varianti sifatida qabul qilish mumkin.

Mamlakatimizda madaniy turizm sohaning boshqa turlarga qaraganda ko'proq rivojlanganligini va uni amaliy jihatdan tadqiq etish, kelgusida istiqbolli faoliyatini amalga oshirishga qaratilgan yondashuvlarni belgilab berish shu kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. Toshkent, Samarqand, Buxoro, va Xorazm kabi madaniy turizm rivojlangan viloyatlarning har birida turizm bo'yicha erishilayotgan rentabellik ko'rsatgichlari chet eldan kelayotgan sayyohlar hisobiga keyingi yillarda sezilarli ravishda ortdi. Turizm borasida so'z yuritilgan ekan, ilmiy muhitda madaniy turizmning boshqa turizm turlaridan nimasi bilan farq qilishini aniq asoslab berish masalasi ko'tariladi. Shu sababli, madaniy turizmni mahalliy shart- sharoitlarni inobatga olgan holda atroflicha o'rganish shu kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi. O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi buyuk Istiqlol g'oyasining ilk g'alabasi, uning erki, huquqi, to'liq amal qilishi uchun kurash yurtimiz tarixida mustaqillik uchun kurashning ramzi sifatida abadiy qoladi. Yosh avlod qalbi va shuuriga Ona vatanga cheksiz muhabbat, milliy Istiqlol g'oyalarga sadoqat tuyg'ularining chuqur singdirib borilayotgani shu abadiylikning kafolatidir. Bu jarayonni davom ettirish, tilimiz sofligi va betakror jozibasi uchun kurashish har birimizdan jiddiy mas'uliyat talab qiladi. Chunki til milliy ong, milliy g'oya va milliy mafkurani shakllantiruvchi, ularning uzviyligini ta'minlovchi yetakchi vosita sanaladi. Bunda terminologiya va hujjatchilikning o'rni va ahamiyati beqiyosdir.

Tarjima xalqlar o'rtasidagi madaniy va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlovchi omil bo'lib, u turli millatlar va tillar o'rtasida hamjihatlikni ta'minlaydi. Ayniqsa turizm sohasida tarjima madaniyatlararo kommunikatsiyaning ajralmas qismiga aylangan: sayyohlik matnlari orqali bir xalq o'z boy madaniy merosi va an'alarini boshqa xalqlarga tanishtiradi. Turistlar uchun mo'ljallangan adabiyotlar, sayohatnomalar va reklama materiallari tarjimai nafaqat axborotni yetkazadi, balki madaniy moslashuvni ham talab qiladi: matnlar maqsadli auditoriya madaniy xususiyatlariga muvofiq ravishda lingvokulturologik moslashtirilishi zarur bo'ladi. Shu bois turizmga oid tarjimalarda aniq mazmunni etkazish (ekvivalentlik) bilan birga matnni maqsad madaniyatiga mos shaklda qayta ifodalash (adaptatsiya) masalalari dolzarbdir.

Turizm sohasida qo'llaniladigan maxsus atamalar, ya'ni turizm terminologiyasi alohida leksik tizimni tashkil etadi. Yuqoridagi fasllarda ta'kidlab o'tganimizdek, o'zbek tilida turizm terminologiyasi endigina shakllanib kelayotgan bo'lib, hali to'la nazariy o'rganilmagan tizimdir.

Ma'lumki, XX asrda ko'plab sohalarga oid terminlar o'zbek tiliga asosan rus tili vositasida Yevropa tillaridan kirib kelgan edi. Mustaqillikka erishilgach esa, ko'plab yangi turizm atamallari bevosita ingliz va boshqa chet tillaridan o'zlashmoqda. Turizm terminlarining kelib chiqishida yunon va lotin tilidan olingan xalqaro termin elementlari ham ko'p uchraydi.

Globalizatsiya tufayli turizm leksikasi jahon bo'ylab unifikatsiyalashib bormoqda: ko'plab konseptlar turli tillarda bir xil yoki o'xshash atamalar bilan ifodalana boshlamoqda. Masalan, "turizm" tushunchasi ko'plab tillarda bir xil ma'noda qo'llanadi va xalqaro xarakter kasb etgan. Biroq, har bir til o'z milliy terminologik bazasini rivojlantirar ekan, ba'zan biror atamani tarjima qilishda muqobil variantlar (sinonimik terminlar) paydo bo'lishi mumkin. Ilmiy uslubda terminlarning aniq va birma'nolik bo'lishi talab etilganligi sababli, terminologiyada sinonimiya nomaqbul hodisa sifatida qaraladi. Shunga qaramay, turizm sohasida yangi paydo bo'lgan terminlar orasida sinonimlar yoki ma'nodosh variantlar uchrab turadi – bu hodisa terminologik tizim shakllanishining dastlabki bosqichlariga xos ekani ta'kidlanadi.

Tarjima nazariyasida ekvivalentlikning turli o'lchamlari ham farqlanadi. Ushbu masalada fikr yuritgan J. Ketford tarjima uchun situativ ekvivalentlik mezonini taklif etadi: olimning ta'kidlashicha, "tarjima ekvivalentligi mavjud bo'lishi uchun, asl va tarjima matnlari ma'lum bir vaziyatning funksional jihatdan dolzarb belgilari bo'yicha mos bo'lmog'i lozim". Bunda muhim omil – matnning kommunikativ vazifasi va vaziyatga mos ravishda tushunarli bo'lishidir. Ingliz tarjimashunosi Y. Nayda esa dinamik ekvivalentlik nazariyasini ilgari surib, tarjimada asosiy e'tiborni retseptor (qabul qiluvchi)ning reaksiyasiga qaratadi. Unga ko'ra, agar tarjima matni o'quvchisi (yoki tinglovchisi) original matn o'quvchisining reaksiyasiga maksimal darajada o'xshash ta'sirni his etsa, aynan shu holat ekvivalentlikning bosh mezon bo'ladi. Nayda tarjimada ma'no uyg'unligini saqlash bilan birga emotiv ta'sirni ham inobatga olish lozim deb hisoblaydi. Ya'ni, dinamik ekvivalentlik nazariyasida matnning ma'noviy mazmunigina emas, balki uning o'quvchi ongida uyg'otadigan kommunikativ effekti ham teng bo'lishi talab etiladi. Masalan, ingliz tilidan o'zbekchaga badiiy asar tarjima qilinganda, original matn kulguli joyda o'quvchi kulsa, tarjimada ham o'quvchida xuddi shunday kulgi hissi uyg'onishi dinamik ekvivalentlikning ta'minlanganidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurahmanov, X., & Rafiev, A. (1992). O'zbek tilining amaliy grammatikasi. Toshkent: Fan.
2. Abdurahmonov, G'. (1986). Terminologiya muammolari. In O'zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyot perspektivalari. Birinchi Respublika terminologiya konferentsiyasi materiallari (pp. 135–136). Toshkent: Fan.
3. Buranov, D. (1983). Sravnitel'naya tipologiya angliyskogo i tyurkskikh yazykov. Moskva: Vysshaya shkola.
4. Doniyorov, R. (1977). O'zbek tili texnik terminologiyasining ayrim masalalari. Toshkent: Fan.
5. Doniyorov, R. (1986). O'zbek tili terminologiyasi va uning taraqqiyoti. Toshkent: Fan.

Zamonaviy tarjimashunoslikda V. Koller ekvivalentlik konsepsiyasini yanada batafsil tasniflagan. U tarjimada ekvivalentlikning quyidagi besh turini ajratadi:

denotativ ekvivalentlik – mazmunni saqlashga qaratilgan, ya'ni asl matnning predmet-ma'nosi (invariant mazmun) to'liq berilishi;

konnotativ ekvivalentlik – stilistik jihatdan moslik, bunda tarjimada so'zning emosional, uslubiy va konnotativ ifoda qiymati muvofiqligi ta'minlanadi;

tekstual-normativ ekvivalentlik – matnning janr va uslubiy xususiyatlariga rioya qilish, nutq qonuniyatlariga mos bo'lish (masalan, rasmiy hujjatni tarjima qilganda rasmiy uslub me'yorlarini saqlash);

pragmatik (maqsadga yo'naltirilgan) ekvivalentlik – tarjimaning kommunikativ maqsadi asl matndagi maqsadga muvofiq bo'lishi, ya'ni tarjima kimga mo'ljallangani va nima maqsadni ko'zlagani inobatga olinib, shunga yarasha moslashtirish;

formal (estetik) ekvivalentlik – asl matnning badiiy-estetik va individual uslubini saqlash, muallifning o'ziga xos uslubini imkon qadar yetkazish.

Xulosa

Turizm terminologiyasining shakllanishi va rivojlanishi qadimiy davrlardan hozirgi kungacha bo'lgan tarixiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liqdir. Qadimiy ko'chmanchi qabilalardan boshlangan sayohat madaniyati savdo karvonlari, Buyuk ipak yo'li, diniy ziyoratlar va ilmiy safarlar orqali kengayib, o'zbek va ingliz tillarida turizmga oid atamalar tizimini shakllantirgan.

Tadqiqot natijalaridan ko'rinadiki, ingliz tilida paydo bo'lgan ko'plab zamonaviy terminlar (musician, live music, resident musician, entertainer va b.) bugungi kunda o'zbek tilida ham faol qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, milliy adabiyotimiz va tarixiy manbalarda uchraydigan "mashshoq", "soqiy", "karvonsaroy" kabi so'zlar zamonaviy turizm terminologiyasining ildizlari sifatida talqin etilishi mumkin.

Demak, o'zbek tilidagi turizm terminlari ikki asosiy manbadan boyib bormoqda:

Tarixiy meros – qadimiy tushunchalar yangi ma'no kasb etib, zamonaviy turizm terminlariga zamin yaratmoqda.

Xorijiy ta'sir – ingliz tilidan kirib kelgan terminlar o'zbek tilida moslashib, keng iste'molga kirmoqda.

Mazkur jarayon turizm terminologiyasining xalqaro miqyosda boyishini, milliy tilimizning esa zamon talablari bilan uyg'unlashib rivojlanayotganini yaqqol ko'rsatadi.

6. Nazarov, P. J. (2019). O'zbek tiliga o'zlashgan so'zlar xususida. Xorijiy filologiya, 4, 54–58.
7. Nurmonov, A. (2002). O'zbek tilshunosligi tarixi: Oliy o'quv yurtlari o'zbek filologiyasi fakultetlarining talabalari uchun o'quv qo'llanma. Toshkent: O'zbekiston.
8. Jamolxonov, X. (2005). Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Talqin.
9. Mahmudov, N., & Nurmonov, A. (1995). O'zbek tilining nazariy grammatikasi (sintaksis). Toshkent: O'qituvchi.
10. Mahmudov, N. (2013). Termin, obrazli so'z va metafora. O'zbek tili va adabiyoti, 4, 3–6.

**QO'QON UNIVERSITETI
XABARNOMASI**

**KOKAND UNIVERSITY
HERALD**

**ВЕСТНИК КОКАНДСКОГО
УНИВЕРСИТЕТА**

15 / 2025

ISBN: 2181-1695

